

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI  
O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

**Yu.A.ERGASHEVA, D.I.VASIYEVA**

# **O' Z B E K I S T O N**

## **T A R I X I**

Texnik yo'nalishdagi barcha bakalavr talabalari uchun darslik

**2022**

**УДК 351.687.74**

**БВК 32.10.53**

**E-99**

**Yu.A.Ergasheva, D.I.Vasiyeva.**

O‘zbekiston tarixi: Eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo‘lgan davrni aks ettiruvchi masalalar tahlil etilgan: Texnik yo’nalishidagi barcha bakalavr talabalari uchun darslik. **Yu.A.Ergasheva, D.I.Vasiyeva.**; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti.- Toshkent: , 2022.-468 b.

**ISBN ISBN 978-9943-978-22-9**

**978-9943-978-22-9**

**УДК 351.687.74**

**БВК 32.10.53**

**Mas’ul muharrir:**

**Yu.A.Ergasheva**

**Tarix fanlari doktori, professor**

**Taqrizchilar:**

**Z.R.Ishanxodjayeva, tarix fanlari doktori**

**L.Babaxodjayeva, tarix fanlari doktori**

Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengashning o’quv-uslubiy birlashma va komissiyalari tomonidan ijobjiy xulosa berilgan va nashrga tavsiya etilgan (9.09. 2022 y., 302-son buyrug’iga 6-ilova).

**ISBN ISBN 978-9943-978-22-9**

Ergasheva Yu.A., Vasiyeva D.I. O‘zbekiston tarixi: 2022 y.

## KIRISH

O‘zbekiston o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlab olganiga ham qariyb 30 yildan oshdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, Vatanimiz tarixini xolisona, hech qanday bo‘yoqlarsiz, haqqoniy o‘qitish, xususan Oliy ta’lim muassasalarining I-bosqich talabalariga qadimgi davrdan to hozirgi kungacha ajdodlarimizning bosib o‘tgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot yo‘lini o‘rgatish belgilab qo‘yildi. Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ma’naviy yangilanishlar bois mamlakatimiz jadal rivojlanib bormoqda.

Har bir O‘zbekiston fuqarosi, o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z tarixini, ajdodlari bosib o‘tgan yo‘lini o‘rganish, haqiqiy mard, jasur, vatanparvar shaxs sifatida shakllantirish, qoldirilgan boy ma’naviy merosdan bahramand bo‘lish kabi ezgu maqsad belgilangan.

Mamlakatimizning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og’ir va mashaqqatli kurashining mahsulidir. O‘zbekiston tarixi mustaqillik xalqimizning azaliy orzusi yekanligi, va bu nihoyatda qimmatga tushganidan, bu yo’lda katta qurbanlar berilganligidan guvohlik beradi. Endilikda xalqimizning o‘z taqdiri o‘z qo’lida, o‘z mamlakatining mustaqilligini mustahkamlash yo’lida astoydil mehnat qilmoqda. O‘zbekiston xalqi, xususan, yoshlar qalbiga milliy istiqlol g’oyasini singdirish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda «O‘zbekiston tarixi» fanining o’rni, imkoniyatlari katta. Tarix, bo’lib o‘tgan tarixiy voqeа va hodisalarni tahlil qilish, fikrlash va ulardan hayotiy xulosalar chiqarish asosida dasturiy harakatlar yo’llanmasini belgilashga yordam beradi. Milliy o’zlikni anglashga, shakllantirishda shajaramiz ulug’ligi va pokligini bilishda, xalqimizning jahon xalqlari orasida tutgan o’rniga baho berishda, xalqimizning buyuk fazilatlari: oliyjanob, vatanparvar va erkparvar an’analarini izchil o‘rganish, barkamol inson shaxsini yaratishda O‘zbekiston tarixinining o’rni nihoyatda kattadir.

O‘zbekiston tarixi fanidan hammualliflikda tayyorlangan mazkur darslikda tariximizning qadimgi davridan to hozirgi kungacha bo‘lgan davri qamrab olingan. Shuningdek, mustaqil O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni milliy mustaqillikni qadriga yetish, fidoyilik, milliy birlik, vatanparvarlik, baynalmilallik ruhida tarbiyalash sohasida “O‘zbekiston tarixi“ fanini chuqur o‘rganish alohida ahamiyatga egadir.

Mustaqillik yillarda Vatanimiz tarixini har tomonlama va izchil o‘rganish borasida samarali ishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, tadqiqotlar yanada chuqurroq va har tomonlama davom ettirilishi lozim bo‘lgan dolzARB mavzular talaygina. Shu nuqtai-nazardan mazkur darslik mualliflari o‘zbek davlatchiligi tarixi, o‘troq dehqonchilikning yoyilishi va dastlabki shahar madaniyati, o‘zbek xalqining kelib chiqishi, Uyg‘onish davri madaniyati, O‘rta Osiyo xonliklaridagi o‘zaro munosabatlar, mahalliy xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, O‘zbekistonning sovet mustamlakachiligi davri ziddiyatlarga boy tarixi masalalariga alohida e’tibor qaratdilar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston tarixi nihoyatda boy va rang-barangdir. O‘lkamiz hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri hisoblanib, bu yerda dunyo sivilizatsiyasidagi mahalliy xalqlarga xos tarixiy-madaniy jarayonlar bo‘lib o‘tgan. O‘lkamiz hududlarida dunyo sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirgan olimu fuzalolar, davlat arbobi, buyuk sarkardalar yetishib chiqqan.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasи professor-o‘qituvchilari prof. Yu. Ergasheva, dots. D.Vasiyeva tomonidan tayyorlanib, o‘quvchilar hukmiga havola etilayotgan darslik oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining nomutaxassis yo‘nalishdagi talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib mazkur darslik yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalarda ilgari surilgan masalalarni o‘zida jam etgan va u o‘z ichiga eng qadimgi davrdan toki bugungi O‘zbekistonning tarixiy taraqqiyotini o‘z ichiga oladi. Darslikni tayyorlash jarayonida arxeologik, antropologik materiallar va O‘zbekiston tarixining turli davrlariga oid so’ngi

tadqiqotlar natijalari: darsliklar, o'quv qo'llanmalar, risolalardan keng foydalanildi. Jumladan, darslikda "O'zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati", "Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri", "O'zbek davlatchiligi, uning poydevori va taraqqiyot bosqichlari. Milliy davlatchilik qurilishi tajribasi", "V-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot", "IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot. O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergen uyg'onish davri", "Mo'g'ullar istilosini va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin manguberdi – vatan himoyachisi", "Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligi. Temur tuzuklari va hozirgi zamon", "O'zbekiston hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari", "O'zbek xonliklarining Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik", "Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va unga qarshi qurolli harakat. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati", "Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi", "O'zbekistonda sovet davlatining amalga oshirgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy siyosati va uning oqibatlari (1946-1991 yy.)", "O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi", "Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston va jahon hamjamiyati" kabi masalalar bayon qilingan. Har bir mavzu so'ngida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, tayanch tushunchalar, nazorat savollari va topshiriqlar berildi.

Darslik yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar mualliflar jamoasi tomonidan minnatdorchilik bilan qabul qilinadi.

## **I- mavzu: O‘ZBEKISTON TARIXI FANINING PREDMETI, NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI, MANBALARI VA AHAMIYATI**

**Reja:**

- 1.O‘zbekiston tarixi fanining predmeti va tadqiqot obyekti.
2. O‘zbekiston tarixini o‘rganishning nazariy metodologik tamoyillari.
3. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish. Uni o‘rganishda tarixiy manbalarning o’rni va ahamiyati.
4. O‘zbekiston tarixini o‘rganishning har tomonlama yetuk inson tarbiyalashdagi ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** Fanning predmeti va dolzarb muammolari, davrlashtirish, moddiy va yozma manbalar, davlatchilik, xolislik, ilmiylik, diolektik uslub, jahon tarixi bilan bog‘liqligi, insonparvarlik, qadimgi davr, o‘rta asrlar davri, yangi davr, voqeа va hodisalar, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto», manbashunoslik, madaniy meros, arxiv manbalari, komil inson tushunchasi, O‘zbekiston tarixini yangicha tamoyillar asosida o‘rganish.

### **I. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti va tadqiqot obyekti.**

Tarix-jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi fandir. Tarix – insoniyat turmusn tarzining rivoji, jamiyat va davlatlar o’tmishi, taraqqiyotini o‘rganuvchi fandir.

XX asrning mamlakatimiz xalqlari uchun bergan eng buyuk va oljanob ne‘mati bu O‘zbekiston milliy davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilganidir. Chunki, mustamlakachilik zulmi va muteligidan ozod bo‘lish, tom ma‘nodagi istiqlol-mustaqqillikka erishish xalqimizning uzoq yillardan beri kutgan ezgu armoni va orzusi edi. Bu maqsad yo‘lida millatning ming-minglab farzandlari o‘z jonlarini qurbon qildilar. O‘zbekistonning milliy davlat mustaqilligi, xalqimizning hur, erkin ozod yashab, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishdek buyuk baxt bugungi avlod vakillariga nasib etdi.

Ammo qo‘lga kiritilgan milliy davlat mustaqilligimizni saqlab qolish, uni siyosiy va iqtisodiy jihatdan yanada mustahkamlash va kelajagi buyuk davlatni barpo qilish mislsiz darajada murakkab va sharaflı vazifadir. Bu vazifaning qaydarajada bajarilishi mamlakatimiz fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy saviyasi, milliy istiqlol mafkurasining nechog‘lik ular ongida shakllanib hayotiy dunyoqarashiga aylanishi bilan mushtarakdir. Bu ulug‘vor vazifani hal etishda mamlakatimizdagi bilim maskanlari bilan bir qatorda oliv o‘quv yurtlari ham hal qiluvchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Mustaqillik sharofati bilan ta‘limning barcha bosqichlarida bo‘lganidek, O‘zbekiston tarixini o‘rganish, uni o‘qitishga bo‘lgan munosabat oliv o‘quv yurtlarida ham tubdan o‘zgardi. Ma‘lumki, mamlakatimiz oliv o‘quv yurtlarida, qaysi yo‘nalishdagi mutaxassislar tayyorlanishidan qat‘iy nazar, bir turkum ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitiladi. Shu fanlar orasida O‘zbekiston tarixi fani o‘ziga xos alohida o‘rinni egallaydi.

*«Qaysi millat yashashni istasa tarixni bilishi lozim bo‘ladi, zero tarix bir ko‘zguga o‘xshaydi»*

### *Abdurauf Fitrat*

O‘zbekiston tarixi fani oliv o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida o‘zining jamiyat hayotida tutgan o‘rni va mavqeiga ko‘ra asosiy va yetakchi fanlardan hisoblanadi. Shu boisdan ham bu Vatan tarixining ibtidosi-o‘lkashunoslik ekanligini e‘tiborga olgan holda oliv o‘quv yurtlarining barcha mutaxassisliklarida, qaysi kasb-hunarni egallahidan qat‘iy nazar, O‘zbekiston tarixi fani o‘qitilmoqda. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekiston tarixi fani oldiga qo‘yilgan bir qator muhim vazifalarni bajarish bilan bog‘liqdir.

Tarix - arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “o‘tmish”, “o‘tgan voqealar haqida aniq hikoya qilish” ma’nolarini anglatadi. Tarix butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining uzoq o‘tmishidan to hozirgi kunlargacha bosib o‘tgan hayotiy yo‘lini, avloddan avlodga meros qoluvchi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy taraqqiyotini, davlat qurilishi sohalaridagi tajribalarini xolisona

o‘rganuvchi fandir. Shuningdek, O‘zbekiston tarixi umumjahon – insoniyat tarixinining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O‘zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo’lganligini, jahon tarixi taraqqiyotiga qo’shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o’rganadi.

Ana shunday qadimiy va buyuk mamlakat tarixini o‘rganishda O‘zbekiston tarixi fani oldiga qo‘yilgan bir qator muhim vazifalarni bajarish bilan bog‘liqdir, Xususan:

**Birinchidan**, O‘zbekiston tarixi fani yoshlar ongida siyosiy, nazariy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, voqeа va hodisalarga tarixiy nuqtai nazardan yondoshadigan har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi;

**Ikkinchidan**, O‘zbekiston tarixi mustaqil O‘zbekiston yoshlar ongida milliy vijdonni uyg‘otib, uning shakllanishiga ko‘maklashadi. Yoshlar ajdodlarimizning taraqqiyot yo‘lini tarixiy tajribalarni o‘qib o‘rganganlaridagina ularning ongida istiqlol tafakkuri, hozirgi ijtimoiy- siyosiy iqtisodiy va madaniy-ma‘rifiy turmushni o‘tmish bilan taqqoslash va keljakka nazar solish tuyg‘usi shakllanadi;

**Uchinchidan**, O‘zbekiston tarixi fani yoshlarni Ona Vatanga mehr-sadoqat hamda harbiy vatanparvarlik an‘analari ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi;

**To‘rtinchidan**, O‘zbekiston tarixi fani yoshlarimizni baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash quroli hamdir. Yoshlarimiz bu fanni o‘qish, o‘rganish va mutolaa qilish jarayonida O‘zbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas tarkibiy qismi va bir bo‘lagi ekanligini tushunib oladilar, o‘zbek xalqi va buyuk allomalarimizning fan va madaniyat arboblarimizning jahon taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga qo’shgan va qo‘shayotgan munosib hissasi bilan qonuniy ravishda faxrlanadilar.

Va nihoyat, **beshinchidan**, O‘zbekiston tarixi fani yosh avlodni o‘zbek xalqining milliy qadriyatları va axloqiy fazilatlari: halollik, poklik, odillik, adolatlilik, insonparvarlik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik va kamtarinlik, iymon va e‘tiqodlilik sabr-toqat va chidamlilik ruhida tarbiyalashda, Vatan va xalq oldidagi

barcha sadoqatlilikni qaror toptirishda oliyjanob vazifani bajaradi.

“O‘zbekiston tarixi” fani dunyodagi eng qadimiy va boy tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining qariyib uch ming yillik tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini o‘rgatuvchi fandir. Markaziy Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda yashab kelayotgan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga munosib hissa qo‘sib kelmoqdalar. O‘zbek xalqi Markaziy Osiyodagi barcha xalqlar qatorida doimo erkinlik, hurlik, ozodlik va mustaqillik uchun mustamlakachilar va yot kelgindilarga qarshi kurash olib borgan va shu jihatdan u o‘zining inqilobiy an‘analariga egadir.

O‘z xalqimiz, o‘z ona yurtimiz, o‘z tuprog‘imiz tarixini, o‘tmishimizni chuqr anglashimizdan asosiy maqsad nima?

Avvalambor, **birinchidan**, bugungi O‘zbekiston jahon xaritasida paydo bo‘lgan tasodifiy mamlakat emasligini, ildizlari nihoyatda chuqr va qadimiy ekanligini dunyoga ko‘rsatishdir;

**Ikkinchidan**, sobiq sho‘ro siyosati va kommunistik mafkura tazyiqi bilan soxtalashtirilgan tarixni o‘z o‘rniga qoyish, tarix va hayot haqiqatini ilmiy haqiqat asosida qayta tiklash;

**Uchinchidan**, shu asosda xalqimiz, ayniqsa yosh navqiron avlodimiz qalbida milliy g‘urur, milliy iftixor, o‘z ajdodlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini kuchaytirish, buyuk o‘tmishga munosib buyuk millat bo‘lish, ertangi kunga katta ishonch va istiqlolga e‘tiqod bilan yashashni turmush tarziga aylantirish.

Tarix, donishmandlar aytganday, ulug‘ murabbiyidir. U yuz bergen hodisalar mohiyatidan kelib chiqib saboq beradi. Hayotda sarakni-sarakka, puchakni-puchakka ajratishga da‘vat etadi. Agar tarixga shunchaki voqealar bayoni, hodisalar tafsiloti sifatida qaralsa, uning murabbiylik ahamiyati yo‘qoladi. Nursiz, haroratsiz, jozibasiz, kishi ruhiyatiga ta‘sir etmaydigan bir narsaga aylanadi.

Tarix - tafakkur mahsuli. O‘tmishimizda yuz bergen har bir hodisa ma‘lum ma‘naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy muhit ta‘sirida yuz bergen. Yaxshilik - yomonlik, ezgulik yoki yovuzlikmi, bundan qat‘iy nazar, har qanday hodisa o‘z davri

kishilarining qalbi, ongi, shuri, ma‘naviy qudrati mahsulidir. Demak, unga nazar solganda, asrlar silsilasini varaqlaganda alohida hayajon, alohida intiqlik va zukkolik bilan qarash kerakki, voqealar zamiridagi mantiq, falsafa, ruhiyat, siyosat, qo‘yingki, har davrning o‘ziga xos shukuhi-yu tashvishlari, sevinch-u iztiroblari yaxlitligi ko‘zga yaqqol tashlansin. Ongimiz va shuurimizga mustahkamroq o‘rnashsin. Ana shunda tarix kishini fikrlashga o‘tmishni belgilashga yordam beradi. Tarixning tafakkur mahsuli va ulug‘ murabbiyligi, oliv qadriyat ekanligini ana shu bilan belgilanadi.

## **2. O‘zbekiston tarixini o‘rganishning nazariy metodologik tamoyillari.**

O‘zbekiston tarixini yaratish va uni o‘rganish ko‘p jihatdan to‘g‘ri, nazariy va metodologik asoslarning ishlab chiqilishiga, ularning amaliy hayotga tadbiq etilishiga bog‘liq. Tarixiy voqealarni o‘rganishda puxta va chuqur ishlab chiqilgan ilmiy- nazariy, metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Afsuski, sovetlar hukmronligi davrida tarixni o‘rganish va o‘qitish ishlari marksistik metodologiyaga bo‘ysundirildi. Har bir voqeani yoritishda komfirqa mafkuraviyili, partiyaviyilik, sinfiylik nuqtai nazardan yondoshildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga-ekspluatator va ekspluatatsiya qilinuvchilar, quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag‘allar, mulkdorlar va mulksizlar tarixiga bo‘lindi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari, ruhoniylar qoralandi, nomlari badnom qilindi.

Tarixiy voqealar jamiyat a‘zolarining qismi kambag‘allar va yo‘qsillarni himoya qilgan holda, ularning manfaatiga bo‘ysundirilgan holda yoritildi. Din, diniy qadriyatlar qoralandi, insonlarning diniy e‘tiqodlari oyoqosti qilindi, ruhoniylar quvg‘in ostiga olindi. Buyuk olimlar, allomalar, ma‘rifatparvar shoiru-ulamolar, yozuvchilar ikkiga - materialistlar va idealistlarga bo‘lindi. Ulardan u yoki bu dinga e‘tiqod qilganlari idealist deb ataldi va shuning uchungina ta‘qib etildi, ularning faoliyatini o‘rganish ta‘qilandi, o‘zları taxqirlandilar, asarlari xalqdan yashirildi, yo‘qotib yuborildi. Oqibatda ko‘pgina tarixiy voqealari soxtalashtirildi,

o‘tmish qoralandi, ma‘naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz haqoratlandi. Yosh avlodga ularni jirkanch illat, xurofot, eskilik sarqitlari, deb o‘rgatildi. Tarix faqat jangu-jadal, urushlardan iboratdek qilib ko‘rsatildi. Xalqimiz tarixining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligini aybdor deyish kifoya qilmaydi albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bo‘lgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bo‘ldi. Tarix esa totalitar tuzum xizmatchilariga, targ‘ibotchi va himoyachisiga, kommunistik mafkura dumiga aylantirilgan edi. O‘zbekiston tarixini o‘rganishning bir qator ilmiy - nazariy va metodologik asoslari mavjud bo‘lib, ular chuqur ilmiylik, rostgo‘ylik, tarixiylik, izchillik, xaqqoniylik va boshqalardan iborat. Bu kabi nazariy-metodologik asoslar tarixiy tasavvurni, tushuncha va xulosalarning ilmiy-amaliy va uslubiy jihatdan to‘g‘ri hosil qilinishiga poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Tarixni o‘rganish va o‘qitish jarayonida milliy istiqlol, vatanparvarlik, insonparvarlik, baynalmilallik kabi ulug‘ fazilatlarni xalqimiz an‘analari, urf-odatlari, diniy e‘tiqodlari kabi milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga chuqur singdirish, ularni e‘zozlash ustivor vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga moziyga hurmat bilan qarash, milliy tiklanish tafakkuri, yondashuv ruhini yoshlar dunyoqarashida shakllantirish lozimdir.

Keyingi paytda O‘zbekiston tarixi fani metodologiyasini yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Avvalo, metodologiya haqida to’xtalsak, metodologiyaning lug’aviy ma’nosi grekcha “Metodos” va “Logos” degan ikki so’z birikmasidan iborat bo‘lib, metod, ya’ni usul – tadqiqot olib borish usuli (yo’li), nazariya, ta’limot, logiya esa, fan deganidir. Demak metodologiya ya’ni, uslubiyat ilmiy tadqiqot olib borish yoki biror bir masalani ilmiy o‘rganishning eng qulay usullari, eng to‘g‘ri va mukammal g’oyasi, nazariyasi va ta’limotlari majmuidan iborat bir butun fandir.

Tarix faninini o‘qitish metodologiyasi deganda, bu yo’nalishdagi ilmiy bilimlarning tuzilishi va rivojlanishi, ularning natijalarini asoslash yo’llarini amaliyotda mazkur fanga xos bo‘lgan ilmiy bilimlar mexanizmini samarali tadbiq etish tushuniladi. Tarix fani metodologiyasi deganda, tarix fanlari doirasidagi ilmiy bilimlarning tuzilishi tamoyillariga, shakli va ilmiy jihatdan tarix fani doirasida

qo'llaniladigan ta'limotiga aytildi.

Kishilik jamiyatining tarixini, tarixiy voqeа va hodisalarni o'rganishning muhim nazariy- metodologik asoslaridan biri jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ochib beruvchi dialektik metoddir. Insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti - dialektik jarayondir. Dialektika amalda yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va bog'lanishda, uzlusiz harakatda, ziddiyatli taraqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi. Dialektika juda uzoq tarixga ega, uning bilish nazariyasi sifatida shakllanishi va rivojlanishida Geraklit, Aristotel, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ulug'bek, Dekart, Spinoza, Gegel, Gertsen va boshqa olim va ma'rifatparvarlarning xizmati kattadir. Ular tabiat, tarixiy va ma'naviy dunyoni bir jarayon shaklida, ya'ni ularni uzlusiz harakat qilib, o'zgarib, rivojlanib boradigan holda, taraqqiyotni ichki bog'lanishda olib o'rganish metodologiyasini yaratdilar. Har qanday fanni o'rganishda qo'llaniladigan yagona dialektik qonuniyatga asoslangan usul, ya'ni dialektik metod, O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishda ham asosiy nazariy metodologiya hisoblanadi. O'zbekiston tarixi fani, boshqa ijtimoiy- gumanitar fanlar kabi, doimo harakatda bo'lib, o'zgarib, rivojlanib, boyib boradi. Bu fanning yana shunday o'ziga xos xususiyati borki, tarixiy fan bo'lgani uchun ham, avvalambor, boshqa fanlarga qaraganda u tez va ko'proq boyib boradi. Bir tomondan tariximizning ochilmagan "qo'riq"lari olimlarimizning ilmiy- tadqiqot ishlari natijasida ochilib, to'ldirilib borilaversa, ikkinchi tomonidan, mamlakatimizda, jamiyatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sohalaridagi qo'lga kiritilayotgan yutuqlar tariximiz sahifalarini kun sayin boyitaveradi. Dialektik metodologiya har qanday mamlakat tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Negaki har bir xalq tarixida milliylik, o'ziga xos betakror xususiyatlari bilan birga jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiy bog'lanishdadir. Darhaqiqat, O'zbekiston tarixi avvalo Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa bashariyat tarixi bilan chambarchas bog'langan. Qadim zamonlardan yaqin yillargacha Vatanimiz O'rtal Osiyo mintaqasidagi ko'pgina davlatlar bilan - Afg'oniston, Eron, Shimoliy

Hindiston kabi mamlakatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bo‘lib keldi. Bu katta hududda yashovchi urug‘, qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo o‘zaro ta‘sir va aloqada bo‘lganlar, qo‘shilish jarayonini boshdan kechirganlar, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy hayoti bir-birlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli O‘zbekiston tarixini qo‘shti mamlakatlar tarixi bilan bog‘lab o‘rganish taqozo etiladi. Qozoq qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, fors, afg‘on, hind, arab va boshqa xalqlar tarixini qanchalik yaxshi bilsak, u O‘zbekiston xalqlari tarixini shunchalik chuqur, har tomonlama o‘rganishga imkon yaratadi, ko‘maklashadi. Tarixiy voqeа va hodisalarni o‘rganish, ularni tahlil etish va yoritishda holisona, haqqoniy,adolatli yondoshuv muhim metodologik qoidadir. Holislik qoidasini tarixiy voqeа, hodisalarni o‘rganayotganda ular bilan bog‘liq bo‘lgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmuyini birga olib tekshirishni, haqqoniy dalillarga asoslanishini talab qiladi, o‘zaro aloqada va munosabatda deb tekshirish lozimdir. Oldindan tug‘ilgan bir g‘oyani, uydirmani oqlash darkor bo‘lsa, faktlar silsilasidan faqat ayrim, mos keladiganlarinigina saylab, tanlab olinishi "tajribasi" sir emas, albatta bunaqa holatlar ham bo‘lgan. Lekin bunday yo‘l bilan chiqarilgan xulosa va baho holisona, haqqoniy bo‘lmay, u so‘zsiz bir tomonlamalikka olib keladi.

### **3. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish. Uni o‘rganishda tarixiy manbalarning o‘rni va ahamiyati.**

Ma’lumki, nafaqat O‘zbekiston, balki butun insoniyat tarixi uzoq va murakkab jaroyon bo‘lib, tarixiy-madaniy voqealarga boy hisoblanadi. O’rta Osiyoning turli hududlarida olib borilgan arxeologiya, antropologiya, etnografiya tadqiqotlari natijasida vatanimiz tarixini yoritish uchun xizmat qiladigan muhim ma’lumotlar to’plandi. Tarixni o‘rganishda yuqorida qayd etilgan metodologik qoidalar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy - qiyosiy xulosalar chiqarish, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston tarixini o‘rganish va yoritishda uning davrlarini ilmiy asosda

to`g`ri belgilash katta ahamiyatga egadir. Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan O`zbekiston xalqlari, yer yuzining qator hududlaridagi xalqlar kabi o`z tarixida insoniy taraqqiyotida sodir bo`lgan barcha ijtimoiy- iqtisodiy bosqich (formatsiya)larni bosib o`tgan emas. Bundan chiqadigan xulosa shuki, biz o`z tariximizni shu ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar asosida davrlashtirsak, tarixiy haqiqat soxtalashtirilgan bo`ladi. Shu sababdan biz o`z xalqimiz, Vatanimiz tarixini o`zbek davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog`lab davrlashtiramiz va o`rganamiz. Haqiqiy tarixiy jarayon nuqtai nazardan qarab, hech qanday "izmizm"larsiz O`zbekiston tarixiga yondoshadigan bo`lsak, uni quyidagi davrlarga bo`lamiz:

1. Qadimgi davr - eng qadimgi zamonlardan milodiy V asrga qadar.
2. O`rta asrlar davri - milodiy V asrdan XIX asr o`rtalariga qadar.
3. Yangi davr - XIX asrning o`rtalaridan hozirgi kunga qadar.

Tabiiyki, bu katta davrlar bir necha bosqichlarga bo`linadi. Xususan, birinchi -qadimgi davr - Markaziy Osiyo xalqlarining ibridoiy jamoa tuzumi, shu mintaqada dastlabki davlat tuzilmalarining, qadimgi (antik) davlatlarning tashkil topishi bosqichlardan iborat.

Ikkinci - o`rta asrlar davri quyidagi bosqichlarga bo`linadi: 1) Ilk o`rta asrlar - Markaziy Osiyo hududida yerga egalik munosabatlarining shakllanishi, eftalitlar davlati, Turk xoqonligining hukmronligi, arablar bosqini va islom dinining mahalliy xalq ma`naviyatiga kirib kelishi bosqichi bo`lib, V-VIII asrlarni o`z ichiga oladi; 2) Rivojlangan o`rta asrlar - Markaziy Osiyoda mustaqil markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi (IX-XII asrlar); 3) Amir Temur davlati va temuriylar davri (XIV asrning ikkinchi yarmi - XV asr); 4) O`zbek xonliklari davri (XVI- XIX asrning birinchi yarmi);

Uchinchi, yangi davr uch bosqichga bo`linadi:

1) XIX asrning o`rtalaridan 1991 yil sentyabriga qadar bo`lib, Chor Rossiyasining o`lkamizdagi mustamlakachiligi va sovetlar hokimiyatining istibdodi davri;

2) 1991 yil sentyabridan - 2016 yil Mustaqil O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot bosqichi.

3) 2017 yildan toki bugungi kungacha Yangilanayotgan O'zbekiston: milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. Bu xalqimiz, mamlakatimiz tarixida eng yangi davr - bu Milliy Uyg'onish, Milliy yangilanish va Milliy o'zligini anglash tushunchalarini o'zida mujassam etgan istiqlol davri. Jonajon O'zbekistonimizning mustaqillik davri tarixi endigini boshlandi, davom etaveradi!

Shuni ta'kidlasn lozimki, taklif etilayotgan ushbu davrlashtirish bu mavzuni yakunlamaydi. Vatanimiz tarixini o'qitish va o'rganish borasida dolzarb bo'lib turgan davrlashtirish masalalari hali jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lishi tabiiydir. Albatta bu masalada aniq kontsepsiya ishlab chiqilib, o'quv jarayoniga tadbiq etilishi davr talabidir.

O'zbekiston tarixi fani va tarixni o'rganishda manbalarning o'rni va ahamiyati kattadir. Tarixiy manbalar inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan, shuning uchun ham ijtimoiy hayotning hamma tomonlari va bo'lib o'tgan hodisalarни o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham qadimiylar odamlarning turish-turmushi va ijtimoiy faoliyati qay tarzda kechganligini tarixiy manbasiz bilib va o'rganib bo'lmaydi.

Tarixiy manbalar ikkiga - moddiy va yozma manbalarga bo'linadi.

### **Moddiy manbalar**

- Mehnat qurollari;
- Harbiy qurol-yaroqlar;
- Tanga pullar;
- Uy-joylar, qabrlar;
- Idish-tovoqlar, devoriy tasvirlar;
- Qal'alar, shaharlar va boshqalar.

### **Yozma manbalar**

- Yozuv belgilari;

- Toshga, daraxt po'stlog'iga, teriga, qog'ozga yozilgan ma'lumotlar;
- Xalqlar hayoti, yuz bergen voqeа va hodisalar haqida yozilgan kitoblar;
- Davlat boshliqlarining yozma shakldagi farmonlari;
- Yer, qimmatbaho narsalarni in'om qilish, meros qoldirish, sotib olish bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlar.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VIII-VII asrlardagi hayotini o'rganishda «Avesto» kitobi qimmatli yozma manba hisoblanadi.

Moddiy (ashyoviy) manbalar tarkibiga nimalar kirishini yuqorida qayd etdik. Moddiy yodgorliklarni qidirib topish va o'rganish ishlari bilan arxeologiya ilmi (yunoncha; arxeo-qadimiy, logos-ilm) kishilik jamiyatining uzoq o'tmishni o'rganuvchi ilmdir.

Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lган material va ma'lumotlar, masalan, xalq, qabila va urug' nomlari, inson qo'li va aql-zakovati bilan yaratilgan qurol va buyumlardagi naqsh va bezaklar, kishilar ongida, shuningdek og'zaki va yozma adabiyotda saqlanib qolgan o'tmish sarqitlari (urf-odat, rasm-rusm va an'analar) kishilarning turmush tarzi etnografik manba hisoblanadi. Bularning barchasini etnografiya (grek. etnos-xalq, grafo- yozaman xalq haqida) ilmi tekshiradi va o'rganadi.

Tilimizda, aniqrog'i uning leksik tarkibida uchraydigan, uzoq o'tmishdan qolgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy, yuridik atamalar, joy hamda xalq, urug', qabila nomlari va shunga o'xhash atamalar shubhasiz qimmatli material bo'lib, ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishga yordam beradi. Ularning kelib chiqishini va etimologiyasini lingvistika (lotin.lingua-til) fani o'rganadi.

Og'zaki adabiyot madaniyatning eng qadimgi sohalaridan bo'lib, uning ildizi ibridoij jamoa va ilk feodalizm tuzumiga borib taqaladi. Yozma adabiyotdan avval paydo bo'lган xalq og'zaki ijodining durdonalari kishilarning turish-turmushi, ma'naviy qiyofasi, urf-odati, ayniqsa uzoq o'tmishda hukm surgan ijtimoiy munosabatlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tarixiy manbalarning bu turi

bilan folklor (nem.folk-xalq,lore- bilim;xalq donoligi) fani shug'ullanadi.

Tarixiy manbalarning muhim va asosiy turi bu yozma manbalar hisoblanadi. Tarix fanini chuqur o'rganish uchun bir qator yordamchi sohalar, xususan, paleografiya, diplomatika geraldika, epigrafika, numizmatika, metrologiya, xronologiya kabi sohalarning qo'lga kiritgan yutuqlari ham katta yordam beradi.

Endi biz bevosita O'zbekiston tarixi fanini o'rganishdagi asosiy tarixiy manbalarga to'xtaydigan bo'lsak, birinchidan, bu eng asosiy va muhim tarixiy manba zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi - "Avesto" hisoblanadi. "Avesto"da nafaqat zardo'shtiylik (otashparastlik) dinining tamoyillari, qonun-qoidalari asoslab berilgan, balki unda qadimgi ajdodlarimizning boshqaruv tizimi, ijtimoiy turmushi, madaniy va ma'naviy hayotiga oid ma'lumotlar berilgan. Ikkinchidan, o'tmish otabobolarimiz qoldirib ketgan va dunyodagi juda ko'p xorijiy mamlakatlar, xususan Angliya, Fransiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Turkiya, Rossiya va O'zbekistonning kutubxonalarida saqlanayotgan boy va nodir qo'lyozma asarlar. Shunday qo'lyozmalar orasida podsho, shoh, xon, amirlar saroyida yashagan solnomachi va muarixlarning yozib qoldirgan asarlari g'oyat qimmatlidir. Uchinchi va g'oyatda muhim manbalardan biri shoir-u yozuvchilar, olim-u fuzalolarning qoldirgan noyob asarlari Vatanimiz tarixini o'rganishda ajoyib va qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ulug'bek, Ali Qushchi, Imom al-Buxoriy, Navoiy, Bobur, Muqimiyy, Furqat va boshqa ko'plab allomalarning ijodlarida, ular yashagan tarixiy va madaniy-muhitga oid qimmatli fikr- xulosalar, tarixiy ma'lumotlar mavjud.

Bundan tashqari O'zbekiston tarixi fanini o'rganishda hozirgi kunda mavjud bo'lgan ilmiy asarlar, qo'llanmalar, darsliklar, monografiyalar, risolalar, to'plamlar, har xil muzeylarda, ayniqsa o'lkashunoslik muzeylarida saqlanayotgan ko'rgazma zallari hujjatlari, arxeologik qazilma yodgorliklari, muzey- shaharlar, tarixiy obidalar, kino, foto hujjatlar va hokazolar muhim va qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **4. O‘zbekiston tarixini o‘rganishning har tomonlama yetuk inson tarbiyalashdagi ahamiyati.**

O‘zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o‘tmishi tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma‘naviy jihatdan komil fuqaro etib, shakllantiradi. *Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblariimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g’urur va iftixonr tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan kishining kelajagi ham bo‘lmaydi” deganlari, ayni haqiqatdir.* O‘zimizning boy o‘tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezungulik tuyg‘ularini uyg‘otib, bugungi avlod kimlarni avlodni, kimlarni zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi.

O‘zbekiston tarixi talaba-o‘quvchilarga bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni mohiyati va natijalarini, milliy, huquqiy davlatchilikni barpo etish, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakillantirish jarayonlarini o‘rganadi. Bu o‘z navbatida yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, siyosiy madaniyatni tarbiyalaydi, jamiyatda o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilashga ko‘maklashadi.

Xalqimizning buyukligi, kuchi uning boy ma‘naviy merosga ega ekanligi bilan belgilanadi. Xalqimizning ma‘naviy poydevori juda qadimiy va mustahkam. Ajdodlarimiz yetishtirib bergen o‘nlab, yuzlab jahonga mashhur olimu-ulamolar, me‘moru-binokorlar, naqqoshlar, zargarlar, hunarmandlar, davlat arboblari, xalq qahramonlari hayoti, dunyoda birinchilar qatorida bunyod etilgan ilm va ta‘lim maskanlari faoliyati talaba-o‘quvchilar uchun, intilayotgan yoshlar uchun bu boy ma‘naviy meros mustahkam tayanchdir. Uning zaminida tinimsiz va mashaqqatlil mehnat, har qanday to‘siqlarni yengish, ilmga va ziyoga intilish kabi xislatlar yotadi. Bunday xislatlar vatan tarixini o‘qitish orqali yoshlarga singdiriladi.

Vatan tarixi xalqimizning asrlar davomida ko‘pgina xalq, elatlar bilan ahil,

hamjihat bo‘lib yashaganligidan, yurtimizda turli diniy e‘tiqodlar erkinligi va inoqligi bo‘lganligidan guvohlik beradi. Bu mustaqil O‘zbekistonda yashovchi turli dinlarga e‘tiqod qiluvchi 120 dan ortiq millat va elatlar o‘rtasida tinchlik, milliy totuvlik, birodarlikni yanada mustahkamlashga xizmit qiluvchi tarixiy saboqdir.

Vatan tarixi yoshlarda jamiyatda ertaroq mustaqil faoliyat yuritish, o‘z qobiliyatini to‘laroq ochish va hayotga tadbiq etish sifatlarini shakillantirish, Vatan, xalq taqdiri uchun ma‘suliyatni o‘z zimmasiga olish kabi yuksak ma‘naviy burchni tarbiyalaydi, milliy g‘oya bilan quollantiradi.

O‘zbekiston tarixi fani yuqorida ta’kidlab o’tilgan va bulardan boshqa o‘zining xilma-xil imkoniyatlaridan kelib chiqib, komil insonni tarbiyalashda juda katta hissa qo’shamdi. Shu boisdan vatan tarixini har tomanlama, chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga molik vazifa. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati tufayli bog‘chalardan tortib oliv o‘quv yurtlarigacha bo‘lgan ta‘lim-tarbiya tizimlarida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishga katta e‘tibor berilmoqda, g‘amxo’rlik qilinmoqda.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. ”Tarix” deganda siz nimani tushunasiz?
2. ”O‘zbekiston tarixi” fanining fan sifatida tutgan o‘rniga baho bering.
3. ”O‘zbekiston tarixi” fani o‘z oldiga qanday vazifalarni qo‘yadi?
4. ”O‘zbekiston tarixi” fani nimani o‘rganadi?
5. O‘z xalqimiz tarixini o‘rganishdan maqsad nima?
6. ”O‘zbekiston tarixi” fanini o‘rganishning asosiy ilmiy-nazariy asoslarini ta‘riflab bering.
7. ”O‘zbekiston tarixi” qanday metodologik asosda o‘rganiladi?
8. Tarixiylik metodologiya deganda siz nimani tushunasiz?
9. O‘zbekiston tarixini o‘rganish qanday davrlarga bo‘linadi?
10. ”O‘zbekiston tarixi”ni o‘rganish qanday tarixiy manbalarga asoslanadi?

### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqımız bilan birga quramiz. – T., O’zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -T., «O’zbekiston», 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T., ”Ma’naviyat”, 1999.
4. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., ”O’zbekiston”, 1998.
5. Vatan tuyg’usi T., ”O’zbekiston”, 1996.
6. Asqarov A. O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi.-T.: ”Universitet”, 2007
7. Sagdullaev A. Qadimgi O’zbekiston ilk yozma manbalarda. T., ”O’qituvchi”, 1996.
8. O’zbekiston tarixi (1-qism) T., ”Universitet”, 1997.
9. O’zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. (Darslik) – T.: ”Yangi asr avlod”, 2003.
10. O’zbekiston tarixi (o’quv qo’llanma) 1-qism – T., 2002, 6-21 betlar.

### **2-mavzu: MARKAZIY OSIYO INSONIYAT SIVILIZATSİYASINING QADIMGI O‘CHOQLARIDAN BIRI**

#### **Reja:**

1. Sivilizatsiya tushunchasi. O’zbekiston qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi. Insonning paydo bo‘lishi xususidagi qarashlar va nazariyalar. Sivilizatsiya tushunchasi.
2. Ibtidoiy jamiyat va uning davrlari.
3. Mezolit va Neolit davrlari.
4. Eneolit, bronza va temir davri.
5. "Avesto"- O’zbekiston tarixini o’rganishda muhim mahba.

**Tayanch tushunchalar:** Sivilizatsiya, ibridoiy to‘da, urug‘chilik jamiyati, o‘zlashtirish xo‘jaligi, poleolit manzilgohlari, mezolit manzilgohlari, neolit manzilgohlari, eneolit manzilgohlari, bronza manzilgohlari, mehnat quollaridagi o‘zgarishlar, matriarxat patriarchat, madaniyat, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ishlab chiqarish xo‘jaligi, moddiy va ma’naviy boyliklar, ibridoiy tasviriy san’at, tasviriy san’at, zardo’shtiylik, ”Avesto”.

**Sivilizatsiya tushunchasi. O‘zbekiston qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi. Insonning paydo bo‘lishi xususidagi qarashlar va nazariyalar.**

**Sivilizatsiya tushunchasi.** Sivilizatsiya termini II asrlarcha oldin Fransuz ma’rifatparvarlari tomonidan mustaqillik, haqiqat, huquqiy tizim hukmronlik qiladigan fuqarolik jamiyatini ta’riflash uchun ishlatilgan. Lekin ko‘p o‘tmay Amerikalik astrolog L.Morgan va undan keyin Engles "Sivilizatsiya" atamasini kishilik rivojlantirishni ta’riflashda, ya’ni varvarlikdan, yovvoyilikdan jamiyatni tartibga tushishi, sinflarning paydo bo‘lishi, xususiy mulk, paydo bo‘lishida ochishga harakat qilishdi.

Amerikalik professor S. Xantington sivilizatsiya terminini "rivojlangan" ma’nosida tushunadi. 1993 yilning yozida "Forshaffeyrz" jurnalida prof. S.Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi" deb nomlangan maqolasini chop qildi. Shu nom bilan 1997 yil Amerikada kitob ham chop qilindi, bularda aytilishicha keyingi urush sivilizatsiyalar urushi bo‘ldi va bu urush o‘z-o‘zini yo‘q qiluvchilar urushi bo‘ldi deydi.

Sivilizatsyaning tarixiy bosqichlari. Sivilizatsyaning hal qiluvchi belgisi inson va jamiyatning moddiy ma’naviy va badiiy sohalardagi o‘zgartiruvchanlik faoliyatidir. Sivilizatsiya tushunchasi aksariyat hollarda inson o‘zgartiruvchilik faoliyatining yakunlarini o‘zida aks ettiradi. Hozirgi davrda ba’zi manbalarda sivilizatsyaning ijtimoiy iqtisodiy formatsiyalar tushunchalariga o‘zaro qarama-qarshi qo’yish hollari uchraydi. Aslida bu tushunchalarni o‘z o‘rnida ishlatish lozim.

Kishilik jamiyati rivojlanishini anglatadigan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani sivilizatsiya bilan tenglashtirish ham, unga qarama-qarshi qo'yish ham to'g'ri kelmaydi. Sivilizatsiya-lotincha grajdaniqli, davlatga taalluqli degan ma'noni anglatadi.

Qadimgi Rimning so'nggi davrlarida "Madaniyat" tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan boyigan. O'rta asrlarga kelib, keng tarqalgan.

O'rta asr madaniyatining O'rta Osiyolik namoyondalari Farobi, Ibn Sino, Beruniy shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Farobiyning fikricha "har bir inson tabiatiga ko'ra, Oliy darajadagi yetuklikka erishishi uchun intiladi". Bunday yetuklik, faqat shahar jamoasi orqali erishiladi. Uning ta'kidlashicha, madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, unda har bir odam kasb hunardan ozod, hamma barobar, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi. Kishilar chin ma'nosи bilan ozod yashaydilar. Keyinchalik sivilizatsiya moddiy madaniyat tushunchasini anglata boshladi, yoki varvarlikdan keyingi taraqqiyot bosqichini ifodalaydi. Umuman sivilizatsiya tushunchasi XVII asrda madaniyat tushunchasi bilan bog'liq holda vujudga keladi. Shu asrda yashagan fransuz ma'rifatparvar faylasuflari Valter, P. Tyurgo, J. A. Konderse aql vaadolatga asoslangan tizimni sivilizatsiyali jamiyat deb bilganlar. Ma'rifatparvarlik davrida sivilizatsyaning "tanqidi" vujudga kelgan. J.J. Russo bunda "madaniy" millatlarning buzilganligi va axloqiy tubanlashganligiga taraqqiyotning patriarchal bosqichida bo'lgan xalqlar axloqining soddaligi va sofligini qarshi qo'yadi.

Xo'sh sivilizatsiya nima? Sivilizatsiya asl ma'nosи taraqqiyot demakdir. Ya'ni, sivilizatsiya - eng yuksak tartibdagi madaniy mushtaraklik. Kishilar madaniy qiyofasining keng ko'lamli darjasini mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, insoniyat tarixida 20 dan ortiq sivilizatsiya va undan ko'proq subsivilizatsiyalarining shohidi bo'lgan. Ulardan ko'pchiligi hozirgi dunyoda ham amal qilayotir. Masalan, G'arb, Islom, konfutsiylik, yapon, pravoslav-slavyan, Lotin Amerikasi, Afrika

sivilizatsiyalari shular jumlasiga kiradi. Bundan tashqari Yevropa va Shimoliy Amerika, turk va arab singari sub-sivilizatsiyalar ham bor.

Insoniyat qadim-qadimdan o‘z davriga xos turmush tarziga, moddiy va ma’naviy madaniyatga, ya’ni ma’lum darajadagi sivilizatsiyaga ega bo‘lgan. Davrlar o‘tishi bilan insoniyat sivilizatsiyasi darajasi o‘sib, rivojlanib, takomillashib borgan. Bu jarayon odamlarning mehnat qilish usuli qanchalik darajada moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish va ko‘paytirib borishi bilan bog‘liq kechgan.

U yoki bu sivilizatsiya haqida so‘z borganda insoniyatning yashash uchun kurashi, tinimsiz mehnati, ma’naviyat va ma’rifatga intilishi tufayli o‘zi uchun yaratgan jismoniy va madaniy qulayliklari – ov va mehnat qurollari, kiyim-bosh, uy-joy va oilaviy munosabatlari, ishlab chiqarish usullari, maishiy xizmat vositalari, ijtimoiy ongi va ma’naviy dunyosi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-huquqiy munosabatlari darajasi bilan tavsiflanadigan ma’lum bir tarixiy davr tushuniladi. Masalan, Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi, Antik Evropa sivilizatsiyasi, Islom sivilizatsiyasi, Xristian sivilizatsiyasi, hozirgi zamon sivilizatsiyasi kabi tushunchalarda insonlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, ma’naviy qiyofasi, axloqi, bilim saviyasi, mehnat qurollari va hokazo jihatlari mujassamlashgan bo‘ladi. Har bir mintaqada sivilizatsiya davriy nuqtai nazardan ertaroq yoki kechroq, o‘ziga xos shaklda shakllanib, rivojlanib borgan. Tarixiy, ilmiy tadqiqotlar bizning Vatanimiz - O‘zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda.

## **2. Ibtidoiy jamiyat va uning davrlari.**

Ibtidoiy jamoa tuzumi O‘zbekiston tarixining eng muhim davrlaridan biridir. Bu davr jaxon tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Avvalombor, ibtidoiy jamoa davri tarixida odamning paydo bo‘lishi, uning dastlabki makonlari masalalari o‘ta muammo hisoblanadi. Jahon fani yutuqlariga ko‘ra, odamzodning dastlabki ajdodlari: zinjantrop Janubiy Afrikada, pitekantrop Indoneiyada, sinantrop Xitoyda va neandertal Germaniyada yashagan. Bu mintaqalar odamzod paydo bo‘lgan ilk xududlar hisoblanib kelingan.

Insoniyatning kelib chiqishi va rivojlanishi uzoq davr davomida olimlar tomonidan o’rganilib, turli nazariyalar yuzaga kelgan. Chunki, “antropogenez” eng qadimgi davr tarixini o’rganishdagi muhim va eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, insoniyatning paydo bo’lishi juda murakkab masala bo’lib, bu jarayon asosan arxeologik ma’lumotlar bo’yicha o’rganiladi. Ammo bu borada turli xil afsonalar, rivoyatlar, iloxiyot va koinot bilan bog’liq bo’lgan nazariyalar ham mavjuddir. Xristian dini odamzod xudo tomonidan bundan 7 ming yil burun qizil loydan yaratildi, dastlabki odamlar Adam va Yevadan tug’ilgan deb ta’riflaydi. Islom dini odamning Olloh tomonidan tuproqdan yaratilib, unga jon kiritilgani, dastlabki odamlar Odam Ato va Momo Havo bo’lganligi haqida, ularning qachon yaratilganligini Ollohdan o’zga hech kim bilmaydi, bu yolg’iz ungagina ayon degan g’oyani ilgari suradi.

Dunyoviy fanlar, jumladan, tarix fani yuqoridagi goya va nazariyalarni inkor etmagan holda antropogenez jaroyonini ilm-fan yutuqlarida erishilgan natijalarning dalillariga asoslanib o’rganadi. Yunon olimi Arastu odamning paydo bo’lishini yerda hayotning paydo bo’lishi va rivojlanishi jarayoni bilan bog’lab tushuntiradi, odamzod oddiydan murakkabga, hayvonot olamidan odamzod dunyosiga o’sib chiqdi, deb ta’kidlaydi. Jeyms Manbocco odam oliy turdag'i maymunsimon odamdan vujudga kelgan, degan g’oyani ilgari suradi. Ingliz olimi Charlz Darvin yevropalik arxeologlarning Gibraltar qoyasi, Germaniyaning Neandertal vodiysi va Avstriyadagi tadqiqotlarning natijalarini tahlil qilib, odamlarning ajdodlari daraxtda yuruvchi eng oliy turdag'i maymunsimon odamlar /driopiteklar/ bo’lganligi haqidagi evolyutsion nazariyani ilgari suradi. Shuningdek, u har qanday maymundan odam paydo bo’lmashagini, odamlarning ajdodlari bo’lmish driopiteklar allaqachon o’lib ketganligini ta’kidlaydi.

O’rta Osiyo hududi dunyoning eng qadimgi odamlari yashagan makon bo’lganligi fanda uzul kesil isbotlab berilgan bo’lsada, ammo bu hududda odamzodning dastlabki avlodlarining paydo bo’lganligiga necha yil bo’ldi, degan savolga olimlar turli xil javob berib keldilar. Ba’zi manbalarda dastlabki odam izlari

500 ming yil ilgari topilgan deyilsa, boshqalarida 800 ming yil sanasi tilga olinadi. Arxeolog olimlarning eng so'nggi ma'lumotiga ko'ra, eng qadimgi odam ajdodi hisoblangan zinjantroplardan keyin paydo bo'lgan pitekantroplar bundan I million yil ilgari yashaganlar. Bundan 500-600 ming yillar oldin yashagan odam ajdodlarining izlari Xitoydan topilgan. Olimlar uni sinantroplar deb ataganlar. Ular g'orlarda istiqomat qilishgan.

Arxeolog olimlarning tinimsiz izlanishi natijasida Turon zaminida ham eng qadimgi odamlarning izlarini aniqladilar. 1938 yilda Surxondaryoning Teshiktosh g'orida 8-9 yashar neandertal bolasining suyak qoldiqlari topildi. 1980 yillarda Farg'ona vodiysining So'x tumani yaqinidagi Seleng'ur g'oridan sinantropga zamondosh odamning suyak qoldiqlari topilib, uni olimlar "Fergantrop odami" nomi bilan fanga kirtdilar. Fergantrop odamining yashagan davri qadimgi tosh (paleolit) davrining Ashel bosqichi deb belgilandi. Agar Teshiktosh g'oridan topilgan neandertal bolasi bundan 100-40 ming yillar avval yashagan bo'lsa, "fergantrop" odami esa bundan bir million yillar ilgari yashagan. Bu ikki topilma tarix fani sohasida odamzotning paydo bo'lish muammosining ilmiy yechimida jahon ahamiyatiga molik ixtiro hisoblanadi.

Markaziy Osiyo hududidan topilgan va o'rganilgan Selung'ur (Farg'ona), Uch tut (Buxoro), Unarcha (Qirgiziston), Qoratog' (Tojikiston) kabi makonlar ilk paleolit davriga oiddir. Markaziy Osiyoda o'rta paleolit (muste madaniyati) davrining eng mashhur yodgorliklariga Teshiktosh, Obirahmat, Xo'jakent, Ko'lbuluoq, Qo'tirbuluoq, Uchtut kabi bir qator makonlar kiradi. Bu davrda muzlanish keng tarqala boshlagan, iqlim sharoiti ancha yomonlashgan. Bu hol odamlarni tabiat kuchlari bilan kurashishga majbur qilgan. Ular asta-sekin ovchilik xo'jaligini takomillashtirib yirik xayvonlarni ovlashga o'ta boshlaganlar, o't chiqarishning turli yo'llarini ixtiro qildilar, turli sharoitda yashash uchun o'zlariga boshpanalar (g'orlar, kapa, chaylalar) izladilar va qurdilar. Bu davrda mehnat quollarining yangi turlari: qirgich, pichoq, kabilar paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyo hududida ibridoiy jamoa tuzumini davrlarga bo'lish asosiy

muammolardan biri bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, u bir necha yuz ming yillarni o‘z ichiga oladi. Umumiy ko‘rinishda ibridoiy jamoa tuzumini quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Tosh asri;

Bronza asri;

Temir asri.

Insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan davr – bu tosh davri bo‘lib, u quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

Paleolit- qadimgi tosh davri;

Mezolit- o‘rta tosh davri;

Neolit- yangi tosh davri;

Eneolit- mis tosh davri.

Arxeologiya faning ma’lumotlariga qaraganda paleolit (qadimgi tosh davri) uch bosqichga bo‘linadi:

1. Ilk paleolit. Ashel davri-miloddan avvalgi 700-100 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Markaziy Osiyoda topilgan ilk paleolit yodgorliklari miloddan 500-100 ming yil avvalgi davrlarga oid bo‘lib, “ashel” davri madaniyati deyiladi.

2. O‘rta paleolit. Bu davr “Muste” davri madaniyati deb nomlanib, miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.

3. Yuqori (so‘nggi) paleolitga miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklar kiradi.

Ibtidoiy jamoa tarixinining qolgan davrlari: mezolit - miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklar, neolit - miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklar, eneolit 4-3 ming yilliklar, bronza davri miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklarni o‘z ichiga olib, temir davri esa, miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga to‘g‘ri keladi.

Ilk paleolit davrining diqqatga sazovorligi shundaki, bu davrda odamlar va ularning dastlabki mehnat qurollari paydo bo‘ldi. Tosh qurolaridan boshqa mehnat qurollari bizgacha yetib kelmagan. Bu davrning tosh qurollari arxeolog olimlar tomonidan yetarli darajada o‘rganilgan. Ya’ni bu davr kishilarining qurollari o‘zining soddaligi, qo’polligi, turlarining kamligi jihatidan keyingi davrlardan

keskin farqlanadi. Bu mehnat qurollari dastlabki mehnat quroli topilgan makon – joy nomi bilan “ashel” qurollari deb nom olgan. Ashel davrining oxirlariga havo keskin soviy boshlagan, tog‘larga yirik muzliklar vujudga kelgan, ular vaqtı-vaqtı bilan goh ko‘payib, goh kamayib turgan. Yangi – yangi daryolar vujudga kelib, Chu, Sarisuv, Qashqadaryo va Zarafshon daryolarida suv ko‘p bo‘lgan. Chu bilan Sarisuv Sirdaryoga, Qashqadaryo bilan Zarafshon Amudaryoga quyilgan.

Ilk paleolit davrida odamlar to‘da- to‘da bo‘lib, asosan, g‘orlarda yashaganlar, tabiatdagi tayyor narsalarni-daraxtlarning mevalarini, o‘simlik ildizlarini kovlab yeb tirikchilik qilganlar. Ular birgalashib yirik xayvonlarni ovlab, ushlab yeganlar, shuningdek, mayda jonivorlarni, ularning tuxumlarini ham iste’mol qilganlar.

O‘zbekiston hududida ilk paleolit davrida yashagan ajdodlarimizning manzilgohlari Farg‘ona vodiysining So‘x tumanidagi Seleng‘ur g‘oridan va Toshkent viloyatining Angren shaxri yaqinidagi Ko‘lbuloq makonida topib o‘rganildi. Bu borada arxeolog olimlar A.R.Okladnikov, O‘.Islomov, M.R.Qosimov, V.R.Alekseyev, T.K.Xo‘jayevlarning xizmatlari kattadir. Arxeolog olimlar A.R.Okladnikov va O‘.Islomovlarning izlanishlari natijasida Seleng‘ur g‘oridan ajdodlarimizning suyak qoldiqlari va tosh qurollarini chuqr o‘rganib, Seleng‘urda yashagan odamlar g‘orni ashel davrining birinchi bosqichida o‘zlashtirganliklarini isbotladi. Olimlar bu kashfiyotga tayanib, Seleg‘ur g‘orida yashagan odamlarning yoshi yaqin bir million yil atrofida degan xulosaga keldi. Seleng‘ur odamining qoldiqlari Farg‘ona vodiysi hududidan topilganligi sababli unga “Fergantrop” ya’ni “Farg‘ona odami” degan nom qo‘yildi.

Shunday qilib, qadimgi odamlarning mashg‘ulotlari terib termachilik qilib ozuqa topish, hayvonlarni ovlash, toshdan qurol-aslaxalar yasashdan iborat bo‘lgan. Ajdodlarimizning tinimsiz mehnat qilishi natijasida o‘zlari ham o‘zgarib, takomillashib borgan.

Qadimgi tosh davri (paleolit)ning o‘rta bosqichi (bundan qariyb 100-40 ming yil avval) arxeologiya fanida ”muste” davri deb ataladi. Bu davda muzlanish keng tarqala boshlagan. Natijada bu hol ibtidoiy odamlarni tabiat hodisasiga qarshi

kurashga va himoyalanishga majbur qilgan. Ayniqsa, bu davrda odamlar qiyofasining o'zgarish, neandertallarning vujudga kelishi bilan farqlanadi. Bu davrda ham ularning asosiy mashg'uloti ovchilikdan iborat bo'lib, yirik hayvonlarni ovlaganlar. Yangi mehnat qurollari yaratganlar, qo'l cho'michlari paydo bo'lgan. O'rta paleolit davri odamlari olov chiqarishning turli yo'llarini ixtiro qilganlar, ya'ni ishqalash orqali olovni kashf etganlar. Bu davrda ham qadimgi ajdodlarimiz to'da bo'lib yashaganlar. Neandertal odamlar yashagan makonlar O'rta Osiyning 50 ortiq joyida topilgan bo'lib, ayniqsa, 1938 yilda Boysun tog'ining Teshiktosh deb atalgan g'oridan topilgan yodgorliklar alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot izlanishlar natijasida qator ashyoviy dalillar bilan bir qatorda Teshiktosh g'oridan 8-9 yashar bolaning suyak qoldiqlari topilgan. Undagi suyak qoldiqlari mayyitning chalqanchasiga yotqizilib qabr atrofi hayvon shoxlari bilan o'ralganligidan, bu esa neandertal odamlarning asosiy mashg'uloti hayvon ovi bo'lganligidan dalolat beradi.

Qadimgi tosh asrining oxirgi bosqichi yuqori (so'nggi) paleolit bo'lib, bu davrda Markaziy Osiyo hududida iqlim quruq va mu'tadil bo'lgan. Shuning uchun ibtidoiy odamlar g'orlardan chiqib, yangi turar joylar qura boshlaganlar. Natijada ular faqat tog'li hududlarda yashab qolmay vohalar bo'ylab tarqalib, tekisliklarda, daryo va ko'llar sohillariga kelib joylasha boshlaydilar, so'nggi paleolitning eng katta yutug'i antropogenez jarayonining tugallanishi va hozirgi zamon odamlariga xos odamlarning (kromanon) paydo bo'lishidir.

Bu davrda Markaziy Osiyo hududida yashagan odamlarning mehnat qurollari ham ancha takomillashdi, suyak va shohdan yasalgan buyumlar, igna, qarmoq, har xil bezaklar paydo bo'ldi, tosh qurollar ancha ixchamlashdi, parma asbobi paydo bo'lib, tosh va suyaklarni parmalaganlar. So'nggi poleolit davrining yutuqlaridan biri-nayzaning ixtiro qilinishi hisoblanadi. Nayza tufayli ovchilik rivojlandi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida shunday davr yuzaga keldiki, bu davrda ibtidoiy to'da o'miga urug'chilik jamoasi keldi. Bu holat so'nggi poleolit davriga to'g'ri keladi. "Ibtidoiy to'da" o'rmini matriarxat-onasiga urug'i jamiyat, ya'ni

"urug‘chilik jamoasi" egallaydi. Urug‘chilik ibtidoiy jamiyatning alohida bosqichini tashkil etib, bu ijtimoiy hayotdagi qator o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Xususan, ayollar jamiyatda yetakchi mavqeni egallaganlar. Jinslar o‘rtasida mehnat taqsimoti kelib chiqqan. Ayollar oziq-ovqatlarni saqlash, ovqat tayyorlash, oilada bolani boqish va tarbiyalash ishlari bilan band bo‘lsa, erkaklar asosan ovchilik bilan shug‘ullanganlar, mehnat qurollari tayyorlaganlar. Bu davrda qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi nikoh ta‘qiqlangan, ya‘ni ekzogamiya paydo bo‘lgan. Bu esa insonning biologik jihatdan takomillashib borishiga zamin yaratgan.

Toshkent viloyatida (Ohangaron) joylashgan Ko’lbuloq makonining eng tepadagi uchta qatlami so‘nggi paleolit davriga oiddir. Ushbu makondan ko’plab tosh qurollari hamda hayvon suyaklari topilgan. Bundan tashqari mintaqamiz hududldridan so‘nggi paleolit davriga oid ko’plab madaniy makonlar aniqlangan bo‘lib, ularning mashhurlari quyidagilar hisoblanadi: Bo’zsuv I makoni (Toshkent shahridagi Qoraqamishsoyning bo’ylarida joylashgan), Bo’zsuv II makoni (Toshkent shahridan Bo’zsuv sohilidagi Sho’ralisoy), Tuyabo’g’uz makonlari (Toshkent viloyati), Takalisoy g’ori (Samarqand viloyati), Xo’jamazgil makoni (Samarqand viloyati). Ushbu makonlardan turli rangli chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar, keskichlar, o’roq-randalar, pichoqlar, uchrindilar kabilar topib o’rganilgan.

Paleolit zamonida vujudga kelgan urug‘chilik tuzumi bronza davrida ham davom etgan. Faqat, bu davrda ona urug‘i (matriarxat)ning mavqeい yo‘qola borib, uning o‘rni ota urug‘i - patriarxat egallagan. Endi qarindoshchilik otaga qarab olib boriladigan bo‘lgan. Bolalar ham ota mulki hisoblanib, merosni otadan ola boshlagan. Jamoalarning mol-mulklarini qo‘riqlash ehtiyoji harbiy qabila ittifoqini vujudga keltirgan. Patriarxat urug‘ining rivojlanishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi bilan katta jamoa oilalarining boylik orttirishlari uchun qulay vaziyat yaratgan deyish mumkin.

Paleolit davriga xulosa qilib aytish mumkinki, bu davrda odamning paydo bo‘lishi jarayoni yani, antropogenez asosan tugadi. Ajodolarimiz xo’jalik yuritishning eng oddiy yo’llaridan ya’ni, termachilikdan murakkabroq ko’rinishlari

—ovchilik, baliqchilikka o'tdilar. Olov kashf etildi. Mehnat qurollari takomillashdi. Aholining turmush tarzi yaxshilanib bordi.

### **3. Mezolit va Neolit davrlari.**

Urug'chilik jamoasining vujudga kelishi ajdodlarimiz hayotida iqtisodiy siljishlarga, hatto "inqilobiy" o'zgarishlarga olib keldi. Masalan, miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklarni o'z ichiga olgan mezolit (o'rta tosh) davrida ajdodlarimiz kamon o'qini kashf etdilar, bu esa inson yaratgan birinchi mexanizmdir. Bu kashfiyot odamning tabiat kuchlariga qarshi kurashda buyuk bosqich bo'ldi, ovchilik endi yangicha mazmun kasb etdi va uning yangi usullari paydo bo'ldi, ovdan keladigan daromad manbai ko'paydi, ovda qo'lga kiritilgan xayvonlarning iste'moldan ortiqchasi qo'lga o'rgatila boshlandi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida mezolit davri o'ziga xos bir davr hisoblanadi. "Mezolit" yunoncha so'z bo'lib, "mezos" -" o'rta", "litos" -" tosh" birikmalaridan tashkil topgan bo'lib "o'rta tosh" davri ma'nosini anglatadi. Mezolit davrida O'rta Osiyo iqlimi issiqlasha borgan, yog'ingarchilik ko'p bo'lgan. Bu davrda ajdodlarimizning asosiy mashg'uloti ovchilikdan iborat bo'lgan hamda eng asosiysi, o'q-yoyning kashf etilishi katta ahamiyat kasb etdi. O'q-yoy insoniyat kashf qilgan birinchi mexanizmdir. O'q-yoy odamning tabiat kuchlariga qarshi kurashda buyuk burilish davri bo'ldi, ovchilik endi yangicha mazmun kashf etdi va uning yangi usullari paydo bo'ldi. Ovdan keladigan daromad manbai ko'paydi, ovda qo'lga kiritilgan hayvonlarning iste'moldan ortiqchasi qo'lga o'rgatila boshladi.

Mezolit davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu davrda ovchilikning ahamiyati oshishi bilan birga termachilikning o'rni ham ortdi. Bu davr termachiligi qadimgi tosh davri termachiligidan keskin farq qilgan. Bu davrda odamlar o'simliklarning ildizi bilan iste'mol qilmasdan, balki ularni saralab, shirin va mazali o'simliklarni iste'mol qilishni o'rgandilar. Bu hol odam tanasining sifat jihatdan tozalanishi va kamol topishiga, inson aqli va tafakkurining o'sib rivojlanishiga ijobji ta'sir ko'rsatdi.

O'rta Osiyoda arxeologik olimlarning izlanishlari natijasida mezolit davriga

oid ko‘plab madaniy makonlar topilgan va o‘rganilgan. Jumladan, 1970-1980 yillarda O‘.Islomov boshchiligidagi arxeolog guruhining Farg‘ona viloyati So‘x yaqinidagi Obisher soyida qidiruv ishlari olib borib, Obisher deb atalgan makonlarda mezolit davri urug‘ jamolarining izlarini topdi. Undan tashqari, Surxondaryo viloyatidagi Ko‘hitongning Machay soyi qirg‘og‘idagi g‘orda olib borilgan tadqiqotlar natijasida mezolit davri odamlari uzoq yillar davomida yashaganligidan dalolat beruvchi madaniy qatlama ochildi. Machay manzilgohidan odam suyaklari, turli xil qurol aslaxalar, o‘choq va kul qatlamlari topilgan. O‘zbekistonning janubidagi yana bir mezolit davri yodgorligi Ayrитом makoni bo‘lib, bu xudud Termizdan 18 km uzoqlikda joylashgan. Bu madaniy qatlamdan tosh parmalagichlar, nukleuslar, tosh uchrindilar, o‘q uchlari kabilar topib o‘rganilgan.

Mezolit davriga odamlarda diniy e’tiqod shakllanayotganini O’rta Osiyodagi bir qancha qabristonlardan topilgan yodgorliklar ma’lumot beradi, ajdodlarimiz u dunyoga ishonganini ko’rsatadi. Machay qabristonida jasad chalqanchasiga yotqizilgani, ustiga qizil rang sepilib, atrofiga tosh taqinchoqlar terib qo’yilgani aniqlangan. Ko‘hitong tog’idagi **Zarautsoy qoyasidan** (hozirgi Surxondaryo viloyati) topilgan suratlar esa tasviri san’atning vujudga kelganligini ko’rsatadi. Ibtidoiy rassomlar odamlarning tabiat kuchlariga munosabatlarini, dunyoqarashlarini qoyalarga chizilgan rangli suratlari orqali ifodalaganlar. Qoyada yovvoyi hayvonlarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Bu manzarada bir poda yirik shoxli hayvonlar orqasidan ovchilar o’z itlari bilan quvib ketayotgani tasvirlangan. Boshqa bir qoyada ikki guruh ovchilar buqani o’rab olgani manzarasi tasvirlangan. Zarautsoy qoyalaridagi bu suratlar o’sha davr rassomlarining fikr doirasini, diniy tasavvurlarni tasviri san’atda qanchalik darajada aks ettirilganliklari haqida fikr yuritishga asos beradi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida mezolit davridan keyin miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklarni o‘z ichiga olgan neolit davri bo‘lib o‘tdi. “Neolit” yunoncha so‘z bo‘lib, “neos” – yangi va “litos” - tosh ya’ni “yangi tosh” degan ma’noni anglatadi. Neolit davriga kelib mehnat qurollari yanada takomillashdi. Bu odamlarning

avvalgidek daydi hayot kechirish zaruriyatini qoldirmadi. Ular o‘troq hayot kechirishga o‘tdilar. Bu davrga kelib doimiy yerto‘lalar, kulbalar qurish, loydan, guvaladan uylar solish, qishloqlar barpo etish neolit davri odamining asosiy odatiga, turmush tarziga aylanib bordi. Ana shu tariqa doimiy o‘troq xo‘jaligi vujudga keldi. Bu hol dehqonchilikning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Neolit davri odamlari o‘zlarining tinimsiz mehnati, kuzatuvchanlik qobiliyati, ibridoiy bilimlarini safarbar qilib, xo‘jalikning ilg‘or unumdar shaklini, dehqonchilik va chorvachilikni kashf etdilar. Arxeolog olimlar bu jarayonni "neolit inqilobi" deb baholaydilar.

Yangi tosh davri jamoalari hayotida paydo bo‘lgan eng muhim yangiliklardan biri – bu bo‘lajak hunarmahdchilik xo‘jaligining muhim tarmog‘i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarishning kashf etilishi bo‘ldi. Insoniyat tarixiy taraqqiyotida katta voqeа bo‘lgan bu kashfiyot ayrim arxeologlar, hatto neolit davrini "sopol asri" deb ataganlar. Neolit davrida qadimgi ajdodlarimiz loydan idishlar yasab, ularni olovda pishirishni o‘rgandilar, ip yigirish va to‘qimachilikka asos soldilar. Odamlar yog‘och va qamishdan qayiq yasab, suvda suzishni ham o‘rgandilar. Eneolit ya‘ni mis-tosh davrida ibridoiy odamlar metall bilan tanishdilar. Ungacha ibridoiy odamlar faqat toshdan, yog‘ochdan va suyakdan yasalgan qurollardan foydalanganlar.

Neolit davrida ham urug‘chilik tuzumi hukumron bo‘lib ona urug‘ining hukumronligi davom etardi. Bu davrda matriarxat urug‘ jamoasining guruhli nikoh doirasida juft oila qurishi vujudga keldi. Bu oilalarda ayolning mavqei yuqori bo‘lib, huquqi cheklanmagan. Erkaklar oila boshlig‘i ayolga qaram bo‘lgan.

Vatanimiz hududidan neolit davriga oid ko‘plab madaniy makonlar topilgan. Jumladan, Ashxobotdan 40 km shimoli-g‘arbda joylashgan Chaqmoqli tepaligi neolit davri dehqon jamoalarining qarorgohi ekanligi aniqlandi. Arxeolog olimlarning izlanishlari natijasida bu yerda guvaladan yasalgan bir xonali, uyning markazida sandali mavjud bo‘lgan chuqurchali kulbalar topildi. Imoratning guvalasiga somon aralashtirilgan va devorlari somon shuvoq qilinganligi aniqlandi. Xonaning to‘rt tomoniga supalar qilingan bo‘lib, u dam olish va yotishga

mo‘ljallangan. Neolit davrida yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lganligi sababli yomg‘irdan so‘ng ko‘plab ko‘lmakchalar to‘plangan. Turkman cho‘ponlari oydin kechada ko‘lmak suvlari qop-qora bo‘lib ko‘ringani uchun bu joyni “Joytun madaniyati” ya’ni qorong‘u joy deb nomlaganlar. Joytun madaniyatini o‘rganish natijasida bu yerdan ko‘plab mehnat qurollari - ya’ni pichoq, o‘roq, suyakdan yasalgan igna, bigiz va boshqa anjomlar topilgan.

Undan tashqari, neolit davriga oid yana bir yirik topilma bu Amudaryoning qadimgi Oqchadaryo deltasi yonidagi Kaltaminor kanali yaqinidagi manzilgohdir. S.R.Tolstov tomonidan qadimgi Xorazm yerlarida ”Kaltaminor madaniyati” nomi bilan tarixga kirgan manzilgohda Xorazm hududidagi Jonbosqal’a nomi bilan ma’lum bo‘lgan 4 ta makonni tekshirish orqali aniqlandi va o‘sha makon yaqinidagi joy nomi bilan Kaltaminor madaniyati nomini oldi. Bularning barchasi miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda yashagan ovchilar va baliqchilar jamoasi madaniyatidir.

#### **4. Eneolit, bronza va temir davri.**

O‘rta Osiyo hududida miloddan avvalgi IV ming yillikning oxirlariga kelib tosh davri o‘rnini metall quollar egallay boshladi. Tosh davri o‘z o‘rnini eneolit va keyinchalik bronza asriga bo‘shatib berdi. Qadimgi ajdodlarimiz metall olamiga dastlab misni ixtiro qilish orqali kirgan. Mis metall sifatida yumshoq bo‘lganligi tufayli undan yasalgan quollar mo‘rt va eguluvchan bo‘lgan. Shuning uchun ham bu davrda ajdodlarimiz ham toshdan, ham metalldan mehnat quollari yasaganlar. Misdan pichoqlar, bigiz, ignalar, taqinchoqlar yasaganlar. Shuning uchun ham metallni qo‘llashning bu ilk davri eneolit – mis tosh davri deb ataganlar. Eneolit yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “eneus”- “mis” va “litos”- “tosh” degan ma’noni anglatadi.

Ajdodlarimiz bu davrda dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirdilar, hattoki ayrim o‘simliklarni sun’iy o‘stirishni o‘rganadilar. Iste’moldan ortiqcha hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish yanada rivojlandi. Uy joy qurilishida xom g‘ishtdan foydalanildi, qishloqlarda ko‘p xonali uylar qurilishi bilan bir qatorda katta-katta

inshootlar ham qurila boshladi. Milloddan avvalgi IV-ming yillikda mintaqamiz janubida sun’iy sug‘orishga asoslangan sug‘orma dehqonchilik vujudga kelib, kanallar va ariqlar ochildi, har xil o‘simliklar bug‘doy, arpa, javdar ekila boshlandi. Shu bilan bir qatorda mehnat qurollari ham takomillashib bordi. Rudali metallar, mis, qalay, kumush, oltinni ixtiro qilganlar va ularni eritish, quyish, ulardan foydalanish yo‘llarini topganlar.

O‘rta Osiyo hududan mis-tosh davriga oid madaniy makonlar Janubiy Turkmanistondagi Anov, Nomozgoxtepa, mamlakatimizdagи Amudaryoning quyи oqimlari va Zarafshon vohalaridan, Zamonbobo, Kattatuzkon makonlari va Sarazm kabilarda arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘rganilgan.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida bronza (jez) va temir davrlari bo‘lib o‘tdi. Ajdodlarimiz miloddan avvalgi III-minginchи yillardayoq misga qalay aralashtirib, misga qaraganda ancha afzallikkarga ega bo‘lgan bronza, ya’ni qattiq metall qotishmasi olishni hamda undan qattiq, chidamli mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, taqinchoqlar yasashni ixtiro qildilar. Ishlab chiqarishda bronzaning ishlatila boshlaganligi, ya’ni miloddan avvalgi III- ming yillik o‘rtalari va II-ming yillik jamiyat taraqqiyotida bronza davri deb ataladi.

Tadqiqotchilarning fikriga qaraganda bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo‘lgan. Olimlarning fikricha, bronza asri uchta xronologik davrga: ilk, rivojlangan va so’nggi bronza davrlariga bo’linadi. Bronza davriga kelib insoniyat jamiyat taraqqiyotida xalq xo‘jaligi, texnika va madaniyat sohasida juda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Chust manzilgohi va Zamonbobo qabristonidan topilgan ashyoviy dalillar o‘sha davrning ijtimoy-iqtisodiy va madaniy holatidan darak beradi. Arxeologiyaga oid tadqiqotlar natijasida Zamonbobo ko‘li atrofidagi qabrlar ochib o‘rganilgan. Bu qabrlarda bir emas bir nechta mayitlarning bir qilib ko‘milgan qoldiqlari, naqshli sopol idishlar va har xil buyumlar topilgan. Izlanishlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, ushbu Zamonbobo manzilgohida istiqomat qilgan aholi ham dehqonchilik bilan ham chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Surxondaryoning Sopollitepa va Jarqo‘ton, Xorazmning Tozabog‘yob, Toshkentning Achchiqko‘l,

Burg‘uluq, Namanganning Buvana mozori, Andijonning Dalvirzintepa, Qashqadaryoning Yerqo‘rg‘on, To‘rtko‘ltepa va boshqa viloyatlardagi arxeologik topilmalari bundan dalolat beradi. O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlarida bronza davrida bo‘yi baland, boshi uzunchoq, yuzi uzun va ingichka odam vakillari tarqalgan. Dasht mintaqalarida esa ulardan farqli o‘larоq, boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho‘ziq bo‘lgan qabilalar yashagan. Bronza davriga kelib ko‘p xonali uylar qurilgan, hunarmandchilik rivojlangan, bronzadan yasalgan mehnat qurollari, kulolchilik charxida yasalgan sopol idishlar ko‘plab Buxoro va Xorazm vohalaridagi izlanishlar natijasida topilgan.

Bronzaning so‘nggi davrlariga kelib qalin devorlar bilan o‘ralgan qishloqlar bo‘lganligi Farg‘ona va Surxondaryo hududlaridagi izlanishlar guvohlik beradi. Bu O‘rta Osiyo xududida ilk shaharlarning vujudga kelishi jarayoni edi. Bronza davrida ham urug‘chilik davom etadi. Rivojlanib borayotgan dehqonchilik va chorvachilik madaniyati va iqtisodi zaminida katta oilali jamoalarda erkaklarning mavqeい osha boradi, ona urug‘i mavqeい pasayib, ota huquqi – patriarchat qaror topgan. Miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida ajdodlarimiz temirni kashf etdi. Temirning kashf etilishi insoniyat turmush tarzida keskin burilish yasadi, mehnat qurollari takomillashdi, mamlakatimizda temirdan foydalanish keng tarqaldi. Mehnat qurollarining takomillashishi, ya’ni temirdan yasalgan omoch, ketmon, belkurak va boshqa mehnat qurollari yer haydash, to‘g‘onlar qurish, kanal va ariqlar qazib suv chiqarish imkonini beradi. Bularning barchasi dehqonchilikning rivojlanishiga olib keldi. Undan tashqari, temirning kashf etilishi hunarmandchilikning yanada rivojlanishiga olib keldi. Temirdan yasalgan o‘tkir pichoqlar, o‘roqlar mehnat unumdorligini yanada oshirdi. Shu tariqa ajdodlarimizning turmush tarzi o‘zgarib bordi.

## **6. "Avesto"- O’zbekiston tarixini o’rganishda muhim mahba.**

Urug‘chilik jamiyatida dastlabki diniy e‘tiqodlar va marosimlar kelib chiqqan. Shular jumlasiga animizm (ruhga sig‘inish), totemizm (ajdodlar ruhiga siginish) magiya (sehrgarlik) va boshqalar kiradi.

O'rta Osiyodagi turli xalqlarning qadimgi davrlardagi diniy qarashlari va e'tiqodlari, payg'ambarlari va ular ta'limotlarining yoyilishi masalalari uzoq yillardan buyon tadqiq etilayotgan bo'lsada olimlar orasida ilmiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. Tarixdan ma'lumki, ahamoniylar davridan toki arab bosqiniga qadar O'rta Osiyo xalqlari orasida asosiy din - zardushtiylik dini bo'lgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Zaratushtra afsonaviy emas balki, tarixiy shaxs hisoblanadi. Zaratushtra ma'nosi "oltin tuyali", "oltin tuya yetaklagan odam" ma'nosini beradi. Zaratushtraning qaysi yilda tug'ilganligi haqida aniq ma'lumot yo'q. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, uning tug'ilgan yili keng tarixiy sanalar yani, mil.avv. 1500-1000 yillardan boshlab, mil. avv. VII-VI asrlar bilan bog'lanadi. Bu dinning asosi yaxshilik bilan yomonlik, ziyo bilan zulmat o'rtasidagi sira tamom bo'lmaydigan kurashga asoslanuvchi ta'limotdan iboratdir. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"dir. Unda otashparastlarning diniy kalimalari, oyatlari to'plangan. "Avesto" 21 nask, ya'ni kitobdan iborat bo'lgan. Lekin u to'lig'icha bizgacha yetib kelmagan. Hozir fanda "Avesto"ning "Yasno", "Yasht", "Videvdad", "Vispered" kitoblari ma'lum. Bu kitoblarning har biri ma'lum vazifalarga bag'ishlangan. Masalan, "Yasno" namoz uchun zarur duolarni, "Videvdat" Axuramazdaning dushmanlari bo'lgan devlarning maxv etishga mo'ljallangan duolar to'plamini, "Visparat" namoz va zikru sanolarni, "Yasht"lar esa Axuramazzadan boshlab u yaratgan turli xudolar sha'niga aytilgan, o'qilishi ko'p savobli hisoblangan alqov (gimm)lar to'plamini o'z ichiga olgan.

Eng muhimi va qimmatlisi "Avesto" Vatanimiz tarixini o'rganishda beba ho manba hisoblanadi. Rivoyatlarga qaraganda, zardushtiylik dinining birinchi "muqaddas olovi" Xorazmda yoqilgan. "Avesto" da tasvirlangan "Ayriana Vayjo" degan mamlakat Xorazm bo'lishi ehtimol. Axuramazda shu mamlakatda Zardushtga ko'rinish bergen. "Ayriana-Vayjo" degan afsonaviy mamlakatning "Avesto"da saqlanib qolgan tasviri Xorazmning jug'rofiy sharoitlariga juda muvofiq keladi. "Avesto"dagi Urva (Urganch), Ardvı (Amudaryo), Voruxash (Orol dengizi) kabi atamalar ham shu fikrni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Xorazm so'zining o'zi ham

"Quyoshli yer" ("xvar"-quyosh va zam- yer) degan ma'noni bildirib, uning quyoshga sajda qiluvchi mamlakat ekanidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimda o'zlarining yozuvlariga ham ega bo'lganlar. Xususan mil. avv. birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi keng tarqalgan. Bu yozuv negizida Avesto, Xorazm, Sugd, Kushon-Baqtriya, Urxun- Enasoy, Uyg'ur kabi bir qator mahalliy yozuвлar paydo bo'ldi

Shunday qilib, qadimgi ajdodlarimiz o'zining rivojlangan davlatchiligi, yuksak rivoj topgan madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shganlar.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. O'zbekiston hududida topilgan va o'rganilgan ibridoiy ajdodlarimiz yashagan qanday manzilgohlarni bilasiz?
2. Arxeologiya, antropologiya fanlari nimalarni o'rganadi?
3. O'zbekiston hududdidagi ibridoiy jamoa tuzumi tarixini qanday davrlarga bo'lib o'rganmoq ma'qul?
4. Paleolit davriga oid O'zbekiston hududida topilgan va o'rganilgan makonlarni toping?
5. Neolit davriga oid madaniy makonlar O'zbekistonni qaysi xududlaridan topilgan?
6. Urug'chilik jamoasi qaysi davrda shakllandi va uning bosqichlarini aniqlang?
7. Urug'chilik jamoasi insoniyat turmush tarzida qanday o'zgarishlarga olib keldi?
8. O'q-yoy qachon kashf etildi, uning inson hayotidagi ahamiyati ?
9. Neolit davrida ajdodlarimiz nimalarni kashf etganlar?
10. Bronza davrida ajdodlarimiz ijtimoiy hayotida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?

### **3-mavzu: O‘ZBEK DAVLATCHILIGI, UNING POYDEVORI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI. MILLIY DAVLATCHILIK QURILISHI TAJRIBASI**

#### **Reja:**

1. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari.
2. Ilk davlatlar. Xorazm va Baqtriya – ilk o‘zbek davlatchilik poydevori.
3. Ahamoniylar va yunon-makedon qo’shinlarining O‘rta Osiyon bosib olishi. Mahalliy aholining bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun kurashi.
4. Buyuk ipak yo‘lining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.

**Tayanch tushunchalar:** Mehnatning dastlabki yirik taqsimoti, sun‘iy sug‘orma dehqonchilik, dehqonchilik xo‘jaligi, savdo va madaniy aloqalar, davlat, jamiyat, urug‘, oqsoqol, xususiy mulkchilik, urug‘ uyushmlari va qabilalar, siyosiy boshqaruv, mehnat qurollari yasash, kulolchilik, to‘quvchilik, quruvchilik, zargarlik, katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, ahmoniylar, Shiroq, Skunxa, Frada, ilk shaharsozlik, qadimgi Farg‘ona, Qang‘, Kushonlar, Eftalitlar, Turk hoqonligi.

#### **I. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari.**

Jamiyatda davlat boshqaruvining paydo bo’lisni kishilik jamiyati tarixida muhim muvaffaqiyat va sifatiy yangi bosqich bo’ldi. Juhon tarixidagi eng qadimgi davlatlarning vujugdga kelishi va rivojlanishida O‘rta Osiyo va unga chegaradosh hududlarda yashagan xalqlarning ham hissasi katta bo’ldi.

Juhon tarixida shaharlar, siyosiy birlashmalar, uyushmalar, keyinchalik davlatlarning paydo bo’lishi bu uzoq davom etgan tarixiy jaroyondir. Olimlarning fikriga ko’ra bu jarayon turli xalqlarda turli xil yo’llar bilan bo’lib o’tgan.

O‘rta Osiyo, jumladan O’zbekiston hududlarida ham dastlabki dalatchilikka asos solinishi masalalari hanuzgacha tadqiqotchilar orasida bahs munozaralarga sabab bo’lib kelmoqda. Bu borada ushbu jarayonga asosiy turtki bo’lib, uni yanada

jadallashtirgan omillarni aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Davlat insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida, ishlab chiqarish qurollari va vositalariga xususiy mulkchilik paydo bo'lgandan va jamiyat bir-biriga qarama-qarshi sinflarga bo'lingandan keyin, kelishtirib bo'lmaydigan sinfiy ziddiyatlar mahsuli va dalili sifatida paydo bo'lgan. Davlat jamiyatga tashqaridan zo'r lab kiritilgan kuch bo'lmay, balki ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi natijasida jamiyatning o'zida vujudga kelgan. Jamiyatning boshqarishning birlamchi va asosiy shakli o'zaro qondosh-qarindosh odamlarning shaxsiy ittifoqi- urug' bo'lgan. Urug'lar hudud va til jihatdan yaqinligiga qarab birlashib, bir necha urug'dan iborat uyushmani, navbatida bir necha urug' uyushmalari birlashib qabilani tashkil etgan. Urug' tepasida urug'ning umumiyligi yig'ilishida saylab qo'yiladigan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan va ko'pchilik hurmatiga sazovor bo'lgan oqsoqollar yoki harbiy boshliqlar turgan. Urug' uyushmalari va qabilalarni ayrim urug' oqsoqollari va harbiy boshliqlardan tashkil topgan kengashlar boshqargan. Oqsoqollar va harbiy boshliqlar hech qanday imtiyozlardan foydalanmaganlar. Ularning hokimiyati oqsoqol va harbiy boshliqlarning obro'yiga, urug' a'zolarining ularga bo'lgan hurmatiga, qo'llab quvvatlashga suyangan.

Yuqorida qayd etilganidek, ijtimoiy ishlab chiqarishning taraqqiyoti, xususiy mulkchilikka asoslangan bir-biriga qarama-qarshi (antog'onistik) sinflarning vujudga kelishi jamiyatni davlat yo'li bilan boshqarish shakliga olib keldi. Davlat-tarixiy hodisa, sinfiy ziddiyatlarning mahsulidir. Sinfiy jamiyatning mavjudligi va rivojlanishining iqtisodiy sharoitlari, uning murosasiz sinfiy qarama-qarshilik kuchlarini davlat sifatida birlashtirishni va u yordamida manfaatlariga mos bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlarini mustahkamlab olishni ob'ektiv zarurat qilib qo'yadi. Hukmron sinf davlat hokimiyatidan foydalanib, irodasini qonun darajasiga ko'taradi va butun jamiyat a'zolarini shunga rioya qilishga majbur etadi. Davlatga ega bo'lgan jamiyat ibridoiy jamoa tuzumidan, avvalo, fuqarolarining hududiy printsiplial bo'yicha belgilanishi bilan farq qiladi. Ma'lumki, ibridoiy jamoa

tuzumida odamlarning biror urug‘ yoki qabilaga mansubligi, ijtimoiy mavqeい ularning qondoshligiga qarab belgilangan. Davlatli jamiyatda esa, fuqarolarning huquq va burchlari ilgari ular qaysi urug‘ yoki qabilaga mansub bo‘lganligiga qarab emas, balki ular yashayotgan hudud va shu hududning qaysi davlatga qarashiga, qaysi davlatning fuqaroligiga hamda qaysi sinfga mansubligiga qarab belgilanadi. Har qanday davlatning mohiyati uning funksiyalarida, ya‘ni davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishi uning ichki va tashqi siyosatining mazmuni va xarakteri bilan belgilanadi.

Boshqacha qilib aytganda davlat va davlatchilik mohiyatini mavjud jamiyat barcha imkoniyatlarini shu jamiyat a‘zolari manfaati yo‘lida ro‘yobga chiqarish ishiga bosh bo‘luvchi, ularning haq-huquqlarini muhofaza etuvchi siyosiy boshqaruv uslubi tashkil etadi. Demak, davlat jamiyat taraqqiyoti va uning siyosiy tizimida quyidagicha o‘rin tutadi:

1. Ma’lum hududlardagi davlat o’z hududi doirasida yashovchi tilidan, dinidan, millatidan qat’i nazar, barcha aholiga hokimiyat ta’siri o’tkazadigan yagona siyosiy tashkilotdir.
2. Davlat o’z ichiga va tashqi aloqalarda yo’lga qo’yiladigan munosabatlarda boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlardan farq qilgan holda, oliv hokimiyatga, to’la suverenitetga egadir.
3. Davlat jamiyat hayoti taraqqiyotining turli sohalari va yo‘nalishlarini muvofiqlashtirib turadi.

Shu bilan birga davlat belgilari ham mavjud. Ular quyidagilarda ifodasini topadi; davlat hududi (yaxlit mamlakat), fuqarolari, puli, tili, qo‘smini, bayrog‘i, tamg‘asi, madhiyasi, chegaralari va hokozo. Albatta, turli davr va sharoitlarda davlat davlatchilik mohiyati va belgilari turlicha bo‘lishi mumkin.

## Ilk davlatlarning asosiy belgilari quyidagilardan iborat bo'lgan:

Ijtimoiy-iqtisodiy belgilar	Arxeologik belgilar
Aholi sonining oshishi va ijtimoiy tabaqalanishni ko'rsatuvchi belgilar	Aholi turmush tarzining va turar joy manzilgohlarining oshishi, hududiy kengayishi, qabrlar va ulardagi topilmalarning soni sifatining ortishi
Ilk davlat markazi – shaharning mavjudligi	Shaharlarning paydo bo'lishi; shahar atrofida qishloq manzilgohlarining jamlanish jarayoni
Hunarmandchilikning rivojlanishi	Hunarmandchilik sohalarining birlashish jarayoni va hunarmandchilik mahsulotlari turlarining ko'payishi, sifatining ortishi
Dehqonchilikning rivojlanishi	Mehnat quollarining takomillashuvi, sun'iy sug'orishga asos solinishi va kanallarning paydo bo'lishi; dehqonchilik turlarining kengayishi
Chorvachilikning rivojlanishi	Uy hayvonlari sonining ortishi
Harbiy ishlarning takomillashuvi	Harbiy istehkomlar mavjudligi; mehnat quollarining yanada takomillashuvi, mudofaa inshootlari
Kishilarni ruhiy birlashtiruvchi markazlashgan din	Oila altarlarining mavjudligi; monumental ibodatxonalar

Savdo va madaniy aloqalar	Moddiy madaniyat namunalari, qadimgi savdo yo'llarining takomillashuvi
Jamiyatning sivilizatsiya darajasi va hokazo.	Qadimgi yozuvlar

Jahon tarixidagi eng qadimgi davlatlar Messopotamiya va Misr hisoblanadi. Ular miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda ilk quldarlik davlatlari sifatida vujudga keldi. Qolgan hududlarda esa birmuncha keyinroq, ya'ni miloddan avvalgi II-I mingyilliklarda vujudga kelgan va rivojlangan.

## **2. Ilk davlatlar. Xorazm va Baqtriya – ilk o'zbek davlatchilik poydevori.**

Istiqlol sharofati bilan sobiq sho'ro hokimiyati davrida soxtalashtirilgan davlatchilik tariximiz o'z o'mniga qo'yildi. Davlatchilik tarixini anglash, uni tadqiq etishga keng yo'l ochildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan o'zbek davlatchiligi konsepsiyasining yaratilish va shu asosda davlatchiligidan xolisona tarixini yaratish vazifasi qo'yildi.

Markaziy Osiyo hududida ilk davlat uyushmalari miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida paydo bo'la boshladi va ular o'zbek davlatchiligi tarixini boshlab berdilar. O'zbekistonda davlatchilikning kelib chiqishida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda shakillangan, asoslangan dehqonchilik xo'jaligi, hunarmandchilik va mahsulot almashishning paydo bo'lishi asosiy omil bo'lib xizmat qilganligini alohida ta'kidlamoq kerak.

Salkam uch ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi davlatchiliginig shakllanishi va rivojlanishi davrlarga bo'linib, u quyidagilardan iborat:

I. O'zbekiston davlatchilikka o'tish davri (mil.avv. II ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmi):

2. Ilk davlat uyushmlari (mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmi):

3.Qadimgi davr davlatchiligi tarixi (mil.avv. IV asr oxiri milodiy IV asr):

4. Ilk o'rta asr davlatchiligi tarixi ( V-VIII asr o'rtalarigacha):
5. Rivojlangan o'rta asrlar davlatchiligi (IX-XIII asr boshlari):
6. Amir Temur va temuriylar davlati (XIV asr ikkinchi yarmi-XVI asr boshlari):
7. XVI-XIX asr birinchi yarmi davlatchiligi tarixi:
8. O'zbekiston XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr mustamlakachiligi davrida:
9. Mustaqil O'zbekiston davlatchiligi bir necha ming yillik o'zbek davlatchiligining davomi va vorisi sifatida.

Tabiiyki, o'zbek davlatchiligi tarixidagi bu davrlar bir qator bosqichlarga bo'lib o'rganiladi.

Markaziy Osiyo hududida miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan ilk davlat uyushmalari - bu "Katta Xorazm" va "Qadimgi Baqtriya" davlatlaridir.

Hozirgi Afg'onistonning shimoli-sharqi, O'zbekistonnig janubi va Tojikistonnig janubi-g'arbida joylashgan hududlar turli yozma manbalarda turlicha atalgan. Ya'ni, Bahdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya Tuxolo va boshqa nomlar bilan aytib o'tiladi. Hozirgi kundagi zamonaviy adabiyotlarda esa uni Baqtriya deb atash e'tirof etilgan.

Ma'lumki so'nggi bronza davrida mehnatning dastlabki yirik taqsimoti ro'y beradi. Chorvachilikdan ajralib chiqadi iqtisodiy hayotdagi siljishlar natijasida ortiqcha mahsulot paydo bo'lib, bu mahsulot ma'lum shaxslar qo'lida to'plana boshlaydi. Qishloqlar kengayib shaharlarga borar ekan, bu shaharlar eng qadimgi viloyatlar va davlat uyushmalarining ma'muriy markaziga aylana boshlaydi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo hududlaridan topilgan piktografik belgi yozuvlar bronza davriga oid bo'lsada, ularning soni kam bo'lib, qadimgi dunyo haqida to'liq ma'lumotlarni bera olmaydi. O'rta Osiyo hududlaridan miloddan avvalgi III-II asrlarga oid ko'plab moddiy manbalar, ya'ni tanga pullar topilgan bo'lib, ular qadimgi tarixni o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

O'rta Osiy hududlaridagi dastlabki davlat uyushmalari haqidagi yozma

manbalar- zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto", mixxat yozuvlari, yunonrim tarixchilarining asarlari hisoblanib bu manbalardagi ma'lumotlarning ba'zilarida bir-birini inkor etish hollari uchrab turadi. Shuning uchun ham mavjud yozma manbalar bilan arxeologik tadqiqotlar natijalarini solishtirish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyo hududida tashkil topgan eng qadimgi davlatlar tarixini o'rghanishda bizga arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyoviy dalillar, yozma manbalar, masalan "Avesto", Beruniyning "Osorul-boqiya"... ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") kabi asarlar, ko'hna Eroniy yozuvlar, yunon xitoy muarrixlarining yozib qoldirgan ma'naviy meroslari yordam beradi. Manbalarning guvohlik berishicha o'tmish ajdodlarimiz miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida temirni kashf etdilar, natijada har qanday taraqqiyotning to'rt qism bo'lib kelgan mehnat qurollarining takomillashuvi uchun keng imkoniyat tug'ildi. Oqibatda inson faoliyati kengaydi va jadallahdi. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, miloddan avvalgi I-ming yillikning birinchi yarmidayoq mintaqada tog' jinslarini, xususan, temir, oltin, qalay, qo'rg'oshin va hokazolarni qayta ishlash , ulardan jang, mehnat qurollari yasash, kulolchilik, to'quvchilik, quruvchilik, zargarlik kabi sohalarda keng foydalanilgan. Bundan tashqari, miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda Xorazmda uzunligi bir necha o'n kilometr, eni bir necha o'n metrni tashkil etgan ulkan sun'iy sug'orish kanallari mavjud bo'lganligi tarixdan ma'lum. Bu hol sun'iy sug'orish ishlarining ajdodlarimiz hayotida katta o'rin tutganligini ko'rsatadi. Bunday katta hajmdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik bo'lgan ishlarni e'tiborli va nufuzli kuchga ega bo'lgan davlat tuzilmasi mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshirish mumkin edi. Demak, o'z-o'zidan xulosa chiqarish mumkinki, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning birnchi yarmidayoq vatanimiz hududida dastlab davlat uyushmalari tashkil topganligiga shubxa yo'q.

Qator ilmiy, yozma va arxeologik manbalarga qaraganda Markaziy Osiyo hududida ahamoniylarning hukmronligiga qadar bir necha davlat uyushmalari tashkil topgan. Bulardan biri "Katta Xorazm" davlati bo'lib, Amudaryoning quyi

oqimidagi yerlar uning tarkibiga kirgan. "Katta Xorazm" davlati to‘g‘risida bir qator xorazmshunos olimlar, shu jumladan birinchi o‘zbek arxeolog olimi Y.G’.G’ulomov qimmatli ma‘lumotlar bergenlar. Ularning xulosalariga qaraganda Zardusht shu zamindan bo‘lib, ta‘limotini boshqa viloyatlarga tarqatgan. "Avesto"da "Katta Xorazm" ga qarashli viloyatlar birma-bir sanab o‘tiladi. Bunga ko‘ra, "Katta Xorazm" hududiga qarashli bo‘lgan. Bu fikrni yunon muarixi Gerodot tasdiqlab, "Katta Xorazm" davlatining ekin maydonlarini sug‘orish uchun Oks daryosiga tug‘on qurilganligi to‘g‘risida ma‘lumotni qoldirgan.

"Xorazm" atamasining kelib chiqishi haqida xilma-xil fikrlar mavjud. Bir gurux olimlar "Xorazm" atamasining ikkinchi komponenti – zmi, - zamni hind evropa tillariga mansub – zemo – yer, o’lka degan ma’nosini beradi, degan xulosaga kelganlar. Bu so’zning birinchi komponentiga kelganda olimlar fikrlaridagi yakdillik yo’qoladi va u turlicha – "Ozuqaga boy mamlakat", "Unumdar yer", "Kunchiqar mamlakat", "Quyoshli o’lka" tarzida talqin qilinadi. Ikkinci gurux olimlar "Xorazm" atamasi uch leksema asosida ya’ni Uvarizami, u-”yaxshi”+vara – "qa’la", "qo’rg’on"+zimi – "yer" paydo bo’lgan deb hisoblab, mazkur atamaning ma’nosini "yaxshi qo’rali yer", "Mustahkam qo’rg’onli diyor" deb tarjima qiladilar.

Xorazm qadimgi shahar madaniyati va davlatchiligining shakllanishida butun O’rta Osiyo xududlarida bo’lgani kabi tashqi ta’sir va madaniy aloqalarni inkor etmagan holda ushbu makonda o’troq dehqonchilikka o’tish, sug‘orish taqtibining shakllanishi, o’troq aholi xo’jaliklarining taraqqiy etishi keyingi davrlardagi davlatchilik an’analari shakllanishi uchun asos bo’lgan.

Ahamoniylar bosqiniga qadar Markaziy Osiyo hududida tashkil topgan ikkinchi davlat uyushmasi - bu Qadimgi Baqtriya podsholigidir. Ba‘zi ma‘lumotlarga qaraganda uning tarkibiga Sug‘d va Marg‘iyona ham kirgan. Yunon muallifi Ktesiy Baqtriya haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. U Baqtriyadagi ko‘plab shaharlar, mustahkam poytaxt shahar Baqtra (Balx), davlat podshosi Oksidat, uning boyliklari to‘g‘risida hikoya qiladi. Bundan tashqari Gerodot asarlarida ham Baqtriya davlati Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga

olinadi. Gerodot o'zining "Tarix" asarida Baqtriya va baqtriyaliklarni 45 marta tilga oladi." Baqtriya" atamasini miloddan avvalgi V asrda sahnaga qo'yilgan Esxelning "Fors"lar Tragediyasida ham uchratish mumkin.

Arxeologik ma'lumotlar ko'p hollarda yozma manbalar ma'lumotini tasdiqlaydi. Shunday ekan, arxeologiya ma'lumotlarining guvohlik berishicha, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Baqtriyada shaharlar shakllanib bo'lgan edi. Oltindilyortepa, Baqtriya va Qiziltepa kabi ko'hna shaharlar mustahkam himoya devorlar bilan o'rab olinganligi bu hududlarda davlatchilik rivojlanishining asosi edi.

Baqtriyaning tabiiy boyliklari, ayniqsa, Badaxshon lojuvardi (lazuriti) Old Osiyo davlatlarida mashhur bo'lgan. Baqtriya podsholigi to'g'risidagi tarixiy haqiqatni arxeologiyaga oid qidiruv topilmalari ham isbotlaydi.

Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida Baqtriya hududlarida juda katta tarixiy-madaniy o'zgarishlar vujudga keldi. Bu o'zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan:

1. Temir buyumlarining paydo bo'lishi va tarqalishi.
2. Qal'ali qishloqlarning paydo bo'lishi va ularning shaharlarga aylanishi.
3. Moddiy madaniyatning rivojlanishi.
4. Sharqiy Eron qabilalarining migratsiyasi.

Xulosa qilib aytganda, Markzaiy Osiyo hududini ahamoniylar sultanati bosib olgunga qadar bu ona zaminda shakllana boshlagani 3,5 ming yildan kam emasligi ilmiy jihatdan asoslangan ikkita yirik davlat birlashmalari - "Katta Xorazm" va "Qadimgi Baqtriya," davlatlari bo'lgan.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy davlatlaridan yana biri Sug'diyonadir. Sug'diyona o'lkasi qadimgi manbalarda Sug'd, Sug'uda, Sug'diyona nomlari bilan yuritilgan. Bu nomlarning kelib chiqishi va ma'nosi haqida aniq fikr hozircha yo'q. Bu davlat qadimda Qashqadaryo va Zarafshon vohalari hududida shakllangan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida o'lkamiz Eronda asos solingan ahamoniylar sultanati qo'l ostiga tushib qoladi. Muqaddas kitob «Avesto» Persopol

Bexistun yozuvlari va boshqa qator yozuvlar qadimgi yunon tarixchilari qoldirgan ma'lumotlar guvohlik berishicha, o'sha vaqtarda o'lkamizda Xorazm, Sug'diyona, Marg'iyona, Baqtriya kabi iqtisodiy-jug'rofiy birliklar, siyosiy-ma'muriy hududlar mavjud bo'lib, vohalardagi Sug'diyonada hayot o'troq holatda, dashtubiyobonlardagi turmush esa yarim ko'chmanchi tarzida bo'lgan. Bu vaqtda yirik-yirik qabilalar ittifoqi – ya'ni davlatchilikning ilk shakllari mavjudligi ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jihatdan birlashish zaruriyatini tug'dirdi. Markaziy Osiyoning ahamoniylar tomonidan bosib olingan qismida Xorazm, Parfiya, Baqtriya, Marg'iyona, Sug'diyona va boshqa viloyatlar- ahamoniylar podsholari satrapiyahokimliklari tashkil etdilar. Bu hududlarni fors podsholari tomonidan tayinlab qo'yilgan satraplar-hokimlar boshqarganlar. Gerodotning ma'lumotlariga qaraganda Markaziy Osiyo viloyatlari to'rtta satrapiyani tashkil qilgan.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra Sug'diyonada hunarmandchilik muassasalari yirik manzilgohlar ichida markazlashib boradi. Bu kabi o'zgarishlarni Afrosiyob topilmalari ham tasdiqlaydi. Bunday manzilgohlar asta-sekinlik bilan hunarmandchilik, savdo va madaniy markazlariga aylanib boradi. Albatta bu jarayonda qadimgi yo'llar kata rol o'ynaganligini aytish joiz. Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo'rg'on kabi ko'hna shaharlar O'rta Osiyo shimoliy dasht hududlaridan keluvchi yo'llar ustida joylashgan.

Arxeologik tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik natijasida bronza davridayoq O'rta Osiyo hududlarida ijtimoiy tabaqlanish va mulkiy tengsizlik paydo bo'ladi. Bu jarayon faqat ichki sabablarga bog'liq bo'lmay balki, Yaqin Sharqdagi rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog'liq bo'lgan.

## Qadimgi Sug'diyonaning shahar va qishloqlari (mil.avv. VII-IV asrlar)

Nomi	Tashkil topishi va faoliyati	Joylashgan hududi
Afrosiyob I, II	mil.avv. VII-IV asrlar	Samarqand Sug'di
Yerqo'rg'on I, II	mil.avv. VIII-V asrlar	Qashqadaryo Sug'di
Uzunqir	mil.avv. VIII-VI asrlar	Qashqadaryo Sug'di
Sangirtepa	mil.avv. IX-VI asrlar	Qashqadaryo Sug'di
Daratepa	mil.avv. VII-VI asrlar	Qashqadaryo Sug'di
Saroytepa,	mil.avv. VII-IV asrlar	Qashqadaryo Sug'di
To'rtburchaktepa,		
Somontepa		
Qumrabod,      Arabon,	mil.avv. VI-IV asrlar	Buxoro Sug'di
Chordara,      Xo'ja		
Bo'ston	mil.avv. IV asrlar	Buxoro Sug'di
O'ratega		
Ko'ktepa	mil.avv. VII-VI asrlar	Samarqand Sug'di
Qo'rg'oncha	mil.avv. IV-III asrlar	Qashqadaryo Sug'di
Laylaqo'ytep	mil.avv. IV asrla	Samarqand Sug'di

### **3. Ahamoniylar va yunon-makedon qo'shinlarining O'rta Osiyoni bosib olishi. Mahalliy aholining bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun kurashi.**

Ahamoniylar davlati miloddan avvalgi VI asrda shavqatsiz kurashlar natijasida Eronda vujudga kelgan. Uning egallagan hududlari Misrdan to Shimoli-G'arbiy Hindistonga qadar cho'zilgan edi. Ahamoniylarning Kir II, Kambiz, Doro I, Kserks kabi hukmdorlari qadimgi Sharqdagi juda ko'plab mamlakatlarni egallab ularning ustidan o'z hokimiyatlarini o'rnatganlar. Ahamoniylar davlatining poytaxti Pasargad, Persopol, Suza shaharlari bo'lган. Ahamoniylarning hukmdori Kir II massagetlar ustiga mil.avv. 530 yilda bostirib kiradi. Tarixiy manbalarga ko'ra, O'rta Osiyo xalqlari ahamoniylar bosqiniga qarshi mardonavor kurash olib borganlar. Bosqinchilarga qarshi massagetlar qabilalari malika To'maris boshchiligida forslarning hiyla-nayranglariga qaramasdan, ularning qo'shniları ustidan g'alaba qozondilar. Bu jangda ahamoniylarning hukmdori Kir II ham halok bo'ladi.



Yunon tarixchisi Poliyen o'zining "Harbiy hiylalar" nomli asarida Shiroq qahramonligi haqidagi afsona to'g'risida ma'lumot beradi. Afsonada sak qabilasidan chiqqan cho'pon Shiroqning buyuk jasorati, vatanparvarligi hikoya qilinadi. Shiroq o'z qabilasini himoya qilib bosqinchi Doro qo'shinlarini hiyla ishlatib, chalg'itib suvsiz Qizilqumning dasht-sahrosiga boshlab boradi. Natijada suvsizlik va ochlikdan Shiroq ham, fors qo'shniları ham halok bo'ladi.

Mil.avv. 522 yilda ahamoniylar taxtiga Doro I hukmdor bo'ladi. U hukmdor bo'lishi bilanoq Parfiya, Marg'iyona va forslarga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Bu qo'zg'olonlar shavqatsizlarcha bostirilib, qariyib 55 ming marg'iyonalik halok bo'ladi. Bu qo'zg'olonga boshchilik qilgan Frada ham qo'lga olinib qatl ettiriladi. Undan tashqari "saklar o'lkasi" dagi forslarga qarshi qo'zg'olonga Skunha boshchilik qiladi. Mil. Avv.



519-518 yillarda bo'lib o'tgan bu kurashda saklar forslar tomonidan mag'lubiyatga uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, bosqinchi ahamoniylarga qarshi sabot- matonat bilan kurashgan To'maris, Shiroq, Frada, Skunha kabi ajdodlarimizning tarixiy shaxslar sifatida davlatchiligidan katta o'rin egallaydi. Chunki ular ulkan hududlarda yuz minglab kishilar ustidan hukmronlik qilgan podsholar, malikalar bo'lib, bir vaqtning o'zida davlat arboblari hamdir. Qadimgi yunon tarixchilari (masalan, Ktesiy) shohidlik berishicha, ahamoniylarga qarshi kurashlarda o'lkamiz podshoh-u malikalari minglab kishilarni jangga safarbar eta olgan. Ko'psonli qo'shinni boshqarish, ta'limotidan xabardor bo'lish kabi katta yumushlar tegishli tashkilotchilik qobiliyatini talab qiladi, bularni amalga oshirishi davlat va davlatchilikka xos alomatlardir.

Miloddan avvalgi IV asrga kelib ahamoniylarning hokimiysi kuchsizlana boshlaydi, mustamlakasida bo'lgan xalqlar o'z mustaqilligiga erishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Miloddan avvalgi IV asrga kelib Xorazm davlati ahamoniylar tazyiqidan xalos bo'lib ichki va tashqi siyosatini mustaqil olib borgan.

Shu asrning ikkinchi yarmida makedoniyalik Iskandar ahamoniylarga zarba berib, Markaziy Osiyoning aksariyat qismini egallab oldi. Xorazm hukmdori Farasman tashqi siyosatda bilimdonlik bilan ish tutib, Iskandar bilan harbiy itifoq tuzib, davlatining mustaqilligini saqlab qolishga erishdi. Iskandar o'limidan (mil.avv.323 yil) so'ng Baqtriya, So'g'diyona va Marg'iyona esa uning lashkar boshilaridan bo'lmish Selevk asos solgan sulola asorati ostida qoldi.

Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida So'g'diyona, Marg'iyona, Choch va Farg'onaning bir qismini ichiga olgan Baqtriya davlati yuzaga keldi. Baqtriya davlati kuchayib, tez orada u g'arbda Eronning sharqiy qismini, janubda Qandaxor viloyatini, Sharqda Xitoygacha bo'lgan hududni egalladi. Baqtriyalik hukmdorlar kumush tangalarini zorb etganlar.

Miloddan avvalgi taxminan 170-yilda Sug'diyona Yunon-Baqtriya tarkibidan ajralib, Xorazm tomon og'a boshlaydi. Bu hol Chochda ham yuz bergen. Shu tariqa

miloddan avvalgi II asr o‘rtalarida dastlab Choch, Parkana, So‘g‘diyona Sharqiy Turkiston hududlarini ichiga olgan yangi davlat Qang‘ davlati paydo bo‘ldi. Xitoy solnomalarida bu davlat Qang‘yuy deb tilga olinadi. Tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda bu davlat qo‘smini, davlat boshqaruvi, kumushdan ishlangan tangasiga ega bo‘lgan.

O‘zbek davlatchiligi tarixida Kushon davlatining tashkil topishi va faoliyati alohida bosqich hisoblanadi. Miloddan avvalgi I40-130 yillarda sak qabilalari tazyiqi ostida Yunon-Baqtriya davlati barbod bo‘ldi. Shu davrda Sharqiy Turkiston tarafdan ko‘chmanchi yuechji qabilalari ikki daryo oralig‘i hududiga siljiy boshladilar. Ular tarkibida beshta guruhi bo‘lib, Guyshuan guruhi ustunlik qiladilar va qolgan guruhlar ustidan hokimiyatlarini o‘rnatadilar. Xitoy manbalaridan ma‘lumki, yuechjilar Baqtriyani bosib olganlaridan keyin, Guyshuanning hokimi Kadfiz qolgan hududlarni ham buysundirib oladi va o‘zini Kushon davlatining podshohi deb e‘lon qiladi. Eramizning 78-123 yillarida podshohlik qilgan Kanishka davrida Kushon eng qudratli davlatga aylanadi. Aynan Kanishka davrida tangalar zarb etilib, ularda birinchi marta baqtar tilidagi yozuvlar paydo bo‘ladi.

Eramizning III asriga kelib Xorazm Kushonlar ta‘siridan holos bo‘lib, mustaqilligini qayta tiklashga erishadi. V-asrda mintaqa siyosiy maydoniga yangi siyosiy kuch-eftalitlar chiqadi. Ular avval Markaziy Osiyonni, so‘ngra sharqiy Eron , Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonni bo‘ysundiradilar. V asrning o‘rtalaridan Markaziy Osiyo hududi Turk hoqonligi tarkibida bo‘lgan. Hoqonlik ikkiga bo‘lingach bizning o‘lkamiz G‘arbiy Turk hoqonligi hududida bo‘lib, VI asr o‘rtalarida u bir necha mayda davlatlarga bo‘linib ketgan. Arablar bosqini arafasida Markaziy Osiyonni birlashtirib turadigan bironta kuch yo‘q edi. Bo‘linib ketgan bu ulkan arablar VIII asr boshida tezgina zabit etdilar. Arab halifaligiga qaramlik IX asr oxirlariga qadar davom etdi.

IX-XII asrlar o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyo hududida bir qator mustaqil davlatlar tashkil topdi. Bu davlatlarning boshqarish uslubi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Xususan,

arablar hukmronligini bartaraf etib, tashkil topgan mustaqil markazlashgan davlatlardan biri Somoniylar davlatidir. bu davlatning boshqaruvi saroy va devonlardan iborat edi. Boshqaruv idorasida 10 ta devon bo‘lgan va ular orqali butun davlat idora etilgan.

#### **4.Buyuk ipak yo‘lining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.**

Ilk bor Xitoy hududidan boshlanib g‘arbga tomon minglarcha kilometr masofaga cho‘zilgan (12 ming km), Sharq bilan G‘arbni tutashtirgan bu noyob savdo yo‘li ulug‘ ajdodlarimiz sa’y-harakatlari samarasi o‘laroq umumbashariyat tadrijiy taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan.

Buyuk Ipak yo‘li tushunchasini birinchi bo‘lib fanga taniqli nemis olimi Fon Rixtgofen olib kirgan. U XIX asrning 70-yillarida yozgan «Xitoy» nomli klassik asarida bu terminni chuqur ilmiy asoslab berdi. Buyuk ipak yo‘li Xitoyning Sian shahridan boshlangan Lanjou orqali Dunxuanga (Sharqiy Turkiston) kelib, bu yerdan u ikkiga ajraladi. Ipak yo‘lining janubiy - g‘arbiy tarmog‘i Taklamakon sahrosi (Mo‘g‘uliston) orqali Xo‘tanga, undan Yorkentga kelib, undan Balxga tomon o‘tadi. Balxda yo‘l yana uch tarmoqqa ajraladi. G‘arbiy tarmog‘i Marvga, janubiy tarmog‘i Hindistonga, Shimoliy tarmog‘i Termiz orqali Darbent, Nautak va Samarqandga tomon yo‘naladi. Ipak yo‘lining Shimoliy-g‘arbiy tarmog‘i esa Dunxuandan Bami, Turfon orqali Tarim vohasi-Qashqarga boradi. U yerdan Toshqo‘rg‘on orqali O‘zgan, O‘sh, Quva, Axsikent, Popga, Asht orqali Xo‘jand, Zomin, Jizzaxga, so‘ngra Samarqandga borib tutashadi. Samarqanddan esa bu yo‘l yana davom etib, Dabusiya, Malik cho‘li orqali Buxoro, Romitonga, undan Varaxsha orqali Forobga borib Amul shahriga o‘tadi. Amulda esa bu yo‘l Marvdan Urganch sari yo‘nalgan yo‘lga qo‘shiladi. Marv shahri O‘rtalasrlar davrida Buyuk ipak yo‘li chorrahalarini kesishgan eng muhim hayotiy nuqta bo‘lgan. Eng muhimi shundaki, Buyuk ipak yo‘lining g‘arbdan keladigan savdo karvonlari, aytaylik, Italiya, Ispaniya va boshqa O‘rtalasrlar dengizi mamlakatlarining savdogarlari ham o‘z mollarini Tir, Damashq, Kichik Osiyo, Eron orqali yana O‘rtalasrlarning yirik savdo markazi Marvga olib kelar, shu yerdan Sharq tomon yo‘llarini davom ettirardilar.

Shu ma'noda Marvning turli dinlar ildiz otgan, turli madaniyatlar tutashgan joy bo'lganligi alohida ahamiyatga molikdir.

Buyuk Ipak yo'li Sharq-u G'arbni bog'lovchi, turli mamlakatlarning savdo sotiq, tijorat aloqalarining eng asosiy vositasi bo'lganidan, bu yo'nalishda joylashgan davlatlar undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga, yoxud bu borada o'z mavqeini mustahkamlashga intilganlar.

Buyuk ipak yo'lining shuhrati ayniqsa XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda, ya'ni Amir Temur va temuriylar davrida yanada ortdi. Sohibqiron mamlakatning yuksak rivojida xalqaro savdoning nechog'lik ulkan ahamiyat kasb etishini bilganligidan, bu sohani butun choralar bilan o'stirishga alohida e'tibor bergen. Bunda yurt tinchligi, ulus farovonligi masalalari har doim uning diqqat markazida turgan. Shu bois ulug' Amir savdo yo'llarini qo'riqlash, odamlar, musofirlar, turli yurt savdogarlari manfaatlarini bosqinchilar, qaroqchilar tajovuzidan muhofaza qilishni muhim davlat ahamiyatiga molik vazifalardan deb hisoblagan.

Amir Temur tashabbusi bilan mamlakatning har bir yirik shaharlarida savdo karvonlarining kirishi va chiqishini nazorat qiluvchi davlat nazorat xizmati va maxsus bojxonalar tashkil etilgan. Savdo karvonlaridan mollarning hajmi, miqdoriga qarab boj to'lovlari undirilgan. Bu davrda poytaxt Samarqand dunyo savdogarlarining yirik markaziga aylandi. Uning keng ko'chalari bo'ylab maxsus qurilgan muhtasham karvonsaroylar, savdo bozorlari, rastalarida tun-u kun savdo-sotiq ishlari to'xtamagan. Turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar o'z mollarini xaridorlarga sotganlar yoxud o'zlariga kerakli mollarni xarid qilganlar.

Buyuk ipak yo'li XVI asrdan e'tiboran o'z ahamiyati va rolini yo'qotib, tushkunlik sari yuz tutdi. Bu hollarni qanday sabablar bilan izohlash mumkin. Tabiiyki, bu jarayon o'z-o'zidan, bir lahzada to'satdan sodir bo'lib qolgani yo'q, albatta. Bizning nazarimizda, Buyuk ipak yo'li ahamiyatining so'nib, pasayib borishi bir qator obyektiv va subyektiv sabablar orqasida, tarixiy jarayonlarning murakkab, ziddiyatli kechishi davomida yuz berganligi shubhasiz.

Birinchidan, Amir Temur va temuriylar sulolasining pirovard oqibatda chuqr inqirozga yo‘liqishi va tarix sahnasiga boshqa hukmron sulolalarning, chunonchi, Shayboniyxonlar, Ashtarxoniylar sulolasining chiqishi hamda ularning boshqaru usulining g‘oyatda murakkab kechganligi, markaziy hokimiyatning kuchsizlanib, mamlakat hududlarining tarqoq holatga uchrashi o‘z qobig‘iga o‘ralishi va hokazo hollar bu hududning tashqi dunyodan tobora ajralishiga bois bo‘ldi.

Ikkinchidan, Movarounnahrga kelib o‘rnashgan o‘zbek urug‘lari, ularning amir-beklari, sultonlari o‘rtasida hokimiyat talashib olib borilgan o‘zaro jangu jadallar, doimiy qon to‘kishlar natijasida o‘lka tobora iqtisodiy bo‘hronlarga duch kela bordi, siyosiy beqarorlik avj oldi. Mamlakat tashqi davlatlar bilan aloqalar bog‘lash, iqtisodiy, savdo-sotiq bobida hamkorlik qilish imkoniyatlaridan mahrum bo‘ldi.

Uchinchidan, ilg‘or Yevropa olimlari, sayyoohlari tomonidan XV-XVI asrlardan e’tiboran boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar, bularning natijasida jahonning turli qutblari tomon yangi, qulay suv yo‘llarining ochilishi, shu jumladan, Hindiston, Xitoy va boshqa sharqiy-janubiy mamlakatlarga tomon shunday yo‘llarning kashf etilishi, bular Buyuk ipak yo‘li shuhratining pasayishi va so‘nib borishiga olib keldi.

O‘zbekistonning milliy istiqlolga erishuvi va o‘z mustaqil davlatchiligiga ega bo‘lishi uning oldiga keng istiqbol ufqlarini ochib berdi. Mustaqillik tufayli O‘zbekiston yangidan yuz ochib, jahon afkor ommasining nigohiga tushdi. Ayni chog‘da u BMTning teng huquqli a’zosi sifatida turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlar bilan o‘zaro foydali, manfaatli asoslarda hamkorlik qilish, aloqalar bog‘lashga muvaffaq bo‘ldi. Ayniqsa bunda Buyuk ipak yo‘li an’analalarini yangidan tiklash borasida hozirda jahon miqyosida olib borilayotgan davlatlararo harakatda O‘zbekistonning alohida tashabbus ko‘rsatayotganligi boisi ham mana shundandir. Zero, qadimdan Sharq bilan G‘arbni bir-biriga bog‘lagan, xalqaro savdoning qaynoq, tutash nuqtasi hisoblangan O‘zbekiston hududi va uning qadimiy shaharlari bugun ham mustaqil davlatimizni keng xorijiy davlatlar bilan bog‘lovchi muhim

vosita rolini o‘ynamog‘i ayni muddaodir. «Qadim zamonlarda Sharq bilan G‘arbni bog‘lab turgan Buyuk ipak yo‘li deb ta’kidlaydi Yurtboshimiz O‘zbekiston hududi orqali o‘tgan. Bu yerda savdo yo‘llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo‘llar shu yerda kesishadi».

Shu boisdan ham mustaqil O‘zbekiston Buyuk ipak yo‘li an’alarini butun choralar bilan tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. YUNESKO rahbariyati bilan hamkorlikda «Ipak yo‘li muloqot yo‘li» mavzusida o‘tkazilayotgan amaliy tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Davlatning paydo bo‘lishi va jamiatni davlat yo‘li bilan boshqarilishi to‘g‘risida so‘zlab bering.
2. Jahan tarixidagi eng qadimgi davlatlar qaysilari?
3. Markaziy Osiyo hududida ilk davlat uyushmalar qachon paydo bo‘la boshladi va ular qaysilari?
4. O‘zbek davlatchiligining tarixiy davrlari to‘grisida so‘zlab bering.
5. Markaziy Osiyo hududida tashkil topgan eng qadimgi davlar tarixini nimalarga tayangan holda o‘rganamiz?
6. Davan davlati haqida nimalarni bilasiz?
7. Qang’ davlati va qang’ilar haqida ma’lumot bering.
8. Ahamoniylar davri davlatchiligi haqida so‘zlab bering.
9. Kushonlar davlatining tashkil topishini va uning sultanatlik bosqichiga ko‘tarilishi to‘grisida so‘zlab bering.
10. O‘zbek davlatchiligi tarixida Kushon davlatining tutgan o‘rnini qanday izohlaysiz?

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., ”O‘zbekiston”, 1998.
2. Asqarov A.A. Eng qadimgi shahar. T., ”Fan”, 1999.

3. Asqarov A.A. Qadimgi Xorazm tarixiga oid ba'zi bir masalalar// O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar.- T., 2004.
4. Asqarov A.A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi.- T.: "Universitet", 2004.
5. Masson V.M. Perviy svilizatsii. – L. 1989.
6. Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T., "O'qituvchi", 1996.
7. Sagdullaev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi.- T.: "Universitet", 2004.
8. Eshov B. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. T.: "Fan va texnologiya", 2008.
9. Eshov B. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. T.: "Fan va texnologiya", 2008.
10. Eshov B. O'zbekistonda davlat mahalliy boshqaruv tarixi. T.: "Yangi asr avlodi", 2012.
11. Eshov B., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. T.: "Yangi asr avlodi", 2014.
12. O'zbekiston tarixi (1-qism) T., "Universitet", 1997.
13. O'zbekiston tarixi (Darslik) – T., 2003, 7-20 betlar.
14. O'zbekiston tarixi (o'quv qo'llanma) 1-qism – T., 2002, 6-21 betlar.

#### **4-MAVZU: O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI**

##### **Reja:**

1. Hozirgi o'zbek xalqining etnogenezini tashkil etgan qadimgi urug', qabila va elatlar.
2. O'zbek xalqi etnik shakllanishining bosqichlari.
3. O'zbek xalqi va hozirgi zamon

**Tayanch tushunchalar:** etnogenez, xorazmiylar, so'gdiylar, baktriyalar, saklar, massagetlar, o'zbeklarga xos antropologik qiyofaning shakllanishi, turon zaminida turkiy qavmlarning azaliy etnos ekanligi, tsivilizatsiya, jarayon davr,

Dashti Qipchoq, O'zbek atamasi, O'zbekxon, millatlar dustligi, millatlarning hamjihatligi, xalqlar, millatlar, elatlar, arxeologiya, tilshunoslik, toponomiya, etnografiya.

**1. Hozirgi o'zbek xalqining etnogenezini tashkil etgan qadimgi urug', qabila va elatlar.** Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1998 yilda bir guruh tarixchilar bilan o'tkazgan suhbatida har qanday tsivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir, deb ta'kidlar ekan, " biz o'zimizni millat deb bilar ekanmiz, o'zbekchiligmiz haqida aniq tushunchalarga ega bo'lishimiz kerak" degan muhim masalani o'rtaqa qo'ydi.

Har qanday xalqning etnogenezi murakkab va dolzarb muammo bo'lib, umum tarix fanining yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu kunlarga qadar xalqning kelib chiqishi yoki etnogenezi to'g'risidagi masala alohida fan sifatida shakllanib yetmagan , ammo yaqin kelajakda o'zida qator ijtimoiy va tabiiy fanlar yutuqlarini mujassamlashtirgan etnogenez fanining yuzaga kelishiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Tarix, arxeologiya, tilshunoslik, toponomiya, etnografiya kabi fanlarning jahon miqyosida qo'lga kiritgan yutuqlarini, ilmiy jihatdan muhim fikr-mulohazalari va xulosalarini mensimay, tor millatchilik doirasidan chiqa olmay mulohaza yuritish nafaqat fanda, balki siyosatda ham eng katta zararli xatolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ham o'zbek, tojik, turkman, qirgiz vaboshqa Markaziy Osiyo elat va xalqlarning etnogenezini, ya'ni kelib chiqish muammolarini faqat fan yutuqlariga tayaangan holda to'g'ri, ob'ektiv va holisona hal etish mumkin.

O'zbek xalqining kelib chiqishi (etnogenezi) nihoyatda murakkab va juda uzoq tarixga ega bo'lgan jarayondir. Bu sohada fan hozirgi kunga qadar ma'lum yutuqlarga erishgan. Xususan, Farg'ona vodiysidagi Selung'ur va Surxondaryodagi Teshiktoshdan topilgan qadimgi ajdodlarimiz qoldiqlari O'zbekistonning Afrika va Old Osiyo hududlari bilan bir qatorda, hozirgi zamon odamlarining paydo bo'lishi jarayoni yuz bergan hudud tarkibiga kirishi fanda uzil-kesil isbotlangan. Ayrim

olimlar tomonidan bildirilgan Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston qadimiy davrlardagi mongolid irq shakllangan hududga kiradi, degan fikrning ilmiy asossizligini tasdiqladi. O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixini o'rganish qancha uzoq ya'ni eng qadimgi davrlardan boshlansa, shunchalik uning tarkibida hozirgi kunga qadar saqlanib kelinayotgan irqiy va etnik unsurlarning xalq tarkibiga kirgan davr va uning nisbiy miqdori to'g'risida kengroq fikrga ega bo'lamiz.

Keyingi davrda o'tkazilgan taddiqatlarda, Markaziy Osiyoda, jumladan hozirgi O'zbekiston hududida yashagan ibridoiy aholining antropologik jihatdan yevropeid irqining janubiy yoki O'rta Yer dengizi pushtiga yaqin ekanligi isbotlangan. O'zbeklarning janubiy yevropeid irqining o'ziga xos pushti ekanligi janubiy O'zbekistonda kashf etilgan. Markaziy Osiyodagi eng qadimiy muste davriga oid paleolit bolaning Teshiktoshda topilgan suyak qoldiqlari orqali isbotlash mumkin. mazkur irqqa o'xshash tiplarning O'rtaer dengizi, Old va Janubiy Osiyoning ayrim rayonlarida topilishi diqqatga sazovordir.

O'zbek xalqiga xos Markaziy Osiyo ikki daryo oralig'i irqining shakllanish davri, makoni tarixi masalalarida fanda yaqin-yaqingacha yagona fikr yo'q edi. Bir guruh olimlar bu irq bundan 6-8 ming yil ilgari, ikkinchi guruh mutaxassislar 3 ming yil ilgari shakllangan desa, uchinchi guruh olimlari esa, XV1 asrlarda shakllandi deb hisoblar edilar. Antropologik izlanishlar natijasida mualliflar ikki daryo oralig'idagi irqning shakllanishi, juda boy antropologik ma'lumotlar asosida, bundan 2200-2300 yil ilgari boshlanganligini isbotlaydilar. Qator ilmiy asarlarda o'zbek xalqining shakllanishida bir qator muhim davrlar sanab o'tilgan. Bular qatorida Ahamoniylar, Iskandar Zulqarnayn, Arab halifaligi, mo'g'ullar istilosini tilga olinadi. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlari madaniyatiga, tiliga, turmush tarziga tabiiyki, ta'sirini o'tkazgan. Ammo bu yurishlarning xalqlarni irqiy va etnik tarixiga ta'siri o'ta kam bo'lganligini alohida ta'kidlash kerak.

Antropologik nuqtai nazardan qaraganda, ular xalq qonini" yoki genetikasini tubdan o'zgartira olmaganlar, o'zgartirishlari ham mumkin emas edi. Chunki, hech qachon kelgindilar aholidan ustun bo'lishi mumkin bo'lmay, balki ko'p sonli aholi

tarkibiga singib ketgan. Aholi, xususan O'zbekiston hududida, barcha tarixiy davrlarda ( maxsus antropologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha) xalq kelgindi aholidan hamisha ustun bo'lган. Bu masalaga Birinchi Prezident I.A.Karimov tarixchi olimlar bilan uchrashuvda aniq va ravshan hamda mutlaqo inkor etib bo'lmaydigan nuqtai nazarini bildirib, fikrimizcha oxirgi nuqtani qoydi.

**2. O'zbek xalqi etnik shakllanishining bosqichlari.** O'zbek xalqining etnik shakllanishi tarixi asosan uchta tarixiy davrga bo'linadi. Birinchi davr: Miloddan avvalgi birinchi ming yillikdan milodiy VIII asrgacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi. Mil.avv. asrlarda Markaziy Osiyo dasht mintaqalarida hozirgi o'zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllana boshlagan. Bu esa fanda yaqingacha keng tarqalgan fikrlar, ya'ni o'zbeklarga xos Markaziy Osiyo ikki daryo oralig'i irqi, avvalo Volga daryosi bo'yalarida va Urolda sarmot qabilalari tarkibida shakllanib tarqaldi, degan yoki bir irq Baykal ko'li atrofida va Mug'uliston cho'llarida shakllanib, tayyor holda aholiga irqini tarqatdi, degan fikrlardan voz kechishni taqoza etadi. Tadqiqitlarga ko'ra, Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona Parkana, Tohariston, Choch hududlarida o'troq va ko'chmanchilik bilan shug'ullanib kelgan ajdodlarimizning turmush tarzi bir biriga chambarchas bog'liq bo'lganligi aniqlangan. Shu hududlarda asrlar davomida yashab kelgan massagetlar, saklar, xorazmiylar, bahtarlar, so'g'diyalar, toharlar, davonliklar o'zbek xalqining asosini (etnogenezini) tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotlar o'zbeklarga xos antropologik qiyofa, dastavval, Sirdaryoning o'rta xavzasasi tumanlarida ya'ni Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, qisman Xorazmda va janubiy Qozog'istonning Chimkent viloyati, Yettisuv mintaqasida mil. avv.1 ming yillik oxirida shakllana boshlanganligi aniqlandi. Mil.avv.111-11 asrlarda bu aholi bir necha yo'nalishda Markaziy Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlariga kirib borgan. Bu antropologik tadqiqot natijalari yozma manbalarda ma'lum bo'lган xalqlarning janubga yurishi va yunon-Baqtriya davlatining tor- mor etilishi va Buyuk Kushon sultanatining barpo bo'lishi davriga mos keladi.

O'zbeklarning kelib chiqishi qadimdan tarixda saklar, massagetlar, toharlar

nomi bilan mashhur bo'lgan va qadim-qadim zamonlarda Markaziy Osiyo hamda uning tevarak atrofida ko'chib yurgan xalqlarga, Sug'd, Xorazm, Baqtriya, Parkana (Farg'ona) va Shoshning qadimiy xalqlariga borib taqaladi. O'shanda ular yashab turgan voha nomi bilan sug'diyilar, xorazmiylar, baqtriyaliklar, parkanaliklar, toshkentliklar deb atalib, tarixda qolgan.

O'zbek va tojikning xalq bo'lib shakllanishida mil.avv. birinchi ming yillikning oxirlari va milodiyning dastlabki asrlarida Jayxun va Sayxun oralig'iga ko'chib o'tgan bir qator turkiyzabon xalqlar va jayxunning Janubidan ko'chib o'tgan fors tilida so'zlashuvchi qabilalar, shuningdek IV-V asrlarda bu yerga shimol tarafdan ko'chib o'tgan xionit, kidarit va eftalit deb ataluvchi xalqlar va nihoyatda, VI-VII asrlarda Markaziy Osiyoda hukmronligini o'rnatgan G'arbiy Turk hoqonligining turkiyzabon xalqi katta rol o'ynadi.

O'zbek xalqining etnik shakllanishidagi ikkinchi muhim davr - bu IX-XII asrlar hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda, hozirgi o'zbeklarga xos qiyofa aholining asosiy qismini tashkil etgan. Ilgarilari bu jarayonni faqat XI-XII asr etnik jarayonlari bilan bog'lab ko'rilgan. Keyingi yillardagi topilgan shu davr materiallarini ikki tarixiy davrga, ya'ni IX-X va X-XII asrlarga bo'lib o'rghanish maqsadga muvofiq deb hisoblanmoqda. IX asrda O'zbekiston hududida, tadqiqotlar natijaga qaraganda, aholining antropologik qiyofasida keskin o'zgarishlar yuz bergen. Bu o'zgarishlar arxeologik qazishmalar natijasida ham kuzatilgan. O'zbeklarning elat sifatidagi shakllanish davri fanda XI-XII asrlar bilan izohlanib kelinar edi. Tadqiqot natijalari bu jarayonni IX-X asrlarga oid deyilishiga asosdir.

O'zbeklarning etnik tarkibi IX-XII asrlarda boyidi va takomillashdi. X-asr oxiri- XI asr boshlarida qoraxoniylar bilan birga Oltoy, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan Movarounnahrga ko'chib kelgan bir talay turkiyzabon qabilalar o'lka aholisining etnik jihatdan takomillashuviga ta'sir qildi. Qoraxoniylar davrida o'zbek tiliga asos bo'lgan qorluq-chig'il lahjasi rivojlandi va yozma adabiyot darajasiga ko'tarildi va ushbu lahja o'zbek xalqining umumiyligi tiliga aylandi. Yusuf Xos

Xojibning "Qutadg'u bilik", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atut-turk", Xoja Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" asarlari shu davrning ajoyib mahsulidir.

X asr boshlarida yurtimizga Chingizzon katta qo'shin bilan bostirib kirdi. Bu qo'shin tarkibida turklar va turklashgan mo'g'ullar ham bor edi. Bu qabilalar, shubhasiz, o'zbek xalqining etnik tarkibini boyitdi. Afsuski, fanda mo'g'illar istilosi Markaziy Osiyo aholisini keskin mo'g'ullashtirib, o'zgartirib yubordi, degan fikr ham bor. Lekin olimlarimizning olib borgan mahsus tadqiqotlari bu masalaga oydinlik kiritdi. Mo'g'ul istilosi O'zbekiston aholisining tashqi qiyofasiga sezilarli izlarini qoldirmaganini ta'kidlamoq kerak. Sababi, Chingizzon XII asr oxirida tashkil etgan yirik Mo'g'ul davlatida mo'g'ullar soni taxminan 0,7 million kishidan iborat bo'lган. Agar har 6 kishidan bittasi askarlikka olingen bo'lsa, unda mo'g'ul qo'shnulari 100-110 ming kishidan iborat bo'lган. Lekin o'sha davrdagi 80 million aholisi bo'lган Xitoya yurishi davrida mo'g'ullar qo'shnalarining ko'p qismini yo'qotganlar. Ular Movarounnahrga bostirib kelganida qo'shnalarining ko'pchiligi turkiy xalqlardan tashkil topgani ma'lum. Bu davrda Muhammad Xorazmshoh davlatida 20 million aholi yashagan. Tabiiyki, mo'g'ul qo'shnulari ko'p sonli aholi tarkibiga asoratini o'tkaza olmagan. Shuning uchun ham aholida mo'g'ul irqi alomatlari deyarli namoyon bo'lмаган.

O'zbek xalqining etnik shakllanishida uchinchi davr- XV asr oxiri- XVI asr hisoblanadi. Bu davrda siyosiy va iqtisodiy jihatdan ancha bo'shashgan, Markaziy Osiyoda hokim va podsholar orasidagi taxt talashishlar, xalq ommasining og'ir ahvolga tushib qolishi, qo'shni ko'chmanchi o'zbeklarga qo'l kelgan edi. Temuriylar sulolasining oxirgi hokimlari, jumladan Farg'ona hokimi Bobur va Hirot hokimi Husayn Boyqarolar Dashti Qipchoqdan kelgan qudratlari Shayboniyxon boshchiligidagi ko'p sonli qo'shnalar oldida ojizlik qiladilar. Shunday qilib, hozirgi O'zbekistonning Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylarida, Xorazm vohasi va boshqa rayonlarda Shayboniyxon bilan kelgan, "o'zbek" nomli turkiy tildagi qabilalar ham o'rasha boshlaydi, aholi bilan aralashib ketadi. Ular yangi zamindor (feodal)larni barpo etib, ko'p yerlarni zo'r lab musodara qilib olganlar,

temuriylar to`plagan barcha boyliklarni qo'lllariga kiritganlar.

**3. O'zbek xalqi va hozirgi zamon.** O'sha davrda adabiy va tarixiy asarlar, xususan, "Shayboniynoma", "Nusratnoma", "Abdullanoma", "Alpomish" kabi asarlar o'zbek tilida keng tarqadi.

"O'zbek" atamasi ilmiy jihatdan hali to`liq aniqlanmagan. Dastlab bu so`zni arab muallifi Usam ibn Munqiz (XII asr oxirlari) asarlarida uchratamiz. Keyin Rashididdin solnomalarida Jaloliddinning harbiy navkarlaridan biri "O'zbek" ismi bilan tilga olinadi.

Atoqli tarixchi Hamdullox Kazviniy (XV asr) Oltin o'rda xoni O'zbekning lashkarlarini "o'zbeklar" deb nomlaydi, tegshli o'lkani esa "Mamlakati o'zbek" deb ataydi. Nizomiddin Jomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylar o'zbeklarni Oltin o'rda nomi bilan bog'liq degan fikrni bildiradilar. Boshqa manbalarga qaraganda, XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Abulxayrxon va uning nabirasi Shayboniyxon qaramog'ida barcha qabila va elatlар birikmasiga umuman "o'zbeklar" deb nom berilgan. Abulg'ozining "Shajarai turk" asarida yozilganidek, Oq o'rda podshosi To'taguxon o'lgandan so`ng o'n uch yoshli o'g'li O'zbekxon taxtga kelgan. U ota - bobosining dasturi bilan elni zabt etib, har kimni martabasiga loyiq hurmat qilib, inomlar bergen. "Barcha xalq uch soxibi davlatning sababinidin sharofi - islom musharraf bildilar, andin so`ng barcha Juchi elin o'zbek eli dedilar" (Abulgozi "Shajarai turk"). Birinchi Prezident I.A.Karimov bir guruh tarixchi olimlar, ziyorilar bilan bo'lган suhbatda o'zbek nomining qachon paydo bo'lganligi to'g'risidagi masalani qo'ydi. "Sovet tarixshunosliklarining yozishicha"-, dedi I.A.Karimov, -go'yo XVI asrda bizning zaminimizni qipchoq xonlari ishg'ol qilgandan keyin o'zbek nomi paydo bo'lgan emish. Axir, biz Movarounnahr deb ataydigan ikki daryo oralig'ida ungacha ham xalq yashagan-ku!"

Biz sovet zamonidan qolgan bu aqidani qabul qilsak, millatimiz tarixi mana shu navbatdagi bosqinchilar davridan boshlangan degan, noto'g'ri xulosa kelib chiqmaydimi? Unda bizning necha ming yillik tariximiz qaerda qoladi? Samarqand ham, Xiva ham, Buxoro ham o'zbeklarniki ekan, bu yerlarda o'zbek davlati bo'lgan

ekan, nega endi tariximizni XVI asrdan, kimdir kelib-ketib, nomini qoldirib ketgan davrdan boshlashimiz kerak?

Ungacha ham bu yerda o'troq xalq yashaganku! Bu yerda ana shu o'troq xalqning madaniyati bo'lgan-ku! Kim kelmasin, masalan, mo'g'ullar kelgan XIII asrning 20 yillaridan XIV asrning 70- yillariga qadar hukmronlik qilganlar va ularning madaniyati madaniyatga singib ketgan. bunda xalqning madaniyati, albatta, asos bo'lgan, ustunlik qilgan. "Biz xalqni nomi bilan emas balki madaniyati, ma'anaviyati orqali bilamiz, tarixning tag - tomirigacha nazar tashlaymiz". XVI-XIX asrlar davomida O'zbeklarning etnik shakllanishi davom qilib, o'zlarining urug'-qabilaviy nomlarini to bizning asrimiz boshlarigacha saqlab kelganlar. Ular nafaqat etnik jihatdan, balki turmush tarzi uning ijtimoiy tuzumi bilan o'zaro bir oz farq qilganlar. Ayrim o'zbek qabilalari o'troq dehqonchilikka to'la o'tmagan ko'chmanchilik xo'jaligi turmush an'analarini saqlab yarim o'troq holatda yashaganlar. Ular tillaridagi (she'vasidagi) farq jihatdan ancha ajralib turganlar.

Ammo Turkiston o'lkasi va o'zbek xonliklari rus mustamlakasi tufayli jahon kapitalistik munosabatlari girdobiga tortila boshlanadi. Shu davrda asta- sekin milliy uyg'onish kurtak ota boshlaydi. Milliy burjuaziya paydo bo'ladi. Ular o'zlarining bo'lmish jadidlar orqali milliy g'urur his-tuygular, an'anaviy turmush tarzi va madaniyati uchun jiddiy kurash boshlaydilar. Chor hokimiyatining mustamlakachilik siyosati mazkur jarayonga to'siq bo'lib, o'zbek elining jahon miqyosidagi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot yo'lliga chiqishini cheklab qo'yadi. Butun Markaziy Osiyoning chorizm davrida sun'iy ravishda Turkiston general gubernatorligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligiga belgilanganligi ham elatlarning shu jumladan o'zbeklarning milliy birligiga jiddiy to'siq bo'ldi.

XX asr boshlarida kelib hozirgi O'zbekiston hududi 2,8 mln.ga yaqin o'zbeklar yashagan bo'lib, shulardan taxminan 82 foizi qishloqlarda 18 foizi shaharlarda joylashgan. Shuni alohida qayd qilish lozimki, o'zbeklarning ancha qismi qo'shni mamlakatlarda yashab, o'zlarining etnik hususiyatlarini saqlab qolganlar.

Sho'rolar istibdodi davrida o'rta Osiyoda "milliy-davlat chegaralash" o'tkazildi. Bu jarayonda jiddiy siyosiy xato-kamchiliklarga yo'l qo'yildi, Turkiston o'lkasi hududiy va etnik jihatdan yanada parchalanib ketdi.

Shunday qilib, o'zbeklarning XIX asrning ikkinchi yarmidan to O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritganga qadar tarixi, hayoti, mustamlakachilik asorati ostida kechdi. Sho'rolar hokimiyati davrida bizning yurtimiz avtoritar markazga bo'ysunuvchi xom ashyo yetkazib beradigan qaram o'lkaga aylandi. Mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan mutelik holatiga tushib qoldi.

Mustaqilligimizni qo'lga kiritganimiz bizga sobiq Ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan qoloq bir yoqlama rivojlangan, paxta yakka hokimligi va boy mineral-homashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan iqtisodiyot og'ir meros bo'lib qoldi.

"Bu og'ir merosning yana bir xususiyati, - dedi Birinchi Prezident I.Karimov Respublika Oliy Majlisning XIV sessiyasida respublikaning yoqilg'i va g'alla masalasida markazga qaramligida, un, shakar, go'sht, sut mahsulotlari kabi eng muhim oziq-ovqat mollarining, boshqa xalq iste'moli tovarlarining, tayyor mahsulotlarning chetdan olib kelinishida yaqqol ko'rindi.

O'zbek xalqining kelajagi porloq, kelajagi buyuk. Bunday xulosa qilinishiga barcha asos, shart-sharoitlar va imkoniyatlar mavjud. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida batafsil ma'lumotlar bergen.

O'zbekiston xalqi jahon yer osti boyliklari bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Mamlakat hududida mashhur Mendeleev davriy sistemasining barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'danlar mavjud istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral-xom ashyo turlarini ichiga oladi. 900 dan ortiq kon topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 mlyard Amerika dollarini tashkil etadi. Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 milyard dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda.

O'zbekiston tuprog'ining noyob unumdarligi uning muhim xususiyati bo'lib bu hol respublikani qudratli agrosanoat salohiyatiga ega mamlakatga aylantirish imkonini berdi. Bugungi kunda O'zbekiston tashqi bozorda talab katta bo'lgan mahsulot - paxa tolasining ishlab chiqaruvchisi va yetkazib beruvchisi hisoblanadi.

Mamlakatimizning haqiqiy boyligi mulki uning mehnatsevar, saxiy va mehmondo'st xalqdir. Jamiatning eng oliv boyligi bo'lgan xalq abadiy qadriyatlarini qudratli salohiyatni o'zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohotlar va tub o'zgarishlar yo'lida tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlab beradi. O'zbekistonning muhim xususiyatlaridan biri shuki, bu yerda aholining o'sish suratlari yuqori. Keyingi yillarda aholining tabiiy o'sishi bir muncha kamaygan bo'lishiga qaramay, u hali ham MDH mamlakatlari orasida eng yuqori darajadadir. Umuman olganda O'zbekiston xalqi yangi sharoitda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va hukumatimiz tomonidan qo'yilgan muayyan vazifalarni muddatida bajarish uchun hormay- tolmay mehnat qilmoqda. Bunday sharoitda har bir jamiat a'zosining vatani va uning porloq istiqboliga chinakam sadoqatligi, yuksak siyosiy ongi va vazifasini zamonaviy talablar darajasida nihoyasiga yetkazishi, ma'naviy yetukligi va axloqiy barkamolligi g'oyat muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, o'zbek xalqi O'zbekistonning tub aholisi bo'lib, uni antropologik qiyofasida o'rta Osiyo Farg'ona antropologik tipi belgilari yetakchidir. O'zbek xalqining tarixi Amu va Sirdaryo oralig'ida yashagan barcha qadimiy urug', qabila, elatlar va o'sha davrlarda kechgan etnik va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir.

### **Tekshiruv uchun savollar**

1. «Etnogenez» so'zining ma'nosi nima?
2. O'lkamiz hududlarida yashagan eng qadimgi aholi kimlar va ularning asosiy mashg'ulotlari nimalardan iborat bo'lgan?

3. O'zbek xalqi etnik shakllanishining tarixiy bosqichlari to'g'risida so'zlab bering.
4. O'zbek xalqi etnogenizining ikkinchi bosqichida o'zbek xalqining etnik shakllanishiga turkiy qavmlarning ta'siri to'g'risida so'zlab bering.
5. O'zbek xalqining milliy mustaqillik davridagi etnik holati qanday?

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., O'zbekiston, 1998.
4. Asqarov A.A. Qadimgi Xorazm tarixiga oid ba'zi bir masalalar// O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar.- T., 2004.
5. Asqarov A.A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi.- T.: Universitet, 2004.
6. Axmedov B. O'zbek usuli –T., Nur, 1992 y.
7. Vatan tuyg'usi T., O'zbekiston, 1996.
8. Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T., O'qituvchi, 1996.
9. O'zbekiston tarixi (1-qism) T., Universitet, 1997.
10. O'zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. (Darslik) - T., 2003
11. O'zbekiston tarixi (o'quv qo'llanma) 1-qism - T., 2002, 6-21 betlar.

## **5-MAVZU: ILK O’RTA ASRLARDA O’ZBEK DAVLATCHILIGI VA IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT**

### **Reja:**

- I. Xioniylar va kidariylar. Markaziy Osiyo hududlariga ko‘chmanchi qabilalarning yurishlari.
2. Turk xoqonligining vujudga kelishi. Bumin hoqon. Istami Yabg‘u xoqon. Xoqonlik aholisining etnik tarkibi va tili.
3. Arab xalifaligi. Xalifalar tomonidan amalga oshirilgan istilochilik yurishlari.
4. V-VIII asrlarda o‘zbek davlatchiligidagi madaniy hayot. Islom dinining yoyilishi. Masjidlar qurilishi. Qur’oni-karim - muqaddas kitob. Shariat qonunlari va axloq-odob.

**Tayanch tushunchalar:** Xioniylar, kidariylar, chorvador, sosoniylar, qabilalar, ko‘chmanchi chorvador aholi, dehqon, eftaliylar, O‘rta Osiyo, ittifoqchi, Vaxshunvar, Pero‘z, Chag`oniyon, Toxariston, Badaxshon, dasht, chorvachilik, yaylov, charxparrak, chig`ir, «Devori qiyomat», Turk xoqonligi, Bumin hoqon, Istami Yabg‘u, Oltoy, Janubiy Sibir, Ashina qabilasi, yabg‘u, Asanshod, Tuu, ixshid, iqta, kadivar, kashovarz, korikor, ko‘shk, mulk, arablar, xalifa, amir, islom, masjid, madrasa, e’tiqod, Qur’on, hadis, soliq, Mavarounnahr, Muqanna, Oq kiyimlilar, xiroj, jizya, Islom universiteti.

**I. Xioniylar va kidariylar. Markaziy Osiyo hududlariga ko‘chmanchi qabilalarning yurishlari.** IV asr o‘rtalarida O‘rta Osiyoga Shimoli-sharq (Yettisuv va Sharqiy Turkiston)dan kelgan ko‘chmanchi chorvador xioniylarning hujumi boshlanadi. Xioniylar qadimgi turkiy hunnu qabilalariga qon-qarindosh bo‘lgan, Shu boisdan G`arb muarrixlari ularni eftaliylar («oq hunnlar») deb ataydi.

Xioniylarning Grumbat ismli podshohi bo‘lgan. Mil. 353 yilda xioniylar Sug`dga bostirib kiradi. So‘ngra ular Eronda tashkil topgan va o‘z tazyiqini muttasil

O‘rta Osiyoda kuchaytira borayotgan *Sosoniylar davlati* bilan to‘qnashadi. Jangda Sosoniylar shohi Shopur II xioniylardan yengiladi.

IV asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari o‘rtasida shoh Shopur II boshliq Sosoniylar Amudaryo havzasiga ikki marta bostirib keladi. Har ikki safar ham ular katta talafot ko‘rib xioniylardan yengiladi. Shunday qilib, IV asrning 70-yillarida xioniylar O‘rta Osiyoda uzil-kesil hukmronlikni o‘rnatishga muvaffaq bo‘ladilar. Sirdaryo bo‘ylaridan to Amudaryoga qadar cho‘zilgan keng maydonda xioniylarning kuchli davlati qaror topadi. Bu davlat 120 yildan ortiq mavjud bo‘ldi.

**Kidariylar davlati.** V asrning 20-yillarida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo‘ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir ko‘chmanchi chorvador aholi-toxarlar kirib keladi. Toxarlar I-IV asrlarda Kushon podsholigi tarkibida bo‘lib, Kidar ismli hukmdor ularga yo‘lboshchi edi. Shu boisdan manbalarda ular kidariylar nomi bilan tilga olinadi. Tez orada kidariylar Amudaryo havzasi hamda g‘arbiy va janubiy Sug‘d yerlarini ishg‘ol qilib, Xioniylar davlatining janubiy qismida o‘z hukmronligini o‘rnatadi. Amudaryoning so‘l tomonida joylashgan Balx shahri esa bu yangi davlatning poytaxti bo‘ldi. Shubhasiz, Kidariylar davlatining geografik holati o‘z-o‘zidan uni ikki yirik davlat - Sosoniylar va Xioniylar davlatlari o‘rtasida qalqonga aylantirdi.

Aftidan kidariylar xioniylar bilan ittifoqchi sifatida harakat qilgan va o‘z tajovuzlarini Xurosonga tomon kengaytirishga intilgan. V asrning 60-yillariga qadar ular Sosoniylar shoxlarining Sharqdagi asosiy dushmani bo‘lib qolgan. Marv vohasida kidariylar bilan Sosoniylar shohi Baxrom Go‘r (Varaxran V) o‘rtasida sodir bo‘lgan jangda shohning qo‘li baland kelib, o‘z dushmani ustidan g‘alaba qozonadi. Bu voqeadan so‘ng kidariylar mamlakati bilan Sosoniylar davlati o‘rtasida chegara belgilanib, Talikon yaqinida toshdan chegara minorasi o‘rnataladi. 456 yildagi jangda kidariylar katta talofat berib, Sosoniylardan yengilgach o‘zlarini qayta o‘nglab ololmaganlar. Ayni shu vaqtida ular Shimoldan O‘rta Osiyoga tomon siljigan yana bir ko‘chmanchi chorvador aholi-eftaliylar bilan to‘qnashadi. Natijada kidariylar janubga-Shimoliy Hindiston tomon chekinishga majbur bo‘ladi.

Hindistondagi Gupta davlatini o‘ziga bo‘ysundirib, u yerda 75 yil hukmronlik qilishadi.

**Eftaliylarning** O‘rta Osiyoga yurishi *V asr o‘rtalarida* boshlanadi. Eftaliylar shohi *Vaxshunvor* 457 yilda Chag`oniyon, Toxariston va Badaxshonni bosib oladi. Sug`dda xioniylar hukmronligi ham barham topadi. V asrning 50-yillarida Eftaliylar davlati kuchayib ketdi.

Bundan xavfsiragan Sosoniylar ularga qarshi yurish qiladi. Ikki o‘rtadagi jangu jadallar Pero‘z hukmronlik qilgan davrda (459-484) ayniqsa avjiga chiqadi. Sosoniylar shohi eftaliylarga qarshi uch marta yurish qiladi.

Biroq bu urushlar Sosoniylar shohining halokati bilan tugaydi. Marv va undan sharqdagi yerlar ishg`ol qilinib, Eron ustiga juda og`ir o‘lpon yuklanadi. Buni sabablaridan biri Pero‘zni Vaxshunvor bilan do‘stona munosabat o‘rnatish maqsadida unga singlisini xotinlikka taklif etadi. Bu vaqtida eftallarning iltimosiga binoan 300 nafar harbiy mutaxassis yuborilgan edi. Aldov aniqlangach hokim Eron mutaxassislarini bir qismini o‘ldirib, qolganlarini urib, mayib qilishni buyuradi.

Qisqa muddat mobaynida eftaliylar Qobul va Panjob vodiylarini egallaydilar. So‘ngra Urumchi, Qorashahar, Kuchor, Xo‘tan va Qoshg`ar shaharlari zabit etiladi. Natijada, *V asrning 2-yarmi va VI asr boshlarida O‘rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlarini yagona hududga birlashtirgan qudratli Eftaliylar davlati tashkil topadi*. Garchi bu davlat siyosiy jihatdan Kushon podsholigiga nisbatan unchalik mustahkam bo‘lmasa-da, ammo maydoni jihatidan undan ulkanroq edi. Bu buyuk davlat Sharq mamlakatlari, xususan O‘rta Osiyo xalqlari tarixida ayniqsa muhim rol o‘ynadi.

Ushbu ulkan davlat Eronning sosoniylar davlatiga, uning harbiy harakatlariga qarshi tura oldi. Sosoniylarning sharqqa yurishlari nafaqat to‘xtatildi, balki Eron shohlarining ichki siyosatiga aralashish, hatto kimni shoh etib tayinlash masalasida ham eftaliylardan maslahat so‘ralar edi. Eron davlati har yili Eftaliylarga o‘lpon to‘lab turar edi.

Eftaliylar davlatiga birlashgan aholining bir qismi ko‘chmanchi chorvador bo‘lsa, ikkinchi-kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashovchi o‘troq aholi bo‘lgan. O‘troq aholi, asosan, ziroatchilik bilan shug`ullanardi. Toxariston va Sug`d dehqonchilik va bog`dorchilikning markazi hisoblanardi. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g`alladan tashqari, sholi ham etishtirilar edi. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O‘rta Osiyo yerlarida ko‘plab paxta ekilar edi. Uning tolasidan nihoyatda mayin oq mato to‘qilgan. Xitoy bozorlarida bunday matoga talab katta bo‘lgan. Chunki o‘sha davrlarda Xitoyda hali paxta ekilmas edi.

Aholining dashtlarda yashovchi yarim ko‘chmanchi qismi chorvachilik, xususan qo‘y-echki va qoramol boqish, tuyachilik, tog`li va tog` oldi mintaqalarida esa yilqichilik bilan shug`ullanar edi. Farg`ona vodiysi esa zotli arg`umoqlari bilan mashhur bo‘lgan.

Ekinzor yerlarning kattagina qismi hamon qishloq jamoalari tasarrufida bo‘lsa-da, ammo sug`oriladigan yer maydonlarining ma’lum bir qismi «dehqon»lar qo‘lida to‘plana boshlagan. Sug`oriladigan yerlarning bir qismi ibodatxonalar mulki («vag`nze») edi. Yaylovlarning asosiy qismi esa qabila va urug` jamoalari hamda ularning oqsoqol zodagonlari tasarrufida turardi.

Arxeologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, V-VI asrlarda ko‘chmanchi eftaliy qabilalarining ommaviy ravishda o‘troqlashuvi kuchaygan. Natijada sug`oriladigan yerlarga bo‘lgan ehtiyoj ortgan. Daryo vodiylari bo‘ylab katta-kichik sug`orish kanallari qaziladi. Irrigatsiya texnikasi ham rivoj topadi.

Adirlarga suv chiqarishda o‘sha davr uchun ancha murakkab sanalgan gidrotexnika inshootlari-charxparrak, chig`irdan foydalilanadi. Yangitdan o‘zlashtirilgan yerlarda zodagon dehqonlarning istehkomli ko‘shklari, hashamatli qasrlari bilan birga mehnatkash qo‘shchilarning istehkomsiz qishloqlari va mayda qo‘rg`onlari qad ko‘taradi. Eftaliylar davrining hashamatli qasrlaridan biri Surxondaryodagi Bolaliktepadan topilgan. Xuddi shu davrda Chag`oniyon, Termiz, Samarqand, Buxoro, Kesh, Naxshab va Choch atroflari to‘la o‘zlashtirilib alohida-

alohida dehqonchilik vohalari shakllanadi. Keyinchalik bu vohalarda yerdor dehqonlarning siyosiy mavqei oshib, ilk o'rta asrlarning deyarli mustaqil mayda hokimliklari tashkil topadi. Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi Varaxsha qasri V-VII asrlarda buxorxudotlar - Buxoro mahalliy hukmdorlarining yozgi qarorgohi edi.

Obod vohalarni tashqi yov bosqinlaridan muhofaza qilish maqsadida ularning tevarak atrofi bir necha yuz chaqirim uzunlikda baland va qalin devor bilan o'rab olinadi. Ilk o'rta asrlarning bunday mudofaa inshootlari ko'rinishdan qadimgi Buyuk Xitoy devoriga o'xshar edi. Samarqand vohasi atrofini o'ragan 12 darvozali bunday inshoot «Devori qiyomat», Buxoro viloyati girdini o'ragan 336 km li devor «Kanpirak» («Kandipirak») va Toshkent vohasining devori ham Kandipirak devor («Kampir devol») nomlari bilan ma'lum.

#### **Eftaliylar davrining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar:**

- *Yerga egalik qilish munosabatlarining vujudga kelishi*
- *Yirik mulkdorlar – dehqon xo'jaliklari salmog'ining kuchayishi*
- *Dehqonlarga qaram bo'lgan – kadivarlar tabaqasining ortib borishi*
- *Erkin xo'jalik yurituvchi kashovarzlar tabaqasining mavjudligi*

Bu davrda dehqonchilik vohalaridagi katta-kichik shaharlarda kulolchilik, shishagarlik, chilangularlik, bo'z to'qish, sarrojlik, zargarlik va qurolsozlik kasbhunarлari ravnaq topadi. Ilk o'rta asrlarda Chochda yasalgan o'q va yoy («kamoni Chochiy») butun Sharqda mashhur bo'lgan. Bu davrda birgina Zarafshon vodiysida Samarqand va Buxorodan tashqari, Rivdad, Kushoniya, Dabusiya, Xariman, Arqud, Romitan, Varaxsha va Poykand kabi hunarmandchilik va savdo shaharlari mavjud edi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Poykand shahri Eftaliylar davlatining poytaxti bo'lgan. Xitoy manbalarida u «Bi» nomi bilan tilga olinadi. Arablar uni «Madina ut-tujjor», ya'ni «Savdogarlar shahri» deb yuritar edi.

Tashqi savdo bojidan manfaatdor bo‘lgan Eftaliylar bu shaharlar orqali o‘tgan «Ipak yo‘li»ni o‘z nazoratlari ostida tutib turishga harakat qilgan. Ipak yo‘li savdosida sosoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan sug`diylar vositachilik qilardi.

Xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi bilan mamlakatda tanga pul muomalasi tartibga solinadi; V asrda sosoniy tangalari mamlakatning ichki hayotida keng muomalada bo‘lgan. Eftaliylar keyinchalik Sosoniyalar shohi Varaxran V tangalariga taqlidan kumush tangalar zarb qiladilar. Bulardan tashqari, Buxoro, Poykand, Naxshab, Samarqand va Xorazmda mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa-tangalar mamlakatning ichki savdosida keng muomalada bo‘lgan. Bu shubhasiz, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida mahalliy hokimlarning katta nufuzga ega ekanligidan dalolat beradi. Eftaliylar o‘rtasida tabaqalanish va mulkiy tengsizlik kuchli bo‘lgan. Ularda o‘z davlat tuzumi, qaror topgan qonun va qoidalari mavjud edi.

Eftaliylar o‘z tashqi siyosatlarida harbiy kuchga suyanganlar. Ularning juda kuchli qo‘smini bo‘lgan.

VI asr Vizantiya tarixchisi Prokopiyning yozishicha, eftaliylarning qonuniy davlati podshoxi mutlaq tomonidan boshqarilgan. Xioniy va kidariylarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi hamda Eftaliylar davlatining tashkil topishi mahalliy aholining madaniy hayotiga ham ma’lum darajada ta’sir etdi. Asriy madaniy an’analari kuchli bo‘lgan Toxariston va Sug`dda ko‘chmanchilar tez orada o‘troqlashib, mahalliy aholi bilan qorishdi va uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etdi. Ko‘chmanchilarining tazyiqi ostida o‘troq hayotning madaniy an’analari dasht udumlari bilan omuxtalashib, ilk o‘rta asrlarning o‘ziga xos madaniyati shakllana boshladi. Bunday o‘zgarishlar ayniqsa binokorlik, me’morlik va tasviriy san’atning ayrim jabhalarida ko‘proq namoyon bo‘ldi.

IV asrning 2-yarmi V asrda mamlakatning ichki va tashqi hayotida sodir bo‘lgan keskinlik, ayniqsa, mudofaa inshootlariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Geografik jihatdan bir-biridan uzoqda joylashgan viloyatlarning aholisi, turli tillarda so‘zlashgan. Chorvador aholi o‘rtasida shubhasiz, turkiy til ustuvor bo‘lgan. O‘troq aholining kattagina qismi sug`diysha so‘zlashgan. Arablar istilosiga qadar sug`d tili va yozuvi Yettisuv va Farg`ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoygacha etib boradi.

Bu davrda qo‘shni mamlakatlar - Xitoy, Hindiston va Eron bilan iqtisodiy va madaniy aloqlar kengayib boradi. V asrda o‘rta Osiyolik shishagarlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o‘rgatadilar. O‘rta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan. Xitoy imperatorlari o‘z saroylarini bezashda O‘rta Osiyodan olib ketilgan rangli shishadan foydalanganlar. Shunday qilib, eftaliylar davrida O‘rta Osiyo aholisining madaniy an’analari qo‘shni mamlakatlar, xususan, Hindiston va Eron sosoniyalarining tasviriy uslublari bilan omuxtalashib ilk o‘rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevor bo‘ldi.

**2. Turk xoqonligining vujudga kelishi. Bumin hoqon. Istami Yabg‘u xoqon. Xoqonlik aholisining etnik tarkibi va tili.** *V asrning 2-yarmi - VI asrning I-yarmilarida Oltoy va Janubiy Sibirda Ashina qabilasining yabg‘ulari Asanshod, Tuu va Buminlar boshchiligidagi turkiy qabilalarning ittifoqi vujudga keladi.* Qadimgi turk manbalarida bu ittifoq «turk», «turkel», «turkyut» va «turk budun» kabi nomlar bilan tilga olingan. Xitoyliklar Ashina qaramog‘idagi odamlarni «tukyu» deb ataydilar. «Turk» so‘zining lug`aviy ma’nosи «kuchli, chidamli» demakdir (q. *Turk*). V asrda Ashina tevaragiga to‘plangan o‘rda askarlari «turk» nomi bilan atalgan bo‘lsalar, VI - VII asrlarda faqat turk tilida so‘zlashadigan aholi shu nom bilan atalardi.

VI asr o‘rtalarida Bumin boshliq turk ittifoqi tole qabilasini o‘ziga bo‘ysundirgach, Markaziy Osiyodagi eng kuchli Jujan xoqonligiga qaqshatqich zarba beradi. 551 yilda Bumin «xoqon», ya’ni hukmdor unvoniga muyassar bo‘lib, Turk xoqonligiga asos soladi. Oltoy xoqonlikning markazi bo‘lib qoldi (q. *Bumin xoqon*).

Hukmronlikni mustahkamlab olgach, Bumin va uning ukasi *Istami* xoqonlik chegaralarini kengaytirishga kirishadi.

Qisqa vaqt ichida Enisey daryosi bo‘ylarida yashovchi qirg‘izlar va shu atrofdagi boshqa xalqlar janubi-g‘arbiy Manjuriyaning mo‘g‘ul qabilalari-kidanlar bo‘ysundiriladi. Shimoliy Xitoy viloyatlari bosib olinib, Xitoy imperatori turklar bilan sulh tuzishga, keyinchalik esa hatto yiliga 100 ming to‘p ipak mato xisobida xoqonlikka o‘lpon to‘lab turishga majbur bo‘ladi.

Turklar g‘arbgaga tomon Istami boshchiligidagi shiddatli yurish qildi. Istamiga «Yabg‘ u xoqon» unvoni beriladi. Tez orada Yettisuv va Sharqiy Turkistoniga tutash yurtlarda yashovchi nushibi, dulu va turkash kabi turkiy qabilalar bo‘ysundiriladi.

555 yoldayoq turklar Sharqiy Turkistonning obod dehqonchilik viloyatlarining kattagina qismini va boy hunarmandchilik shaharlarini hamda Sirdaryo va Orol dengizi bo‘ylarigacha cho‘zilgan keng dasht mintaqasini butunlay egallab oladi, xoqonlik hukmronligi Xorazmga ham yoyilib, uning chegarasi Eftaliylar davlati yerlariga borib tutashadi.

558 yil turklar Yoyiq (Ural) va Itil (Volga) bo‘ylariga chiqib, undan g‘arbda va Shimoliy Kavkazda bepoyon yerlarni egallab olgan avarlar bilan to‘qnashadi. G‘arbdagi dushmanlarga uzil-kesil zarba berish maqsadida turklar Eron va Vizantiya bilan aloqa o‘rnatishga intiladi. Turklar tazyiqi oqibatida bu davrda yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib Sosoniylar Toxariston, Zobuliston, Qobuliston va Chag‘oniyonni eftaliylardan tortib oladi. Bunday vaziyat shubhasiz, o‘z-o‘zidan turklarni avval Eron, so‘ngra Vizantiya bilan yaqinlashtiradi, Eron eftaliylarga boj to‘lashdan qutiladi. Uzoq vaqt eftaliylar tazyiqida yashagan Sosoniylar bu davlatning tamomila barbod bo‘lishidan manfaatdor edi.

Xusrav I Anushirvon (531-579) tashabbusi bilan yuzaga kelgan o‘zaro harbiy ittifoq Eron shohining Istamiga kuyov bo‘lishi orqali yanada mustahkamlanadi.

Vizantiyaning avarlarga homiyligini to‘xtatishga imperatorni ko‘ndirish maqsadida 563 yilda Turk xoqonligi elchilari Konstantinopol shahriga etib boradi. Elchilikka nushibi qabilasining boshlig‘i Eskil rahbarlik qiladi.

O'sha yili Eron askarlarining Balxga hujumi ko'magida turklar Eftaliylar davlati yerlariga bostirib kiradi. Parak (Chirchiq) vohasi va uning markazi Choch shahri olinadi. So'ngra Sirdaryodan o'tib, Zarafshon vohasiga kirib boradilar. Samarqand, Kesh va Naxshabni egallab, so'ngra Buxoroga yaqinlashadilar. Buxoro yaqinida sakkiz kun davom etgan shiddatli jangda eftaliylar qo'shini turk hoqonligidan engiladi.

Shunday qilib, Eftaliylar davlati bir asrdan oshiqroq hukmronlikdan so'ng tamomila barbod bo'ldi. Natijada mag'lub davlatning merosi o'zaro bo'linib, Amudaryoning janubiy qirg'oqlarigacha bo'lган viloyatlar Eronga, uning Shimoliy sohillari bo'y lab Kaspiy dengizigacha cho'zilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga o'tadi.

Eron bilan olib borilgan elchilik munosabatlari muvaffaqiyatsiz tugaydi. Shundan so'ng turklar Vizantiya bilan harbiy ittifoq tuzib, Sosoniylarga qarshi yurish boshlashga qaror qiladilar.

568-569 yillarda Turk xoqonligi Konstantinopolga imperator Yustin II saroyiga o'z elchilarini yuboradi. Elchilikka mashhur sug'd savdogari Maniak boshliq qilib tayinlanadi. Unga Istamining imperator nomiga yozgan maxsus maktubi bilan ko'pgina qimmatbaho hadyalar topshiriladi. Vizantiya bilan harbiy ittifoq tuzish va bevosita savdo aloqalari o'rnatish kabi vazifalar yuklanadi. Turk elchilari Kaspiy dengizining Shimoliy sohillari va Kavkaz tog'lari orqali Konstantinopolga yetib boradilar.

Vizantiya bilan Turk xoqonligi o'rtasida Eronga qarshi harbiy ittifoq tuziladi. Qaytishda Maniak bilan turklar mamlakatiga Zemarx boshliq javob elchiligi yuboriladi. Vizantiya elchisini xoqon Tangritog' (Tyanshan)ning Oltintog' etagidagi o'rdugohida qabul qiladi.

Biroq ko'p vaqt o'tmay Vizantiya bilan munosabat jiddiy lashadi. Turklar Yustin II ning avarlar bilan olib borgan tinchlik aloqalarini ittifoqlikka xiyonat deb, undan ranjiydi. 575-576 yillarda ular Kimmeriy Bosforini (Kerch bo'g'oz'i atroflari) egallab, Qrim yarim oroligacha kirib boradi. Keyinchalik Vizantiya va xazarlar

ko‘magida turklar bir necha bor Eronga qarshi lashkar tortadilar, 588 yilda ular Hirot shahri yaqinida sosoniy Ho‘rmuzd IV ning mashhur sarkardasi *Bahrom Cho‘bindan* yengiladi. Jangda turk xoqoni halok bo‘ladi.

Shunday qilib, VI-asrning 70-80 yillarida Yeniseyning yuqori oqimidan to Amudaryo bo‘ylarigacha, Manjuriyadan to Kimmeriy Bosforigacha cho‘zilgan ulkan maydonda aholisi aksari ko‘chmanchi chorvador qabilalardan iborat Turk xoqonligi tashkil topdi.

Turk xoqonligi chinakam markazlashgan davlat emas edi. Uning asosi turkiy qabilalarining ittifoqidan iborat bo‘lgan. Bu ittifoqni xoqon boshqarar edi. Hukmdorning hokimiyatি urug`-aymoq udumlariga tayangan harbiy-ma’muriy boshqaruvga asoslangan.

Mamlakat aholisi ko‘chmanchi chorvador va o‘troq dehqonlardan iborat edi. Ko‘chmanchi chorvador aholi budun yoki qora budun (qora xalq) deb atalardi.

Budun o‘z navbatida qabilalar ittifoqi birlashmasini tashkil etardi. U o‘n o‘q budun yoki o‘n o‘q el deb yuritilardi. O‘n o‘q budun yoki elning hokimi «yabg`u» yoki jabg`u nomi bilan atalardi. Yabg`u darajasiga faqat xoqon urug`iga mansub bo‘lganlar ko‘tarilardi. Shu boisdan ba’zan u yabg`u xoqon deb ulug`lanardi. O‘n o‘q budun, o‘z navbatida, besh o‘q birlashmasi asosida sharqiy va g`arbiy qanotga bo‘linardi. Sharqiy qanot o‘qlari cho‘r, g`arbiy qanot o‘qlari - erkin deb atalgan va qabila sardorlari tomonidan boshqarilgan.

Xullas, elning qabilaviy asosda tarkib topgan, harbiy bo‘limmalardan iborat ikki qanotga bo‘lib boshqarilishi o‘tmishda ko‘pgina yirik turkiy qabilaviy ittifoqlarga xos edi. Harbiy yurishlar vaqtida ular puxta boshqaruv tartiblariga ega bo‘lgan katta jangovar kuchga aylanib, har qanday yirik davlatni ham dahshatga solardi.

Dastlabki davrda turk xoqonlari mamlakatning o‘troq aholi yashaydigan obod viloyatlarini ko‘chmanchilar ixtiyoriga topshirsalar-da, ammo eftaliylar kabi aholini dastlab ichki hayotiga deyarli aralashmaydilar. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, VI asrda Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo vohalarida mayda

hokimliklar mavjud edi. Ularning iqtisodiy va siyosiy boshqaruvi shu yerli sulola hukmdorlari qo‘lida qoldirilib, turklar ulardan faqat boju yasoq undirib olish bilan cheklanadilar. Buning evaziga xoqonlikning kuchli qo‘shinlari dehqonchilik vohalari chegaralarini tashqi hujumlardan mudofaa qilardi.

Biroq mamlakat boshqaruvida urug`-aymoqchilik udumlarining kuchliligi xoqonlikning siyosiy jihatdan mustahkamlanib, uning markazlashuviga to‘sinqinlik qilardi. Qolaversa, zodagonlarning siyosiy mavqeyi orta bordi, bu esa ularning boshboshdoqlik harakatlari kuchayishiga olib keldi.

*VI asr oxirlarida boshlangan o‘zaro qabilaviy urushlar va sulolaviy kurashlar oqibatida Turk xoqonligi 603 yilda ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Ulardan biri Mo‘g‘ulistonda tashkil topgan Sharqiy turk xoqonligi, ikkinchisi esa, O‘rta Osiyo, Jung`ariya va Sharqiy Turkistonning bir qismini o‘z tasarrufiga olgan G`arbiy turk xoqonligi edi.*

G`arbiy xoqonlikning markazi Yettisuv edi. Xoqonning yozgi qarorgohi Mingbulloqda (Isfijob yaqinida), qishkisi - Suyob shahrida (Chu daryosi yuqori oqimi sohilida) bo‘lgan. Suyobning Sharqiy tomonida dulu qabilasining besh o‘q budun ittifoqi, g`arbida esa nushibi qabilasining besh o‘q el ittifoqining keng yaylovleri joylashgan edi. G`arbiy xoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan keskin farq qilardi. Sharqiy xoqonlik aholisining asosiy qismi chorvador-ko‘chmanchi bo‘lgan. G`arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi esa o‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg`ul edi.

VII asrning I-choragida G`arbiy xoqonlik nihoyatda kuchayadi. Uning Sharqiy chegarasi Oltoya, janubda esa Hind daryosi bo‘ylariga borib taqaladi. Xoqon Tun yabg`u hukmronlik qilgan yillarda boshqaruv tartiblari isloh etiladi. O‘troq aholili viloyat hokimlarini xoqonlik ma’muriyati bilan bevosita bog`lash va ular ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning yabg`u unvoni berilib, ular xoqonning noibiga aylanadilar. Natijada O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytirilib, ular huzuriga xoqonlikning vakillari - tudunlar yuboriladi.

Tudunlar viloyatlarda boju yasoqlarni jamg`arish ustidan nazorat qilar va ularni xoqon qarorgohiga jo‘natish bilan shug`ullanardi.

Biroq xoqonlikning harbiy-ma’muriy tayanchi hisoblangan dulu va nushibi kabi qabila uyushmalari zodagonlari o‘rtasida hokimiyat uchun tobora kuchayib borgan kurash oqibatida G`arbiy turk xoqonligi zaiflashib, bo‘linib ketadi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo‘s Shinlari 657-659 yillarda Yettisuvga bostirib kiradi. Natijada xoqonlik xitoylarga qaram bo‘lib qoladi. G`arbiy turklarning ularga qarshi muttasil kurashi natijasida VII asr oxiriga kelib xoqonlik mustaqillikni tiklab oladi. Chochdan to Beshbaliq va Turfongacha bo‘lgan viloyatlarda dulu qabila ittifoqidagi turkashlar hukmronligi o‘rnataladi. Yangitdan tiklangan bu turklar davlati tarixda Turkashlar xoqonligi nomi bilan yuritiladi. Keyinchalik Turkashlar xoqonligi Sharqda yarim asrdan ortiqroq vaqt davomida Tan imperiyasining bosqinlarini daf etib, Xitoy qo‘s Shinlarini O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkiston yerlariga bostirib kirishlariga yo‘l qo‘ymaydi. G`arbda esa Mavarounnahrga jadal bosib kelayotgan yangi g`anim - Arab xalifaligi lashkarlariga qarshi Buxoro, Sug`d va Choch aholisi bilan bir safda turib shiddatli janglarda qatnashadi.

Turk xoqonligiga birlashgan aholining ijtimoiy hayoti ham, xo‘jaligi ham turlicha edi. Ko‘chmanchi chorvador turklarda urug`-jamoachilik an’analari kuchli edi. Qabila va urug` jamoalarining negizi katta oilalardan iborat bo‘lgan. Bunday patriarchal oilada ba’zan uy nullari saqlangan. Jamoada tobora qullarning ko‘payib borishi bilan sinfiy munosabatlar tarkib topa boshladi. Ko‘chmanchilarining asosiy qismi kambag`al chorvador va ovchilar edi. Ular o‘z urug`i va qabilasi doirasida oqsuyak tabaqaga tobe holda yaylovma-yaylov ko‘chib yashardi.

Mamlakat budunlar yashaydigan bir qancha ellarga bo‘lingan edi. Ellarni harbiy zodagonlardan chiqqan beklar boshqarardi. Ellar joylashgan keng yaylovlar xoqon va beklarning qarindosh-urug`lariga bo‘lib berilgan edi. Davlatni bosh hukmdor - xoqon (qag`an) boshqargan.

Ko‘chmanchilarning asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan. Yilqichilikka katta ahamiyat berilgan, tuyachilik ham muhim o‘rin tutgan. Zodagonlar ko‘p xususiy chorva, oltin-kumush buyumlar, qul, cho‘ri va xizmatkorlarga ega bo‘lgan.

V-VI asrlarda O‘rta Osiyoda yer va suvdan ajralib qashshoqlashib borayotgan ozod ziroatkor kashovarzlar zodagon dehqonlar asoratiga tushib, qaram kadivarlargalaydi. Qashshoqlik, jabr-zulm va dehqonlar asoratiga qarshi aholi bosh ko‘tarishga majbur bo‘ladi. VI asrning 80-yillarida Buxoro vohasida shunday xalq harakati bo‘lib o‘tgan (q. *Abruy qo‘zg‘oloni*).

VI-VIII asrlarda mamlakatning siyosiy jihatdan zaiflashuvi uni bir qancha mayda ilk davlatlarga bo‘linib ketishiga sabab bo‘ladi. V-VI asrlardayoq O‘rta Osiyoning ayrim viloyat va vohalarida yirik shaharlarga tayangan qator mustaqil davlatlar tashkil topgan edi. Bunday davlatlardan eng yiriklarida Sug`dda ixshidlar, Toxaristonda malikshohlar, Xorazmda xorazmshohlar, Choch va Iloqda tudun va dehqonlar, Farg`onada ixshidlar hukmronlik qilardilar. (Samarqandda – ixshid, Buxoro - buxorxudot, Kesh - ixrid, Ustrushona - afshin va b.)

V-VII asrlarda bu mayda davlatlar, avvalda eftaliylar, so‘ngra Turk xoqonligiga bo‘ysundirilgan bo‘lsa-da, ammo eftaliylar ham, turklar ham ularning ichki hayotiga deyarli aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to‘lab turish bilan ular o‘z mustaqilliklarini ma’lum darajada saqlab qoladi. Bu davlatlarning hukmdorlari o‘z atrofidagi mulkdor zodagon dehqonlar va ularning harbiy chokarlariga tayanardi. Ular orasida eng yirigi Sug`dning ilk o‘rta asr hokimliklari uyushmasi edi. Bu ittifoqqa Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan Samarqand, Maymurg`, Ishtixon, Kushoniya, Vardona, Buxoro, Kesh va Naxshab mulklari birlashgan. Bu mulklarning har biri o‘z hokimi va harbiy chokarlariga ega bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligi Samarqand ixshidiga tobe bo‘lsa-da, ammo Buxoro, Kesh va Naxshab deyarli mustaqil edi. Hatto ular o‘z tanga pullarini zarb qilardi. Samarqand ixshidi saroyida ajdodlar ruhiga atab qurbanlik qilish uchun maxsus ibodatxona bino qilingan. Unda o‘tkaziladigan har yilgi diniy marosimlarda viloyat hukmdorlarining barchasi qatnashardi. Yozma va arxeologik manbalardan ma’lum

bo‘lishicha, Sug`d hukmdorlari O‘rta Osiyo va undan tashqaridagi davlatlar bilan elchilik aloqalari olib borgan. Masalan, Afrosiyobda ochilgan devoriy rasmlarda Sug`d hokimi Varxumanning Chag`oniyon, Choch va Xitoydan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlangan.

Ilk o‘rta asr davlatlaridan yana biri *Toxariston* edi. U Amudaryoning yuqori havzasida, ya’ni hozirgi Surxondaryo viloyati, Tojikistonning janubi va Shimoliy Afg`oniston yerlarida joylashgan edi. Shimoliy chegarasi «Temir Darvoza» (Shahrisabz - Termiz oralig`idagi Bo‘zgalaxona tog` darasi)dan o‘tgan. Podshosi Malik (Tabarida - yabg`uya) atalgan. Bu mustaqil davlat Xuttalon, Chag`oniyon, Termiz, Badaxshon, Qabodiyon, Vaxsh, Shuman, Vaxon kabi 27 tog`li va tog` oldi viloyatlarni birlashtirgan. Ularning har birini o‘z hokimi va chokarlari bo‘lardi. Macalan, Chag`oniyon viloyatining hokimi chag`onxudot, Termiz hukmdori Termizshoh, Xuttalonniki - malik yoki sheri xuttalon deb yuritilardi. Mahalliy hukmdorlarning eng kuchli va nufuzlisi Xuttalon, Shuman, Qabodiyon, To‘g`non va Vaxon viloyatlarining hokimlari bo‘lib, ular harbiy kuchlar zarur bo‘lgan paytlarda 50 minggacha chokar to‘play olardilar. Toxaristonni avval eftaliylar, so‘ngra Turk xoqonligi bo‘ysundirdi. Manbalarda ta’rif etilishicha, VII-VIII asrlarda Toxariston aholisi Budda diniga sig`ingan.

Xullas, Toxariston mustaqil davlat bo‘lsa ham, lekin markazlashmagan edi. Chunki uning har bir viloyatini o‘zining vorisiy sulolasiga mansub hokimlari boshqarardi. Hatto ularning har biri o‘zga yurtlarga elchilar yuborardi. Shunday qilib, Toxariston ilk o‘rta asrlarda tashkil topgan mayda davlatlar uyushmasidan iborat edi.

Bu davrda Farg`ona vodiysida yana bir davlat hukm surardi. Bu mamlakat haqidagi dastlabki yozma ma’lumot Xitoy elchisining mil.av. 128 yilga oid hisobotida **Davan** shaklida uchraydi. Farg`ona nomi esa V asrdan ma’lum. Uning podsholari - dehqon, ayni vaqtda forscha ixshid deb atalgan, poytaxti - Quva shahri, keyinroq Axsikat shahri bo‘lgan. Farg`ona Shimoldan Yettisuv, g`arbdan Choch va Iloq, janubi-g`arbdan Sug`d, janubdan Toxariston va Sharqdan Sharqiy Turkiston

viloyatlari bilan chegaradosh bo‘lgan. Xitoy manbalarida ta’riflanishicha, Farg`ona yerlari juda unumdar, aholisi (qariyb 300 ming kishi) dehqonchilik (g`o‘za va sholikorlik) va bog`dorchilik (tokchilik, mevachilik) bilan shug`ullangan. Kosoy, Axsikat va Qubo kabi yirik shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalari rivoj topib, uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda xaridorgir bo‘lgan. Farg`onada temirdan buyumlar yasash mil.av. I-ming yillik o‘rtalaridayoq keng tarqalgan edi. Qo‘shni mamlakatlarga arg`umoqlar, bo‘yoq, rangdor shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan.

Shunday qilib, VI-VIII asrlarda Farg`ona dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xo‘jaliklari hamda ichki va tashqi savdo rivoj topgan mustahkam iqtisodiy poydevorli o‘lka edi. Uning strategik jihatdan qulay geografik o‘rni, mustahkam mudofaa inshootlari bilan ta’minlangan Koson, Axsikat, Qubo kabi yirik shaharlari, tog` qal’alari, vodiy bo‘ylab joylashgan istehkomli qo‘rg‘onlari tufayli bu diyor kuchli harbiy mudofaa imkoniyatga ega edi. Ilk o‘rta asrlarda Farg`ona O‘rta Osiyoning siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan kuchli davlat bo‘lgan.

Bu davrda ko‘chmanchi qabilalarning o‘troqlashuvini kuchayishi, Chochliklar bilan olib borilgan doimiy iqtisodiy aloqalar tufayli Choch vohasi o‘zaro madaniy muloqotlarning markaziga aylanadi.

Biroq, Choch o‘lkasi bu davrda Turk xoqonligiga tobe bo‘lishiga qaramay, hali o‘zining tili, yozuvi va qaimgi madaniyati an’analarini saqlab qolgan edi (yana q. *Toshkent*).

V-VII asrlarda O‘rta Osiyoda yuzaga kelgan o‘ta murakkab ham siyosiy, ham ijtimoiy vaziyat mamlakat obodonchiligi, xo‘jaligining ravnaqi, shahar va qishloqlarining qiyofasi va aholisining turmush tarzi-yu ahvoliga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘chmanchilar bosqinlari davrida Xorazm, Toshkent, Buxoro va Qashqadaryo kabi vohalarning dehqonchilik maydonlari oyoq osti qilinib, ko‘pgina shahar va qishloqlar vayron etildi. Xo‘jalik rivojiga zarba berilib, savdo-sotiq ishlari tanazzulga yuz tutdi. Biroq avval Eftaliylar davlati, so‘ngra Turk xoqonligi kabi yirik davlatlar hukmronligida yuzaga kelgan ma’lum darajadagi osoyishtalik

davrlarida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti yana tadrijiy taraqqiyot yo‘liga tushib oldi.

Dehqonchilik taraqqiyoti ko‘chmanchi qabilalar o‘troqlashuvining kuchayishi bilan ekin maydonlariga ehtiyoj ortib, ziroatkor yerlar kengaydi. Kanallar barpo etilib, dehqonchilik vohalarining suv ta’minoti tubdan yaxshilandi. Tog` oldilarida yangi yerlar o‘zlashtirildi. Shaharlar gavjumlashdi.

**3. Arab xalifaligi. Xalifalar tomonidan amalga oshirilgan istilochilik yurishlari.** Amudaryodan Shimolda joylashgan yerlarni arablar «Movarounnahr», ya’ni «daryoning narigi tomoni» deb atardilar (q. *Movarounnahr*). Hozirgi Afg`onistonning Shimoli, Eronning Shimoli-Sharqiy qismi hamda hozirgi Janubiy Turkmanistonning Amudaryogacha bo‘lgan yerlari Xuroson deb yuritilar, uning markazi Marv shahri edi. Bu viloyatni boshqarish uchun xalifalik tomonidan maxsus **voliy** tayinlanardi, uning qarorgohi Marvda bo‘lgan. Movarounnahrga qaratilgan hujumlar Xuroson voliysi tomonidan uyushtirilar edi.

Arablarning Movarounnahrga qarshi harbiy yurishlari o‘z maqsad va rejalarini bilan ikki davrga bo‘linadi. Dastlab xalifalik bosib olishni emas, balki mahalliy hukmdorlarning harbiy qudratini sinab ko‘rish rejasini amalga oshirdi. Arablar o‘z harbiy mavqelarini kuchaytirish maqsadida Basra va Kufadan 50 ming arab oilasini Xuroson viloyatiga ko‘chirib o‘rnashtirdilar. Arablarning Movarounnahrga ilk bor hujumlari 654 yilda Maymurg` va 667 yilda Chag`oniyondan boshlandi.

Narshaxiyning yozishicha, 673 yilning kuzida xalifa Muoviya 661-680) farmoni bilan Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o‘tib, Buxoro muzofotiga kiradi. Poykand va Romitanni egallab, Buxoro shahrini qamalga oladi. Yordamga kelgan turklar bilan buxoroliklarning birlashgan qo‘sishlari jangda arablardan yengiladi. Shaxzoda go‘dakligi tufayli hukmdorlik taxtida o‘tirgan Buxoro malikasi, Ubaydulloh ibn Ziyodga bir lak dirham hajmda boj to‘lab, u bilan sulk tuzishga majbur bo‘ladi. Bojdan tashqari arablar to‘rt ming asir, quroq, kiyim-kechak, oltin va kumush buyumlardan iborat ko‘p o‘ljalar bilan Marvgaga qaytadi. Oradan 3 yil o‘tgach, Xuroson voliysi Sayd ibn Usmon boshliq arab qo‘sishlari yana Buxoroga

bostirib kiradi. Sug'd, Kesh va Nasaf viloyatlaridan yordamga kelgan bir yuz yigirma mingli harbiy kuchga suyanib Buxoro malikasi dushman bilan jang qilish uchun o'z qo'shinini safga tortadi. Biroq sug'dliklar vahimaga tushib, Buxoroni o'z taqdiriga tashlab, jang maydonidan chiqib ketadilar. Natijada malika katta boj to'lab, malikzoda va dehqon aslzodalardan 80 nafarini garovga berib, yana sulh tuzishga majbur bo'ladi. Sayd ibn Usmon Buxorodan Samarqand sari qo'shin tortib jangda sug'dliklar qahramonona qarshilik ko'rsatadi. Sayd ibn Usmon ular bilan sulh tuzib, Samarqanddan o'ljalar bilan birga 30 ming nafar asir olib qaytadi. Yo'l-yo'lakay u Termiz shahrini ham egallaydi.

IX asr arab muarixi Balazuriy va Narshaxiyning yozishicha, Sayd ibn Usmon tomonidan garovga olib ketilgan 80 nafar Buxoro aslzodalari va'daga muvofiq Marvdan qaytarib yuborilmay, Madinaga olib ketiladi.

Xuroson voliylari VIII asr boshlarigacha Movarounnahrning turli viloyatlariga hujum qilib, ko'pgina joylarni talab Marvga qaytib turgan. Natijada Movarounnahrning bir qancha viloyatlari talanib, xonavayron etilgan. Bir oydan ortiq davom etgan Arablar yurishlariga qarshi kurashish maqsadida Movarounnahrning mahalliy hukmdorlari o'rtasida harbiy ittifoq tuzish uchun urinishlar bo'lgan, lekin siyosiy tarqoqlik natijasida bu urinishlar samara bermagan. Arab lashkarboshilari esa bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalangan. Bu davrda G'arbiy Turk xoqonligi ichki qabilaviy nizolar oqibatida siyosiy inqirozga yuz tutib, parchalanib ketgan edi. VII asr o'rtalarida Choch viloyati, Yettisuv, Talas va Chu vodiylarida ko'chib yurgan yirik turkiy qabilalardan turakashlar, shuningdek, VIII asr boshlarida Farg'ona va Toxaristonda yashab turgan qarluqlar, Zarafshon vodiysining o'rta qismidagi turklar arablarga qarshi kurashda sug'diylargaga yordam berib, janglarda faol qatnashadilar.

VII asr oxirlarida butun xalifalikni qamrab olgan chuqur ichki ziddiyatlar va sinfiy qarama-qarshiliklar bartaraf etilib, mamlakatda tartib o'rnatilgach, arablar Movarounnahrni uzil-kesil bosib olishga kirishdilar. 705 yilda *Qutayba ibn Muslim* Xurosonga voliy qilib tayinlandi. Unga Movarounnahrdan to Xitoy chegaralarigacha

bo‘lgan viloyatlarni xalifalikka bo‘ysundirishdek jiddiy vazifa yuklandi. Qutayba 705- 715 yillarda bu vazifani uddalagan.

Movarounnahr butunlay bosib olingach, bu o‘lkada xalifalik hukmronligi mustahkamlandi. Movarounnahrning barcha shahar va yirik qishloqlariga harbiy qismlar joylashtirildi. Istilochilar Movarounnahrda o‘zlarining soliq tartibini joriy etdilar. Ekin yerlaridan 0,20-0,25 hissa miqdorda xiroj, chorva, hunarmandchilik va savdo-sotiqdan qirqdan bir hissasida zakot hamda islomni qabul qilmagan majusiylardan jizya kabi jonboshi solig`i olinadigan bo‘ldi.

Arablar Movarounnahrda o‘rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va uning barqarorligini ta’minlash uchun islom dini targ`ibotini shu yerli aholi o‘rtasida butun choralar bilan kuchaytirdilar. Ular yerli aholining ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan otashparastlik, nasroniy, moniy, buddaviy va qam dinlarni xurofiy soxta dinlar deb e’lon qildi. Ayniqsa, Movarounnahr aholisining asosiy dini hisoblangan otashparastlikka qarshi qattiq kurash olib bordilar. Ibodatxonalar o‘rniga jome masjidlar bino qilindi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda musulmon huquqi joriy etila boshladi.

Arab xalifaligining mahalliy xalq manfaati va tartibotiga qarshi siyosati xalq orasida norozilikni kuchaytirib qo‘zg`olonlar ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Xalifa Umar ibn Abdulaziz (717—719) Ajam (Eron, Xuroson va Movarounnahr)dagi murakkab vaziyatni hisobga olib, bo‘ysundirilgan xalqlar bilan murosasozlik siyosatini amalga oshirishga majbur bo‘ldi. U yangi yerlarni bundan buyon zabit qilishni to‘xtatish hamda moliyaviy isloh o‘tkazish to‘g`risida farmon berdi. Bunga binoan, musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan ajamliklardan xiroj va jizya soliqlarini olish bekor qilindi. Ammo Xuroson voliylari farmonni xalifalikning moliya siyosatiga zid degan bahona bilan uni bajarishdan bosh tortadilar. Biroq Movarounnahr zodagonlarining ko‘pchiligi o‘zini haqiqiy musulmon deb hisoblab, soliq to‘lamay qo‘ygach, xalifalik ma’murlari bir yo‘la hammadan jizya olish haqida buyruq beradi. Natijada Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlandi. Buning oqibatida ziddiyat

keskinlashib, butun o'lka bo'ylab arablar zulmiga qarshi xalq qo'zg'olonlari boshlandi. Birinchi bo'lib, 720 yilda Sug'd aholisi qo'zg'aldi. Qo'zg'olonga Samarqand ixshidi G'o'rak va Panjikent hokimi Divashtich boshchilik qildilar. Sug'dliklarga yordam berish uchun Yettisuvdan turkashlar xoqoni shahzoda Kursul boshliq turk lashkarini Samarqandga yubordi. Qo'zg'olonchilarning birlashgan kuchlari arablarga qattiq zarba berdilar. Faqat ayrim shahar va qal'alar ichida qurshovda qolgan arab harbiy qismlarigina katta o'lpon evaziga va e'tiborli vakillarini qo'zg'olonchilar ixtiyoriga garovga berish bilan jon saqladilar.

Tabariyning yozishicha, qo'zg'oltonni bostirish uchun Xuroson noibi Sa'id ibn Abdulaziz Sug'dga qarshi 3 marta yurish qildi. Hatto u Samarqand va uning tevarak-atrofini suvsiz qoldirish bilan qo'zg'olonchilarni taslim bo'lishga majbur etish uchun Darg'om kanalining bosh to'g'oni Varqsarni va shu to'g'lonni qo'riqlab turgan istehkomni egallahsha harakat qiladi. Qo'zg'oltonni bostirish yo'lida ko'rilgan barcha chora va tadbirlar natija bermaydi.

721 yilda Sa'id Xarashiy Xurosonga noib qilib tayin etiladi. U Iroqda xalq qo'zg'olonini bostirishda shafqatsizligi bilan tanilgan edi. Unga sug'dliklar qo'zg'olonini bostirish va ularni islomga qaytarish topshiriladi. Sa'id Xarashiyning qo'zg'olonchilar bilan olib borgan muzokaralari natijasida G'o'rak boshliq sug'd zodagonlarining bir qismi arablar tomoniga o'tdi. Kuchlar bo'linib ketgach, Xo'jandda bo'lib o'tgan jangda qo'zg'olonchilar yengildi. Korzanch boshliq qo'zg'olonchilar Farg'onaga chekindilar. Sulh tuzilgach, katta mablag' evaziga omon qolgan 400 savdogardan tashqari, deyarli barcha qo'zg'olonchilar xiyonatkorona qirib tashlandi. Panjikent hokimi Divashtich boshchiligidagi aslzoda dehqonlarning bir qismi qo'zg'oltonni bir muddat yana davom ettirdilar, ammo yengilganlaridan so'ng omon qolganlari yuqori Zarafshonda Obigar qal'asida qamalga olinadi. Omon qoldirish sharti bilan qo'lga tushirilgan Divashtich Arbinjonda (Hozirgi Kattaqo'rg'on yaqinida) qatl etiladi, boshi Iroq hokimiga yuborilib, tanasi otashparastlarning xilxonasi - novus devoriga qoqib qo'yiladi.

Sug`dda qo‘zg`olon bostirilgach, Sa’id Xarashiy Movarounnahr shahar va qishloqlarida jazo choralarini kuchaytirdi. Tabariyning yozishicha, Sa’id Xarashiyning Keshga hujumi katta o‘lpon evaziga to‘xtatildi. Ammo erksevar Movarounnahr aholisi xalifalik hukmronligiga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun kurashni tinmay davom ettira berdi. 723 yilda arablarga qarshi Farg`ona hokimi lashkar tortadi. Unga Choch, Nasafdan va G`arbiy Turk xoqonligidan yordamga boradilar. Ittifoqchilar dushmanga qattiq zarba berib, uni Xo‘janddan to Samarqandgacha ta’qib qiladilar.

Xalifalikning soliq siyosatiga qarshi 725 yilda Xuttalonda, 728 yilda esa yana Sug`dda qo‘zg`olon avjiga chiqadi. Xuroson voliysi ko‘p urinsa-da, ammo bu harakatni bostira olmaydi. Xalq qo‘zg`oloni keng avj olib, butun Movarounnahr va Xurosonga yoyiladi. Bu harakat Movarounnahrning janubiy qismlarida, ayniqla, Xuttalonda kuchayib ketadi. Qo‘zg`olonchilar turklar yordami bilan arablar ustidan g`olib chiqib, ularni mamlakatdan quvib chiqara boshlaydi. Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arablar hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashros ibn Abdulloh islom dinini qabul qilganlardan vaqtinchalik xiroj va jizya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi. Natijada zodagon dehqonlarning ko‘pi o‘z chokarlari va kadivarlari bilan islomni qaytadan qabul qilib, arablar tomoniga o‘tadi. Shu tariqa Sug`dda arablar o‘z mavqelarini birmuncha mustahkamlab oladi. Biroq bu bilan xalifalikning Sharqida vaziyat barqarorlashmaydi. 736-737 yillarda Toxaristonda va Horis ibn Surayj boshchiligidagi O‘rta Osiyoda yana qo‘zg`olon ko‘tariladi. Arablar, ayniqla, 737 yilda tang ahvolda qoladi. Xuroson va Movarounnahrning noib va amirlari bir necha bor o‘zgartiriladi. Xurosonning yangi noibi Nasr ibn Sayyor 738-739 yillarda qo‘zg`oltonni bostirish uchun Samarqand, Choch, Forob va Farg`onaga bir necha bor yurish qiladi.

Mamlakatda o‘z mavqeyini mustahkamlab olishda u avvalo moliya islohoti o‘tkazadi. Islomni yangi qabul qilgan kishilar jizyadan ozod etilib, barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtiriladi. Yer egasi, e’tiqodidan qati nazar, xiroj to‘lashi shart qilib qo‘yiladi. Shu asosda Movarounnahr va Xurosonning barcha

viloyatlari uchun xiroj miqdori belgilab beriladi. Ayni vaqtda Nasr mahalliy zodagonlar bilan yaqin aloqa o‘rnatish va ular yordamida mamlakatni itoatda tutib turishga harakat qiladi. Shu maqsadda u xalifalik tomoniga o‘tgan yirik dehqonlarning avvalgi imtiyozlarini tiklaydi. Oliy martabali arab lashkarboshilari bilan zodagon dehqonlar o‘rtasida qon-qarindoshlik aloqalari o‘rnatilishini har tomonlama rag`batlantiradi. Ayni vaqtda o‘zi ham namuna ko‘rsatib, Buxorxudotning qiziga uylanadi. Natijada arablar bilan mahalliy zodagonlar o‘rtasida ma’lum darajada ittifoq yuzaga keladi. Bu, o‘z navbatida, ittifoqchi kuchlarning bo‘linib, kurash shiddatini susayishiga sabab bo‘lsa-da, ammo ozodlik yo‘lida olib borayotgan xalq harakatlariga barham bera olmaydi.

VIII asrning I-yarmida Movarounnahrda xalifalikka qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg’olonlari arab istilochilariga qarshi kurashning birinchi bosqichi edi. Qo‘zg’olonchilarining ijtimoiy tarkibi ham, ularning oldiga qo‘ygan maqsad va talablari ham turlicha bo‘lgan. Movarounnahr xalifalikdagi eng notinch va isyonkor o‘lkalardan biri bo‘lib qolaverdi. Ayni vaqtda xalifalikning ijtimoiy va siyosiy hayotida ham keskin o‘zgarishlar paydo bo‘la boshlagan edi. Arab zodagonlari Umaviylarning qo‘pol siyosati oqibatida ajam xalqlarining uzlucksiz davom etayotgan qo‘zg’olonlaridan nihoyatda tashvish chekib mamlakatda siyosiy barqarorlikni o‘rnatish chora-tadbirlarini izlamoqda edi. Mamlakatdagi umumiy vaziyat o‘ta zo‘ravonlik va bosqinchilik siyosatiga asoslangan Umaviylar hukmronligini barham topishini taqozo qilmoqda edi. Natijada bu hukmron sulolaga qarshi ishchan raqiblar guruhi paydo bo‘lib, tobora kuch ola boshlaydi. Bu guruhga Muhammad (s.a.v) payg`ambarning amakisi Abbosning evarasi Muhammad ibn Ali boshchilik qiladi. Umaviylar Rasululloh avlodini qirib tashlashda ayblanadi. Xalifalikni Abbosiylarga topshirish kerak degan da’vo ilgari suriladi. Mamlakat aholisida Umaviylarga nisbatan paydo bo‘lgan nafrat hamda zabit etilgan o‘lkalarning mazlum xalqlarining noroziligi va ozodlik yo‘lida olib borayotgan qo‘zg’olonlaridan foydalanib Umaviylarni ag`darib tashlashga harakat qilinadi. Abbosiylar harakatini targ`ib qilishda ayniqsa Sharqiy viloyatlarga alohida ahamiyat

beriladi. Abu Hanifa ad-Dinovariyning yozishicha, VIII asrning 30-yillaridayoq Marv, Buxoro, Samarqand, Kesh, Nasaf, Chag`oniyon, Marvirud, Hirot, Talikon, Bushanj va Seyistonda Abbosiylar harakatini targ`ib qilish avj olib ketadi. Targ`ibotchilar aholining mazlumligiga faqat Umaviylar sababchi, degan fikrni ilgari suradilar. Shu tarzda xalifalikda Umaviylar hukmronligini ag`darib tashlash uchun keskin harakat boshlanib ketadi.

Umaviylarga qarshi kurashda Abbosiylar, ayniqsa, Xuroson va Mavarounnahrning zodagon dehqon tabaqa vakillarini turli va'dalar berib jalg etishga harakat qiladilar.

746 yilda Abbosiylar targ`ibotiga rahbarlik qilish uchun *Abu Muslim* Xurosonga yuboriladi.

Abu Muslim 747 yilda Marv shahridan uch farsax g`arbda Harxon arig'i sohiliga joylashgan Safizanj qishlog`ini o'ziga qarorgoh qilib oladi. Abbosiylar harakatining timsoli sifatida tim qora rang qabul etilgani uchun Abu Muslim va uning safdoshlari qora libos kiyib, qora bayroq ostida Umaviylarga qarshi qo'zg`algan kuchlarni birlashtirishga kirishadi. Dastlab arab zodagonlari va ba'zi arab qabilalari, so'ngra mahalliy dehqonlar Abu Muslimni qo'llab-quvvatlaydi. Umaviylarga qarshi tashviqotning sadosi tez orada Xuroson, Mavarounnahr va Toxariston viloyatlari bo'ylab keng tarqaladi.

Qo'zg`olonchilar Abu Muslim qarorgohi atrofida to'plana boshlaydi. Safizanj qishlog`i tobora ko'payib borayotgan qo'zg`olonchilarni sig`dira olmagach, Abu Muslim Moxuvon qal'asiga ko'chib o'tadi. Qo'zg`olonchilarga qochoq qullar ham kelib qo'shiladi.

Abu Hanifa ad-Dinovariyning ta'riflashicha, Abu Muslim qarorgohi atrofida 100 mingga yaqin lashkar yig'ilgan edi. Yetarli lashkariy kuch to'planib, harakat uchun qulay vaziyat vujudga kelgach, 747 yilning saratonida Abu Muslimga Umaviylarga qarshi ochiq kurashga da'vat etishga ruxsat beriladi.

Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor Abu Muslim lashkari bilan to'qnashishga jur'at qilmay, 748 yilning boshida Xurosonning poytaxti Marv shahrini

qo‘zg`olonchilarga jangsiz bo‘shatib beradi. O‘scha yili Nishopur va Tus shaharlari ham qo‘zg`olonchilar qo‘liga o‘tadi. Garchi xalifa Marvon II o‘z ixtiyoridagi barcha harbiy kuchlarni qo‘zg`olonchilarga qarshi safarbar qilib, hatto Abbosiylar harakatining rahnamosi Imom Ibrohim ibn Muhammadni qatl ettirsa-da, ammo Umaviylar hokimiyatini saqlab qololmaydi. Xalifa Marvon II taxtdan ag`darilib, o‘rniga Abbosiylar xonadonidan bo‘lgan Abulabbos Saffoh (749-754) xalifalik taxtiga ko‘tariladi. Xalifalikda hokimiyatning Abbosiylar qo‘liga o‘tishida sarkarda Abu Muslimning xizmati katta bo‘ldi. Abu Muslimning Eron va Movarounnahrdagi shuhrati va obro‘sidan xavotirlangan Abbosiylar uni poytaxtdan uzoqlashtirib, Xuroson va Movarounnahrga noib qilib yuboradilar. Biroq Abbosiylar va noib Abu Muslim davrida Xuroson, Xorazm va Movarounnahrdha mehnatkash xalq ommasining ahvoli yanada og`irlashdi.

Yangi sulolaga nisbatan yana xalq noroziligi kuchaydi. 750 yilda Buxoro shahrida Sharik qo‘zg`oloni ko‘tariladi. Qo‘zg`olon o‘scha yili Buxoroning mahalliy hukmdori buxorxudot Qutayba ibn Tug`shoda yordamida juda qiyinchilik bilan bostiriladi.

Movarounnahrdagi bu notinchlikdan foydalangan Xitoy imperatorining qo‘sishinlari O‘rtta Osiyoga bostirib kiradi. Abu Muslim tomonidan yuborilgan Ziyod ibn Solih boshchiligidagi katta harbiy kuch 751 yilda *Talas jangida* Xitoy qo‘sishinlariga zarba berib, ularni mamlakat chegarasidan quvib chiqaradi.

Garchi Abu Muslim xalifalikni mustahkamlashda Abbosiylar xonadoniga sidqidildan xizmat qilgan bo‘lsa-da, ammo Xalifa Mansur uning xalifalik taxtiga da’vogar bo‘lishidan qo‘rqrar edi. Nihoyat 755 yilda Abu Muslim xalifa Mansur (754-775) tomonidan poytaxtga chaqirtirilib xoinona o‘ldiriladi. Abu Muslimning o‘ldirilishi bilan xalifalik Sharqda, ayniqsa Xuroson va Movarounnahrdha Abbosiylarga qarshi xalq ommasining harakatlari avj olib ketdi.

VIII asrning 70-80-yillari Movarounnahrdada arab xalifaligining hukmronligi va mahalliy zodagonlar zulmiga qarshi katta xalq qo‘zg`oloni ko‘tariladi. Qo‘zg`olon 14 yil davom etadi (769-783 yy.) Qo‘zg`olonchilarning jangovar guruhi

oq kiyingani uchun tarixda u «Oq kiyimlilar» qo‘zg’oloni deb ataladi. Bu harakatning rahbari Muqanna («Niqobdor») laqabi bilan mashhur bo‘lgan marvlik hunarmand Hoshim ibn Hakim edi. U Mazdak g’oyalariga asoslangan ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da’vat etuvchi ta’limotni targ’ib etib, payg’ambarlik da’vosini qilgani va Xuroson noibining xalifaga qarshi isyonida qatnashgani uchun xalifa Mansur tomonidan Bag`dodda zindonga tashlanadi. Bir necha yildan so‘ng zindondan qochib 769 yilda yana Marvga keladi. Atrofiga o‘z tarafdarlarini to‘playdi, ajnabiylar hukmronligi va zulmiga qarshi qo‘zg’alishga da’vat qilib Movarounnahr viloyatlariga tashviqotchilarini yuboradi.

Muqanna o‘z yaqinlari bilan Naxshab va undan Kesh shahriga etib kelib, shahar yaqinidagi tog` tepasiga qurilgan Som qal’asini o‘ziga qarorgoh qiladi. Ko‘pgina qishloqlarning kadivarları, shahar hunarmandları va ayrim zodagon dehqonlar unga ergashadi.

Tez orada butun Qashqadaryo vohasi Muqanna tarafdarları qo‘liga o‘tadi. «Oq kiyimlilar» harakati kengayib, katta xalq qo‘zg’oloniga aylanadi (q. *Muqanna qo‘zg’oloni*).

777 yilda «Oq kiyimlilar»ga uzil-kesil zarba berish uchun xalifa Mahdiy Nishopurga keladi. Xuroson noibi Maoz ibn Muslim va Hirot amiri Sa’id Xarashiy boshliq katta qo‘sish Samarqandga yuboriladi. Qo‘zg’olonchilar Sirdaryo bo‘ylarida yashovchi ko‘chmanchi qabilalarni yordamga chaqiradilar. Jangda arablar qo‘sini mag`lubiyatga uchraydi. Natijada Maoz ibn Muslim Xuroson noibligidan iste’fo beradi. O‘rniga Sa’id Xarashiy tayin etiladi va unga qo‘zg’oloni bostirib, Muqannani qo‘lga tushirish topshiriladi. «Oq kiyimlilar» va turkiy qabilalar Samarqandda arablarga qarshi ikki yil jang qiladi. Nihoyat qo‘zg’olonchilar yengilib, Samarqand taslim bo‘ladi.

Narshax va Samarqandda «Oq kiyimlilar» yengilgach, mahalliy zodagon dehqonlar sotqinlik qilib, arablarga yordam bera boshlaydilar. Ular Sa’id Xarashiy qo‘sish bilan birga Muqannaga qarshi Keshga tomon yurishida qatnashadi.


Kurashning oxirgi bosqichida Kesh vohasidagi tog'lar orasida janglar shiddatli tus oladi. Muqannaning Som qal'asidagi qarorgohi qamalga olinadi.

Uzoq davom etgan qamaldan so'ng kurashdan tinkasi qurigan muqannachilar taslim bo'ladi. Ammo istilochilarga taslim bo'lishni istamagan Muqanna o'zini yonib turgan olovga tashlab halok bo'ladi. O'n yildan ortiq davom etgan va o'sha davrda jahonning eng yirik davlati hisoblangan Arab xalifaligini larzaga keltirgan Movarounnahr xalqining ozodlik harakati shu tariqa tugadi.

Ammo bu bilan arab istilochilariga qarshi harakat uzil-kesil to'xtab qolmadni. «Oq kiyimlilar» qo'zg'olonidan 20 yil o'tar-o'tmas 806 yilda xalifa Horun ar-Rashidning Xuroson va Movarounnahrdagi noibi Ali ibn Iso zulmiga qarshi O'rta Osiyoda Rofe ibn Lays qo'zg'oloni ko'tariladi. Qo'zg'olon Samarqanddan boshlanib, SHosh, Farg'ona, Xo'jand, Buxoro, Naxshab, Xorazm va boshqa viloyatlarga tarqaladi. Harakat avj olib, mazkur viloyatlar xalifalik qo'lidan ketadi.

Qo'zg'oltoni bostirish uchun shaxsan xalifa Horun ar-Rashid o'g'li Ma'mun bilan Movarounnahrga qo'shin tortadi. Xalifa Tusga yetib kelgach, to'satdan vafot etadi (809 yil mart). Ali ibn Isoning iste'fosidan keyin Xuroson noibi bo'lib olgan Ma'mun (809—813) jami qo'shinni qo'zg'oltoni bostirishga tashlaydi, lekin natijaga erisha olmaydi.

### Arab xalifaligi davlat boshqaruvi



Ma'mun mahalliy zodagon dehqonlardan Somonxudotning nabiralari Nuh, Ahmad va Yahyolarni yordamga chaqiradi. Ular Rofe ibn Laysni qo'lga olib, uni xalifaga taslim bo'lishga rozi qiladilar. Yo'lboshchisiz qolgan dehqonlar qo'zg'oloni 810 yilda butunlay tor-mor etiladi.

Shu tarzda Arab xalifaligi VIII asr boshlarida Movarounnahrni fath etishga muvaffaq bo'ldi. Bosib olingan yerlarda islam dini yoyilib, mahalliy xalqlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti Arab xalifaligining tartib-qoidalariga bo'ysundiriladi.

Bu davrda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan murakkab siyosiy vaziyatning tadrijiy rivoji va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat aholisining madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etadi.

Movarounnahrda arab tilining davlat va fan tili sifatida joriy etilishi bilan uni o'zlashtirishga bo'lgan intilish ham ortdi. Ayniqsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab, uni mustahkamlashning garovi deb bildilar. Uni o'zlashtirishga astoydil kirishdilar.

Natijada ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda arab tili va yozuvini o'z ona tilidek o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ladi. Arablar orasida bu paytda joylarda hokimiyatni boshqarishga yaroqli bilimdon ma'murlar juda oz bo'lgan.

**4. V-VIII asrlarda o'zbek davlatchiligidagi madaniy hayot. Islom dinining yoyilishi. Masjidlar qurilishi. Qur'oni-karim - muqaddas kitob. Shariat qonunlari va axloq-odob.** V-VI asrlarda O'rta Osiyoda ilk feodal munosabatlardan yuzaga keladi. Feodal munosabatlarning qaror topib, mustahkamlanishi eftalitlar davlati, turk hoqonligi va arablar istilosi bilan bog'liq. Tabiyiki, madaniyatning yanada gullab-yashnashi va yuksalishi shu tarixiy voqealar bilan bog'liq.

Eftalitlar davri madaniyati to'g'risida bizgacha juda kam manbalar yetib kelgan. Hatto eftalitlar yozuvi deb nom olgan yozuv yodgorliklari haligacha o'qilgan emas. Lekin shunga qaramasdan, rimlik tarixchi Ammian Marsellin (IV asr),

vizantiyalik Prisk Paniyskiy (V asr), Prokopyi Kesariyskiy (VI asr), Feofan Vizantiyskiy (VI asr), suriyalik Zenob Glak (VII-VIII asrlar), arman tarixchilari Lazar Parbskiy (V asr), Favsto Buzanda (IV asr), Yechish (V asr) asarlarida, «Avesto»da, xitoy solnomalari «Vey-Shu» va «Tan-Shu»da, Firdavsiy «Shohnoma» sida eftalitlar haqida ma'lumotlar bor. Shu ma'lumotlarga ko'ra, eftalitlar botir, jangovor va qahrli bo'lishgan va janglarda ko'pincha cho'qmor, gurzi (palisa) ishlatishtgan, forslar esa o'sha davrda o'q-yoy qo'llashgan, arablar- nayzani.

Eftalitlarning ma'naviy madaniyati kushon madaniyatini an'analarini ayrimlarini saqlab qolgan edi, chunki ularning davlati ham Kaspiy dengizidan Qoshg'argacha va Orol dengizidan Hindistongacha cho'zilib ketgandi. Shuning uchun ham ularning tili aralash edi, unda eron va turkiy tillar unsurlari bo'lgan. Bu davrda xorazmiy, eftalit, sug'd va mashhur o'rxun-enisey yozuvlari qo'llanilgan. Eron bilan chegaradosh viloyatlarda pahlaviy (ya'ni o'rta asrlar forsiy yozushi) yozuv qo'llanilgan. Eftalitlar davri xalq qo'shiqlari va eposlari Firdavsiy «Shohnomasi» da tasvirlangan. Ular ichida Zopir to'g'risida rivoyat bor. (shakllarning Shiroq to'g'risidagi rivoyatiga o'xshash). Unda Zopir o'z vatani ozodligi uchun halok bo'ladi. Undan tashqari eftalitlarning sosoniy podshoh Peroz bilan kurashi chegara minorasining 50 fillar yordamida ko'chirilishi to'g'risida va Perozning bo'ri uyasida halok bo'lishi ham «Shohnoma» da tasvirlangan.

Eftalitlarning turmush-tarzi, kiyinishi to'g'risida VI asrda eftalitlar makoniga kelgan budda ziyoratchisini qiziqarli hikoyasi saqlanib qolgan. U ayollar kiyimidan taajubda qolib, ular qimmatbaho matolardan uzun etakli (shleyfli) qilib tikilganligini yozadi. Bolaliktepada topilgan tasvirlarda qadah ko'tarib o'tirgan erkaklar va ayollar o'sha davr kiyimlar haqida real tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Xitoy xronikalarida xabar qilinishicha, eftalitlarda bir necha aka-ukada bitta umumiyl xotin bo'lgan va uning boshidagi qalpog'ining burchaklari soniga qarab aka-ukalar nechtaligini bilish mumkin edi va shuningdek, ko'pxotinlik ham mavjud bo'lgani ta'kidlanadi. Eftalitlar davri ko'mish marosimlari to'g'risida ham qiziqarli ma'lumotlar bor. Prokopyi yozishicha eng boy kishilar doimiy hamroh sifatida 20

tadan ortiq do'stlarga ega bo'lishgan va boy vafotidan so'ng qonun-qoida bo'yicha u bilan birga uning do'stlari ham tirikligicha qabrga qo'yilgan emish. Rostdan ham bu dahshatli marosim bo'lganmi ma'lum emas. Ammian Marsellining (IV asr) yozishicha xionit shahzodasi xalok bo'lganida, uni murdasini kuydirishgan va atrofida yasama «do'stlari» (haykalchalar) o'tkazib qo'yilgan va narigi dunyoga shahzodaga hamroh bo'lishgan. Oddiy eftalitlar murdasini tuproqqa qo'yilgan, boylarni esa maxsus tosh daxmalarga ko'mishgan.

Tabiyiki, bunday marosimlarning mavjudligi eftalitlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq Eftalitlar siyosiy jihatdan turli xalqlarni birlashtirganlari uchun, ularning diniy e'tiqodlari ham xilma-xil bo'lgan. Zardushtiylik Erondagidan farqli ravishda o'zgargan ko'rinishda davom etgan va mahalliy kultlar Siyovush, Mitra va boshqalar bilan qo'shilib ketgan. Mustaqil holda Vaxsh, Mitra, Anaxit, Siyovushga talpinish xamon mavjud edi. Masalan, IV asrda Navruz kuni zardushtiylar erta tongda Buxorodagi Siyovush qabriga xo'roz keltirib qurbanlik qilishgan. Eftalitlar kushonlarning buddaviylik an'analarini ham davom ettirdilar. Bu davrda ko'pgina budda ibodatxonalar qurilgan. Undan tashqari O'rta Osiyoda Manixeizm, Mazdak ta'limoti (Erondan) ham yoyilishi davom etdi. Shaharlarda xristian - nestorian va yahudiylarning diniy tashkilotlari bo'lgan. V-VI asrlar me'morchilik yodgorliklaridan Surxandaryodagi Bolaliktepa, Samarqanddagi Afrosiyob, Farg'onadagi Quva, Qashqadaryodagi Aultepa, Buxorodagi Varaxsha, Xorazmdagi Fil-qiyot kabilarni ta'kidlash mumkin.

Bu davrning eng ajoyib yodgorliklaridan biri eftalit shohlarining saroyi hisoblanadi. U Buxorodan 40 chaqirim narida, aniqrog'i Qizilqumda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan va aniqlangan Varaxsha shahri xarobalari. Bu qo'rg'on ulkan kvadrat shakldagi mustahkam tepe ustida qurilgan. Topilgan bir necha katta va kichik zallardan iborat qasr devorlari va shiftlariga naqshli suratlar, dekorativ tasvirlar yuksak mahorat bilan ishlangan. Varaxsha saroyi binolaridan birining devorlariga yelimlik rang bilan oq fil mingan, nayza, qilich va kamand bilan qurollangan askarlarning hayvonlar va qanotli ajdaholar bilan jangi tasvirlangan.

Fillar va beligacha yarim yalang'och askarlar oltin hamda qimmatbaho toshlardan yasalgan turli xil zeb-ziynatlar bilan bezatilgan. Ikkinci suratda podsho saroy ahllarini tantanali bir vaziyatda qabul qilmoqda. U qanotli ikki tuyaning surati solingan taxtda o'tiribdi. Taxtning ikki tomonida juda qimmatbaho kiyimlar kiygan, qilich va xanjar taqqan, qo'llariga qadah ko'targan kishilar va hakozo. Varaxsha jahon madaniyatining durdonasi hisoblanadi. O'rta Osiyo me'morligida V-VI asrlardan aylana yoki kvadrat asosga o'rnatilgan gumbazlar konstruksiyasi takomillashtirildi.

Eftalitlar davrining ya'na bir ajoyib yodgorligi Surxandaryodagi Bolaliktepa joyidan 1953-1954 yilda topilgan qadimgi budda ibodatxonasi qoldiqlari hamda tasviriy san'atning nodir suratlari. Devorlarga o'yib ishlangan ganch o'ymakorligi namunalari. 1948-1951 yillarda Samarqanddan uncha uzoq bo'limgan Panjikent (Tojikiston) xaroblarida qazish ishlari olib borilib, ikkita ibodatxona va istiqomat uylari kovlandi. Ularning devorlariga chizilgan rasmlarda sozandalari mashqi ostida o'yinlar, ruhoniylar ishtirokida qurbanlik qilish, o'lganga aza tutish marosimlari mahorat bilan tasvirlangan. Eftalitlar davrida rangli shisha ishlab chiqarish keng rivojlandi. Undan tashqari loydan ayollar haykalchasini yoki koroplastika san'ati rivoj topdi. Bu yodgorliklar O'rta Osiyo xalqlarining qo'shni xalqlar - Eron, Hindiston, Xitoy va boshqa Sharq mamlakatlarining aholisi - bilan savdo-sotiq olib borganligini, madaniy aloqada bo'lganligini ko'rsatadi. Masalan, Kama daryosi yonidagi hududda eftalit kumush kosalari topilgan va undagi yozuvlar S.P. Tolstov ta'kidlashicha xorazmdagi qadimiy tanga yozuvlariga yaqin. Afsuski, bu kosodagi yozuvlar hali o'qib olinmagan.

VI asr o'rtalarida Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyodagi turli qabila va xalqlar birlashib, turk xoqonligi deb atalgan davlat vujudga keldi. Turk hoqonligiga birlashgan xalqlar taraqqiyotning turli bosqichida yashagani o'sha davrni madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatdi. O'rta Osiyoning turk hoqonligi tarkibiga kirishi o'z ijobiy tomonlari bor edi. Chunki turk xoqonlari o'lkani himoyasini o'z zimmalariga olgan bo'l salarda, lekin bo'ysindirilgan xalqlarning ichki hayotiga ko'p

aralashmas edilar. Sug‘diyona, Choch, Xorazm va boshqa hokimliklar hokimlari ma'lum darajada o'z mustaqilliklarini saqlab qolgan edilar. O'sha davrda tillar va yozuvlar xilma-xil edi. Lekin Xitoy tarixchisi Syuan - Szyan yozishicha Chu daryosidan to Amudaryogacha har xil qabilalar yashasa-da biroq ularning madaniyatida umumiylilik, ayniqsa, urf-odatlarda, kiyinishda, yozuvda, mavjud bo'lgan. Masalan, Zarafshon vodiysidagi Kan hokimligida erkaklar sochlarini qirdirib egniga chakmon tashlab yurar edi, ayollar sochlarini turmaklab boshlariga zar gulli qora yoping‘ich o'rab yurar edi, kan hokimi esa sochini o'rab qimmatbaho 7 toshlar bilan bezatilgan toj kiygan. Aholi asosan charm, paxta iplik va jun matodan, hokimlar esa ipakdan bo'lgan kiyimlar kiyishgan. Xitoy tarixchilari saroylardagi oltin taxtlar haqida eslatib o'tadilar: Buxoro hokimining taxti tuya ko'rinishida, kushon hokimining taxti qo'y shaklida bo'lgan ekan.

Turk hoqonligi aholisi til jihatidan eftalitlarga yaqin bo'lib, «*j*» lovchi shevada gapirishgan va VI asrda u «*y*» lovchi lahjani siqib chiqarib davlat tiliga aylandi. Turkiy lahjadan tashqari eron lahjalari ham mavjud edi. Yozuvlarning xilma-xilligi ham saqlanib qolgan edi. Xorazm yozuvi bitilgan hujjatlar, tanga, muhr va metall buyumlar Tuproqqal'adan topildi. Suriya yozuvi ham tarqalgan edi, u O'rta Osiyoga manixeyizm dini tarafдорлари tomonidan olib kelangan edi. Ayrim doiralarda hind alfaviti bilan bitilgan yozuv ishlatilar edi. Lekin VI-VII asrlarda keng tarqalgan yozuv bu sug‘d yozuvi edi. Xitoy tarixchisi Syuan Szyan sug‘d yozuvi to'g‘risida quyidagi ma'lumotlarni qoldirgan. Bu yozuv 25 harfdan iborat bo'lib, u chapdan o'ngga qarab yozilgan. Beruniy ma'lumotiga ko'ra sug‘d kalendar bo'lgan. Bu kalendar Tojikistonda Mug‘ tog‘ida topilgan. Xitoyda sug‘d tilida yozilgan diniy adabiyotlar topilgani ham ma'lum. VII asr sug‘d matnlari ichida «Rustami doston» dan parchalar saqlanib qolgan. Turk tiliga mansub VI-VII asrlarda keng tarqalgan o'rxo'n- enisey yoki turkiy run deb ataluvchi yozuvni ham aytib o'tish joyiz.

Xitoy yilnomasi «Tan-Shu» da turklarning ko'mish marosimi bunday ta'riflanadi: murda boyliklari, jangda mingan oti bilan birga kuydiriladi, xoki dafn qilinib, marhum qancha dushmani o'ldirgan bo'lsa, uning qabriga shuncha tosh

qo'yiladi va marhumning surati ishlanadi, uning qilgan ishlari o'yib yoziladi. O'rxo'n -enisey yozuvida bitilgan yodgorliklar ko'pi mana shunday qabr toshlarda topilgan VII asrda O'rta Osiyoda savodxonlik Eronga nisbatan kuchli edi. Eronda ko'pincha qoxinlar va mirzolar edi. O'rta Osiyoda yozuvlarning xilma-xilligi va keng tarqalishi savodxonlikning yuksak darajaga olib keldi. Xitoy tarixchi Vay Sze ta'kidlashicha 5 yoshga to'lган bolalar yozish va hisob-kitobga o'rgatilib, 20 yoshga savdo-sotiq bilan shug'ullanishgan va foyda topish aholi orasida yuqori baholangan.

Afsuski, qadimgi O'zbekiston xalqlarining eski yozma yodgorliklari feodal urushlar, islom dinining tazyiqi, qadimgi madaniyatga qarshi olib borilgan muttasil kurashlari tufayli deyarli saqlanib qolmagan. Beruniy ta'qidlashicha, VIII asrda Eron, Sug'diyona, Xorazmda arablar tomonidan madaniyat tashuvchi kohinlar va kitoblar yo'q qilingan.

Turk xoqonligi xududida yagona hokim din bo'lmay, osmon kulti, zardushtiylik, shamanizm va boshqa dinlar hamda ularning sinkretik formasi tarqalgan edi. Eftalitlar davridan so'ng buddizm va u bilan bog'liq bo'lgan diniy o'rnodatlar yo'qola boradi, lekin O'rta Osiyoning janubiy qismida hamon saqlanib qolgan edi. Turkiylar osmon kultiga tolpinishar edi, uni tangri deb atab, unga ot, ho'kiz va qo'ylarni qurban qilganlar. Keyinchalik mahalliy aholining otashparastlik dini turkiylar diniy e'tiqodlari bilan qo'shilib ketgan. Masalan, bu ko'mish marosimda yaqqol ko'rinib turadi. Xitoy manbalarida o'sha davr ko'mish marosimi quyidagicha ifodalangan. Tashlandiq joyda itlarni saqlab ularga marhumlarning jasatini tashlab keyin suyaklarini terib olib ko'mishadi. Zardushtiylikda esa, Strabon va Yustian tariflashlaricha, suyaklar ko'milmasdan balki alohida sopol idishlarga - ossuariylarga (ostodon) solib qo'yilgan.

O'zbekiston xududida, ayniqsa Xorazmda, VI-VII asrlarga oid ko'pgina ossuariylar topilgan.

Xorazmdagi Teshikqal'a qo'rg'oni arxeolog S.T. Tolstov VII-VIII asrlarga oid deb ta'kidlaydi. U bir gektar maydonni o'z ichiga olib, atrofi paxsa devorlar bilan o'ralgan, burchaklarida minoralar qad ko'targan. Ichkarida yana ikkinchi qator devor

bor. Uning janubi-g‘arbiy tomonida 6,5-8 metr balandlikda ko'shk qurilgan. Ko'shkka faqat to'g‘risidagi minoradan tashlanadigan osma ko'prik orqali kirish mumkin bo'lgan. Xonalarda yotish uchun maxsus joy tayyorlangan, hattoki ulardan gilam qoldiqlari topilgan. Hovlida qalin g‘ishtdan qurilgan uy ham bo'lgan, tahmin bo'yicha olov ibodatxonasi. Bu davrda haykaltaroshlik, kulolchilik, tasviriy san'at ham keng rivojlangan. Xitoy manbalariga ko'ra, o'sha davrda Sug‘diyona ibodatxonalarida oltindan yasalgan haykallar bo'lgan. Toshdan yasalgan haykalchalar ham keng tarqalgan, ularni qo'rg‘onga yoki marhum qabriga qo'yishar edi. Haykalchalar qo'lida kosa, qurol-yarog‘ ushlab turgan kishi shaklida tasvirlangan. Afrosiyob harobalaridan loydan yasalgan yig‘lab betlari yuladigan haykalchalar topilgan. Menandr ta'kidlashicha bu ko'mish marosimi bilan bog‘liq: turk hoqoni Istemni vafot qilganida, aza tutuvchilar betlarini kesganlar va bu marhumga hurmat belgisi edi.

Sopol idishlarni slyuda shaffof mineral orqali turli rangda sirlashgan va ular yaltirab turgan. Undan tashqari idishlar naqsh, hayvon, meva-cheva, baliq, qush, gul, odamlar tasviri bilan bezatilgan. Oltin va kumush idishlarni hukmdorlar ishlatishgan. Afrosiyob shaharchasida ochilgan tasviriy san'at namunalari VII asrga oid bo'lib, go'zalligi jihatidan ilgari ma'lum bo'lgan yodgorliklardan ancha ustun turadi. Saqlanib qolgan bu naqshlarga qarab, o'sha zamondagi mohir rassomlar san'atini yorqin tasavvur qilish mumkin. Ayniqsa katta xonadagi suratlar e'tiborga sazovor. Zalning janubiy devoriga katta rasm solingan, unda fil, tuya va otlar mingan, yasangan kishilar tasvirlangan. Podsho katta hashamador saroyi xonalari, ularning devorlariga o'yib solingan bezaklar, lavhalar, bitilgan sug‘d yozuvlari O'rta Osiyo xalqlari badiiy tafakkurining yuksak taraqqiyotidan darak beradi. O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayoti arablar bosib olishi oldida shunday bo'lgan.

VII-VIII asrlarda O'rta Osiyo hududida arablar tomonidan bosib olindi. Arablar istilosi O'rta Osiyo madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatdi? Bu savolga javob berish uchun arablarning O'rta Osiyoning bosib olishlarini sabablari va maqsadlarini aniq tasavvur etish lozim.

Islom- itoat qilish, bo'y sunish demakdir. Bu dinga sig'inuvchi kishilar muslim-musulmon (itoatkor) deyiladi. Islom ta'limoti muqaddas kitob Qur'onda (o'quv) bayon etilgan. U, musulmonlar rivoyatiga ko'ra, Olloh tomonidan farishta Jabroil orqali Muhammadga ukdirilgan deb tasavvur etiladi. Lekin Muhammad tirik davrida uning targ'iботлари omma orasida og'zaki tarqalgan va vafotidan so'ng xalifa Abu Bakr davrida yozib olingen. Islom ta'limoti yetti aqida: yagona xudo – Ollohga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, Ollohning elchisiga, oxiratga, taqdirning ilohiyligiga, o'lgandan keyin tirilishiga ishonish talablariga asoslanadi. Islom ta'limotiga ko'ra, dunyodagi barcha mavjudotlar Olloh tomonidan yaratilgan va olamda yuz beradigan barcha voqeа va hodisalarga Olloh tomonidan oldindan belgilangan. Musulmonchilikning 5 sharti bo'lib, ular: kalima keltirish, ya'ni «Ollohdan boshqa xudo yo'q, Muhammad uning elchisidir» kalimasini aytish; har kuni 5 mahal namoz o'qish; ramazon oyida ro'za tutish, zakot berish va imkoniyat bo'lsa, Makkaga ziyoratga borish (haj). Qur'onda xudo yagona, rahmdil va qudratli, o'z karomatidan hammani bahramand etadi, shu sababli unga e'tiqod qiluvchilardan itoatkor bo'lishni talab qilishga haqqi bor, deb ta'kidlanadi. Har qanday hokimiyat xudo tomonidan yuborilgan tuxfa bo'lib, barcha musulmonlar unga so'zsiz itoat qilishlari shart edi. Qur'onda Olloh oldida hammaning tengligi, bandaligi g'oyasi ilgari suriladi. Unga ko'ra, insonlar etnik bo'linishi, ijtimoiy- iqtisodiy tabaqalanishidan qat'iy nazar faqat 2 guruhga : islom diniga e'tiqod qiluvchilar – musulmonlar va g'ayridinlar - kofirlarga ajraladi. Islom dinining g'oyalari dastlab oddiy ommani, keyin xalifalikning oliy tabaqasi manfaatlariga mos tushdi. Arablar istilosи arafasida O'rta Osiyoda 15 ga yaqin katta-kichik davlatlarga bo'linib ketgan edi. Shu sababli, arablarning g'alabalari ularning kuchida emas, balki ular tomonidan bosib olingen mamlakatlardagi ichki zaiflik va tarqoqlik ham edi. VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arablar Amudaryo bo'y lari dagi yerlarga hujumlar qiladilar. Bu o'lkani ular Movarounnahr ya'ni daryoning naryog'idagi yerlar deb ataydilar va uni bosib olishni Hazrat Muhammadning o'zlari aytib, ketganlar, deb tarqatganlar. VIII asr boshlarida Movarounnahr yerlarini arablar o'zlariga

bo'ysundirdilar. Lekin ularni osonlikcha zabit etganlari yo'q. Arablar mahalliy aholining qattiq qarshiligidagi duch keldilar. Arab bosqinchiligining sabablaridan biri talon-tarajlik bo'lsa, ikkinchisi - majburiy islomlashtirishdan iborat edi. «O'lja haqidagi suralar», o'ljani taqsimlashni qonunlashtirdi (sura-al g'animat). Arablar vayronagarchilik va boyliklarning talontaroj ishlarini islom bayrog'i ostida olib bordilar. Ular O'rta Osiyoda o'zlariga qaraganda ancha yuqori darajada turgan moddiy va ma'naviy madaniyatga, yuqori turmush darajasiga duch keldilar. Shuning uchun ular mahalliy xalqlarning ilg'or madaniyati, urf-odatlari, an'analarini yo'q qilishga intildilar. O'rta Osiyoni bo'ysundirmoq va islom dinini majburan singdirish uchun arablar bu yerdagi o'tmisht madaniyat va boshqa dinlar bilan bog'liq olimlar, kitoblar, ibodatxonalar, san'at asarlarini nobud qila boshladilar. Marv, Buxoro, Samarqand va Xorazm kutubxonalarida saqlanayotgan minglab noyob asarlar yo'q qilindi. XI asrning buyuk olimi Abu Rayhon Beruniy o'zining mashhur «O'tmisht avlodlar yodgorliklari» nomli asarida yozganidek, Qutayba va boshqa arab hokimlari mahalliy din, san'at, adabiyot vakillarini, olimlarni o'ldirib, ular yaratgan asarlarni olovda yondirdilar. Arablar mahalliy yozuv va hujjatlarni tag-tugi bilan yo'q qilganlar, oltin va kumush buyumlarni qayta eritib, qimmatbaho ma'danga aylantirganlar. Arablar sug'd va xorazmiy yozuvlarini deyarli butunlay yo'q qildilar. Mahalliy xalqlarning madaniyati va urf-odatlarini ta'qib qilgan holda arablar bosib olingan yerlarda zo'rovonlik va kuch yordamida o'zlariga qulay tartibni o'rnatdilar. Ular islomni o'zlarini bo'ysindirilgan xalqlar bilan birlashtiruvchi kuch deb bildilar. Islomni tarqatish uchun iqtisodiy tadbir qo'llanilgan edi. Arablar kimki islom dinini qabul qilsa «juzya» (jon boshiga solinadigan soliq) dan ozod qilishni va'da berdilar. Bu aholining katta qismining o'zini xo'jako'rsinga musulmon hisoblashiga olib keldi. Narshaxiyning (X asr) yozishicha, hatto aholini juma nomoziga jalb etish uchun ikki dirhamdan pul tarqatishgan. Lekin bu hol islom dini mahalliy xalq orasida tarqala boshlagan dastlabki vaqtlardagina qo'llanilgan, chunki arablar manfaatiga javob bermasdi (hazina bo'shab qolishi mumkin edi).

Islom dinining tarqalishi katta qiyinchilik bilan kechdi. Islom dini


targ‘ibotchilar qayerga bormasin, atrofida soqchilar, harbiy otryadlar bilan bo'lardi. Ba'zi bir shaharlarda yangi dinka qaytadan jalb etishga to'g‘ri kelgan. Narshaxiyning yozishicha, Buxoro aholisi necha bor islomni qabul qilsalarda, arablar ketishi bilanoq bu dindan voz kechadilar. Qutayba ularni uch marta musulmon qilgan bo'lsa ham ammo ular bu dindan voz kechar edilar. To'rtinchi martaga Qutayba islomni butunlay kiritishga tuyassar bo'ldi: har bir buxorolik arabga o'z uyining yarmini bo'shatib berishi shart edi va arab buxorolikning islom qoidalari bajarishini nazorat qilar, islom rasm-rusmlarini o'rgatar, kerak bo'lganda boshliqlarga qoidalarga rioya qilmaganlar ustidan ma'lumot yuborishi mumkin edi. Biroq mahalliy e'tiqodlar uzoq yashovchi bo'lib chiqdi. Buxoroda Masjidi - Mochak - otashparastlarning ibodatxonasi masjidi bo'lib, sig‘inishlar tunda o'tkazilgan, bu yer osti binosi 1820 yilgacha mavjud bo'lgan.

Islom dinini targ‘ib etish bilan birga arab tilining tarqalishi va aholini arablashtirish jarayoni ham kechdi. Arab tili davlat, fan va adabiyot tili bo'lgan sababli avvalo hukmron doiralar orasida arablashtirish keng tus oldi. Yuqorida qayd etilganidek, arxitektura yodgorliklari, tasviriy san'at asarlari yo'q qilinib tashlangani, shaharlar vayron qilingani sababli madaniy hayotda sal kam bir asrgacha tushkunlik hukm suradi. Lekin, ajnabi bosqinchilar hokimiysi ostida o'zining uzoq davrli madaniyatiga ega bo'lgan Movarounnahr xalqlarining mahalliy madaniyati rivojlanishdan to'xtab qolmadi. Bosib olingan shaharlarda masjidlar qurishga katta ahamiyat berildi. Ko'p hollarda masjidlar uchun yangi binolar qurilmay, qadimiy zardushtiy va boshqa ibodatxonalarini masjidlarga aylantirildi. Masalan, Buxoroda arablarga cherkov bo'lgan, hozirda Bonu Xayzol masjidi.

Islom dini tirik mavjudotni tasvirlashni qat'iy man etgani tasviriy san'at rivojiga imkon bermadi, faqat naqqoshlik rivoj topdi. Masjid, maqbara, saroy, madarasalar naqsh bilan bezatila boshlandi. Masjid va maqbaralar ko'pincha gumbazli qilib bunyod etila boshladи. Lekin shuni ta'kidlash joizki, Arab xalifaligi avvaliga mahalliy madaniyatga ancha zarar yetkazsa-da, keyinchalik u turli xalqlar o'rta-sidagi munosabatlarni kengaytirishga imkoniyat tug'dirdi va natijada O'rta

Osiyo xalqlari madaniyatining keyingi rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Islom dinining yoyilishiga kelsak u bilan bog'liq bo'lgan diniy rasm-rusmlar, shariat va tariqat qonun-qoidalari, aqidalarining tarkib topib borishi mahalliy xalq namoyandalari uchun, ularning istiqboli uchun muayyan ijobiy rol o'ynadi. Chunki odamlar har xil xudolar, muqaddas hisoblangan narsalarga topinmay, yakkayu yagona Olloh taolo timsoliga, uning payg'ambari Muhammad ko'rsatmalariga e'tiqod va amal qiladigan bo'ldilar.

Islomning muqaddas kitobi "Qur'on"da va "Hadis"da berilgan odamlarni tenglik, hurlik, ozodlik, yaxshilik, sahiylik, birodarlik, qardoshlikka da'vat etuvchi va ahloq-odob normalarini belgilovchi g'oyalar O'rta Osiyo xalqlari ongiga asta-sekinlik bilan singib bordi va ularning turmush-tarzidan, hatti-harakatlaridan, umuman ma'naviy hayotlaridan munosib o'rin olib bordi.



Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, O'rta Osiyo xalqlarining ilk feodalizm davrida madaniy hayoti ham o'sib, ravnaq topgan, qiyinchilik va tushkunlikka qaramasdan yanada gullab-yashnab bizga boy moddiy-ma'naviy meros qoldirdi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

- I. Eftaliylar davrida yerga egalik qilish munosabatlarida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
2. Mazdakchilar qanday g'oyalarni ilgari surganlar?
3. Mazdak qo'zg'oloni yengilishining asosiy sabablarini nimalarda deb bilasiz?
4. Turk xoqonligiga qachon asos solingan?
5. Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo hududidagi davlat boshqaruvi tizimi qanday bo'lgan?
6. Arab istilochilarining O'rta Osipyoga yurishlari haqida so'zlang.
7. Arab bosqinchilariga qarshi yurtimiz zaminida qanday xalq qo'zg'olonlari yuz bergen?

8. Arablar joriy etgan soliq turlari, ularning miqdorlari to‘g‘risida tushuncha bering.

### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li –T.. O‘zbekiston, 1992.
3. Karimov I. A. Amur Temur davridagi bunyodkonlik va hamkorlik ruxi bizga namuna bo’lavversin. Asarlar, 4-jild T., O‘zbekiston, 1996 y.
4. Axmedov E., Saidaaminova Z. O‘zbekiston tarixi. Qisqacha ma‘lumotnama. –T., O‘zbekiston, 1995 y.
5. Buyuk Siymolar, allomalar. (1-kitob). –T., Meros, 1995 y.
6. Buyuk Siymolar, allomalar. (2 kitob). –T., Meros, 1996 y.
7. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000.
8. Gumiyyov L.N. Qadimgi Turklar. – T.: Fan, 2007.
9. Nasimxon Raxmon. Turk xoqonligi. – T.: 1990.
10. O‘zbekiston tarixi. Ma’sul muxarrirlar A.S.Sagdullayev, B.Eshhov. II nashr. – T.: Universitet, 1999.

### **6-MAVZU: IX-XII ASRLARDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI, IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT. O‘RTA OSIYO XALQLARI HAYOTIDA YUZ BERGAN UYG‘ONISH DAVRI**

#### **Reja:**

1. IX asr boshlarida Movarounnahr. Tohiriylar davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Somoniylar sulolasi. Ismoil Somoniy. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. (VIII asr o‘rtalari – X asr o‘rtalari).
2. Qoraxoniylar hukmronligi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
3. G‘aznaviylar davlati. Mahmud G‘aznaviy davrida davlatning kuchayishi.

4. G'aznaviyilar bilan saljuqiylar o'rtasidagi to'qnashuv. Saljuqiylar davlati.
5. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va madaniy hayot. "Uyg'onish davri". IX-XII asrlar O'rta Osiyoda madaniy yuksalish.
6. IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik. Imom Buxoriy. «Jome' as-Sahih». Hadislar tavsifi. Imom Termiziy.

**Tayanch tushunchalar:** Davlat, davlatchilik; halifalik, Tohiriyalar davlati, Safforiylar hokimiyati, Somoniylar davlati, Movarounnahr, Xuroson, davlatni boshqarish tizimi, devon, dargoh, Qoraxoniylar hukmronligi, Yettisuv, iloqxonlar, O'g'uzlar davlati, qabilalar, G'aznaviyilar davlati, Saljuqiylar hukmronligi, Xorazmshohlar davlati, davlatni boshqaruv tizimi, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy tuzum, turklar, o'troq aholi, madrasa, qurol-yarog', asbob, egar-jabduq, hunarmandchilik, Xorazm Ma'mun Akademiyasi, "Renessans", "Tib qonunlari".

**I. IX asr boshlarida Movarounnahr. Tohiriyalar davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Somoniylar sulolasi. Ismoil Somoni. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.** (VIII asr o'rtalari – X asr o'rtalari). Movarounnahr va Xuroson aholisining tez-tez qo'zg'olon ko'tarishi, mamlakat ichida uzlusiz davom etgan urushlar Arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashtirib, mustaqil davlatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Qadimda Oltoyning g'arbida, so'ngra Irtish daryosining o'rta oqimida yashagan qarluqlar qadimgi turkiy qabilalardan edi. VI-VII asrlarda ular Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. VII asr o'rtalarida qarluqlar Yettisuv o'lkasiga kelib joylashgan. Ularning katta guruhi Talas va Chu daryolarining adoqlarida va Sharqda Issiqko'lgacha bo'lgan yerlarda yashagan. Qarluq qabilalari 766 yilda turkashlar davlati yerlarini egallab, o'zlarining davlatini tuzdilar. Podshoxlari «yabg'u» yoki «jabg'u» deb yuritilgan. G'arbiy Turk xoqonligining bir qismida vujudga kelgan bu davlat g'arbdan O'g'uzlar yurti va Farg'ona vodiysi bilan chegaradosh bo'lgan. X asr arab geografi Ibn Havqalning ma'lumoti bo'yicha, Qarluqlar yurti Farg'ona vodiysidan Sharqqa tomon o'ttiz kunlik masofaga cho'zilgan. Bu davlatning poytaxti 940 yilgacha Chu daryosidan Shimolroqda joylashgan Suyob shahri bo'lgan.

Buxoro, Samarqand va Shosh orqali o‘tgan qadimgi karvon yo‘lining Shimoliy tarmog‘i Tarozdan Sharqqa burilib, Suyob orqali Issiqko‘lning janubiy sohili bo‘ylab Sharqiy Turkiston vohalariga, so‘ngra Xitoyning ichki viloyatlariga kirib borgan. IX-X asrlarda qarluqlar asosan ko‘chmanchi chorvachilik, xususan qo‘ychilik hamda ovchilik bilan shug‘ullangan. Dehqonchilikka o‘tish davri bo‘lgan. Movarounnahr aholisi bilan hunarmandchilik va chorvachilik mahsulotlari ayirboshlangan. Movarounnahr savdogarlarining Yettisuvda qadimdan savdo mavzelari bo‘lgan.

Movarounnahr bilan muttasil olib borilgan savdo aloqalari Yettisuvda qadimdan yashab kelayotgan turkiy aholining madaniy-ma’naviy hayotiga ham ta’sir etdi. Missionerlik (ta’blig`lik) vositasida Yettisuvga avval moniy va nestorian (xristian) dinlari, so‘ngra islom kirib borgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, islomni VIII asr oxirlaridayoq qarluqlar jabg`usi, X asr o‘rtalarida qarluqlarning anchagina qismi qabul qilgan. Bu davrda Talasdan Sharqda joylashgan bir qancha qarluq shaharlarida jome masjidlari bino qilingan. X asr o‘rtalarida janubdan kelgan yag`molar Qarluqlar davlatini yengib, Yettisuv viloyatini egalladilar va bu o‘lkada Qoraxoniylar davlatiga asos soldilar. Bu yangi turk davlatining siyosiy hayotida qarluqlar faol qatnashadilar. X asr oxirida Qoraxoniylar Movarounnahrni egallagach, qarluqlar Shosh viloyatiga hamda Farg`ona va Zarafshon vodiylariga ko‘chib kelib o‘rnashadilar. Keyinchalik ular Movarounnahrning mahalliy o‘troq aholisi tarkibiga singib ketdilar.

**O‘g‘uzlar davlati** (IX asr oxiri — XI asr boshi). VI asrning 2-yarmi - VII asrda to‘quz-o‘g‘uzlar qabila ittifoqi Turk xoqonligining g‘arbgaga tomon qilgan harbiy yurishlarida faol qatnashganlar. Turk xoqonligi yemirilgach, to‘quz o‘g‘uzlarning kattagina qismi g‘uz yoki o‘g‘uz nomi ostida Sirdaryo havzasasi hamda Orol dengizi sohillarida muqim o‘rnashib, bu yerlarda ular IX asr oxiri - X asr boshida turklarning yana bir yangi ittifoqi -O‘g‘uzlar davlatiga asos soldilar. O‘g‘uzlarning asosiy qismi Sirdaryoning adog‘i va uning o‘rta oqimi hamda Orol dengizining Sharqiy va

Shimoliy-Sharqiy sohillariga yondoshgan keng yaylovlarda yashagan. Emba daryosi vodiysida yashovchi bijanak qabilalari o‘g‘uzlarga qaram bo‘lgan.

Sirdaryo bo‘ylab Yangikent (Jankent), Jand va Sig`noq kabi bir necha gavjum shaharlar bo‘lgan. Yangikent shahri O‘g‘uzlar davlatining poytaxti edi. Ammo o‘g‘uz yabg‘ulari Yangikentdan faqat qishki qarorgoh sifatida foydalangan. Sirdaryo bo‘yidagi shaharlarni o‘g‘uzlar bunyod etmagan. Chunki ular ko‘chmanchi chorvadorlik bilan hayot kechirgan. X asrda bitilgan «Hudud ul-olam» asarida qayd etilishicha, o‘g‘uzlarning o‘z qo‘li bilan bino qilgan birorta ham shahari bo‘lmagan. Bu shaharlar Yaksart daryosi bo‘ylab yo‘nalgan qadimgi karvon yo‘li orqali Orol bo‘yi va undan Shimolga (Itil va Yoyiq bo‘ylariga) qatnagan Xorazm, Movarounnahr va Shosh savdogarlarining asrlar davomida dasht aholisi bilan olib borgan gavjum savdo aloqalari tufayli qad ko‘targan. O‘g‘uzlar o‘troq aholidan qimmatbaho ip va ipak matolar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurol va yarog‘lar, g‘alla xarid qilganlar. Puxta yasalgan Sig`noq kamoni va o‘qlari juda xaridorgir bo‘lgan. Ammo o‘g‘uzlar vaqtı-vaqtı bilan dehqonchilik vohalariga, ayniqsa SHosh va Xorazm yerlariga hujum qilib turganlar. Ekinzor va bog‘larni poymol etib, shahar va qishloqlarni talaganlar, aholisining bir qismini asir qilib olib ketganlar. Ko‘chmanchilar hujumidan mudofaa qilish maqsadida dasht chegaralariga mudofaa devorlari, qal'a va mo‘lalar bino qilingan.

O‘g‘uzlar ham (shomonlik) diniga sig`ingan. Tabiat ajoyibotlari, sirli voqeа va hodisalar ular uchun muqaddas hisoblangan. O‘g‘uzlar vafot etgan urug` va qabila boshliqlari yoki davlatmand urug`doshlarini usti gumbazli daxmalarga kiyim-kechagi, qurol-yarog‘lari bilan dafn etganlar. Marhum hayotlik chog`ida mahv etgan dushman soniga qarab qabr ustiga tosh haykallar o‘rnatilgan. O‘g‘uzlar tushunchasiga ko‘ra, u dunyoda ular marhum xojalariga xizmat qilmog‘i lozim bo‘lgan. Osoyishtalik davrlarida dehqonchilik vohalari aholisi bilan dashtliklar o‘rtasida savdo-sotiq rivojlandi. O‘troq aholining madaniy ta’siri kuchayib, X asrdan o‘g‘uzlar islomni qabul qiladilar.

O‘g‘uzlar davlati X asrning I-choragida qipchoqlar hujumi natijasida parchalanib ketadi. O‘g‘uzlarning bir qismi Kaspiy dengizi Shimolidagi dashtlarga, ikkinchi qismi esa Movarounnahr orqali janubi-g‘arbga siljib, yangi sulola Saljuqiylar boshchiligidagi Kichik Osiyoga borib joylashdi.

VIII asr oxiri - IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og‘ir siyosiy vaziyat Abbosiylarni Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o‘zgartirishga majbur etdi. Endilikda ular Sharqiy viloyatlarni boshqarishda davlat ishlariga mahalliy zodagonlarni jalb etish va ularning qo‘li bilan bu viloyatlarni xalifalik tasarrufida tutib turishga harakat qiladilar. Natija abbosiylar ko‘zlagandek bo‘lib chiqmadi. Mahalliy zodagonlar Movarounnahr va Xurosonni asta-sekin o‘z tasarruflariga olibgina qolmay, xalifalik markazida ham hokimiyatni boshqarishda tobora ko‘proq ishtirok eta boshladilar. Bunga ayniqsa, xalifa Horun ar-Rashid (786—809) vafotidan so‘ng uning o‘g‘illari Ma‘mun bilan Amin o‘rtasida 809-813 yillarda taxt uchun bo‘lgan kurash katta yo‘l ochib beradi.

Ma‘mun uzoq yillar mobaynida Xuroson va Movarounnahrning noibi bo‘lib, mahalliy zodagonlar bilan juda yaqinlashib ketgan edi. Arablar xalifalik taxtiga Aminni ko‘taradilar. Hirot viloyatining zodagonlaridan bushanjlik Tohir ibn Husayn boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari Ma‘munga yordam beradilar. 813 yilda ular Bag‘dodga yurish qilib, uni qo‘lga kiritdilar. Ma‘mun xalifalik taxtiga o‘tqaziladi. Tohir ibn Husaynga Bag‘dodda yuksak lavozimlar beriladi. Ma‘mun esa Somonxudotning nabiralarini Movarounnahrning muhim shahar va viloyatlariga noib qilib tayinladi. Nuhga Samarqand, Ahmadga Farg‘ona, YAhyoga SHosh va Ustrushona, Ilyosga esa Hirot viloyatlari tegadi. Buning evaziga aka-uka Somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablag‘ni Tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turganlar. IX asr geografi Ibn Xurdodbehning yozishicha, Shoshdan 607 ming, Sug‘ddan 326 ming, Farg‘onadan 280 ming, Ustrushonadan esa 50 ming kumush dirham tushgan.

821 yilda Tohir ibn Husayn Xuroson va Movarounnahrning noibi etib tayinlanadi. U xalifalikdan mustaqil bo‘lishga harakat qiladi. Xutbadan xalifa nomi

chiqarib tashlanadi. Biroq ko‘p vaqt o‘tmay Tohir ibn Husayn to‘satdan vafot etadi. Xuroson va Movarounnahr boshqaruvi Tohiriylar xonadoniga meros bo‘lib qoladi. Tohirning o’limidan so‘ng tez orada uning o‘rniga o‘g’li Talha ibn Tohir (822-830 yy) noib etib tayinlanadi. Buning sababi shunda ediki, xalifalik aynan mahalliy hukmdorlarning kuchidan arablarga qarshi qo‘zg’olonlarni bostirishda foydalanan edi. Xuroson noibining muhim vazifalaridan biri esa o‘ziga qarashli xududlarda viloyat hokimlarini saylash bo’lgan. Tohir ibn Husaynning o‘g’li Abul Abbas Abdulloh noibligi (830-844) davrida ma’muriy markaz Marvdan Nishopur shahriga ko‘chiriladi.

### **Tohiriylar hukmronligi (821-873 yy.)**

**Tohir I ibn al Husayn – 821-822 yillar**

**Talha ibn Tohir - 822-828/830 yillar**

**Abdulloh ibn Tohir - 828/830-844 yillar**

**Tohir II ibn Abdulloh - 844-862 yillar**

**Muhammad ibn Tohir - 862-873 yillar**

Tohiriylar davrida Somonxudot avlodlari Movarounnahr shaharlarida mahalliy noib edilar. Tohiriylar ularni o‘zlariga tobe deb bilganlar. Xuroson va Movarounnahrda Arab xalifaligining bir asrdan ortiq davom etgan bevosita hukmronligi tugab, ikki mahalliy sulola siyosiy jihatdan qaror topdi va mustaqil davlat shakllandi. Tohiriylar va Somoniylar islomni o‘z tasarrufidagi viloyatlarda arablarga nisbatan ancha muvaffaqiyat bilan tarqatdilar. Davlatning tashqi chegaralari mustahkamlandi.

Tohiriylar rasman o‘zlarini xalifaga tobe deb ko‘rsatsalar ham, amalda mutlaqo mustaqil ish yuritadilar. Ular dastavval siyosiy hokimiyatni mustahkamlashga va qishloq xo‘jaligini tartibga solishga harakat qiladilar. Dehqonchilik vohalarining suv ta’mintonini yaxshilash uchun yangi kanallar qazildi. Xalifa Mu’tasim (833-842) ham xalifalikning eng chekkasida joylashgan Shosh (Toshkent) yonida katta ariq qazishga 2 mln. dirxam ajratadi. Abul Abbas

Abdullohning topshirig'i bilan Xurosonning bilimdon fiqhshunoslari dehqonchilikda suv manbalaridan foydalanish tartiblari, suv taqsimoti qoidalari haqida risola yozib ma'murlarga taqdim etdilar. Bu risola ikki asr mobaynida suvdan foydalanuvchilar o'rtasida dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Tohiriylar davlat boshqaruvi, fuqarolariga munosabat va ayniqsa soliq tartiblariga alohida ahamiyat berdi. Shubhasiz, bu bilan mehnat ahlinigina emas, balki umumdavlat manfaatlari ko'zda tutilgan. Tohiriylar zamonida ham mehnat ahli mulkdor dehqonlarning jabr-zulmidan, og'ir soliqlaridan bezor bo'lib, mamlakatda tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turardi. Qo'zg'olonda ayniqsa, «g'oziylar» faollik ko'rsatardilar. Ular ko'chmanchilar hujumini daf etib turish maqsadida, asosan, kambag'al hunarmand va yersiz ziroatchilardan tuzilgan ko'ngilli lashkar edi. IX asrning 60-yillarida Xurosonda g'oziylar faolligida xalq qo'zg'oloni avj olib ketadi.

IX asrning 70-yillarida g'oziylarning qurollangan guruhlari O'rta Osiyo va Eron chegaralaridagi xalq harakatining asosini tashkil etardi. Bu xalq harakatlaridan hunarmand misgar (saffor) aka-uka Yoqub va Amr ibn Layslar (Safforiylar) o'z niyatlarini amalga oshirish uchun foydalandilar. Uddaburon lashkarboshilik qobiliyatiga ega bo'lган Yoqub ibn Lays tez orada g'oziylar guruhlarining boshlig'iga aylanadi va uning tuzgan guruhi Seyistonning markazi Zaranj shahrini egallab Seyistonning hokimi bo'ladi. Qariyib 10 yil davomida Tohiriylarning so'nggi hukmdori Muhammad ibn Tohir (862-873) egallab turgan xalifalikning sharqiy viloyatlarini ulardan tortib olib 873 yilda Tohiriylar qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib, Xurosonning poytaxti Nishopur shahrini egallaydi. Shu tariqa 873 yilda Tohiriylar hukmronligi tugatilib, yangi *Safforiylar davlati* tashkil topadi.

Yoqub ibn Lays muvoffaqiyatlaridan xalifalik hokimiysi xavotirga tushsada 874 yilda Yoqubni Xuroson va Movarounnahrga noib etib tayinlashga majbur bo'ladi. 876 yilda Yoqub ibn Lays xalifa hokimiyatini egallah maqsadida Bag'dodga qo'shin tortadi. Ammo uning bu yurushi xalifa qo'shinlarining g'alabasi bilan yakunlanadi. Yoqub ibn Laysning 879 yil vafotidan so'ng uning o'rnini ukasi

Amr ibn Lays (879-900) egallaydi. Amr ibn Lays xalifaga o‘z vassalligini bildirgandan so‘ng, Movarounnahr va Xurosonni boshqarish huquqini beruvchi yorliq oladi. Ammo, Safforiylar ham xuddi Tohiriyalar singari amalda xalifalikdan mustaqil siyosat olib borishga intilganlar. Safforiylarning olib borgan siyosatini keng xalq ommasi qo‘llab-quvvatlamadi. IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Somoniylar sulolasi tarix siyosiy sahnasida kuchaya boshladi va 900 yilda Amir Lays qo‘sishinlarini mag’lubiyatga uchratdi. Shu tariqa Safforiylar sulolasi hukmronligi barham topdi.

Mamlakatda sodir bo‘lgan bunday siyosiy o‘zgarishdan so‘ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o‘z mustaqilligini to‘la tiklab olish imkoniga ega bo‘ldi.

Bu davrda Movarounnahrning Samarcand, Farg‘ona, Shosh (Toshkent) va Ustrushona viloyatlarida Somoniylar xonadonining vakillari noib edi. Yurtga avval Nuh, so‘ngra Ahmad boshchilik qiladi. Ular hatto o‘z nomlaridan misdan chaqalar zarb etadilar. Ahmad vafotidan (865) keyin uning o‘g‘li Nasr I (865-892 yilda Samarcand hokimi; 875 yildan Movarounnahr amiri) Samarcandni markazga aylantiradi. Buxoro vohasi, Naxshab (Qashqadaryo), Chag‘onrud (Surxondaryo) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko‘radi. Tohiriyalar davlatining barham topishi bilan mustaqil bo‘lish uchun qulay sharoit paydo bo‘ladi. Chunki, safforiylar Movarounnahrga hukmronlik qilishni uddasidan chiqa olmaydilar. Buxoro zodagonlarining iltimosiga binoan, Samarcand hukmdori Nasr ibn Axmad Buxoroga noib qilib ukasi Ismoilni (874) yuboradi (q. *Ismoil Somoniy*). Shunday qilib, IX asrning oxirgi choragida Movarounnahr Somoniylar tasarrufiga o‘tgan.

Somoniylarning tobora kuchayib borishi Arab xalifaligini xavotirga solgan. Shu boisdan xalifa Safforiylar bilan Somoniylarni to‘qnashtirib, Xuroson va Movarounnahrda o‘z ta’sirini qayta tiklashga harakat qiladi. Natijada 900 yilda ular o‘rtasida boshlanib ketgan urush Ismoilning g‘alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson Somoniylar qo‘l ostida o‘tadi. Xalifa Ismoilga hukmdorlik yorlig‘ini yuborishga majbur bo‘ladi.

907 yilda Ismoil Somoni vafot etadi va taxtni uning o'g'li Ahmad ibn Ismoil (907-914) egallaydi. Uning hukmronligi davrida davlatni idora etishda arab tilini qayta tiklanishi, boshqaruvdagi yo'l qo'yilgan salbiy holatlar ko'pgina mahalliy zadagonlar va turk g'ulomlarining noroziligin uyg'otdi. Shu tariqa, u 914 yilda turk g'ulomlari tomonidan o'ldirilib, taxtga uning 8 yoshli o'g'li Nasr ibn Ahmad o'tirdi. Toki u balog'atga yetguncha davlat ishlarini bosh vazir Abdulloh Jayhoniy boshqardi.

Nasr ibn Ahmad hukmronligi davrida Somoniylar davlati hududlarida notinchliklar avj oldi. Ayniqsa, karmatlar diniy harakati ancha keskin tus oldi. Ular islomni yoyilishi, yer egaligi munosabatlarini kuchayishiga qarshi chiqdilar. 943 yilda taxtga o'tirgan Nasrning o'g'li Nuh karmatlarga qarshi shafqatsiz kurash olib borib va ularning mol-mulklarini musodara qildi.

Somoniylar o'z tasarrufidagi ulkan mamlakatni boshqarishda dastavval ixcham davlat ma'muriyatini tashkil etdilar. Ma'muriyat podsho saroyi va devonlar (markaziy hokimiyat)dan iborat edi. Narshaxiyning ma'lumoti bo'yicha, Somoniylar hokimiyati, asosan, o'nta devon boshqaruvida idora etilardi. Ular orasida vazir devoni bosh boshqaruva mahkamasi bo'lib, davlatning ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida tutib turilardi. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe edi.

Nasr II ibn Ahmad (914-943) davrida Buxoroning Registon maydonida 943 yil Dor ul-mulk saroyi (vazirlar mahkamasi) va uning qarshisida devonlar uchun maxsus saroy qurilgan. Mahkama xizmatchilari arab va fors tillarini puxta egallagan, Qur'on tafsiri va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan yetarlicha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan. Viloyat devonlari mahalliy hokimga, ayni vaqtda markaziy mahkamaning tegishli devoniga bo'ysunardi. Viloyat hokimlari ba'zan vazir deb yuritilardi. Ular sulolaviy xonadonga tegishli amirzodalar yoki sobiq mahalliy hukmdorlar hamda zodagon dehqonlardan tayin etilardi. Bularidan tashqari har bir shaharda rais (shahar boshlig'i) hamda muhtasib (nazoratchi) bo'lardi. Ularni hokimning o'zi mahalliy

aslzoda yoki ko‘pincha oliy tabaqa ruhoniylarning nufuzli vakillaridan tayinlar edi. Mansabdarlar maoshiga davlat yillik daromadining deyarli yarmi sarflanardi.

Movarounnahrda islom ruhoniylarining obro‘si oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko‘plab ibodatxonalar, jumladan jome masjid, xonaqoh (g‘aribxona)lar bino qilindi. Xuddi shu davrda musulmon Sharqidagi ilk madrasalardan biri (Forjak) Buxoro shahrida qad ko‘tardi. Madrasa shaharning Darvozai Mansur mahallasida amir hammomining yonida joylashgan edi.

Mamlakat ma’naviy hayotining tayanchi bo‘lgan islom mafkurasiga bu davrda «ustod» - din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu atama tark etilib, din peshvolari va islom ulamolarining rahnamosi «shayxulislom» deb yanada ulug‘landi. Shayxulislomdan keyin xatiblar turardi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat beradi. Masjid, madrasa va xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarfu xarajati uchun katta-katta mulklar ajratilib beriladi. Natijada diniy muassasalar tasarrufidagi yer-mulklar tobora ko‘payib, yangi turdagи xo‘jalik - *vaqf* tarkib topadi. Masalan, Narshaxiyning yozishicha, Ismoil Somoniy Afshina qishlog‘ining ekin yerlari va atrofidagi yaylovlarni Buxoro madrasasining talabalariga vaqf qilib beradi, Shuningdek, amir Registon maydoniga tutashgan Dashtak qamishzorini mulkdor arab lashkarboshisidan 10 ming dirhamga sotib olib, Buxoro shahrining jome masjidi vaqfiga qo‘sib beradi. Shu tariqa masjid va madrasalar tasarrufida katta-katta yer va mulklar to‘plana bordi.

Somoniylar mamlakatni tashqi va ichki dushman xurujlaridan muhofaza qilishga katta e’tibor beradilar. Xususan, Ismoil Somoniy yaxshi qurollangan harbiy qo‘sishin va turk g‘ulomlaridan maxsus saroy qo‘shinini tuzadi. Turk g‘uloming harbiy xizmati qat’iy belgilangan tartibda o‘tar edi. Eng qobiliyatli va uzoq yillar xizmat qilgan ayrim g‘ulomlar xaylboshi (otliq otryad boshlig‘i), so‘ngra esa nufuzli hojib lavozimlariga ko‘tarilardi. Hojiblar boshlig‘i hojib ul-hujob yoki hojib ul-buzruk Somoniylar saroyida oliy unvon edi. Hojib ul-hujob saroyda katta nufuzga ega bo‘lib, ayni vaqtida u butun turk qo‘sining boshlig‘i edi. Qo‘shindan tashqari

ozod mehnat ahlidan tuzilgan muntazam harbiy qo'shin ham bo'lib, uning ta'minoti bilan maxsus mahkama - ariz devoni shug'ullanar edi. Qo'shnlarga xizmat haqi har uch oyda to'lanar edi. Somoniylar hokimiyatni qadimgi davlat boshqaruvi an'analariga suyanib boshqardilar.

### **Somoniylar davrida faoliyat ko'rsatgan devonlar:**

1. Devoni vazir	Bosh vazir devoni
2. Devoni mustaufi	Moliyaviy ishlar devoni
3. Devoni amid al-mulk, yoki al-rasail	Rasmiy hujjatlar devoni
4. Devoni sohib-ash-shurot	Harbiy ishlar devoni
5. Devoni sohib al-borid	Xat xabarlar nazoratchisi devoni
6. Devoni muxtasib	Bozor va ko'chalar, qonun va qoidalariiga rioya qilishni nazorat qiluvchi devon
7. Devoni mamlakai xos	Davlat ish boshqaruvchisi devoni
8. Devoni vaqf	Vaqf yerlari devoni
9. Devoni qozi az-ziyo	Qozilik ishlari devoni
10. Davlat mulklari devoni	Hukmdorlarga tegishli mol-mulk, hisob-kitob bilan shug'ullanuvchi devon

Somoniylar davridagi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ko'tarilish madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi. Buxoro, Samarkand, Nasaf, Gurganj, Marv va Nishapur kabi shaharlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy qila boshlaydi.


Bu davrda qishloq aholisining aksariyati sug'diy, turkiy yoki xorazmiycha so'zlashsa-da, markaziy shaharlarda forsiy-dariy adabiy tili vujudga keladi. Bu til davlat tili sifatida qabul qilinadi. Forsiy-dariyda nazm, nasr va ilmiy asarlar yozila boshlaydi.

IX - X asrlarda, ayniqsa, Buxoro shahri madaniy jihatdan yuksaladi. Poytaxtda amir saroyida turli sohalarga oid qo'lyozma kitoblar saqlanadigan kattagina kutubxona barpo etiladi. Bu davrda Buxoroda ayniqsa she'riyat ravnaq topadi. Uning rivojiga Rudakiy (860- 941), Abu Mansur Daqiqiy (976-980 orasi), Abulhasan Balxiy va boshqa shoirlar katta hissa qo'shadilar.

Shahar madaniyatining ravnaqi, ziyolilar davrasining kengayib borishi, shubhasiz, Somoniy hukmdorlarni ilm ahli bilan yaqinlashtirdi. Mamlakatni boshqarishda ularning bilim va maslahatlaridan foydalanildi.

Bu davrda Muhammad Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Narshaxiy, Beruniy kabi jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolar ijod qildilar.

X-XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda me'morchilik va san'at yangi taraqqiyot bosqichiga ko'chdi. O'rta asr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va bu davrda to'la g'alaba qozongan islom dini mafkurasi madaniy hayotning bu sohasiga ham kuchli ta'sir qildi. Hashamatli binolar qad ko'tarib shaharlar kengaydi. Binokorlikda xom g'isht va paxsa bilan birga pishiq g'isht va turli xil ganch hamda ohakli qurilish qorishmalardan ham keng foydalanila boshladi. Baland peshtoqli yoki chortoqli, tomi gumbazli mahobatli binolar hamda o'ymakor g'ishtlardan qurilgan ko'rkar minoralar bunyod etildi. Gumbazlar konstruksiyalari takomillashtirildi. Arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarildi. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Gurganj, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, xonaqoh, maqbara, tim va karvonsaroylar qurildi. Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Zirabuloq yaqinida Tim qishlog'idagi Arabota maqbarasi, Karmanadagi Mirsaid Bahrom maqbarasi, Buxoro Namozgoxi, Minorai Kalon, Vobkent minorasi va Surxondaryodagi Sulton Saodat majmui, Qirqqiz qal'asi, Jarqo'rg'on minorasi va boshqa binolar o'sha davr me'morligining namunalaridir. Bu yodgorliklar X-XII asrlarda Movarounnahrda o'ziga xos me'morlikning rivoj topganligidan dalolat beradi. Ayni vaqtida yo'nigan tosh, pishiq g'isht va suvgaga chidamli qurilish materiallaridan suv inshootlari: to'g'on (band), nova, ko'prik, sardoba va korizlar barpo etiladi.



IX-X asrlarda Movarounnahr, Xuroson va Xorazmning shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning ko'pgina sohalari rivojlangan edi. Aholisining asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

Dehqonchilik solig'i (xiroj)dan xazinaga kattagina daromad tushgani uchun Somoniylar xo'jalikning shu tarmog'iga ko'proq e'tibor bergen. Viloyatlarda suv taqsimoti tartibga solinib, ekin maydonlari imkonni boricha kengaytirilgan. Bir qancha yangi sug'orish kanali qazilib, ularning dahanalariga miftohlar (shlyuz) va suv tashlagich novalar qurildi. Oqar suv tanqis bo'lган tog' oldilarida bandlar bino qilinib, suv omborlari barpo etiladi. Yer osti suvlaridan dehqonchilikda foydalanish uchun murakkab gidrotexnika inshooti-korizlar qazilib ishga tushiriladi. Charxparrik, chig'irlardan keng foydalaniladi.

X asr arab geograflarining ta'riflashicha, Samarcand va Buxoro rustoqlari Zarafshon daryosidan chiqarilgan shoh ariqlardan sug'orilgan. Masalan, Varqsar, Maymurg', Sanjarfag'on va Darg'om rustoqlarining dehqonchilik maydonlari Darg'om anhoridan sug'orilgan. Fay kanalidan sug'orilgan yerlar Sug'dning eng obod qismi bo'lgan. Ibn Havqalning yozishicha, Sug'd daryosi Buxoro chegarasigacha obod qishloqlar orqali oqqan. Buxoro vohasi keng va obod bo'lgan, u 17 ta sug'orish shoh ariqlar orqali sug'orilgan. Sirdaryo havzasida Iloq (Ohangaron) va Parak (Chirchiq) vodiylari ham nihoyatda obod va istehkomli qishloqlari ko'p bo'lganligidan, bu joyni o'rta asr tarixchilari «1000 qal'ali mamlakat» deb ataganlar.

Sug'orish tarmoqlarini loyqadan tozalash, turli xil suv inshootlarini ta'mirlash uchun har yili bahorda yuz minglab xasharchilar ishlagan. Mirob, jo'ybon va poykorlar yoz bo'yi gidrotexnika inshootlari rejimi va suv taqsimotini nazorat qilib turgan. IX asrdan Buxoro vohasining suv taqsimoti bilan shaxsan shahar qozisining o'zi shug'ullangan. Narshaxiyning yozishicha, Sa'id ibn Xalaf Balxiy Buxoroga qozi bo'lgach, «yaxshi qonun-qoidalar o'rnatgan... toki kuchli kishi zaif kishiga zulm o'tkazmasin uchun (shahar) to'g'onlarini qudirib, Buxoro suviniadolat va insof yuzasidan taqsim qilishni» joriy etgan.

IX - X asrlarda Movarounnahrda yaylov chorvachiligi rivoj topgan. Ko'chmanchi chorvador qabilalar o'troq aholini chorvachilik mahsulotlari bilan

ta'min etib turgan. O'troq aholi, o'z navbatida, dashtliklarga hunarmandchilik mahsulotlarini yetkazib berib turganlar.

IX - X asrlarda aholining xo'jalik hayotida hunarmandchilik katta o'rinni tutadi. Mavarounnahr va Xorazm shaharlari to'qimachilik, kulolchilik, degradatsiya, chilangarlik, misgarlik, zargarlik, shishagarlik va duradgorlik ancha rivoj topadi. Ayni vaqtida shaharlarning me'moriy qiyofasi ham o'zgara bordi. Mahobatli saroy, masjid, madrasa, namozgoh, xonaqoh va karvonsaroylar hamda ustaxonalar qad ko'tardi. Shaharlar kengayib ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan ark (o'rda), shahriston (ichki shahar) va rabod (tashqi shahar) yagona devor bilan o'rab olindi, shahar darvozalarining soni ham ko'paydi. Shaharning do'nglik yerida joylashgan arkida odatdagidek podshoh yoki hokimning qarorgohi (dargoh), xazina, chaqa-tangalar chiqariladigan zarbxona va qamoqxona bo'lardi. Shahar markazida registon maydoni, devonlar, mahkama saroyi, shuningdek, amirzodalar, saroy a'yonlari, ruhoniylar, mulkdor dehqonzodalar va davlatmand savdogarlarning hashamatli qasrlari, podsholikning qurol-yarog', asbob, egar-jabduq yasaydigan ustaxonalari, hunarmandchilik do'konlari va savdo rastalari joylashgan edi. Shaharlar kengayib, ularning girdi bo'ylab kosib va hunarmandlarning yangi-yangi mahalla-ko'ylari, bozor va rastalar vujudga keladi. Mahalla-ko'ylarda zargar, sarrof, to'quvchi, kulol, misgar, temirchi duradgor va boshqa hunarmandlarning uy-joylari va do'konlari bo'lardi. Ayni shu davrda Buxoro, Samarqand, Ko'hna Gurganj, Marv, Binkat, Kesh, Nasaf, Axsikat kabi shaharlar o'rta asr hunarmandchiligining rivoj topgan yirik markaziga aylanadi.

Narshaxiyning yozishicha, IX asrda Buxoro arki yonida podsholikka qarashli «Bayt ut-tiroz» katta to'qimachilik korxonasi bo'lgan. Unda qimmatbaho rangli mato, palos, darparda, yostiq jildi, joynamoz va ust kiyimliklar to'qilgan. Samarqandda ko'proq misgarlik, zargarlik va sarrojlik rivojlangan edi. Turli matolar, kimxob, shoyi va ro'mollar to'qilar, yuqori navli qog'oz ishlab chiqarilar edi. Shosh o'zining ko'nchilik mahsulotlari va charm buyumlari bilan, Iloq esa kumush va qo'rg'oshin konlari hamda kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan

mashhur edi. Movarounnahrning xo‘jalik hayotida Xorazm ham katta rol o‘ynaydi. Bu yerda hunarmandchilikning boshqa sohalari qatorida qayiqsozlik taraqqiy qiladi. Xorazm va Termizda yasalgan qayqlarda Amudaryo bo‘ylab muttasil yuk tashilgan.

Bu davrda hunarmandchilikning ayrim sohalari yirik qishloqlarda ham rivoj topdi. Buxoroning Zandana qishlog‘ida to‘qilgan «zandanacha» malla rang bo‘z, Samarqandning Vador qishlog‘ida tayyorlangan «vadoriy» matosi Sharqda mashhur va manzur edi.

IX-X asrlarga oid kulolchilik sirlangan idishlari va shishasozlik buyumlari bilan alohida mavqeni egallagan. Bu davrda tog`li mintaqalarda konchilik ham jadal rivojlandi. Shosh viloyati, Farg`ona vodiysi, Nurota, Ustrushona, Xo‘jand atroflari va Zarafshon tog`larida temir, mis, qo‘rg`oshin, oltin, kumush rudalari, feruza va boshqa qimmatbaho toshlar, Badaxshondan la’l va lojuvard qazib olinardi. Iloq viloyati kumush va qo‘rg`oshin olinadigan yirik markazlardan edi. Undagi Qoramozor tog`idan bu ikki tur ma’dandan tashqari oltin, mis, temir rudalari va feruza qazib olinardi. Farg`ona vodiysi tog`laridan temir, qo‘rg`oshin, kumush, simob, mis, qalay, feruza, novshadil qazib chiqarilardi. Farg`onada o‘scha vaqtlardayoq toshko‘mir va neft qazib olinib ishlatilganligi ma’lum. Neftdan qamal qilingan shaharga o’t otishda foydalanilgan. Konchilik va temirchilik davlat tasarrufida bo‘lgan. Kon qazish ishlari o‘z zamonasi uchun ancha takomillashgan edi. Qazilma boyliklar hozirgidek ochiq usulda hamda yer osti konlaridan qazib olinardi. Qazilgan rudalar yer ostidan sixg`altaklar vositasida yuqoriga chiqarilgan. Konlarda, asosan qul, mahbus va qishloq jamoalari zo‘rlik bilan ishlatilardi. Konchilarning mehnati nihoyatda mashaqqatli va xavfli bo‘lganligini arxeologik topilmalar (qorachirog`, bolta, cho‘kich va h.k.)dan bilish mumkin.

Bu davrda dehqonchilik va hunarmandchilikning rivoj topishi bilan ichki va tashqi savdo ham kengaydi. G`arbiy Osiyoni Mo‘g`uliston va Xitoy bilan tutashtirgan qadimgi karvon yo‘li orqali olib borilgan tashqi savdo aloqalari rivojlandi. Bag`dod shahridan boshlangan katta karvon yo‘li Hamadon, Nishopur, Marv, Omul, Buxoro, Samarqand, Shosh, Taroz, Qulon, Marki, Bolasog‘un, Suyob,

Issiqko‘lning janubiy sohili orqali o‘tib, Sharqiy Turkistonga va undan Xitoyga kirib borar edi. Bu yo‘lning Farg‘ona orqali o‘tgan janubiy, O‘g‘uzlar yurti yoki Dashti Qipchoq orqali Janubiy Sibirga yo‘nalgan Shimoliy hamda Xorazm orqali Itil daryosi bo‘ylab Xazar va Bulg‘or davlatlariga eltedigan Shimoli-g‘arbiy tarmoqlari ayniqsa serqatnov bo‘lgan. Karvon yo‘llarida rabotlar bino qilinib, karvonsaroylar qurilgan.

X asrda tashqi savdo muomalasida sarroflik cheklaridan keng foydalanilgan. O‘sha vaqtida savdogarlar o‘zi bilan ko‘p miqdorda pul olib yurmas edi. O‘z pulini u shaharning tegishli sarroflaridan biriga topshirib, undan tegishli hujjat - chek olardi. Mo‘ljallangan shaharga borishi bilan o‘sha chekni sarrofga berib, unda ko‘rsatilgan miqdordagi pulni to‘laligicha qaytarib olishi mumkin edi.

Karvon yo‘lining Shimoliy tarmog‘i Dashti Qipchoq aholisini dehqonchilik mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlari bilan ta’min etardi. Sibirdan qimmatbaho mo‘ynalar, ko‘chmanchilar yurtidan asosan chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari keltirilar edi.

Farg‘ona, O‘sh va O‘zgan orqali Qashqarga va undan ichki Xitoy viloyatlariga rangdor shisha buyumlar, sirlangan naqshinkor sopol idishlar, kiyimkechak, egar-jabduq, meva va yilqi, shuningdek zeb-ziynat va qurol-yarog‘lar olib borilar edi. Xitoydan, asosan, ipak, shoyi, kimxob va chinni idishlar olib kelinardi. Movarounnahr bozorlari orqali Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga ipak, ip va shoyi, kumush, teri, jun, kigiz, turli xil mo‘yna, tuya, qoramol, qo‘y, quruq meva olib chiqilar edi.

Xazar va Bulg‘orga Movarounnahr va Xorazmdan guruch, quruq meva (yong‘oq, mayiz, o‘rik va h.k.), kanakunjut moyi, shirinliklar, tuzlangan baliq, bo‘za, mushk-anbar, paxta tolasi, ip va shoyi matolar, movut, kimxob, gilam va choyshablar, qulf, kamon, qayiq va kumush tangalar, shuningdek, Xitoy, Hindiston, Eron, Vizantiya, Iroq va boshqa mamlakatlardan keltirilgan mollar chiqarilar edi.

Bulg‘or va Xazardan qimmatbaho mo‘ynalar, shuningdek, mum, sham, kamon o‘qi, oqterak yog‘ochi va qayin po‘stloqlari, cho‘qqi qalpoqlar, baliq yelimi

va tishlari, bulg`ori charm qalqonlar, slavyan elati (qavmi)ga mansub qullar, ovchi qushlar (qarchig`ay), asal, qo'y va qoramol olib kelinar edi. Tashqi savdo muomalasida Tohiriyalar va Somoniylarning kumush dirhamlaridan keng foydalanilar edi.

Ichki va tashqi savdoning avj olishi bilan chaqa va tangalarning muomalada bo'lishi ham jadallahshdi. Ichki bozorlar mis chaqa - fals, xalqaro savdoda kumush tanga - dirham ishlatilardi. Fals ehtiyojga qarab ba'zi viloyat hokimlari va hatto ayrim mulkdor zodagonlar tomonidan ham chiqarilardi. Kumush tangalar faqat hukmdor nomidan Marv, Samarqand, Buxoro va Shoshda davlat zarbxonalarida so'qilar edi. Somoniylar «ismoiliy», «musayyabi», «muhammadiy» va «g`itrifiy» kabi kumush dirhamlar chiqargan. Somoniylarning kumush dirhamlari Rusiya va Boltiqbo'yi mamlakatlaridan ko'plab topilgan.

Somoniylar hokimiyati yirik yer egalari hamda mulkdor savdogarlarning manfaatini himoya qilgani tufayli mamlakatdagi mavjud yer va suvning katta qismi davlatga va zodagon tabaqalarga tegishli bo'lgan. Ayni vaqtda yerdan foydalanish va unga egalik qilishning boshqa turlari ham mavjud edi. Davlat tasarrufidagi yerlar «mulki sultoniy», hukmron sulola vakillari, zodagon dehqon va aslzodalarning tasarrufidagi yirik hamda mehnatkash qishloq aholisiga tegishli mayda xususiy yerlar «mulk yerlari» deb atalardi. Masjid, madrasa, xonaqoh va maqbaralarga vaqtincha yoki muddatsiz foydalanish uchun berilgan yerlar «vaqf yerlari» deyilgan. Barcha turdag'i yerdan foydalanuvchilar davlatga hosilning 1/3 hajmida xiroj to'lar edi. Oliy martabali ruhoniy va saidlarga qarashli yerlar («mulki xos») davlat soliqlaridan qisman yoki tamomila ozod etilgan. Bunday imtiyozga ega bo'lgan mulkdorlar davlatga hosilning 1/10 hisobida (ba'zan pul bilan) «ushr» solig'ini to'lar edi. Shuningdek, hukmron sulola hamda oliy tabaqa vakillariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga hadya qilingan mulklar (viloyat, tuman yoki ayrim shahar va qishloqlar) «iqto» yoki «tuma yerlar», unga ega bo'lgan mulkdorlar «muqta» yoki «iqtador» deb yuritilardi. Iqto tarzida esa ayrim viloyat, voha, rustoq (tuman) yoki shaharlar hadya etilgan. Iqto, dastavval, asosan, sulola a'zolari - amirzodalar va

ayrim mansabdorlarga in’om etilgan. Iqto mulklari avvalda ma’lum muddatga berilib, nasldan-naslga o’tkazilmagan. Iqtodorlar iqtolaridan tushadigan daromadni yoki uning ma’lum qisminigina yig’ib olish huquqiga ega bo’lganlar, xolos. Butun bir viloyat iqto qilib berilgan noib - vazirga ba’zan o’z nomida chaqa pul zarb etish huquqi ham berilar edi. Bu ko‘pincha markaziy hokimiyatni kuchsizlantirib, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlari kuchayishiga olib kelar edi.

### **Somoniylar davrida yer egalari**

- Mulki sultoniy (davlat tasarrufidagi yerlar)
- Mulk yerlari (xususiy yerlar)
- Mulki xos (oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar tasarrufidagi yerlar)
- Vaqf yerlari (diniy muassasalarga tegishli)
- Jamoa yerlari

Qishloq jamoalari tasarrufida ham ma’lum miqdorda «jamoा yerlari» bo‘lib, bunday yerlar ko‘pincha lalmikor hamda korizlar vositasida sug`oriladigan suvga tanqis tog` oldi mintaqalarida joylashgan edi.

Mayda xususiy hamda jamoa yerlaridan tashqari barcha mulklarda mehnatkash qishloq aholisi kadivar yoki yollanib koranda bo‘lib ishlar edi. Korandalar IX – X asrlarda «sherik» yoki «barzikor» deb atalardi. Bu davrda katta yer egalari o‘z yerlarini barzikorlarga ijara berishni afzal ko‘rardilar. Ijarachilarning asosiy qismi kam yerli yoki yersiz dehqonlar edi. Agar barzikor o‘z urug`ligi va qo‘shi bilan dehqonchilik qilsa, hosilning I/3-I/5 miqdorida hissa olar, urug`lik va qo‘s sh yer egasi hisobidan bo‘lsa - hosilning I/10 yoki I/12 ulushiga ega bo‘lardi. Davlat soliqlari (xiroj va ushr) yer egasidan ham, korandadan ham alohida-alohida shu ulushlar hisobidan olinar edi.

Dehqonlar zimmasiga sug`orish tarmoqlarini muntazam loydan tozalash, kanal qazish, to‘g`on o‘rnatish, ko‘prik qurish, suv ombori barpo etish kabi og`ir ishlar ham yuklangan edi. Bularidan tashqari mehnatkash omma masjid, madrasa,

xonaqoh, maqbara va karvonsaroylar kabi qurilishlarda, shahar va qal’alarning mudofaa devorlarini ta’mirlash, yangidan qurish va yo’l tuzatishda tekinga ishlab berishga majbur edi. Aholi, ayniqsa, Somoniylarning harbiy yurishlari, hukmron sulolaning ichki nizolari, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlari bilan bog’liq o‘zaro kurashlaridan bezor bo‘lgan edi. Bunday ichki siyosiy vaziyat oqibatda mamlakatni iqtisodiy tanglikka olib keldi. Bunday og’ir ahvoldan chiqish uchun 942 yilda aholidan ikki marta soliq undirib olinadi. Siyosiy vaziyat, ayniqsa, Nuh ibn Nasr (943-954) va uning nabirasi Nuh ibn Mansur (976-997) hukmronliklari davrida nihoyatda keskinlashdi. Ketma-ket takrorlangan isyonlar markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi. Bu davrda Yettisuv viloyatida tashkil topgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrga qilgan hujumidan 999 yilda Somoniylar hokimiyati butunlay barham topdi.

**2. Qoraxoniylar hukmronligi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.** X asrning I-yarmida Yettisuv va Sharqiy Turkistonda yashovchi ko‘chmanchi turk qabilalari (qarluq, chigil va yag`mo)ning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Ularning o‘troq hayotga o‘tishi tezlashdi. Bunday o‘zgarishlarda Yettisuv va Qashqar orqali o‘tgan qadimgi karvon yo‘li ham muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, qo‘shni Movarounnahrning o‘troq aholisi bilan olib borilgan iqtisodiy va madaniy aloqalarning ta’siri kuchli bo‘ldi.

X asr o‘rtalarida Issikko‘lning janubi va Qashqarda yashagan yag`mo qabilalari kuchayib, qo‘shni chigil qabilalari bilan yagona ittifoqqa birlashadi. So‘ngra ular Yettisuvdagi qarluqlarni bo‘ysundirib, u yerda Qoraxoniylar davlatini tashkil qildilar.

Bu yangi davlatning podsholari buyuk hukmdor ma’nosini anglatuvchi «arslonxon» va «bug`roxon» unvonlari bilan yuritilgan. Buyuklik yoki ulug`lik esa qadimda turkiy xalqlarda «qora» so‘zi bilan sifatlangan. Ular hukmdorlik qilgan davlat tarihda Qoraxoniylar davlati nomi bilan shuhrat topgan. Aslida «arslon» chigil qabilasining totemi, qabila ajdodi ibtidosi hisoblangan. «Bug`ro» esa og`ir yuk ko‘taradigan tuya ma’nosini anglatib, yag`molarning totemi bo‘lgan.

Qoraxoniylar qabilaviy udumiga muvofiq qabila boshliqlari orasida eng yoshi ulug`ini «arslonxon» yoki «bug`roxon» darajasiga ko`tarib, hukmdor, ya`ni qoraxon qilib saylashgan va u «tamg`achxon», ya`ni xonlar xoni deb yuritilgan. Davlat sulolasining asoschisi Abdulkarim Sotuq Bug`roxon (Qoraxon) nomi bilan atalgan.



### *Qoraxoniylar davlati jug`rofij xaritasi*

992 yilda Qoraxonning nabirasi Horun ibn Muso ibn Sotuq Bug`roxon boshliq qabilalar Movarounnahrga hujum qilib Buxoroni deyarli qarshiliksiz ishg`ol etganlar, chunki Somoniylarning markaziy hokimiyati ichki ziddiyatlar tufayli kuchsizlanib qolgan edi. Bug`roxon vatani Qashqarga qaytishda yo`lda vafot qiladi. Vaziyatdan foydalanib amir Nuh ibn Mansur Buxoro taxtini G`azna hukmdori Sabuqtegin yordamida 994 yil qaytarib oladi. Nuh Sabuqteginni Xuroson noibi qilib tayinlaydi. Natijada G`azna va Xurosonda Sabuqtegin va uning o`g`li Mahmudning siyosiy hukmronligi mustahkamlanib, *G`aznaviyalar davlati* tashkil topadi.

996 yilda Qoraxoniylar Nasr ibn Ali boshchiligidida Movarounnahrga yana hujum boshlaydi. Sabuqtegin o`g`li Maxmud G`aznaviy boshchiligidida 20 minglik qo`sish yuborib Buxoroni egallaydi. Somoniylarga Movarounnahrning markaziy qismigina beriladi, xolos. Biroq 999 yil bahorida Nasr ibn Ali Buxoroni bosib olib, Somoniylar hokimiyatiga butunlay barham berdi. Qoraxoniylar bilan 1001 yil

tuzilgan shartnomaga muvofiq Amudaryodan Shimoldagi yerlar Qoraxoniylar tasarrufiga o'tadi. Sulton Mahmud esa Amudaryodan janubdag'i yerlar, shu jumladan, Xurosonga hukmdor bo'lib oladi. Movarounnahr el-yurt va viloyatlarga bo'linib, ularni Qoraxoniylar sulolas'i vakillari eloqxon va takinlar boshqardi. Markaziy hokimiyat ancha zaif bo'lib, eloqxonlar xoqonlarga nomigagina itoat etganlar. Qoraxoniylar davlati poytaxti dastlab Qashqarda, so'ng Bolasog'un, O'zgan shahrlarida bo'lib, keyin yana Qashqarga ko'chirilgan. Shunday qilib, 10-asr oxirida Somoniylar mulki o'rnida 2 ta davlat tashkil topdi: biri - Qashqardan Amudaryogacha cho'zilgan, Sharqiy Turkistonning bir qismi, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi Sug'dni o'z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati; 2-si Sabuqtegin va Sulton Mahmud davrida kuchaygan va Hindiston Shimoldan Kaspiy dengizi janubga qadar viloyatlarni egallagan G'aznaviylar davlati edi.

Garchi, Amudaryo chegara qilib belgilangan bo'lsa-da, ammo Qoraxoniylar Xurosonni o'z tasarrufidagi viloyatlar deb hisoblardi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Qoraxoniylar bilan G'aznaviylar o'rtasida shiddatli urushlar boshlanadi. 1006 va 1008 yillarda Qoraxoniylar Xuroson ustiga 2 marta qo'shin tortadilar, Balx, Tus va Nishapur shaharlari zabit etiladi. Lekin Sulton Mahmud G'aznaviy Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi va 1011-1012 yillarda Qoraxoniylar bilan sulkh tuzadi. Xorazmda 1016 yil xalq qo'zg'oloni vaqtida xorazmshoh Abulabbos Ma'mun qatl etildi. 1017 yilda Sulton Mahmud shu bahonada Xorazmni bosib oladi. Xorazmga o'z hojibi Oltintoshni noib tayinlab, ko'p boylik va asirlar bilan G'aznaga qaytadi. U o'zi bilan birga Abu Rayhon Beruniy va boshqa bir qancha olim va shoirlarni majburan olib ketadi.

**3. G'aznaviylar davlati. Mahmud G'aznaviy davrida davlatning kuchayishi. G'aznaviylar bilan saljuqiylar o'rtasidagi to'qnashuv. Saljuqiylar davlati.** 1030 yillarda Sirdaryo etaklarida yashovchi o'g'uzlardan ajralib *Saljuqiylar* nomi bilan Xurosonga borib o'rnashgan o'g'uz qabilalari kuchayib, ularga o'z vaqtida yer-mulk berib homiylik qilgan G'aznaviylarga qarshi tazyiq ko'rsatadilar. Saljuqiylar bilan jiddiy kurash boshlanadi. Bunday vaziyatdan foydalangan

Qoraxoniylarning mahalliy hukmdori Ibrohim Bo‘ritakin 1038 yilda Amudaryo yuqori oqimidagi viloyatlardan Xuttalon, Vaxsh va Chag`oniyonni Mas’ud I G`aznaviydan tortib oladi. Ko‘p vaqt o‘tmay u Movarounnahr, jumladan, Farg`onani o‘ziga bo‘ysundirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada, Qoraxoniylar 2 mustaqil davlat - poytaxti Bolasog`unda bo‘lgan Sharqiy Qoraxoniylar va markazi Samarqand bo‘lgan Movarounnahr Qoraxoniylar davlatiga ajrab ketadi. Bu g`alabalardan so‘ng Ibrohim Tamg`ach «Bug`roxon» unvoniga sazovor bo‘ladi.

1040 yilda *Dandanakon jangida* Mas’ud G`aznaviy saljuqiylardan qaqshatqich zARBaga uchraydi. G`aznaviylar tasarrufida G`azna, Qobul, Kandahor va Panjob viloyatlarigina qolib, u kichik davlatga aylanadi. Saljuqiylar To‘g`rulbek zamonida 1055 yilda Bag`dorra o‘z siyosiy hukmronliklarini o‘rnatadilar. Abbosiy xalifa esa faqat diniy ishlardagina mutasaddi bo‘lib qoladi va To‘g`rulbekni «Sharq va G`arb sulton» deb tan olishga majbur bo‘ladi. Saljuqiylar Xorazm tomondan Xuttalon, Chag`oniyon, Jand va Savronga yurish qilib, Qoraxoniylar bilan bir necha bor to‘qnashadilar. 1130 yilda sulton Sanjar Qoraxoniylar davlati poytaxti Samarqandni ishg`ol etadi. Natijada Qoraxoniylar Sanjarga tobe bo‘ladilar.

Eloqxonlar mustaqil chaqa-tangalar zarb qilib, markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka intilar edilar. Movarounnahr eloqxoni Qoraxoni eloqxonlari orasida katta obro‘ga ega edi. Viloyat boshqaruv ma’muriyatida Somoniylar davridagidek vazir, sohibbarid, mustavfiylar xizmat qilardi. Shaharlar esa shahar hokimi, rais va muxtasiblar tomonidan boshqarilardi. Qoraxoniylar o‘z hukmronligini mustahkamlashda musulmon ruhoniylariga tayandilar.

Qoraxoni hukmdorlari garchi o‘troq hayotga ko‘chmagan bo‘lsalar ham, dehqonchilik vohalari va shahar madaniyatiga e’tibor bilan qaradilar. Bolasog`un, Qashqar, Taroz, O‘zgan, Samarqand va Buxoro poytaxt shaharlar bo‘lib qoldi. Ayni vaqtda Movarounnahr, ayniqsa, Zarafshon vodiysiда ko‘pgina dehqonchilik maydonlari va bog`lari toptalib yaylovga aylantirildi. Natijada mulkdor dehqonlar bilan chorvador ko‘chmanchilar o‘rtasida ziddiyat kuchayib, Qoraxoniylarning tazyiqi bilan nufuzli dehqonlar yer-mulk va qo‘rg`onlarini tashlab ketishga majbur

bo‘ldilar. Ular mamlakatda tutgan siyosiy mavqelaridan ham ajraldilar. Shu vaqt dan «dehqon» istilohi ham «qishloq hokimi»ni anglatuvchi asl ma’-nosini yo‘qota borib, qishloq mehnatkashlari uchun umumiyl nomga aylandi.

Zodagon dehqonlardan musodara qilingan yerlar davlat tasarrufi («mulki sultoniy»)ga o‘tkazildi. Bunday yerlardan tushgan daromad davlat xazinasini to‘ldirardi, ma’lum qismi esa iqto qilib berilardi.

Qoraxitoylarning kelib chiqishi to‘g‘risida fanda yagona fikr yo‘q. Ba’zi tadqiqotchilar ularni Sibirning tungus aholisiga, boshqalar esa mo‘g‘ullarga mansub hisoblaydilar. Qoraxitoylar o‘z davlatini dastlab Yettisuv viloyatida barpo qilganlar. Poytaxti Bolasog‘un shahri bo‘lgan. Podshohlari «gurxon» deb yuritilar edi.

Qoraxitoylar avval Shosh va Farg‘onaga, so‘ngra Zarafshon va Qashqadaryo viloyatlariga bostirib kiradi. 1137 yilda Xo‘jand shahri yaqinidagi jangda Qoraxoniylarning eloqxoni Maxmud yengiladi. Sulhdan keyin Qoraxitoylar katta o‘lon olib o‘z yurtlariga qaytib ketadilar. Lekin oradan to‘rt yil o‘tgach, ular yana Movarounnahrga hujum qiladilar. Samarqand yaqinidagi Qatvon (Bulung‘ur) cho‘lida 1141 yil 9 sentyabrda Qoraxitoylar bilan Saljuqiylar hamda Qoraxoniylarning birlashgan kuchlari o‘rtasida bo‘lgan jangda har ikki tomondan qariyb 30 ming askar shahid bo‘ladi (q. *Qatvon jangi*). Qoraxitoylar g‘alaba qozonadi. Sulton Sanjar va eloqhon Maxmud Termizga qochadi. Movarounnahr xalqlari bu yerda islom joriy etilganidan buyon I-marta nomusulmon fotihlar - Qoraxitoylar hokimiyatini tan olishga majbur bo‘ladi. Biroq Qoraxitoylar Movarounnahrni batamom bosib olmay, mahalliy aholidan soliq yig‘ib olish tartibini joriy etish bilan kifoyalandilar.

Qatvon cho‘lidagi mag‘lubiyatdan keyin Movarounnahr Qoraxitoylar tasarrufiga o‘tgach, Qoraxoniylar davlati o‘z mustaqilligini yo‘qotdi. Mamlakatning bir necha viloyat hokimliklariga bo‘linib ketishi tarqoqlikni kuchaytirdi. Qoraxitoylar 1172 yil Xorazmni ham egalladilar. XIII asr boshida Mo‘g‘ullar istilosini natijasida Sharqiy Turkiston egallanishi bilan Qoraxitoylar davlati quladi. Qoraxitoy qabilalari esa keyinchalik qo‘shni turkiy xalqlarga qo‘shilib ketdi.

Oltintosh sulolasi 1017-1041 yillarda Xorazmni g'aznaviyalar nomidan boshqargan. Saljuqiylar G'aznaviyarlarni yengib Xurosonni egallagach, 1043 yilda Xorazmni ham bo'ysundirdilar. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh I (1072-1092) o'z ma'murlaridan Anushteginni 1077 yilda Xorazmga noib qilib tayinlaydi. Anushtegin vafotidan so'ng Xorazmda uning vorisi Qutbiddin Muhammad (1097-1127) noiblik qiladi. Garchi u «xorazmshoh» unvonini tiklasa ham Sulton Sanjarning noibligicha qoldi. Xorazmda mustaqillik uchun kurash XI asrning 2-choragidan kuchaydi. Qutbiddin Muhammadning o'g'li *Alouddin Otsiz* Saljuqiylarning zaiflashganidan foydalanib, Xorazmni tobelikdan chiqarishga va mustaqil davlatga aylantirishga harakat qildi. Dastavval Otsiz Xorazmshoh turkman va Qipchoqlarni o'ziga bo'ysundirdi. Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lган Sirdaryo etaklari va Mang'ishloq hamda Marv va Nishopurni egalladi. Qipchoq va turkmanlardan kuchli yollanma qo'shin tashkil etib, bir necha bor Sulton Sanjarga qarshi isyon ko'tardi.

XI asrning 2-yarmida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat yanada keskinlashadi. 1153 yilda xurosonlik ko'chmanchi o'g'uzlar qo'zg'olon ko'tarib Sulton Sanjar qo'shinini yengdilar va o'zini asir oldilar. Buning oqibatida Saljuqiylar davlati keskin zarbaga uchrab, parchalanib ketadi.

1172 yil Xorazm ham Qoraxitoylarga bo'ysundirildi. Ammo Qoraxitoylar Xorazmning ichki ishlariga aralashmay, faqat boj va o'lpon yig'ish bilan kifoyalandilar.

Otsizning siyosatini uning vorislari El-Arslon va Takash davom ettiradilar.

Xorazm davlati, ayniqsa, Takash davrida juda kengayadi. 1187-1193 yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini bosib oladi. 1194 yilda esa Saljuqiylar sultoni To'g'rul III ga qaqshatqich zarba berib, G'arbiy Eronni ham Xorazmga qo'shib oldi va shu bilan Xorazmni Saljuqiylar tasarrufidan butunlay xalos qildi. Oradan bir yil o'tgach, Takash xalifalik yerlari bo'lmish Iroqqa bostirib kiradi. Uning davrida Xorazm davlati yerlari 2 baravar kengaydi.

Takashdan so‘ng uning o‘g‘li Muhammad Xorazmshoh ham Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettirdi. Bu davrda Xorazm ulkan davlatga aylangan edi. Dastavval Muhammad Xorazmshoh Hirot va uning atroflari hamda Xurosonning Xorazm davlati tasarrufiga kiritilmagan viloyatlarini zabit qilishga kirishdi. U 1212 yilda Movarounnahrni Qoraxoniylarning so‘nggi vakillari qo‘lidan tortib oldi va shu bilan Qoraxoniylar hukmronligi bu yerda butunlay barham topdi.

XII asr o‘rtalaridan Buxoro viloyatida diniy va ma’muriy hokimiyat «Sadri jahon» unvoni bilan mashhur bo‘lgan badavlat xonadonga mansub ruhoniy sadrlarning qo‘liga o‘tdi. Buxoro va uning atrofidagi katta yer maydonlari, masjid, madrasa va xonaqohlarning vaqf mulklari, Buxorodagi do‘kon, karvonsaroy, hammom va tegirmonlar ularning tasarrufida bo‘lgan. Shahar sarroflari va hunarmandlari ko‘p jihatdan sadrlarga qaram edi. Mamlakatlararo karvon savdosida ham sadrlar faol ishtirok qilganlar. Ma’lumotlarga ko‘ra, ularning yillik daromadi 100 ming dinorga teng bo‘lgan.

Sadrlar Buxoroda 1207 yilgacha mustaqil hukmronlik qildilar. Xalq o‘rtasida norozilik kuchayib, 1206 yilda Buxoro shahrida hunarmandlar qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Qo‘zg‘olonchilar so‘nggi sadrning mol-mulkini musodara etib o‘zini oilasi bilan shahardan badarg‘a qildilar. Sadr o‘z homiysi-qoraxitoylar gurxoni panohiga najot istab boradi. Muhammad Xorazmshoh Buxorodagi voqealardan xabar topgach, fursatdan foydalanib, tezda qo‘zg‘olonchilar ustiga askar tortadi. Qo‘zg‘olon bostirilgach, Buxoro Xorazmshohlar davlatiga qo‘shib olinadi va so‘nggi sadri jahon mansabidan mahrum qilinadi.

Buxoroni egallagach, Muhammad Xorazmshoh Samarqandni Qoraxitoylar asoratidan ozod qilishga otlanadi. Xuddi shu davrda Chingizzon ta’qibidan qochib Mo‘g‘ulistonidan Yettisuv viloyati tomon chekingan nayman sardori Kuchluk qarluqlar bilan birlashib, qoraxitoylarga qattiq zarba berdi. 1210 yilda hatto u Gurxonning O‘zgandagi xazinasini ham qo‘lga kiritdi.

Bunday qulay vaziyatdan foydalangan Xorazmshoh Samarqand hukmdori Usmon ibn Ibrohim bilan birlashib Yettisuvga tomon askar tortadi. Ittifoqchilar Talaş vodiysida Gurxon qo'shinlari bilan to'qnashadilar. Jangda Xorazm askarlari ko'p talafot bergen bo'lsa-da, 2 tomondan zARBAGA uchragan Gurxon askarlari yengiladi. Hatto Qoraxitoylar qo'shining qo'mondoni Tayang'u asir olinadi. Yettisuv o'lkasi Xorazmshohlar davlatiga tobe etiladi.

XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan Iroqqa qadar borar, janubi-Sharqiy chegarasi G'azna viloyatidan, Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tar edi. Poytaxti Gurganj shahri bo'lgan. Saroyda Muhammad Xorazmshoh «Iskandari Soniy» (Ikkinchi Iskandar) deb ulug`langan.

Movarounnahr aholisining Qoraxitoylar zulmu asoratidan ozod bo'lib, Xorazm davlatiga birlashishi, shubhasiz, ijobiy tarixiy voqeа edi. Ammo Xorazmshohning harbiy yurishlari, soliq siyosatidagi beboshlik, amir va ma'murlarning jabru zulmi, majburiy ishlab berishlar mamlakat fuqarolarining moddiy ahvolini og'irlashtirdi. Natijada 1210 yilda O'trorda, 1212 yilda Samarqandda qo'zg'olon ko'tariladi. Har ikki qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostiriladi.

Juvayniyning yozishicha, o'sha kunlarda Samarqandda 10 ming kishi o'ldirilgan. Qo'zg'olon bostirilgach, Xorazmshoh Movarounnahr viloyatlaridagi qoraxoniyoq noiblarning barchasini qatl qilishga buyurdi. Shu bilan Movarounnahrda qoraxoniylar sulolasи hukmronligi uzil-kesil tugatildi. O'zgan hamda Samarqand shaharlarida Muhammad Xorazmshoh nomi bilan tangalar zARB ETILDI.

Biroq Xorazm davlatida sinfiy kurash va viloyat hukmdorlarining isyonlari davom etaverdi, lashkarboshilar orasida va saroyda fitnalar kuchaydi.

Davlatning muntazam qo'shini qang'li-qipchoq va turkmanlardan tuzilgan, umumiy soni Chingizzon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha ortiqroq bo'lgan. Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, lashkar boshliqdaridan iborat kuchli harbiy zodagonlar, mustavfiy (daftardor hisobchilar), qozilar va boshqa ko'pgina saroy

mansabdorlaridan iborat ulkan arkoni davlat qurshab turardi. Yuqori amaldorlarning ko‘pchilik qismi yirik yer-suvlarga ega bo‘lgan mulkdor oqsuyak tabaqani tashkil etardi. Ko‘pgina mansablar, odatga ko‘ra, ota-bobodan meros bo‘lib o‘tar edi. Yuqori mansabdorlik davlatdan iqto’ yerlarini (umrbod foydalanish uchun ajratilgan katta yer maydoni) olish bilan bog‘liq edi. Iqtodorlar davlat tang ahvolga tushib qolgan paytlarda o‘z vazifalarini tashlab ketar va podshoga itoatsizlik qilib, o‘zboshimchalik bilan yo‘l tutar edilar. Shunday qilib, sirdan juda kuchli, nufuzi buyuk ko‘ringan Xorazmshohdar davlati siyosiy jihatdan unchalik mustahkam emas edi. Hatto ayrim viloyat hokimlari xorazmshohlarga nomigagina bo‘ysunib, amalda deyarli mustaqil edi. Sulton oliy dargohi ichida kuchli nizo hukm surardi. Ayniqsa, Muhammadning onasi Turkon xotun o‘z qo‘lida katta hokimiyatni to‘plagan. U qo‘shinning oliy sarkardalari hisoblangan qipchoq oqsuyaklari bilan urug‘-qabila aloqalari orqali bog‘langan edi. U o‘z qabiladoshlari manfaati yo‘lida saroyda ko‘tarilgan barcha fitnalarga boshchilik qilar edi. Hatto ularda shohga qarshi adovat ruhini uyg‘unlashtirib qo‘ygan edi. Asosiy soliq va muttasil hasharlardan tashqari yiliga bir necha bor to‘planadigan turli xil to‘lov va yig‘imlardan tinkasi qurigan mamlakat fuqarosining noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan bir paytda Xorazmshoxlar davlati jangari mo‘g‘ul va boshqa qabilalarning Chingizzon boshliq bosqiniga duchor bo‘ladi.

**5. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va madaniy hayot. “Uyg‘onish davri”. IX-XII asrlar O‘rta Osiyoda madaniy yuksalish.** O‘rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta‘lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san`at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste`dodli avlodlar to‘lqinining paydo bo‘lishi va voyaga yetishi - bularning barchasi birinchi navbatda iqtisodiyot, qishloq va shahar xo‘jaligining ancha jadal o‘sishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo‘llar qurilishi, yangi karvon yo‘llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta‘minlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferentsiyada ta‘kidlaganlaridek, “Men bu fikrga alohida urg‘u berib aytmoqchiman. Chunki, tinchlik va barqarorlik bo‘lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o‘sish, taraqqiyot bo‘lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo‘lsagina ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o‘quv yurtlari paydo bo‘ladi. Eng asosiysi, ta‘lim-tarbiya ravnaq topib, unga qiziqish, e’tibor kuchayadi. Tinchlik-barqarorlik bo‘lgan joydagina odamlar o‘qib-o‘rganishni, har tomonlama rivojlanishni istaydi. Odamlar kechasi uyquga yotib, ertalab turishga qo‘rqmaydigan, ertaga ularning boshiga qandaydir muammo yoki ofatlar kelmasligini bilgan taqdirdagina shunday bo‘ladi. Bu haqiqat ko‘p asrlar davomida o‘z tasdig‘ini topgan va ishonchim komilki, bugun bu mavzuda gapirishning o‘zi ortiqcha.

Sharq olamida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mavjud bo‘lgani haqida qadimgi baqtriya, so‘g‘d, urxun, xorazm yozuvlarida bitilgan yodgorliklar, devoriy tasviriy san’at asarlari va haykalchalar, arxitektura namunalari dalolat beradi”.

XI-XIII asrlarda asos solingen Xorazm davlati, Fors ko‘rfazigacha bo‘lgan hududlardagi qo‘shni xalqlar yerlarini birlashtirgan holda, Osiyo qit‘asining katta qismini qamrab olgan.

Milodgacha bo‘lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar qadimiylar xalqaro transport arteriyasi vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq, O‘rta yer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog‘lab kelgan Buyuk Ipak yo‘lining ulkan, beqiyos rolini baholashning o‘zi qiyin.

Mazkur yo‘l nafaqat yuqorida zikr etilgan hududlar o‘rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki qit‘alar va davlatlar o‘rtasida axborot almashuvini ta‘minlashga xizmat qildi, yangi texnologiya va ishlanmalarning (ipak, chinni buyumlar, porox, qog‘oz va boshqa ko‘plab mahsulotlar) tez tarqalishida, qishloq xo‘jaligi ekinlari va agrotexnologiyalarning, shuningdek, madaniy qadriyatlarning rivojlanishida muhim

vosita vazifasini bajardi va shu tariqa sivilizatsiyalararo muloqot va texnologiyalar almashuvi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Bu davrlarda turli mamlakatlar xalqlarining ilmiy bilim va yutuqlar bilan bir-birini boyitib borishi alohida rol o‘ynadi. Buyuk Ipak yo‘li orqali Yevropaga, Yevropadan esa Osiyoga Sharq va G`arb olamidagi ulug` alloma va mutafakkirlar faoliyati to‘g`risidagi ma`lumotlar yetkazildi. Sokrat, Platon, Aristotel, Ptolomey va antik davrga mansub boshqa buyuk allomalarining ilmiy asarlari, g`oya va kashfiyotlarini o‘rganish uchun amaliy imkoniyat vujudga keldi.

Ma`lumki, o‘sha davrlarning an`analariga ko‘ra, ma`rifatparvar mutafakkir va faylasuflar, olimlar va shoirlar odatda hukmdorlar va sultonlar saroylarida panoh topganlar. Ular orasida IX-XI asrlarda Xivada tashkil etilgan Ma`mun akademiyasi va “Baytul hikma”, ya`ni “Donishmandlik uyi” degan nom bilan shuhrat qozongan Bag`dod akademiyasida, shuningdek, XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug`bekning ilmiy maktabida samarali mehnat qilgan bir guruh olimlar butun dunyoga dong taratdilar.

Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisoli po‘rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta`sir ko‘rsatgan Sharq uyg`onish davri - Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Shu bilan birga, ko‘plab tadqiqotchilar qayd etganidek, agar Yevropa Uyg`onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san`at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo‘lsa, Sharq Uyg`onish davrining o‘ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo‘ldi.

IX-XII asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma`naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish yillari bo‘ldi.

Movarounnahr deb ataladigan bu hududda mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib rivojlna boshladi. O'rta Osiyoda IX-XIII asrlarda Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshoxlar davlatlari hukm surdilar. Bu davlatlar xalqaro maydonda o'z mavqeい va tutgan o'rni jihatidan katta e'tibor va nufuzga ega bo'ldilar. Ahmad Nasr, Ismoil Somoniy, Alptakin, Mahmud G'aznaviy, To'g'rulbek, Sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko'ra oladigan davlat arboblari davrida O'rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra va boshqa shular singari katta shaharlarda O'rta Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan avlod ajdodlarimiz bu davrga kelib ko'paya bordi. Bag'dod shahri ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu yerda "Bayt ul-hikma"- ("Donishmandlar uyi") Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham xalifa Ma'mun davrida (995-997 y) "Donishmandlar uyi"- "Bayt ul-hikma" - "Ma'mun akademiyasi" (Xorazm akademiyasi) tashkil bo'ldi. **Xorazm Ma'mun akademiyasi** 1004-1005 yillarda Xorazmda yaratilgan bo'lib, O'rta Osiyo tarixida birinchi akademiyadir. Akademianing «Ma'mun» deyilishining sababi Ma'muniy xorazmshohlar davrida (997-1017 yillar) ularning homiyligida tashkil qilingan va amaliy ish olib borgan. Akademiya 1017 yilda o'z faoliyatini to'xtatishning sababi Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'munning isyonchilar tomonidan o'ldirilishi bo'ldi. Shundan so'ng akademiya homiysiz va qarovsiz qolib, akademiya olimlari ilmiy ish uchun tinch sharoit qidirib, birin-ketin tarqalib ketdilar.

O'rta Osiyo mintaqasida IX-XII asrlarda iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va ilmiy taraqqiyot yuksalgan davr. O'rta Osiyo Islom dini kirib kelgunga qadar ham yuksak moddiy va ma'naviy madaniyatga ega bo'lgan. Buning misoli sifatida

zardushtiylik (zoroastrizm) dinining muqaddas kitobi «Avesto»ni eslash kifoya. O‘rta Osiyo Islom dini tarqalishi tufayli, Yaqin Sharq, O‘rta Sharq, Shimoliy va G‘arbiy Afrika hududlarini qamrab olgan ulkan Arab xalifaligining tarkibiga kirdi. Natijada mintaqamizning boy va serqirra madaniyati taraqqiyotning yanada kengroq sahniga chiqdi. Mintaqamiz olimlari, mutafakkirlari, ziyolilari, sayyoohlari qadimiy yunon va Rum madaniyati yutuqlari bilan tanishish hamda o‘rganish imkoniga ega bo‘ldilar. O‘rta asrlarda islom olamida din, fan va siyosatning umumtili hisoblangan arab tili O‘rta Osiyo olimlari va mutafakkirlari uchun ilm-fan va ma`naviyatni yangi pog`onaga ko‘tarishda bebaho ko‘prik bo‘lib xizmat qildi. Shu davrlarda yashab, ijod qilgan al-Xorazmiy (783-850), al-Farg`oniy (798-861), al-Forobiy (873-950), al-Beruniy (973-1018), Ibn Sino (980-1037) va boshqalar tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojiga bebaho hissa qo‘shdilar. Vatandoshlarimiz Imom al-Buxoriy (810-870), at-Termiziy (822-893), al-Moturidiy (870-943), Ahmad Yassaviy (1103-1166), Najmiddin Kubro (II45—1221) va boshqalar islom dini va Qur`oni karimning mazmunini hamda mohiyatini tahlilu talqin etgan, jamiyat, inson, xulq va haq, odob va tartib, harom va halol, ahloq va nafosat haqida o‘zlarining asrlar osha eskirmaydigan va mangu joziba kuchiga ega asarlarini yaratdilar. O‘rta Osiyodan chiqqan mashhur olimlarning ilmiy kashfiyotlaridan butun insoniyat, xususan, yevropaliklar keng foydalandilar.

O‘rta asrlarning ilk davrida Sharqda amalga oshirilgan buyuk ilmiy kashfiyotlar haqida gapirar ekanmiz, zamonaviy matematika, trigonometriya va geografiya fanlari taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘sghan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) nomini birinchilar qatorida tilga olamiz. U o‘nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini birinchilardan bo‘lib asoslab berdi va amaliyotga tatbiq etdi. Bu esa matematika va astronomiya fanlari rivojida keskin burilish yasadi.

Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma`lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi bo‘yicha ko‘plab ilmiy asarlar muallifidir. Allomaning dunyo ilm-fani

rivojidagi xizmatlari umume`tirof etilgan bo‘lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari “algoritm” va “algebra” kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix ilmi va boshqa fanlar sohasida barkamol ijod qildi. Uning «Al Jabr val muqobala» («Tenglamalar va qarshilantirishlar»), «Kitob surat-al Arz» («Er surati haqida kitob»), «Hisob al-hind» («Hind hisobi»), «Kitobat-Tarix («Tarix kitobi»)», «Kitob al-Amal Bil Usturlab» («Usturlob bilan ishlash haqida kitob») kabi asarlari olimga jahonShumul Shuhrat keltirdi. Xorazmiy yaratgan 20 dan ortiq asardan bizning davrimizgacha 10 tasi yetib kelgan.

**Abul Abbas Ahmad ibn Muxammad ibn Nosir al-Farg`oni**y 797-865 yillarda yashab ijod qilgan vatandoshimizdir. Ahmad Farg`oniy tomonidan IX asrda yaratilgan “Astronomiya asoslari” fundamental asarida olamning tuzilishi, yerning o‘lchovi haqidagi dastlabki ma`lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko‘rinishga ega ekani xususidagi dalillar mavjud bo‘lib, mazkur kitob XVII asrga qadar Yevropa universitetlarida astronomiya bo‘yicha asosiy darslik sifatida o‘qitib kelingan hamda buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilgan. Ahmad Farg`oniyning amaliy yutuqlaridan biri uning o‘rta asrlardagi asosiy astronomik asbob - usturlob nazariyasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil daryosida “nilomer” degan, ko‘p asrlar davomida suv sathini o‘lchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshootni yaratgani bo‘ldi.

Ahmad Farg`oniy «Kitod fi-Usuli ilm an-Nujum» («Falakiyat ilmining usullari haqida kitob»), «Falakiyat usullari», «Al-Majistiy», «Ilm xayya», «Falak asarlari sababiyatlari», «Al-Farg`oniy jadvallari», «Usturlob bilan amal qilish haqida», «Oy yerning ustida va ostida bo‘lganida vaqtni aniqlash risolasi», «Yetti iqlim hisobi», «Ustirlob yasash haqida kitob» asarlarining qo‘lyozmalari Angliya, Frantsiya, Germaniya, Misr, Hindiston, AQSH va Rossiyada saqlanmoqda.

**Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Forobiy** (873-951 yy.) O‘rtalik Osiyoning yirik qomusiy olimlaridan biri, fanning deyarli barcha sohalarini egallab olgan 160 dan ortiq asar yozgan. Forobiyning riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyotga oid asarlari butun olamga mashhur bo‘ldi. U yozgan «Aristotelning «Metafizika» asari maqsadlari haqida», «Tirik mavjudot a`zolari haqida», «Musiqa kitobi», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Siyosat al-Madaniyat», («Shaharlar ustida siyosat yurgizish»), «Fozil odamlar shahri», «Masalalar mohiyati», «Qonunlar haqida kitob», «Tafakkur yurgizish mazmuni haqida», «Mantiqqa kirish haqida kitob», «Falsafaning mohiyati haqida kitob» va boshqa asarlar buyuk olimning ilm va dunyoqarash doirasining beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dololat beradi.

X asrning qomusiy allomasi Abu Nasr Forobiyni zamondoshlari, universal bilimlarga ega bo‘lgani bois, “Sharq Aristoteli” deb ataganlar. U ko‘plab fanlarni ilmiy kashfiyotlar bilan boyitdi, turli mamlakatlar olimlarining falsafiy qarashlarini rivojlantirdi va 160 dan ortiq asar yozdi. Ulardan eng mashhurlari “Mohiyat xususida so‘z”, “Fanlarning paydo bo‘lishi haqida kitob”, “Tafakkur mohiyati” va boshqa asarlar hisoblanadi. Forobiy asarlarining asosiy qismi ko‘plab Yevropa va Sharq tillariga tarjima qilingan va hozirgi kunga qadar chuqur tadqiqotlar mavzusi bo‘lib kelmoqda.

**Abu Bakr Muhammad ibn Ja`far Narshaxiy** (899-959)ning ilmiy asarlari to‘g‘risida ma‘lumotlar juda kam. Uning faqat «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi») asari bizgacha yetib kelgan. «Buxoro tarixi» asari o‘zining ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan va hozirgi kunda somoniylar davri tarixi bo‘yicha eng noyob, qimmatli asar hisoblanadi. Asarda Somoniylar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayotga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

IX-XII asr fan va madaniyatining ravnaqini **Abu Rayhon Beruniysiz** (973-1048 yy.) tasavvur qilish mumkin emas. U o‘z zamonasining barcha fanlari fizika, matematika, astronomiya, geodeziya, tarix, matematika, geografiya va bir necha boshqa fanlarni puxta egallagan olim bo‘lgan.

Ulug` qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniyning ilmiy dahosi bilan yaratilgan mislsiz kashfiyotlarga to`liq baho berishning o`zi qiyin. Beruniyning I50 dan ziyod ilmiy ishlaridan bizgacha faqat 31 tasi yetib kelganiga qaramasdan, alloma qo`lyozmalarining qo`limizdagi ana shu to`liq bo`lmagan namunalari ham uning naqadar serqirra meros qoldirganidan dalolat beradi.

Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo`lib dengizlar nazariyasi va yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o`ziga xos yangi g`oyalarni taklif etdi, yer radiusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya`ni bo`shliq holatini izohlab berdi, Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit`a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi, minerallar tasnifi va ularning paydo bo`lish nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi. Shuning uchun ham XI asr butun dunyodagi tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan “Beruniy asri” deb atalishi bejiz emas.

Beruniy ulkan merosi orasida jahon fanida eng ishonchli va muhim manbalar sirasiga kiritilgan. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Geodeziya», «Hindiston», «Mas`ud qonuni», «Saydana» (Mineralogiya) kabi asarlari alohida o`rin tutadi. O`rta asrlardan boshlab, xususan, XIX asrda, uning asarlari lotin, frantsuz, ingliz, nemis, fors, turk tillariga o`girildi.

**Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yy.)** 17 yoshidayoq olim sifatida shakllanib, tabib degan nom chiqaradi. Abu Ali ibn Sinoning arab tilida yaratgan 5 jildli “Al-Qonun” (“Tib qonunlari”) asari tibbiyotga oid benazir asardir. U ilm-fanning boshqa sohalarida ham barakali ijod qilgan bo`lib, “Donishnama”, “Insof kitobi”, “Najot kitobi” va boshqalar asarlarni yaratgan.

“Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri” degan unvonga sazovor bo`lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarda alohida g`urur va ehtirom tuyg`ularini uyg`otadi. Ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug` zot o`z umri davomida 450 dan ortiq asar yaratdi. Ularning aksariyati avvalo tibbiyot va falsafa, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa,

adabiyot va tilshunoslik sohalariga bag'ishlangan. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frengis Bekon va boshqa ko'plab olimlar avlodi uning asarlarini o'qib, hayratga tushganlar.

Biz doim g'urur va iftixor bilan e'tirof etamizki, tibbiyot tarixida eng mashhur bo'lган, "Tib qonunlari" deb atalgan o'zining bebaho fundamental asari bilan Ibn Sino keyingi bir necha yuz yillar uchun tibbiyot fanlari taraqqiyotining asosiy yo'nalişlarini oldindan belgilab berdi, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan amaliy tibbiyot va farmakologiya sohalarining eng muhim usullariga asos soldi. Bejiz emaski, bu kitob Yevropada XV asrda chop etilgan dastlabki kitoblardan biri bo'lган va Yevropaning yetakchi universitetlarida qariyb 500 yil davomida tibbiyot ilmi ayni shu asar asosida o'qitib kelingan.

Ibn Sino va Beruniyning bizgacha yetib kelgan Aristotelning "Koinot haqida kitob" asariga taalluqli yozishmalari buyuk allomalarimizning ilmiy muloqot olib borish, antik davr falsafiy qarashlarini chuqur anglash va ularni rivojlantirish borasida naqadar yuksak darajaga ko'tarilganining mumtoz namunasidir.

X-XI asrlarda Xorazm zaminida ijod qilgan Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk alloma va mutafakkirlarimizning xizmatlari ularning ilmiy ishlari va asarlari doirasi bilangina chegaralanib qolmaydi, balki insoniyatning intellektual tarixida chuqur iz qoldirgan ilmiy maktab - Xorazm Ma'mun akademiyasini shakllantirishdek muhim masalani ham qamrab oladi.

**Mahmud Qoshg'ariy** (1029-1038 yy.) «Devoni lug'ati turk» va «Javohiri nahr» «Turk tili sintaksi asoslari» asarlarini yozadi. Ming afsuslar bo'lsinki, oxirgi asari hanuzgacha topilmagan. Mahmud Qoshg'ariyni butun ilm olamiga tanitgan «Devoni lug'oti turk» asaridir. Bu kitob arab tilida yozilgan. Unda olim ko'p yillar davomida turkiy qabilalar orasida olib borilgan kuzatishlar asosida turkiy tillarni qiyosiy va tarixiy usullar bilan tahlil qilgan va bu tillarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan.

**Yusuf Xos Hojib (XI asr).** Hozirgi kunda Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilik» - «Baxt saodatga boshlovchi bilim» deb nomlangan didaktik badiiy-falsafiy

asari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, boshqa asarlari ma’lum emas. Asar nasriy muqaddimadan so‘ng 77 baytdan iborat she’riy muqaddima bilan boshlanib 73 bobning mundarijasi beriladi. Boshlang‘ich boblar o‘sha davr an’analariga binoan boshlanib, olloh va payg`ambar, islom dinining foydasi va dunyoviy, ijtimoiy siyosiy, axloqiy ilmiy masalalar bilan tugallanadi.

**6. IX-XII asrlarda islom dini va so‘fiylik. Imom Buxoriy. «Jome’ as-Sahih». Hadislar tavsifi. Imom Termiziy.** IX-XII asrlarda xalifalikdan ajralib chiqqan mustaqil davlatlar Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va G`aznaviylar, Xorazmshohlar davrida bu mustaqil markazlashgan davlatlarni yanada mustahkamlash uchun islom diniga, uning ta‘limotiga, tarixiy ahkomlariga e’tibor bir necha bor kuchayadi. Shaharlarda masjidlar va madrasalar qurilishiga e’tibor berila boshladi. Bu davrda islom ta‘limotiga bebahohissa qo‘shtigan Imom al-Buxoriy va Iso at-Termiziy kabi ko‘plab ulamolar yetishib chiqdilar. Ular shu kunga qadar hadis ilmining eng ko‘zga ko‘ringan, butun musulmon dunyosi tomonidan tan olingan allomalar darajasiga ko‘tarilgan zotlardir. **Imom Buxoriy (810-870 yy.)** islom dini masalalariga bag‘ishlangan yigirmaga yaqin asar yozdi. Shu kitoblar orasida Buxoriyning butun dunyoga mashhur qilgan asari «Al-Jome as-Sahih» («Ishonchli to‘plam»)dir. Bu asar 160 qismdan iborat bo‘lib, 3450 bobni o‘z ichiga oladi. Buxoriy hadislarni to‘plash va bayon etishda uning haqiqiyliga asosiy e’tibor bergen, uning haqiqatga yaqinligini isbotlovchi dalillarni keltirgan va shu asosda hadislarni klassifikatsiya qilgan olimdir.

**Imom at-Termiziy (824-892yy.)** Termizdan uncha uzoq bo‘lmagan Bug` qishlog`ida tug‘ilgan. U ham Buxoriy singari Sharqning juda ko‘p shaharlarida bo‘lib, o‘z bilimini oshirishga harakat qiladi. At-Termiziy hadislardan tashqari filologiya, tarixga oid asarlar ham yozdi. Uning o‘ndan ortiq yozgan asarlari orasida nomini butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari «Jomi at-Termiziy» yoki «Sunan at-Termiziy»dir. Bu asar islomda ulamolar tomonidan haqiqat deb tan olingan mashhur hadislar to‘plamidan biridir. Termiziyning ilmiy merosi diniy

ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, axloqiy, didaktika tarixida ham juda katta o‘rin egallaydi.

Tasavvuf, ya`ni so‘fiylik islom dini asosida shakllangan diniy falsafiy oqim bo‘lib, poklangan, zohid, taqvodorlik ma`nosini anglatadi. Uning asosida bu dunyo lazzatlaridan voz kechish asosida ollohga yetish, uni bilish, u bilan birlashish yo‘lini qidirish yotadi. So‘fiylik Qur`on va shariat talablarini albatta so‘zsiz bajarish, o‘zini xudoning quli deb bilish kabilar, o‘z xoxishi bilan tozalanib, ollohga, ruhiy ma`naviylikka singish orqali erishishga asoslanadi. Tasavvuf ta`limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi.

**Al-Moturidiy (taxminan 870—943 yillar)** - sunniy e`tiqodidagi ikki yirik oqimdan biri bo‘lmish moturidiya oqimining asoschisi, uning yakkaxudolik va Qur`onning tafsiriga bag`ishlangan «Kitob at-tavhid» va «Kitob ta`vilot al-Qur`on» nomli asarlari ulamolar orasida katta e`tibor qozongan.

Movarounnahrda tasavvuf ta`limoti X asrdan boshlab yoyila boshladи. Hozirgi O‘zbekiston hududida tasavvufning rivojlanishida Yusuf Hamadoniy ta`limoti muhim rol o‘ynaydi. Manbalarda qayd qilinishicha, **Yusuf Hamadoniy 1043-1049 yilda Eronning Hamadon shahrida tug`iladi**. Yusuf Hamadoniy umrining katta qismini O‘rta Osiyoda o‘tkazgan. U hunarmandchilik, kosibchilik bilan shug`ullangan. Shuning uchun ham bo‘lsa kerak, uning ta`limoti asosan hunarmandlar orasida keng tarqalgan va ularning manfaatlarini ifodalagan. Yusuf Hamadoniy so‘fiylik ilmi bo‘yicha ko‘plab shogirdlar tayyorladi. Hamadoniy ta`limotidan O‘rta Osiyoda ikki tasavvuf maktabi –Yassaviylik va Naqshbandiylik kelib chiqadi.

O‘rta Osiyo hududida birinchi vujudga kelgan so‘fiylik oqimi Yassaviylikdir. Bu oqimga 1105 yilda Yassa (Turkiston) shahrida tug`ilgan Ahmad Yassaviy asos solgan. Ahmad Yassaviy Buxoroda Yusuf Hamadoniydan ta`lim olgach, yana ona shahri Turkistonga qaytib keladi madrasa va xonaqolar qurdiradi. Yassaviy ta`limotining asoslari turkiy tilda yozilgan «Devoni Hikmat» asarida bayon etilgan. U o‘troq va ko‘chmanchi turkiy xalqlar orasida so‘fiylik ta`limotini targ`ib qilishda

muhim ahamiyat kasb etgan. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma`rifat, ma`rifatsiz haqiqat bo`la olmaydi. Ular doimo bir-birini to`ldiradi. Bu yo`l kamolot yo`li bo`lib, inson hayotining asl mohiyatini tashkil etadi.

Yusuf Hamadoniyning yana bir shogirdi **Abduxoliq G`ijduvoniy** (1103-1179yy.) bo`lgan. Yassaviy bilan G`ijduvoniy shu darajada iqtidorli shogirdlardan bo`lishganki, keyinchalik ularidan biri «Yassaviya» ikkinchisi «Naqshbandiya» tariqatining asoschilari bo`lib yetishadilar. **Hoja Abduxoliq G`ijduvoniy Sharq falsafa** tarixida o`ziga xos o`rin egallaydi. Uning falsafiy dunyoqarashi tasavvufdagi Hojagon (Hojalar) halqasida shakllandi.

**Al-Marg`inoniy** (1123-1197 yy.) fikhga oid bir qator yirik asarlar yaratgan. Bu asarlar qatoriga «Bidoyat al-muntahiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta`lim»), «Kifoyat al-muntahiy» («YAkunlovchilar uchun tugal ta`lim»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Manosik ul-haj» («Haj marosimlari»), «Majmua ul-navozil» («Nozilda bo`lgan narsalar to`plami»), «Kitob ul-faroiz» («Farzlar kitobi»), «Kitob ul-mashoix» («SHayxlar haqida kitob»), «Maziydun fi furu`il-hanafiya» («Hanafiya mazhabiga qo`sishchalar»), «Biloyat ul-mubtadiy» asari uchun 8 jildlik sharh, «Al-Hidoya» («Kifoyat ul-muntahiy» uchun yozilgan 4 jildlik sharh) va boshqalar kiradi. Bu kitoblar nomlarining o`ziyoq al-Marg`inoniy islom dinining asosiy masalalarini naqadar keng qamrab olganligidan dalolat beradi. Al-Marg`inoniyning butun islom olamida mashhur bo`lgan shoh asari «Al-hidoya» asari sakkiz asrdan oshibdiki, butun musulmon olamiga, dunyoning barcha burchaklarilagi din, ma`naviyat, madaniyat, ruhiyat ahliga, huquqshunoslarga cheksiz manba bo`lib xizmat qilmoqda.

**Najmiddin Kubro** (II45-1221 yy.) - tasavvuf ta`limotining O`rta Osiyodagi yirik vakillaridan biri. So`fiylikdagi Kubroviya oqimining asoschisidir. Kubroviya tariqati Yassaviya tariqatidan farq qilib, tarki dunyochilik rad etiladi. Unda kamolot yo`lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo nozne`matlarimdan bahramand bo`lish kerakligi ilgari suriladi. Bu ta`limotda vatanga, xalqqa bo`lgan muhabbat g`oyasi nihoyatda kuchli bo`lib, har qanday og`ir sharoitda

ham xalq bilan birga bo‘lish, vatan himoyasi uchun kurashish, uning mustaqilligini saqlash zarurligi da‘vat qilinadi. O‘z g`oyasiga sodiq Najmiddin Kubro vatan himoyasi yo‘lida mo‘g`ullarga qarshi kurashda shahid bo‘ldi va jasorat namunasini o‘z muridlariga ko‘rsata oldi.

**Xorazm Ma`mun akademiyasi.** Ma`muniylar akademiyasi - Xorazmda X asr oxiri - XI asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan ilmiy muhit bo‘lib, Ma`muniylar davlati (992-1017 yy.) tarixi bilan bevosita bog‘liq. Ali ibn Ma`mun (997-1010) tog`asi Abu Nasr ibn Iroq taklifi bilan saroyda ilm ahli uchun yaxshi sharoit yaratib bergen. Shu tariqa 1004 yildan boshlab Gurganjda «Dorul hikma va maorif» (ba`zi bir manbalarda «Majlisi ulamo») nomini olgan ilmiy muassasa to‘la shakllangan. Bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi «Platon», Bag`doddagi «Bayt ul-hikmat» akademiyasi faoliyatiga o‘xshab ilmnning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko‘p manbalar to‘plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan; hind, yunon, arab olimlarining ishlari o‘rganilgan. Al-Xorazmiy, Al-Farg`oniylarning o‘lmas asarlari, ilmiy ishlaridan foydalanilgan va tadqiq qilingan. XVIII-XX asr tarixchi olimlari tomonidan ilmiy muassasa har tomonlama o‘rganilgan va o‘z faoliyati nuqtai nazaridan bu dargoh o‘z davrining akademiyasi bo‘lganligi isbotlangan va unga «Ma`mun akademiyasi» nomi berilgan. Xorazm Ma`mun akademiyasi olimlari Yunoniston, Yaqin va O‘rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o‘rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko‘targanlar. Akademiya a`zolarining aksariyati olim sifatida Markaziy Osiyoda shakllanganlar. Ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli Qadimgi Xorazm badiiy san`ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug`orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan.

Xorazmshoh Ma`mun ibn Ma`mun (Ma`mun II) saroyidagi olimlar shuhrati o‘z davrida uzoq o‘lkalarga tarqalgan. Bu esa Mahmud G`aznaviyning g`ashiga tekkan. U uyushtirgan suiqasd natijasida 1017 yilning bahorida Ma`mun II o‘ldirilgan va o‘sha yilning iyunida kuyovi uchun qasos olish bahonasi bilan Mahmud G`aznaviy Xorazmga bostirib kirgan. Katta qirg`in va talon-torojliklar

natijasida Xorazm Ma`mun akademiyasi faoliyati tugatilgan va bu yerdagi olimlarning ko`pchiligi G`aznaga majburan olib ketilgan.

O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining «Xorazm Ma`mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to`g`risida»gi farmoni (1997 yil 11 noyabr) O`zbekistonning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, uning jahon ilmiy hamjamiyatidagi o`rnini mustahkamlash, mintaqalarda fanni yanada rivojlantirish hamda iste`dodli va fidoyi olimlarni qo`llab-quvvatlash, yuqori intellektual muhit yaratishdagi milliy an`analarni rivojlantirishda qo`yilgan muhim qadam bo`ldi.

Mustaqillik yillarda Respublikamizda milliy qadriyatlarni qaytadan tiklash, davlatimiz tarixiy ildizi mustahkam chuqur ekanligini anglab olishga, boy madaniyatimizni, urf-odatimizni, qadim-qadimdan shakllanib kelayotgan an`analarimizni anglab olish va qayta tiklash urf bo`lib qoldi. Shu o`rinda Xorazm Ma`mun Akademiyasi Xorazmda bundan deyarli ming yil avval faoliyat ko`rsatgan va dovrug`i jahonga tanilgan Sharqning eng yirik ilmiy markazi tashkil etildi.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan Xorazm Ma`mun Akademiyasining 1000 yilligini nishonlash to`g`risida 2004 yil 9 noyabrida yig`ilish qarori bo`lib o`tadi. Ushbu yig`ilishda YUNESKO bosh konferensiyasining 32 - sessiyasida Xorazm Ma`mun Akademiyasining 1000 yilligini nishonlash bo`yicha yubiley tadbiri o`tkazish “Xorazm Ma`mun Akademiyasi va uning jahon ilm-fan taraqqiyotidagi o`rni” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o`tkazish bo`yicha tashkiliy chora-tadbirlar qarori ishlab chiqildi. Unga ko`ra Xorazm Ma`mun Akademiyasining 1000 yilligini nishonlash doirasida Urganch va Xiva shaharlarida o`tkazilishi belgilab qo`yildi.

Xivada Ma`mun Akademiyasini qaytadan tashkil etilishi endilikda Xorazmnинг siyosiy voqealarga boy o`tmish tarixi, yuksak madaniyati, ilm-fani va boshqa sohalarini fundamental tadqiq qilish imkoniyati vujudga keldi. Akademianing Xorazmda ish boshlab yuborishi tasodifiy holat emas albatta. Buning uchun bu yerda zarur bo`lgan moddiy va ma`naviy zamin yetilgan edi. Ma`mun Akademiyasi o`z faoliyatida Xorazmnинг ming yillik ilm fan

chashmalaridan madad oladi, ularning xayrli ishlarini vorislik tuyg'usi bilan davom ettiradi. Farmondan bir necha oy o'tgandan so'ng Xivada maxsus ajratilgan muhtasham binoda akademiya o'z faoliyatini boshlab yubordi. Akademiya hayotiy zarur bo'lgan uchta bo'lim ya'ni arxeologiya, tarix va falsafa, til va adabiyot, biologiya muammolari bo'limlari tashkil etildi. Akademiyani yetuk ilmiy kadrlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Urganch va Toshkent Davlat Universitetlaridan hamda boshqa ilmiy tadqiqot markazlaridan yuqori malakali mutaxassis kadrlar va olimlar xizmatga taklif qilindi.

Xorazm Ma'mun Akademiyasi 15 yil faoliyat ko'rsatdi. Lekin shunga qaramay, ilm fan va madaniyat xazinasining qimmatbaho asarlar bilan boyitdi, jahon sivilizatsiyasini jadal rivojlanishiga katta hissa qo'shdi, ko'plab buyuk siymolarni tarbiyaladi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Ismoil Somoniyning davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirgan islohoti qanday maqsadlarni ko'zda tutgan edi?
2. Somoniylar sulolasи inqirozining asosiy sabablarini nimalarda deb o'ylaysiz?
3. Qoraxoniylar davlatining yuzaga kelishi jarayoni qanday tarixiy sharoitda kechdi?
4. Saljuqiylar sultanati inqirozining asosiy sabablarini tushuntirib bering.
5. XI asrdan boshlab Xorazmnинг yangidan mustaqillikka erishuvi va yuksalib borishiga turtki bergan omillar nimalar bo'lgan?
6. Xorazmshohlar sultanatidagi davlat boshqaruvi tizimi haqidagi tushunchalaringiz?
7. Xorazm davlatidagi ichki ziddiyatlar, muxolifatchilik holatlarining kuchayib borishi qanday oqibatlarga sabab bo'ldi?
- 8 IX – XII asrlardagi ma'naviy yuksalish omillariga nima sabab bo'lgan?
9. IX – XII asrlarda vatanimizda ilm-fanning qaysi yo'nalishlari taraqqiy etdi?

10. Jahon fani va sivilizatsiya ravnaqiga salmoqli hissa qo'shgan O'rtalik Osiyolik allomalarni qanday asarlarini bilasiz?

II. Imom Buxoriy va Imom at-Termiziylarning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari haqida gapirib bering.

12. Tasavvuf ilmi va uning namoyandalari haqida so'zlab bering.

13. Xorazmshoh – Anushtaginiylar xalqaro munosabatlari qanday kechgan?

14. Xorazm Ma'mun akademiyasi haqida gapirib bering.

### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017.

2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'qT., O'zbekiston, 1998.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch . T., Ma'naviyat, 2008.

4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.- T.: Sharq, 2000.

5. Eshov B., Odilov A. O'zbekiston tarixi. 1 jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o'rtalarigacha. Darslik. -T.: Yangi asr avlod, 2014.

6. Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. Ўқув қўлланма.- Тошкент, Маърифат. 2009.

7. Bunyodov Z.M. Xorazmshoh – Anushtaginlar davlati (1097-1231). T., Mumtoz so'z, 2012.

8. Vatan tuyg'usi T., O'zbekiston, 1996.

9. Nizomulmulk. Siyosatnoma.- T., Adolat, 1997.

10. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: Фан, 1993.

11. Buyuk siymolar, allomalar.-N.: Meros (Uch kitob), 1994, 1996, 1998.

12. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар.

Танланган асарлар. 1 жилд. -Т.: Фан, 1968.

13. Azizzoxjaev A. Davlatchilik va madaniyati.- T.: Sharq, 1997.

14. O'zbekiston tarixi. Prof. R.H. Murtazayevanining umumiy tahriri ostida.-

T.: 2005.

## **7-MAVZU: MO‘G‘ULLAR ISTILOSI VA ZULMIGA QARSHI KURASH. JALOLIDDIN MANGUBERDI – VATAN HIMOYACHISI**

### **Reja:**

1. Chingizzon (Temuchin) davlati. Chingizzon va Sulton Muhammad Xorazmshoh munosabatlari.
2. Mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoga istilochilik yurishlari. Mo‘g‘ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlati. O‘tror mudofaasi.
3. Najmiddin Kubro jasorati. Jaloliddin Manguberdi - yurt himoyachisi.
4. Mo‘g‘ul istilosи va zulmiga qarshi kurashning davom ettirilishi. O‘lkada mo‘g‘ullar hukmronligining o‘rnatilishi va uning oqibatlari. Chig’atoy ulusining tashkil topishi. Kebekxonning ma’muriy va pul islohotlari. Madaniy hayot.

**Tayanch tushunchalar:** Mo‘g‘uliston, Chingizzon, mo‘g‘ullar bosqini, yuz boshi, ming boshi, tumanboshi, jangchi, qurultoy, hoqon, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Chig’atoy ulusi, urug`-qabilalar, soliq va o‘lponlar, sudlov, jinoiy-javobgarlik, fuqarolik ishlari, Mahmud Yalavoch, jabr-zulm, Yettisuv hududi, Torobiy qo‘zg‘oloni, Mas’udbek, ulusning bo‘linishi, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, madaniy hayot.

**I.Chingizzon (Temuchin) davlati. Chingizzon va Sulton Muhammad Xorazmshoh munosabatlari.** Temuchin XII asrning oxirlariga kelib nafaqat mo‘g‘ullarning ko‘p sonli urug`-qabilalarini, shu bilan birga ular bilan yonma-yon, qo‘sni yashab kelgan ko‘plab turkiy elatlar, chunonchi, jaloirlar, oyratlar, keraitlar, naymanlar, qoraxitoylar, qirg`izlar, uyg`urlar, qarluqlar va boshqalarni ham birin-kekin bo‘ysundirib, kuchli davlatga asos soldi. Bu davlat harbiylashgan tizimga asoslanganligi bilan ajralib turardi. Qo‘sishnlarga: o‘n jangchiga bir boshliq - o‘n boshi, shuningdek, yuz boshi, ming boshi va tumanboshilar boshchilik qilardi. Tuman deganda o‘n minglik qo‘sningina emas, balki shu qo‘sish safini doimiy

to‘ldirishi kerak bo‘lgan butun bir tuman, ya`ni besh–o‘n ming o‘tovli yoki 50 mingga yaqin aholisi bo‘lgan hudud nazarda tutilardi. Har bir shunday tumanga tayin qilingan tumanboshi faqat o‘n ming jangchining qo‘mondoni bo‘libgina qolmay, ayni zamonda o‘z tasarrufidagi minglab fuqarolarning taqdirini ham hal etuvchi hokimi mutloq hisoblanardi. Mazkur tumandagi barcha sudlov, jinoiy-javobgarlik va fuqarolik ishlari ham to‘laligicha uning tasarrufida bo‘lgan.

Temuchin oliy hokimiyat muruvvatlarini o‘zining o‘g`illari va eng yaqin kishilariga topshiradi. Jumladan, uning yaqin safdoshlaridan Subutoy, Xubiloy, Jebe, farzandlari: Jo‘jixon, Chig`atoy, O‘qtoy, Tuluxonlar birinchi bo‘lib tuman sohiblari bo‘lganlar.

Temuchinning mo‘g`ullarning ulug` xoqoni sifatidagi o‘rni va mavqeini har jihatdan mustahkamlash, bunga qonuniy tus berishda 1206 yili poytaxt Qoraqurumda bo‘lib o‘tgan umummo‘g`ul Qurultoyi alohida ahamiyatga molik bo‘ldi. Qurultoyda Temuchin barcha mo‘g`ul-tatar xonlarining ulug` xoni (qooni) deb e`lon qilindi va unga Chingizzon laqabi berildi. (Chingizzon laqabi turli mualliflar tomonidan turlicha, chunonchi, «kuchli», «qudratli», «toza» yoki dengizlar (Dengizzon), okeanlar hukmdori va hokazo ma`nolarda talqin qilinib kelinadi). Qurultoy tomonidan qabul qilingan «Yaso» hujjati (mo‘g`ullar davlatining asosiy qonunlari majmuasi) ulug` xon hokimiyatini yanada mustahkamladi. «Yaso» mo‘g`ul jamiyatidagi mulkiy tongsizlikning ifodasi sifatida ko‘zga yaqqol tashlanadi. U yangi paydo bo‘lgan hukmron tabaqa - tarxonlarga katta imtiyozlar berilishini ko‘zda tutardi.

Chingizzon ulug` hoqon deb e`lon qilingan birinchi kundayoq o‘zining eng yaqin kishilaridan 95 *nafarini* bahodur, mingboshilar etib tayinlaydi va bir necha ming kishiga tarxonlik yorliqlari beriladi. Chingizzon ayni paytda 10 ta oliv hokimiyat lavozimlarini ta`sis etadi va I50 kishidan iborat shaxsiy gvardiya hamda mingta «dovyurak» jangchilardan tarkib topgan shaxsiy drujina tuzadi (Keyinchalik uning soni 10 ming kishiga yetkaziladi). Butun mamlakatda kuchli temir intizom, qattiqqo‘l tartib o‘rnatalib, jangovar harbiy safarbarlik ishlari avjga oldirib borildi.

Bu hol Chingizxonning xorijiy ellarni zabt etishdan iborat o‘z oldiga qo‘ygan yovuz, agressiv maqsadlarini tez orada amalga oshirishga imkon yaratib bordi.

XIII asr boshlariga kelib Chingizzon qo‘shni davlatlar va xonliklarni birin–ketin bosib olishga kirishadi. Agar 1206 yilga qadar bepoyon Gobi sahrosidagi qavm-qabilalar itoatga keltirilgan bo‘lsa, 1206-1211 yillar davomida Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlari (buryat, yoqut, oyrat, qirg‘iz va uyg‘urlar) bo‘ysindiriladi. Mo‘g‘ul sarkardasi Xubiloy Yettisuvning Shimoliy hududlarini ishg‘ol etib, bevosita Xorazmshohlar davlati chegaralariga yaqinlashib boradi. 1211 yilda uyg‘urlar yeri istilo etilgach, shundan so‘ng Chingizzon Xitoya hujum boshlaydi. 1215 yil boshlariga kelib Shimoliy Xitoy poytaxti Pekin ishg‘ol etiladi. 1217 yilda Xuanxe daryosining Shimolidagi barcha yerlar mo‘g‘ullar tasarrufiga o‘tadi. Ayni chog‘da 1218 yilga kelib g‘arb tomonda Yettisuv hududining qolgan qismi ham egallanib, Kuchluq davlatiga xotima bergach, Chingizzonning asosiy bosh maqsadi - uning jahonga hukmron bo‘lishiga katta to‘g‘onoq bo‘lib turgan buyuk Xorazmshohlar qo‘shinini tor-mor keltirib, uning yerlarini o‘z qo‘l ostiga kiritish edi.

Ikki o‘rtada hatto elchilik aloqalari ham o‘rnataladi. Bunday ishni amalga oshirishda Chingizzon o‘z huzuridagi musulmon savdogarlaridan foydalandi. Har ikki tomondan savdo karvonlari hay‘atida yuborilgan elchi va vakillar, o‘z navbatida, ayg‘oqchilik vazifasini ham bajarardilar.

Chingizzon o‘zaro shartnoma tuzish uchun 1218 yil Xorazmga juda katta savdo karvoni va elchilarni otlantiradi. Karvon ko‘p miqdorda oltin, kumush buyumlar, xitoy ipak matolari, targ‘u gazlamasi, suvsar va qunduz mo‘ynalari va boshqa xil qimmatbaho mollar ortilgan 500 tuya hamda 450 musulmon savdogari va elchilaridan tashkil topgan edi. Ammo karvon yo‘lda chegara shahar O‘trorda ushlab qolinadi. Shahar hokimi (noib) Inolchiq o‘zboshimchalik bilan savdogarlar va elchilarni qirib tashlaydi. Faqat bir nafar tuyakashgina tasodif tufayli omon qolib, Chingizzonning qarorgohiga zo‘rg‘a yetib boradi va karvonning dahshatli qismatidan xabar beradi.

Chingizzon O'tror noibligining ushbu hatti-harakati bilan nihoyatda haqoratlangan bo'lsa-da, ammo g'azabini bosib, Ibn Kafroj Bug'roni 2 ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan Xorazmshoh huzuriga elchi qilib yuboradi. Chingizzon Sulton Muhammaddan aybdorlarni jazolashni va Inolchiqni tuttirib, uning ixtiyoriga jo'natishni talab qiladi. Xorazmshoh elchini o'ldirishni va u bilan birga kelgan 2 mulozimning soqol-mo'ylovlarini qirib, sharmanda qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqealar ikki qudratli davlat o'rtasida savdo aloqalari va elchilik munosabatlari tamomila uzilganini bildirar edi. Shunday qilib, bu ikki buyuk davlatning harbiy to'qnashuvi muqarrar bo'lib qoldi.

«O'tror voqeasi» va undan keyin Chingizzon elchisi Ibn Kafroj Bug'roning o'ldirilishi Movarounnahrga Chingiz boshliq mo'g'ullarning bostirib kirishiga olib keldi.

Bu davrda Xorazmshohlar davlatining ichki ijtimoiy-siyosiy hayoti g'oyatda murrakab, ziddiyatli kechayotgandi. Bu davlat tashqaridan ulug'vor, keng hududlarga yoyilgan, qudratli sultanat tarzida ko'rinsa-da va uning hukmdori Muhammad Xorazmshoh o'zini «Iskandari soniy», «xudoning yerdagi soyasi» deb bilsa-da, biroq haqiqatda esa *Xorazmshohlar sulolasi ichdan emirilishga, tanazzulga yuz tutgan edi*. Avvalo, oliy hokimiyat boshqaruvida chuqur ixtiloflar hukm surardi. Bir tomondan, Muhammad yurgizayotgan rasmiy siyosatga nisbatan uning onasi Turkon Xotun va uning qavmlaridan iborat nufuzli siyosiy kuchlar doimiy muxolifatchilik munosabatida bo'lib kelardi. Ikkinci tomondan, mahalliy hududlar beklari va hokimlari ham markaziy hokimiyat bilan hisoblashmay, o'zboshimchalik qilar, xalqqa haddan ziyod jabr-zulm o'tkazardi. Bu davrda Xorazmshohlar davlati oliy devonida ham, mahalliy hokimlar, amaldorlar o'rtasida ham poraxo'rlik, xoinlik, sotqinlik holatlari avj olib borayotganligi sir emasdi. Uchinchidan, xalqning hokimiyatdan noroziligi ko'plab g'alayonlarni keltirib chiqarmoqda edi. Bunday qaltis vaziyat, shubhasiz, mamlakat birligiga rahna solib, uni tobora zaiflashtirayotgan edi.

Buning ustiga Muhammad Xorazmshohning xalifalik hududlarini qo‘lga kiritish da`vosi bilan 1217 yilda Bag`dod sari qo‘sishin tortishi ham xalifalik hukmdorlarini qahru g`azabga keltirgandi. Hatto xalifa an-Nosir Chingizzonga elchilar orqali maxsus noma yo‘llab, undan yordam so‘raydi, mo‘g‘ul qo‘sishinlarini Movarounnahr mulklariga bostirib kirishiga ham ishora qilgandi. Chingizzon qo‘shti davlatdagi barcha siru–sinoatlardan to‘la xabardor edi. U Xorazm davlatidan Mo‘g‘ulistonga qatnaydigan bir guruh yirik savdogarlardan iborat o‘z joususlik mahkamasini tashkil qilib, ular xizmatidan foydalanib kelardi. Mahmud Yalavoch, Hasan Xoja, Yusuf O‘troriy singari kishilar shular sirasiga kirardi. Shu bois Chingizzon va uning o‘rdasi Xorazmshohlar davlatida kechayotgan barcha ziddiyatli voqealardan, uning zaif nuqtalaridan xabardor edi. Chingizzon barcha vositalarni ishga solib, kerak bo‘lsa shuhratparast shoh Muhammadni tinchlantirib, amalda Movarounnahr ustiga yurishga puxta hozirlik ko‘radi.

Urush tahlikasi Xorazm davlati arkonlarini befarq qoldirmadi. Xorazm davlati ko‘p sonli turkiy qo‘sishin va yaxshi qurollangan ko‘ngillilar lashkari hamda yetarli oziq-ovqat zaxirasiga ega edi. Afsuski, podshoh bilan sarkardalar o‘rtasida mavjud ixtiloflar avval boshdanoq bunday ustunlikdan foydalanishga imkon bermadi. Kengashda fikrlar bo‘linib ketdi. Xiva vakili Shahobuddin Xivaqiy barcha qo‘sinni Sirdaryo bo‘yiga to‘plab, mo‘g‘ullarni qarshi olish, uzoq yo‘l safarida toliqib kelayotgan dushmanga hali o‘zini o‘nglab olmasidan turib, bor kuch bilan to‘satdan katta jangda zarba berish to‘g‘risida birdan-bir to‘g‘ri fikr bayon qiladi. Biroq Xorazmshohga bunday maslahat ma‘qul bo‘lmaydi. Chunki u o‘zini oliy lashkarboshilari bo‘lgan qipchoq sarkardalariga tamoman ishonchhsizlik bilan qarar edi. Harbiy kengashda bo‘lajak urushda mudofaa taktikasini qo‘llashga qaror qilindi. Xorazmshoh askariy kuchlarini qal‘a va istehkomlarga bo‘lib yuborib, ayrim shaharlarni mo‘g‘ullarga qarshi qo‘yish bilan dushmanga zarba bermoqchi bo‘ldi.

**2. Mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoga istilochilik yurishlari. Mo‘g‘ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlati. O‘tror mudofaasi.** 1219 yilning kuzida Chingizzon o‘g‘illari Jo‘ji, Chig‘atoy va O‘qtoy bilan birga Xorazmshoh

saltanatiga qarshi yurish boshladi. Jami askari 200 mingga yaqin bo‘lgan mo‘g`ullarga uyg`ur xoni Idikut va Olmaliq hukmdori Sig`noq teginlar ham o‘zlarining harbiy kuchlari bilan qo‘silgan edi. Chingizzon qo‘sini qadimgi karvon yo‘li bilan Ili daryosidan o‘tib, Sirdaryo bo‘yida joylashgan O‘tror shahri ustiga yurish qiladi (q. O‘tror mudofaasi). Bu shahar yaqinida butun harbiy kuchlari ni to‘plab, Movarounnahr va Xorazmni qisqa muddat ichida zabit etish uchun qo‘sinni 4 qismga bo‘ladi. Uning bir qismini o‘g`illari Chig`atoy va O‘qtoy boshchiligida O‘trorni qamal qilish va uni egallash uchun qoldirdi. 2-qismga Jo‘ji boshliq etilib, Sirdaryo etagi tomon yuboriladi va unga Sig`noq, O‘zgan, Barchinlig`kent, Jand, Yangikent va boshqa shaharlarni bosib olishni buyuradi. 5 ming kishilik 3-ko‘sinni Oloq-no‘yon hamda Suketu-cherbi ismli sarhanglari qo‘mondonligida Sirdaryo bo‘yida joylashgan Banokat va Xo‘jand shahrilari tomon yuboradi. Chingizzonning o‘zi asosiy kuchlari bilan Qizilqum cho‘li orqali o‘tib Buxoro tomon lashkar tortadi.

Buxoroga yo‘nalgan Chingizzonning asosiy kuchlari yo‘lda Sirdaryodan janubda joylashgan Zerunuh (Saritoq) va Hyp qal`alarini jangsiz ishg`ol qiladilar. O‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lgani uchun Zerunuh qal`asiga mo‘g`ullar hatto Qutlug` baliq, ya`ni Qutli shahar degan nomni beradi. Bosqinchilarning buyrug`iga binoan Hyp aholisi qishloq xo‘jalik asboblari, chorva va emakliklarini olib, shaharni mo‘g`ullarga bo‘shatib beradi.

1220 yilning 10 fevralida mo‘g`ullar Buxoroni egallaydi (q. *Buxoro mudofaasi*). Mo‘g`ullar Movarounnahrning qadimgi markazlaridan bo‘lgan Buxoro shahrini bir necha kun talon-toroj qiladi. Barcha uylar vayron qilinib, behisob xazinalar talandi. Asriy qo‘lyozma asarlar, muqaddas kitoblar yirtilib yo‘qotildi. Buxoro qismatiga tushgan vahshiyona shafqatsizlik va nomussizlik manzarasiga chiday olmagan qozi Badruddin, Imomzoda Ruknuddin va uning o‘g`li g`azablanib, o‘zlariga teng bo‘lмаган yarog`li dushmanha hujum qilib, halok bo‘ldi. Bundan keyin mo‘g`ullarga qarshi kurash xufiyona davom etdi. Mo‘g`ullar qilichidan omon qolib, shaharga yashiringan sulton askarlari o‘zlarining tungi hujumlari bilan

Chingizzonni bezor qiladi. Chingizzon tungi jangchilarni ushlab berishni shahar ahlidan talab qiladi. Ammo buxoroliklar g`olibning buyrug`ini bajarmay, himoyachilarga ko`maklashadilar. Bundan nihoyatda g`azablangan Chingizzon shaharga o`t qo`yishni buyuradi. Aksari sinchli imoratlardan iborat bo`lgan Buxoro bir necha kun davomida yonib tugaydi. Faqat tosh va pishiq g`ishtlardan qurilgan masjid va saroylargina bu kultepa ichida qora tosh kabi do`ppayib qoladi.

Istilochilar Buxorodan g`oyatda ko`p asir olib qaytadi. Asirlarning ko`pchiligi hunarmandlar bo`lib, mo`g`ullar ulardan turli xil hunarmandchilik buyumlari, jumladan, qurol-yarog`, asbob-uskunalar, zeb-ziynatlar yasab beradigan ishchi kuchi sifatida foydalandi. Asirlarning sog`lom va baquvvatlari Samarqand, Dabusiya va boshqa shaharlarni qamal qilishdagi og`ir ishlarni bajaradigan guruhlarga olindi. XIV asr muallifi Ibn al-Asirning yozishicha, asirlar otliq va qurollangan mo`g`ullar orqasidan piyoda yetib yurolmas, ko`plari yo`lda ochlik va sovuqdan o`lib ketar edilar.

Buxoroni vayron qilganidan keyin Chingizzon Samarqandga tomon yo`l oldi va 1220 yilning martida shaharga yaqinlashadi. Chingizzon Samarqandda jangni shiddatli bo`lishini bilib, Buxorodan haydab keltirgan asirlardan tashqari o`g`illari Chig`atoy va O`qtoylarning O`trordan olib kelgan bandilarini ham Samarqand qamaliga safarbar etadi. Samarqandliklarning shahar atrofi aholisi bilan bo`lgan aloqasini to`sib, ularni tashqi ko`makdan maxrum etish maqsadida avvalo u Samarqand tevarak-atrofida joylashgan qal`alarni zabit etadi. Chingizzon shahar tashqarisida joylashgan Ko`ksaroy qasridan turib shaharni qamal qilish ishiga boshchilik qiladi (*q. Samarqand mudofaasi*).

Mo`g`ullarning Samarqandni bosib olish uchun qilgan janglarida shahar aholisining ko`pgina qismi qirildi. 30 ming nafarga yaqin hunarmand ahli asirga olinadi. Qurol ko`tarishga imkon bo`lganlar mo`g`ul zulmi ostida askariy xizmatga majbur qilinadi.

Usta hunarmandlar uzoq Mo‘g`ulistonga haydab olib ketiladi. Natijada, aholisi zich, boy va ko‘rkam Samarqand bo‘shab qoladi. O‘sha vaqtarda Chingizxon xizmatida bo‘lgan Xitoy ruhoniysi Chan Chunning so‘ziga qaraganda, mo‘g`ullar bosqinidan so‘ng shaharda ilgarigi aholining chorak qismigina qolgan edi. Mamlakat sultoni Muhammad Xorazmshoh Amudaryo sohilida sultanat chodirini qurib, bunday musibatli voqealarga bamaylixotirlik bilan qaradi. Xorazmshoh o‘g`li Jaloliddin Manguberdi va boshqaning dushmanaga qarshi kurashni tashkil etish tadbirlari to‘g`risidagi oqilona maslahatlariga bepisandlik bilan qarab, chekina boshladi. U Subutoy va Jebe no‘yon boshchiligidagi 20 minglik mo‘g`ul qo‘sining ta‘qibidan zo‘rg`a qutulib, Tabariston (Mozandaron)ga qochadi. So‘ngra Kaspiy dengizining janubidagi orollaridan birida (Ashuro oroli) panoh topadi. Qo‘rquv va vahimadan o‘zini butunlay yo‘qotgan, xalq va mamlakat oldidagi burchi va ma`suliyatini tamomila unutgan Xorazmshoh sal vaqt o‘tmay orolda g`ariblikda zotiljam kasali bilan vafot etadi.

Bu davrda mo‘g`ullarning Jo‘ji boshliq askariy qismi Sirdaryo etaklarida bosqinchilik qilmoqda edi. Dastlab aholisi zich va boy savdo shahri Sig`noqqa hujum boshlanadi. Jo‘ji shaharni qarshiliksiz taslim bo‘lishini talab qilib Sig`noqqa elchi sifatida yuborgan Hasanhoji ismli savdogarni sig`noqliklar o‘ldiradilar. Bundan darg`azab bo‘lgan Jo‘ji shaharga hujum boshlaydi. Sig`noq aholisi 7 kun davomida shaharni qahramonona mudofaa qiladi. 8-kuni shahar mo‘g`ullarga taslim bo‘ladi. Bosqinchilar shaharni talab aholisini qatli om qiladi. Bu voqeadan so‘ng dahshatga tushgan O‘zgan shahri aholisi mo‘g`ullarga jangsiz taslim bo‘ladi. Ammo Barchinlig`kentni olishda mo‘g`ullar yana kuch ishlatadilar.

1220 yilning aprelda mo‘g`ullar Jandni qarshiliksiz egallab, uni talaydi. Aholisining qurollangan qismi qatl etilib, shahar vayron qilinadi. Bu vaqtida Oloq nuyon, Suketu cherbi va To‘g`ay kabi mo‘g`ul sarkardalari 5 ming kishilik qo‘sish bilan Sirdaryo bo‘yida joylashgan Binokat va Xo‘jand shahrilari ustiga yuradi. Binokat amiri Elatg`u (Iletgu) malik qang`li qabilasiga mansub askarlari bilan

shaharni 4 kungacha mudofaa qilib, so‘ngra taslim bo‘ladi. Shahar himoyachilari qilichdan o‘tkazilib, qolganlari qullikka mahkum etiladi.

Binokat zabit etilgach, navbat Xo‘jandga keladi. Asli nasabi turk bo‘lgan shahar hokimi Temur Malikning shaxsiy qahramonligi bilan xo‘jandliklar mo‘g‘ullarga kutilmagan qarshilikni ko‘rsatadilar (q. *Temur Malik*). Lekin dushman bilan kurashish foydasizligini ko‘rgach, Temur Malik bor oziq-ovqat va qurol-yarog‘larni 70 ta kemaga yuklatib, tunda daryoning quyi oqimi bo‘ylab suzib ketadi. Daryoning har 2 sohili bo‘ylab mo‘g‘ul otliqlari kemalarga o‘q otib va neft to‘ldirilib o‘t oldirilgan ko‘zachalarni irg‘itib ularni ta‘qib qilishgan. Mo‘g‘ullar Temur Malikning yo‘lini to‘sish maqsadida Binokat shahri yonida daryoning u sohilidan bu sohiliga tortgan zanjirlari samara bermaydi. Barchinlig‘kent yaqinida mo‘g‘ullar daryoni to‘sib qo‘yadilar. Xo‘jandliklar sarhang Ulus Idi boshliq mo‘g‘ullar bilan so‘nggi jangga kiradilar. Bu jangda Temur Malik qo‘smini va safdoshlaridan batamom ayrıldi. Faqat kichik bir guruh yigitlari bilan Gurganj (Hozirgi Ko‘hna Urganch) shahriga yetib keladi. Biroz vaqt o‘tgach, u Xorazmda to‘plangan qo‘sini va xalq lashkarlariga boshchilik qiladi. Jo‘jiga qarshi muvaffaqiyatli janglar qilib, hatto undan Sirdaryoning quyi oqimidagi *Yangikent shahrini* qaytarib ham oladi. 1220 yilning yozida Movarounnahr janubda shu vaqtgacha bosib olinmagan shaharlarni zabit etishga Chingizzonning shaxsan o‘zi kirishadi. Avval u *Nasaf* (Qarshi)ni jangsiz egallaydi. Yoz faslini u Naxshab viloyatida o‘tqazadi. O‘scha yilning kuzida u Termizga askar tortadi. Termiz noibi Faxruddin Habash shaharning mustahkam qal‘a devorlari va mudofaa inshootlariga ishonib Chingizzonga qattiq qarshilik ko‘rsatadi. Qamalning II-kuni mo‘g‘ullar shaharni olishga muvaffaq bo‘ladilar. Termiz shahri va aholisi ham mo‘g‘ullarga qarshilik ko‘rsatgan boshqa shaharlar fojiasini boshidan kechirdi.

Sirdaryo havzasi, Zarafshon va Qashqadaryo vohalari, Amudaryo o‘rtalari oqimining o‘ng sohili viloyatlari zabit etilgach, Chingizzon asosiy kuchni Xorazmshohlar davlatining markaziy qismi Xorazmga tashlaydi. Bu harbiy kuchni Chingizzonning o‘g‘illari Jo‘ji, Chig‘atoy va O‘qtoylar boshqaradi. Chingizzon

Xorazm davlatining poytaxti, Sharqning muhim iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri Gurganj ustiga yurishga katta ahamiyat beradi.

120 yilning boshlarida endigina Xorazm davlatining sulton deb e'lon qilingan Jaloliddin Manguberdi, garchi Xorazmning mudofaasiga jiddiy kirishsa-da, ammo unga qarshi sobiq Jand noibi qochqin Qutlug'xon boshliq qipchoq lashkarboshilar tomonidan uyushtirilgan fitna tufayli u Temur Malik bilan Xurosonga jo'nashga majbur bo'ladi. Chunki bunday vaziyatda yaqinlashib kelayotgan yovuz dushmanga qarshi poytaxt mudofaasini tashkil qilib bo'lmas edi. Shu sababli tez vaqt ichida shahzodalar O'zloqshoh va Oqshohlar ham Gurganjni tark etib, qochib ketadilar. Poytaxt taqdiri qo'rroq va amalparast amir Xumor tegin qo'lida qoladi. U o'zini sulton deb e'lon qilib, Gurganjni mo'g'ullardan himoya qilishga va'da qiladi. Xuddi shu asnoda shahar yaqiniga ko'pgina mo'g'ul kuchlari kelib to'planadi. Gurganjdek katta shaharni qamal qilish uchun Shimoldan Jo'ji, Buxoro tarafidan Chig'atoy va O'qtoy askarlari bostirib keladi. Dushman Gurganjni olish uchun barcha kuch va harbiy texnikasini ishga soladi. Shahar aholisi dushman hujumini mardonavor qaytarib turgan bir vaqtda xoin amir Xumor tegin Gurganj darvozasini ochib berib, o'zi qo'shini bilan mo'g'ullarga taslim bo'ladi. Bosqinchilar shahar darvozalaridan bostirib kiradilar. Mudofaachilar shaharning har bir qarich yerini mardona himoya qiladilar. Poytaxt ko'chalarida bo'lgan janglarda shayx Najmiddin Kubro 600 dan ziyod muridu izdoshlari bilan ishtirok etib, qahramonlarcha shahid bo'ladi.

Uzoq davom etgan ko'cha janglarida minglab mo'g'ul askarlari halok qilinadi. Mo'g'ullar to shu paytgacha Movarounnahrning hech bir shahrida bunchalik qurban bermagan edilar. Bu qonli kurash manbalarda qayd etilishicha, 7 oy davom etadi. Harbiy kuch va intizomda ustun bo'lgan mo'g'ullar nihoyat shaharni egallaydilar. Illojsizlikdan taslim bo'lgan Gurganj bosqinchilar tomonidan talon-toroj etiladi. Juvayniyning yozishicha, 100 ming nafar hunarmand asir olinib, qolganlari qirib tashlanadi. Dushman shaharning bosh to'g'onini buzib Gurganjni suvg'a bostiradi (yana *q.Urganch mudofaasi*).

### **3. Najmiddin Kubro jasorati. Jaloliddin Manguberdi - yurt himoyachisi.**

To‘liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad (1198-1231) - Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori (1220-1231), mohir sarkarda, Anushteginiylardan. Xorazmshohlardan Muhammadning katta o‘g‘li. Onasi - Oychechak turkman kanizaklardan bo‘lgan. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo‘lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o‘zgarib «Manguberdi» nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan. Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G`azna, Bomiyon, G`ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo‘lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan (1215). Biroq Turkon xotun va qipchoq amirlarining qatiy noroziligi sababli Qutbiddin O‘zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o‘zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan (*q. Irg‘iz daryosi bo‘yidagi jang*). Chingizzon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘sishlari Movarounnahrga bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida xorazmshoh Muhammad Kaspiy dengizi bo‘yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashur ada orolidan panoh topgan. Og‘ir bemor bo‘lgan Muhammad o‘g‘illarini yoniga chorlab, so‘nggi damda Jaloliddin Manguberdini o‘z o‘rniga xorazmshoh etib tayinlagan. Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin O‘zloqshohlari bilan birga Gurganj mudofaasiga oshiqadi. Lekin Gurganjdagi qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e‘lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi bo‘ldilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganjni tark etib Xurosonga yo‘l olgan. Niso shahri yaqinida uni 700 nafar mo‘g‘ul suvoriysi kutardi. Jaloliddin Manguberdi shiddatli jangdan so‘ng ularni tor-mor keltirib, Nishopurga keldi. Bu yerdan u barcha viloyat hokimlariga nomalar jo‘natib, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi birlashishga da‘vat etdi, bir oydan so‘ng G`azna tomon yurdi. Yo‘lda unga Hirot voliysi, qaynotasi Aminalmulk 10 ming kishilik qo‘sish bilan kelib qo‘sildi. Qandahorni qamal qilib turgan mo‘g‘ul qo‘sishlari

bilan 3 kunlik jangda Jaloliddin Manguberdi ularni tor-mor keltirgan. U G`azniga 1221 yil keldi. Bu yerda unga xalaj qabilasi boshlig`i Sayfuddin Ig`roq, Balx voliysi A`zam malik, afg`onlar sardori Muzaffar malik, qarluqlar boshlig`i Hasan Qarluq kelib qo`schildilar. Ularning har biri ixtiyorida 30 minglik qo`sishin bor edi. Jaloliddin Manguberdining o`zidagi kuchlar esa 60 ming suvoriy edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal`asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg`ur boshchiligidagi mo`g`ul qo`shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so`ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo`g`ul askari o`ldirilgan, omon qolgan qismi Panjshir daryosidan o`tib, ko`prikni buzib tashlashgan. Bu Jaloliddin Manguberdining mo`g`ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g`alabasi edi. Chingizzon Jaloliddin Manguberdiga qarshi shiki Xutuxu no`yonni 45 minglik qo`sish bilan jo`natadi. G`azna yaqinidagi Parvon jangida Jaloliddin Manguberdi mo`g`ullar ustidan ajoyib g`alabani qo`lga kiritadi. Biroq jangdan so`ng Jaloliddin Manguberdining lashkarboshilari o`lja ustida o`zaro janjallahib qolib, oqibatda Sayfuddin Ig`roq, A`zam malik va Muzaffar maliklar Jaloliddin Manguberdini tark etganlar. Jaloliddin Manguberdining yonida faqat Aminalmulk o`z lashkari bilan qolgan, xolos.

Chingizzon katta qo`sish to`plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o`zi otlangan. Fapdiz qal`asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizzon qo`schinining ilg`orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizzon qo`shani Jaloliddin Manguberdini daryodan o`tishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221 yil 25 noyabrda bo`lgan tengsiz jangda (*q. Sind daryosi bo`yidagi jang*) mag`lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan Sindning o`ng sohiliga suzib o`tib, cho`l ichkarisiga kirib ketdi (Bu cho`l hozirda ham Cho`li Jaloliy deb ataladi). Chingizzon Jaloliddin Manguberdining bu jasoratidan hayratda qolib, o`z o`g`illariga qarab: «Ota o`g`il mana shunday bo`lishi lozim!», degan. Oradan bir necha kun o`tgach, Jaloliddin Manguberdi qo`shani soni 7 mingga yetdi. Unga Kulbars bahodir, Kabkuh va Sa`diddin Ali ash-Sharabdor kabi lashkarboshilar o`z kishilari bilan kelib qo`sildi.

Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonning notanish cho'lida och, juldur kiyimli jangchilari bilan sargardonlikda qoldi. Uning bu holidan foydalanmoqchi bo'lgan Shatra viloyati raja (shoh)si Jaloliddin Manguberdiga hujum qilgan. Jaloliddin Manguberdining mernanlik bilan otgan kamon o'qidan raja halok bo'ladi, qo'shini esa parokanda bo'lib qochadi. Jaloliddin Manguberdi katta o'ljani qo'lga kiritadi. Bu g`alabadan so'ng Sind, Uchcha, Mo'lton, Lohur va Peshavor hokimi Nosiriddin Qubacha (1205—1227)ning Nandana va Sakundagi noibi Qamariddin Karmoniy Jaloliddin Manguberdiga o'zini xayrixohligini izhor etib, sovg'a-salomlar jo'natgan. G`iyosiddin Pirshohni ajralib ketgan amirlardan Sanjoqonxon, Elchi pahlavon, O'rxon, Soyircha, Tekjoruq Xonkishilar o'z lashkarlari bilan kelib Jaloliddin Manguberdiga qo'shildilar. Jaloliddin Manguberdi Kalor shahri, Parosravar, Tarnuj qal'alarini qo'lga kiritdi. Mulklarining katta qismidan ajralgan Qubacha 10 ming otliq qo'shini hamda mamluklar sulolasidan bo'lgan Dehli sultoni Shamsuddin Eltutmishdan olgan qo'shimcha kuch bilan Jaloliddin Manguberdiga qarshi jang qilgan, biroq mag'lubiyatga uchragan, uning xazinasи, qurol-yarog'lari o'lja tushgan. 1222 yil Chingizzon Jaloliddin Manguberdi izidan To'rbay To'qshin va Bola no'ytonni 20 minglik qo'shin bilan jo'natadi. Lekin ular Mo'ltonga qadar borib, shaharni ololmay, jazirama issiqqa dosh berolmay qaytishadi. Jaloliddin Manguberdi o'ziga qarshi mo'g'ul qo'shinlari jo'natilgani xabarini Parosravar qal'asini olgandan so'ng eshitgan. Jaloliddin Manguberdi Mo'lton tomon yo'l olib Qubacha mulklaridan Uchcha, Sadusan, Xatisor, Deval va Damrillarni qamal qiladi, qo'shini uchun tuyalar zarurligi tufayli Gujarat viloyati markazi Nahrvalga Xosxon boshchiligida qo'shin jo'natadi. Shamsuddin Eltutmish Jaloliddin Manguberdi ustiga katta qo'shin (30 ming otliq, 100 ming piyoda, 300 ta fil) tortadi. Jaloliddin Manguberdi mardonavorlik bilan raqibiga qarshi chiqadi. Jaloliddin Manguberdining O'zbek Toy Jahon Paxlavon qo'mondonligi ostidagi ilg'ori Eltutmish ilg'ori bilan to'qnashib raqibidan ustun keladi. Eltutmish Jaloliddin Manguberdi huzuriga elchisini yuborib sulh so'raydi.

Jaloliddin Manguberdi Hindistonda o‘z nomidan kumush va mis tangalar zarb qiladi, unga tobe hind mulklerida uning nomi xutbaga qo‘sib o‘qilgan. Biroq vaziyat borgan sari murakkablashib bormoqda edi. Eltutmish, Qubacha, shuningdek, Hindistonning boshqa viloyat hokimlari o‘zaro til biriktirib Jaloliddin Manguberdiga qarshi ittifoq tuzmoqchi ekanliklari ayon bo‘lib qoldi. Jaloliddin Manguberdining ikki lashkarboshisi Yazidak pahlavon va Sunqurjiq Toysilar hiyonat qilib Eltutmish tomoniga o‘tganlar. Qiyn vaziyatdan qutulish uchun Jaloliddin Manguberdi harbiy kengash chaqirgan. Amirlarning ko‘pchiligi Iroq tomon yurish qilib, uni G‘iyosiddin Pirshohdan tortib olishni taklif qiladi. Iroqda siyosiy parokandalik hukm surardi. Iroq tomon ketishga qaror qilindi. Jaloliddin Manguberdi o‘zining Hindistonda zabit etgan mulklariga O‘zbek Toy Jahon Pahlavonni, G‘ur va G‘azni viloyatlariga Hasan Qarluqni noib sifatida qoldirib, Iroqqa yo‘l olgan. Cho‘lu biyobonlarni kesib o‘tishda Jaloliddin Manguberdining ko‘p jangchilari nobud bo‘lgan, nihoyat u 4 ming jangchisi bilan Kirmonga yetib kelgan. G‘iyosiddin Pirshohning Kirmondagi noibi Baroq hojib Jaloliddin Manguberdiga tobekizhor qiladi. Shundan so‘ng Jaloliddin Manguberdi Fors viloyati markazi Sherozga kelgan. Fors hokimi otabek Sa‘d ibn Zangiy va Yazd hokimi otabek Alouddavla ibn To‘g‘onshoh unga tobek bildirishadi. Jaloliddin Manguberdi Isfahonga kelganda aholi uni katta tantana bilan kutib oladi, qo‘sini qurol-aslaha bilan ta‘minlanadi. Bu hol G‘iyosiddin Pirshohga yoqmaydi, u akasiga qarshi 30 ming otliq qo‘sish bilan yo‘lga chiqadi. Biroq Jaloliddin Manguberdi unga sovg‘a-salomlar bilan miroxo‘r Odekni elchi sifatida jo‘natgan va o‘zaro nizoni tinchlik bilan hal etgan. Qo‘sish boshliqlari Jaloliddin Manguberdi tomoniga o‘tgan. 1225 yil Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjonga yurish qiladi. So‘ng Bag‘dodga qarshi yurishga hozirlik ko‘radi. Xalifa Nosirga elchi jo‘natib, mo‘g‘ullarga qarshi birlashishga chaqirdi. Bunga javoban Xalifa Jaloliddin Manguberdiga qarshi o‘zining mamluki amir Jamoliddin Qushtemur boshliq 20 minglik qo‘sish jo‘natdi. Basra yaqinidagi jangda Xalifa qo‘sishlari tor-mor keltirildi. Xalifa Bag‘dod mudofaasi bilan mashg‘ul bo‘ladi. Jaloliddin

Manguberdi Bag`dod atrofida 12 kun turgach, Ozarbayjon tomon ketadi. Ozarbayjon va Arron otabegi O`zbek ichkilik, maishatga berilib davlat ishlarini o`z holiga tashlab qo`ygan edi, davlatni amalda uning xotini Malika xotun boshqarardi. 1225 yil mayda Jaloliddin Manguberdi Marog`a shahrini jangsiz qo`lga kiritadi. Damashq, Erbil hokimlari u bilan ittifoq tuzishga rozi bo`ladilar. Otabek O`zbek Tabrizni tashlab Ganjaga, so`ng Alinjo qal`asiga qochib o`sha yerda vafot etadi. Jaloliddin Manguberdi Malika xotunga uylanadi. Tabrizda bir necha kun turgandan so`ng o`z qo`shinini Gruziya tomon boshlaydi. 1225 yil avgustda Garni qal`asi yaqinida gurjilarning Ivane Mxargrdzeli boshliq 60 minglik qo`shinini tor-mor keltiradi va Tiflisga qarab yuradi. Gruziya malikasi Rusudana Kutaisiga ko`chib o`tgan. Jaloliddin Manguberdi Dvin, Lori shaharlarini egallaydi, Surmari shahri hokimlari o`z tobeliklarini bildirishgan.

1227 yil sentyabrda Isfahondan 30 chaqirim Sharqdagi Sin qishlog`i yaqinida Jaloliddin Manguberdi mo`g`ullarning Taynol no`yon boshliq qo`shinini yenggan. Taynol no`yon Jaloliddin Manguberdi haqida: «Zamonasining haqiqiy bahodiri ekan, o`z tengqurlarining capvari ekan», degan. Jaloliddin Manguberdining Ko`niya sulton Alouddin Kayqubod, Jazira hokimi al-Malik al-Ashraf Muzaffariddin Muso, Damashq hokimi al-Malik al-Muazzam Sharafiddin Iso va Misr hokimi al-Malik al-Komil Muhammadga nomalar yozib, ularni mo`g`ullarga qarshi kurashish yo`lida birlashtirish yo`lidagi hatti-harakatlari behuda ketdi. Ustiga ustak Alouddin Kayqubod muxolif kuchlarni Jaloliddin Manguberdiga qarshi birlashtirishga muvaffaq bo`ldi. 1230 yil 10 avgustda Arzinjon yaqinidagi jangda Jaloliddin Manguberdi kuchlari mag`lubiyatga uchradi. Jaloliddin Manguberdining kuchsizlanganidan foydalangan mo`g`ullar katta qo`shin bilan Ozarbayjonga bostirib kirib Marog`a, Tabrizni egallab (1231 yil) Jaloliddin Manguberdini ta`qib etishgan. Mayofariqin viloyatidagi qishloqlardan birida mo`g`ullar tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberdining oz sonli qo`shinini tor-mor keltiradilar, Jaloliddin Manguberdini o`zi esa ta`qibdan qutulib Kurdiston tog`lariga chiqib ketgan. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo`liga asir tushib,

fojiali ravishda halok bo‘lgan. Jaloliddin Manguberdi haqida uning shaxsiy kotibi, tarixchi Nasaviy shunday yozadi: «Jaloliddin qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning botirligiga kelganda shuni aytish kerakki, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so‘zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko‘ngil, to‘g’ri odam edi. U jiddiy shaxs edi. Hech qachon kulmasdi. Juda nari borsa, jilmayib qo‘yardi. Uadolatsizliklarni yomon ko‘rardi. Jaloliddin o‘ta qat’iyatlari, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi».

O‘zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberdining mo‘g’ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan mislsiz jasorati, vatanga va o‘z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashtirish maqsadida «Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida» qaror qabul qildi (1998 yil). Qarorga ko‘ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi, yirik ko‘cha, maydon, jamoa korxonalari va boshqalarga uning nomi qo‘yildi. Jaloliddin Manguberdi haqida videofilm, doston, p’yesa va bashqalar yaratilgan. «Jaloliddin Manguberdi» ordeni ta’sis etilgan (2000 yil 30 avgust)



**4. Mo‘g‘ul istilosini va zulmiga qarshi kurashning davom ettirilishi. O‘lkada mo‘g‘ullar hukmronligining o‘rnatilishi va uning oqibatlari. Chig’atoy ulusining tashkil topishi. Madaniy hayot.** Mo‘g‘ullar istilosini oqibatida Movarounnahr va Xorazmning iqtisodiy va madaniy hayotiga juda katta zarar etdi. Aholisining ko‘p qismi qirildi, hunarmand ahli qul qilindi. Gavjum va ko‘rkam shaharlar, ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Gurganj (Hozirgi Ko‘hna Urganch), Marv, Binokat, Xo‘jand va boshqa xarobazorga aylantirildi. Samarqand shahrini suv bilan ta‘minlab turuvchi yagona suv inshooti - Jo‘yi Arzis (Qo‘rg‘oshin novasi), Marv vohasi sug‘orish tarmoqlarining bosh to‘g‘oni - mashhur Sultonband buzib

tashlandi. Ko‘p shahar va qishloqlar suvsiz qolib, dala va bog‘lar dashtga aylandi. Gurganj esa suvgaga bostirilib, batamom vayron etildi. Xorazm va Movarounnahrning ziroatchi aholisi soni keskin kamayib, ekin maydonlari qisqargach, dehqonchilik tanazzulga uchradi. Bu davrda ilm va ma‘rifatga ham katta zarar yetdi.

Zabt etilgan o‘lka va viloyatlarni Chingizzon 1224 yilda o‘g‘illari va nabiralariga taqsimlab bergan. Irtish daryosi sohillaridan g‘arbga tomon Sirdaryoning quyysi oqimi va Xorazmnning Shimoli-g‘arbiy qismlari to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘jiga, Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahr uning 2-o‘g‘li Chig‘atoysa, uchinchi o‘g‘li O‘qtoysa G‘arbiy Mo‘g‘uliston va Tarbag‘atoy yerlari, kenja o‘g‘li va vorisi tuliga Mo‘g‘iliston, Xitoy va Qirg‘iziston yerlari meros qilib berilgan. Shunday qilib, mo‘g‘ullar bosib olingan viloyatlarni uluslarga taqsimlab boshqarishga kirishadi.

Chingizzon vafotidan so‘ng (1227) O‘qtoy mo‘g‘ullar davlatining ulug‘ xoqoni qilib tayinlanadi. Turkiy xalqlar urfiga ko‘ra, oliy hukmdor «qoon» yoki «xoqon» deb, uluslar hukmdorlari esa «xon» deb yuritilardi. Xoqon o‘z qarorgohi Qoraqurumda turib xonlarning xatti-harakatini qattiq nazorat qilib borar edi.

Mo‘g‘ullar hukmronligining dastlabki davridayoq mo‘g‘ul xonlari mahalliy mulkdorlar manfaatini ko‘zlab, ularni mehnatkash aholini ekspluatatsiya qilishni kuchaytirishlariga keng yo‘l ochib beradilar. Mahalliy aholi ikki tomonlama talana boshladi. Mo‘g‘ul xonlarining, shuningdek, mahalliy hokimlarning jabr-zulmi va beboshliklari haddan oshadi. Ular har yilgi shar‘iy soliq va o‘lponlardan tashqari aholidan yig‘ib olinadigan turli-tuman to‘lov, yig‘im va jarimalar sonini oshirib yuboradi. Dehqon, chorvador va hunarmandlar sug‘orish inshootlari, vayron bo‘lgan yo‘l va ko‘priklarni tuzatish, qo‘rg‘on va qal‘alarni ta‘mirlashga safarbar etiladilar. Dehqonlardan xazinaga olinadigan yer solig‘i (hosilning 1/10 qismi hajmida) **kalon** deb yuritilgan. 1235 yilda o‘tkazilgan qurultoyda chorvadan «**qubchur**» solig‘i (har yuz bosh chorvadan bir bosh) yig‘ishga qaror qilinadi. Mo‘g‘ullarning «Yosoq kitobi»da qayd etilishicha, davlat xazinasi uchun «**Shulen**» solig‘i ham (har bir podadan 2 yashar qo‘y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida) undirilgan.

Soliqlar mahalliy xonlar tomonidan **barot** (ijara) tartibida avvaldan to‘lanib, so‘ngra aholidan yig‘ib olish paytlarida ular shubhasiz belgilangan miqdordan oshirib undirilgan.

Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida shahar hunarmandlari ham nihoyatda og‘ir sharoitda yashardi. Ko‘pgina hunarlar zavolga uchradi. **Mo‘g‘ul hukmdorlari** o‘z qo‘sining ehtiyojlari uchun kerak bo‘lgan o‘q-yoy, qilich, sadoq (o‘qdon),sovut, dubulg‘a (temir qalpoq), jiba (temir kiyim) va boshqa harbiy anjomlar ishlab chiqariladigan **ustaxonalargagina homiylik** qiladilar.

Mo‘g‘ul xoqonlari o‘zlariga xizmat ko‘rsatgan kishilarga, ayrim katta yer egalari va savdogarlarga turli yorliq va payzalar (guvohnoma yoki ruxsatnoma) berdilar, mamlakat bo‘ylab savdo yo‘llarida joylashgan **bekat** — «yom»larning xizmati ham aholining bo‘yniga yuklangan edi. Davlat topshirig‘i bilan qatnaydigan son-sanoqsiz **elchilar, choparlar va xabarchilarga** bekatlarda yuzlab kishilar xizmat qilishi kerak edi. Aholi ularni **ot-ulov, oziq-ovqat, em-xashak va boshqa kerakli buyumlar** bilan ta`minlashga majbur bo‘lgan. 1235 yildan xoqonning maxsus farmoniga asosan, har bir yomdagisi **barid** (pochta) harakati va xizmati 2 tumanning aholisiga yuklanadi. Xullas, bu davrda xalqni g`ayriqonuniy talash uchun mo‘g‘ullarga va ularga xizmat qiluvchi ma`murlarga keng yo‘l ochilgan edi.

Zo‘rlik, jabr-zulmning nihoyatda kuchayishi, xilma-xil majburiy to‘lov va yig‘imlarning haddan tashqari ko‘pligi mehnatkash xalqning bosh ko‘tarishiga olib keldi. Shunday qo‘zg‘olonlardan eng kattasi Buxoro vohasidagi Torob qishlog‘ida ko‘tarilgan *Mahmud Torobi* qo‘zg‘oloni edi.

Ko‘chmanchi mo‘g‘ullar o‘troq aholidan iborat katta va madaniy viloyatlarni idora qilishda tajribaga ega emas edilar. Bunday viloyatlarni boshqara oladigan ma`murlar ham yo‘q edi. *Chingizzon va xonzodalar hamda mo‘g‘ul harbiy zodagonlari istilo qilingan mamlakatlardan asosan o‘lon undirib, muttasil daromad olib turish bilan cheklanganlar. Shuning uchun Chig‘atoy ham o‘ziga topshirilgan ulusni boshqarishda bo‘ysundirilgan madaniy xalqlarning zodagon tabaqa vakillari xizmatidan foydalandi.*

Movarounnahrni bevosita idora etish ishlari ilgari Chingizzon huzurida xizmat qilgan xorazmlik savdogar Mahmud Yalavochga beriladi. U Xo‘jand shahrini o‘ziga qarorgoh qilib, shu yerdan Movarounnahrni bir qancha vaqt Chingizzonning vorisi O‘qtoy qoon nomidan idora qiladi. Uning ixtiyorida bosqinchilarining tayanchi hisoblangan mo‘g’ul bosqoqlari (xonlar tomonidan yuborilgan mansabdarlar), dorug`alar (harbiy ma`mur va soliq yig`uvchilar) hamda anchagina mo‘g’ul askarlari bor edi. Chig`atoy o‘z tasarrufidagi viloyatlarda mo‘g’ul qonunlari yasoq (yoso, yosoq)ga qattiq rioya etishni talab qilardi. Bu Movarounnahrning musulmon aholisiga juda ko‘p qiyinchiliklar tug`dirdi va noroziliklarga sabab bo‘ldi.

1238 yilda Chig`atoy Maxmud Yalavochni amalidan chetlashtirib, Movarounnahrdan chiqarib yuboradi. Bunga Maxmud Yalavochning isyonkor viloyatlarda qo‘zg`oltonni bostirishdagi sustkashligi hamda aholiga rahm va shafqat qilib, ularga solinadigan soliqlarni kamaytirishi sabab bo‘lgan edi. Mahmud Yalavoch O‘qtoy huzuriga Qoraqurumga yetib borgach, u Dasin (Pekin) shahriga voliy (gubernator) qilib tayinlanadi. Munke qoon davrida Xorazmdan to Xitoy chegarasigacha bo‘lgan mamlakatlarga Mahmud Yalavochning o‘g`li Mas`udbek noib hamda ijador qilib tayinlanadi. Mas`udbek ham Movarounnahrda otasi boshlagan siyosatni davom ettirib, ulus daromadini xoqon xazinasiga avvaldan to‘lab, aholidan «barot» asosida uni ko‘paytirib yig`ib olardi.

XIII asr o‘rtalarida Movarounnahrdagi o‘troq hayot, boshqaruva tartiblari, ilg`or shahar madaniyati ta’sirida Chig`atoy ulusi mo‘g’ul zodagonlarining bir qismida o‘troq hayot kechirishga o‘tish, mahalliy aholining boy madaniyatidan foydalanishga moyillik kuchayadi. Ko‘chmanchi harbiy zodagonlarning katta qismi, xonzodalar va ayrim xoqonlar o‘troq hayotga mutlaqo qarshi bo‘lib, mamlakatni butunicha yaylovga aylantirib, shaharlarni yo‘qotish tarafdori edilar. Ularni ko‘proq o‘lkalarni qo‘lga kiritib boyliklarini talash, aholisini asirga olib haydab ketish qiziqtirar edi. O‘troq hayot kechirayotgan mahalliy zodagonlar, ruhoniylar va savdogarlarning asosiy qismi markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intilardi.

Chunki, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdodan olinadigan turli soliqlar davlat xazinasining daromad manbai edi. Buning uchun xonavayron bo‘lgan xo‘jalikni tiklab, ekinzorlarni poymol etishni to‘xtatish, soliq va hasharlarni tartibga solish zarur edi.

Mo‘g‘ulistonning ulug‘ xoqoni Munke va Chig‘atoy ulusining noibi Mas‘udbek shunday siyosat tarafdlari edi. Munke avval berilgan payza va yorliqlarni bekor qiladi, yomlar ishini, soliq va hasharlarni tartibga soladi. Munkening qonunlashtirilgan chora-tadbirlari cheklanmagan soliq va yig‘imlarni tartibga solib, o‘zboshimchalik bilan yig‘ib olinadigan hisobsiz to‘lovlardan aholini ozod etadi. Natijada shahar hunarmandchiligi, dehqonchilik, ichki va tashqi savdo jonlana boshlaydi. XIII asrning 80-yillarida Movarounnahr noibi Mas‘udbek pul islohoti o‘tkazadi. U Movarounnahrning 16 shahar va viloyatida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Taroz, O‘tror, Xo‘jand va boshqa shaharlarda bir xil vazn va yuqori qiymatlari sof kumush tangalar zarb ettirib muomalaga chiqargach, mamlakatda tovar va pul munosabatlari tiklana boshlaydi.

XIV asrning I-yarmida Chig‘atoy ulusida mo‘g‘ullarning o‘troqlikka o‘tish jarayoni tezlashib, ularning ijtimoiy hayotida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Movarounnahrdek madaniy o‘lka bilan mustahkam aloqa o‘rnatishga va o‘troq hayot kechirishga intilgan Chig‘atoy xonlaridan biri Kepakxon edi. U hokimiyatni bevosita o‘z qo‘liga oladi (1318-1326). Qashqadaryo vohasida qadimgi Nasaf shahridan ikki farsax narida u o‘ziga qarorgoh - saroy (qarshi) qudiradi.

Kepak ma‘muriy va pul islohotlari o‘tkazadi. Mamlakatni tumanlarga bo‘lib, ularni noiblar orqali idora etish tartibini joriy etadi. Kumushdan dinor (vazni 2 misqol) va dirham (uchdan bir misqol) tangalar zerb qilinadi. Natijada ichki savdosotiqtaribga solinadi, tashqi savdo munosabatlari ham yaxshilanadi. Chingizzon davridan xaroba holda yotgan Balx shahri qayta tiklanadi, mo‘g‘ullar asta-sekin o‘troqlashib dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlaydilar. Ularda turkiylashish jarayoni kuchayib, ayni vaqtda islom dinini qabul qila boshlaydilar. Mo‘g‘ul hukmdorlari va mulkdorlari o‘rtasida mo‘g‘ullarning o‘troqlashuviga ikki xil

munosabat yuzaga keldi. Yettisuvlik mo‘g`ullar ko‘chmanchilik an`analariga sodiq qolib, dehqonchilik vohalaridagi shaharlarni butunlay buzib tashlash tarafdori edi.

Natijada XIV asrning 40-yillarida Chig`atoy ulusi ikkiga bo‘linib ketadi. Uning Sharqiy qismida - Sharqiy Turkiston va Yettisuvda qolgan turkiy va mo‘g`ul qabilalari o‘zlarini mo‘g`ullar, mamlakatni esa Mo‘g`uliston deb atay boshladilar. G`arbiy qismida esa Movarounnahr amirligi tashkil topadi. Movarounnahrga ko‘chib ketgan qabilalar esa chig`atoylar nomi bilan mashhur bo‘ldi.

Movarounnahr aholisining iqtisodiy hayoti jonlana boshladi. Mo‘g`ullar istilosi davrida xarob bo‘lgan shaharlar, xususan hunarmandchilik, savdo-sotiq va dehqonchilik asta-sekin tiklana bordi. Yirik shaharlardan Urganch va Buxoro qayta qurildi, qadimgi Samarqand vayronalari yonida esa yangidan shahar qad ko‘tardi. Shahar bozorlari gavjumlashadi. Ammo shaharsozlik taraqqiyoti hali Chingizzon istilosi arafasidagi darajagacha yetmagan edi.

Mamlakatdagi unumdor yerlarning asosiy qismi davlat va uning ma`murlari, harbiy oqsuyaklar va ruhoniylar qo‘lida edi. Yer va suvdan foydalanishda, avvalgidek, iqtodorlik davom qilar edi. Kam yerli va yersiz dehqonlar og`ir shartlar asosida yirik yerdorlarning mulklarida koranda bo‘lib ishlashga majbur edi. Mo‘g`ullar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xorazmda yerga egalikning 4 xili mavjud edi: I) mulki devon - davlat yerlari; 2) mulki inju - xon noiblari va ularning avlodlari tasarrufidagi yerlar; 3) mulki vaqf - masjid, madrasa, xonaqoh, mozor va maqbaralar ixtiyoriga o‘tkazilgan yerlar; 4) mulklar — xususiy yerlar. Mulklarning kattagina qismi harbiy zodagonlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun hadya qilingan yerlar bo‘lib, ular arabcha «iqto`» yoki mo‘g`ulcha «suyurg`ol» yerlari deb yuritiladi. Iqtodor yoki suyurg`ol egalari barcha soliq va to‘lovlardan ozod etilgan. Iqto va suyurg`ol yerlari avloddan-avlodga meros tariqasida o‘tardi.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr bosqlarida shahar va qishloqlarda xo‘jalik hayotining jonlanishi bilan, mo‘g`ullar istilosi davrida inqirozga yuz tutgan fan, adabiyot, ma`rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshladi. Bu

davrda, birinchi navbatda, shaharsozlik bilan bog'liq bo'lgan binokorlik va me'morchilik yo'lga qo'yiladi.

Movarounnahr va Xorazmda bu davrga kelib, shahar vayronalari orasida mahobatli imorat-u inshootlar (masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara, minora va saroylar) qad ko'taradi. O'sha asrlarda bino qilingan ko'pgina moddiy madaniyat obidalaridan ayrimlari bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Buxoro shahridagi Sayfiddin Boharziy maqbarasi va Bayonqulixon maqbarasi, Samarqanddagi mashhur Shohizinda me'moriy ansamblining asosiy qismi bo'lgan Qusam ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi, Ko'hna Urganchdagi Najmuddin Kubro maqbarasi va To'rabeckxonim maqbarasi shular jumlasidandir. Shuningdek, bu davrda maqbaralar bilan birga masjid, madrasa va saroylar ham quriladi. XIII asr o'rtalarida Buxoroda «Mas'udiya» va «Xoniya» madrasalari bino qilingan. Ularning har birida mingtagacha tolibi ilm ahli tahsil ko'rgan. Ko'hna Urganchda qurilgan qo'sh minorali masjidning bir minorasi saqlanib qolgan (balandligi 62 m).

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida fan va adabiyot, asosan, mo'g'ullar hukmronligi o'rnatilmagan mamlakatlar - Kichik Osiyo (Rum), Janubiy Eron va Hindistonda taraqqiy qiladi. Faqat XIV asr oxiri va XV asr boshlariga kelgandagina adabiy muhit markazlari Movarounnahr va Xurosonga ko'chadi.

XIII asrning ikkinchi yarmidan ayniqsa tarixnavislik taraqqiy qiladi. Bu davrda *Juzjoniyning* yirik asari «Tabaqoti Nosiriy», *Juvayniyning* «Tarixi Jahongushoy» («Jahon fotihi (Chingizzon) tarixi»), *Rashiduddin Fazlullohning* «Jome at-tavorix» («Tarixlar to'plami») kabi qimmatli tarixiy asarlari yoziladi. Bu asarlar o'sha davr tarixi, ayniqsa mo'g'ullar istibdodini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

- I. Xorazmshohlar sultanatining mo'g'ul davlati bilan munosabati qanday edi?
2. Xorazmshohlar davlatidagi ichki ziddiyatlarni kuchayib borishi qanday oqibatlarga olib keldi?

3.Chingizxon boshchiligidagi mo‘g`ullarning Movarounnahrni istilo qilishi haqida so‘zlab bering.

4. Xorazmshohlar davlatining inqirozi sabablari nimada?

5.Jaloliddin Manguberdi jasorati haqida gapirib bering.

6.Mo‘g`ullar istibdodidan qaysi shaharlar ko‘proq zarar ko‘rdi?

7.Mahmud Torobiy qo‘zg`oloni qachon va qanday boshlandi?

8.Mahmud Torobiy qo‘zg`oloning ahamiyati nimada bo‘ldi?

9.Chig`atoy ulusining vujudga kelishi va boshqaruvi haqida ma`lumot bering.

10.Chig`atoy ulusida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot qanday bo‘lgan?

### **Adabiyotlar ro`yxati**

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag’ishlangan nutq. 1999 yil 5 noyabr. - T., O’zbekiston, 8-jild.
3. Saidov Sh. Sulton Jaloliddin Manguberdi davlati va jangovor harakatlar xaritasi. – T.: 2000.
4. Shahobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdining hayot faoliyati. – T.: 1999.
5. Mo’mnov I. Amir Temurning O’rta Osiyo tarixida tutgan o’rni va roli. - T.: Fan, 1993.
6. Sagdullayev A.S. va boshq. O’zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.
7. Eshov B. O’zbekiston davlatchiligi tarixi. O’quv qo’llanma. – T.: Ma’rifat. 2009.
8. O’zbekiston tarixi. R.H.Murttazayevanining umumiyligi tahriri ostida. - T.: Yangi asr avlod, 2005.

## **8-MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGI. TEMUR TUZUKLARI VA HOZIRGI ZAMON**

### **Reja:**

1. XIV asr o‘rtalarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temur Movarounnahr siyosiy kurash maydonida. Amir Temurning Amir Husayn bilan ittifoqi.
2. Sohibqiron Amir Temur hokimiyatining o‘rnatalishi. Amir Temurning mamlakatni birlashtirish va markazlashgan kuchli davlat tuzishdagi tarixiy xizmati.
3. Amir Temurning harbiy yurishlari. Eron va Kavkazorti o‘lkalarining zabt etilishi. To‘xtamishning tor-mor etilishi.
4. Amir Temur vafotidan keyin temuriy shahzodalar o‘rtasida toju-taxt uchun ichki kurashlar. Markazlashgan davlatning parchalanishi.
5. Movarounnahrda Mirzo Ulug‘bek hukmronligi. Ichki va tashqi siyosat. Mirzo Ulug‘bek davrida madaniyat, ilm-fan va adabiyot ravnaqi.

**Tayanch tushunchalar:** Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, islom dini ta‘sirining kuchayishi, yerga egalik, soliq siyosati, Temur davlati, harbiy yurishlar, Temur davri madaniyati. Tuzukotning mamlakatni odil idora qilishdagi ahamiyati, «Kuch adolatdadir», Temur tuzuklarining xorijiy tillarga tarjima qilinishi, A.Temur faoliyatida diyonat,adolat va siyosatning mushtarakligi.

**I. XIV asr o‘rtalarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temur Movarounnahr siyosiy kurash maydonida. Amir Temurning Amir Husayn bilan ittifoqi.** Mo‘g‘ullar istilosi O‘rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va ijtimoiy hayoti va madaniyatiga katta talofat yetkazdi, ko‘p obod joylarni vayronaga aylantirib, minglab kishilarni qirib tashladi. Lekin istilochilar O‘rta Osiyo xalqlarining ozodlik kurashini, ularning xo‘jalik va madaniyatda erishgan tajriba va an‘analarini yemirib tashlay olmadilar. Shu bois, XIV asrning 50 yillariga kelib Chigatoy ulusiga qarashli bo‘lgan Movarounnahr mayda feodal davlatlarga b’ilingan bo‘lib, Shahrisabz ( Kesh )da Xoji Barlos, Xo‘jandda jaloyirlar hukmdori Boyazid,

Balxning bir qismida Qozog‘onining nabirasi Amir Husayn, ikkinchi qismida Uljabuga Suluz, Badaxshonda - Badaxshon shohlari va boshqa viloyatlar hokimlari o‘rtasida tinimsiz urush - janjallar davom etib kelardi. Shunday qilib, bir tomondan mo‘g‘ullarning istilosi, ikkinchi tomondan feodallarning o‘zaro urushlari mamlakat va xalq boshiga katta kulfatlarni soldi. Bu davrda feodal o‘zaro urushlariga aralashib, jahonda qobiliyati va uddaburonligi bilan elga tanilgan Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir Movaraunnahr hayotida ko‘rina boshladi.

Amir Temur qanday shaxs edi?

Temur to‘g‘risidagi shov-shuvlar, haqiqat va afsonalar asrlardan asrlarga o‘tib, bizning kunlargacha yetib kelgan. Sovet tarixshunoslik ilmida uning serqirra, qarama-qarshiliklarga boy faoliyatiga faqat bir tomonlama baho berildi. Oqibatda ko‘pchilik ongida Amir Temur faqatgina "qonxo‘r", "bosqinchi", "zolim" shoh bo‘lgan, uning tariximizda hech bir xizmati yo‘q degan noto‘g‘ri tushuncha paydo bo‘ldi. Temur o‘rta asrning yirik shaxslaridan biridir. Shuning uchun ham uning shaxsiga bo‘lgan qiziqish hozirgi kunda qadar juda katta ahamiyatga ega. Amir Temur 1336 yilda Shahrisabz yaqinida Xo‘jailg‘or qishlog‘ida tug‘ildi.

Amir Temurning bolaligi va yoshligi to‘g‘risida rasmiy ma‘lumotlar yo‘q. Ammo ayrim manbalarda ba‘zi tafsilotlar keltirilgan. Temur bolaligidanoq aqlufarosati va jasurligi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. Unda yoshligidanoq tengqurlarini uysushtirish va orqasidan ergashtirish, qaltis vaziyatlarda aqliy tadbirlar topish kabi noyob qobiliyat namoyon bo‘lgan. Temur harbiy mashg‘ulotlarning sirlarini egallahga ko‘proq e‘tibor bergan. Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temur Movarounnahrning zaiflashganidan foydalanib 1360 -1361 yillarda hech qayerga qarshilikka uchramasdan Qashqadaryoga qadar kelib qolgan vaqtida, Kesh hokimi Xoji-Barlos Xurosonga qochib ketadi, Temur esa Tug‘luq Temurga xizmatga kiradi va 25 yoshga kichik, ammo juda boy viloyat ya‘ni, Shahrisabz hokimiga aylanadi. Tug‘luq Temurga xizmatga kirishga maqsadini Amir Temur jahon "Temur tuzuklarida" quyidagicha bayon etadi:" ...Movarounnahr viloyatini qatlu-barotdan qutqarib qolishga qaror qildim" (Temur tuzuklari 18 bet). Biroq Temur Mo‘g‘uliston

xoniga uzoq vaqt xizmat qilmadi. Tug‘luq Temur hokimiyatni o‘g‘li Ilyosxo‘jaga topshirib, Amir Temurga esa sipoxsolar (bosh qo‘mondon) lavozimini taklif etgandan so‘ng , u Ilyosxo‘jaga xizmat qilishdan bosh tortib, boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnata boshladi. Ularning ichida Balx hukmdori Amir Husayn bor edi. Amir Husayn Chigatoy ulusining o‘ldirilgan amiri Qozog‘onning nabirasi bo‘lib Movarounnahrga asosiy da‘vogarlardan biri sanalardi. "Zafarnoma"da ta‘kidlanishicha Temur va Husayn dastlab "do‘st tutunishga", g‘animlarga qarshi birgalikda kurashishga, bir-biriga hech qachon xiyonat qilmaslikka Qur’onni o‘rtaga qo‘yib qasam ichishadi. Temur Husaynning singlisi Uljoy Turkan xotinga uylanib, ittifoqni qarindoshlik rishtalari bilan mustahkamladi. Temur Husayn bilan birga turkmanlar ustiga va Seyistonga bosqinchilik yurishlari qiladi. Seyistonda Temur o‘ng qo‘li va o‘ng oyog‘idan yaralanadi va natijada oyog‘i deyarli qurib qoladi va bir umr oqsoqlanadi, Shu sababli ham Temurlang, ya‘ni oqsoq Temur (Yevropada-Temurlang) degan laqab oladi. Tug‘luq Temur vafot etgandan so‘ng Movaraunnahrdan haydalgan Ilyosxo‘ja 1365 yilda qayta qo‘shin bilan Movaraunnahga yurish qiladi. Husayn bilan Temur qo‘shin tayyorlab, uni Chinoz va Toshkent yaqinida kutib olib jang qiladilar. Tarixga bu jang "Jangi loy" nomi bilan kirgan, chunki kuchli jala qo‘yib, otlar loyda toyib keta boshlagan, oqibatda bu jang Temur va Husaynning mag‘lubiyati bilan tugallandi va ular avval Samarqandga, keyin Balxga chekinishdi. Ilyosxo‘ja esa, g‘alabasini mustahkamlash uchun Samarqand sari yurdi. Biroq o‘sha davrda Samarqandda sarbadorlar hukmronlik qildi.


Ma‘lumki, sarbadorlar harakati XIV asrning 30- yillarida Xurosonda ijtimoiy harakat sifatida boshlandi va mo‘g‘ullarning bosqinchilik siyosatiga va ularning tartiblariga qarshi qaratilgan edi. "Sarbador" so‘zi "boshi dorda" degan ma‘noni bildiradi. Sarbadorlar "agar g‘alaba qozonsak, xalqning mo‘g‘ul zulmidan ozod qilgan bo‘lamiz, bordi-yu g‘alabaga erisha olmasak, unda dorga osilish uchun tayyormiz, negaki azob- uqubatlarga ortiq bardosh berish mumkin emas" der edilar. Bu harakat Samarqandga 1360 yilda kirib keldi. Unda hunarmandlar, do‘kondorlar

va o‘zlarini g‘ozilar deb atagan ayrim madrasa muallimlari faol qatnashdilar. Ilyosxo‘ja qo‘sishinlarining yaqishlashib kelayotganini eshitib harakat yo‘lboshchilari- Samarqand madrasasining talabasi Mavlonazoda, sobiq paxta savalovchi Abu Bakr Kalaviy, kamonbop Xo‘rdaki Buxoriylar jome masjidiga to‘plangan 10 mingga yaqin aholiga murojaat qilib islom va xalqni mo‘g‘ullardan himoya qilishga da‘vat etishdi. Ko‘rilgan tayyorgarlikdan so‘ng, shahar aholisi Ilyosxo‘jaga zarba beradi va mo‘g‘ullar Mo‘g‘ulistonga qaytib ketishga majbur bo‘ladilar. Bundan xabar topgan Husayn bilan Temur Samarqand sari yo‘lga chiqdilar va hiyla bilan lagerlariga sarbadorlar rahbarlarini chaqirib olib, qatl qildilar. Biroq, bizgacha yetib kelgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Temur Mavlonzodani o‘limdan saqlab qolgan, bunga Husayn bilan o‘rtalaridagi ixtiloflar sababchi yoki Temur Mavlonzoda bilan aloqada bo‘lgan, degan taxminlar bor. Shu davrdan Temurning g‘arazgo‘y, g‘oyat xasis Amir Husaynga qarshi kurashi boshlanadi. Temurning xotini Uljoy Turkon og‘a (Husaynning singlisi) vafot etgandan so‘ng va natijada qarindoshlik aloqalari uzilganidan keyin Temur tez orada g‘alaba qozonadi. Amir Husayn esa Xuttalon-Jilen hokimi Qayxusrav tomonidan o‘ldiriladi.

**2. Sohibqiron Amir Temur hokimiyatining o‘rnatalishi. Samarqand – Amir Temur davlatining poytaxti. Amir Temurning mamlakatni birlashtirish va markazlashgan kuchli davlat tuzishdagi tarixiy xizmati.** 1370 yilga kelib, Temur Movarounnahr va Xurosonning yagona hokimiga aylandi. Qo‘sish sarkardalarining qurultoyi Temurni Movarounnahrning yagona hukmdori deb e‘lon qiladi. Shu davrdan boshlab Amir Temur Ko‘ragoniy unvonini oladi. "Ko‘ragon" so‘zi - xon kuyovi degan ma‘noni anglatadi, o‘sha davrda Chingizzon nasl-nasabi bilan yaqinlik qilish hokimiyatga egalik qilgan amirlar uchun afzal hisoblanardi. 1370 yilda Balxda Amir Husaynni yengib, uning beva xotini - Saroy Mulkxonimga, Qozonxonning qiziga uylanadi. Temur faoliyatining birinchi davrida, ya‘ni 1360-1386 yillarda, Movarounnahrda mo‘g‘ul xonligidan mustaqil kuchli markazlashgan davlat tuzish yo‘lida kurashadi. Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo‘lgan turk va tojik zodagonlari bilan birgalikda o‘zboshimcha feodallarga,

markazlashish va birlashishga zid harakatlarga, mamlakatning parchalangan holatda saqlashga intiluvchilarga, o‘zaro urushlarga undovchilarga qarshi kurash olib bordi. Qisqa muddat ichida Temur Amudaryoning va Sirdaryo oralig‘idagi yerlarni, Farg‘ona va Shoshni o‘ziga bo‘ysundirib birlashtiradi. 1372-1388 yillar orasida Xorazmni to‘la bo‘ysundirish uchun 5 marta yurish qiladi, va 1388 yilga kelib Xorazm yerlarini tarkibiga qo’shib oladi. Temur XIV asrning 80 yillari o‘rtalariga kelib, mamlakatida butunlay osoyishtalik o‘rnatadi. Amalda hukmron bo‘lsa ham, Temur davrida davlat tepasida Chingizzon avlodidan bo‘lgan Suyurg‘otmis (1730-1380 yy) va Sulton Mahmudxon (1380-I402 yy) rasman turishgan edi. Temur vafotidan so‘ng esa, u tartib bekor qilindi va oliy hukmdorlar o‘zini podsho deb e‘lon qildilar. Biroq Temur hayotligida ham bu imperiya tom ma‘noda markazlashgan davlat emas edi va to‘rt ulusga bo‘lingan: Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seyiston (markazi Xirot shahri) Shohruxga: G’arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, ya‘ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga; Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston (markazi dastlab G’azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg‘ol qilib berilgan edi. "Suyurg‘ol" temuriylar davrida feodal yer in‘om qilishning keng tarqalgan turi edi va shahzoda hamda amirlarga toju-taxt oldida ko‘rsatgan katta xizmatlari uchun shartli tarzda in‘om qilingan yer, suv va uni idora qilish huquqi edi. Temuriylar davrida "tarxon" ham keng tarqalgan edi. "Troxon" deganda yer, mulk yoki birorta shaxs qo‘lidagi davlat xazinasi foydasiga to‘laydigan soliq, yig‘inlaridan va majburiyatlaridan ozod qilinishi tushuniladi. "Suyurg‘ol" odatda abadiy foydalanish uchun berilsa, "tarxon" vaqtinchalik berilgan in‘om edi. Temur davridayoq uluslar, garchi markaziy hukumatga itoat etsalar-da, ma‘lum mustaqillikka ega edilar. Ulus hukmdorlarining davlat apparati, mustaqil qo‘shini bo‘lib, ularning markaziy hukumatga tobelligi xirojning (daromad solig‘i) bir qismini Samarcandga yuborib turishdan iborat edi. Viloyat va tumanlarda hokimiyat markaziy hukumat tarafidan tayinlangan dorug‘alar qo‘lida edi. Davlat ishlari asosan uch muassasa (devon) qo‘lida bo‘lgan: devoni oliy (markaziy ijroiya organi), devoni mol (moliya ishlari mahkamasi) va

devoni tavochi (harbiy ishlar mahkamasi). Din, shariat bilan bog‘liq ishlar qozi va shayx-ul-islom qo‘lida edi. Temur jahon "Tuzuklari"da bergen ma‘lumotlarga ko‘ra davlatni yetti nafar vazir: 1) mamlakat va raiyat ishlari bo‘yicha vazir (bosh vazir); 2) vaziri sipox, ya‘ni harbiy ishlar bo‘yicha vazir; 3) egasiz qolgan mol-mulkarni tasarruf etish ishlari vaziri; 4) sultanatning kirim chiqim ishlarini boshqaruvchi vazir, ya‘ni moliya ishlari vaziri; 5,6,7) sarhad (chevara) viloyatlarining ishlarini nazorat etib turuvchi vazirlar boshqargan. Yetti vazirning barchasi devonbegiga bo‘ysung an. Markaziy hokimyat organ idoralarida kabi, ulus hokimlari devonlarida kabi, vazirlardan boshqa turli tabaqadagi amaldorlar bo‘lgan. Masalan, shayx-ul-islom, qozi al-kuzot (oliy sudya), sadri a‘zam (vaqf yerlari mutasaddiysi), arzbegi (shikoyatlar ko‘rib chiquvchi), muxassil (soliq yig‘uvchi), yasovul (hukmdorning shaxsiy buyruqlarini bajaruvchi) va boshqalar. Temur vaqt- vaqt bilan so‘roqpurush, reviziya va tekshirish-taftish, tergov qilish-tahqiq o‘tkazib turgan. Uning sultanatida mansabini suiste‘mol qilish, o‘g‘ri-talonchilik, rishvat (pora) xo‘rlik, ichkilikbozlik, maishiy buzuqlik, og‘ir gunoh, hisoblanib, bu ish bilan mashg‘ul bo‘lganlar qattiq jazolangan. Xususan Yazdiyning yozishicha, Temur hatto nojuya harakat qilgani uchun farzandi Mironshoh, hamda nevarasi Amirzoda Pirmuhammadlarni ham xalq oldida tegishli jazoga tortgan edi. Zamondosh tarixchilarini e‘tirof etishicha, Temurning eng harakterli xususiyatlari-davlat, mamlakat, fuqaroning g‘amxo‘ri ekanligi davlat ishlarini og‘ishmay, qattiylik bilan boshqargan. Amir Temur islomni targ‘ib qilish, uning rolini siyosatining axloqiy-mafkuraviy omili sifatida kuchaytirishga alohida e‘tibor berdi. Sohibqiron davrida islam dinining haqiqiy homiysi ekanini amalda to‘liq namoyish etdi. Barcha ruhoniylar bu davrda daxlsiz hisoblangan. Temur vaqf axkomini joriy etdi. Uning daromadlari hisobidan madrasa, masjid, xonaqohlarni mablag‘ bilan ta‘min etdi. Diniy masalalar, xususan islomiy marosimlar, urf-odatlar va shariat qonunlarining bajarilishi ustidan mansablar joriy etdi. Ular



mutavalliy, muftiy, qozikalon, muxtashiy nomlar bilan atalardi. Ma'lumki, Amir Temur hayotida uchta piri bo'lgan. Ulardan Said Baraka uning uchun alohida e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan pir hisoblangan. Said Baraka Temur "qilich bilan nimaniki qo'lga kiritgan bo'lsa, shulardan toat-ibodat, hamda fatvolar berib duoguylik bilan mustahkamlab berishga harakat qiladi.". Shunday qilib, Amir Temur reja va maqsadlarini amalga oshirishda mulkdor zodagonlarga, harbiy kishilarga va xalqqa ta'sir eta olayotgan ruhoniylarga tayangan. Temur hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Yangi sug'orish kanallar qazilishi va ayrim eskilarining tiklanishi, ekin maydonlarining kengayishiga olib keldi. G'alla, paxta va boshqa an'anaviy qishloq xo'jalik ekinlari bilan bir qatorda yangi zig'ir, poliz ekinlari (masalan, qovunning "Miri Temur" navi), xurmo ekila boshlagan. Temur farmoniga ko'ra ekinzorlar yaqiniga o'tov o'rnatish qo'shni rahbarlariga taqiqlangan. Uning farmoniga ko'ra yangi qishloqlar vujudga keldi, ayniqsa, Samarqand atrofida, bu esa dehqon aholisining farovonlashuviga, eng muhimi-qishloq va shahar aholisining o'zaro kengayishiga, dehqonlarning mahsulotlari bilan shaharliklarning hunarmandchilik buyumlari ayrboshlashga yordam berdi. Hunarmandchilikning qadimgi tarmoqlari-to'quvchilik va tikuvchilik yanada rivojlandi, qurol aslahanining xilma-xil turlari, zargarlik, qog'oz ishlab chiqarish jadal taraqqiy etdi. Temur va temuriylar davrida yer-suv, hunarmandchilik korxonalarining katta qismi podsho xonadoni va feoodallar qo'lida bo'lib, mehnatkash xalq yerni ijaraga olib, bir qator soliq va jarimalar to'lashga, turli-tuman yumushlarni bajarishga majbur edi. Ular ichida "xiroj"- hosilning 0,4 ulushi, "avorizot"- urushlar davrida olinadigan soliq," jon solig'i"- nomusulmonlardan olinadigan soliq, "dorugash", "mirobona", "zakot", "boshtamg'a", "peshkali", "sovvari" va boshqalar. "Begar" deb ataladigan hashar o'sha davrning juda og'ir majburiyati hisoblanardi. Shahar devorlari, saroylar, maschit va madrasalar, yo'llar va ko'priklar, qal'alar va boshqa davlat ahamiyaitiga ega bo'lgan boshqa binolar qurishga va shunga o'xshash ishlarga dehqon aholisini zo'rlab junatganlar. Shu bilan birga, Temur davlatida dehqonlarning fidoiyligi e'tiborga olingan. Masalan: biror

shaxs o‘zlashtirilmagan yerni ishlab yaroqli holga keltirsa, ekin eksa, bir yil soliqdan ozod etilgan, ikkinchi yilni xoxishga qarab xoxlasa to‘lagan, uchinchi yili umumiyligida soliq qonuniga bo‘ysungan. Ba‘zi vaqtarda alohida tumanlar aholisi vaqtinchalik soliqlardan ozod e tilgan. Bunday yengillik berilishi qishloq xo‘jaligini barqaror ravishda rivojlanishiga yordam berdi. Bu davrning soliq siyosatining ijobiy tomoni shunda ediki, joriy etilgan qonunlarga qat‘iy rioya qilingan, hukmdorlarning o‘zboshimchaliklariga yo‘l qo‘yilmagan. Temur hukmronligi davrida ichki va tashqi savdoning kengaytirishga katta e‘tibor berildi, Samarqand va boshqa shaharlarda savdo rastalari, bozorlar va yo‘llarni obodonlashtirish tadbirlari ko‘rildi, karvon yo‘llarida yangi karvonsaroylar qurildi, Sharqdagi va g‘arbdagi mamlakatlar bilan tijorat iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga harakat qilindi. Temur boshqa hukmdorlardan farq qilib davlatni boshqarishda kengash, maslahat ya‘ni qurultoylar o‘tkazib turardi. Sharofiddin Ali Yazdiy ma‘lumotiga ko‘ra, bu qurultoylarda mamlakat va davlatning xo‘jalik sohasidagi hamda harbiy ahvol haqidagi eng muhim masalalari muhokama etilar, mamlakat va davlat uchun zaruriy hisoblangan ishlarni bajarishda birlashib harakat qilishga qaratilgan, qarorlar qabul qilinari, tadbirlar belgilanar edi.

Temur buyuk imperiya barpo etar ekan, u haqiqiy yurt egasi sifatida jamiki moddiy boyliklarni, hunarmandlar, san‘atkorlar, me‘morlar, olimlarni Movarounnahrga olib kelardi va bu yerdagi ichki resurslarni ham ishlatib shahar va qishloqlarni obodonchiligi hamda aholining osoyishtaligi uchun sarfladi. Bunga Samarqand, Buxoro, Xirot, Toshkent, Shahrisabz, Turkiston va boshqa ko‘plab shaharlar, ulardagi hashamatli imoratlar tarixiy guvohdirlar.

**3. Amir Temurning harbiy yurishlari. Eron va Kavkazorti o‘lkalarining zabt etilishi. To‘xtamishning tor-mor etilishi.** Amir Temur faoliyatining ikkinchi davrida (1386-I402 yy) harbiy harakatlarni, urushlarni Movarounnahr va Xursondan tashqarida olib bordi. Temur ko‘p jang qilgan, lekin ulardan " uch yillik", " besh yillik", va " yetti yillik" harbiy yurishlarni ayniqsa, mashhur bo‘lgan. Harbiy tarix Amir Temurni o‘rtasralar tarixidagi eng yirik lashkarboshlaridan biri bo‘lgan kuragi

yerga tegmagan sarkarda deb tan oladi. Inqilobga qadar Frantsiya va Rossiya harbiy akademiyalarga uning harbiy san'ati maxsus dars sifatida o'qitilib kelingan. Uning qo'shini o'z davrida eng qudartli hisoblangan edi. Temur har bir jang rejasini barcha qismlar uchun taktik yo'l yo'riqlarni o'zi ishlab chiqardi. Temur o'rdasi jamiyatning harbiy - feodal shakli edi. Armiya amalda ijtimoiy qobiq bo'lib, uning ichida feodal munosabatlar o'sib yetilardi. Imperiya tumanlarga bo'linib, har bir tuman o'n ming sipoh yetkazib beradigan hududni bildirar edi. Buyuk imperiyasini tuzishda Temur jahon jasur qo'shiniga tayangan edi. Bu borada u jahon "Temur tuzuklari" da shunday degan: "Amirlar, sipohsolar, bahodirlar bilan ittifoq bo'lib , ularning mardligu mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohni taxtini egalladi. Eron, Turon, Rum, Magrib, Shom, Misr, Iroqi arab va Iroqi ajam, Mozandaron, G'ilonot, Shirvonot, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Dashti jete, dashti qipchoq, Xorazmda, Qobuliston, Bohtarzamin, Hindistonga podshoh bo'lib, hukm surdim" ("Temur tuzuklari", 54 bet). Darhaqiqat, Temur saltanatining chegaralari Shimolda Volga daryosidan janubda Hindistondagi Gang daryosigacha, Sharqda Xitoy devori va G'arbda O'rta yer dengizigacha katta hududni ichiga oldi.

Temur 1376-1395 yillarda Oltin O'rda xoni To'xtamishga qaqshatqich zarba berib, uning poytaxti Saroy Berkani egallaydi. 1386 yilgi uch yillik, 1392 yildagi besh yillik va 1399 yilgi yetti yillik yurishlari natijasida Eronni 1392-1397 yillarda Armaniston va Gruziyani, 1398-1399 yillrada Hindistonni, 1400 yilda Misr, Suriya yerlarini bosib oldi. 1402 yilda Anqara yaqinida Usmon turklarining sultoni Boyazidni asir oldi. Ob'yekтив ravishda bu urushlar bosqinchilik urushlari edi, lekin shu narsani ta'kidlashimiz joizki, Oltin O'rda zabit etilishi rus xalqlarini 2,5 asrlik mo'g'ullar istilosidan qutqarib, mustaqilligini qo'lga kiritishga sabab bo'ldi. Bu borada rus tarixchilari B.D.Grekov va A.Y.Yakubovskiyalar bunday yozadilar: "Temurning To'xtamish ustidan qozongan safari, Astraxan va ayniqsa, Oltin O'rda poytaxti Berke - Saroyning 1395 yilda talanishi hamda yondirilishi nafaqat o'sha davrdagi janubi- Sharqiy Yevropa uchun emas, balki Rus uchun ham g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ryazan tuprog'ini bosqinchilarcha talagan o'sha oqsoq

Temur To‘xtamish ustidan qozongan g‘alabasi bilan ob‘ektiv tarzda o‘zi bilmagan holda Rus yeriga xizmat ko‘rsatdi". Boyazid Yildirim ustidagi g‘alaba esa Usmon turklarining Bolqon slavyanlarning yerlarini bosib olish rejalarini 50 yil orqaga surib yubordi.

Temurning vaqtinchalik urushlarini faqatgina o‘lja ortirish maqsadini ko‘zlagan deyish xato bo‘lar edi. Chunki, u oldiga jahon savdo karvonlari harakat qilayotgan yo‘llarga hukmronlik qilishni maqsad qilib qo‘ygan edi. U savdo karvonlari hayotida muhim o‘rin tutgan Azov, Saroy, Urganch kabi savdo shaharlarini xonavayron qilish ham, barcha savdo yo‘llarini O‘rta Osiyo orqali o‘tishiga erishishga qaratilgan edi. Shu bois, Temur I404 yilda Xitoyga qarshi yurishga tayyorlana boshladi va I405 yilning qishida 200 ming kishilik qo‘shin bilan O‘tror shahrida to’xtagan paytida 18 fevralda zotiljam kasalidan vafot etadi va bu yurish yakunlanmay qoladi. Amir Temurning sarkardalik mahorati dunyo ahamiyatiga egadir va jahon harbiy akademiyalarda mahsus o‘rganiladi. Amir Temurning harbiy yurishlarida erishgan g‘alabalari, tashqi va ichki siyosatida o‘tgan odilona yo‘li davlatni qudratini oshishi va jahon miqyosida ko‘tarilishida hal qiluvchi omil bo‘ldi. Xorijiy mamlaktalar bilan aloqalar o‘rnatish va munosabatlarni rivojlantirish tadbirlari olib borildi. Yevropa mamlakatlaridan Hindiston va Xitoyga olib boradigan xalqaro savdo yo‘li -"Buyuk ipak yo‘li"ning barcha asosiy yo‘nalishlarini egallab olgan Temur, uni tiklanishi va kengayishiga ahamiyat berdi. Bu yo‘lda karvonlarning xavfsizligi ta‘minlandi. Bu esa bir-biridan iqtisodi, xalq turmush-tarzi, dini, ma‘naviy-moddiy madaniyati jihatidan farqlanuvchi mamlakatlarning o‘zaro aloqasini rivojlantirishga imkon berdi. Amir Temur qator xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan edi. U Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Ispaniya-Kastiliya, Frantsiya, Angliya bilan yangi davrdagi Yevropaning yirik davlatlari bilan aloqa o‘rnatish va mustahkamlash sohasida faoliyat olib bordi. G‘arb va Sharqda uni dono rahbar, harbiy san‘at ustasi sifatida tan olishgan. XV asrda Temurga "Yevropa xaloskori" degan yodgorlik o‘rnatilgan. XVI asrda K.Marlo "Buyuk Temurlan" degan p’esa yaratdi.

Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma‘lumot beruvchi qimmatli manba ”Temur tuzuklari” hisoblanadi. Unda barcha voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Asli eski o‘zbek tilida yozilgan bu asar, fors ingliz, urdu, fransuz, rus va hozirgi o‘zbek tiliga o‘girilgan. U ikki qismdan: Temurning Movarounnahrda sultanatni qo‘lga kiritish uchun olib borgan urushlari va bu borada o‘tkazgan kengashlari, amirlar bilan olib borgan muzokaralari haqidagi tafsilotlar diqqatni jalgiladi.

Ikkinci qismida Amir Temurning davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va ularning boshliqlarini saylash, sipoxlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo‘sish boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdlarning taqdirlash tartibi va boshqalar haqidagi tuzuklari, ya‘ni yo‘l - yo‘riqlari, qonunqoidalari, nasixatlari o‘rin olgan. Shu bois bu asar o‘z davrida ko‘plab shoh va shahzodalar uchun zarur bo‘lgan. Uni ko‘plab hukmdorlar kutubxonalarida saqlab, undan davlatni idora qilish san‘atini o‘rganganlar. Bu borada risolada berilgan davlatni idora qilishdagi o’n ikki qoida e‘tiborga molikdir.

1. Islom dini va sahariat qoidalariga rioya qilish;
2. Turli tabaqalar, toifalar bilan birgalikda bamaslahat ishni va siyosatni yurgizish.
3. Tadbirkorlik, faollik va xushyorlik, extiyotkorlik bilan ish ko‘rish;
- 4 . Davlat ishlarini sultanat qonunlariga asoslanib boshqarish; ;
5. Amirlar va sipoxlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, ularga izzat va hurmat ko‘rsatish;
6. Adolat va insof bilan ish ko‘rish;
7. Saidlar va ulamoyu - mashoyix, oqil-u -donolar, muhandislar, tarixchilarga izzat va hurmat ko‘rsatish;
8. Azmu - jazm bilan ish tutish:
9. Raiyat (oddiy xalq)ning hol- ahvoldidan doimo ogoh bo‘lish.
10. Turk, tojik, arabu ajamning turli toifalaridan panofiga kirgan kishilarga

hurmat bilan qarash;

11. Farzandlar va qarindoshlar, oshno-og‘ayni, qo’ni-qo’shnilarga hamma vaqt birdek izzat va hurmat ko‘rsatish;

12. Do‘st-dushmanligiga qaramay har joyda ham sipoxlarni hurmatlash.

Amir Temurning qarashlari va davlat boshqaruv usullari davri uchun qanchalik muhim bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q va mustaqil O‘zbekistonni mustahkamlashda undagi fikr, xulosa, nasihatlardan foydalanilmoqda. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlaganidek: "Amir Temur tuzuklarini o‘qisam xuddi bugungi zamonning katta katta muamolariga javob topgandek bo‘laman". Temurning jahongirlik qoidasi haqiqatni sihat-salomatlik, haqiqatni-tartib, haqiqiy adolat deb tushunilgan. Asosiy shiori esa "rusto-rosti", ya‘ni ma‘nosi "kuch adolatda". Ibn Arabshoh asarida quyidagicha yozadi: "Temur tamg‘asining naqshi "rusto-rosti" bo‘lib, haqgo‘y bo‘lsang najot topasan demakdir". Temur uchun adolat masalasida oddiy fuqaro ham, amaldor ham teng edi. Bu borada, yana bir e‘tiborli tomoni shu ediki, Temurning vazifalaridan ikkitasiga o‘ta ma‘suliyatli, har qanday sharoitda ham sohibqironni o‘zini kuzatish, uni doim to‘g‘rilikka da’vat etish vazifasi yuklatilgan edi. Temurning farzandlariga qilgan vasiyatida: "Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko‘ring, yo‘qsillarni (boylar) zulmiga tashlamang. Adolat va yaxshilik qilmoq do‘stingiz, rahbaringiz bo‘lsin". Amir Temur faoliyati va uning tuzuklari insoniyat tarixida tengi yo‘q. Markazlashgan davlatchilikka, qonunchilikka asos solish bilan dunyoning ko‘p mamlakatlarida o‘rganilib, hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, Vatanni sevish, qadrlash, unga sidqidildan xizmat qilish, uning jahon miqyosiga chiqarish uchun harakat, ozodlik, tenglik, hurfikrlik, insonparvarlik, haqiqiy milliy iftixon, mehnatsevarlik, axloqiy poklik, mehr-oqibat, haqgo‘ylik, saxovat, birodarlik, ilm-fanni qadrlash kabi fazilatlarni qozonish va ularni takomillashtirish uchun muhim manbalardan biri. Milliy mustaqillikka erishganimizdan keyin Amir Temurning hayoti va faoliyatiga munosib baho berish, izzatini o‘rniga qo‘yish, atroflicha o‘rganish uchun keng yo‘l

ochildi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zi tashabbuskor bo‘ldi. Amir Temur faoliyati va uning Tuzuklari bugungi O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi, qudratli davlatni barpo etish, umuman davlatchilik asoslarini qayta tiklash, milliy istiqlol mafkurasini shaklantirish, xalqimizning milliy gururini, ongini yuksaltirish, o‘zligini anglash, kelgusi avlod ajdodlarimiz bilan faxrlanishga o‘rgatishda ulkan manba. 1996 yilni Amir Temur yili deb e‘lon qilindi va mamlakatimizda keng nishonlandi. Toshkent, Shahrisabz, Samarqand, shaharlarida unga haykallar o‘rnatildi. Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Yunesko qarori bilan Amir Temur yubileyi jahon miqyosida nishonlandi. Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dunyoning 50 dan ortiq mamlakatida o‘tkazildi. Bir qator mamlakatlarda Konrad Adenaur va xalqaro Amir Temur jamg‘armasi hamkorligida ilmiy anjumanlar bo‘lib o‘tdi. Yunesko rahbarligida Parijda bu sanaga bag‘ishlangan madaniyat xafitaligi bo‘lib o‘tdi. Nafaqat Vatanimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham Amir Temur faoliyatiga chuqur hurmat, izzat ikrom bilan qaralishi; Temuriylar davlati tarixini o‘ganish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilishi Sohibqiron g‘oyalarining hamon dolzarbli va hayotiyligining erkin misolidir.

**4. Amir Temur vafotidan keyin temuriy shahzodalar o‘rtasida toju-taxt uchun ichki kurashlar. Markazlashgan davlatning parchalanishi.** Amir Temur vasiyatiga ko‘ra, uning valiahdi - nabirasi Pirmuhammad ibn Jahongir bo‘lib, Samarqand taxtiga o‘tirishi kerak edi. Sohibqiron betob bo‘lib qolganda u Qandahorda bo‘ladi. Amir Temur vafot etganda valiahd shahzoda Pirmuhammad Samarqandga yetib kelgunga qadar bu musibatni boshqalardan sir tutishga qaror qilinadi. Biroq, mash’um hodisa haqidagi xabar oshkor bo‘lib, Amir Temurning vorislari va amirlar orasidagi munosabat tezda buziladi. Amir Temurning nabirasi Sulton Husayn (Amir Temurning qizi Tag‘ay Shoh (Aka Begi)ning o‘g‘li Sh.K) birinchi bo‘lib isyon ko‘taradi. U bobosining vasiyatiga sodiq bo‘lishga qasamyod etganligiga qaramay, O‘tror yaqinida o‘z qo‘smini bilan birgalikda lashkar o‘rdusini tashlab, Toshkent tarafga yo‘l oladi. So‘ngra Xalil Sulton (Mironshohning o‘g‘li)

vasiyatga zid o‘laroq 1405 yil 18 martida, ya’ni bobosi o‘limidan bir oy o‘tishi bilanoq Samarqandda hokimiyatni egallab oladi. (Xalil Sultonni Saroy Mulkxonim (Bibixonim) tarbiya qilgan. I5 yoshli Xalil Sulton Sohibqironning Hindistonga qilgan yurishida qatnashib jasorat ko‘rsatgan. Quyi tabaqadan chiqqan (Amir Temurning lashkarboshilaridan biri Hoji Sayfuddinbekning kanizaki) Shodimulkka uylanishi bilan Amir Termurning g‘azabiga uchragan, so‘ng Saroy Mulkxonim iltimosiga ko‘ra kechirilgan. Sohibqironning Xitoya qilgan yurishida Xalil Sulton qo‘shinning o‘ng qanoti boshlig‘i etib tayinlangan.)

Amir Temur 1396 yil o‘g‘li Shohruxga Xuroson o‘lkasini suyurg‘ol qilib bergen edi. Shohruh Amudaryo bo‘yidagi Duka qishlog‘ida turib, Movarounnahrga o‘tish uchun ko‘prik yasay boshlaydi. Lekin Xalil Sulton Samarqanddagi Shohruhga tegishli xazinani Movarounnahrga o‘tmasligi sharti bilan qaytarib berishni va’da qiladi. Shohruh Hirota qaytadi.

Shohrux o‘z hukmdorligi chog‘ida Temuriylar sultanatining hududiy kengligi, harbiy salohiyati, kuchli iqtisodiy mavqeini saqlashga intildi. Buning uchun Movarounnahr, Eronzamin, Ozarbayjonga yurishlarqilib g‘alaba qozondi.

1429 yil Shohrux Ozarbayjonda xavfli kuchga aylangan amir Iskandar ibn Qora Yusuf ustiga deyarli butun sultanati hududidan lashkar yig‘ib yurish qiladi. Salmos cho‘lida ikkala tomon o‘rtasida qattiq jang bo‘ladi. Shohrux o‘g‘illari Mirzo Boysung‘urni lashkarning juvang‘arini, Ibrohim Sultonni barang‘arini boshqarishga belgilaydi. Muhammad Jo‘giyni esa o‘ziga tegishli bo‘lgan g‘o‘l qismda qoldiradi. Shiddatli jangdan so‘ng Shohrux lashkari zafar quchadi. Shohrux Seyiston va Badaxshonga lashkar jo‘natib, u yerlardagi isyonlarga chek qo‘yadi. I405-yildan 7 yil davomida Xorazmni zabit etib turgan Dashti Qipchoq amirlariga qarshi Shohrux katta lashkar jo‘natadi va g‘olib kelib, Xorazmni Temuriylar sultanati tarkibiga qayta kiritadi hamda viloyatni boshqarishga sarkarda amir Shohmalikni belgilaydi. Shohrux ko‘pgina nizolarni sulh yo‘li bilan bartaraf qilgan va bunda taniqli davlat arboblari va shayxlar xizmatidan keng foydalangan.

Saltanatni suyurg‘ol tizimi bo‘yicha boshqargan. Mamlakat hududini o‘g‘illari, nevaralari, qarindoshlari, xizmat ko‘rsatgan sadoqatli amirlariga suyurg‘ol qilib bergen. Tarixchi Hofizu Abruning “Zubdat at-tavorix” asarida yozilishicha, Shohrux I443yil Misr podshosiga elchi yo‘llab, Ka’ba uyiga yopinchiq kiygazishni so‘raydi va rozilik oladi. Shu asosda 1444- 45 yil ka’bapo‘sh tayyorlatib, uni shayx Nuriddin Muhammad al-Murshidiy va mavlono Shamsiddin Muhammad Abhariy vositasida Makkaga jo‘natadi. Ular ka’bapo‘shni muqaddas Ka’ba uyiga yopib qaytadilar.

Shohrux podshohlik devonida kundalik ishlarni doim nazorat qilib borgan. Qarorlar qabul qilishda kengash va maslahatga keng o‘rin ajratgan, ko‘pchilik fikrini inobatga olgan holdaadolatli hukmlar chiqargan. Shuningdek, devonda diniy va dunyoviy masalalar yuzasidan yetuk allomalar ishtirokida suhbatlar, fiqh, tib, nujum, geografiya, tilshunoslik va boshqa fan sohalari bo‘yicha bahs-munozaralar tashkil qilgan, o‘zi ham ularda faol qatnashgan. Shohrux saltanati hududida bunyodkorlik faoliyati uchun katta imkoniyatlar yuzaga keldi. Shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo, dehqonchilik, ilm-fan, madaniyat tez sur’atlar bilan rivojlandi. Shohrux bunyodkorlik ishlariga, xususan, shaharlar obodonchiligi va sug‘orish tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratib, Hirot (I405-yil), Balx (I407-yil) shaharlarini tiklashga oliv farmon bergen. Chingizzon yurishi chog‘ida xarob qilingan (1220-yil) Marv shahrini qayta barpo etilib, unga Murg‘ob daryosidan ariq qazdirib suv keltirildi. Sug‘orish tizimi yaxshilandi, yangi yerlar o‘zlashtirildi, ekin maydonlari kengaydi. Shaharlarda hunarmandchilik va savdo rivojlandi, ko‘plab madaniy-ma’naviy muassasalar - madrasalar, masjidlar, xonaqohlar qurildi. Shohrux ilm-fan rivojiga alohida e’tibor berdi. Hirot, Samarqand, Buxoro, Mashhad, Sheruz va boshqa shaharlarda ilm-fan keng rivoj topdi. Movarounnahrda Mirzo Ulug‘bek rasadxona barpo etib, aniq fanlar rivojlandi. Naqshbandiya ta’limoti yozma meros tarzida shakllandi va shu yo‘nalishda bir qancha asarlar yozildi. Hirot va Sheruz shaharlarida tarixnavislikka katta e’tibor qaratildi. Amir Temur va temuriylar tarixiga oid bir qancha yirik asarlar yaratildi. Temuriylar saltanatida

kitobat va miniatyura san'ati yuksaldi. Hirotda Mirzo Boysung'ur va Sherozda Ibrohim Sulton bu sohalarning rivojiga katta hissa qo'shdilar. Shohrux hukmronligi davrida Temuriylar sultanatining xalqaro miqyosdagi nufuzi ortdi. Davlatlar o'rta sidagi elchilik munosabatlariga Shohrux juda katta e'tibor bergan. Uning huzuriga Xitoy, Hindiston, Misr, Shom, Rum, Yevropa, Dashti Qipchoq hukmdorlaridan elchilar kelgani va Shohrux ham o'z elchilarini jo'natgani haqida Temuriylar davri tarixiy manbalarida ma'lumotlar qayd etilgan va ikkita elchilik haqida mukammal kundalik ham yozilgan. I419-I422-yillar Xitoyga borib kelgan safar xotirotlari, unda bevosita qatnashgan G'iyosiddin Naqqoshning kundaligi hamda I442-I444-yillar Janubiy Hindistonga borib qaytgan elchilarning safar tafsilotlari, uni boshqargan Abdurazzoq Samarqandiyning safarnomasida aks etgan. Shohruxning elchilar vositasida yo'llagan maktublarida savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlash va xalqaro savdo-sotiqni rivojlantirish alohida ta'kidlangan. Buyuk ipak yo'li orqali savdo va elchilik karvonlari muntazam qatnab turgan. Shohrux o'zining xalqaro siyosatida davlatlararo tinch-totuvlik va do'stona munosabatlar ta'minlanishini ustuvor yo'nalish deb bilgan. Shohruxning davlatchilik siyosatida bunyodkorlik ishlariga katta e'tibori natijasida ilm-fan va madaniyat rivojida o'ziga xos uyg'onish (renessans) bo'ldi va bu XV asrning 2-yarmida Alisher Navoiy davrida Xurosonda ilm-fanning yuksak rivojlanishi uchun zamin yaratdi.)

**5. Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek hukmronligi. Ichki va tashqi siyosat. Mirzo Ulug'bek davrida madaniyat, ilm-fan va adabiyot ravnaqi.** Ulug'bek hukmronligi davomida ikki marta yirik harbiy yurish qilgan. Birinchisida I425 yil Mo'g'uliston xoni Shermuhammad o'g'lon (I421-I425) o'zini mustaqil xon deb e'lon qilganda, Ulug'bek unga qarshi yurish qilib zafar qozongan. Ulug'bekning ikkinchi yurishi Sig'noq shahri tomon bo'lган. Sirdaryoning quyi havzasasi Ulug'bek tasarrufida edi. Ulug'bek I427 yil Sig'noq yaqinida uning mulkiga tahdid qilgan Baroq o'g'lon bilan to'qnashgan va mag'lubiyatga uchragan. Dushman Ulug'bekni ta'qib qilib, Samarqand ostonalarigacha kelgan. Movarounnahr xavf ostida

qolganligi tufayli Shohrux Xurosandan katta lashkar tortib kelib xavfni bartaraf etadi.

Ulug‘bek O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o‘rta asr sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog‘onasiga olib chiqdi. Uning qilgan eng buyuk ishi - Samarqand ilmiy maktabini o‘sha davr akademiyasini barpo etganligi bo‘ldi. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy edi. Ulug‘bekning ilmiy maktabi o‘z faoliyatida O‘rta Osiyolik mashhur olimlar Muhammad Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abul Abbas al-Javhariy, Ibn Turk al-Xuttaliy, Xolid al-Marvarrudiy, Ahmad al-Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylar boshlab bergen ilmiy an'anaga asoslanar edi. Ulug‘bek Samarqand yaqinida rasadxona barpo qildi. Fan va madaniyat tarixida so‘nmas iz qoldirgan Ulug‘bekning ilmiy merosi uning “Zij”idir. Bu asar sayyoralar, Quyosh va Oy harakatini talqin qilish, yulduzlar katalogi va unda qo‘llanilgan matematik usullari bo‘yicha o‘rta asrlardagi astronomik asarlarning eng mukammali bo‘lganligi uchun avvalambor u musulmon mamlakatlaridagi olimlarning diqqatini jalb qilgan. “Zij”ga ilk sharhni Ulug‘bekning shogirdi Ali Qushchi “Charhi Ziji Ulug‘bek” nomi bilan yozgan. O‘sha XV asrning o‘zida qohiralik munajjim Shamsiddin Muhammad as-So‘fiy al-Misriy “Tashil Ziji Ulug‘bek” (“Ulug‘bek “Zij”ini osonlashtirish”) nomli asar yozib, unda Ulug‘bek jadvallarini Qohiraning geografik kengligiga moslashtirdi. Ulug‘bek “Zij”iga yozilgan eng mukammal sharh Samarqand ilmiy maktabining eng so‘nggi namoyandasasi Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandiyning 1523-yil yozib tugatilgan “Sharhi Ziji Ulug‘bek” asaridir. Ulug‘bekning yana bir matematik asari “Risolai Ulug‘bek” deb ataladi va uning birinchi nusxasi Hindistonda “Aligarx” universiteti kutubxonasida saqlanmoqda, hali o‘rganilmagan.

Yaqin yillargacha Ulug‘bek faqat astronom va matematik deb hisoblanardi. Lekin XX asr oxirida uning ijodi serqirra bo‘lib, u tarix, she’riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” asarida “Mirzo Ulug‘bek tarixnavis donishmand (va) “To‘rt ulus”

(tarixi)ni (ham) yozib qoldirgan edi”, deb yozgan. Ulug‘bekning turkiyda yozgan “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asari Chingizzon bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlarI-yarmidagi siyosiy hayotini o‘rganishda muhim manbadir. Navoiyning “Majolisun-nafois” va Abu Tohirxojaning “Samariya” asarlarida ham uning she’rlaridan namunalar keltirilgan. Uning davrida ko‘pgina asarlar arab va fors tilidan eski o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ulug‘bek tashkil etgan boy kutubxonada turli fanlarga oid 15 mingdan ortiq jildli kitob bo‘lgan. Ulug‘bek yoshligidan o‘zga fanlar qatori musiqa ilmidan saboq olib, bir qator kuy va usullar yaratgan, bu sohaga oid 5 ta risola ham yozgan. “Risola dar ilmi musiqa” nomli asari musiqa tarixiga bag‘ishlanib, unda “12 maqom bayoni”ga doir maxsus bobi ham bo‘lgan. Ulug‘bek “bulujiy”, “shodiyona”, “axloqiy”, “tabriziy”, “usuli ravon” va “usuli otlig” kuylarini ijod qiladi. Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi 1994-yil aprelda Parijda, oktabrda Toshkent va Samarqandda tantanali ravishda nishonlandi va xalqaro konferensiyanlar o‘tkazildi. Shu yili Toshkentda Ulug‘bekka haykal o‘rnatildi. Ulug‘bek siymosi Pulkovo rasadxonasi, Moskva universiteti konferens-zallarida dunyodagi mashhur olimlarning portretlari qatoridan joy olgan. Samarqandda Ulug‘bekning memorial muzeyi tashkil etilgan. Toshkentda O‘zbekiston milliy universiteti, tuman, ko‘cha, mahalla, metro stansiyasi, istirohat bog‘i, shaharcha Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Farg‘ona pedagogika universitetiga, Samarqand arxitektura-qurilish institutiga, Kitob xalqaro kenglik stansiyasiga va boshqalarga Ulug‘bek nomi berilgan. Ulug‘bekning hayoti va faoliyati haqida pesa (M. Shayxzoda, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi), roman (O. Yoqubov, “Ulug‘bek xazinasi”; S. Borodin, “Samarqand osmonida yulduzlar”), opera (A. Kozlovskiy, “Ulug‘bek”), poyema (M. Boboyev, “Ulug‘bek”), balet (M. Bafoyev, “Ulug‘bek burji”), film (Rej. Latif Fayziyev, “Ulug‘bek yulduzi”, 1965) va boshqalar yaratilgan.)

Abdulatif olti oylik hukmronligidan so‘ng, Ulug‘bekning xos navkarlaridan Bobo Husayn bahodir tomonidan o‘ldiriladi. (Abdulatif o‘jar, xudbin va

Shuhratparast bo‘lsada, otasi Ulug‘bek kabi ilm axliga ixlosmand edi. U o‘zi ham falakiyot va tarix ilmi bilan shug‘ullanar, she’rlar bitardi.)

XV asr o‘rtalarida ko‘chmanchi o‘zbeklar Abulxayrxon boshchiligidagi Sirdaryoning quyi oqimi va Dashti qipchoqda kuchli davlat tuzgandilar. Bu qurrol kuchiga asoslangan ko‘chmanchi davlat edi. I468 yili Abulxayrxon o‘limidan so‘ng u tarqalib ketgandi. Ammo uning nabirasi Shayboniyxon o‘zbek davlatini qayta tiklash maqsadida Temuriylarning ichki nizolaridan hamda Temuriylar bilan Jeta mo‘g‘ullari orasidagi nizodan mohirona foydalanadi. Shayboniyxon avval O‘tror, Yassi va Sayram shaharlarida mustahkam o‘rnashib olib, I499 yili Movarounnahrni fath qilishni boshlaydi. O‘sha yili u Buxoroni va I500 yili Samarqandni oladi. Lekin bu hali to‘la g‘alaba emas edi. Chunki ikkala shaharda ham temuriylarning tarafdarlari bor edi. Ular Andijonda turgan Zahiriddin Muhammad Bobur (Mironshoh Mirzoning evarasi, Abu Sa‘id Mirzoning nevarasi SH.K.) bilan yozishib, unga Samarqand darvozasini ochadilar. I501 yili aprelida Zarafshon yonidagi jangda Bobur yengiladi va Samarqandni tashlab ketishga majbur bo‘ladi. Bobur Shayboniyxonga qarshi temuriylarni birlashtirishga harchand urinmasin, barchasi bekor ketadi. Ayniqsa, ko‘chmanchi o‘zbeklarga qarshi kurashda Boburni qo‘llash yoki bu kurashga boshchilik qilish o‘rniga, Shayboniyxon bilan “bekinmachoq o‘ynagan” Husayn Boyqaroning hatti-harakatlari uni hayratga soladi. XV asr boshida Shayboniyxon butun Movarounnahrni va 1505 yilda esa Xorazmni bosib oladi. Avvalgi harbiy mahoratlarini butunlay yo‘qotgan Husayn Boyqaro I506 yili Shayboniyxon bilan kurashga otlangan vaqtida vafot etadi. Uning vorislari – Badi’uzzamon va Muzaffar Husayn otasining barcha illatlarini meros qilib olgan bo‘lib, dushmanga qarshilik ko‘rsata olmadilar. I507 yili Shayboniyxon Hirotni ham egallaydi. Shu bilan XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda temuriylar sultanati barham topadi.

So‘nggi temuriylarning to‘xtovsiz janglari va soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamaydi va u Xuroson va Movarounnahrni tark etib, Qobulga ketishga majbur bo‘ladi. Bu shaharni u o‘zining tayanch nuqtasi qilib oladi va u yerdan

avvaliga Hindistonga bir necha chopqin qiladi, so‘ngra hal qiluvchi yurish natijasida Hindistonni egallaydi. Bobur bu mamlakatda temuriylar davlatining poydevorini qurdi va u tarixda Boburiylar davlati deb nom oldi.

Amir Temur va temuriylar 1370 yildan to 1507 yilgacha Movarounnahr, Xuroson, Iroq, Shimoliy Hindiston va Afg‘onistonda hukmronlik qildilar. Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshoh Mirzo avlodiga mansub bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo va boburiylar 1504 yildan 1858 yilgacha, ya’ni 354 yil davomida Afg‘oniston va Hindistonda sultanatni boshqardilar. Temur va temuriylar sulolasi jami 488 yil hukmronlik qildi.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Amir Temur vafot etganda, uning xotinlaridan to‘rtasi – Saroy Mulk xonim, Tuman og‘o xonim, Tukal xonim va Ruh Parvar og‘o xonimlar, o‘g‘illaridan Mironshoh Mirzo, Shohruh Mirzo va qizi Sulton Baxt beginmlar hali hayot edilar. Sohibqiron Amir Temur o‘n sakkiz marta uylangan. Bundan tashqari u 22 nafar xos kanizaklarini ham o‘z shabistoniga mahram qilgan.

To‘ng‘ich o‘g‘li Jahongir Mirzo 1356 yilda tug‘ilib, 1376-yilda 20 yoshida vafot etgan. Jahongir Mirzodan ikki o‘g‘il qoldi. To‘ng‘ichi Muhammad Sulton bo‘lib, Temur uni valiahd etib tayinladi. Ammo toju-taxt Muhammad Sultonga nasib etmay, foniy dunyoni tark etdi. Muhammad Sultondan uch o‘g‘il qolgan bo‘lib, ular Muhammad Jahongir, Sa’d Vaqqos, Yahyo ismli edi. Jahongir Mirzoning kichik o‘g‘li Pirmuhammad otliq edi. Temur vafotidan oldin uni valiahd etib tayinladi. Ammo Pirmuhammadga ham toju-taxt nasib etmadidi. Undan yetti o‘g‘il qoldi: Qaydu, Holid, Said Vaqqos, Qaysar, Buzinjar, Jahongir, Sanjar Mirzolar.

Ikkinchi farzandi Umarshayx Mirzo – 1356 yilda tug‘ilgan, 1394 yilda 38 yoshida vafot etgan. Umarshayx Mirzo bir jangda otasining buyrug‘iga ko‘ra, unga madad kuchlari etayotgan vaqtida Harmotu qal’asiga yetganda Shu yerni sayr qilishni ixtiyor qildi. Shu payt bir kishi otgan o‘q tasodifan Umarshayx Mirzoga tegdi va uning umriga xotima yasadi. Umarshayx Mirzodan besh o‘g‘il qoldi. Kattasining ismi Pirmuhammad bo‘lib, u Umarshayxning otasi edi. Ikkinchisi Rustam, Usmon va Alining otasi edi. Uchinchisi Iskandar, to‘rtinchisi Ahmad,

beshinchisi Boyqaro bo‘lib, u Mansurning otasi edi. G‘iyosiddin Mansur Husayn Boyqaroning otasi edi.

Uchinchi farzandi Mironshoh Mirzo - 1367 yil tug‘ilgan, I408 yilda 41 yoshida vafot etgan. Mironshoh Mirzo Eron Ozarbayjonini boshqarar edi. U bu yurtda ko‘plab obodonlashtirish ishlari olib borgan, xususan masjid, madrasa, saroylar qurdirgan. Kunlarning birida Mironshoh Mirzo shikorga chiqqan paytida otdan yiqilib, boshi qattiq lat yedi. Buning oqibatida shahzodaning xatti-harakatlari tuShunib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib ketdi. U o‘zi qurdirgan binolarni buzdirib, ichkilikka berilib ketadi. Mironshoh Mirzo otasining vafotidan so‘ng, I408 yilda turkmanlar bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ldi. Askarlardan biri jarohat olib, chala jon bo‘lib yotgan Mironshoh Mirzoni tanib qoldi va shu zahoti uning boshini kesib olib, nayza uchiga sanchib, sardori amir Qora Yusufga olib bordi. Mironshoh Mirzodan olti nafar: Abu Bakr, Umar, Xalil Sulton, Sulton Muhammad, Iyjal va Suyurg‘at mish Mirzolar qoldi.

Kenja farzandi Shohruh Mirzo - 1377 yilda tug‘ilgan, I447 yilda 70 yoshida vafot etgan. U vazmin va irodasi kuchli odam edi. Mulohaza bilan “yetti o‘lchab bir kes” qabilida ish tutardi. Qolaversa, intizomli odam edi. U hoh harbiy ish bo‘lsin, hoh davlat ishi bo‘lsin, hoh dini Islom va shariat arkonlari bilan bog‘liq ish bo‘lsin o‘z vaqtida, o‘z o‘rnida ado etishga odatlangan edi. Hoqoni said har qanday sharoitda ham besh vaqt namozini uzmas edi. Saroyda ixchamgina masjidi xos bo‘lishiga qaramay, Jum‘a namozini ko‘pchilik qatori faqat Hirotning eng katta masjidida, G‘iyosiddin Muhammadning jome’ masjidiga borib o‘qirdi. Undan to‘qqiz o‘g‘il va olti qiz qoldi.

Qizi Sulton Baxt begin – 1362 yilda tug‘ilgan, I430 yilda vafot etgan. U to‘g‘risida boshqa ma’lumotlar mavjud emas.

Ilmiy tadqiqotlar natijasi o‘laroq, Amir Temur avlodining ro‘yxati hozir 193 nafarga yetdi. Bular: Jahongir Mirzo avlodiga mansub 16 nafar shahzoda, Umarshayx avlodiga mansub 35 nafar shahzoda, Mironshoh avlodiga mansub

Boburiylar bilan birga 96 nafar shahzoda, Shohruh Mirzo avlodiga mansub 44 nafar shahzoda va Tag‘ay Shoh (Aka Begi) surriyotiga mansub bir shahzoda hisoblanadi.

Temuriylar sulolasi hukmdorlari:

(Movarounnahr va Xurosonda) Shohrux ibn Amir Temur (1409-1447), Ulug‘bek ibn Shohruh (1447-1449), Abu Said ibn Sulton Muhammad (1458-1469).

(Movarounnahrda, poytaxti Samarqand) Xalil Sulton (1405-1409), Ulug‘bek ibn Shohruh (1409-1449), Abdullatif (1449-1450), Abdullo Mirzo (1450-1451), Abu Said ibn Sulton Muhammad (1451-1469), Sulton Ahmad ibn Abu Said (1469-1494), Sulton Mahmud ibn Abu Said (1494-1498), Sulton Ali Mirzo (1498-1500).

(Xurosonda, poytaxti Hirot) Shohruh ibn Amir Temur (1396-1447), Ulug‘bek ibn Shohruh (1447-1449), Abulqosim Bobur (1449-1457), Shoh Mahmud Mirzo (1457-1458), Abu Said ibn Sulton Muhammad (1458-1469), Yodgor Muhammad (1470), Husayn Boyqaro (1469-1506), Badiuzzamon ibn Sulton Husayn (1506-1507), Muzaffar Mirzo (1506-1507).

### **Mavzu yuzasidan savollari:**

1. «Sarbador» lar harakati to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
2. Nima uchun A.Temur bilan Amir Husayn o‘rtasida nizo kelib chiqdi?
3. A.Temur markazlashgan davlat qurish uchun qanday ishlarni amalga oshirdi?
4. A.Temur davlatning ichki va tashqi siyosati to‘g‘risida so‘zlab bering. Amir Temur faoliyatida ko‘pjang qilgan.
5. A.Temurning mashhur harbiy yurishlaridan qaysilarni bilasiz?
6. A.Temur davlatida qanday soliq turlari mavjud edi?
7. A.Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma‘lumot beruvchi qimmatli manba nima?
8. «Temur tuzuklari» ning Hozirgi kunda davlatni boshqarishdagi ahamiyati to‘g‘risida so‘zlabbering.
9. O‘zbekiston istiqlolga erishganidan keyin A.Temurning shaxsiga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgaranligini tushuntirib bering.

10. Yunesko tashabbusi bilan A.Temur tavalludining 660 yilligi qachon nishonlandi?

**Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Amir Temur haqida so’z. T.: O’zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir. Asarlar, 5-jild. T.: O’zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasixalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., O’zbekiston, 1998.
5. Abduraimov M. Temur va To’xtamish.- T.: G’afur G’ulom, 2000.
6. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq, 2000.
7. Ahmedov B. Sohibqiron Temur. – T.: 1996.
8. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Sharq, 1997.
9. Abdurahmonov A. Ulug’bek akademiyasi. – T.: 1993.
10. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. – T.: Fan, 1996.
11. Eshov B.J. O’zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi.- T.: Yangi asr avlod, 2012.
12. Temur Tuzuklari. – T.: Ma’naviyat, 2011.
13. Amir Temur o’gitlari. T.: Navro’z, 1992.
14. Amir Temur jahon tarixida. T.: Sharq, 1996.
15. O’ljaeva Sh. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – T.: Fan, 2005.
16. O’zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiyl tahriri ostida, T.: 2005..

**9- mavzu: O’ZBEKISTON HUDUDLARINING XONLIK LARGA BO’LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI**

**Reja:**

1. Tarixiy yozma manbalar. Muhammad Shayboniyxon yurishi. Boburning

Shayboniyxon bilan to‘qnashuvi.

2. Buxoro xonligida ashtarxoniyalar (joniylar) sulolasи hukmronligining o‘rnatilishi. Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli.
3. Xiva xonligining tashkil topishi. Shaybonylarning Xivadagi hukmronligi.
4. XVIII asrda Farg‘ona vodiysidagi siyosiy vaziyat. O‘zbeklarning ming urug‘idan bo‘lgan Shohruhbiy tomonidan Qo‘qon xonligiga asos solinishi.

**Tayanch tushunchalar:** Shayboniylar davrida feodal tarqoqlik , hududiy parchalanish, Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari, Movarounahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ichki kurash, Shayboniyxon, Buxoro davlatida Ashtarxoniyalar sulolasining hukmronligi, Qo‘qon xonliklardagi siyosiy parokandalik, o‘zaro nizo va besamar urushlar, etnik, mustaqil siyosiy tuzulmalar, ittifoqchilar, hunarmandchilik.

### **I. Tarixiy yozma manbalar. Muhammad Shayboniyxon yurishi.**

**Boburning Shayboniyxon bilan to‘qnashuvi.** Amir Temur vorislari o'rtasida olib borilgan to'xtovsiz feodal urushlar temuriylar davlatining kuchsizlanishiga olib keldi va birin-ketin ular qaramidagi davlatlar va mulklar ajralib chiqib ketdi. XV asrning oxiri-XVI asrning boshlarida Movarounnahr hududi bir necha mustaqil mulklarga bo'linib ketdi. Ular iqtisodiy, etnik va madaniy jihatdan bir-birlari bilan mustahkam bog‘liq bo'lalar-da, ayrim viloyatlarning hokimlari o'rtasidagi uzlusiz to‘qnashuvar aholining o‘zaro aloqalariga xalaqit berar edi.

Farg‘ona, Hisor, Samarqand, Buxoro, Xorazm singari mulklar va ular atrofidagi viloyatlar aslida mustaqil siyosiy tuzulmalar edi va ularning hukmronlari qo'shinlarining yerlarini bosib olish payida bo'lib, yurishlari muvaffaqiyatsiz chiqqanda talon-tarj qilingan mol-mulklar bilan chekhanishardi. O'zaro feodal urushlar nafaqat Movarounnahrning siyosiy maydalashuviga, balki iqtisodiy tanazzulga va aholining hayotini qashshoqlashuviga olib kelardi. Movarounnahrdagi bunday beqaror siyosiy vaziyatdan Abulkayrxonning nevarasi Shayboniyxon foydalanib, bosqinchilik yurishlarini amalga oshirdi.

Muhammad Shayboniy 1451 yil tug‘ilib, harbiy tashkilotchilik qobiliyatiga ega edi. XV asrning ikkinchi yarmida temuriylar davlatining tarqoqligi kuchaygan bir davrda Shimolda- Dashti Qipchoqda Shayboniyxon, keyinchalik ko‘chmanchi o‘zbeklar nomini olgan, turk- mo‘g‘ul qabilalarni bitta davlatga birlashtirdi. Ayni paytda temuriylar bilan mo‘g‘ullarga qarshi ittifoq tuzgan bo‘lsa-da, u ittifoqchilarga doim sodiq qolmasdan goh temuriylar, goh mo‘g‘ullar tomonida turib harakatlar olib bordi. Shayboniyxon Movarounnahrga bir necha bor hujum qildi va 1488-1504 yillarda Utror, Yassi (Turkiston), Buxoro, Samarqand hamda Farg‘ona ni asta-sekin bosib oldi. Uning yosh temuriy shahzoda Boburga qarshi olib borgan to‘rt yillik urushi Afg‘onistonga qochgan Boburning mag‘lubiyati bilan tugadi. Shundan so‘ng 1504-1509 yillarda Shayboniyxon tinimsiz urush olib bordi va qadamba-qadam o‘lkan imperiya barpo etadi. Ayrim temuriylar bosqinchilarga qat‘iy qarshilik ko‘rsatdilar. Vujudga kelgan xatar shu paytgacha bir-birlariga dushman bo‘lgan feodallarni vaqtinchalik bo‘lsa-da birlashishga olib keldi. Biroq ular orasidagi bir-biriga ishonmaslik, o‘zaro nizo va janjallar o‘zbeklar uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Masalan, 1504 yilda Hisor viloyatining hokimi Xusravshoh Shayboniyxonning yaqinlashib kelayotganini eshitib, boshqa temuriy shahzodalar bilan birlashish o‘rniga, qo‘rroqlik qilib qochib ketdi. Natijada, u hokimlik qilgan Janubiy Tojikiston, janubiy O‘zbekiston, Shimoliy Afg‘onistonning bir qismini ichiga olgan yerlar Shaybonixonning qo‘liga o‘tdi. Ba‘zi shaharlar esa jiddiy qarshilik ko‘rsatdi. 1504 yilda Shayboniyhon Xorazmga yurish boshladi. 10 oylik og‘ir qamaldan keyingina 1505 yilda Urganch shahri taslim bo‘ldi 1506 yilda davom etgan qamaldan keyin Balx shahri, 1507 yilda esa, deyarli urushsiz, Xirot shahri zabit etildi. 1508 yil bahorida Shayboniyxon Jand ostonolarida temuriylarning so‘nggi armiyasini tor-mor keltirib ularning O‘rta Osiyodagi barcha ildizlariga barham beradi. Ammo uning yurishlari 1510 yilda Marv yaqinida Eron shohi Ismoil bilan to‘qnashuvda mag‘lubiyatli tugallandi.

Shayboniyxon bosib olgan o‘lkalarni jahon qarindoshlari, o‘zbek qabilalarining zodagonlari, harbiy qo‘mondonlari o‘rtasida taqsimladi. Viloyatlarni

taqsimlashda shayboniy urug‘lari o’rtasidagi kelishmovchiliklar, ziddiyatlar o’zbeklar davlatini zaiflashtirdi va shayboniylar keyingi janglarda birin-ketin mag‘lubiyatga uchradilar. Xuroson, shu jumladan Turkmaniston, Xorazm, Shimoliy Afg‘oniston Eron shohi Ismoil hukmronligiga o’tdi. Qobul hukmdori Zahiriddin Muhammad Bobur shoh Ismoilning yordami bilan 1511 yili Hisor, Kulob, Qunduz, Badaxshon va Samarqandni egalladi. Biroq temuriylarning ilgarigi yerlarini shoh Ismoil madadi yordamida birlashtira boshlagan Bobur, aholi tomonidan quvvatlanmadı. Shu sababli shayboniy Ubaydulla Sulton qo’shlari Buxoroga yetib kelgan Bobur qo’shinlarini tor-mor etdi va Bobur Hisorga chekinishga majbur bo’ldi. G’ijduvon yaqinidagi g‘alabadan so’ng Shayboniylar Movarounnahrda to’liq hukmronlikni o’rnatdilar. Faqat Xorazm mustaqil qolib 1511 yili Eroniy shialar hukmronligidan norozi bolgan sunniy ruhoniylar Dashti - Qipchoq o’zbeklardan Elbarsxонни chaqirib, o’zlariga xon sayladilar. Bir ozdan keyin Amudaryoning Kaspiy dengizi o’rtasida joylashgan va turkmanlar yashaydigan yerlar Xorazmga qo’shib olindi. Mag‘lubiyat alamini boshidan kechirgan Bobur bu gal Movarounnahrni abadiy tark etdi. U qo’shlari bilan Hindistonni Shimoliy qismini o’ziga bo’ysundirdi va Hozirgi Bangladesh, Pokiston, Hindistonning Shimoli va Afg‘oniston hududida Buyuk Boburiylar sultanatiga asos soldi, bu davlat XIX asrgacha ( 300 yil) yashadi.

Movarounnahrda yangi feodal sulolasi bo’lgan shayboniylar qariyb yuz yil hukmronlik qilgan ko’chmanchi o’zbeklar sulolasi qaror topdi. Biroq Shayboniyxon vafotidan so’ng Markaziy hukumat ancha zaiflashuvi, unga amirlar va sultonlar bo’ysunmay qo'yishga olib keldi. Ayniqsa, XVI asrning 40 yillarida feodallar va sulolalar o’rtasida shaharlar va yerlar uchun kurash kuchaydi. Bu esa o’z navbatida qishloq xo’jaligi, hunarmandchilik va umuman mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga xalaqit berdi. Samarqand hukmdori Abdulatifxon (I54I-I552 ) bilan Buxoro xoni Ubaydullaxonning o’g‘li Abdulazizzon (I540-I550) o’rtasidagi kurashni Toshkent va Sirdaryo bo’yidagi shaharlarning hukmdori Baroqxon (Axmadxon) kuchaytirdi. Baroqxon hukmronligini o’rnatish maqsadida

Movarounnahrning boshqa shaharlariiga hujum qilib turdi va natijada 1511 yilda Samarqandni bosib oldi va besh yil idora qildi.

Feodal tarqoqlik kuchaygan bir paytda XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon II (1557-1598) taxtga davogar bo'lib chiqdi. O'zaro feodal kelishmovchiliklardan ustalik bilan foydalanib, u qisqa vaqt ichida eng nufuzli o'zbek qabilasi- shirin, qushchi, o'tarchi, kengas, besh yuz, jaloyir, major hamda musulmon ruhoniylarining qo'llab- quvvatlashiga erishdi. 1557 yilda Abdullaxon II Buxoroni egalladi va shu davrdan u amalda Buxoroda hukmronlik qila boshladi, chunki rasman oliy hokim o'zini otasi Iskandarni e'lon qilgan edi. 1583 yilda u o'zini xon deb e'lon qiladi. Abdullaxon II oldida Shayboniylar davlatini qayta tiklashni oldida maqsad qilib qo'ydi va shu bois uning butun hukmronligi tinimsiz urushlar va janglarda o'tdi. Buning natijasida u Farg'ona, Shahrisabz, Qarshi, Hisor, Samarqand, Toshkent, Sayram, Turkiston, Xuroson va nihoyat 1595 yilda Xorazmni bo'ysundiradi.. Butun Movarounnahr yana yagona hukmda, Shayboniy Abdullaxon hokimiyati ostida bo'lib qoldi. Biroq 1598 yilda Abdullaxon II vafot etgach, uning o'g'li Abdulmo'min uzoq vaqt hokimyatni aqlab qolmadidi. Hokimyat boshqa sulola vakillari qo'liga o'tdi.



**2. Buxoro xonligida Ashtarxoniyalar (joniylar) sulolasini hukmronligining o'rnatilishi. Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli.** Abdullaxon II va uning o'g'li Abdulkumin Shayboniylar sulolasining barcha a'zolarini Markaziy hokimyatni mustahkamlash yo'lida olib borgan kurashlar natijasida qirib tugatgan edilar. Shu sababli hokimyatni boshqarishga shayboniylar sulolasidan vakil qolmadidi. Vujudga kelgan vaziyatdan darhol qo'shni davatlarning hukmdorlari foydalandilar. Eron shohi Abbos I Xirotni va Xurosonning katta qismini bosib oldi, Balxda esa, noibini hukmron qilib qo'ydi. Qozoq sultonlari shayboniylarga qarashli yirik xudud-Toshkentni qo'lga kiritdilar. Xorazm yana mustaqil bo'lib oldi. Undan tashqari o'zaro urushlar eng yuqori nufuzli barcha urug'lar barham topishga olib kelgan bo'lib, hech kim birovga hokimyat sari yo'lni bo'shatib berishni istamasdi.


Shu bois, feodal zadogon guruhlari Astaraxandan chiqqan chingiyziylar avlodiga mansub Abdullaxon singlisiga uylangan, shu tufayli shayboniylarg'a qarindosh hisoblangan va Buxoroda yashab turgan Jonibek Sultonni taxtga taklif qildilar. Jonibek katta o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechdi, ammo u Xirot yaqinida safoviylar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi va Jonibekning ikkinchi o'g'li Boqi Muhammad xon deb e'lon qilindi. Shu tariqa I599 yildan boshlab Markaziy Osiyoda Ashtarkoniylar sulolasi (yoki joniylar) hukmronligi boshlandi. Bu davrda markaziy hokimyat amalda nomigagina, ya'ni rasmangina mavjud bo'lib, xonlar, tegishli muassasalar va davlat lavozimlari hamda majburiyatlar bor ediki, lekin ularning ortida etnik va urug' umumiyligi bilan bog'langan feodal guruhlari, ayrim o'zbek qabilalari o'rtasida Movarounnahrdagi hukmronlik uchun ashaddiy kurash borardi. Imomqulixon o'ttiz yildan ko'proq hukmronlik davrida vaqtincha bo'lsa-da, o'zaro urushlarni to'xtatishga va amirlarning mustaqillikka erishish yo'lidagi intilishlarini susaytirishga muvaffaq bo'ldi. Biroq feodal yer egaligi rivojlanib katta yerlar amirlar qo'liga o'tib borgan sari feodal zodagonlarning ahamiyati kuchayib bordi va ular markaziy hokimyatni uncha tan olmasdilar. Masalan, Samarqand amiri Yalangtushbiy, Badaxshon hukmdori Mahmudbiy qatag'on davrining nufuzli va siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan amirlardan edilar. Bu hol Imomqulixon davrida endigina boshlanib, uning vorislari hukmronligi kuchayib ketdi. Shu tufayli davlatning parchalanishi va inqirozga olib kelgan markazdan qochish kuchlari kuchayib bordi. So'nggi ashtarkoniylar vakili Abulfayzxon (1711-1747) davrida markaziy hokimyat ahamiyatini yana yo'qota bordi. Mamlakat o'zini mustaqil hisoblovchi viloyatlarga bo'lina boshladi. Mamlakatni boshqarish mangg't urug'lari tomonidan qo'llab- quvvatlangan va feodallar orasida obro'yga ega bo'lgan Muhammad Hakimbiy qo'liga o'ta boshladi. Buxoro xonligining parokandaligi o'sha paytda mavqeini mustahkamlab olgan Eron shohi Nodir uchun qulay sharoit yaratdi va u Movarounnahrga yana qo'shin tortdi. Hakimbiy bosqich ostida Abulfayzxon Nodirshoh bilan muzokaralar olib borishga rozi bo'ldi va Buxoro xonligi Eronga qaram davlatga aylandi. Ashtarkoniy Abulfayzxon mavqeい pasayib, mang'it

urug‘idan chiqqan Muhammad Hakimning o'g‘li Rahimbiy Buxoroda cheklanmagan hokimyatga ega bo'ldi. U mang‘itlar sulolasining asoschisi bo'ldi va bu sulola hukmronligi 1920 yilgacha davom etdi. Shunday qilib ashtarxoniyalar hamda Nodirshoh imperiyasi harobalarida Qo'qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligidan iborat uchta yangi davlat tashkil topdi.

**3. Xiva xonligining tashkil topishi. Shayboniyarning Xivadagi hukmronligi.** Shayboniyalar davrida mustaqil bo'lib olgan Xiva xonligi (1511 yil), Abdullaxon II o'limidan so'ng va ashtarxoniyalar davrida mustaqilligini uzil-kesil qaror topdirdi. Xiva xonligi qo'shni bo'lgan qalmoqlar, qozoqlar, Ural qozoqlari bir necha marta hujum qildilar, ammo mag‘lubiyatga uchradilar. Ayniqsa, Arab Muhammad davrida (1602-1623) xonlikdagi o'zaro feodal urushlar kuchayadi va 1623 yilda turkmanlar yordamida Asfandiyorxon (1623-1643) taxtni egalladi va turkmanlarni o'ziga yaqinlashtirib, o'zbek qabilalarini majburan chiqara boshlaydi. Uning ukasi Abulg‘ozixon (1643-1663) hukmronlik davri turkmanlar va qalmoqlar qabilalariga qarshi kurash bilan o'tdi. 1688 yilda Xiva xonligini Buxoro xoni Subxonqulixon egallab, unga noibi Shoniyozni xon etib tayinladi. XVIII asrning birinchi yarmida Xiva xonligida o'zbeklar va turkmanlar o'rtaсидаги o'zaro urushlar kuchaydi. Xon avlodlari o'rtaсида ham taxt uchun kurash avj oldi. Natijada zaiflashib qolgan xonlik Eron shohi Nodirshoh tomonidan 1740 yili egallandi va unga Tohirbek hokim etib tayinlandi. Mamlakatda feodal tarqoqlikni tugatish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun kurashlar uzoq davom etdi va Xivani og‘ir ahvolga solib qo'ydi. 1763 yilda qo'ng‘irot sulolasini hokimiyatni qo'lga kiritib, Muhammad Amin taxtga o'tkazildi. 1804 yilda Ertuzar rasmiy ravishda xon degan unvonga ega bo'ldi. Uning ukasi Muhammad Rahimxon (1806-1825) Xiva xonligini butunlay birlashtirdi. Buxoro bilan bo'lgan jangda g‘alabaga erishadi. U davlatning Oliy Kengashini tashkil qiladi, harbiy va soliq islohotlarini o'tkazadi, xonlikda bojxona va zarbxona barpo qiladi, oltin tangalar chiqaradi. Shu bois mamlakatning ichki ahvoli yaxshilandi, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Bu davrda xonlik 20 beklik va viloyatlarga bo'lingan edi. Olloqulixon (1825-1842), Muhammad

Aminxon (1845-1855), Sayid Muhammad (1856-1864) hukmronligi davrida o'zbek, qozoq, va qoraqalpoq beklarining xonlik hokimiyatiga qarshi chiqishlari hech tinmadi. Sayid Muhammad Rahimxon II davrida esa, Xiva Rossiya imperiyasiga tobe bo'ldi. Qo'ng'irotlar sulolasini xonlikni 1920 yilga qadar boshqardilar.

### Xiva xonligidagi oliy darajali unvonlar va mansablar



**4. XVIII asrda Farg'ona vodiysidagi siyosiy vaziyat. O'zbeklarning ming urug'idan bo'lgan Shohruhbiy tomonidan Qo'qon xonligiga asos solinishi.** Feodal tarqoqlik va barqarorlik natijasida XVIII asrning boshida (1709) Farg'ona ham Buxoro xonligidan ajralib chiqadi va bu yerda Qo'qon xonligi tuzildi. Xonlikka minglar sulolasining vakili Shohruhbiy asos soldi. Uning o'g'li Muhammad Raimbiy (1721-1740) davrida xonlik hududlari asta-sekin kengaya boradi. Abdulkarimbiy

(1740-1760) davrida Qo'qon, Andijon, Namangan va Marg'ilon shaharlariда savdo va hunarmandchilik rivojlandi. Norbo'tabiy (1769-1800) davrida Chust, Namangan va Xo'jand beklari qarshiliklari bostirildi.

Olimxon (1800-1809) taxtga o'tirgandan keyin harbiy islohotlar o'tkazildi, xonlik hududlari kengaytirildi. Xo'jand, Toshkent, Chimkent, Sayram, Ko'rama, Avliyo ota shaharlari bosib olindi. Umarxon davrida (1809-1822) Turkiston atroflarida bir qancha harbiy istehkomlar quriladi. Yangiqo'rgon, Julek, Oqmachit, Kumushqo'rg'on va boshqalar shular jumlasidandir. Muhammad Alixon (1822-1842) davrida xonning ichki dushmanlari, unga qarshi kayfiyatdagi feodallar va ruhoniylar oshkora bosh ko'tarib, Buxoro amiri Nasrullodan yordam so'raydilar. 1840 yili Qo'qon va Buxoro o'rtasidagi urush Muhammad Alixonning mag'lubiyati bilan tugaydi. 1842 yili qo'zg'olon ko'tarilib, Buxoro noibi ag'darildi va taxtga Olimxonning jiyani Sheralixon o'tkazildi. U Qo'qon chegarasini mudofaa devori bilan mustahkamlaydi. Lekin Sheralixondan norozi bo'lgan guruhlar, uni o'ldirib, taxtga Olimxonning o'g'li Murodni xon qilib ko'taradilar. Biroq ko'p o'tmay u ham o'ldirilib Sheralixonning o'g'li Xudoyorxon taxtga o'tkaziladi. Shundan keyin ham hokimyat uchun kurash to'xtamadi. 1845-1858 yillarda Xudoyorxon birinchi marta xonlik qiladi, aslida hokimiyat uning qaynotasi Musulmonqulning qo'lida edi. 1858-1862 yillarda Sheralixonning o'g'li Mallaxon, 1862 yilda Shohmurodxon, 1862-1863 yillarda yana Xudoyorxon, 1863-1864 yillar Mallaxonning o'g'li sulton Saidxon Qo'qonga xonlik qilishdi. 1865 yilda yana, uchinchi bor, Xudoyorxon Buxoro amiri Mo'zaffar yordamida Qo'qon taxtini egallahga muvaffaq bo'ldi va Qo'qonning so'ngi xoni bo'lib qoldi.

Buxoro amirligida mang'itlar sulolasining asoschisi Muhamad Rahimbiy (1747-1758) o'zini markazlashtirish siyosatini savdo va yer egaligi bilan aloqador bo'lган feodallar manfaatiga mos ravishda amalga oshirdi. U oldin viloyatlarda hokimlik qilgan yirik yer egalarini, qabila boshliqlarini egallab turgan lavozimdan chetlashtirdi va ularning o'rniga o'z qarindoshlari hamda quyi tabaqlardan chiqqan

amaldorlarni qo'ydi. Bu ishlar hammasi katta qiynchiliklar bilan amalga oshirilgan edi.

Doniyolbiy (1758-1785) hukmronligi davrida juda ko'plab g'alayonlar bo'lib turdi va u hokimyatni o'z o'g'li Shohmurodga (1785-1800) topshirishga majbur bo'ldi. Shohmurod davrida amirlik davlat apparatini mustahkamladi. Amir o'z atrofida ishonchli kishilarni to'playdi, viloyatlarga o'ziga sodiq bo'lган odamlarni qo'yadi. Mamlakatda pul islohotini o'tkazib, tanga pullar chiqaradi. Savdoning rivojlanishiga katta ahamiyat beradi, dehqonchilik ishlari yo'lga qo'yiladi. Masjid va madrasalar qurishga e'tibor beriladi. Ammo amir Haydar (1800-1826) zamonida feodal tarqoqlik va o'zaro urushlar davom etdi. Amir Xiva, Qo'qon xonliklari va Shahrisabz bekligiga qarshi tinimsiz urushlar olib bordi. Uning siyosatiga qarshilik ko'rsatganlar qattiq jazolandи. Haydar 1821-1826 yillari Kattaqo'rgon, Yangiqurg'on, Shelek shaharlarida xalq qo'zg'olonlarini ayovsiz ravishda bostiradi. Uning vorisi amir Nasrullo (1826-1860) hokimyatni mustahkamlash, feodal tarqoqlikka yo'l quymaslik maqsadida tinimsiz kurashadi. Shahrisabz va Kitobga 20 yil mobaynida 32 marta yurish qilib, o'zining mamlakati yaxlitligini tiklashga harakat qiladi. U qo'shni Qo'qon va Xiva xonliklariga nisbatan ham o'z hukmronligini kengaytirishga intildi va ular bilan uzluksiz urush olib bordi.

Amirlik va xonliklar o'rtasidagi o'zaro kurashlar, chor Rossiyasi harbiy kuchlarining bostirib kirishiga qulay imkoniyat yaratib berdi. O'z siyosiy tuzilishiga ko'ra xonliklar bir xil edi. Buxoroda amir, Xiva va Qo'qonda xon davlat tepasida turar, ularning har bir harakati hech qanday qonun bilan cheklanmagan mutlaqo hokim edilar. Buxoroda amir huzurida ijroiya hokimyatni saroy a'yonlari bajargan qushbegi, bosh vazir, quyi qushbegi-moliyaviy ishlarni boshqargan, to'pchiboshi lashkar boshlig'i, miroxurboshi bosh xazinachi, bakovulboshi - oshxona nazoratchisi, yasovulboshi - farmoyishlarni yetkazuvchi, qozi kalon - bosh sudya va hakozo. Xiva va Qo'qonda ham ma'muriy boshqaruv tarkiban shunday tuzulgan. Ayrim mansablarning atalishi bir xil bo'lsa-da, huquqiy mavqeyi boshqacharoq bo'lган. Mahalliy boshqaruv viloyat beklari tomonidan amalga oshirilgan.

Amaldorlar davlat soliqlarini oqsoqollar, aminlar (soliq yig‘uvchilar), miroblar va boshqalar orqali undirishgan. Qishloq joylarida hokimyat dorug‘alarga berilgan, shaharlarni esa hokimlar, ularning yordamchilari yuzboshi va kadxudolar boshqargan. Osoyishtalikni saqlash mirshablar qo'lida, Qo'qonda esa qo'rбoshilar zimmasida edi. Har uchala xonlikda sud ishlari shariat peshvolari qo'lida edi. Huquqtartib masalasi bilan qozilar, muftilar, raislar, muxtasiblar bajarishgan. Amir yoki xon aralashmaydigan darajadagi sudlov ishlarga shariat-panox deb nom olgan qozi-kalon rahbarlik qilardi.

Qo'qon xonligidagi saroy unvonlari va mansablari		
Oliy darajali	O'rta darajali	Past darajali
Otaliq	Kitobdor	Salom og'asi
Beklarbegi	Risolachi	Mirzo
Biy	Bakovul	Ja'mog'a
Devonbegi	Mirzaboshi	Munshi
Xazinachi	Sarmunshi	Surnaychi
Inoq	Mehtar	Karnaychi
Eshikog'asi	Zakotchi	Dafchi
Parvonachi	Miroxo'r	Chovkuchi
Dadxoh	Shig'ovul	Shotir
Dasturxonchi	Mirob	Egarchi
Sarkor	Dorug'aboshi	Jilovdor
Sharbatdor		Jarchi
Tunqator		
Qushbegi		
Hidoyachi		

Xonliklarning asosiy boyligi yer hisoblanar edi, chunki daromad asosan yerdan kelardi. Barcha yer shartga ko'ra davlatga, ya'ni xonga yoki amirga qarashli bo'lib, aholiga foydalanish uchun turli shartlar bilan berilar edi. Yer mulklari asosan quyidagilardan iborat bo'lgan: 1) davlatga qarashli amloki-podshohiy, amloki sultoniy deb nomlangan yerlar. 2) xon (amir) tomonidan alohida xizmati uchun

bo'lib berilgan xususiy mulk yerlar. 3) masjid, mozor, xonaqo, madrasalarga ajratilgan, umuman ruhoniylarga berilgan vaqf yerlar. Dehqonlar ana shu mulk egalaridan yerkarni ijaraga olib ishlardilar va juda katta mulkdorda soliqlar to'lardilar. Boshqa xonliklarga nisbatan Qo'qonda yollanma ishchi kuchi ko'proq qo'llanilgan. Xiva xonligida yerkarning ko'p qismi (qariyb yarmi) xon va uning qarindoshlariga tegishli bo'lgan. Uchala xonlikdan qisman qishloq jamoa yerkari bo'lib, o'sha yerdan foydalanish qishloq oqsoqollari nazaratida edi. Dehqonlarning yarim qaram, nochor va qashshoq holati, natural xo'jaligi va ajralib qolgan turmush tarzi mavjud feudal tuzumning asosiy negizi hisoblanardi. Bu esa dehqonlarning to'la-to'kis va markaziy hukmdorlarga tobelikni ta'minlab berardi. Dehqonlar hayotlari yer va suv bilan chambarchas bog'liq ekanligini yaxshi tushungan holda irrigatsiya ishlarini amalga oshirishda doimo faol qatnashib keldilar, bu esa hayot negizi bo'lgan sug'orilayotgan dehqonchilikni saqlab qolish imkonini berdi. Biroq xonliklarda sug'orish inshootlari qurilishi, suv xo'jalik tadbirdari mehnatkash xalq evaziga oshirildi. Kanallar qurilishiga erkak aholi ommaviy safarbar qilinar edi. Baland joylarga chig'irlar yordamida suv chiqarilgan. Dehqonchilikda ularning ahamiyati katta edi. Xonliklarning xazinasiga kelayotgan daromadning asosiy qismi chiqishidan to'layotgan soliq hisobida bo'ldi. Dehqonchilikda asosan boshqoli ekinlar yetishtirishga jiddiy e'tibor qaratilgan edi. Har uchala xonliklardagi xonlik tizimi bir xilda bo'lib, u aholini iqtisodiy jihatdan qashshoqlashuviga olib kelar edi. Soliqning asosiy turi xiroj edi. Xiroj hosilning ma'lum qismi natural holda, ya'ni mahsulot bilan to'lanayotgan soliq turi hisoblanardi. XIX asr boshlarida shahar va shahar atrofi yerlaridan xirojning ma'lum qismi pul ko'rinishda undirilar edi. Undan tashqari bog' yoki poliz ekinlaridan tanob puli, bedazorlardan-alaf puli, chorva mollari va mol- mulkdan zakot, qush puli, dorug'a, dallali, boj kabi ko'plab soliqlar bor edi. Masalan, Xiva xonligida turli soliq majburiyat va o'lponlarning 25 ga yaqin turi bor edi. Ayrim amaldorlarning suiste'mollari soliq zulmi yukini yanada og'irlashtirar edi va xalq noroziligi kuchayishiga sabab bo'lardi. Xususan, amir Nasrullo hukmronligi davrida

Shahrisabz va Kitobbekliklarida aholining ko'pchilik tabaqalari uning soliq siyosatiga qarshilik ko'rsatib, soliq yig'uvchilarni haydab yoki o'ldirib yuborgan edilar. Bu xalq harakatini amir Nasrullo katta qiyinchilik bilan bostirgan edi. Aholi zimmasiga tayinlangan soliplardan qat'iy nazar, qal'alar, sug'orish kanallari, ko'priklar va boshqa jamoa qurilishlari majburiyat sifatida yuklatilgan edi. Tabiyki, bularning hammasi xonliklar iqtisodiyotiga juda og'ir ta'sir ko'rsatardi: xo'jaliklar tushkunlikka uchrar, dehqonlar va mayda hunarmandlar xonavayron bo'lar edi.

O'zbek xonliklarining tuzilishi negizida urug'-qabilachilik yotardi ya'ni bir etnik guruhning boshqasidan keyin kelish yo'li bilan tuzulganligini bildiradi. Ushbu xonliklardagi urug'-qabila birlashmalari barqaror xo'jalik siyosati va ma'muriy birliklar bo'lib, bu holat o'zaro kelishmovchilik ziddiyatlarini keltirib chiqarar, bu esa, o'z navbatida xonliklarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa tomonlarini zaiflashtirardi.

O'tmish ajdodlarimizning tarixiy taraqqiyot yo'liga nazar tashlayotgan bo'lsak, Markaziy Osiyo hududida yashab kelgan turk zodagonlari va boylari qadimdan davlat, mol- mulk, boylik talashib, o'zaro urushlar, qirg'inlar qilib, bir-birlarining tinkalarini quritganlar, bu esa o'lkada ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyotiga to'sqinlik qilgan. Umuman, agar ulug' Amir Temur hukmronlik qilgan davrni hisoblamasak, qabila-urug', qavm-qarindosh zaminida tashkil topgan turkiy xalqlarning yagona kuchli davlatga birlashuviga to'sqinlik qilgan bosh sababdir. Bundan foydalangan ajnabiy davlatlar Markaziy Osiyo yerlarini osonlikcha bosib olganlar, o'lkani talaganlar, xalqlarini esa qul qilganlar. Buni chor Rossiya hukumatining Markaziy Osipyoni bosib olish arafasida o'lkadagi ahvol misolida yaqqol ko'ramiz.

Rossiyaning bosqinchilik yurishlari arafasida uch xonlik boshidan chuqr iqtisodiy - ijtimoiy, siyosiy inqirozni kechirmoqda edi. Qoloq feodal tuzumda bo'lgan bu xonliklar bir-birlari bilan mol-dunyo va davlat talashib, o'zaro urushlar olib bordilar. Ular orasida diplomatik aloqalar ancha sust edi. Xonliklardagi ziddiyatli tendentsiyalarning mavjudligi mazkur davlatlarning xo'jalik, siyosiy va

ijtimoiy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Urug‘ ajratishlik, mahalliychilik kabi illatlar xonliklar ravnaqiga soya tashlay boshladi. Bu davlatlar qariyb bir yarim asr mobaynida deyarli rivojlanmadi, o'rta asrchilik siyosatini yurgizdilar, hatto qulchilik ham davom etdi. Undan tashqari qishloq xo'jaligida feodal ishlab chiqarish munosabatlarining saqlanib turganligi ham iqtisodiy inqirozni kuchaytirdi. Xonliklar ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga xalaqit berayotgan ishlab chiqarish usulini jon-jahtlari bilan himoya qildilar. Savdo-sotiq sust rivojlandi. Savdo munosabatlari oddiy ayrboshlash tarzida bo'lib, ichki bozorni tashkil qilish ham uning o'rnini bosa olmas edi. Natijada yagona ichki bozor tarkib topmadi. Shunday bo'lsa ham xonliklar atrofida qoloq davlatlar: Eron, Afg'oniston va Qashg'ar singari kam rivojlangan mamlakatlar bilan savdo-sotiq olib borishda foyda kam bo'lGANI tufayli Rossiya bilan aloqa kuchaya boshladi. O'z navbatida Rossiyaning Petr I dan boshlab janubga - O'rta Osiyo tomonga qiziqishi oshib borar edi. Bundan asosiy maqsad O'rta Osiyo xonliklari bilan tarkib topayotgan savdoni ta'minlash uchun mustahkam chegaralar barpo etish edi. XVIII asr boshlarida Rossiya qozoqlar yashab turgan o'lkada chegara o'rnatdi, u qozoqlarni ko'chirib kelib, uchta qozoq okrugi: Ural, Orenburg va Sibir okruglarini tuzdi. Bu Okruglar janubga yanada siljib borish uchun istehkom xizmatini o'tashi kerak edi. Okruglarning markazlari-Orsk, Orenburg va Semipalatinsk shaharlari O'rta Osiyo bilan savdo-sotiqni rivojlantirish uchun nuqtalarga aylandi. Xususan, Qo'qon xonligi Semipalatinsk orqali, Buxoro va Xiva xonliklari esa, Orsk va Orenburg orqali savdo ishlari olib bordilar. Qariyb hamma temir buyumlar va to'qimachilik mollari xonliklarga Rossiyadan kelar, o'z navbatida Rossiyaga paxta, jun va ipak jo'natilardi. Bora-bora xonliklar iqtisodiyoti Rossiya bilan sado qilishga mo'ljallangan o'ziga xos xom ashyo bazasiga aylana bordi. Ayni vaqtda Rossiya savdosi asta-sekin O'rta Osiyoga siljib kela boshladi. Ayrim paytlarda Yevropa mamlakatlarida davlatni boshqaruv usulini bir muncha yangilash, fan-texnika o'sa boshlash jarayoni bo'layotgan davrda, xonliklarni eskicha boshqaruv usullari yuritilishi, texnikaviy jihatdan qoloqligi, o'zaro nizo va beqarorlik jarayoni davlatchilikni halokat yoqasiga yaqinlashtirib qo'ygan edi. Shu

bois, xonliklar rivojlanayotgan dunyodan uzulib qolgan edi. O'z navbatida uchala xonlikning birlashmaganligi, o'zaro ittifoq tuzmaganligi, ilg'or texnikalar bilan qurollanmaganligi, yagona xalq, yagona Vatan zarurligi ommaviy tarzda anglab olinmaganligi o'lkaza bosqinchilik yurishlari uchun qulay imkoniyat yaratdi.

XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari birlashib, Rossiya xonliklarni bosib olish rejasini barbod qilish uchun ish olib borish o'rniga, bir-birlari bilan qonli urushlar olib bordi. Ayniqsa, Buxoro bilan Qo'qon o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib turdi, ming-minglab odamlar o'ldirildi, xonodonlar xonavayron etildi, ayniqsa, iste'dodli sarkardalar fitnalarda halok etildi. Mudofaa qobiliyatining pasayib ketishi esa Rossiya uchun juda qo'l kelardi. Ma'lumki, Angliya hukumati Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklariga ularni birlashtirish, hech bo'limganda Rossiyadan muxofazalanish uchun bitim tuzish maqsadida vakillari-emissarlari Stoddart va Konnolini yubordi. Ammo Buxoro amiri Nasrullo (1825-1860) boshqacha yo'l tutdi. Angliya emissarlari Stoddart va Konnolini asosiy maqsadi O'rta Osiyo xonliklarini birlashtirish edi. Qo'qon va Xiva xonliklari Rossiya hujumidan himoya qilish bitimini imzolashga rozi bo'lishdi, ammo Buxoro amiri Nasrullo esa, ingliz emissarlari oldiga musulmon dinini qabul qilish shartini qo'ydi. Faqat shundagina u bitimga imzo chekishga rozi bo'lishini aytdi. Tabiiyki, inglizlar bu shartni qabul qilmadilar. Shu tufayli amir Nasurlloning farmoniga binoan ingliz emissarlari Stoddart va Konnoli qatl etildi. Umuman olganda, O'rta Osiyo xonliklari Rossiyaning bu hududida hujum qilish arafasida halokat yoqasiga borib qolgan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zaiflashgan, bir-birlari oldida daxshatga tushadigan, hohlagan vaqtda hujumlar qilish, arzimagan bahonalar bilan oralarida urush chiqib ketishi mumkin bo'lgan holatdagi hayotni boshlaridan kechirmoqda edilar. Bu holat, tabiiyki, Rossiya imperiyasining ko'pdan beri rivojlanib kelayotgan tadbiri amalga oshirish uchun qulay imkoniyat tug'dirdi.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Amir Temur barpo etgan yirik markazlashgan davlat nima uchun inqirozga uchradi?

2. Amir Temur davlatining zaifligidan kimlar ustamonalik bilan foydalandilar?
3. Shayboniylar sulolasiga qachon va kim tomonidan asos solindi?
4. Shayboniylar sulolasining hukmronligi davrida mamlakatdag'i iqtisodiy siyosiy hayot to'g'risida so'zlab bering.
5. Shayboniylar davlatining inqirozga uchrashining sabablarini tushuntirib bering.
6. Ashtarkoniylar sulolasi hukmronligi davrida mamlakatdag'i ijtimoiy - siyosiy va madaniy hayot to'g'risida so'zlab bering.
7. Xiva xonligi qachon tashkil topdi va kim tomonidan asos solindi?
8. Buxoro xonligi qachon tashkil topdi va nima uchun keyinchalik Buxoro amirligi deb yuritila boshladi?
9. Qo'qon xonligining tashkil topishi va xonligidagi ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy hayot to'g'risida so'zlab bering.
10. Xonliklardagi o'zaro ichki nizo, kelishmovchiliklarning sababini tushuntirib bering.
11. O'zbekiston xonliklarining ilg'or Yevropa mamlakatlaridan ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va texnikaviy jihatdan orqada qolish sabablarini aniqlang.

#### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T., «O'zbekiston», 1998.
2. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. -T.: Yangi asr avlod, 2006.
3. Muqimov Z. Shayboniylar davlati va huquqi.-T.: Adolat. 2007.
4. Bobobekov H.N. Qo'qon tarixi. T.: Fan, 1996.
5. Xorazm tarixi. 1-jild. Mualliflar jamoasi. Ma'sul muharrir M.Matniyozov. – Urganch, 1997.
6. Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal egaligi ba davlat tuzilishi. – T.: 1959.

7. Sagdullayev A. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.
8. Sagdullayev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. T.: Akademiya, 2006.
9. Eshov B.J. O'zbekiston davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. T.: Yangi asr avlodi, 2012.
10. Eshov B., Odilov A. O'zbekiston tarixi. Eng qadimgi davrdan XIX asr o'rtalarigacha. T.: Yangi asr avlodi, 2014.
11. O'zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. R.Murtazaeva umumiy tahriri ostida. T.: Yangi asr avlodi, 2005.

## **10-MAVZU: O'ZBEK XONLIKARINING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI. MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI MILLIY-OZODLIK HARAKATI. JADIDCHILIK**

**Reja:**

1. Mavzu tarixshunosligi. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonlikarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli va o'zaro munosabatlari.
2. Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Qo'qon xonligi hududlariga hujumi. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi. Kaufmanning Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi.
3. Rossiya imperiyasining o'lkamizdag'i mustamlakachilik siyosati.
4. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatining boshlanishi, uning bosqichlari. Farg'on'a vodiysidagi xalq harakatlari.
5. Jadidlar harakatining yuzaga kelishi. Uning atoqli vakillari. Ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Jadid maorifi, adabiyoti, matbuoti, teatri.

**Tayanch tushunchalar:** Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi, mustamlakachilik ma‘muriy idora usulining joriy etilishi, Xiva xonligining siyosiy mustaqilligini yo‘qotishi, mahalliy xalqlarning haq-huquqlari, ma‘naviyati, urf-odatlarining oyoq-osti qilinishi, maorif, rus-tuzem maktablari, Milliy ozodlik harakatlari, Po’latxon qo’zg‘oloni, Dukchi Eshon, mardikorlik, Jizzax qo’zg‘aloni, Norxo’ja Eshon qo’zg‘aloni, jadidchilik, M.Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, A.Avloniy, A.Fitrat, ijtimoiy siyosiy qarashlar.

**I. Mavzu tarixshunosligi. XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli va o‘zaro munosabatlari.** Turkiston xalqlarining yerlarini bosib olish niyati Chor Rossiyasida ancha ilgari zamonlardan beri mavjud ekan. Rus pomeshiklari Markaziy Osiyoning unumdor yerlariga hasad ko‘zi bilan qarar va bu yerlarga ega bo‘lish orzusida yashardilar. Rus harbiylari ham Markaziy Osiyoni boylik manbai deb hisoblardilar. Rossiya savdogarlariga esa, bozor kerak edi. Umuman olganda Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoni o‘zi uchun muhim xomashyo makoni deb bilardi.

Rossiya davlati XVI asrning ikkinchi yarmidayoq Ashtarkon, Qozon, Sibir va Qrim xonliklarini bosib olgandan so‘ng, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston yerlariga bevosita qo’shni bo‘lib olgan edi. Chor Rossiyasining Markaziy Osiyo yerlarini bosib olishi uchun bo‘lgan harbiy yurishlari XVIII asrda, ya‘ni Petr I davridan boshlanib, XIX asrning oxirida yakunlandi. Salkam ikki asrga cho‘zilgan bu harbiy yurishlar jahonda xarakteri bilan ma‘lum davrlariga ega. Har bir davr Chor Rossiyasining tashqi va ichki siyosati bilan bog‘liq bo‘lib, xususiyatiga ega: I- davr - XVIII asrning birinchi choragidan XIX asr o‘rtalariga qadar bo‘lib, Qozog‘istonning Shimoliy hududlarini egallah, u yerlarda harbiy istehkomlar qurish va kuchlar to‘plash davri bo‘ldi. 2-davr-1850-1867 yillarda Qozog‘istonning janubiy qismini bosib olish, Toshkent, Jizzax shaharlarining bosib olinishi hamda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi bilan belgilanadi. 3 - davr- 1869-1876 yillar bo‘lib, chor qo’shinlarining Buxoro amirligi, Xiva va Qo’qon xonliklarini bosib olishdagi harbiy yurishlari bilan ta‘riflanadi. 4- davr- 1876-1895 yillar orasida Kaspiy

dengizining Sharqiy yerkanni, turkman yerkarning zabit etilishi va Pomir etagidagi yerkarning bosib olinishi bilan bog'liq edi.

Markaziy Osiyonidagi dastlab zabit etish tashabbusini Petr I boshlab bergan edi. Uning farmoni bilan 1714-1717 yillarda o'zbek xonliklarini bosib olish uchun knyaz A. Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi 6,5 ming kishilik qurollangan qo'shin va 22 to'p bilan Xivaga yuborilgan. Ammo bu qo'shin Xiva xonligi tomonidan tor-mor etildi. Ikkinchida marta 1839 yilda Orenburg harbiy gubernatori Perovskiy qo'mondonligidagi rus qo'shinnari Xiva tomon yo'lga chiqqan bo'lib, qo'shin tarkibida 5335 askar, 2320 ta ot va 12 ming tuya bor edi. Ammo safardagi sovuq, og'ir sharoit tufayli bu galgi uyuştirilgan yurish ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. XIX asrning o'rtalaridan Rossiya ma'murlari Markaziy Osiyonidagi bosib olish uchun bevosita rejalarini amalga oshirishga kirishdilar. Rossiyaning Markaziy Osiyonidagi jadalroq zabit etishga undagan sabablar nimalardan iborat? Birinchidan, Rossiyada 1861 yilgi islohotdan keyin kapitalistik munosabatlarning tez o'sib borishi va rus kapitalistlarining yangi bozorga hamda arzon xomashyo manbalariga bo'lgan ehtiyojlari. Ikkinchidan, Rossiyada XIX asrning o'rtalarida, ayniqsa,, islohotdan so'ng to'qimachilik sanoati ancha yuksaldi, markaziy Rossiya bozorlari toraydi. Chor Rossiyasiga uzoq, xalqi ko'p va qoloq bo'lgan yerdan ko'ra yangi bozorlar hamda qulayroq xomashyo manbalarini topish muhim vazifa bo'lib qolgan edi. Undan tashqari, Rossiya sanoatiga XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xom ashyo, ya'ni paxta tolasi kelmay qoldi AQSh da 1860-1865 yillardagi fuqarolar urushi 90% Amerika paxtasi bilan ishlaydigan rus to'qimachilik sanoatiga falokatli ta'sir etdi. Paxta yetishmay qoldi. Shu vaqtida Turkistonlik savdogarlar Rossiyaga paxta sotish hajmini oshirish bilan uning narxini ham ko'tardilar. Bundan g'azablangan rus fabrikantlari, Turkistonni bosib olish kerak degan fikrni ko'tarib chiqdilar. Rus matbuotida bu masala qizg'in muhokama qilindi. 1862 yili matbuotda chiqqan maqolada shunday jumlalar bor edi. "Rossiyani O'rta Osiyo bilan qiladigan aloqasidan oladigan foydasi shu darajada ayonki, bu borada beriladigan qurbanlik tezda o'zini qoplaydi". Ko'rinish turibdiki, maqsad- tezroq Turkistonni bosib olib,

iqtisodiy foyda olish edi. Shunday qilib, XIX asrning o'rtalaridan e'tiboran chor Rossiyasi bosqinchilik rejalarini amalga oshira boshladi. 1847 yili general Obruchev Orol dengizining Shimoliy-Sharq qo'rg'onini egallab, Raim (Kazalinsk) qal'asini barpo etdi. 23 avgustda polkovnik Yerofeev 200 kazak va soldatlar bilan Xiva qo'shinlarini tor-mor keltirdi va Jaxok Xo'ja qal'asini egalladi, "Nikolay" va "Konstantin" nomi bilan Orol flotiliyasini tashkil etdi.

1848 yilda Xiva xonligiga qarashli Xo'janiyoz qal'asi qo'lga kiritildi va vayron qilindi. 1852-1853 yillarda general Perovskiy boshchiligidagi 2 mingdan oshiq qo'shin bilan Qo'qon xonligiga qarashli Kumush qo'rgon, Qoshqo'rg'on va Oq machit, (Hozirgi Qizil o'rda ) ni egalladi. Oq machit "Perovskiy forti" degan nom bilan o'zgartirildi va bu yerda rus harbiy qal'asi bunyod etildi. Bu hol Qo'qon xonligini tashvishga soldi. Toshkentda 8 ming kishilik qo'shin va ko'ngillilardan iborat kuch to'planib, Oq machitni egallah uchun yo'lga chiqildi, lekin ular jangda qattiq talofat ko'rib, orqaga chekindilar.

**2. Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Qo'qon xonligi hududlariga hujumi. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi. Kaufmanning Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi.** 1860 yilda polkovnik Simmerman otryadi Qo'qon xonligining 5 ming kishilik armiyasini tor-mor keltirib, To'qmoq va Pishpek qal'alarini egalladi. Iliorti vodiysi Alatu okrugi deb o'zgartirildi. Xuddi shu yil 21 Oktabrda podpolkovnik Kolpakovskiy otryadi Kora-Kostek daryosi yon bag'ridagi uzun yog'och soyidagi jangda Qo'qon xonligining 20 ming kishilik armiyasini batamom qirib tashladi. 1861-1863 yillarda Chor qo'shinlari Qo'qon xonligiga qarashli Yangi Qo'rg'on, Din Qo'rg'on, Marke va ikkinchi marta Pishpekni egalladi. 1864 yilda Turkiston, Chimkent, Avliyo ota, (Jambul) egallandi. Chor qo'shinlarining bosqinchilik yurishlariga qarshi xalq yerini himoya qilish uchun kurashda jonbozlik ko'rsatdilar. Toshkent shahri himoyachilarining jasorati diqqatga loyiq. General Chernyaev Toshkentga 1864 yil 27 sentabrda hujum boshladi va faqat 1865 yil 17 iyulda shaharni ishg'ol qildi. Chernyaev qo'shinlarining Toshkentga dastlabki hujum muvaffaqiyatsiz tugaydi va

70 dan oshiq kishini yo'qotgan Chernyaev Chimkentga qaytishdan boshqa iloj topa olmadi. Navbatdagi hujumni Chernyaev qo'shinlari 1865 yilning aprelida boshlaydi va 28 aprelda Chirchiq yonidagi Niyozbek qal'asini ishg'ol qiladi. So'ng Chernyaev toshkentlik bir xoinning maslahatiga ko'ra Kaykovus arig'i to'g'onini buzib, uni Chirchiq daryosiga burib yuboradi. Natijada toshkentliklar suvsiz qoladi Shunga qaramay aholi shaharni qahramonlarcha mudofaa qildi. Toshkentga Qo'qondan lashkarboshi Alimqul qo'shin bilan madad bergani yetib keladi. Bu toshkentliklar ruhini bir oz bo'lsa ham ko'taradi. Lekin shahar ostonasidagi jangda Alimqul qattiq yaralanib safdan chiqadi va ko'p o'tmay halok bo'ladi. Bu shahar himoyachilarining ruhiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning ustiga suvsizlik va ochlik aholining tinka-madorini quritdi. Buxoro va Xiva xonliklari toshkentliklarga yordamga kelmadilar. Bu vaziyatdan foydalangan Chernyaev 1865 yil 17 iyulda qo'shini bilan shaharga yorib kirdi. Shahar aholisi dushmanga qarshi mardonavor jang qildi. Ammo kuchlar teng emas edi. Toshkentliklar dushman hujumiga bardosh bera olmay taslim bo'lishga majbur bo'ldilar. 1865 yil Oktabrida Toshkent Rossiya imperiyasiga qo'shilib olinganligi rasmiy ravishda e'lon qilindi.

Rus qo'shinlari Rossiya mulklarini kengaytirishni davom ettirdilar. 1886 yilda chor hukumati qo'shinlari Jizzaxni oldilar. 1867 yili joylarda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Bu mansabga general K.P.Kaufman tayinlandi. Toshkent general-gubernatorlik markazi bo'lib qoldi. 1868 yilda chor hukumati jahon bosqinchilik siyosatini davom ettirdi. Kaufman Buxoro amirini vassaliga aylantirish maqsadida 3,5 ming kishilik qo'shin bilan Zarafshon vodiysiga yurish qildi. 1868 yil 15 mayda rus qo'shinlari Samarqandni, so'ng ra Katta Qo'rg'oni egalladi. 1868 yil ohirida Zirabuloq yaqinida bo'lgan jangda amir Mo'zaffariddin qo'shinlari tor-mor qilindi, bu esa amirni asoratli, talonchilik shartnomasini imzolashga majbur qildi Shartnomaga ko'ra, Buxoro amalda Rossiyaning vassaliga aylanib, harbiy chiqim lar uchun 2000 so'm to'lashi kerak edi. Samarqandda, Katta Qo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismi amirlikdan ajratib olindi, uning hududida Zarafshon okrugi tashkil etildi.

1873 yil may oyida chor qo'shirlari Xiva xonligiga qarshi yurish boshladi. 28 mayda Xiva shahriga hujum qiladi. Xiva qo' shinlari tor-mor qilingach, Xiva xoni Muhammad Raximxon II ni general Kaufman Gandimiyon shartnomasini imzolashga majbur etdi. Shunday qilib, Xiva xonligi siyosiy mustaqillikni yo'qotdi. Shartnomaga ko'ra "Muhammad Rahimxon o'zini ulug' rus imperatorining quli" deb tan oladi. Xonlik boshqa mamlakatlar bilan Turkistondagi rus oliv hokimiyati ijozatsiz shartnomalar tuzish, aloqa o'rnatish huquqidan mahrum etiladi. Savdo-sotiq ishlarini ham faqat ruslar ko'rsatmasi bilan olib borishi kerak edi. Amudaryoning rus mulklari bilan Xiva o'rtasidagi chegara etib belgilandi, uning butun o'ng sohili Rossiyaga o'tdi. Xiva xoni harbiy chiqimlar uchun juda katta tovon to'lash majburiyatini oldi. Rossiya savdogarlari zakot to'lashdan ozod qilindi va tovarlarini qo'shni mamlakatlarga Xiva hududi orqali bojsiz tashish huquqini oldilar. Xiva yurishi tugashi bilanoq, Kaufman Qo'qon xonligini qo'shib olishga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Qo'qon xonligida 1873 yili boshlangan qo'zg'olon, 1875 yilga kelib milliy-ozodlik kurashiga aylanib ketdi. Xon ma'murlarining tinimsiz yig'imlari va shafqatsizligi sotsial ziddiyatlarni juda keskinlashtirib yuborgan holda, xalq qo'zg'olonga sabab bo'lgan edi. Xudoyorxon qatl qilgan Musulmonqulning o'g'li Abdurahmon oftobachi qo'zg'olonga boshchilik qilardi.. Unga qipchoqlar, qirg'izlar, shaharlarning butun o'troq aholisi va amalda xon atrofidagi hamma kishilar, shuningdek musulmon ruhoniylari qo'shilgan edi. Qo'zg'olondan vahimaga tushgan Xudoyorxon qochadi, uning o'miga katta o'g'li Nasriddin xon deb e'lon qilinadi. Ruslarga qarshi g'azovot e'lon qilinadi. Qo'zg'olon Farg'onani emas, balki qo'shni rus mulklarini ham qamrab olgan edi. 1875 yil avgustda Mahram yaqinida rus qo'shirlari bilan Qo'qon qo'shirlari o'rtasida to'qnashuv bo'lib, bunda Qo'qon armiyasi mag'lubiyatga uchraydi. Nasriddinbek taslim bo'ladi va general M.D.Skobelev qo'mondonligidagi rus qo'shirlari Qo'qonni, jiddiy qarshiliksiz, egallaydi. 1876 yil 19 fevralda podsho Aleksandr II farmoni bilan Qo'qon xonligi hududi Rossiyaga qo'shib olinganligi va uning o'miga Farg'ona viloyati tashkil etilganligini hamda general Skobelev harbiy gubernator etib tayinlanganligi e'lon

qilindi. Shunday qilib, 1876 yil hozirgi O'zbekiston hududi chor Rossiyasi tomonidan batamom bosib olindi. 1885 yilga kelib Markaziy Osiyoning hamma yerlari rus qo'shnlari tomonidan egallandi. Bu davrga kelib Turkiston general-gubernatorligiga beshta- Sirdaryo, Samarqand, Yettisuv, Farg'on'a va Kaspiy orti viloyatlari qarar edi. Chor Rossiyasining 1864-1885 yillar davomida olib borgan bosqinchilik urushlari natijasida O'rta Osiyo xalqlari mustamlakachilik asoratiga tushib qoldilar.

**3. Rossiya imperiyasining o'lkamizdag'i mustamlakachilik siyosati.** Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi zo'ravonlikdan iborat mustamlakachilik siyosati bo'lib, boshqa mamlakatlarni mustamlaka tarzida istilo qilishdan farq qilmas edi. Markaziy Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng o'lkada hokimiyat to'la tugatilgan va uning o'rniga davlat bosh qarilishining mustamlaka tartibi joriy qilindi. Turkiston general-governatoriga juda katta huquqlar berilgan bo'lib, hatto ichki tartiblarni mustahkamlash maqsadidida "siyosiy jihatdan ishonchsiz" kishilarni o'lordan surgun qilishdek huquq berilgan edi. Ishlab chiqilgan loyihada va 1886 yil podsho tomonidan rasmiy ravishda tasdiqlangan

"Turiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"da hamma harbiy va grajdaniq boshqarish tartiblari general-governator ixtiyoriga berilgan edi. Lekin Turkiston o'lkasini boshqarish ichki Rossiyadan qisman farq qilib, ichki ishlarni vazirligiga emas, balki harbiy vazirlikka bo'ysundirilgan edi. o'lkada viloyatlarning keng huquqlar berilgan harbiy gubernatorlar va viloyat boshqarmalari boshqarib borganlar. Viloyatlar uyezdлarga bulingan bo'lib, o'lkalardagi tsenz (nazorat) politsiyasi va ma'muriy hokimiyatlar soni 27 ta edi. Uyezdlarda esa, uyezd boshliqlari ham viloyat gubernatorlari singari rus armiyasining harbiy kishilardan tayinlab qo'yilgan edi. Uyezd boshliqlariga pristavlар, politsmeystrlar va uezd hududidagi harbiy garnizonlar itoat qilgan. Yuqoridagilarning hammasi chor Rossiyasining hokimiyati bo'lib, harbiy ma'muriyatni tashkil etardi. Yuqori boshqarish organlariga odamlardan hech qachon qo'yilmasdi. kishilar faqat ichki

boshqarishning quyi bug‘inlariga qo'yilib, harbiy hokimiyatga itoat qilardi. Ma‘muriyat esa, asosan volost boshqarmalari va qishloq jamoalaridan, qishloq va ovul oqsoqollaridan iborat edi. Shahardagi oqsoqollarni saylash faqat mulkiy tsenz asosida bo'lib, saylovchilar ham, saylanadiganlar ham yuqori tabaqa kishilardan iborat bo'lardi. Mustamlakachilik ma‘muriyatining muhim huquqiy bug‘ini sud organlari hisoblangan. Ular ikki xil ko'rinishga ega edi.

1) mustamlakachilik shaklidagi sudlar, 2) shariat asosida ish yurituvchi qozilik ya‘ni halq sudlari. Sudlar butun hokimiyatni qo'lida to'plagan harbiy ma‘muriyatning nazorati ostida edi. Toshkent shahri alohida idora qilinar edi. Shahar dumasiga saylangan deputatlarning uch yoki ikki qismini ruslar, qolgan qismini boydar tashkil etardi. Dumaga saylanish uchun juda katta pul sarf qilinar, o'tib olgach esa, o'sha pullarni qaytarib olish uchun poraxo'rlik tufayli oddiy halq ommasi aziyat chekar edi.

Shunday qilib, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, O‘zbekistonning aholisi hamma siyosiy, grajdaniqlik huquqlardan mahrum qilingan edi. Ularning juda oz qismlarigina boshqarish tartiblarida qatnashib, ular qoloqlar, boydar, savdogarlar, sudxo'r larning manfaatlarini himoya qilar edilar. Ko'pchilikni tashkil etgan xalq ommasi esa shavfqatsiz ekspluatatsiya va zulm ostida ezilib kelaverdi. Turkiston o'lkasining siyosiy,-ma‘muriy tuzilishi mustamlakachilik zulmiga va o'lkaning yerli xalqlarini milliy jihatdan ezishga asoslangan edi. General-gubernatorlik podsho Rossiyasining harbiy feodalizmga buysintirish asorati ostida halqlarni zo'rlik bilan birlashtirish shaklidan biri edi. Chor Rossiyasi O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan kamsituvchilik siyosatini olib bordi. O'lkani boylik ortirish manbai deb bildi. O'rta Osiyoning iqtisodiy taraqqiyotiga, zamonaviy industrial sanoatni rivojlanishiga zid yo'ldan bordi. o'lkada oz harajat sarf qilib, ko'p foyda keltiradigan yengil korxonalarini rivojlantirishga asosiy diqqatni qaratdi. Chor ma‘murlari O'rta Osiyoni Rossiyaning asosan xomashyo yetkazib beruvchi, derdi. Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgach, o'lkadagi xalq ommasining ahvoli yanada og‘irlashdi. Chunki, xalq ikki tomonlama eziladigan bo'lib qoldi. Bir tomonidan chor mustamlakachilar,

ikkinchi tomondan boylar, ruhoniylar xalqning qonini zulukdek surardilar. O'lkadagi ishchilar g'oyat og'ir ahvolda hayot kechirganlar. Korxonalarda ish kuni 17-18 soatgacha yetardi. Bir xil ishni bajargan rus ishchisiga ishchilardan ko'p xaq to'lanardi. Aholining 90% dan ko'pini tashkil etgan qishloq mehnatkashlarining ahvoli bundan ham og'ir edi. Soliqlar turining va miqdorining ko'payib ketishi turmushni yana ham qiyinlashtirdi. Chor Rossiya mustamlakachilik siyosatining o'ziga xos yo'naliшlaridan biri - ko'plab rus oilalarining O'rta Osiyoga ko'chirib keltirishdir. Natijada Farg'ona vodiysi, Sirdaryo, Samarqand va boshqa viloyatlardagi dehqonlarning serunum yerlari tortib olinib, ularga bo'lib berildi. Aholi esa, suvsiz cho'l, qir-adirlarga ketishga majbur bo'ldilar, kam yerli va yersiz dehqonlarning soni tobora ko'paydi.

Turkistonda chorizm agrar siyosatining asosiy mohiyati, uning agrar munosabatlarda ifodasini topdi. O'lkadagi hamma yerlar qonuniy davlat mulki deb tan olindi va meros tariqasida o'troq xalqlarga foydalanish huquqi berildi. Ko'chmanchi aholining yerlari davlat hisobiga o'tkazilib, jamoa tariqasida foydalanish huquqi bilan aholiga berildi. amaldorlarning asosiy qismi juda katta yer uchastkalariga egalik qilib, har xil shartlar bilan dehqonlarga yerni ijaraga bergenlar.

Chorizm O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng bozorlarda rus fabrika-zavodlarining raqobatiga dosh beraolmay hunarmandlar birin-ketin sina boshladi. Kun kechirish kundan - kunga og'irlashib bordi. Bosib olingandan keyin o'lkada paxtachilikka alohida e'tibor berildi, ekin maydonlari ko'paytirildi, paxta rus kapitalini o'lkaza jalb etdi. Uni yetishtirish va harid qilish bilan kamida 30 ta savdo shahobchalri Shug'ullanardi. Rossiyadagi eng yirik banklar- Rus-Osiyo banki, Moskva savdogarlar banki va davlat banki asosiy qarz beruvchilar edi. "Paxta jazavasi" o'lka qishloqlarining o'zgarib ketishiga olib keldi, yollanma ish kuchiga talab keskin o'sdi, boshqa ekin maydonlari kamaydi, ayniqsa,, buning evaziga oldin g'allasini chetga sotganlar endilikda, chorva maydonlarining va yem-hashak yetkazadigan maydonlar ham qisqardi. Markaziy Osiyoning yer osti va yer usti boyliklari Rossiya imperiyasining asosiy xomashyo bazasiga aylantirildi. Turkiston

o'lkasi boyliklarini tezroq va ko'proq tashib ketish uchun 80-yillardan boshlab Zakaspiy temir yo'lini qurishga kirishildi. Agar 1880 yili Markaziy Osiyodan Rossiyaga 300 ming pud paxta olib ketilgan bo'lsa, temir yo'l qurilishi bitirilgach, 1900 yili 5 mln. 846 ming 609 pud paxta olib ketilgan. Shu vaqt ichida Turkistondan Rossiyaga olib ketilgan pilla 5 barobar, meva mahsulotlari 160 barobar, guruch 340 barobar ko'paydi. Undan tashqari temir yo'llarning qurilishidan harbiy maqsadlar ham ko'zlangan. Bu temir yo'llar butun o'lkani bir necha yunalishlarda kesib o'tib, turli noxiyalarni bir-biri bilan bog'ladi. 1800-1889 yillar Zakaspiy temir yo'li Toshkent va Andijonga yetkazildi. 1900-1905 yillarda Toshkent-Orenburg temir yo'li qurildi va Rossiya Markazi bilan Turkistonni bog'ladi, uni umumiy rus bozorining qismiga aylantirdi. Temir yo'lning ishga tushirilishi Turkistonda Rossiyaga xizmat qiluvchi sanoat korxonalarning paydo bo'lishiga ham turtki bo'ldi. Bu korxonalar rus kapitalistlari uchun xizmat qildi shu bois bu yerda faqat dastlabki qayta ishlash korxonalari , ya'ni paxta tozalash, g'isht, yog'-moy ekstratsiya zavodlari, tamaki, aroq-vino korxonalari qurildi. Masalan, 1867-1900 yillar davomida Turkistonda 175 sanoat korxonalari ishga tushirilgan bo'lsa, ularning barchasi paxta tozalash zavodlari edi. Butun Turkiston yalpi sanoatining 80 foizi paxtani dastlabki ishslash sohasiga to'g'ri kelgan.

**4. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatining boshlanishi, uning bosqichlari. Farg'ona vodiysidagi xalq harakatlari.** Chorizm tub aholi madaniyatining rivojlanishiga ongli ravishda to'sqinlik qildi. Turkiston general-gubernatori Kaufman imperatorga yuborgan maktublarning birida Markaziy Osiyo madaniyatini, ijtimoiy taraqqiyotini uch yuz yil orqaga surib yuborganligi to'g'risida maqtanib yozgan edi. Haqiqatda, rus ma'muriyati, ayniqsa, xalq maorifini "hibsda" ushlab turishga harakat qildi, uning ta'minlashga mablag' deyarli ajratilmadi. Aleksandr II davrida (1881-1894) ruslashtirish siyosati kuchayib ketadi. Bu siyosatni ro'yobga chiqarish maqsadida general-gubernator Rozenbak rus-tuzem o'quv yurtlarini ko'paytirdi, bolalarni rus bolalari bilan birga o'qishga jalb qiladi. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884 yilda

Toshkentda ochildi va 1891 yilga kelib ularning soni 89 taga yetdi. Rus ma'muriyatni mazkur maktablarda vakillardan tarjimonlar va umuman xizmatkorlarni tayyorlashni rejalashtirgan edi. Behbudiy ularni shunday ta'riflagan edi: "rus-tuzem maktablarida o'qiganlarni tugun xiyoli ham hisoblanadurlar. Ular faqat ruscha chalasavod kishilardir". Rossiya mustamlakachilari Turkiston aholisini tobelik, itoatguylik muhitida tarbiyalash, yevropacha turmush tarzining g'alabasini to'la ta'minlash uchun intilishlari maorifda milliy qadriyatlarni tarbiyalaydigan ma'naviyat o'choqlarini asta-sekinlik bilan siqib chiqarish, milliy an'analariga loqayd, o'zligini anglashga qodir bo'lмаган, manqurt sifat qullar tayyorlashga qaratilgan edi. Biroq o'lkaning ma'rifatparvarlari, ayniqsa, jadidlar, bu maqsadlarni to'liq ochishga yo'l qo'ymadilar. Bu davrda eski boshlang'ich maktablar va madrasalarda dunyoviy fanlar kiritildi, yangi usul maktablari ochildi. Chor ma'murlari madaniyat targ'iboti bahonasida Turkistonga shovinistik g'oyani tarqatdilar. Fan va madaniyat sohasidagi siyosat yo'nalishi o'lka xalqlari tarixi, milliy qadriyatlari, an'anaviy urf-odatlari, islomiy ma'naviyatidan butunlay uzib tashlashga qaratilgan edi.

Mustamlakachilar Turkistonning nafaqat moddiy boyliklariga tajovo'zona munosabatda bo'lmay,, balki uning asriy tarixiy-madaniy va ma'naviy ilmiy qimmatiga molik nodir boyliklarini ham talon-taroj qildilar va Rossiyaga tinimsiz olib ketishni yo'lga qo'ydilar.

Ularning ko'pchiligi jahon ahamiyatiga ega bo'lgan tarixiy san'at asarlari edi. Natijada xalqlarni ming asrlik tarixiy yodgorliklaridan, ma'naviy xazinasidan ajratib qo'ydilar. Ushbu ishlarni rejali tashkil etish uchun mustamlakachilar qator ilmiy jamiyat va muassasalar tashkil qildilar. Masalan, 1870 yilda tashkil etilgan kutubxona nodir tarixiy-badiiy, ilmiy asarlarni jamlab jo'natsa, 1876 yilda Toshkentda ochilgan muzey tarixiy osoru- atiqalar, madaniyatga oid noyob durdonalarni, tangalardan tortib san'at buyumlariga qadar jo'natib turdi.

Xulosa qilib aytganda, chor Rossiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi va shu xududda uzoq yillar davomida mustamlakachilik siyosatini yurgizishi xalqlar

hayotiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillikdan mahrum bo'lgan yurtimizning butun turmushi ag'dar-to'ntar qilib yuborildi, iqtisodiyot bir tomonlama rivojlandi, shu yerli xalqlarning urf-odatlari, tili, madaniy negizlari zo'ravonlik bilan toptaldi.

Chor Rossiyasining Turkiston xalqlariga nisbatan yurgizgan mustamlakachilik, ulug' davlatchilik va shovinistik siyosati albatta qonuniy suratda aholining milliy ozodligi, erki va insoniy haq-huquqlarini himoya qilish uchun muqaddas jangga otlantirdi.

Taniqli tarixchi olim Shodi Karimovning «Qafasdagi qush orzusi» nomli risolasida (Toshkent, «Fan», 1991, 29-bet) ta'kidlanganidek «Qafasdagi qushning muddaosi bitta - u ham bo'lsa ozodlik, hurlik, erkinlik, qafasni tark etishdir». Darhaqiqatni, shu boisdan ham chorizm tomonidan asoratga solingan, mustamlaka qilingan Markaziy Osiyo xalqlari dastlabki kunlardanoq milliy mustaqilliklari, ozodliklari va erklari uchun muqaddas kurashni boshlab yubordilar.

Bu milliy harakatini taxminiy uch bosqichga bo'lib tahlil etish maqsadga muvofaqdir.

**I - bosqich**, XIX asrning 70 yillaridagi xalq harakatlari;

**II - bosqich**, XIX asrning 80-90 yillarida Turkistonda xalq harakatlari;

**III - bosqich**, 1916 yilgi xalq qo'zg'oloni.

Birinchi bosqichdagi milliy ozodlik harakati asosan Farg'ona vodiysida sodir bo'lgan xalq harakatlari bilan bog'liqdir.

Ma'lumki 1868 yilda Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman Qo'qon xonligidan tortib olingan yerlarning Rossiya tarkibiga kiritilganligini rasmiy qonunlashtirish uchun Qo'qon xoni bilan shartnomani tuzgan edi. Bu shartnomani Qo'qon xonligini og'ir va noqulay ahvolga solib qo'ydi. Xonlik tashqi olamdan uzib tashlandi. Xonlik chegarasi ancha qisqarib, xazinaga tushadigan daromad kamaydi. Uning o'rnini to'ldirish uchun turli soliq va majburiyatlar joriy etildi. Bir butun Farg'ona vodiysida ikki xil tartib-qoidalar mavjud edi.

Xonlikdan tartib olinib, tashkil qilingan viloyat, uyezd va volostlarda bosqinchilarining tamomila mustamlakachilik qonunlari amal qildi. Bu qonun va

tartiblar aholining asriy shakllangan tarixiy turmush tarzi, urf-odatlari va an'analariga mutlaqo zid edi. Bundan tashqari mustamlaka hokimiyati xalqqa solinadigan soliq miqdorini haddan tashqari oshirib yubordi. Bularning hammasi xalq noroziligining alanga olishiga asosiy sabab bo'ldi.

Mustamlakachilik siyosati va zulmiga qarshi Turkiston o'lkasidagi XIX asrning 70- yillaridagi xalq harakatlari orasida 1873-1876 yillarda Farg'ona vodiysida bo'lib o'tgan qo'zg'olon alohida o'rinni egallaydi.

Qo'zg'olonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib dehqonlar, hunarmandlar va mayda savdogarlar maydonga chiqdilar. Bu qo'zg'olon mustamlakachilik va jabr-zulmatga qarshi ko'tarilgan xalq harakati edi. Bu qudratli to'lqin goh susayib, goh kuchayib, 1873 yildan to 1877 yilgacha davom etdi. Shu jarayonda xalq orasidan sarkardalar, qo'zg'olon yo'l boshchilari yetishib chiqdi. Ular xalqqa bosh bo'lib, so'nggi nafasigacha dushmanga qarshi kurashdilar.

Ana shundaylardan biri, xalq orasida Po'latxon nomi bilan mashhur bo'lgan Mullo Isxoq Mullo Xasan o'g'lidir. Dastlab qo'zg'olon qirg'iz aholisi orasida boshlandi. Jalolobod va Xonabod qishloqlarida xonning soliq yig'uvchilari o'ldirildi. Undan keyin O'sh qirg'izlari ko'tarildilar. Qo'zg'olon alangasi bora-bora kuchayib, turli qishloq va ovullarni qamrab ola boshladi. Chotqoldan Olabuqa darasi orqali Kosonga hujum uyuştirilgan qo'zg'olonchilarning soni o'n mingga yaqinlashib qoldi. Ularga qarshi xon qo'shin yubordi va xon qo'shinlari bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida bo'lgan bir qator to'qnashuvlarda, qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchradilar. Shu tariqa, 1873 yilning bahorida boshlangan qo'zg'olon kuzga kelib vaqtincha to'xtadi. Po'latxon yangi hujum uchun kuch to'plagani Chotqol tog'lariga chekindi.

1874 yilning bahorida yana g'alayonlar boshlandi. Qo'qon xonligining turli viloyatlarida ommanning chiqishlari va ayrim to'qnashuvlari davom etdi.

1875 yilning bahorida qayta boshlangan qo'zg'olon kutilmaganda yo'nalishini o'zgartiradi. Bunga sabab, bu qo'zg'olonga boy-zodagonlar, musulmon ruhoniylarining peshvolari ham faol ishtirok eta boshlaydi. Ularning asosiy maqsadi

hokimiyatni qo'lga olish edi. Hayoti xavf ostida qolgan Qo'qon xoni Xudoyorxon chor hukumati himoyasi ostiga qochadi. Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek Qo'qon xoni deb e'lon qilinadi.

Nasriddinbek esa qo'zg'oltonni tinchitish va hokimiyatini mustahkamlash maqsadida, chor hokimiyati Kaufman nomiga xat bilan murojaat qiladi. 1875 yil 25-sentabrda u qo'zg'olonchilardan yashirinchha Kaufman bilan shartnomaga tuzadi, unga ko'ra u o'zini Rossiyaga tobe deb tan oladi, katta tovon to'lashga va'da beradi va xonlikning bir qismini Rossiyaga qo'shilishiga rozilik bildiradi. Bu esa qo'zg'olton ko'targan xalqning g'azabini o't oldiradi va ular qurollarini Nasriddinbek va uning tevaragidagi boy-zodagonlarga qarshi qaratadilar. Qo'zg'olonchilar Qo'qonni, Marg'ilonni va ko'pgina qishloqlarni egallaydilar. Ular hamma joyda o'zlari yomon ko'rgan hokimlardan qasos oladilar va ularning o'rniga o'zlarining odamlarini quyadilar. Qo'zg'olton shunchalik keng tus oladiki, Hatto Turkiston general-gubernatori Kaufman yordam so'rab Aleksandr II ga murojaat qilishga majbur bo'ladi. 1876 yil 12-fevralda podsho farmoniga binoan Qo'qon xonligi tugatilib, uning o'rnida Farg'ona viloyati tashkil etiladi va u Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritiladi.

Qo'qon xonligi tugatilib Farg'ona viloyati ta'sis etilishiga qaramasdan ozodlik kurashi mutlaqo to'xtab qolmadi. Turli millatga mansub aholining vatanparvar o'g'lonlari erk, ozodlik uchun kurashni davom ettirdilar. Bu gal ozodlik harakati kurash bayrog'i Farg'ona dan Oloyga ko'chirildi.

Turkiy xalqlarning jasur malikasi, qirg'iz ayoli Qurbonjon dodxoh o'g'illari bilan qahrli general Skobelev qo'shiniga qarshi kurashish uchun kuch tuplay boshladi.

O'tmishdan ma'lumki, zabardast va g'oyat g'ururli sarkardalar, xotin-qizlar bilan jang qilishni erkaklik sha'niga isnod keltiradi deb hisoblashgan. Masalan, Iskandar Zulqarnayn Turon zaminida xotin-qizlar boshchiligidagi jangovor qismlarni ko'rib, ular bilan jang qilishdan bosh tortdi. General Skobelev esa moziy sarkardalarining donish udumiga zid borib, uning ma'naviy-ruhiy tomonlarini o'ylab

ham ko'rmadi. Uning ayol qo'mondon Qurbanjon podshohga qarshi otlanishi bilan obro'-e'tibori g'oyat yerga urilishiga farosati ham yetmadi. Ma'naviy- ahloqiy sifatlardan mahrum bo'lgan insonlarning qonini oqizishni kasbga aylantirgan general uchun insoniylik g'oyasi ahamiyatsiz edi. Unga xalqlarning qoni bilan sug'orilgan tuproqda mustamlakachilik bayrog'i xilpirab tursa bas. Uning shovinizm ruhida shakllangan dunyoni tushunish falsafasi ana shu tarzda kamol topgan edi. Bu buyuk rus davlatchilik shovinizmining mahsuli edi.

Lekin, Qurbanjon dodxoh va uni qo'llab-quvvatlagan vatanparvarlar ming bir imkoniyatdan foydalanib, og'ir va mashaqqatli kurashni olib boraverdilar. Ular general Skobelevga mustamlakachilar hech qachon va'dalarini, o'zлari nizomlagan bitim va kelishuvlarni halol bajarmaganligini, shunga ko'ra kurash olib borishga majbur ekanliklarini bildirdilar.

Hatto 1876 yil 31-iyul kuni urug'larning bir qator vakillari Skobelev huzuriga kelib taslim bo'lishganini bildirishganda ham Qurbanjon dodxoh, o'g'illari bilan kurashni davom ettirdilar. General Skobelev tinchlik shartnomasi tuzish uchun mayor Ionovni ayol sarkarda huzuriga yubordi. Ammo Qurbanjon dodxoh mavqeい o'zi bilan teng qo'mondon bilan sulx tuzishi mumkinligini aytdi. Oxir-oqibatda general Skobelev Qurbanjon dodxoh bilan uchrashib, muzokara olib borishga majbur bo'ldi va u qo'ygan talablarga rozi bo'ldi. Bu Qurbanjon dodxohning Skobelev ustidan ma'naviy-ruhiy g'alabasi bo'lib tarixga kirdi.

Rossiya mustamlakachilariga qarshi olib borilgan milliy-ozodlik kurashining ikkinchi, XIXasrning 80-90 yillarini ichiga olgan bosqichida sodir bo'lgan yirik harakatlardan biri bu 1892 yili Turkiston general-gubernatorligining markazi bo'l mish Toshkent shahrida bo'lib o'tgan qo'zg'olondir. Turkiston xalqlari tarixida «Vabo qo'zg'oloni» nomi bilan mashhur bo'lgan bu qo'zg'olon rus mustamlakachilarining xalqning milliy va diniy qadriyatlari bilan mutlaqo hisoblashishmaganligi, milliy va diniy g'uruning yerga urilishini istamagan xalqning kelgindilarga qarshi mardonavor kurashga otlanganliklarining yorqin timsolidir.

1892 yil iyun oyi boshida Toshkentda vabo bilan kasallanganlar aniqlandi. Shahar ma'muriyati bu kasallikka qarshi bir qancha shoshilinch tadbirlarni amalga oshirishga kirishadi. Shunday tadbirlardan, masalan, vabo kasalligidan olamdan o'tganlarni milliy va diniy udumlargaga ko'ra qabristonga kumishni ta'qiqlash, o'lganlarni tibbiy muassasa xodimlari topshirgandan keyingina alohida vabo mozorlariga majburiy ko'mish va x.k. Umuman vaboning oldini olish maqsadida kurligan tadbirlarning asosiy qismi aholining diniy va milliy urf-odatlariga qattiq tekkan edi.

Undan tashqari, vabo kasali bilan og'rigan aholiga tibbiy yordam ko'rsatish va davolashlar ruslarga nisbatan bo'lgan munosabatda ham adolatsizlikka yo'l qo'yilgan edi.

Masalan, ma'lumotlarga qaraganda, shaharning ruslar yashaydigan qismida 417 kishi, aholi yashaydigan qismida vabo kasali bilan 1467 kishi kasallangan. Shulardan, yevropaliklardan 200 nafari sog'aygan (50 foizi) bo'lsa, aholidan faqat 22 kishi (ya'ni, 1-1,5 foizi) sog'aygan holos. Bu raqamlardan rus ma'muriyatining vabo bilan kasallangan aholi vakillariga nisbatan qanday munosabatda bo'lganliklarini qurib olish mumkin. Bundan tashqari, chor hukumatining shaharda yashayotgan ruslarga nisbatan aholiga past nazar bilan qaraganini ham sezmaslik mumkin emas.

1892 yil 22 iyunda shaharning Shayxontohur dahasida yig'ilgan aholi o'lganlarni eski, mozoriga ko'mishga ruxsat berilishini so'rab shahar boshlig'i nomiga iltimosnama bilan murojaat qilishdi. Iltimosnomada marhum ayollarni vrachlar tomonidan tekshirilishi va ayniqsa,, ko'mish marosimlarining buzilishi shariatga to'g'ri kelmasligi va boshqa fikrlar bildirilgan edi. Biroq bu iltimosnomaga hech kim kuloq solmadi va u bajarilmadi. Sabr kosasi to'lган eski shaharlik o'zbeklar 24 iyunda bosh ko'tardi.

Qurolsiz 500 kishidan ortiq xalq qo'zg'olonchilariga qarshi harbiy gubernator tomonidan otliq qazaq otryadlari yuboriladi. Qo'zg'olonchilarining yuzga yaqini suvga cho'ktiriladi. qochganlar ayovsiz qiriladi. Tarixga «Toshotar voqeasi» deb

kirgan bu qo'zg'olon oqibatida g'aleyon qatnashchilaridan 8 kishi o'lim jazosiga, 3 kishi qamoqqa hukm qilinadi.

Rus mustamlakachilari qo'zg'olonchilarni jazolashda o'zlariga yoqmagan ziylolilarni, xalqni orqasidan yetaklashga qodir bo'lgan ma'rifatparvar va millatparvarlarni ham qatag'on qildi. Mustamlakachilar musulmonlarni taxqirlab, ularni har bir rus amaldorlariga ta'zim bajo keltirishlari majburligi to'g'risida buyruq e'lon qilishdi. Hatto kim ko'chada ruslarga bukilib salom bermaydigan bo'lsa, uni urib qamaydigan odat ham chiqarishdi.

Turkiston xalqlarining chor mustamlakachilariga qarshi milliy ozodlik harakatining ikkinchi bosqichidagi yirik qo'zg'olonlardan yana biri 1898 yilda Andijonda bo'lib o'tgan qo'zg'olondir. Farg'ona vodiysi Turkistonning asosiy paxta yetishtiruvchi maydoni bo'lganligi uchun va paxtadan keladigan foyda rus amaldorlari bilan boylarning qo'lida bo'lganligi uchun oddiy xalq ommasi nihoyat darajada qashshoqlasha boshlagan edi. Bundan tashqari, yangi xo'jayinlar soliqlarning miqdorini bir necha bor oshirdilar va yangi-yangi soliq turlarini o'ylab chiqardilar. Hatto shunday voqealar bo'lgandiki, ayrim qishloqlarning aholisi daryo suvi 10-15 yil oldin yuvib ketgan yerlar uchun ham yer solig'i to'lashga majbur qilgan edilar. Xo'rangan xalqning qaxr-g'azabi yig'ilib asta-sekin qo'zg'olonga aylana boshladidi. Bu qo'zg'olonga eshon Muhammad Ali Sobir Sufiev rahbarlik qildi Uning otasi Muhammad Sobir hunarmand bo'lib, duk yasardi. Madali eshon juda o'qimishli, dunyoqarashi chuqr, davrining yetuk kishisi va shuningdek, u Makkaga hajga ham borib kelgan edi. U Mingtepa qishlog'i yaqinida tuproqli yo'l yoqasida bir necha qayrog'ochlar ekib, uzoqdan yelkasiga suv tashib kelib sug'ordi va yo'lovchilarning xojatini chiqardi.

Asta-sekin Madali eshon haqidagi gaplar atrof qishloqlarga yoyildi. Qo'zg'olonchilarning asosiy maqsadi, rus bosqinchilarini batamom haydab chiqariib, mustaqillikka erishish va xalqni ikki yoqlama zulmdan holos qilish edi.

Qo'zg'olonchilar Turkistonda chorizmning asosiy tayanchi va xalqni qullikda ushlab turgan kuchlar armiya ekanligini yaxshi bilardilar. Shuning uchun Andijon

shahridagi oq podsho askarlari yashaydigan garnizonga hujum qilishga qaror qilindi. Qilich, xanjar, o'roq va tayoqlar bilan qurollangan qo'zg'olonchilar tunda hujum boshladilar. Oldinlari bo'lganidek, dastlab qo'zg'olonchilarga yon bosgan katta yer egalari O'shda, Marg'ilonda va boshqa shaharlarda ko'tarilishi kerak bo'lgan qo'zg'olonlarning rejasini buzib, xoinlik qildilar. Bu qo'zg'olon to'g'risida yozgan Terent'evning gapiga ko'ra, qo'zg'olonchilarning maqsadi «Oqshom mahali bir paytda Marg'ilon, O'sh va Andijondagi askarlarning lagerlariga hujum qilib, bu shaharlarni egallah va so'nra Namanganni egallab Qo'qon xonligini tiklash, keyin esa Toshkent va Samarcandni ham egallab, o'lkadan ruslarni quvib chiqarish edi».

O'roq va tayoq bilan qurollangan qo'zg'olonchilar mashq ko'rgan va yaxshi qurollangan chor armiyasiga bas kelolmadi. Qo'zg'olon nihoyat darajada vaxshiylik bilan bostirildi. Qo'zg'olon bostirilgach, uning 546 faol qatnashchilari ustidan sud bo'ldi. Sudda, chor ma'murlari qo'zg'olon boshlig'i Madali eshondan: «Nega xalqni Qo'zg'olonga ko'tarding?» deb so'raganlarida u, Rossiya Turkistonni bosib oliganidan so'ng bu yerda axloqsizlik, foxishabozlik, har xil o'yinlar, aroqxo'rlik keng avj olib ketganligi, umuman shariat qoidalari oyoq osti qilinganligi, bunday axloqsizlik paytida Makkaga hajga borishni ta'qiqlanishi, xalq o'rtasida ma'naviy tushkunlikni yanada avj olib ketishiga sabab bo'lganligi, Ozod Turkistonning ozodligi yo'q qilinganligi kabi sabablar uni xalqni qo'zg'olonga ko'tarishga olib kelganligini aytди. Madali eshon va uning izdoshlari ustidan sud 1898 yil 11 iyunda Andijon shahrida bo'lib o'tdi va hukm zudlik bilan ijro etildi. Hatto rus tarixchilarining guvohlik berishlaricha 12 iyunda dor tagida turgan Madali eshon va uning yordamchilari yovlarning ko'ziga shunchalik sovuqqonlik bilan boqib, mardonavor turdilarki, ular bir og'iz ham avf qilishlarini so'ramay, sirtmojni bo'yinlariga soldilar.

Qo'zg'olonchilarning bir qismi uzoq Sibirga surgun qilindilar. Qo'zg'olonda qatnashgan qishloqlarning aholisi nihoyat darajada qattiq jazoladilar. Qo'zg'olonchilar Andijon tomonga qaysi qishloqlar orqali o'tgan bo'lsalar, shu qishloqlardan to Andijongacha bo'lgan masofadagi uylar 1 kilometr enlikda yer bilan

tep-tekis qilindi. Tekislangan yerga esa janubiy rus guberniyalaridan ko'chirib keltirilgan mujiklar joylashtirildi. Mingtepa qishlog'inining nomi «Pojaluysta» (Marhamat) deb o'zgartirildi.

Farg'ona vodiysida chorizmga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon shu tariqa bostirildi. Lekin Dukchi eshon qo'zg'oloni bostirilgani bilan bepoyon Turkistonning hali bu yerida, hali u yerida qo'zg'olonlar bo'lib turdi. Demoqchimizki, qo'zg'olon nom-nishonsiz qolmadni. Bu qo'zg'olon dehqonlarga, shahar va qishloqlarning mehnatkash ommasiga kurash yo'lini ko'rsatdi hamda o'n minglab kishilarning podshohning mustabid hokimiyatiga qarshi faol harakat qilishga chorladi. Kelasi 1899 yilning 20 iyunida Farg'ona vodiysida yangi qo'zg'olon ko'tarilib, ma'muriy binoga o't qo'yildi va politsiya uchastkasiga hujum qilindi. Shunday qilib, Turkiston Rossiya imperiyasining eng isyonkor o'lklalaridan biriga aylana bordi.

XX asr boshlarida chor Rossiyada siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaltis voqealar sodir bo'ldi. 1900-1903 yillardagi iqtisodiy inqiroz Rossiyaning butun xududini qamrab oldi. 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushida Rossiyaning mag'lubiyatga uchrashi mamlakat ahvolini yanada keskinlashtirib yubordi.

Bunday holatning salbiy ta'siri Turkiston o'lkasiga ham yetib keldi. Urushda ko'rilgan talofatning o'rnini qoplash uchun mustamlaka hududlarini ayovsiz talash avjiga chiqdi o'zbek dehqoni va uning oilasi ochlik, qashshoqlik yoqasiga kelib qoldi

1905 yil 9 yanvarda Peterburgda sodir bo'lgan qonli yakshanba fojeasi chekka o'lka aholisini ham kurashga tortdi. O'sha kezlardagi Rossiyadagi inqilobiy holat Turkistondagi dehqonlarni ham harakat maydoniga undadi va qishloqda sinfiy kurash avj oldi.

Shunday sinfiy kurash jahon haqiqiy qahramonlarini, jasur yo'lboshchilarini yuzaga keltirdi. Xususan, Nomoz Primqulovdek zabardast xalq kurashchilari yetishib chiqdiki, ularning nomlarini amaldorlar, podsholik ma'muriyatlar eshitib qolgudek bo'lsa, daxshatga tushadigan bo'lib qoldilar. Mustamlakachilik ma'muriyati va generallari uchun Nomoz Primqulovning nomini eshitish o'ta xavfli bo'lib qoldi. Xalq unga «Nomoz botir» deb nom qo'ydi.

Nomoz Primqulov 1904-1905 yillar davomida Samarqand viloyat qishloqlari, tog‘ va daralarida mustamlakachilar va ularning ittifoqchilari bo‘lgan boylar, savdogarlarga qarshi qasoskorona kurash olib bordi. U qasos qilichini birinchi navbatda xalqni talagan va uning izzat-nafsoniyatiga tekkan katta yer egalari, sudxo‘r va savdogarlarga qaratdi, ularning mol-mulkini kambag‘al dehqonlarga bo‘lib berdi. Mustamlakachilarga nisbatan cheksiz nafratga to‘lib-toshgan Nomoz ularga shafqat qilmadi.

Turkiston general-gubernatori «O‘zbek Dubrovskiy» bo‘lmish Nomoz Primqulovni tutib olish va jazolash yuzasidan maxsus tadbir-chora ishlab chiqish va uni amalga oshirish yuzasidan farmoyish chiqardi. Bu operatsiyani bajarish uchun shaxsan Samarqand viloyat harbiy gubernatori yordamchisi polkovnik Susanin javobgar qilib tayinlanadi. Operatsiya muvaffaqiyaini ta‘minlash ishiga Buxoro Amiri Said Abdulaahadxon ham jalb etiladi. 1907 yil may oyida gubernatorlikning katta qo‘smini bilan bo‘lgan tengsiz jangda nomozchilar katta talofat ko‘radilar va Nomoz xiyonatkorona o‘ldiriladi.

Nomozning o‘limi dehqonlarning mavjud tartiblar va mustabid mustamlakachi tuzumga qarshi kurashini to‘xtata olmadi va kurashni davom etdi.

Ma‘lumki, 1914 yilda birinchi jahon urushi boshlandi. Iqtisodiy va siyosiy jihatdan baquvvat bo‘lмаган Rossiya imperiyasining bu urushga qo‘shilishi shusiz ham og‘ir bo‘lib turgan ahvolni yanada og‘irlashtirib yubordi. Bu og‘irlik Rossiyaning mustamlakalarida ayniqla, qattiq aks sado berdi. Chor amaldorlari ko‘rsatmalaridan so‘ng Turkistondagi barcha hosildor yerlarga paxta ekilib, g‘alla esa Orenburgdan va Shimoliy Kavkazdan tashib kelina boshlandi. 1916 yilga kelib, bu g‘alla ham kelmay qoldi. Ochlik boshlanib, oziq-ovqatlarning narxlari bir necha bor oshib ketdi. Savdogarlar esa bu kulfatdan unumli foydalanib qolish yo‘liga o‘tdilar. Oddiy xalqning kun ko‘rishi nihoyatda og‘irlashib ketdi.

Qimmatchilik xalqning sabr kosasini to‘ldirib yubordi. Imperator Nikolay II ning 1916 yilning 25 iyunida turkistonliklarni mardikorlikka olish haqidagi farmoni hammasidan oshib tushdi. 1886 yilgi kelishuvga binoan turkistonlik yigitlar oq

podsho armiyasi safida xizmat qilishdan ozod qilingan edilar. Endi esa Oq podsho bu kelishuvni ustalik bilan aylanib o'tib, turkistonliklarni front orqasidagi og'ir ishlarni bajarishga safarbar qilmoqchi bo'ldi. Podshoning farmoniga ko'ra, 19 yoshdan 31 yoshgacha bo'lgan 200 ming kishi Rossiyaga jo'natilishi kerak edi. Xalqning qahr-g'azabini bosish uchun podsho amaldorlari xalqni: «Mardikorga olinganlar faqat uch oygina xizmat qilib qaytadilar va shu davr mobaynida ularning oilalariga yordam ko'rsatiladi». - deb aldadilar.

Zudlik bilan ro'yxatlar tuzila boshlandi. Amaldorlar o'rtasida poraxo'rlik avj olib ketdi. Boylar bolalarini katta pul evaziga mardikorlikdan olib qola boshladilar. Bunday bedodliklarni ko'zi bilan ko'rib turgan xalq xo'rlikka,adolatsizlikka qarshi qo'zg'aldi. 1916 yilning 4 iyulida Xo'jandda, 5 iyulda Marg'ilonda, II iyulda Namanganda, Toshkentda hamda Toshkent viloyatida xalq maydonga chiqdi. Bundan talvasaga tushgan podsho Nikolay II 18 iyulda Turkiston o'lkasida harbiy holat e'lon qildi va Turkiston harbiy okrugi qo'shirlari boshlig'iga, harbiy holat davrida bosh qo'mondonlik huquqini berdi. Turkistonda mardikorlikka qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon ayniqsa, Jizzaxda eng yuqori nuqtaga ko'tarildi. Jizzax qo'zg'oloni 13 iyulda, ya'ni mardikorlikka olish haqidagi farmon o'qib eshittirilganligidan so'ng boshlandi. Farmonidan so'ng 10 kun muddat ichida jo'natilgan yigitlar to'planishi kerak edi.

Ammo, muddat o'tganligiga qaramay hech kim to'planmadi. Shundan so'ng Jizzax uyezdining boshlig'i Rukin eski shahar aholisini machitga yig'ib: «Men sizlarni ogohlantirib shuni aytamanki, agarda hukumatga qarshi chiqadigan bo'l salaring, mol-mulklariningni va o'zlariningni yer bilan tep-tegis qilaman» - deya do'q urdi. 18 iyul kuni Jizzaxning eski shahar aholisi, qo'llariga duch kelgan narsalarni olib Norxo'ja Eshon boshchiligidagi shahar tomon yo'l oldilar. Ularga yo'lida rus amaldori Rukin, bosh oqsoqol Yo'ldoshev, pristav va tilmochlar peshvoz chiqdilar. Xalq ularni o'ldirdi. Shundan so'ng bu yerga zudlik bilan yetib kelgan jazo otryadi xalqni o'qqa tutdi. Qo'zg'olon katta alangadek gurillab ketdi. Bundan nihoyatda vaximaga tushgan Turkiston general-gubernatori bu yerga qo'shimcha jazo otryadi

yubordi. Otryadga boshliq qilib tayinlangan polkovnik Ivanovga, general-gubernator qo'zg'olonchilarga nisbatan rahm-shafqatsiz bo'lishni va ularga eng og'ir jazolarni qo'llashni hamda qo'zg'olon ko'targan qishloqlarni yoppasiga yoqib yuborishni tayinladi.

Ivanov ham xo'jayinining buyrug'ini oshig'i bilan bajardi. Qo'zg'olon ko'targan Forish va Zomin qishloqlari o't ichida qoldi qo'zg'olon bostirilgandan so'ng , 100 dan ziyod odam tergov qilindi. General-gubernatorning buyrug'i bilan, har bir Husayn rus uchun katta miqdorda hosildor yerlar tovon sifatida aholidan tortib olindi. Qo'lga tushirilgan qo'zg'olonchilarni sud qilish jarayoni juda tezlik bilan olib borildi. Odamlarni «ayblariga» iqror qildirish uchun qattiq qiynadilar. 1916 yilgi qo'zg'olonda qatnashgan 377 kishi o'limga mahkum qilindi. Bularning ichida jasur, erk sevar, qullikdan ko'ra o'limni afzal ko'rghan Nazirxo'ja Abdusalomov, Abdurahmon jevachi, Rahmon Jaynoq Abdurasulov, Mulla Muhammad Rahim, Xudoyberdi Yusupov, Turaqo'l To'rabekov, Haydar Xusainov va Haydar Yo'ldoshev kabi yovqur ota- bobolarimiz bor edilar. Bu qo'zg'olon, Rossiya Turkistonni bosib olgandan so'ng bo'lib o'tgan qo'zg'olonlarning eng kattasi va uzoq davom etgan edi. Uni bostirish uchun chor armiyasi 14 batalyon piyodalar, 42 to'p, bir necha ming qazaqlarni ishga solishga majbur bo'ldi Bu qo'zg'olon nafaqat rus bosqinchilariga, balki ularning malaylari, Vatanini va xalqining manfaatlarini sotib, bosqinchilarga6 itdek xizmat qilayotgan mingboshilarga, oqsoqollarga, yuzboshilarga va boshqa yaloqxo'rлarga ham qaratilgan edi.

**5. Jadidlar harakatining yuzaga kelishi. Uning atoqli vakillari. Ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Jadid maorifi, adabiyoti, matbuoti, teatri.** Jadidchilikka birinchi bo'lib qrim-tatar xalqi farzandi Ismoilbek Gaspirinskiy (1851-1914) asos solgan. Dastlab bu harakat ma'rifatchilikdan boshlangan bo'lib, uning ishtirokchilari xalqlarini ma'rifatli, mustaqil va milliy ozod qilish uchun kurashganlar.

Ismoilbek Gaspirinskiy musulmon turkiy olamini jahon ma'rifati ilmi darajasiga ko'tarish g'oyasi bilan faoliyat ko'rsatdi. U Rossiya mustamlakasiga

aylantirilgan barcha musulmon hududlar maorifini mutlaqo isloh qilish, ularda dunyoviy fanlarni o'qitish masalasini ko'tarib chiqdi. Maktab va madrasalarda diniy ta'limot, arab, fors, rus tillarini o'rganish bilan bir qatorda riyoziyot, kimyo, tibbiyat, hikmat, nujum kabi fanlarini ham o'qitish zarurligi g'oyasini ilgari surdi va o'zi shu g'oyani amalga oshirishga kirishdi. I.Gaspirinskiy 1884 yilda yurtida jadid maktabiga asos soldi. O''zi dastur tuzib, darslik yozdi. Ana shu darslik yordamida 40 kun ichida 12 o'quvchining savodini chiqardi. Bu usul «usuli savtin» - harf tovushi usuli ya'ni «usuli jadid» nomi bilan tezda shuxrat qozondi.

Ismoil Gaspirinskiy g'oyalarining keng tarqalishida o'zi muharrirlik qilgan «Turkiston» gazetasining roli katta bo'ldi 1888 yilda u «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'l dosh» nomli kitobini nashr etdi. Bu kitobda jadid maktabilarining tuzilishi, dars o'tish va tashkil qilish mazmuni, jihozlanishi, dars jadvali, ta'tillar, imtihonlar, ja'miki o'qitish jarayoni bilan bog'liq masalalar aniq va qiziqarli bayon etilgan edi.

Musulmon maktablarini isloh qilish yuzasidan ishlab chiqilgan loyihani Ismoil Gaspirinskiy 1892 yilda Turkiston-general gubernatori Rozenbaxga yuboradi, lekin Turkiston hukmdori, bu loyihani mutlaqo rad qiladi. Ijobiy javob ololmagan Ismoil Gaspirinskiy 1893 yilda Turkistonga o'zi keladi.

O'lkaning yirik shaharlarida bo'lgan Gaspirinskiy taraqqiy parvar ziyorilar bilan uchrashadi, ularga jadid maktabining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirib beradi. Hatto Buxoro amiri Abdulhad huzurida bo'lib, g'oyasini qabul qildirishga urinib ko'radi, ammo buyuk mutaffakirning maqsadini tushunishga amir ojizlik qiladi. Shundan so'ng Ismoil Gaspirinskiy Samarqand va Toshkent shaharlarida bo'ladi. Turkiston o'lkasining qayerida bo'lmasin general-gubernatorlik amaldorlari uni dushmanlik ko'zi bilan qarshi oladilar. Chunki, ularning Turkistonda olib borayotgan maorif-ma'rifiy sohadagi siyosati xalqni qorong'ilikda tutib turishga qaratilgan edi.

Ismoil Gaspirinskiy 1893 yilda ikkinchi bor Buxoro amiri huzurida bo'lib, undan bitta jadid maktabi ochilishiga ruxsat olishga muvaffaq bo'ladi. Bu yagona

jadid maktabining uchqunlari butun Turkiston bo'ylab sochilib ketdi. 1898 yilda Qo'qonda Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabiga asos soldi. O'sha yili To'qmoqda, 1899 yilda esa, Andijonda Shamsiddin domla, Toshkentda Mannon qori jadid maktabini ochdilar.

1903 yilga kelib Turkiston o'lkasida 102 ta boshlang'ich, 2 ta o'rta jadid maktablari faoliyat ko'rsatdi.

Buxoroda ochilgan jadid maktabining faoliyati to'xtatib qo'yilganidan xabar topgan Ismoil Gaspirinskiy 1904 yilda yana Buxoroga kelib amir bilan muzokoralar olib boradi va amirning otasi nomi bilan ataluvchi «Muzaffariya» jadid maktabi ochilishiga ruxsat oldi.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ziyolilarning butun bir vatanparvar, millatparvarlar, ma'rifatparvarlardan iborat jadidlar harakatining ko'plab nomoyondalari tarbiyalanib voyaga yetdi. Ularning boshida Mahmudxo'ja Behbudi, Sadriddin Ayniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Bobooxun Salimov va boshqa taraqqiy parvar fidoiy insonlar turar edilar.

1998 yilda bir guruhi tarixchilar bilan bo'lgan muloqot chog'ida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning ma'rifat yo'lida jonbozlik ko'rsatgan jadidlik harakati namoyandalari to'g'risida aytgan quyidagi fikrlarini qayd etishni o'rini deb hisoblaymiz:

«XX asr boshidagi ma'rifatchilik harakati... namoyondalari boylik uchun maydonga chiqishdimi?

Mahmudxo'ja Behbudi, Munavvar Qori, Fitrat, Tavallolar maktab ochganlari, xalqni xaq-huquqlarini tanishga da'vat etganlari uchun birov maosh to'laganmi? Birov ularga oylik bergenmi? Albatti, yo'q.! Ular o't bilan o'ynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bila turib, ongli ravishda mana shu yo'lidan borganlar. Chunki, vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan» (I.A.Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.. T., 1998, 8-bet).

Turkiston jadidlari yurt ozodligi uchun o‘zlarining kurash dasturlarida asosan uchta muhim vazifani qo‘ydilar: birinchisi - yangi usul maktabilar tarmog‘ini kengaytirish; ikkinchisi - umidli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish; va nihoyat, uchinchisi - turli ma‘rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalar chop etish. Ana shu dasturni amalga oshirish borasida Munavvar Qori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho‘lpon va Abdurauf Fitrat kabi ziyyolilar jonbozlik ko‘rsatdilar.

Jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri Munavvar Qori Abdurashidxonov 1909 yilda Toshkentda «Jamiyati xayriya» tashkilotini tuzadi va bu jamiyat o‘zbek ziyyoli bolalarini chet ellarga borib o‘qib kelishini tashkil qilish bilan shug‘ullanadi. Jamiyat ishiga Toshkentlik mashhur boylar katta hissa qo‘shdilar.

Rossiyada adliya bo‘yicha ta‘lim olib, birinchi oliv ma‘lumotli o‘zbek advokati diplomini olgan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev yurtiga qaytib xalqi ozodligi uchun kurashishga bel bog‘ladi. Shu yo‘lda u tashkilot tuzishga kirishadi. Natijada jadidlarning tarqoq guruxlari asta- sekin ma‘lum dastur va harakat yo‘nalishiga ega bo‘lgan Ubaydullaxo‘ja atrofida uyushib, o‘zbek ziyyolilarining mustaqil firqasini tuzishadi. Bu firqa «Taraqqiy parvarlar» nomi bilan tarixga kirdi.

Ubaydullaxo‘ja faoliyatini umum-Turkiston ijtimoiy-siyosiy gazetasini tashkil qilishdan boshladi. Bunday gazeta ko‘rinishlardan so‘ng, 1914 yildan chiqa boshlagan «Taraqqiy parvarlar» firqasining «Sadoi Turkiston» gazetasi bo‘ldi Bu gazeta o‘lkada milliy ongni uygotishda, mazlum ommani Istiqlol uchun mustabid tuzumga qarshi kurashga chorlash bobida katta xizmat ko‘rsatdi. Gazeta sahifalarida Turkiston jadidlarining otaxoni Mahmudxo‘ja Behbudiy, ayniqsa,, faol qatnashdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning butun ongli hayot yo‘li chor Rossiyasi mustamlakachilik zulmi sharoitida kechdi. U ona xalqining og‘ir qismatini mustamlakachi shovinislarning zo‘ravonlik, kansituvchilik va taxqirlashdan iborat

siyosatini ko'zi bilan ko'rди. Xalq, millatning asl farzandi sifatida mustamlakachilikdan qanday yo'l va usul bilan ozod bo'lish mumkin, degan jumboqqa javob topishga butun qalbi-vujudi bilan kirishdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston o'lkasi xalqlarining chor Rossiyasi mustamlakachiligi zulmi asoratiga tushganligi, erki, insoniy huquqlaridan batamom mahrum etilib, zanjirband holda yashayotganligi, qullik va tutqunlikdan ozod bo'lish yo'lini topaolmayotganligining asosiya va bosh sababini ma'rifsizlikdan, nodonlik va savodsizlikdan, deb bildi. Shuning uchun ham xalqning og'irini yengil qilish maqsadida yangi usuldagagi maktablar ochib, ularda millatning farzandlariga ilm-ma'rifat hadya etishga jahon asosiya diqqat-e'tiborini qaratdi. U faqat maktablar ochish bilan cheklanib qolmadni, balki shu maktablar uchun zamonaviy ruhda yozilgan darsliklar ham yaratdi. Bular orasida «Risolai asbobi savod», «Muntaxabi jug'rofiya umroniy» («Qisqacha umumiy geografiya»), «Madhali jug'rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), «Kitob ul atfol» («Bolalar uchun kitob»), «Muhtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Hisob» kabi kitoblar bor. U maxsus nashriyot tashkil qilib o'zi yozgan darsliklar, qo'llanmalar va xaritalarni bosib chiqargan. Bular yangi usuldagagi ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatidagina emas, balki til-yozuv madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga egadir.

Jadidlarning Turkistondagi yirik vakillardan biri Abdurauf Fitratdir. Fitrat adabiyotimiz tarixida yirik olim, shoир, yozuvchi, dramaturg, faylasufgina bo'lib qolmasdan, ma'rifatparvar adib sifatida yangi usuldagagi maktablarni ochish va bu maktablarning mohiyati hamda ahamiyatini tushuntirish yuzasidan katta ishlarni olib bordi.

Jadidlarning faoliyatları davomida kun tartibiga qo'ygan masalalarini oradan sal kam bir asr o'tgandan keyin, o'zbekistonning mustaqillikka erishgach, amalga oshirila boshlandi. Ta'lim- tarbiya, ilm-fan, texnika sohasida ibratli bo'lgan Yevropa, Amerika, Turkiya, Yaponiya, boshqa Sharq va G'arb mamlakatlaridan

o'rnak olish, yoshlarni o'shamamlakatlarga yuborib o'qitish chora-tadbirlari amalga oshirilayotganligi bunga yorqin dalil hisoblanadi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Rossianing Markaziy Osiyonи jadalroq zabit etishga undagan sabablar nimalardan iborat?
2. Rus qo'shinlari Toshkent va Jizzax shaharlarini qachon zabit etdilar?
3. Turkiston general -gubernatorligi qachon tashkil etildi?
4. Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya vassaliga aylantirilishi sanasini aniqlang.
5. Qo'qon xonligini qo'shib olish maqsadida 1873 yilda boshlangan qo'zg'olon nima uchun 1875yilga kelib milliy-ozodlik kurashiga aylanib ketdi?
6. Turkistonda chorizm agrar siyosatining asosiy mohiyati nimalarda namoyon bo'ldi?
7. Chorizmning olib borgan ruslashtirish siyosati to'g'risida so'zlab bering.
8. Turkiston xalqlarining chorizm mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati qanday bosqichlarni bosib o'tdi?
9. Jadidchilik harakati qanday harakat edi?
10. Turkistondagi jadidlar harakati namoyondalari to'g'risida ma'lumot bering.

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008.
2. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi 1 qism. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
3. Yunusova X. Toshkentda 1892 yilgi xalq qo'zg'oloni. Sariyog'och, 1998.
4. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.
5. Vatan tuyg'usi. T., "O'zbekiston", 1996.
6. Tohir Qaxxor. Hur Turkiston uchun. T., "Cho'lpon", 1994.

7. O'zbekiston tarixi. R.Murtazayevaning umumiyligi tahriri ostida. T.: Yangi asr avlodi, 2006.
8. O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida. Birinchi kitob.- T.: Sharq, 2000.
9. O'zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. T.: Yangi asr avlodi, 2010.
10. A.Odilov. Abdumalik to'ra bosshchiligidagi ozodlik harakati tarixi. – T.: 2006
11. Tillaboev S. Turkiston o'lkasining boshqaruv tizimida mahalliy aholi vakillarining ishtiroki (Farg'ona viloyati misolida). – T.: Fan, 2008.
12. B.Eshov, A.Odilov. O'zbekiston tarixi. Eng qadimgi davrdan XIX asr o'rtalarigacha. 1-jild. T.: Yangi asr avlodi, 2014.

## **11-MAVZU: TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNASHTILISHI VA UNGA QARSHI QUROLLI HARAKAT. SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY TADBIRLARINING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI**

### **Reja:**

1. Rossiyada 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobi, podsho hokimiyatining ag'darilishii, uning o'lkamizga ta'siri.
2. Farg'ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning boshlanishi, uning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, bosqichlari.
3. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati.
4. O'zbekistonda 20-30-yillardagi madaniy hayot. Siyosiy qatag'onlar va uning bosqichlari, og'ir oqibatlari.

**Tayanch tushunchalar:** Fevral inqilobi, «Sho'roi Islom», «Sho'roi Ulamo», «Ittifoqi-Muslimin», Toshkent voqealari, Qo'qon fojeasi, «Turkiston muxtoriyati»,

Istiqlolchilar harakati, Madaminbek, Shermuhammadbek, Ergash qo‘rboshi, harakatning I, II, III-bosqichlari, Milliy arboblar safini bo‘lib tashlash siyosati, «Musbyuro», «18 lar guruhi», «inog‘omovchilik», «qosimovchilik», «Milliy Istiqlol» tashkiloti, ma‘muriy buyruqbozlik tizimi, fan va madaniyat xodimlari qatag‘oni, sovet hokimiyatining din va diniy tashkilotlarga munosabati, urush, fashizm, agressiya, safarbarlik, mehnat safarbarligi, mudofaa fondlari, harbiy izga solinishi, sanoat, qahramonlik va jasorat namunalari, o‘zbek xalqining mehribonligi, insonparvarlik ko‘magi, “Xotira va qadrlash” kuni.

**1. Rossiyada 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobi, podsho hokimiyatining ag‘darilishii, uning o‘lkamizga ta’siri.** 1917-yil fevralida Rossiya poytaxtida demokratik inqilob g‘alaba qildi. Uning natijasida monarxiya tuzumi ag‘darildi, aniqrog‘i 300 yildan buyon mamlakatda hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasi hokimiyati quladi. Mart oyining boshida Muvaqqat hukumat tuzildi. Shu bilan birga bir vaqtning o‘zida Ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlari ham ish boshladi. Natijada qo‘sish hokimiyat, ya‘ni ikki diktatura: Muvaqqat hukumat boshchiligidagi burjua-demokratik diktaturasi: Sovetlar boshchiligidagi ishchilar va dehqonlar inqilobiy-demokratik diktaturasining o‘ziga xos chatishmasi vujudga keldi.

Petrogradda qurolli qo‘zg‘olonning g‘alaba qozonishi, yangi hokimiyat tuzilmalarining tuzilishi, dastlabki qonun aktlari Rossianing ko‘p asrlik monarxiya davlati hukmronligidan voz kechib, demokratiya yo’liga kirganini butun dunyoga ma‘lum qildi

Rossiya markazida bo‘lib o‘tgan voqealar bevosita Turkiston o‘lkasiga ham ta‘sir qildi. Bu yerda ham yangi hokimiyat tuzilmalarini barpo qilish yuzasidan jarayon boshlanib ketdi. Hamma shahar va ishchilar mavzelarida Ishchi va SD Sovetlari tuzila boshlandi. Ammo ushbu Sovetlar hay‘atiga asosan yevropalik aholi vakillari kirdi.

Bir vaqtning o'zida ijtimoiy va milliy tarkibiga ko'ra ancha ko'p vakillarga ega bo'lgan Ijroiya Komitetlari ham tuzilaverdi. Ijroqo'mlar barcha demokratik tashkilotlarni birlashtiruvchilar bo'lib maydonga chiqdilar va Muvaqqat hukumatning organlari rolini o'ynashga intildilar.

Turkiston o'lkasi musulmon aholisi ham o'zlarining siyosiy kurashlarini boshlab yubordilar. Bu kurashga ancha tayyorgarlikka ega bo'lgan jadidlar yetakchilik qildilar.

Jadidlar demokratik inqilobga, shu inqilob e'lon qilgan tamoyillarga katta umidlar bog'lab, uning g'oyalari va shiorlarini amalga oshirishga faoliy bilan kirishdilar.

Bu harakatga asosan toshkentlik jadidlar yetakchilik qildilar. Ularning tashabbusi bilan 1917-yilning mart oyida 3 marta eski shahar aholisining ko'p ming kishilik yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Bu yig'ilishlarda jadidlar Toshkent jamoat tashkilotlarining ijroiya komitetiga butun musulmonlar aholisidan umumi delegatlar ko'rsatishga muvaffaq bo'ldilar. Shaharning barcha mahallalaridan 60 kishiga yaqin organ saylanib, bu organni "Sho'roi Islom" deb atashga qaror qilindi.

Yangi tuzilgan organ, shaharning ovrupalik aholisini birlashtiruvchi Ishchi va soldat deputatlaridan farq qilib, islom diniga e'tiqod qiluvchi aholi deputatlari Soveti deb hisoblandi. Ularning tashabbusi bilan 1917-yil 14- martda "Sho'roi Islom" deb nomlangan siyosiy tashkilot tuzildi ("Shuro" - Sovet). Yangidan ta'sis etilgan organ, shaharning ovrupalik aholisini birlashtiruvchi Ishchi va soldat deputatlari Sovetlaridan farq qilib, islom diniga e'tiqod qiluvchi aholi deputatlari Soveti deb hisoblandi.

Tashkilotning 15 kishidan iborat rayosati tuzildi. Rayosatning dastlabki majlislaridan birida "Sho'roi Islom"ning asosiy maqsad va vazifalari e'lon qilindi. Bular Turkiston musulmonlarini birlashtirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini avj oldirish, Ta'sis majlisiga tayyorgarlik ko'rish, siyosiy va ijtimoiy masalalar yuzasidan aholi orasida yig'inlar o'tkazib turish, o'lkadagi turli millatlarni bir-biriga yaqinlashtirish va birlashtirish kabi masalalardan iborat edi.

1917-yil fevralida chor hukumatini ag‘darishga qaratilgan inqilobdan keyin, Rossiyaning markazida sodir bo‘lgan ikki hokimiyatchilik Turkiston o‘lkasida ham ifodasini topdi. Muvaqqat hukumat Turkiston general-gubernatorligini Turkiston Komitetiga almashtirib, uning faqat tashqi ko‘rinishi, ya‘ni nomi o‘zgargan bo‘lsada, o‘lkani boshqarishdagi oldingi mustamlakachilik mohiyati qolaverdi.

Uning ustiga Turkiston mintaqasida sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar kuchlarning ijtimoiy va siyosiy jihatdan joylashuviga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada 1917-yilning may oyidan avgustga qadar bo‘lgan davrda Toshkent, Qo‘qon, Andijon, Samarqand va o‘lkaning boshqa shahar va qishloqlarida “Musulmon ishchi deputatlari Sovetlari”, “Islom mehnatkashlari” kabi siyosiy tashkilotlar, kasaba uyushmalari tashkil topdi. Bularni tuzishda 1916-yilgi mardikorlik safarbarligidan qaytib kelgan 100 mingga yaqin turkistonliklar tashabbuskorlik qildilar.

O‘zlarining ijtimoiy g‘oyalarini avval boshdanoq ochiq-oydin ma‘lum qilgan “hukmdorlar va ularning ma‘naviy rahnamolari” kuchlariga qarshi harakat paydo bo‘ldi, bu kuchlar hatto g‘alayonlarning ham kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Xayriyatki tashkiliy jihatdan bu narsa 1917-yilning iyunida ruhoniylar va ularni qo’llab-quvvatlaganlarning “Sho’roi Islom” tashkilotidan chiqib, “Sho’roi Ulamo” deb atalgan tashkilotning tuzilishi bilan ifodalandi.

1917-yil sentabr oyida “Sho’roi Islom” tashabbusi bilan chaqirilgan o‘lka musulmonlarining II - s‘yezdi hokimiyatni soldat, ishchi va dehqon Sovetlariga berilishiga qarshi chiqdi.

Shu davrga kelib, Turkiston o‘lkasidagi milliy harakat rivojining yangi davriga qadam qo‘ydi. Birlashish va jipslashish jarayoni kuchaydi, bu jarayonda “Sho’roi Ulamo”ning roli tobora oshib bordi. Uning tashabbusi bilan 1917-yil 17-20-sentabr kunlari Toshkentda turkistonlik va qozoq musulmonlarining qurultoyi o’tkazildi. Natijada “Ulamochilar” bilan “Sho’roi islomchilar” o‘rtasidagi uzoq va qizg‘in bahslarga qaramay, s‘yezd kelishish yo’llarini topishga muvaffaq bo‘ldi. “Sho’roi Islom”, “Turon”, “Sho’roi Ulamo” va boshqalarni birlashtirib, Turkiston va

Qozog'iston uchun umumiyligining bo'lgan "Ittifoqi-muslimin" degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilindi.

Bu s'yezd ishida Turkiston o'lkasining bo'lajak siyosiy tuzimi to'g'risidagi masala asosiy masala bo'ldi

Qabul qilingan rezolyutsiyada demokratik Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy muxtor federatsiya tuzish g'oyasi ilgari surilgan edi. S'yezd muxtoriyatga "Turkiston Federatsiya Respublikasi" degan nomni qo'yib, parlament respublikasi asosida tuzilajak bo'lg'usi davlat tuzumining bosh tamoyillari va me'yorlarini belgilab berdi.

Turkiston Federatsiyasiga bojxonasiga, xazinasiga, federativ bankiga ega bo'lish, chegaradosh davlatlar savdo-iqtisodiy shartnomalar tuzish, turli xalqaro anjumanlarga vakillarini yuborib turish kabi haq-huquqlar berilishi talablari qo'yildi.

**2. Farg'ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning boshlanishi, uning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, bosqichlari.** Turkiston musulmonlarining birinchi siyosiy partiyasi - Turkiston federalchilari partiyasi, ya'ni "Turk odami markaziy federalist firqasi" siyosiy masalalarga munosabatini belgilab oldi. Bu partyaning tashkilotlari 1917-yilning yozida Farg'ona , Toshkent, Marg'ilon, Andijon va boshqa joylarda tuzilgan edi. Bu partyaning milliy demokratiya yetakchilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy atoqli huquqshunoslar, fiqh olimlari (diniy qonunshunoslar) tomonidan dasturi va nizomi tuzilgan edi. Bu hujjatlarda Turkistonda milliy-hududiy muxtoriyat prinsiplari negizida demokratik respublika tuzish g'oyasi mukammal asoslab berilgan edi.

1917-yil oktabrida Rossiya markazida vaqtli hukumat ag'darilib tashlangach, hokimiyat to'lig'icha bolsheviklar rahbarligidagi Sho'rolar (Sovetlar) qo'liga o'tdi. Ular ilgarigi imperiya hududini tamomila egallab olish uchun zarur tadbirlarni ko'rdilar. Ularning niyati ommaviy siyosiy ishlarni butun choralar bilan kuchaytirib, hamma joyda bolsheviklar dasturini keng yoyish va barcha mehnatkashlarni tomonlariga og'dirib olishga erishish edi. Buning uchun oldilariga urushni darhol

to'xtatib, sulhga kelishish, yerni kambag‘allarga taqsimlab berish, ocharchilikni tugatish, hamma millatlarning teng huquqligini ta‘minlash (keyinchalik ma‘lum bo‘lishicha bularning hammasi qog‘ozda ekan) vazifasini qo‘ygan edilar. Albatta urushdan to‘ygan va ocharchilik tinka-madorlarini quritgan xalq uchun bu masalaning qo‘yilishi butunlay yangilik bo‘lib, katta umid tug‘dirar edi.

Bundan tashqari RSFSR Xalq Komissarlari Soveti “Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga” nomli Murojaatnomasida: “Bundan buyon sizlarning urf-odatlaringiz, sizlarning milliy va madaniy muassasalarining ozod va dahlsiz deb e‘lon qilinadi. Milliy hayotlaringizni erkin va bemalol uyuştira boringiz, sizlarning bunga haqqingiz bor,.. Chunki sizlarning taqdiringiz o‘zlarining qo‘llaringizda”, deyilgan edi.

Qariyb 50 yil rus imperiyasining mustamlakachilik azob-uqubatlarini boshidan kechirgan Turkiston xalqlari uchun bu nihoyat chinakam ozodlik va hurlik shabadasi kelayotganday bo‘lib tuyuldi.

O’sha paytlarda Markaziy Osiyodagi (Turkiston o’lkasidagi) siyosiy voqealarning markazi Toshkent edi. 1917-yil 1-noyabr kuni Toshkentda ham qurolli qo‘zg‘olon g‘alaba qozonganligi to‘g‘risida xabar tarqaldi. Galdagi vazifa – hokimiyat tuzish to‘g‘risidagi masalani hal qilish kerak edi. Ana shu hal qiluvchi paytda musulmon aholining asosiy vakillari - “Sho’roi Ulamo” bilan musulmon deputatlarining o’lka Soveti o’rtasidagi kurash avjga chiqib ketdi. “Ulamo” rahbarlari ishchi va soldat deputatlari sovetlarining o’lka s‘yezdi ishida qatnashish mumkin deb hisoblasalar, musulmon deputatlari o’lka Sovetining a‘zolari esa bolsheviklar bilan hamkorlik qilishga qarshi chiqdilar. Milliy demokratiya ulamochilarning o’tgan yo’liga salbiy munosabatda bo‘ldi.

1917-yil 15-noyabrda ishini boshlagan ishchi va soldat deputatlari Sovetlarining III-o’lka s‘yezdi o’lka hokimiyatini tashkil etish masalasini muhokama qildi. S‘yezd qabul qilgan bolsheviklar, so‘l eserlar va maksimalistlar tomonidan ishlab chiqilgan deklaratsiya asosida o’lka inqilobiy hokimiyatini e‘lon qildi va Turkiston o’lkasi Xalq Komissarlari Soveti deb ataluvchi Ishchi soldat va dehqon

deputatlarining o'lka Soveti hokimiyatning oliv organi deb e'lon qilindi. Biroq hokimiyatning yangi organiga tub aholi vakillaridan biron kishi kiritilmadi.

Asosiy sabab “Ishchi soldat va dehqonlar hokimiyatiga tub aholining munosabati butunlay nomalum bo'lgani uchun ham, tub aholi orasida proletar sinfiy tashkilotlar bo'limgani uchun ham o'lkaning oliv inqilobiy hokimiyatga hozirgi vaqtda musulmonlarni jalb qilish ma'qul emas, - deb da'vo qilingan edi deklaratsiyada.

1917-yilda Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida eng muhim masalalaridan biri, bu Turkistonda yangi boshqaruv usulidagi davlatchilikni tashkil etish edi. O'sha tarixiy shart-sharoitlarda milliy davlatchilikka ega bo'lish g'oyasi turli tashkilot va patiyalarning o'zaro kurashida asosiy quroqga aylangan edi.

Turkiston jadidlari ham bu jarayonga faol ishtirok etayotgan edilar. Xususan, ularning harakatlari Turkistonda federatsiya asosida milliy-demokratik davlatchilikni barpo qilishga qaratilgan edi. Ularning muxtoriyat (avtonomiya), davlatchilik to'g'risidagi g'oyalari o'sha paytdagi Rossiyada mavjud bo'lgan siyosiy – ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq holda shakllanib kelgan edi.

Turkiston bolsheviklari va so'l eserlari musulmon aholisining o'lkanı boshqarishga bo'lgan huquqini inkor qilib, hokimiyat to'g'risidagi masalani kelishib hal qilish imkoniyatini yo'qqa chiqardilar va shu bilan o'lka siyosiy hayotidagi kuchlarning kelgusida muxolif turib qolishni oldindan muqarrar qilib qo'ydilar.

1917-yil 15-21-noyabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi sho'rolarining III-qurultoyi Turkiston Xalq Komissarlari Sovetini tuzdi. Bu Sovetga faqat Peterburgdan yuborilgan kishilar kiritilib, bironta ham millat vakillari yaqinlashtirilmadi. Turkiston hokimiyatini bosib olgan rus bolsheviklari va eserlar aholining madaniy-siyosiy saviyasi hokimiyatni boshqarish darajasida emas, deb hisobladilar. Hali Yevropa xalqlarinig birontasi, ruslar ham, davlatga ega bo'limgan davrlarda davlatchiligidagi ega bo'lgan (masalan Amir Temur davlati - XIV asr), jamiyatni boshqarishda ulkan tarixiy tajribaga ega bo'lgan turkistonliklar uchun bu haqorat edi. Ziyoli va ulamolar bu munosabatlarga chidab tura olmasdilar.

Shu sababdan ham, 1917-yilning 26-noyabrida “Sho'roi Islomiya” va “Sho'roi Ulamo” tashkilotchilari boshchiligida Qo'qon shahrida Turkiston o'lka musulmonlarining IV-favqulodda s'yezdi ishini boshladi. Unda o'lkaning barcha mintaqalari va jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakil qatnashdi.

Qurultoy o'tkazish uchun tanlangan joy tasodifiy emasdi. Bundan ancha ilgari, 1917-yil mart oyida Toshkentda Turkiston musulmonlarining qurultoyi o'tkazilgan bo'lib, unda Turkiston musulmonlarining Sho'rosi Milliy markazi saylangan edi. Unga O'rta Osiyoning hamma mintaqalaridan vakillar, shu jumladan Turkiston o'lkasining ko'zga ko'ringan siyosiy arboblari - Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Xo'jayev, Nosirxon To'ra, Muhammadjon Tanishboev, O'roz Sardorlar kiritilgan edilar. Milliy markaz raisi qilib Mustafo Cho'qay saylangan edi. Biroq Toshkentda ruslarning nufuzi kuchli bo'lgani, qudratli harbiy gornizon joylashgani sababli Milliy markaz keng siyosiy ishni olib borishi juda murakkab edi. Qo'qonda esa asosan o'zbeklar va boshqa millat vakillari yashab, milliy an'analar, islom qadriyatlari ruhi kuchli edi.

O'lka musulmonlarining qurultoyi “Rossiyadagi barcha xalqlar va millatlar to milliy mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqishga qadar taqdirlarini o'zlari belgilash huquqiga egadirlar”, deyilgan markazdan kelgan dasturga asoslanib, Turkistonda “Xalq Sho'rosi” deb atalgan muxtor hukumat tuzilganini e'lon qildi, bu hukumatga “Turkiston muxtoriyati” nomi berildi. Hukumatning birinchi prezidenti qilib qirg'iz “Aralash o'rda” partiyasining rahbari Muhammadjon Tanishboyev saylandi. Biroq Tanishboyevning siyosiy tashkilotchilik saviyasi prezidentlik vazifasiga muvofiq emasligi ma'lum bo'lgach, u iste'fo berdi. Shundan keyin prezident etib Mustafo Cho'qay saylandi. Muvaqqat hukumat hay'atiga 8 kishi saylangan edi.

“Turkiston muxtoriyati” Muvaqqat hukumat a'zolari 1-dekabr kuni o'lka xalqlariga qarata maxsus murojaat qildilar. Murojaat o'lkada yashab turgan barcha millat elatlarning farovonligi, madaniy taraqqiyoti va yaqin hamdo'stligini ta'minlash yo'lida Muxtor Turkistonning demokratik erkinliklarga hamda baynalminallik tamoyillarga sodiqligini e'lon qildi

**3. Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati.** Turkiston o'lkasi mehnatkashlar ommasi Muxtoriyat e'lon qilinishini ko'pdan beri orzu qilgan milliy davlatiga ega bulishdagi dastlabki qadam deb bilib, Muxtor hukumatni qo'llab-quvvatladi. Bu birdamlik o'lkaning yirik shaharlarida bo'lib o'tgan miting va namoyishlarda yaqqol ifodasini topdi.

Ammo Turkiston Sho'rolar hukumati Turkiston Muxtoriyatini mutlaqo tan olmadi, uni ag'darib tashlash, uni yo'q qilish g'oyasini ko'tarib chiqdi. Xususan Toshkent shahar Sho'rolari, Qo'qon ishchi va askar deputatlari Sho'rosi Muxtor hukumatni tan olmay, uni tugatish uchun harakat qildi, o'lka Sho'rolar hokimiyati Muxtor Turkiston Muvaqqat hukumatini “Turkistonnig bir to'da boylari va ruhoniylari” manfaatlarini yoqlovchi akslinqilobiy, burjua hukumati deb baholadilar. “Turkiston Muxtoriyati”ni qo'llab-quvvatlab chiqqan jamoat tashkilotlari, bosma nashrlarga qarshi Toshkent Sho'rolari taqiqlovchi hattiharakatlarni avj oldirdilar. Masalan, Toshkent shahar dumasi tarqatib yuborildi, “Turkestanskiy vestnik” gazetasi yopib qo'yildi. Samarqanddagi “Sho'roi Islomiya” tashkilotining faoliyati ta‘qiqlab qo'yildi.

Buning ustiga muxtoriyat harakatining ichida musulmon aholisining turli ijtimoiy qatlamlari va guruhlari manfaatlarini himoya qiluvchi boshliqlar o'rtasidagi ziddiyatlar ham kuchaya bordi. “Sho'roi Ulamo” bilan “Sho'roi Islomiya” o'rtasida bo'lgan, lekin biroz bo'lsada “Turkiston Muxtoriyati” e'lon qilinishi bilan susaygan avvalgi ixtiloflar yana yuzaga chiqdi va bu muxtor harakatining birligini ichdan turib qo'poradigan jiddiy xavfga aylanayotgan edi. Ixtiloflarning eng muhimi Muxtor hukumatining asl mohiyatini yetarli darajada tushinib olinmaganligi bilan bog'liq edi.

Bu vaqtga kelib Muxtor hukumati a‘zolari “bolsheviklar xalqning inqilob bergen huquqlarini poymol qilmoqchi” deb tashviqot va targ‘ibot olib bordilar va barcha fuqarolarni milliy ozodlik uchun, islom dinini himoya qilish uchun milliy armiya safiga kirishga chaqirdilar. Haqiqatdan ham Qo'qonga yordam berish uchun

tevarak atrofdagi tuman va qishloqlardan, miltiq, bolta va ketmonlar bilan qurollangan aholi kela boshladi. Harbiy tuzilmalar soni ortib borishi bilan sarf harajatlar ham oshdi. 1918-yil yanvariga kelib, o'sha davrdagi matbuot ma'lumotlarining guvohlik berishicha, muntazam milliy armiyadagi kishilar soni 2 ming nafarga yetgan. Bundan tashqari Qo'qon shahrining qo'rбoshisi - militsiyasining boshlig'i Ergashning qo'lida ham anchagina kuch bor edi.

Qurolli kuchlar soni o'sib borgan sari "Turkiston Muxtoriyati" hukumatida qat'iy harakat qilish tarafdarlarining mavqelari kuchaya bordi. Qo'qon shahrining o'zida ham 1918-yilning yanvar oyining oxirlariga kelib vaziyat nihoyat darajada keskinlashdi. Xususan ishchi va soldat deputatlari Qo'qon Soveti hokimiyatni qo'lida to'tib turgan yangi shahar bilan Muxtor Turkiston hukumatining qarorgohi, musulmonlarning shahar tashkilotlari joylashgan. Eski shahar o'rtasidagi qaramaqarshiliklar tobora kuchaya borayotgan edi. Shu tomonlarning har birida kelishmovchiliklarni tinch, muzokara olib borish bilan emas, balki kuch ishlatish yo'li bilan hal etish tarafdarlarining mavqelari kuchayaverdi. Bir tomondan "Sho'roi Islomiya" shahar tashkiloti Qo'qon qal'asini hujum bilan egallash to'g'risida qaror qabul qilsa, ikkinchi tomondan, Ishchi va askar deputatlari Qo'qon Soveti qal'adan olib chiqilgan qurol bilan ishchi va temiryo'lchilarni qurollantirib, qal'a mudofachilarining sonini oshiraverdi. Shu bilan bir vaqtda Qo'qon Soveti Muvaqqat hukumatdan zudlik bilan quolsizlanish va harbiy qismlarni tarqatib yuborishni talab qiladigan qaror qabul qildi.

Ana shunday qaltis sharoitda urush harakatlari boshlanib ketish hech gap emasdi, faqatgina bir bahona kerak edi, xolos. Shunday bahona ham topildi. Xususan, 1918-yil 30-yanvarga o'tar kechasi noma'lum kishilar guruhi Qo'qon qal'asi, telefon stantsiyasi, Qo'qon Soveti binosiga hujum uyuştirdilar.

O'sha kunning o'zidayoq ishchi va soldat deputatlari Qo'qon Soveti jahon harbiy kuchlarini tayyorlik holatiga keltirdi, favqulodda organ-inqilobiy qo'mita (Revkom) tuzildi, ishchilar va temiryo'lchilarning qo'llariga miltiqlar berildi. Muvaqqat hukumat a'zolarini qamoqqa olish uchun inqilobiy qo'mita a'zolaridan

maxsus guruhi tuzildi. Bu hatti- harakatlarning hammasi shahar Sovet hokimiyati organlarining “Turkiston Muxtoriyati” hukumatini kuch ishlatish yo'li bilan yo'q qilishga qat'iy kirishayotganidan darak berar edi.

1918-yil 9-fevralda Turkiston Xalq Komissarlari Soveti Farg'ona viloyatini qamal holatida, deb e'lon qildi. Qo'qon istehkomiga Skobelevdan 140 ta yaxshi qurollangan otryad (ularda 4 ta zambarak, 4 ta pulemyot ham bor edi) keltirib qo'yildi. 200 nafar ovrupalik temiryo'lchi esa qurollantirib, hujumga shay qilib qo'yildi. Bundan tashqari Qo'qondagi 100 kishidan iborat qurollangan arman dashnoq drujinasidan ham foydalanishga kelishildi.

11-fevralda Qo'qon Soveti “Turkiston Muxtoriyati” hukumatiga qurolsizlanish va islom qo'shinlarini tarqatib yuborish to'g'risida Ultimatum topshirdi. Ultimatum bajarilmagach, eski shaharga hujum boshladilar. “Turkiston Muxtoriyati” hukumati hokimiyatni tinch yo'l bilan olishga umidvor bo'lib, o'zini mudofaasi uchun yetarli choralar ko'rмаган edi. Shunday bo'lishiga qaramay ular uch kun mobaynida hujumni mardonavor qaytarib turdilar. Muxtoriyatchilar “Turkiston turkistonliklar uchun!” shiori ostida g'azovot urushni e'lon qilib viloyatlardan yordam kutdilar. Ammo muxtoriyatchilarga boshqa viloyatlardan musulmon otryadlari yordamga kelishmadi.

Aksincha, Qo'qon Soveti ixtiyoriga Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tomonidan yuborilgan 11 eshelon harbiy qismlar 18-fevraldan 19-fevralga o'tar kechasi Qo'qonga yetib keldi. 19-fevral kuni ular Eski shahar hududiga bostirib kirdilar. Muxtoriyatchilarning qo'shinlari qarshilik ko'rsatmasdan, vahimaga tushib, tinch aholi bilan birga qochdi. Eski shaharga og'ir to'plardan o'q otilib, vayronaga aylantirildi. Muxtor hukumati mudofaa vaziri Chanishev otib tashlandi, Hukumat raisi Mustafo Cho'qay qochishga ulgurdi. Shu tariqa taqdirini o'zi belgilashga ahd qilgan turkistonliklarning birinchi Muxtor hukumati ag'darib tashlandi. Xuddi Parij Komunnasi singari 70 kundan ziyodroq yashagan chinakam xalq hokimiyatiga nisbatan ana shunday shafqatsiz suiqasd qilindi.

Turkiston Muxtoriyatchilarning Sho‘rolar hokimiyati tomonidan tor-mor etilishi “Qo‘qon fojeasi” degan nom qoldirdi. “Turkiston Muxtoriyati”ning o‘zi esa o‘lka xalqlari ozodlik harakatlarining qudratli, haqiqiy ramziga, erkinlik, mustaqillik va Istiqlol uchun kurash ramziga aylandi.

“Turkiston Muxtoriyati” hukumati tor-mor etilgandan keyin Turkistonda ijtimoiy- siyosiy vaziyat nihoyat darajada keskinlashdi. Bu vaziyat birinchi galda aholining sho‘rolar hukumatiga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun boshlangan qurolli kurashda ifodasini topdi. Qurolli harakat ommaviy tus oldi. Bunga bir qator omillar sabab bo‘ldi. 1918-yil mart-aprel oylarida sho’rolarning harbiy kuchi va ularga ko‘makdosh bo‘lgan arman dashnoqlari otryadi Farg‘onada aholiga nisbatan mislsiz shafqatsizlik qildilar. Masalan, dashnoqlar otryadi Farg‘ona shahri yonidagi Yormazor qishlog‘ida aholidan 200 kishini hech qanday sababsiz otib tashladi. Ular go‘yo dashnoqlar otryadi otlarini hashak bilan ta‘minlashdan bosh tortgan emishlar. Umuman sho‘ro hukumati ma‘murlari aholiga past nazar bilan qarar edi. “Qo‘qon Muxtoriyati”dan so‘ng aholiga nisbatan kuchaytirilgan zo‘ravonliklar xalqning qahr g‘azabini qo‘zg‘atdi.

Qizil armiya qo‘mondonligi tomonidan rag‘batlantirib turilgan armon dashnoqlari haddilaridan oshib borardilar. Ular Qo‘qondagi xunrezliklari yetmagandek, Marg‘ilonning tinch aholisiga ham hujum qildilar. Bundan xabar topgan Madaminbek chidab tura olmadi, kam kuch bilan bo‘lsa-da kutilmaganda ularga qarshi hujum qildi va xunrezchilarning ko‘pini qirib tashladi, quroslaxalarini esa o‘lja qilib oldi. Madaminbekning bu g‘alabasini eshitib, vodiyning boshqa yerlaridan choparlar kela boshladi. Ma‘lum bo‘lishicha, armon dashnoqlari Namangan va Andijonda ham tinch aholini qirg‘in-barotga uchratayotgan, hokimiyat va Qizil Armiya otryadlari esa tamoshabin bo‘lib turgan ekan. Xalq esa Madaminbekka elchi yo’llab uning timsolida bir najotkor ko‘rib yordamga chaqirgan edi.

Xo‘s sh oddiy xalqning ishonchini qozongan Madaminbek o‘zi kim edi? Asli Toshloqning Suqchilik qishlog‘idan bo‘lgan (1892-yilda tug‘ilgan) Madaminbek

Farg‘ona vodisida taniqli savdogarning o‘g‘li edi, nasl-nasabi jihatidan bek bo‘lgan. Farg‘onani ruslar bosib olgandan keyin Madaminbekning ajdodlari mavqelarini yo‘qotadilar. Bolaligidan zehni o‘tkir, tiyrak va jasur Madaminbek o‘qimishli odam bo‘lgan. Boshlang‘ich mакtabda savod chiqargach, rus savdo do‘konida ishlab rus tilida yaxshi gapiradigan va yozadigan darajaga yetadi. Ba‘zi ma‘lumotlarga qaraganda Madaminbek fransuz tilini ham bilgan (“O‘zbekiston ovozi”, 1992-yil mart).

1914-yili politsiya Madaminbekni qamoqqa oladi va so‘ng uni tasdiqlanmagan ma‘lumot bilan “bir xotinni o‘ldirganlikda” ayblab uzoq muddatli katorga qamog‘iga hukm etadi. 1917-yil fevral inqilobidan keyin siyosiy maxbus sifatida bandilikdan ozod qilingan Madaminbekni ona yurti xalqi katta shodu-xurramlik bilan kutib oladi. Rossiyada hokimiyat bolsheviklar qo‘liga o‘tib, mamlakat tartibsizlik, boshboshdoqlik hukm surayotgan paytda “Marg‘ilонни о‘г‘ри, qaroqchilar, qotillardan kim himoya qiladi?”, - degan muammo xalqni o‘ylantirardi. Shunda “Ulamo” jamiyati rahbariyati Madaminbekni militsiya boshlig‘i lavozimiga tavsiya etadi.

Madaminbek militsiya boshlig‘i sifatida Marg‘ilonda osoyishtalik, tartib qoidani saqlashga jiddiy hissa qo‘shti. 1918-yil yozida u Marg‘ilon shahar militsiyasi boshlig‘i lavozimini tark etadi va otryadi bilan sho‘ro hukumati dushmanlari tomoniga o‘tadi. Xo‘sh, bunga uni nima majbur etdi? Yirik bir shaharning militsiyasi boshlig‘i sifatida tanilib qolgan, sho‘rolar ishonchiga kirgan odam oldida bundan ko‘ra yorqinroq istiqbol yo‘li ham bor edi-ku? Aqli, qattiqqo‘l va qobiliyatli Madaminbek tez orada sho‘rolar hukumatida katta lavozimlarni ham egallashi mumkin edi. Ammo u bularning hammasidan voz kechib o‘ta xavfli, mashaqqatli ishga - mavjud tuzumga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarishga jazm etdi. Bu avvalambor, turmushning achchiq-chuchugini totgan, xalqning, millatning haqiqiy fidokori bo‘lgan inqilobchiga xos jasorat edi. Ikkinchidan, Qo‘qonda “Turkiston muxtoriyati”ning qonga botirilishi, undan so‘ng 1918-yilning mart-aprel oyalarida

qizil armiya va arman dashnoqlarining Farg‘onada aholiga nisbatan mislsiz shavqatsizligidir.

Qo'qondagi muxtor hukumatining ag‘darilishi, arman dashnoqlarining xunrezliklariga yo'l ochib berish, qizil armiya otryadlarining ko'pincha talonchilik bilan shug‘ullanishi, aholi urf-odatlari, rasm-rusumlarini hurmat qilmaslik, yangi hokimiyat mahkamalari ishiga o'zbeklarni aralashtirmaslik - bularning barchasi Farg‘ona vodiysi bo'ylab milliy-ozodlik harakatining avj olib ketishiga sabab bo'ldi. Ammo Sovet tashviqot-targ‘ibot idoralari, maxsus mahkamalari bu harakatni keng jamoatchilik orasida badnom etish maqsadida unga “bosmachilik” degan tavqila‘nat muhrini bosdilar. Aslida bu bilan o‘zlarining chinakam bosmachilik va bosqinchilik niyatlarini xalqdan yashirmoqchi bo'ldilar. Ammo xalqning asl farzandlarini aldab bo'lmas edi. Madaminbekka o'xshagan kishilar yangi mustamlakachilik tartibotini o'rnatib, aholini siyosatdan, davlat ishlaridan chetda tutishga uringan qizil hokimiyatchilarning yov niyatlarini tezda payqab oldilar. “Bosmachilik” deb qizillar tomonidan ta‘riflangan harakat talovchilik harakati emas, balki siyosiy harakat bo'lib, uning asosiy maqsadi yerli xalqlarning hokimiyatdagи o'rnini egallahga erishish, Turkistonni Rossiyadan ajratib olib uning mustaqilligini ta‘minlash edi. Buning uchun esa birlashish, birlashish va yana birlashish zarur edi.

Ma'lumki, 1918-yil boshlarida musulmon isyonchilar asosan Ergash qo'rboshi atrofida to'plangan edilar. Madaminbek Qo'qondagi arman dashnoqlarining xunrezliklarini eshitib, o'sha paytda “amir al-muslimin” (musulmon qo'shinlari amiri) deb e'tirof etilgan Ergash qo'rboshiga birlashish to'g‘risida taklif yubordi.

Ergash qo'rboshi sarkardalik va siyosiy salohiyati jihatidan Madaminbekka nisbatan birmuncha cheklangan odam edi. Shu sababdan ham hamkorlikning dastlabki kunlaridanoq Madaminbek va Ergashbek orasida kelishmovchiliklar boshlandi. Ergashbek Madaminbekni o'ziga sherik emas, balki raqib sifatida ko'ra boshladi. Shu tariqa, ma'lum bir davrda Qo'qon va Marg‘ilondagi ozodlik kuchlari birlashish o'rniga raqobat yo'liga o'tib ketdilar.

Qanday bo'lmasin, mustaqillik uchun mustamlakachilik istibdodidan xalos bo'lish uchun xalqning boshlagan kurashi qurolli harakatga aylandi va ommaviy tus oldi. Turkiston xalqlarining bu kurashi 30-yillarning o'rtalariga qadar goh g'oliblik, goh mag'lublik bilan davom etdi.

Xalqning ozodligi va mustaqilligi uchun kurash ma'lum davrlarni bosib o'tdi va bular:

Birinchi davr, 1918-yil fevraldan 1925-yilga qadar bo'lgan 7 yilni ichiga olib, uch bosqichga bo'linadi. 1-bosqich 1918-yil fevralidan 1920-yil martigacha – qurolli kurashning boshlanishi va uning ommaviy xalq harakatiga aylanishi.

Bu yillarda mustaqillik uchun kurashning avj olishiga Kichik Ergash, Katta Ergash va ayniqsa, Madaminbek kuchli ta'sir ko'rsatdilar.

2-bosqich – 1920-yil martidan 1922-yil oxirigacha Istiqlolchilik harakatining eng keskin tus olgan davri. Harakatga asosan Shermuhammadbek rahbarlik qildi.

3-bosqich – 1923-1924-yillarni ichiga olib, bu paytda Istiqlol uchun kurashning asta-sekin tarqalish holati kuchli bo'ldi.

Istiqlolchilar harakatining ikkinchi davri 1925-1935-yillardan iborat 10 yilni tashkil etib, sovet hokimiyati istibdodiga qarshi kichik-kichik qarshilik ko'rsatuvchi harakatlardan iborat bo'ldi. Istiqlolchilar harakatining bu xil davr va bosqichlarga bo'linishiga ushbu darslik mualliflari shu davr tarixi bilan yaqindan shug'ullanuvchi tarixchi olim S.Agzamxodjayev va boshqalarning fikriga, asosan, qo'shiladilar.

Bu davrlarda bo'lib o'tgan harbiy harakatlar jahon strategiyasi va taktikasi jihatidan bir- biridan ajralib turadi.

Qurolli harakat safidan yuzlab yo'lboshchilarni- qo'rboshilarni yetishtirib chiqardi. Ular turli millatga, turli kasb-korga mansub bo'lgan kishilar bo'lib, ularni faqat bitta narsa: Vatanini ozod qilish, uni erkin holda ko'rish istagi birlashtirdi. Bu harakat rivojining ayrim davrlarida nom chiqargan yetakchilari kichik va katta Ergashlar, Muhammad Aminbek (Madaminbek), Shermuhammadbek (Shermat), Ibrohim Loqay qo'rboshilar bo'ldi. Ozodlik harakatining uchinchi davriga kelib, Turkiston o'lkasi bo'ylab Shemuhammadbek, Xolxo'ja, Muhiddin, Omon Polvon,

Rahmonqul, Islomqul, Soli Maxsum, Otaqo'zi, Yormat Maxsum, Ahmad Polvon va boshqa ko'pgina qo'rbosehilar yetakchiligidagi otryadlar istiqlol uchun kurashni davom ettirdilar.

Ma'lumki, 1920-yilning boshlariga kelib Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilar harakati ancha pasayib qolgan edi. O'sha yilning ko'klamigacha "Islom lashkarlari" boshliqlarining bir qismi sho'ro hokimiyati tomoniga o'tgan edi. Ammo, asosiy kuchlar Turkistonni "kofirlardan", g'ayridinlardan ozod qilishga, bu yurtni idora qilishni qo'lllariga olishga qaratilgan harakatda avvalgidek qatnashaverdilar. Ular sho'ro hokimiyati va'da qilgan huquqni talab qilib, o'zлari uchun alohida imtiyozlar qidirmay, mustaqil milliy davlatiga ega bo'lish, millatning taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlash uchun kurashdilarki, bu – kurashning siyosiy maqsadlar uchun olib borilganini ko'rsatdi.

Istiqlol uchun kurashuvchilar har qanday sharoitda ham o'zlarining muntazam maqsadlaridan qaytishni lozim ko'rma dilar. Hatto sho'ro hukumati tomoniga o'tganlarni avf etish e'lon qilinganda ham ular maqsadlariga sodiq qoldilar. Bundan tashqari, sho'rolar tomoniga o'tgan sobiq "bosmachi"lardan tuzilgan Qizil armiyaning milliy qismlarga nisbatan sho'ro qo'mondonlari tomonidan ishonchsizlik mavjud edi, harbiy xodimlar qurol-aslaha, kiyim-kechak bilan ta'minlashlariga panja orasidan qarar edilar. 1920-yilning kuziga kelib Rossiyada fuqarolar urushi asosan tugadi. Turkistonda ham fuqarolar urushinig frontlari tugatildi. Biroq mustaqillik, milliy istiqlol uchun harakat o'chog'i bo'lган Farg'ona vodiysida tinchlikni qaror topishi uchun ham uzoq vaqt bor edi. Mustaqillik uchun boshlangan harakatni, istiqlol harakatini bostirish mumkin bo'lmadidi. Bu harakat yana ko'p yillar davom etdi.

Bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan Oktyabr to'ntarishi Turkiston xalqlarining ozodlik va Mustaqillikka erishish to'g'risidagi umidlarini oqlamadi. Turkistonda yarim asrdan ortiq davom etgan Chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi sho'rolar davrida ham o'zgarmadi, faqatgina niqoblar almashtirildi, xolos. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, dastlab milliy ziyolilarning ma'lum qismi va

mahalliy kommunistlar bolsheviklarning balandparvoz ishlariga katta ishonch bilan qaraganlar, ijtimoiy adolat o‘rnatishni orzu qilganlar.

Biroq tez orada ularning ko‘z oldida sho‘rolar hokimiyati jar solgan millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi asosida tuzilgan “Qo‘qon muxtoriyati”ning tugatilishi, bunga javoban avj olgan milliy-ozodlik harakatiga qarshi qo‘llanilgan keskin va shavqatsiz chora-tadbirlar Turkistonning Mustaqilligi aynan shu balanparvoz g‘oyalar niqobi ostida toptalayotgani namoyon bo‘ldi. Ular mahalliy aholiga ishonchsizlik bilan qaragan, o‘lkada deyarli bo‘lmagan proletariat manfaati uchun, aslida esa bolsheviklar manfaati uchun o‘rnatilgan va kuch bilan saqlab turilgan bu hokimiyatning asl mohiyatini mahalliy aholi vakillari tushunib yetdilar. Lekin milliy kadrlar, adolatli tuzum haqidagi g‘oyalarga intilib, o‘lkani aynan sho‘rolar usulida boshqarib unga o‘z vakillarini kiritish va shu yo‘l bilan o‘lka Mustaqilligiga erishish, ijtimoiy adolat o‘rnatish maqsadida ish olib bordilar va imkonи boricha sho‘rolar hokimiyatining markazlashtirish, ulug’-davlatchilik shovinizmi siyosatiga qarshilik ko‘rsatdilar. Dastavval ochiqdan-ochiq olib borilgan kurash, qatag‘onlar va ta‘qiblar oqibatida yashirin tus oldi va qariyb 75 yil davom etdi. Kommunistik tuzumning hukmronligi barcha yillari aynan shu yashirin urush bilan ifodalanadi. Albatta, sho‘rolar hokimiyati bu kurash mazmunini va ahamiyatini juda yaxshi anglagan edi, shu bois davlat siyosatiga mos kelmaydigan har bir fikr, milliylikni va ma‘naviyatimizni saqlash borasidagi intilishlarni shavqatsiz bostirishga va yo‘q qilishga intildi. Sho‘ro hokimiyatining o‘zbek xalqiga nisbatan muntazam ravishda olib borgan qatag‘on va terrorchilik xurujlari aynan shu qarama-qarshilikning rivojlanish darajasini yaqqol namoyon etadi.

**4. O‘zbekistonda 20-30-yillardagi madaniy hayot. Siyosiy qatag‘onlar va uning bosqichlari, og‘ir oqibatlari.** Sho‘ro davlati Chorizm asos solgan mustamlakachilikni va milliy zulmni eng yuqori bosqichga ko‘tardi. O‘z targ‘ibot va tashviqotlarida sovet hokimiyati o‘zini eng demokratik, huquqiy va xalqparvar jamiyat deb ko‘rsatsada, amalda u totalitar davlat boshqaruv shakllaridan edi. Bu davrda nafaqat kommunistik partiya qat’iy yakka hokimligi, balki davlat

organlarining jamiyat hayotining barcha sohalarida ham hukmronligi o'rnatildi. "Hammamizga ma'lumki, - deb yozadi Birinchi Prezident I. Karimov, - biz so'nggi 70 yil mobaynida davlatga qaramlik va sig'inish holatida yashadik. Mamlakatdagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb hisoblab keldik. Qaysi masalani olmaylik, davlat manfaati birinchi o'rinda, fuqaro, shaxs manfaati esa, deyarli hisobga olinmagan". Adolatsizlik va zo'rovonlikka asoslangan totalitar tuzumni uzoq saqlash maqsadida sovet hokimiyyati tomonidan mustamlakachilik va ulug' millatchilik siyosatini ta'minlovchi "sotsializm tuzumini" qurish va mustahkamlash jarayonida odamlar qattiq ta'qib, nazorat, xavf-xatar va qo'rquv ostida ushlab turildi, minglab kishilar qatag'on qilindi. Sovet davlati avval boshdanoq mustabid jamiyat barpo qilishni maqsad qilgan bo'lib, keng xalq ommasining teran manfaatlarini tan olmaslik, xalqlarning milliylik xususiyatlarini yo'qotish va shaxslarni yagona kommunistik mafkura andozasiga solish uning asosiy vazifasi qilib qo'yilgan edi.

O'lkamiz iqtisodiy-ijtimoiy hayoti Oktabr to'ntarishi arafasida ayni mustamlaka mamlakatlariga xos ko'rinishida bo'lган bo'lsa, undan keyin ham yangi sovet tuzumi mafaatlari asosida olib borilgan taraqqiyot yo'nalishlari mohiyatan o'lka xalq xo'jaligini qaramligini saqlab qoldi.

20-yillarning boshida yangi iqtisodiy siyosatga o'tish tufayli, respublikamiz iqtisodiyotining liberallashuvi natijasida ishlab chiqarish sohasida sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Biroq 20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlik usullari qo'llanila boshlandi, erkin savdo va xususiy tadbirdorlikka chek qo'yila boshlandi. Mulkiy munosabatlar tubdan o'zgardi, ishlab chiqarish vositalariga deyarli to'liq davlat mulki o'rnatildi. Davlat tomonidan rejorashtirish asosida mahsulotni ishlab chiqarishda va taqsimlashda to'liq nazorat ostiga olinishi iqtisodiy siyosatda zo'ravonlik tomon yo'l olishga, iqtisodiy omillar o'rniga ma'muriy choralar keng qo'llanishga imkon berdi.

Birinchi besh yillikdan (1928-1932 y.) xo'jalikni industrlash, qishloq xo'jaligi jamoalashtirishga zo'r berildi. Industrashtirish siyosati qishloq hisobiga amalga oshirildi. Natijada dehqonlar qashoqlashdi. Industrashtirish dastlab sekinlik bilan

amalga oshdi, chunki kosibu hunarmandchilik ustivor soha edi. 20-yillar oxiridan bu jarayon sur‘atlari tezlashtirildi. Urushdan oldingi 3 ta besh yilliklarda (1928 - 1941 yillar) O‘zbekistonda 500 ga yaqin sanoat korxonalari, elektrostantsiyalar ishga tushirildi. Bular orasida Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozlik zavodi, Chirchiq elektr-kimyo, Toshkent to‘qimachilik kombinati, Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon pillakashlik fabrikalari bor. Industrlashtirish ekstensiv usullari bilan olib borilib, biroq sanoat korxonalariga, ayniqsa og‘ir sanoatda, malakali xodimlar va tajribali ishchilar Rossiyaning markaziy shaharlaridan jalb etildi, natijada ularda tub aholiga mansub ishchilar ozchilikni tashkil etdi. Undan tashqari industrlashtirish sharoitida shaharlarga ko‘plab ishchilarning keltirilishi uy-joy muammosini ham keskinlashtirdi. Masalan, 1928-1932 yillarda Toshkent aholisi asosan chetdan keluvchilar hisobiga 344,2 mingdan 491 ming kishiga yetdi.

O‘zbekistondagi mavjud sanoatning 90%i qishloq xo‘jalik xom ashvosini ishlashga ixtisoslashgan edi. Asosiy e‘tibor paxta bilan bog‘liq sohalarning ravnaqi, ya‘ni qishloq xo‘jalik mashinasozligi, kimyoviy vositalar, avvalo mineral ug‘itlar, irrigatsiya qurilishi, metall konstruksiyalar ishlab chiqishga, kon sanoati, rangli va nodir metallar, oltingugurt, ozokerit, volfram, molibden, toshko‘mir, tuz, granit qazib olishga qaratilgan edi. Respublika sanoati sobiq ittifoqni xom ashvo qaramlididan xalos etishga yordam beradigan yirik mintaqaga aylandi. Jumladan respublikaning oltin sanoati butun ittifoqning to’lov balansini mustahkamlash uchun katta-katta mablag‘larni berib turdi. O‘zbekiston Ittifoqning iqtisodiy Mustaqilligiga o‘lkan hissa qo‘shdi, uni chet el xom ashvosiga qaramlikdan qutqardi. Ikkinchchi jahon urushi arafasida respublikaning sanoat salohiyatini 1445 ta yirik va o‘rta sanoat korxonalari tashkil etar edi. Biroq Oktabr to‘ntarishidan oldin sanoat rivojlanishidagi asosiy tendensiya, ya‘ni asosan xom ashyonini dastlabki qayta ishlab chiqaruvchi sanoat va yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish saqlanib qolindi. Shubhasiz, respublika sanoatidagi tezkor sur‘atlar ijobjiy hodisa edi, ayni paytda u dehqonlar ommasini talash evaziga amalga oshirildi, sanoatni rivojlantirish esa bir

yoqlama xususiyat kasb etdi, iqtisodiyot strukturasidagi ishlab beruvchi va mashinasozlik sanoati sohalari nihoyatda past darajadaligicha qolaverdi.

O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi ham o‘ziga xos murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Alovida ta‘kidlash lozimki, o‘lkaning qishloq xo‘jaligi oldiga mustabid rus chorizmi hukmronligi davrida qoyilgan bosh vazifa – qimmatli sanoat xom ashylari-paxta, pilla qabilar bilan ta‘minlash vazifasi sovet hokimiyati yillarida yana ham qat’iyroq qilib kun tartibiga qo‘yildi. 1925-1928-yillarda o‘tkazilgan yersuv islohoti natijasida barcha yer resurslarining umum davlat monopoliyasiga olinishi, irrigatsiya-melioratsiya ishlarini qat’iyy rivojlantirishga intilish sobiq ittifoqning paxta mustaqilligini ta‘minlashga erishish yo‘lidagi dastlabki qadamlar ediki, bu vazifani bajarish asosan O‘zbekiston zimmasiga yuklangan edi. Shu tariqa respublikada paxta-yakka hokimligi joriy etildi. Bu jarayon qishloq xo‘jaligini yoppasiga jamoalashtirish siyosati bilan birga olib borildi.

1929-yili noyabrda Stalining “Buyuk burilish yili” maqolasi e‘lon qilingan bo‘lib unda, avvalgi ixtiyorilik prinsipi inkor etilib, dehqonlarni zo‘rlash yo‘li bilan kolxozlarga jalb etishga da‘vat etildi. Ommaviy jamoalashtirish jarayonida mahalliy sharoitlar, milliy psixologiya, urf - odatlar hisobga olinmadi. Boz ustiga, uning sur‘atlari jadallashtirilib, ba‘zi joylarda turar joy binolari umumlashtirilib yuborildi, o‘rta xol va hatto, kambag‘al xo‘jaliklar ham musodara qilindi.

1929-yil 1-fevraldan esa “qulqlar”ni sinf sifatida tugatish siyosati amalga oshirila boshlandi. Bu inson huquqlarini poymol etuvchi siyosat nafaqat o‘ziga tuq “qulq” dehqonlarni, balki o‘rta xol amaldorlarga yoqmagan kambag‘al dehqon xo‘jaliklarini ham musodara etishga olib keldi. Jadal jamoalashtirish va “qulq qilish” siyosati, o‘rta xol dehqonlarga nisbatan zo‘rlik qilish respublikaning ayrim joylarida dehqonlarning norozilik chiqishlariga sabab bo‘ldi. Masalan, 1930-yil fevral oyida Farg‘ona, Andijon, Toshkent, Xorazm, Samarqand okruglarida dehqonlarning ommaviy chiqishlari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekistonda 1930-33-yillarda “qulq qilish” siyosati natijasida 5,5 ming dehqon xo‘jaliklari oila a‘zolari bilan quvg‘in qilinib, ko‘pchiligi Ukraina va Sibirga

surgun qilindi. Birinchi besh yillik oxiriga kelib 91,7 %, 1939-yilda esa 99,5 % dehqon xo‘jaliklari jamoalashtirildi. Shu tariqa, yerga nisbatan davlat mulkidan tashqari mulkchilik shakllari bekor qilindi. Yerni amalda davlatlashtirish dehqon ommasini mulkdan hamda ishlab chiqarish vositalaridan, ishlab chiqariladigan mahsulotlardan, jamiyatda yaratilayotgan boyliklardan begonalashtirildi. Jamoalashtirish jarayonida inson huquqlari qo‘pol ravishda bo‘zilib, aslida kolxozchilar sovet davri “krepostnoylariga” aylandilar, chunki ularga Xrushchev islohotlariga qadar pasport berish ta’qiqlanib, boshqa joyga keta olmas edilar. Mehnat kunining majburiy minimumi joriy etilishi – barshchinaning sotsialistik ko‘rinishi edi.

Jamoalashtirish paxta yakka hokimligiga zamin yaratdi. 1932-yilda O‘zbekiston sobiq Ittifoq paxtasining 60% yetqazib berdi va uning paxta Mustaqilligini ta‘minlab, chetdan paxta olib kelishni to‘xtatdi; 1940-yilda Ittifoqning 63% paxtasi respublikamizda yetqazib berilgan.

Ba‘zi iqtisodiy muvaffaqiyatlarga qaramay, jamoalashtirish natijasida dehqonlarga xos butun turmush tartibi buzildi, ma‘naviy va axloqiy qadriyatlar zavol ko‘rdi. Ma‘muriy-buyruqbozlikning ustun bo‘lganligi tufayli dehqonning shaxsiy manfaati inobatga olinmadi. Hamma narsa: nima ekish, qachon ekish, qachon yig‘im-terim ishlarini boshlash “yuqoridan” belgilab turildi. Natijada qishloq xo‘jaligi oqsay boshladи.

Markaziy Osiyoda bu davrda ijtimoiy sohada xotin-qizlar orasida olib borilgan ish alohida muhim ahamiyatni kasb etdi. Xotin-qizlarning asrlar davomida muayyan urf-odatlar va sharoit mezonlari bilan shakllangan ijtimoiy mavqeini ularni ozodlikka chiqarish va erkaklar bilan teng huquqli qilish shiori ostida partiya-sovet tashkilotlari tomonidan favqulotda va shiddatli kompaniyasi ko‘p to‘qnashuvlar va qurbanlar bo‘lishiga sabab bo‘ldi. 1927-yili boshlangan “Hujum” harakati davomida bu kampaniya avjiga chiqdi. Xotin-qizlardan iborat ishlab-chiqarish yacheykalar, klublar, maktablar tashkil etildi. Biroq bu harakat asriy an‘analarmi hisobga olmagan holda qarorlar, ko‘rsatmalar asosida, ko‘p xollarda esa zo‘rlik ishlatish bilan olib

borildi. Shoshma-shosharlik bilan olib borilgan bu harakat mahalliy aholining, ayniqsa qishloq aholisining qattiq qarshiligiga uchradi. Shu bilan birga, natijalarga ko‘ra muhim bu tadbirlar o‘zbek ayollarini ozodlikka chiqarish jarayonini, reaksiyon tahdidiga qaramasdan, qaytmas tusga kiritdi.

20-30-yillarda O‘zbekistonda madaniy hayot sohasida ijobiy ishlар qilindi, bu ishlarni albatta keng xalq ommasi, milliy yetakchilar, ziyoilarning yaratuvchilik mehnati va faoliyatiziz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Bu davrning asosiy tomonlaridan biri savodsizlikni tugatish maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va majburiy ta‘limni joriy etishdir. Xamza Hakimzoda Niyoziy, T. Shermuhammedov, T.Qori Niyozov, E. Komilov, A. Nabixo‘jaev, M. Qodirova, G. Nazarov, K. Abdurashidov va boshqalar yangi maktab yaratish va uni rivojlantirishda faol ishtirok etdilar.

Davlat qaramog‘idagi ibridoiy maktablardan tashqari 20-yillarda mingdan ortiq savodsizlikni tugatish maktablari tashkil etildi. 1939-yilda 9 yoshdan 49 yoshgacha bo‘lgan aholining 78,7% savodxon edi. 20-yillarda uch xil maktablar, sovet maktablari, vaqf maktablari va eski maktab- madrasalar mavjud edi. Garchi kommunistik mafkuraga asosan Sho‘rolar davlati dastlab eski maktablar faoliyatiga tusqinlik qilmagan bo‘lsa-da, biroq 1929-yilga kelib eski maktablar butunlay tugatildi. Natijada haqiqiy milliy e’tiqod asoslarini o‘rgatuvchi manbalaridan biri yo‘qotildi.

Ittifoq hududida barcha maktablar bir xil tartibda ishlaydigan bo‘ldi va ularning ta‘lim-tarbiya mazmuni ham bir xil kommunistik dunyoqarashni shakllantirishga milliy zamindan uzoqlantirishga qaratilgan edi. 1930-yilda majburiy boshlang‘ich ta‘lim, 30-yillar oxirida - umumiy yetti yillik ta‘lim joriy etildi.

1918-yilda Toshkentda bir guruh taraqqiyatparvarlar tomonidan birinchi oliy o‘quv yurtiga asos solindi, keyinchalik 1920-yilda uning negizida Turkiston davlat universiteti tashkil etildi (Hozirgi kunda O‘zMU). Keng qo‘lamda avj olgan ta‘lim sistemasining takomillashuvi va xalq xo‘jaligining turli sohalariga malakali

mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi Markaziy Osiyo davlat universiteti (bu nom 1923-yil berildi) fakul’tetlari negizida bir necha oliy o‘quv yurtlari ochilishga olib keldi. Jumladan, Markaziy Osiyo paxtachilik va irrigatsiya, politexnika, Markaziy Osiyo qurilish, Markaziy Osiyo qishloq xo‘jaligi, Markaziy Osiyo meditsina va boshqa institutlar.

Shu bilan birga respublikada yangi oliy o‘quv yurtlari ham ochildi: 1932-yilda Markaziy Osiyo temir yo‘llari muhandislari instituti, Samarqand qishloq xo‘jaligi instituti, Samarqand avtomobil yo‘llari instituti, 1935-yilda - Toshkent pedagogika instituti, 1936-yilda Toshkent Konservatoriysi, 1937-yilda Toshkent farmasevtika instituti va boshqalar. Mazkur oliy o‘quv yurtlari va hunar texnika ta‘lim tizimidagi o‘quv yurtlari milliy ziyolilarni shakllanishiga katta hissa qo‘shdilar. Biroq, 20-yillar oxiri 30-yillarning boshlarida eski ziyolilarning ko‘pchiligi ta‘qib ostiga olindi va qatag‘on qilindi. Respublika o‘zining kuchli kadrlaridan ayrildi.

1941-yilning boshlarida iqtisodiyot va madaniyat sohalarida 55 mingga yaqin diplomli mutaxassislar ishlar edi. Biroq ularning soni va Vatanimiz ravnaqiga qo‘shilgan hissasi yanada ko‘proq bo‘lishi mumkin edi, agar sovet tuzimi ularni ta‘qib ostiga olmaganda. Oldin aytib o‘tganimizdek, bu yillardagi qatag‘onlar milliy madaniyatimiz uchun dahshatli fojiaga aylandi.

Sovet hokimiyati tomonidan nafaqat milliy ziyolilarimiz balki milliy alifbomiz ham qatag‘on qilindi. 1929-yilda arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek imlosi rad etilib lotin alifbosiga o‘tildi, keyinchalik esa, 1940-yilda u ham rus (kirillcha) imlosiga almashtirildi. Natijada mahalliy xalq o‘z o‘tmishidan uzildi, yosh avlod o‘z ajdodlarining ming yillar mobaynida yaratgan umumbashariy ahamiyatga bog‘liq ma‘naviy merosidan, milliy madaniyat manbalaridan uzilib qoldi, uni o‘rganishdan mahrum bo‘ldi.

Bu yillarda milliy adabiyot va san‘atni saqlab qolish, uning ilg‘or an‘analarini tiklash uchun harakat avj oldi. Agar 20-yillar adabiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekiston xalqlari azal-azaldan orzu qilib kelgan ozodlik mavzularini yorituvchi asarlar ko‘plab yaratilganini guvohi bo‘lamiz. 30-yillarga kelib esa yangi

inson va yangi turmush, mehnat va umuminsoniy qadriyatlar muammosini qamrab olgan asarlar paydo bo‘la boshladi.

O‘zbek adabiyoti tarixida bu davrda yangi janr-o‘zbek romanchilik janri vujudga keldi. Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” nomli asarlar yaratib, o‘zbek romanchiligidagi tamal toshini qo‘ydi. A.Fitratning “Qiyomat kun” va “Abulfayzxon” asarlari, Cho‘lponning “Cho’ri qiz isyoni”, “Yorqinoy” va “Zulmkor” nomli asarlarida xalq ommasi, shuningdek sharq ayollari fojiasi to‘laqonli ravishda aks ettirildi. 30-yillarda adabiyot sohasiga G’ayratiy, Oybek, G’afur G’ulom, Botu, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor kabi yozuvchi va shoirlar kirib keladilar va xalq orasida tanila boshlaydilar.

20-30-yillarda o‘zbek teatr san‘ati shakllana boshlaydi. O‘zbek professional teatr beshigi hisoblangan akademik teatr tashkil topdi. O‘zbek kino san‘ati asosiga tamal toshi qoyildi.

20-30-yillar O‘zbekistonda ilmiy muassasalarining tarmog‘i rivojlandi va ko‘plab olimlar yetishib chiqdilar. Bu davrda mashxur geolog olimlardan H.Abdullaev, G.Mavlonov, matematiklardan T.Qori-Niyozov, T. Sarimsoqov, biologlardan T.Zohidov, D.Saidov, A.Muzaffarov, A.To‘laganov, kimyogarlardan M.Yunusov, O.Sodiqov, A.Sattorov, X.Usmonov, K.Axmedov, faylasuflardan I.Muminov, arxeologlardan Y.G’ulomov kabilar yetishib chiqdilar. O‘zbek fanining taraqqiyoti va milliy kadrlarni yetishtirishda rus olimlaridan V.Romanovskiy, A.Uklonskiy, N.Korjenevskiy, I.Raykova, A.Titov va boshqalar katta yordam ko‘rsatdilar.

Bu davrda madaniy oqartuv muassasalari tarmog‘i ham o‘sdi. Biroq kompartiya mafkurasining yakka hokimligi, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining keng quloch yoyishi, “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat” nazariyasining yaratilishi, “sotsialistik realizm” uslubiyotini hukmronligini o‘rnatalishi madaniy hayotga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Xullas, O‘zbekistonda sho‘rolar davrida sodir bo‘lgan ijtimoiy - iqtisodiy siyosiy tanglik va ma‘naviy buzilishlar negizi, xuddi shu yillarga borib taqaladi.

20-yillarning ikkinchi yarmida shakllanib 30-yillarda to‘liq qaror topgan totalitarizm boshqaruv shakli paydo bo‘lishida 1922-yil 30-dekabrda SSSRni tuzish shartnomasi katta o‘rin to‘tadi. Bu shartnomaga ko‘ra rasman federativ davlat shaklida tuzilishi e‘lon qilingan bo‘lsada, amalda unitary – o‘ta markazlashgan davlat tuzildi. Markaz moliya va byudjet, armiya va tashqi savdo, ichki va tashqi siyosat, kommunikatsiya va aloqa masalalarini o‘z tasarrufiga oldi, milliy respublikalar esa ma‘muriy-hududiy bo‘linmalarga aylandi. 1924-yilda milliy-davlat chegaralanishi va 1925-yilda yagona ma‘muriy-hududiy bo‘linish o‘tkazildi. Bu tadbirlarni amalga oshirishda urf-odatlar, iqtisodiy aloqalar hisobga olinmay xatoliklarga yo‘l qo‘yildi. Ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi “harbiy kommunizm” an‘anasini davom ettirdi va butun mamlakatda 30-yillarda to‘liq qaror topdi. Kommunistik parttiya jamiyatda yagona hukmonron kuch bo‘lib oldi va barcha tashkilot, muassasalar o‘z faoliyatini sof g‘oyaviy-siyosiy va sinfiy asoslarda olib borishga majbur etildi.

O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganda Mustaqil, suveren deb e‘lon qilingan bo‘lsada, aslida, qaram hudud edi, har bir iqtisodiy, siyosiy, madaniy masala markaz tomonidan hal etilar edi. 1924, 1936, 1977 yillardagi Konstitutsiyalar esa milliy respublikalarning tobora mustaqilligini, suverenitet va erkinliklarini yo‘qqa chiqarishda hamda communistik partiya va markazning yakkahokimligini o‘rnatishda bosqichlarni o‘tadi.

Boshqaruv idoralari, xususan Davlat rejorashtirish qo‘mitasi faoliyati ham markazlashtirildi. 20-yillar oxiridan ichki partiyaviy tartib kuchaydi, demokratik usullarni tugatish, siyosiy zo‘ravonliklarni amalga oshirish uchun “sotsializm mustahkamlanib borgan sari sinfiy kurashning tobora keskinlashib borishi, dushman qarshiligi ham shunchalik kuchayib borishi” to‘g‘risidagi “nazariya”, - stalincha soxta g‘oya yaratildi. Vaqtli matbuot xalq dushmani siyosini yaratish ishini kuchaytirib yubordi. Mahalliy millatga mansub rahbarlardan xibsga olish va ularni xalq dushmani sifatida mahv etish boshlandi. Bundan ko‘zlangan maqsad mahalliy millat ziyorolarini yo‘qotib, markazning hukmonligini oshirish edi.

Sho‘rolar davrida qaror topgan totalitar davlatning mohiyati quyidagilardan iborat: siyosiy sohada - xalqning hokimiyatdan chetlantirilishi, davlat apparatini partiya a‘zolari tomonidan eg‘allanishi va byurokratlashtirishi, shaxsga sig‘inish, tor doira komfirqa a‘zolari tomonidan hokimiyatni monopollashtirish, rus bo‘lmagan xalqlarni milliy manfaatlari bilan hisoblashmaslik; iqtisodiy sohada - barcha mulkchilik shakllarini mutlaqo davlat tasarrufiga olish, majburiy mehnat tizimini joriy qilish, ishlab chiqarishni rejalashtirish siyosati orqali mahsulotni taqsimlashdan chetlashtirish va h.o.; ma‘naviy sohada - barcha joylarda kommunistik ma‘naviyat institutlarini tashkil qilish, Turkiston xalqlari ongiga xayoliy aqidalarga asoslangan sinfiylik dunyoqarashini, kommunistik mafkurani majburan singdirish, umuminsoniy qadriyatlar va o‘tmish ma‘naviyatimizning milliy an‘analariga zid bo‘lgan “sotsialistik madaniyat”ni kiritish, milliy tizimni asta-sekin hayotning muhim sohalaridan siqib chiqarish, milliy ma‘naviy g‘oyalarga asoslangan taraqqiyot sari intilishlarni, yot hisoblab fikrlar xilma-xilligiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat edi. Shunday murakkab va og‘ir sharoitlarda ham xalq , uning asl farzandlari O‘zbekistonning yorug‘ kelajagiga umid bilan asriy qadriyatlarimizga sodiqlik kayfiyatlarini yo‘qotmadilar. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, markaz olib borgan siyosatga ochiqdan-ochiq norozilik bildirib bo‘lmay qolganda ham, noto‘g‘ri siyosatni tanqid qilishga jurat etib sho‘rolar hukmronligi yillari davomida yashirin kurash olib bordilar.

Mazkur yashirin kurash jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qilib chiqish va uning oqibatida berilgan qurbanlarni alohida qayd etish e‘tiborga molikdir.

Dastlabki yillarda ya‘ni 1918-1919-yillarda milliy yetakchilar va mahalliy xalq vakillari faol sa‘yi-harakatlari bilan ayrim natijalarga erishildi. 1919-yil martida Turkiston o‘lka sovetlarining VII favqulodda s‘yezdi va Turkiston Kompartiyasining II konferentsiyasida, uzoq va keskin munozaralardan so‘ng, sovet hokimiyati boshqaruv va idora ishlariga musulmon mehnatkashlarini jalb etish haqida qaror qabul qilindi. Xalq ishonchi va e‘tiborini qozonish maqsadida mahalliy vakillardan foydalanish uchun TKP O‘lka Komiteti qoshida 1919-yil mart oyida

o‘lka musulmonlari byurosi tashkil etildi. Bu byuro tarkibiga T. Risqulov (rais), A. Muhiddinov, N.Xo‘jaev, Y.Ibragimov, Y.Alievlar kiritildi. Musulmonlar byurosi bor yug‘i o’n oy davomida faoliyat ko‘rsatdi. Biroq shu davr ichida sho‘rolar hokimiysi tomonidan unga yuklatilgan targ‘ibot va tashviqot ishlari bilan bir qatorda sovet hokimiyatining amaldagi siyosatini asl mohiyatini, mustamlakachilik asoslari saqlanib qolganligini, milliy siyosatdagiadolatsizliklarni keskin tanqid ostiga oldi. Xususan, Musbyuroning I Konferentsiyasida (iyul,) T. Risqulov shunday degan edi: “Ishchi dehqon hukumatining Turkiston sharoitidagi ikki yillik mamlakat boshqaruvi, afsuski o‘zaro ishonchszlikni kuchaytirib, chuqurlashtirib, teskari natijaga olib keldi. Musulmonlar inqilobiy g‘oyalarini amaldagi faoliyatga nomuvofiqligini o‘zaro ko‘rib ishondilar. Mamlakatning barcha burchaklaridan hokimiyatdan norozilik ovozlari eshitilmoqda. O‘lka aholisi 95 foizining huquqi hisobga olinmadi”.

Shunday qilib, o‘z faoliyatining dastlabki kunlaridanoq Musbyuro asosiy e‘tiborini milliy ixtiloflar, tengsizliklar (asosan mahalliy va rus millatlari orasida) mavjudligi, davlat qurilishida musulmonlarni ishtirok etmaganini, maorif va yer masalasida ruslar imtiyozli ahvoldaligini tanqid qilib, mahalliy aholining manfaatlarini yoqlab chiqdi. 1919-yil sentabr oyida bo‘lib o‘tgan konferentsiyasida ochiqdan-ochiq misollar asosida Turkistonda faoliyat ko‘rsatayotgan yevropalik kommunistlar Kazakov, K. Uspenskiy, Sorokinlarning shovinistik faoliyatini T.Risqulov keskin tanqid qilib, “bizning talablarimiz va markazdan ko‘rsatmalarga qaramay, Turkistonda uning manfaatlariga zid siyosat yurgizilmoqda. Ishonchszlik bildirib, sizga hokimiyat berilsa barbod bo‘ladi, siz hali taylor emassiz, - deyishmoqda. Biz bundan norozimiz” deb, ta‘kidlaydi.

1919-yil oktabrda Turkkomissiya tuzilib, u Turkistonda oliy darajadagi partiya nazorati va rahbarligini amalga oshirish uchun yuborildi. Turkkomissiya O‘lka Musbyurosini “o‘ziga davlat muassasasi funktsiyalarini o‘zlashtirib olganlikda” ayblab uni musulmonlar Kommunistik partiyasi tuzishga intilishda qoraladi, bu tashkilot o‘z tarixiy vazifasini, ya‘ni musulmonlar orasida tashkiliy ish

olib borish, ularning siyosiy faolligini oshirish vazifasini bajarib bo‘lgan tashkilot sifatida tugatish, lozim deb topdi. Aslida esa Musbyuro mahalliy aholi orasida katta ishonch va obru qozonib, ta‘sir kuchi oshib borayotgani, oshkora tanqid ruxi bilan sovet hokimiyatiga halal berayotgani, uning xatolarini fosh etib, aybini ochib berayotgani, mahalliy tashkilot sifatida sovet hokimiyatining o‘lkani butunlay jilovlash siyosatiga qarshi katta kuchga aylanib borayotgani uni tarqatilishiga sabab bo‘ldi. Biroq, shunga qaramay Musbyuroning oxirgi III Konferensiyasida (yanvar 1920-y.) va Turkiston KP V Umumpartiya Konferensiyasida mahalliy rahbarlar T.Risqulov boshchiligidagi “Turkistonning turkiy xalqlar kommunistik partiyasi” va Turkistonni Turk respublikasi deb atash g‘oyalari bilan chiqdilar. T. Risqulov o‘z nutqida Turkiston suvereniteti uchun printsipial bo‘lgan masalalarga e‘tibor berdi, ya‘ni mahalliy turmushga muvofiq yangi Konstitutsiya qabul qilish, turkiy xalqlarni bo‘lib yuborishga chek qo‘yish, Turkiston hukumatiga ikki qonunchilikda katta huquqlar berish, turk tilini davlat tili sifatida e‘lon qilish, Qizil Armiyaning musulmon bo‘limgan qismlarini olib chiqish va musulmon armiyasini tuzish. Bu takliflar asosida Musbyuro III konferensiyasida mahsus rezolyutsiyalar qabul qilindi, biroq ular markaz tomonidan qoralandi, T.Risqulov va uning maslakdoshlari bu takliflar uchun 1920-yildayoq Turkistonning siyosiy hayotidan chetlatilib “millatchilik” sari og‘ishuvchilikda ayblanishdi. Shu paytda Mustaqillik uchun oshkora harbiy kurash olib borganlarga “bosmachilar”, g‘oyaviy kurash olib borganlarga “millatchilar” tamg‘asi bosildi, milliy yetakchilar alohida nazorat ostiga olindi, dastlabki g‘oyaviy tazyiqlar boshlandi. Bunday sharoit hokimiyat saflarida o‘z xizmat mansablarini saqlab turgan holda el-yurt manfaatlarini imkon darajasida ba‘zan oshkor, ba‘zan yashirin yo‘llar bilan himoya qilishga o‘tishni taqozo etdi. O‘lkadagi ko‘plab milliy ziyorilar shu yo‘ldan bordilar.

Aynan 20-yillar boshlaridayoq sho‘rolar hokimiyatining qatag‘on mashinasi ham ishga tushirilib, hukumat siyosatiga zid g‘oyalari bilan chiqqanlar jismoniy yo‘q qilina boshlandi. Birinchi bo‘lib tatar kommunisti Mirsaid Sulton-Galiev qurbon bo‘ldi. Bu haqda 1923-yil yozdagagi kengashda so‘zga chiqqan T. Risqulov,

A. Ikromovlar, Turkistonda mustabid tuzum saqlanganligi va partiyada qo'rquv muhiti yaratilayotganligini ochiq aytganlari sababli o'zлari ham 30-yillar oxirlarida qatag'on qurbanlari bo'ldilar.

1925-yilning kuzida xalq komissarlari va boshqa rahbarlardan iborat qator xodimlar O'zbekistonda 1925-1929-yillarda olib borilgan yer-suv islohoti uslublariga qarshi chiqib, norozi bo'lib bayonot e'lon qildilar. Ularga "18 lar guruhi" yorlig'i berildi. Hozirgi kunda bu guruhni chiqishlarida F. Xo'jaev ham ishtirok etib, qo'llab-quvvatlagani ma'lum va hattoki guruh ishtirokchilari qattiq ta'qib qilinganiga qaramasdan ularga xayrixoh bo'lganini inkor etmagan. Aslida bu guruh a'zolari mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olmagan holda yer-suv islohotining sur'ati va uslublarini qayta ko'rib chiqishni talab qilsa-da, ular hokimiyat siyosatiga qarshi chiqishda ayblanib qatag'onga uchradilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muqobil yo'llarini amalga oshirishga milliy madaniyatni qayta tiklashga uringan kishilarga "guruhbozlikka qarshi kurash" shiori ostida ayblar qo'yildi. "Inog'omovchilik" ishi to'qilishining sababi, millatimizning madaniyati, maorifni rivojlantirishga, milliy ta'lim shakllarini yoyishga intilgan maorif vaziri R. Inog'omov rahbarligidagi bir guruh ziyolilar partyaning madaniy sohadagi siyosatiga mos kelmas edi.

1929-yil oxirida atoqli ma'rifatchi Munavvar Qori Abdurashidxonov boshchiligidagi "Milliy Istiqlol" tashkilotining a'zolari asossiz hibsga olindi. Bu tashkilotning qamalgan 85 nafar a'zosidan 15 nafari otib tashlandi. Jumladan, Munavvar Qori Abdurashidxonov Moskvaga olib ketilib, o'sha yerda qatl etildi (pinxona Vagankov qabristoniga ko'milgan). Yirik jamoat arboblari Mannon Abdullayev (Ramz), Nosir Saidov, Mahmud Xodihev (Botu), Hosil Vasilov, Sobir Qodirovlar o'lim jazosiga hukm qilindi, keyinchalik bu hukm uzoq muddatli qamoqqa almashtirildi.

20-yillarda xufiyona boshlangan zo'rlik va qatag'on siyosati 30-yillarda o'z cho'qqisiga yetdi. 1930-yili Davlat banki apparatida tozalash o'tkazilib, bir qancha rahbar xodimlar qamoqqa olindi. O'zSSR Oliy sudining raisi Sa'dulla Qosimov

millatchilikda, “Milliy Istiqlol” tashkiloti bilan hamkorlikda ayblanib yangi “ish” to’qildi va unga “Qosimovchilik” deb nom berildi. Sud ishlarining hammasi asosan ilg‘or siyosiy arboblarni yo‘q qilishga qaratilgan edi. Bu qatag‘on O‘zbekistonda davlat apparatida xizmat qilayotgan o‘rta bo‘g‘in xodimlarini o‘z girdobiga oldi.

1932-yil “Qosimovchilik” ishini davomi sifatida “Xudoyberganovchilik” ishi to‘qib chiqildi va u ham davlat apparati xodimlariga qarshi qaratilgan edi.

O‘zbekistonda yalpi qatag‘onliklar 1937-yilda partiya va davlatning taniqli arboblarini qamoqqa olishdan boshlandi. F.Xo‘jaev, A.Ikromov, S.Segezboev, A.Karimova, K.Otaboev kabilar xususida “sovetslarga qarshi, qo‘poruvchilik” uydirma ishlar to‘qib chiqarildi. Birgina 1937-yilning avgust-sentabr oylarida bir necha yuzlab qamalganlar orasida S.Boltaboev, I.Xudoyqulov, M.Shermuhammedov, M.Usmonov, I.Ortiqov, T.Risqulov, K.Boltayev, Y.Irisboev va boshqalar bor edi. Qamoqqa olinganlar qattiq jazolarga mahkum etildi.

1930-yillardagi qatag‘onlar milliy madaniyat uchun daxshatli fojiaga aylandi. O‘zbek xalqining mashhur adabiyot va san‘at arboblari - Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Shokir Sulaymonov, Ziyo Said, Elbek, A‘zam Ayub, Usmon Nosir, Muhammad Hasan, G’ozi Olim, G’ozi Yunus, Abdusalom Niyoziy va boshqalar “millatchilik”da ayblanib stalincha istibdodning begunoh qurbanlari bo‘ldilar. Qatag‘on qilingan va ta‘qib ostiga olingan shoir va yozuvchilarning asarlari ham ta‘qiqlandi.

Aynan shu davrda dinni, ruhoniylar va dindorlarning ta‘qib qilinishi ham kuchaydi. Ko‘plab masjid va madrasalar berkitildi, buzib tashlandi yoki xo‘jalik omborlariga aylantirildi. Diniy adabiyotlar yo‘qotildi, inson huquqlari amalda poymol qilindi. Ruhoniylarning asosiy qismi 30-yillarda kontsentratsion lagerga jo‘natildi.

Biz yuqorida O‘zbekistonning mohiyatan mustamlakaga aylantirilgan totalitar tuzum va sho‘rolar davrida amalga oshirilgan qatag‘onlik siyosati haqida so‘zladik, biroq o‘scha davrda respublikamiz rivojlanishida muayyan ijobiy o‘zgarishlar ham bo‘lganligini inkor etmaslik kerak. Bu o‘zgarishlar asosan

xalqning, mehnatkashlarning og‘ir va fidokorona mehnatlari, milliy yetakchilarimiz va rahbarlarning markazdan kelgan buyruqlarni imkoniyati darajasida yumshatib, mahalliy xalqlarga kamroq ozor yetadigan qilib amalga oshirish evaziga bo‘lgan.

Zero “tariximizni yoritishda, - deb ko‘rsatadi. I.Karimov, - biz uni davrni o‘zgaruvchan qarashlari foydasiga buzib talqin etishni qoralaymiz... O‘tmishda kechgan hamma narsa-yaxshisi ham, yomoni ham-bizning tarix, ajdodlarimiz xotirasi”.

Agar 30-yillardagi qatag‘onlarda asosan partiya, davlat, xo‘jalik va harbiy kadrlar mahv etilgan bo‘lsa, 40-50-yillar boshidagi qatag‘onlar zARBASINING ikkinchi kuchli to‘lqini madaniyat va fan arboblariga taalluqli bo‘ldi. Bu davrda respublika matbuotida ketma-ket ijodiy xodimlar ayblanib, ularni “millatchi”larga chiqarib, tanqid qiluvchi maqolalar bosildi.

Bu maqolalarda sotsialistik realizm prinsipiga “qiroatxonlik” bilan suyanib Turob To‘la, Sobir Abdulla, Kamtar Otaboev, Mirtemir, Habibiy, A.Bobojonovlarga turlicha ayblar qo‘yildi. Keyinroq Oybek, X.Zarifov, X.Yoqubov, X.Sulaymonov, I.Sultonov singari adiblar va adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, filologiya sohasidagi taniqli olimlarning asarlari tanqid qilindi va ular “jiddiy mafkuraviy xatolar va buzg‘unchilik”da ayblandi. Bundan tashqari milliy ziyolilarning atoqli vakillariga qarshi qatag‘on boshlandi. Ayniqsa, 1951-52 yillarda “sovietlarga qarshi millatchilik faoliyati” uchun Shukrullo, M.Shayxzoda, Shuhrat, Said Ahmad, Mirkarim Osim, Mirzakalon Ismoiliy va respublikaning boshqa bir qancha yozuvchilari, olimlari 25 yil qamoq jazosiga hukm qilindilar.

Stalincha qatag‘on yillarida O‘zbekiston 1937-39 yillarning o‘zida 41 ming kishi qamoqqa olindi, shulardan 37 mingi turli muddatlarga hukm qilindi, 6920 kishi otib tashlandi. Umuman olganda, 1939-1953 yillarda 61799 kishi qamoqqa olinib shulardan 56112 kishi ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lsa, 7100 otib tashlandi. Albatta, ularning ko‘pchiligi 1956 yilda batamom oqlandi, biroq o‘limidan so‘ng. 80-yillarga kelib mavjud tuzum mafkurachilari o‘zlarining yangi xurujini boshladilar. Totalitar tuzumning saqlab qolish uchun aholining qo‘rquvda tutish,

dam-badam tahqirlar va qatag‘on qilish odat tusiga aylanib qolgan edi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. 1917 yilgi fevral inqilobi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida qanday o’zgarishlarni yuzaga keltirdi?
2. “Sho’roi Islomiya” tashkiloti qachon va qanday maqsadlar yo’lida tashkil etilgandi?
3. “Sho’roi Islomiya” faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Qanday kuchlar “Sho’roi Ulamo” tashkilotini tuzdilar?
5. Nima sababdan «Sho’roi Islomiya» va “Sho’roi Ulamo” o’rtasida bo’linish yuz berdi?
6. Turkistonda Sovet hokimiyati qachon o’rnatildi?
7. Turkiston Muxtoriyati hukumati qachon va kimlar tomonidan tuzilgan va Turkiston Muxtoriyati zimmasiga qanday tarixiy vazifalar yuklangan edi?
8. Turkiston Muxtoriyatini halokatga olib kelgan asosiy sabablar nimalardan iborat?
9. Madaniy inqilob haqida nimalarni bilasiz?
10. O’zbekistonda jamoalashtirish siyosati qanday kechgan?
11. Sovetlar zo’ravonligiga qarshi qurolli harakat qachon boshlandi va necha bosqichda amalga oshirildi?
12. Qurolli harakatining taniqli namoyandalari kimlar?

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Shahidlar xotirasi-mangu barhayot. Asarlar, 8-jild. T., O’zbekiston, 2000.
2. Karimov I. A. Xotira chirog’i o’chmaydi. Asarlar, 8-jild. T., O’zbekiston, 2000.
3. Karimov I. A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. T.: 19996.
4. Agzamxo’jaev S. Turkiston muxtoriyati. T., Fan, 1996.
5. Vatan tuyg’usi. T., O’zbekiston, 1996.

6. Ibrohim Karim. Madaminbek. T., Yozuvchi, 1993.
7. Tohir Qaxxor. Hur Turkiston uchun. T., Cho`lpon, 1994.
8. Turkiston mustaqqiligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. T., Fan 1996.
9. Tarix shohidligi va saboqlari. T.: Ma’naviyat, 2002.
10. O’zbekistonning yangi tarixi. (ikkinchi kitob) O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida T., Sharq, 2000.
11. O’zbekiston tarixi. R.Murtazaevaning umumiy tahriri ostida.- T.: Universitet, 2005.
12. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O’zbekiston tarixi Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2006.

## **12-MAVZU. IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O’ZBEK XALQINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI**

**Reja:**

1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi va xarakteri.
2. O’zbekiston xalq xo‘jaligini harbiy izga o‘tkazilishi.
3. O’zbek xalqining urush yillarida ko‘rsatgan fidokorona mehnati.
4. O’zbek xalqining urush yillarida ko‘rsatgan qahramonligi.

**Tayanch tushunchalar:** Ikkinchi jahon urushi, urushning boshlanishi va sabablari, harbiy safarbarilk, fashistlar Germaniyasi, o’zbekistonlik jangchilarining qahramonligi, askar, gospital, korxona, qahramonlik, punkt, O’zbekistonda barcha moddiy va ma’naviy kuchlar, resurslar front uchun safarbar qilina boshlandi, urush yillarida O’zbekiston sanoat korxonalari va qishloq xo‘jaligi, evakuatsiya, sovet, fan, madaniyat, adabiyot.

**1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi va xarakteri.** Insoniyat tarixidagi 15 mingdan ortiq katta-kichik urushlar ichida ilk qirg‘inbarot, xalqlar boshiga behisob kulfatlar solgan, o‘zining olovli domiga butun - qit‘alarni tortgan

ikkinchi jahon urushi ustidan qozonilgan g‘alabaga ham 75 yil to‘ldi. Fashistlar Germaniyasi qo‘sishinlarining 1939-yil 1-sentabrda Polshaga bostirib kirishi bilan ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi. XX asr fojiasi bo‘lmish bu urush olti yil davom etdi, yer sharining 80 foiz aholisi joylashgan hududni, 61 ta mamlakatni o‘z ichiga qamrab oldi.

Ikkinchi jahon urushining asosiy kelib chiqishi sababi Yevropadagi yirik davlatlar o‘rtasidagi ixtiloflar, kelishmovchiliklar, agressiv kuchlarning dunyoga hukmron bo‘lish uchun intilishlari hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushining dastlabki davridayoq Germaniya deyarli butun Yevropada hukmronlikni qo‘lga kiritdi, Yevropadagi Polsha, Chexoslavakiya, Yugoslaviya, Belgiya, Gollandiya, Norvegiya, Avstriya, Fransiya kabi 10 ta davlatni bosib oldi.

Fashistlar Germaniyasi Yevropaning harbiy, iqtisodiy salohiyatlarini qo‘lga kiritgach, 1941-yil 22-iyun tong saharda 1939-yil 23-avgustda imzolangan hujum qilmaslik to‘g‘risidagi shartnomani buzib, Sovet Ittifoqiga hujum boshladи.

Urushning dastlabki kunlaridayoq O‘zbekiston shahar va qishloqlarida miting va yig‘ilishlar bo‘lib o‘tdi. Vatan himoyasi uchun har qanday vazifani bajarishga shay ekanliklarini bildirgan o‘zbekistonliklar harbiy komissarliklarga frontga ko‘ngilli sifatida jo‘natishni so‘rab arizalar bera boshladilar. Urushning dastlabki kunlaridanoq respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ariza tushgan. O‘zbekistonning barcha moddiy va ma’naviy kuchlari, resurslari front uchun safarbar qilina boshlandi. Umumiylar harbiy safarbarlik e’lon qilindi. O‘zbekiston hukumati milliy harbiy qo‘silmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdi. 1941-yil iyundan 1942-yil oxirigacha front uchun harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo‘silma tuzildi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh qo‘mondonlik qarorgohi rezerviga 86 diviziya va brigada jo‘natdi, 6,5 million kishidan iborat bo‘lgan O‘zbekiston aholisidan urushga yaroqli odamlarning deyarli 60 foizi, aniqrog‘i 1433230 kishi urushga safarbar etildi.

O‘zbekistonda mavjud sanoat korxonalaridan 300 ga yaqin harbiy izga solinib texnika, qurollar, o‘q-dori ishlab chiqish moslashtirilib qayta qurildi. Urush bo‘layotgan hududlardan 100 ta sanoat korxonasi ko‘chirib keltirilib qayta qurildi. Bundan tashqari yana juda ko‘plab ishlab chiqarish korxonalari, maorif va madaniyat muassasalari, ming-minglab fuqarolar, yetim bolalar O‘zbekistonga ko‘chirib keltirildi.

O‘zbekiston aholisi o‘rtasida mudofaa fondini tashkil etish, front uchun issiq kiyimlarni yig‘ish harakati boshlanib ketdi. Mudofaa fondiga 650 million so‘m pul, 22 million so‘mlik qimmatbaho buyumlar va 55 kilogrammga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar to‘plandi. Aholiga davlat zayomi, pul-buyum lotareyasini sotish hisobiga 4,2 milliard so‘m mablag‘ yig‘ilib g‘alaba manfaatlari yo‘lida foydalanildi.

Shunday qilib urush yillarida O‘zbekistonning barcha moddiy va ma‘naviy kuchlari talabi uchun safarbar etildi, hayot tamomila harbiy izga tushdi.

Urush yillarida O‘zbekistondagi mavjud sanoat korxonalari urush manfaatlariga moslashtirilib qayta qurilib, jadal sur‘atlar bilan rivojlantirilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu sohada yangi tarmoqlar ham vujudga keldi. Birinchi navbatda sanoat korxonalari quvvatlarining keskin kengayishi elektr energiyasi va yoqilg‘i ishlab chiqarishni oshirishni talab qildi. Shu maqsadda bir qator gidroelektro stantsiyalarini qurishga kirishildi. Respublikada eng yirik gidroelektrostantsiya hisoblangan Farxod GESi qurilishiga katta e‘tibor berildi va u umumxalq qurilishiga aylanib, 10 oy fidokorona mehnat tufayli Sirdaryo jilovlandi. Shu bilan birga Bo‘zsuv oqimida Tovoqsoy, Oqqovoq, Solar, Oqtepa, Qibray kabi 30 ga yaqin katta - kichik GESlar qurilib ishga tushirildi, natijada O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish qariyb 1940-yildagi 482 mln. kv soatdan 1945-yilda 1187 mln. kv soatga ko‘paydi.

Urush yillarida O‘zbekiston yoqilg‘i sanoatini rivojlantirishga ham katta e‘tibor berildi. Ko‘mir sanoatini rivojlantirishga 639 mln 980 ming so‘m kapital mablag‘ sarflandi. Natijada ko‘mir qazib chiqarish 1945-yilda 103 ming tonnaga

yetdi yoki u 1940-yildagiga nisbatan 30 martadan ko‘proq o‘sdi. Neft mahsulotlari ishlab chiqarishni keskin ko‘paytirish tadbirlari natijasida neft ishlab chiqarish 4 marta ko‘paydi.

Og‘ir urush yillarida O‘zbekistonda Bekobod metallurgiya zavodi, Ohangaron ko‘mir koni, Qo‘qon superfosfat zavodi, Farg‘ona gidroliz zavodlari kabi yirik sanoat korxonalari qurilishi boshlandi va bularning bir nechasi urush yillaridayoq o‘z mahsulotini bera boshladi.

1945-yilda 1940-yilga nisbatan O‘zbekiston sanoati mahsulotining umumiyligi hajmi 7 baravar, shu jumladan, og‘ir sanoat ishlab chiqarish 4 baravar, mashinasozlik sanoati 13,4 baravar oshdi. Urush yillarida O‘zbekiston xaritasida yangi sanoat markazlari: Chirchiq, Ohangaron, Bekobod, Yangiyo‘l va boshqa sanoat shaharlari vujudga keldi. Toshkent shahri yirik sanoat markazlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston sanoati urush yillarida frontga 2090 samolyot, 17342 aviamotor, 2318000 aviabomba, millionlab minalar, snaryadlar va boshqa quroq-aslahalar yetkazib berdi. Yengil sanoat korxonalari va kooperatsiya artellari umumiyligi 443,3 mln so‘mlik mahsulotlarni front ehtiyojlari uchun ishlab chiqardi.

**2. O‘zbekiston xalq xo‘jaligini harbiy izga o‘tkazilishi.** Fashizmni tor - mor keltirish uchun olib borilgan umumxalq kurashiga o‘zbek dehqonlari o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. Bir qator ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablarga ko‘ra respublikada qishloq xo‘jaligini qayta qurish g‘oyatda katta qiyinchiliklar bilan kechdi. Vaziyatning murakkabligi shundan iborat ediki, birinchidan, respublika qishloq xo‘jaligi asosan paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilgan edi, oziq-ovqat mahsulotlari ittifoq fondidan keltirilgan. Urush boshlangach, oziq-ovqat keltirilish to‘xtadi, aholini boqish uchun ichki imkoniyatlarni topish zarur edi. Ikkinchidan, evakuatsiya qilingan aholi hisobiga shaharlar aholisining ko‘payishi oziq-ovqatga bo‘lgan talablarni yanada oshirdi. Uchinchidan, dehqonlar frontga va harbiy sanoatga ishlashga safarbar etilgan, dehqonchilikning mashaqqatli ishlari keksalar, ayollar, o‘smirlar zimmasiga tushgan edi. To‘rtinchidan, MTS va sovxozlarga g‘arbdan yangi traktorlar, qishloq xo‘jalik mashinalari va ularga ehtiyyot qismlar

keltirilish to‘xtab qolgan, xo‘jaliklardagi ayrim texnikalar, otlar armiya ehtiyojlari uchun olib ketilgan edi.

Urush yillarida respublika dehqonchiligining tarkibi keskin o‘zgardi. Paxtachilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda don, qand lavlagi, kanop, pilla, sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirishni keskin ko‘paytirish tadbirlari ko‘rildi. Birinchi navbatda ekin ekiladigan maydonlarni kengaytirish, irrigatsiya quvvatlarini oshirish yuksak sur‘atlar bilan olib borildi. O‘zbekiston qishloq mehnatkashlari g‘oyatda ogir va qiyin sharoitlarda mehnat qilib, Germaniya fashizmi ustidan qozonilgan g‘alabani tezlashtirishda o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. Urush yillarida O‘zbekiston qishloq mehnatkashlari 4 mln. 148 ming tonna paxta, 82 mln. pud g‘alla, 54,1 ming tonna pilla, 22,3 ming tonna jun, 36 ming tonna qoqi, 195 ming tonna sholi, 57,5 ming tonna meva, 159 ming 300 tonna go‘sht va boshqa mahsulotlarni yetkazib berdilar.

**3. O‘zbek xalqining urush yillarida ko‘rsatgan fidokorona mehnati.** Fashistlar Germaniyasi ustidan tarixiy g‘alabani qo‘lga kiritishda O‘zbekiston fan, adabiyot, maorif va san‘at xodimlarining ham hissasi katta bo‘ldi. 1943-yilning sentabrida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tashkil etildi va o‘sha yilning 4-noyabrida akademianing ochilish marosimi bo‘ldi. Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti qilib T.N.Qori-Niyozov saylandi.

Urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan O‘zbekistonda Oliy va o‘rta mahsus o‘quv yurtlari va xalq maorifi muassasalari o‘z faoliyatini to‘xtatmadı. O‘zbekistonda 29 ta oliy va 52 ta o‘rta mahsus o‘quv yurti ishlab turdi. Ularning soni esa Markazdan ko‘chirib keltirilgan 31 ta oliy o‘quv yurti va 7 ta harbiy akademiya hisobiga yanada ortib bordi. Urush yillarida bu o‘quv yurtlarida 20 mingga yaqin yuqori malakali mutaxassis va harbiy kadrlar tayyorlandi.

Xalqimizning yovuz dushmanga qarshi kurashi yillarida o‘zbek adabiyoti ham o‘zining munosib hissasini qo‘shti. Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, G’afur G’ulom, Uyg‘un, Sobir Abdulla, Zulfiya kabi shoirlar va yozuvchilar urush maydonlariga safarbar etuvchi she‘rlari, maqolalari va asarlari bilan xalqni

g‘alabaga ruhlantirdilar. Oybekning “Yovga o‘lim”, “Qutlug“ qon”, “Navoiy”, “Quyosh qoraymas”, “Men yahudiyman” asarlari, H.Olimjonning “Yigitlarni frontga jo‘natish”, “O‘lim bosqinchilarga”, “Jangchi Tursun”, “Roksananing ko‘z yoshlari” va boshqa asarlar urush yillaridagi o‘zbek adabiyotining yorqin namunalaridir. Dramaturgiya sohasida N.Pogodin, H.Olimjon, Uyg‘un va S.Abdullalar yozgan “O‘zbekiston qilichi”, A.Umariyning “Qasos”, K.Yashin va S.Abdullaning “Davron ota” kabi asarlari bilan birga Uyg‘un va I.Sulton “Alisher Navoiy”, H.Olimjon “Muqanna”, Maqsud Shayxzoda “Jaloliddin Manguberdi”, Oybek “Mahmud Torobiy” kabi dramatik asarlarida o‘zbek xalqining bosqinchilarga qarshi kurash sahifalarini aks ettirdilar.

Urush davrida O‘zbekistonda ta‘sirchan vosita hisoblangan teatr va san‘at ancha rivojlandi. Bu davrda O‘zbekistonda 36 ta mahalliy va 16 ta ko‘chirib keltirilgan teatr jamoalari faoliyat ko‘rsatib, ular urush yillarida 203 ta yangi asarni sahnalashtirdilar va 65 million tomoshabinga 187568 spektakl va kontsertlar ko‘rsatdilar. Turli janrlar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan 30 kontsert brigadalarining kuchi bilan harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq, respublika shaharlaridagi gospitallarda 26 mingta konsert qo‘yib berdilar. Ayniqsa, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg‘unboeva, Sora Eshonto‘rayeva, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov kabi san‘atkorlar ishtirokidagi konsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo‘r ko‘tarinkilik baxshida etgan. Urushdagi g‘alabaga o‘zbek kino san‘ati ham o‘z hissasini qo‘shdi. Bu sohada K.Yormatov, N.G’aniev, Y.A‘zamov hamda markaziy shaharlar Moskva, Leningrad, Kiyev, Odessadan Toshkentga evakuatsiya qilingan 200 ga yaqin kino ustalarining hamkorligi katta rol o‘ynadi. Bu davrda yaratilgan “Nasriddin Buxoroda”, “Tohir va Zuhra”, “Ikki jangchi”, “Suxe Bator” va boshqa badiiy filmlar haqli suratda “O‘zbekfilm” oltin fondidan joy oldi. Xullas, fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g‘alabaga O‘zbekiston fani, maorif va madaniyati xodimlari ham o‘zlarining salmoqli ulushlarini qo‘shdilar.

Urishning barcha jabhalarida O‘zbekistonlik jangchilar qahramonlik va mardlik mo‘jizalarini ko‘rsatdilar. Umuman, ikkinchi jahon urushi janglarida turkistonlik jangchilar, shu jumladan, o‘zbeklarning an’anaviy urush qobiliyatlarining saqlanib qolganligini ko‘rsatdi. Jami bo‘lib O‘zbekistondan ikkinchi jahon urushiga 1 million 433.230 kishi safarbar qilingan edi. Bu o‘sha davrdagi O‘zbekiston aholisining urushga yaroqli 50-60 foizi demakdir. O‘zbekistonlik jangchilar urush janglarida mardlik va qahramonlik namunalarini ko‘rsatdilar. Ulardan 1753 kishi “Moskva mudofaasi uchun”, 2738 kishi “Stalingrad mudofaasi uchun” medallari bilan taqdirlangan bo‘lsa, o‘zbekistonlik jangchilardan 1706 kishi “Berlin olinganligi uchun” medali, 2430 kishi “Budapeshtni ozod qilish uchun” medali, 109208 kishi “Germaniya ustidan g‘alaba qozonilganligi uchun” medali bilan taqdirlandilar. Xullas, 1939-1945 yillardagi ikkinchi jahon urushiga ko‘rsatgan jasorat, qahramonligi va mardligi uchun O‘zbekistonlik jangchilardan 120 ming kishi orden va medallar bilan taqdirlandilar. 300 dan ortiq kishiga esa Qahramon unvoni berildi. Ammo urush va kiritilgan tarixiy g‘alaba vatanimiz xalqlariga qimmatga tushdi. O‘zbekistondan frontga safarbar qilingan 1433230 kishidan 263 005 halok bo‘ldi, 132670 kishi bedarak yo‘qoldi va 60452 kishi o‘z yurtiga nogiron bo‘lib qaytdi.

**4. O‘zbek xalqining urush yillarida ko‘rsatgan qahramonligi.** Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga Qashqadaryo viloyatining mehnatkashlari o‘zlarining munosib ulushini qo‘shdilar. Urushda 46 mingga yaqin yurtdoshlarimiz ishtirok etdilar. Ulardan 23655 nafari urushda halok bo‘ldi, 21 mingdan ko‘prog‘i yarador va nogiron bo‘lib qaytdilar. 18 mingdan ortiq jangchilar mardlik va jasoratlari uchun orden va medallar bilan mukofotlangan. Hozirgi kunda viloyatda urush va mehnat fayriylarining 2572 nafari urush qatnashchilari va 21828 nafarini urush orti mehnat faxriylari tashkil etadi.

Ikkinchi jahon urushi mamlakat xalq xo‘jaligida juda katta moddiy va ma‘naviy zarar keltirdi. Bu zararning barchasini jamlab fashistlar talab ketgan va yo‘q qilib yuborgan moddiy boylikni ham birga qo‘shib hisobgalanga urush

davridagi baholar boyicha keltirilgan zarar taxminan 2 trillion 600 milliard so‘mni tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda xalq mehnati bilan yaratilgan milliy boylikning deyarli uchdan bir qismini urush alangasi yutib yubordi. O‘zbekiston xalqi urushdan zarar ko‘rgan shahar, qishloq, korxonalarini tiklashdek vatanparvarlik ishida ham ulkan mehnat jasoratini ko‘rsatdilar.

Umuman, O‘zbekiston va uning mehnatkashlari fashizmga qarshi olib borilgan urushda qo‘lga kiritilgan g‘alabaga o‘zining munosib va salmoqli hissalarini qo‘shdilar. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov haqli ravishda ta‘kidlaganidek: “Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g‘oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo‘lmisin, o‘z Vatani, el-yurtining yorug‘ kelajagi, beg‘ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo‘lganlarni, o‘z umrilarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz. Bu achchiq, lekin oliy haqiqatni unutishga hech kimning haqqi yo‘q va bunga yo‘l ham bermaymiz!”. O‘zbekistonliklarning jang maydonlaridagi jasorati, front orqasidagi fidokorona mehnati mustabid davlat mashinasining tazyiqi, erksiz harakat tarzida emas, balki ongli, asl vatanparvarlikning manbai bo‘lgan Vatanga muhabbat tuyg‘usining yuksak darajadagi ko‘rinishi bo‘ldi. Urushda halok bo‘lganlar xotirasini tiklash va qadrlash maqsadida “Xotira” kitoblari tuzildi, Xotira maydoni va motamsaro ona yodgorlik majmuasi tashkil etildi. Bu ishlarga boshchilik qilgan yurtboshimiz farmoni bilan 9 may “Xotira va qadrlash” kuni deb e‘lon qilindi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Ikkinchi jahon urushining asosiy kelib chiqishi sabablari haqida so‘zlab bering.
2. O‘zbekistonda barcha moddiy va ma’naviy kuchlari, resurslari front uchun safarbar qilina boshlanishi hamda umumiylar harbiy safarbarlik haqida gapirib bering.
3. Urush yillarida O‘zbekiston sanoat korxonalarini va qishloq xo‘jaligi qanday rivojlantirilgan?
4. Urush yillarida O‘zbekistonning madaniy hayoti haqida so‘zlab bering.

5. O‘zbekistonlik janchilarning frontda ko‘rsatgan jasorati haqida gapirib bering.

6. Fashizmni tor-mor etishda O‘zbekistonning munosib o‘rni haqida gapirib bering.

7. ”Sen yetim emassan” iborasi mohiyati nimada?

8. O’zbek xalqining bag’ri kengligi nimalarda namoyon bo’ldi?

9. ”Xotira va qadrlash kuni mazmun-mohiyatini izohlab bering?

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Inson xotirasi-muqaddas, inson qadri ulug’. Asarlar, 4-jild, T.: O‘zbekiston, 2006..
2. Azizzxo’jaev A. Chin o’zbek ishi. T.: 2003.
3. Tursunov I. Istiqlolga intilgan qalblar nidosi. T.: 1995.
4. Vatan tuyg’usi. T., O’zbekiston, 1996.
5. O‘zbekistonning yangi tarixi. II-jild. Sovet mustamlakachiligi davri. T., 2000 y.
6. O‘zbekiston tarixi. –T., Unversitet, A. Sagdullaev va B. Eshonov taxriri ostida. I-qism, 1999, II-nashr, T., 1999.
7. O‘zbekiston tarixi. R. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida T.: Universitet, 2005.
8. Q.Ulmonov, M.Sodiqov, S.Burxanova. O‘zbekiston tarixi. Darslik, T.: Iqtisod-moliya, 2006.

## **13-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVLATINING AMALGA OSHIRGAN IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI (1946-1991 YY.)**

**Reja:**

1. O‘zbekiston ikkinchi jahon yillardan keyingi tiklanish yillarida. 50-60-yillarda O‘zbekistondagi iqtisodiy hayot.
2. Paxta yakkahokimligi. 50-80-yillarda respublikaning madaniy hayoti. Ommaviy qatag‘onlar. Farg‘ona fojeasi.
3. I.Karimov O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasi birinchi kotibi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zgarishlar.
4. Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati. 1991-yil avgust voqealari. SSSRning tanazzulga yuz tutishi.

**Tayanch tushunchalar:** O‘zbekiston SSR, sovet, kompartiya, qaramlik, qatag‘on, s’ezd, ijtimoiy-siyosiy, taraqqiyotda ekstensiv usulning hukmronligi, iqtisodiyotning bir tomonlama xom-ashyo yetishtirish tomon yo‘naltirilishi, paxta yakkahokimligi, Orol fojiasi, iqtisodiy tanglik.

**1. O‘zbekiston ikkinchi jahon yillardan keyingi tiklanish yillarida. 50-60-yillarda O‘zbekistondagi iqtisodiy hayot.** Urushdan keyingi yillarda ham respublikamizning mustamlaka maqomi saqlanib qoldi. Bu davrda O‘zbekiston sanoati tabiiy, moddiy-texnika va mehnat resurslardan yanada kengroq foydalanildi. Xuddi shu davrda O‘zbekiston yoqilgi-energetika majmuining asosini tashkil etadigan qator yirik gaz konlari o‘zlashtirildi, nodir metallurgiya sanoati yaratildi, oltin qazib olish sanoati barpo etildi, ko‘ptarmoqli mashinasozlik markazlari barpo etildi. Paxtachilikni rivojlantirishi maqsadida “Tashsel‘mash”, “O‘zbeksel‘mash”, “Krasniy dvigatel”, “Pod‘yomnik” kabi zavodlarda tirkama uskunalar va traktorlar uchun ehtiyyot qismlar ham ishlab chiqarila boshlandi. 1985-yilga kelib respublikada ishlab chiqarish , ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, kombinat va korxonalar soni

1500 tadan oshib ketdi. To‘la asos bilan shuni ta‘kidlash joizki, erishilgan bu yutuqlar bir tomonlama edi, xolos. Asbob-uskunalar o‘n yillar davomida yangilanmas, yangi texnologiyalar to‘g‘risida esa gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Respublika iqtisodiyotining asosi bo‘lgan paxta tolasining 92% dan ortig‘i, paxtachilik majmui ishlab chiqarish vositalarining 40% ga yaqini, qorako‘lning deyarli hammasi, pillaning 2/3 qismi, oltin, mis, rux kabi rangli metallarning hammasi va boshqalar O‘zbekistondan deyarli “suv tekinga” xom ashyo holida olib ketilishi, ayni vaqtda tayyor ishlab chiqarish , aholi iste‘moli uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar, jumladan, tayyor sanoat mollari va hatto o‘zi yetarli darajada ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan mahsulotlarining 2/3 qismini ittifoqning boshqa respublikaliridan yuqori iste‘mol baholarida keltirilishi respublikamiz xo‘jalignining bir tomonlama rivojlanganligini yaqqol ko‘rsatadi. Bunga qo‘srimcha qilib, shuni ta‘kidlash joizki respublika sanoatida yengil sanoat mahsulotining hissasi 1989-yilda 37,2 % ni tashkil etdi. Bunda aholi uchun keng iste‘mol mollari ishlab beradigan yengil sanoat O‘zbekistonda ancha yuqori rivojlangandek tuyuladi. Aslida bu tarmoq mahsulotlarining yarmidan ko‘pini paxta tozalash zavodlarida tayyorlangan paxta tolasi, pillakashlik fabrikalarida ishlov berilgan ipak tolasi, lub zavodlarida ishlangan kanop tolasi, teriga ishlov beruvchi korxonalarda ishlov berilgan qorako‘l terilar tashkil qilganini e‘tiborga olsak, qishloq xo‘ligi mahsulotlariga dastlabki ishlov beruvchi tarmoqlar hissasi butun yengil sanoatda 2/3 qismga borib qolganini ko‘ramiz. Shu bois O‘zbekiston mustaqillik arafasida sanoat yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha sobiq Ittifoqda 10-o‘rinni egallab turdi.

## **2. Paxta yakkahokimligi. 50-80-yillarda respublikaning madaniy hayoti.**

**Ommaviy qatag‘onlar. Farg‘ona fojeasi.** Urushdan keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida ham ijobjiy va salbiy jihatlarni kuzatish mumkin. Qishloq xo‘jalignining asosiy yo‘nalishi paxtachilik bo‘lib qoldi. Shu bois, paxta yakka hokimligiga e‘tibor yanada kuchaytirildi. Paxta xom ashysosi yetishtirish 1946-1985 yillarda 5,5 baravar ko‘paydi, paxta ekiladigan maydonlar esa 1 mln.ga dan ortdi. Paxtaning yalpi hosili

1960 yilda 2,8 mln tonnani, 1980-yilda 6,2 mln tonnani tashkil qildi

Lekin O‘zbekistonning milliy faxri va asosiy boyligi bo‘lib kelgan paxtachilik bora-bora uning og‘ir oqibatlariga olib kelgan “shuuri”ga aylandi. Markazning paxta yetishtirishni butun choralar bilan ko‘paytirishdan iborat siyosatning amalga oshirishini ta‘minlash natijasida: respublikaning sug‘oriladigan asosiy ekin maydonlari paxtaga bo‘shatib berildi va ayrim rayonlarda uning umumiyligi ekin maydoni 80% ortib ketdi; oziq-ovqat mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashgan dehqonchilikning ko‘pgina tarmoqlari siqib chiqarildi, chorvachilik zarar ko‘rdi; ko‘p yillar davomida surunkali paxta ekilishi tuproqning tarkibi buzilib, tabiiy unumdoorligi qashshoqlashdi, maydonlarni sho‘r bosdi; mineral o‘g‘itlarni o‘ta ortig‘i bilan ishlatilishi tuproq, suv va atmosferaning zaharlanishi, ekologik sharoitning og‘irlanishiga olib keldi. Bu davrda sug‘orma dehqonchilikning yuksaltirish maqsadida ko‘plab yangi kanallar va suv omborlari ishga tushirildi. (Chimqo‘rg‘on, Janubiy Surxon suv omborlari, Amu-Buxoro, Amu-Korako‘l, Janubiy Mirzacho‘l kanallari va b.) hamda Mirzacho‘l, Qarshi cho‘li, Surxon-Sherobod cho‘llarida unumdoor qo‘riq yerlar o‘zlashtirildi. Dastlab bu tadbirlar qishloq xo‘jalik mahsulotlarni yetishtirishning oshishiga olib kelgan bo‘lsa-da, keyinchalik ekologiyaga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Eng yomoni Amudaryo va Sirdaryo suvlari Orol dengizigacha qariyb yetib bormay qoldi. Bu Orolni falokat yoqasiga olib keldi. Dengiz satxi pasayib, ilgarigi gullab turgan shahru Qo‘rg‘onlar sho‘r qumzorga aylandi. Umuman olganda iqtisodiyotni rivojlantirishda ekstensiv usul hukmronlik qildi, ilmiy-texnika taraqqiyotini ishlab chiqarishga tadbiq ettirishga yetarli e‘tibor berilmadi. Masalan, 1981-1985 yillarda 660 ta kashfiyotdan faqat uchdan biri xalq xo‘jaligiga joriy etildi. Boz ustiga respublika iqtisodiyoti qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish doirasida o‘ralashib qoldi. Ma‘naviy-axloqiy sohada salbiy hodisalar (qo‘shib yozish, ko‘zbo‘yamachilik qilish va b.) kuchayib bordi. Iqtisodiyotni tanazzuldan olib chiqish uchun avvalo ishlab chiqarish munosabatlarini o‘zgartirish boshqaruvning iqtisodiy usul-amallarini yo‘lga qo‘yish o‘rniga har xil chaqiriqlar bilan iqtisodiy natijasiz eksperimentlar o‘tkazildi.

Ijtimoiy sohada ham ko'rsatkichlar juda past edi. Jumladan turar joy, bilan ta'minlash umum ittifoq ko'rsatgichini 65% (sobiq 15 respublikalar ichida 12 o'rinn) tashkil etdi, kasalxonalar bilan 92% (9 o'rinn), maktablarda o'rinnlar bilan - 72 % (12 o'rinn) maktablargacha tarbiya muassasalari bilan - 34,5 % (12 o'rinn). Aholini ichimlik suv bilan ta'minlash 25 - 30 % ga qondirilardi. Fan, madaniyat va xalq ta'limiga qilinadigan xarajatlar byudjet mablag'larining 2,7 % idan ortmas edi. Asosan aholi vakillari istiqomat qiluvchi qishloqlarda ijtimoiy ahvol juda og'ir edi. Ijtimoiy hayotda yana bir nohaqlikka e'tiborni qaratsak - 80-yillardagi ma'lumotlarga ko'ra, sobiq Ittifoq bo'yicha har bir maktab o'quvchisiga o'rtacha 240 so'm sarflangan holda, O'zbekistonda bu ko'rsatgich 203 so'mni, har bir talabaga Ittifoqda 1200 so'm sarflansa, O'zbekistonda bu sarf 996 so'mni tashkil qilgan edi.

Qurilayotgan yillar davomida madaniyat va fan ham notekis rivojlandi. O'zbekistonda xalq maorifi, oliy va o'rta ma'lumot, fan-texnika, madaniyatning bir muncha o'sganligini, olimlarimiz fanning ko'pgina fundamental sohalarida mifik yaratganliklari tarixiy haqiqatdir.

Biroq ancha yuksak madaniy salohiyat bilan birga ayni vaqtida ma'naviy tanglik yuzaga keldi. Xalqni milliy an'analar va madaniyatning qudratli manbalaridan begonalashtirish tendentsiyalari kuchaydi. Masalan, oldin taqiqlangan Navro'z bayramimiz 50-60 yillarda tiklanib, 1986-yil yana "diniy" bayram sifatida mafkurachilar tomonidan taqiqlandi. O'zbek tilini qo'llash sohasi ham toraydi: respublika bo'yicha barcha hujjatlar, hatto aholi ko'pchilikni tashkil etgan qishloqlarda ham, rus tilida olib borildi. Kutubxonalar fondining 80% ni rus tilidagi kitoblar tashkil etardi. Taajjubki Toshkent Davlat universitetida (Hozirgi O'zMU) o'zbek filologiyasi fakul'teti faqatgina 1980-yilda ochildi.

Madaniy qurilishda tub milliy manfaatlar unitilib, baynalmilallashtirishga zo'r berildi. Madaniyatni mafkuralashtirish, ijodiy faoliyatga qo'pol ravishda aralashish natijasida adabiyot va san'at milliy zamindan ajralib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyyati hukm surgan 74 yil mobaynida

O‘zbekistonda ham bir qaror yutuqlarga erishganligini e‘tirof etgan holda, respublikamiz mustamlakachilik va milliy zulm doirasida bo‘lganligini va qaram mamlakatning barcha mashaqqatlarini boshidan kechirganini ta‘kidlash lozim.

Bu qaramlik siyosiy sohada-siyosiy mutelikda, xalqning taqdirini o‘zi belgilash huquqidan mahrum bo‘lishida, hukmron mamlakatning tarkibiy qismga aylanishida, xalqaro doiralarda huquqsizlanishda; iqtisodiy sohada - tabiiy boyliklariga o‘zi egalik qilolmasligida, iqtisodiyot taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilay olmasligida, markaz mafaatlarining ustunligida, xalqimizning mehnat samarasidan bahramand bo‘lmasligida, bir tomonlama rivojlanish natijasida respublikamizni xom ashyo bazasiga aylantirilishida; ma‘naviy sohada-milliy va diniy qadriyatlarimizning oyoq osti qilinishida, kommunistik mafkura hukmronligida sinfiy yondashuv oqibatida ma‘naviy va tarixiy merosimizga e‘tiborsizlikda, qatag‘onlik siyosatida inson huquqlarini poymol qilishda ifodasini topdi.

Mamlakatimiz va xalqimizning sovet hokimiysi hukmronligi davridagi ahvolini tahlil etar ekanmiz, mustaqillik nechog‘lik ahamiyat kasb etishini, uning qadriga yetishimizni, e‘zozlashimizni va mustahkamlashimizni yanada chuqr anglab yetishimiz zarur.

**3. I. Karimov O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasi birinchi kotibi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zgarishlar.** XX asrning 80-yillari oxirida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zgarish boshlandi. Odamlar xilma xil fikrlar bildirish, dillaridagini oshkora ayta olish imkoniga ega bo‘la boshladilar. O‘zbek xalqining dilidagi g‘oya-mustaqillik g‘oyasi edi, xalq mana shu g‘oyani ko‘tarib chiqdi. Mustaqillik uchun harakatda yangi to‘lqin boshlandi. Tarix taqozosi bilan elim, yurtim deb yonib yashayotgan Islom Karimovdek fidoyi insonning O‘zbekistonning birinchi rahbari lavozimiga 1989-yilda kelishi bu sohadagi adolatsizliklarga barham berishiga olib keldi, adolat tiklandi.

I.Karimov xalq xoxish-irodasini bajarib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish ishiga boshchilik qildi. 1989-yil 28-oktabrda Respublika Oliy Kengashi O‘zbekistonning davlat tili haqida qonun qabul qildi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va

madaniy hayotning barcha sohalarida o‘zbek tili to‘la amal qilishi qonunlashtirildi. Bu qonunning qabul qilinishi mamlakatimizning mustaqillik sari tashlagan birinchi qadami bo‘ldi.

90-yillarning boshlariga kelib O‘zbekistonda xalqning mustaqillikka erishishidan iborat azaliy orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala bo‘lib qoldi. Mamlakatda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan, “Zo‘rovonlikka asoslangan, ma‘muriy-buyruqbozlikka xos bo‘lgan markazlashgan davlat saqlanib qoladimi yoki demokratik jarayonlar chuqurlashishi evaziga ittifoqdagi respublikalar suvereniteti ta‘minlanadimi degan masala dolzarb bo‘lib qoldi. Ikkinchisi tomonidan, o‘sha davrdagi markaziy davlat rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to‘g‘ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishish tobora kuchayib borayotganining oldini ololmay qoldi.

1990-yil boshida O‘zbekistonda boshqaruvning Prezidentlik shakli masalasi ko‘tarildi. Respublikada boshqaruvning shunday shaklining joriy etilishi, avvalo, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalardagi muammolarni hal qilish jarayonini tezlashtirishga ko‘maklashish vositasi sifatida joriy qilindi. Eng muhimmi, Prezidentlikning joriy etilishi respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o‘tishni bildirar edi.

Alovida shuni ta‘kidlash kerakki, o‘sha kezlar keng miqyosda tartib va intizomni, eng avvalo, boshqaruvning barcha darajalarida va jabhalarda ijro mexanizmini qayta qurishni tezlashtirish vazifalarini vaqtida hal etish, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi barcha muassasalarini nazorat qilish masalalari ham katta ahamiyat kasb etmoqda edi.

Shu ob‘ektiv holatni hisobga olib, 1990-yil 24-martda O‘zbekiston Oliy Sovetining birinchi sessiyasi O‘zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta‘sis etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Sessiya yakdillik bilan Islom Abdug‘anievich Karimovni O‘zbekistonning Prezidenti etib saylash to‘g‘risida qaror qabul qildi. O‘zbekistonda Prezident lavozimining ta‘sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo‘yilgan

dadil qadamlaridan ikkinchisi edi.

**4. Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati. 1991-yil avgust voqealari. SSSRning tanazzulga yuz tutishi.** O‘zbekistonning mustaqillika erishishda qo‘yilgan navbatdagi muhim qadam 1990-yil 20- iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qo‘yildi. Sessiyada O‘zbekistonning “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qabul qilindi va uning kirish qismida quyidagicha yozib qo‘yildi:

“O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o‘zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an‘analari, har bir millatning taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta‘minlashdan iborat oliy maqsad haqi, O‘zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas‘uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya printsiplariga asoslanib, O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qiladi”. Sessiya qabul qilgan bu “Mustaqillik Deklaratsiyasi” xalqimiz tomonidan katta mammuniyat bilan kutib olindi.

Shu kundan boshlab respublikada O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi. O‘zbekiston rahbariyati va xalqi mustaqillik sari dadil qadam qo‘yaverdi.

1991-yil 17-martda umumxalq referendumi o‘tkazildi. Referendumda O‘zbekiston xalqining mutlaq ko‘pchiligi O‘zbekistonni mustaqil respublika sifatida ko‘rish xoxishi borligi namoyon bo‘ldi.

O‘zbekistonda respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlari tayyorlash va qabul qilish ishlari ham dadil boshlab yuborildi. Xususan, 1991-yil 15-fevralida O‘zbekiston Oliy Kengashi “O‘zbekistonning davlat ramzlari to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qildi.

O‘zbekistonning suvereniteti uchun kurash, avvalo, respublikada qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilinishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek Ittifoq qonuniga moslashtirib emas, balki respublika manfaatini ifoda etishi bilan

ajralib tura boshladi. Jumladan, 1991-yil 22-iyulida O‘zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumining “O‘zbekiston hududida joylashgan Ittifoqqa bo’ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarni O‘zbekistonning huquqiy tobelligiga o‘tkazish” to‘g‘risidagi qarori, O‘zbekistonning milliy suvurenititeti uchun tashlangan qadamlar dalilidir.

80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib sobiq SSSRning ijtimoiy-siyosiy holatida inqirozli holat tobora kuchaydi. Bu holat ayniqsa, ko‘pchilik respublikalarning ittifoq tarkibidan chiqish, o‘z-o‘zini belgilash, huquqini berish, Markazning siyosiy-iqtisodiy, harbiy va tashqi siyosiy sohalardagi rolini qayta ko‘rish kabi talablarning haqli ravishda qo‘yilishida aksini topdi. Lekin, markaziy rahbariyat xalqlar va ittifoqchi respublikalar siyosiy rahbariyatining chinakam mustaqillikka intilishi bilan hisoblashmadni. Bu munosabatni Markazning Boltiqbo‘yi respublikalarning ittifoq tarkibidan chiqib ketish, O‘zbekistonda, keyinchalik esa boshqa respublikalarda ham prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va bu respublikalar tomonidan suverenitet to‘g‘risidagi Deklaratsiyalarning qabul qiliniishiga tish-tirnog‘i bilan qarshilik ko‘rsatganligida ham ko‘rish mumkin.

Lekin, baribir harakatga kelgan inqiroziy holatni endi to‘xtatib bo‘lmash edi. Shu sababdan ham, davlat yemirilishidan jiddiy xavotirga tushgan partiya-davlati rahbariyati 1990-yilning kuzida ittifoq markazi va respublikalar o‘rtasidagi munosabatlarni yangi holatga o‘tkazish maqsadida muzokara jarayonini boshlashga majbur bo‘ldi

Chunki, SSSR Oliy Soveti ham, SSSR Prezidenti va hukumati ham inqiroziy holatdan chiqishning yo‘lini topa olmay qolgan edi. O‘sha yillar ittifoq bo‘yicha prezidentlik lavozimini egallab turgan M.Gorbachev mamlakatni tanazzuldan olib chiqish yo‘lida boshini qaysi eshiklarga urmadi. Goh jadallashtirish konsepsiyasini o‘ylab topdi, goh fan-texnika taraqqiyoti deb butun mamlakatni alg‘ov-dalg‘ov qildi. Undan natija chiqmagach, agrosanoat kompleksining qayta qurish rejalarini ishlab chiqdi. Shundan so‘ng kadrlar siyosati masalasini ko‘tardi. U o‘zini qayoqqa urmasin, harakatlari samarasiz bo‘laverdi. Bora-bora, eng muhim - inson omili

ekanligini tushundi, biroq endi kech bo‘lib qolgan, g‘isht qolipdan ko‘chgan edi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. 50-80-yillarda respublikaning madaniy hayoti va ommaviy qatag‘onlar haqida so’zlab bering.
2. I.Karimov O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasi birinchi kotibi etib qachon tayinlandi?
3. O‘zbekistonning “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qachon qabul qilindi?
4. “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ning mazmun-mohiyati haqida so’zlab bering.
5. O‘zbekistonda boshqaruvning Prezidentlik boshqaruv shaklining joriy etilishi haqida so’zlab bering.
6. O‘zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta‘sis etish to‘g‘risida qaror qachon qabul qilindi?
7. 1991-yil avgust voqealari haqida so’zlab bering.
8. ”O‘zbekistonning davlat ramzlari to‘g‘risida” qaror qachon qabul qilindi?
9. 1991-yil 17-martda o’tkazilgan umumxalq referendumida qanday masala qo’yilgan edi?

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O‘zbekiston, 2004.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O‘zbekiston, 2004, Асарлар, 13 жилд.
4. Yusupov E. Istiqlol yo’lida.T.: Fan, 1996.
5. Usmonov Q. O‘zbekiston mustaqillik odimlari. T., 1994.
6. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo’lishi. T.: O‘zbekiston, 1992.
7. Usmonov Q., Abdug’aniyev A. O‘zbekiston - siyosiy va huquqiy

islohotlar sari. T.: O‘zbekiston, 1996.

8. O‘zbekiston tarixi. Prof. R.H. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida.-T.:

9. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O‘zbekiston tarixi. Darslik, T.: Iqtisod-moliya, 2006.

10. Eshov B., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. T.: ”Yangi asr avlodii”, 2014.

11. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Mualliflar jamoasi. YU.Ergashevaning umumiy tahriri ostida. Qarshi, Intellekt, 2022.

#### **14-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO‘LGA KIRITILISHI. DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI.**

##### **Reja:**

1. O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
2. Siyosiy islohotlar. Eski davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining barham topishi. Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslарining barpo etilishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlarining shakllanishi.
3. Mustaqillik sharoitida O‘zbekiston parlamenti. Oliy Majlisning ko‘ppartiyaviylik asosida shakllanishi. Oliy Majlisning tuzilishi, vazifalari va faoliyati. Ikki palatali parlament tuzish to‘g‘risidagi O‘zbekiston referendumi.
4. Sud hokimiyati islohotlari. O‘zbekistonda sud hokimiyati tizimi, uning takomillashtirilishi. Sud tizimining liberallashtirilishi.
5. O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati asoslарining yaratilishi. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqaruv organlarining tashkil etilishi.

**Tayanch tushunchalar:** «Davlat tili to‘g‘risida»gi qonun, Prezidentlik lavozimining ta‘sis etilishi, Mustaqillik deklaratsiyasi, SSSRning tanazzulga yuz

tutishi, Oliy Kengash, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat mustaqilligi to‘g‘risida» gi Qonun, Prezident saylovlari, O‘zbekiston Konstitutsiyasi, Davlat ramzlari, Oliy Majlis, parlament, ikki palatali parlament, ”Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun, Senat, Qonunchilik palatasi, milliy taraqqiyot modeli, taraqqiyotning innovatsion modeli, Harakatlar strategiyasi milliy taraqqiyotning yangi bosqichi.

**1.O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.** 1990 yil oxirlariga kelib Boltiqbo‘yi mamlakatlari mustaqillik to‘g‘risidagi talablarni SSSR Oliy Kengashi majlisi va xalq deputatlari quriltoyiga ko‘ndalang qilib qo‘yanlaridan so‘ng SSSR Prezidenti M. Gorbachev bir guruh deputatlar va rahbarlar bilan vaziyatni o‘rganish, aniqrog‘i, tazyiq qilish, ta‘sirini o‘tkazish maqsadida Boltiqbo‘yiga bordi. Guruh tarkibida O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov ham bor edi. U yerda I.Karimov haqiqat bilan yuzma-yuz keldi va shunda juda katta qat‘iyat va favqulodda jur‘at bilan munosabatini bildirdi: Komissiya ishini yakunlamasdanoq Gorbachevni ham, uning manfaatlarini qo‘llab-quvvatlovchi guruhnini ham tashlab, tezda orqaga qaytdi. Bu bilan u Boltiqbo‘yi xalqlarinining talablari qonuniy ekanligi, mustaqillik SSSR tarkibidan chiqish-tarixiy haqiqat, inson haq-huquqlarining tantanasi ekanligini oshkora namoyon qildi. Haqiqatdan ham, ittifoq tarkibida turib hech qanday milliy ravnaq, ma‘naviy taraqqiyot to‘g‘risida gap bo‘lishi ham mumkin emas edi.

1991-yil avgust oyiga kelib butun mamlakatda voqealar shu darajada chuvalashib ketdiki, uning yechimini topish o‘ta mushkul bo‘lib qoldi. Shu vaziyatdan foydalanib 19-21 avgust kunlari Moskvada davlat to‘ntarishi qilishga urinib ko‘rildi. Favqulodda holat davlat qo‘mitasi tuzilib, SSSR Prezidenti M. Gorbachev zo‘ravonlik bilan vazifasidan chetlashtirildi.

Ana shunday og‘ir, sarosimali tahdid va taxminlar paytida O‘zbekiston rahbariyati korxona va xo‘jaliklarning rahbarlari, xalq noiblari, barcha sofdil kishilar, xalqni matonat va osoyishtalikka da‘vat qildilar. Ayniqsa, Birinchi Prezident Islom Karimovning bo‘layotgan voqealarga munosabati barchani

qanoatlantirdi, uning xalqqa suyanganligi u bilan dardlashganligi, xalq bilan hukumat o‘rtasida sog‘lom munosabatning vujudga kelishiga olib keldi.

Hindiston safaridan qaytgan O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov, 19-avgust kuni kechqurun Toshkent shahrining faollari bilan bo‘lgan uchrashuvda qat‘iyatlik bilan O‘zbekiston nuqtai nazarini ma‘lum qildi va Markazdan bildirilgan qonunga xilof bo‘lgan har qanday ko‘rsatmalarни respublika rahbariyati tomonidan bajarilishni man etdi. 20-avgustda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining respublika rahbarlari ishtirokida qo‘shma majlisi bo‘ldi. Unda fitna munosabati bilan vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinib, O‘zbekistonning mustaqillikka erishish yo‘li o‘zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi. Unda O‘zbekiston Mustaqillik Deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish yo‘lida boraveradi, deb ko‘rsatildi. O‘sha kuni O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqib, O‘zbekistonning mustaqilligiga erishish yo‘li qat‘iy ekanilagini yana bir bor alohida uqtirdi.

Shunday og‘ir sharoitda, tarixiy vaziyatni to‘g‘ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O‘zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi. Respublika Oliy Kengashi 1991-yil 26-avgust kuni O‘zbekiston Davlat Mustaqilligi to‘g‘risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31-avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

1991-yilning 31-avgustida O‘zbekiston zamonaviy tarixinining yangi davri boshlandi. Shu kuni Oliy Kengashning navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida” qaror qabul qildi, tegishli Bayonot bilan chiqdi va “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunni tasdiqladi. Mamlakat taqdiri hal bo‘lgan bu hujatlarda xalqning asriy orzulari mujassamlandi, o‘z taqdirini o‘zi hal qiladigan bo‘ldi;

- o‘z yeridagi barcha tabiiy boyliklarning, ota-bobolari mehnati bilan yaratilgan

butun ishlab chiqarish va ilmiy-texnik kuch qudratning to‘la huquqli egasiga aylandi;

- buyuk tarixi va madaniyatining munosib vorisi, buyuk ajdodlarning urf odatlari va insonparvar an‘analarning davomchisi, porloq kelajagining mustaqil ijodkori bo‘ldi;

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida”gi qarorda “1-sentabr – O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991 yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e‘lon qilinsin”, - deb qat‘iy belgilab qo‘yildi.

Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro‘yobga chiqdi uzoq yillar davom etgan kurash natijasida mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy mutelikdan, asoratdan qutildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat - O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. O‘zbekiston tarixida yangi davr milliy istiqlol davri boshlandi. O‘zbekiston uchun mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizish, xalqimiz uchun taqdirini o‘zi belgilash, o‘zlari uchun munosib turmush yaratish imkoniyati vujudga keldi.

O‘zbekiston mustaqilligi mamlakat xalqi tomonidan zo‘r quvonch va mamnuniyat bilan kutib olindi. Bu holatni 1991-yil 29-dekabrdagi o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasining referendumi yakunlaridan ham yaqqol ko‘rib olish mumkin. Umumxalq referendumida 9 million 898 ming 707 kishi, yoki saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e‘lon qilinishini yoqlab 9 million 718 ming 155 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 foizi ovoz berdi. Demak, O‘zbekistonning Davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan yakdillik bilan ma‘qullandi.

1991 yilning 29 dekabrida xalqimiz uzoq yillik mustamlakachilikdan so‘ng mustaqillik ramzi sifatida birinchi marta umumxalq xoxish-irodasi bilan mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi.

**2. Siyosiy islohotlar. Eski davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining barham topishi. Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik**

**asoslarining barpo etilishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlarining shakllanishi.** Mustaqillikka erishgan O'zbekiston oldida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turardi, mamlakat qaysi yo'ldan va qanday rivojlanishi kerak degan og'ir va murakkab savollarga javob topish zarur edi.

Boshqa mamlakatlar qatori, O'zbekiston jahon tajribalari, xalq tarixi va an'analarini hisobga olgan holda umumbashariy taraqqiyotning keng madaniy yo'liga kirishi kerak edi. Ijtimoiy va milliy taraqqiyotning bosh yo'nalishlari esa quyidagilardan iboratdir:

1. Ijtimoiy-siyosiy sohada ma'muriy-buyruqbozlik, avtoritar tuzum mexanizmi va tuzilmalaridan qutulish hamda davlat qurilishining demokratik huquqiy tamoyil va me'yorlariga o'tish, fuqarolik jamiyatga o'tishning poydevorini qurish;

2. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada insonning ishlab chiqarish vositalaridan begonalashuvidan, rejali taqsimotchilik tizimidan voz kechish va bozor munosabatlariga, ko'p tarmoqli iqtisodga hamda rangbarangli mulkchilik shakllariga o'tish;

3. Ma'naviyat sohasida aqidabozlik va o'ta siyosatlashtirilgan mafkura hukmronligidan qutilish, yuksak ma'naviyat va madaniyat, kishilarni tarixiga, xalqning ma'naviy merosi va an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash, jahon madaniyati yutuqlarini egallah;

4. Xalqaro munosabatlar sohasida butun dunyo taraqqiyotidan ajralib qolishdan, o'zini chetga olishdan va unga qarshi turishdan voz kechish, jahon hamjamiatiga kirib borish va uning bilan teng bilan teng huquqli hamkorlikka yo'l ochish.

Ana shu maqsadlarga qanday qilib erishish mumkin? Inqilobiy siltov, sakrash orqalimi yoki mavjud ahvol va imkoniyatlarni hisobga olgan holda bosqichma-bosqichli o'zgarishlar yo'li-evolyutsion yo'l bilanmi?

Turli mamlakatlar va xalqlar tarixida bu ikki variant bir necha bor sinovlardan

o‘tgan. Bir tomondan rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuningdek Markaziy Osiyo mintaqasining buyuk o‘tmishi ham shuni yaqqol ko‘rsatadiki, islohotlarning boqichma-bosqich evolyutsion yo‘lini tanlagan mamlakatlar yuksak taraqqiyot va gullab-yashnashga nisbatan kam ijtimoiy va ma‘naviy-axloqiy moddiy chiqimlar orqali erishganlar.

Ijtimoiy tuzum binosini shunchaki yengil yoki atroficha ta‘mir etish yo‘li bilan emas, balki uni tamomila yangi tamoyillar asosida, poydevoridan tomigacha tubdan qayta qurish yo‘li bilan bunyod etish mumkin, xolos.

O‘zbekiston jahon tajribalariga, xalqi xususiyatlari va tarixiy donishmandligiga tayanib o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanladi, yangi jamiyat barpo qilish uchun andozasini ishlab chiqdi. Bunda u asosiy umidini manbalari va imkoniyatlariga qaratdi.

Albatta, mamlakat uchun hayot-mamot bosqichi bo‘lgan bir paytda uning yangi jamiyatga o‘tish bilan bog‘liq vazifalarini bajarish davlat rahbaridan yangi sharoitga mos boshqaruv tizimini ishlab chiqishni, jamiyatning iqtisodiy asosini vujudga keltirishni taqozo qiladi. Aholining barcha toifalarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi g‘oyalar tizimini yaratishni talab etadi. Ana shu O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘lini Prezident Islom Karimov ishlab chiqdi va bu islohotlar kontseptsiyasi bir muncha umumiyligi va mujassam holda u ta‘riflab bergen besh tamoyilda ifodasini topdi.

Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan batamom xoli qilish kerak. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak u biror mafkuraga bo‘ysundirilishi mumkin emas. Buning ma‘nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak.

Ikkinchidan, murakkab o‘tish davrida davlatning o‘zi bosh islohotchi bo‘lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko‘zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo‘lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo‘nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro‘yobga

chiqarishi kerak.

Uchinchidan, qonun ustivorligiga erishish, qonunlarga rioya qilish lozim. Buning ma‘nosi shuki, demokratik yo‘l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og‘ishmay rioya etishi lozim.

To‘rtinchidan, demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining mavjud turmushi darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o‘tish bilan bir qatorda kuchli ijtimiy siyosatni o‘tkazish. Ijtimoiy himoyalash va kafolatlarning kuchli, ta‘sirchan mexanizmi mavjud bo‘lgandagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlagan holda bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borishni ta‘minlash mumkin.

Beshinchidan, yangi iqtisodiy bozor munosabatlarini puxta o’ylab, bosqichma-bosqich, ya‘ni evolyutsion yo‘l bilan qaror toptirish mumkin.

Demokratik jarayonlarni va iqtisodiy o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli isloh qilish uchun barcha tamoyillar birday muhim belgilovchi ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov mustaqillikning bir yilligi arafasida jahon “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” nomli asarida yangilangan jamiyatda yashovchi har bir kishining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini kafolatlovchi yo‘llarini ko‘rsatib bergen bo‘lsa, ”O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” kitobida iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga doir beshta tamoyilning ahamiyatiga yana bir bor to‘xtaldi. Xususan, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishning O‘zbekiston uchun naqadar afzalliklariga alohida e‘tibor berildi.

Birinchi Prezident I.Karimov mustaqillikning dastlabki kunidan boshlab yangi jamiyatga mos siyosiy islohotlar o‘tkazish yo‘llarini oqilona ko‘rsatibgina qolmay, ayni paytda jamiyatning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish tamoyillarini ishlab chiqdi, uni izchil amalga oshirish chora-tadbirlarini ko‘rdi. Juhon tajribasi, O‘zbekistonning milliy xususiyatlari, imkoniyatlari va shart-sharoitlari asosida taraqqiyotning “O‘zbek modeli” ishlab chiqildi.

Shunday qilib, XX asr 90-yillarining boshlariga kelib O‘zbekiston xalqlari tarixida misli ko‘rilmagan tarixiy voqeа yuz berdi. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Dunyo xaritasida 1991-yil 1-sentabrdan boshlab yana bitta mustaqil, to‘la huquqli suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi.

Yangi O‘zbekiston o‘ziga xos istiqlol va tarqqiyot yo‘lini tanladi. Mustaqillikning ilk kunlaridayoq Birinchi Prezident Islom Karimov huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasini dolzarb vazifa qilib o‘rtaga tashladi.

Demokratik jamiyat qurish bobida hamma davlat uchun tayyor qolip va andozalar yo‘q. Birinchi Prezident Islom Karimov aytganidek, dunyoda bir-biriga o‘xshagan ikkita inson bo‘limganidek, bir-biriga aynan o‘shagan ikkita davlat ham yo‘q.

Demokratik jamiyatning xalqaro miqyosida e‘tirof etilgan bir qator tamoyillari bor: insonning xoxish-irodasini erkin bildirish va uni amalga oshirish; ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysinishi; davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi; davlat asosiy organlarining saylab qo‘yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishi va boshqalar. Ayni ana shu tamoyillar asosida jahon davlatchiligi eng ilg‘or tajribalarga mos keladigan, uni dunyo tan oladigan, inson huquqlari har jihatdan kafolatlanadigan jamiyatni barpo etish mumkin.

O‘zbekiston demokratik jamiyat qurishda jahon xalqlari tajribasi sinovidan o‘tgan ana shu tamoyillarga asoslandi. Shu bilan birga O‘zbekiston demokratik, fuqarolik jamiyat qurilishida xalqimizning necha ming yillik tarixiy va ma‘naviy taraqqiyoti tajribasiga, milliy davlatchiligidan negizlariga, ma‘naviy merosimiz ildizlariga, milliy xususiyatlarni va boy an‘analarni tayanish yo‘lini tutdi.

Ma‘lumki, Markaziy Osiyo xalqlari o‘zlarining ming yilliklar mobaynida shakllangan olamshumul siyosatlari, ma‘naviy barkamol davlatchilik an‘analari bilan jahon davlatchiligi va siyosati taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Ulug‘ bobolarimiz Somoniylar, Mahmud G‘aznaviy va Xorazmshohlarning adolat va insonparvarlikka tayangan sultanatlari, Sohibqiron Amir Temurning turkiy ulusni

birlashtirib, markazlashgan davlat barpo etishi, millat iftixori uchun kurashishi va buyuk Temuriylar sultanatiga asos solishi va boshqa tarixiy haqiqat jahon siyosatdonlari tomonidan yuqori baholangan. Birinchi Prezident I.Karimov siyosati ana shunday qadimiy va boy tajribaga tayandi.

Mustaqillikka erishgan har bir xalq davlat qurilishining u yoki bu turini aniq siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlariga, tarixiy an‘analari va ma‘naviy-ahloqiy qadriyatlariga qarab o‘zi tanlaydi.

Shuning uchun ham har bir mamlakat va xalqning davlat qurilishi o‘ziga xos va farqli xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shunga qaramasdan, xalqaro tan olingan bir qancha muhim tamoyillar borki, ular insoniyat tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida madaniy demokratik davlatning asosiy quyidagi xususiyatlarni ifodalaydi:

Birinchidan, davlat – bu zaruriy ob‘ektiv reallik bo‘lib, jamiyat mavjudligi va faoliyatining hayotni adolatli va huquqiy asosda tashkil etishning asosiy shartidir.

Davlatning milliy kontseptsiyasi uning rivojlanishi, takomillashuvi, faoliyatining samaradorligini ta‘minlash xususiyatidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, davlat – bu shunchaki zaruriy ob‘ektiv reallik bo‘libgina qolmay, u jamiyatning ehtiyoji, uning barcha a‘zolari uchun muayyan qadriyat hamdir. Tarixning ko‘p asrlik tajribasi va hozirgi zamon tajribalari ham shuni aniq ko‘rsatib turibdiki, davlat hokimiyatining zaifligi, kuchsizligi aksariyat hollarda fajiali hodisalarga olib keladi.

Uchinchidan, demokratik davlat ayrim bir ijtimoiy qatlamlar, guruhlar va sinflarga emas, balki butun jamiyat mafaatlariga xizmat qilish uchun kerak. U butun xalq, butun jamiyat mafaatlarini ifodalaydi.

To‘rtinchidan, demokratik davlat huquqni, faoliyat usullari va mexanizmlarini takomillashtirish fuqarolik jamiyatiga tobora yaqinlashish yo‘lidan muntazam rivojlanib boradi.

Beshinchidan, demokratik davlatning vazifasi inson va fuqarolar erkinliklari va huquqlarini kafolatlashdan iborat.

Demokratiyani davlat qurilishini tashkil etishning shunday bir shakli deb belgilash mumkinki, unda siyosiy hokimiyatni tashkil etishda, uning faoliyatining bosh yo‘nalishlarini belgilashda va nazorat qilishda xalq ishtirok etadi.

Jahon tajribalarning guvohlik berishicha, insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlat qurilishining oliy, madaniy shakli demokratiyadir va u quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

*Xalqning erkin xoxish-irodasi;*  
*fuqarolarning teng huquqligi;*  
*inson huquqlarining ustivorligi;*  
*Hokimiyat organlarining saylanib qo‘yilishi;*  
*ularning saylovchilarga bo‘ysunishi;*  
*tayinlash yo‘li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo‘yiladigan*  
*organlar oldida hisob berishga burchliligi;*  
*hokimiyat tarmoqlarining taqsimlanganligi;*

Jahon hokimiyati tomonidan qabul qilingan va eng demokratik me‘yorlariga javob beradigan bu tamoyillar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq ifodalangan va qonuniy mustahkamlangan. Istiqlol yillari yangi mustaqil O‘zbekistonning milliy davlatchiligi poydevorini barpo etish sohasida puxta va jiddiy ish olib borilgan davr bo‘ldi Ma‘lumki, davlatchiligidan qariyb uch ming yillik tarixi Rossiya imperiyasiga zo‘rlik bilan qo‘shib olinishimiz natijasida uzilib qolgan edi. Faqat mustaqillikka erishilgandan keyingina xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub‘ektiga aylangan suveren O‘zbekiston jahon yangi davlatchiligini qurish va rivojlantirishga kirishdi.

Faqat istiqlolgina xalqimizga Vatanida o‘zini erkin his qilish, chinakam milliy qadriyatlarni tiklash, milliy davlatchilagini shakllantirish imkonini berdi.

Mustaqillikka erishilgach, xalqimiz oldida keskin muammolar ko‘ndalang bo‘ldi, Bular:

**Birinchidan**, eski ma‘muriy-buyruqbozlik tizimini, unga muvofiq bo‘lgan hokimiyat va boshqaruv organlarini tugatish;

**Ikkinchidan**, yangi davlatchilikning siyosiy-huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish;

**Uchinchidan**, Konstitutsiya va qonunlarda ko‘rsatilgandek ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimini ham markazdagi, ham joylardagi davlat hokimiyati organlarining yangi tizimini mustahkamlab qo‘yish.

Yangi o‘zbek davlatchiliigining qaror topish jarayoni ham tashqi, ham ichki murakkab sharoitlarda ro‘y berdi.

Ichki siyosatimizda biz bir-biriga bog‘liq ikki vazifani hal qilishimiz lozim edi. Bu :

Yangi davlatchilikni barpo etishi;

Keng ko‘lamli siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish;

Yangi mustaqil davlatlarda islohotlarni amalga oshirish shuni ko‘rsatmoqdaki, bozor islohatlarini ruyobga chiqarish iqtisodiyotda tanazzulga, aholining ko‘pchilikqismi turmush sharoitining pasayishiga olib keldi. Bu jamiyatda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yangi davlatchiligidan tashqi siyosat faoliyat bobida yetarli tajribaga ega bo‘lmagan holda jahon hamjamiyatida o‘rnimizni topishga majbur bo‘lgan bir vaziyatda qaror topdirishga to‘g‘ri keldi.

Umuman olganda O‘zbekistonning yangi mustaqil davlatchiligi murakkab sharoitlarda qaror topdi. Mustaqillikning dastlabki bosqichida milliy davlatchilikka poydevor qo‘yildi.

Eski, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi va unga xos bo‘lgan hokimiyat va boshqaruv organlari barham toptirildi. Siyosiy va iqtisodiy boshqarish hamda tartibga solishning ko‘pgina tuzilmalari va organlari tugatildi. Ular demokratik qadriyatlar va tamoyillarga yo‘naltirilgan yangi davlatchiliikning qaror topishi va erkin bozor iqtisodiyotining poydevorlarini yaratish yo‘lidagi asosiy to‘siq bo‘lib keldi.

XX asrning so‘ngi o’n yilligi insoniyat tarixida buyuk o‘zgarishlar davri sifatida kiradi: Chunki:

- 1) Mustamlakachilik va irqiy kamsitish tamomila yo‘q bo‘ldi; Sotsializm, uning kommunistik mafkurasi tugab ketdi;
- 2) Tarix sahnasiga yangi mustaqil davlatlar chiqdi va ular jahon ham jamiyatni mamlakatlari orasida o‘rniga ega bo‘lmoqda;
- 3) Kuchlarning an‘anaviy joylashuvida Osiyo qit‘asi mamlakatlarning roli tobora ortib bormoqda va buni hisobga olib, unga tuzatishlar kiritishga majbur bo‘linmoqda;
- 4) Demokratik taraqqiyot qadriyatları, tamoyilları va me‘yorları tobora hamma bop bo‘lib bormoqda. Endilikda ularning zarurligi va amaliy ta‘sirini hech qaerda inkor etib bo‘lmaydi. Shu bilan birga demokratiya va taraqqiyot tomon borishning o‘ziga xos yo‘llari borgan sari katta rol o‘ynamoqda.

Murakkablashib borayotgan ko‘pqtbli dunyodagi shu kabi ulkan o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishini bevosita va bilvosita belgilab berdi. Borgan sari ochiqlik, demokratik tamoyillarga, umuminsoniy qadriyatlar va me‘yorlarga mansublik siyosati respublika ijtimoiy hayotini demokratlashtirish jarayonida ko‘rinadi. Shuningdek, bu o‘zgarishlarning jahon hamjamiyati ko‘z o‘ngida idrok qilinishiga ham ta‘sir ko‘rsatib, respublikaning hozirgi obro’ e‘tiborini yanada oshiradi.

Demokratik tamoyillar, qadriyatlar va institutlar hayotimizning barcha sohalariga kirib bormoqda.

Jamiyatda mavjud manfaatlar va munosabatlarni mujassam holda ifodalovchi, ijtimoiy-siyosiy institut bo‘lmog‘i lozim bo‘lgan demokratik, huquqiy davlatning qaror topish jarayonini qanday o‘tadi?

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatni demokratik yo‘ldan rivojlantirishning huquqiy kafolatidir.

Asosiy Qonun demokratik jamiyatning qaror topishiga qo‘shtgan juda katta xissasi shundan iboratki, u mavhum jamiyat yoki umuman xalqning emas, balki muayyan insonning extiyojlari, manfaatlari, huquq va erkinliklariga qaratilgan. Konstitutsiyaviy me‘yorlar va qonunlarning ustivorligi fuqarolik jamiyatni asoslarini

qaror toptirishning asosiy omilidir.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, har qanday jamiyatda davlat va boshqaruv o'shadavlat Konstitutsiyasida ko'zda tutilgandek, uning tub maqsadlariga mos bo'lishi kerak.. Buni O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi ijtimoiy hayot ham taqozo qila boshladi. O'zbekistonda prezidentlik instituti o'rnatilgan dastlabki davrda Vazirlar Kengashi ijroiya hokimiyati sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari tabora takomilashib bordi. Xususan, yangi jamiyat qurish borasida tajribalar ortishi bilan Prezidentlik boshqaruvi ham rivoj topib bordi. Bu borada 1990-1992 yillarda amalga oshirilgan ishlarni misol qilish mumkin.

Konstitutsiyada ko'zda tutilganidek O'zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiyati Prezidentlik hokimiyati va Vazirlar Maxkamasidan iborat Respublika Prezidenti qoshida ijro etuvchi hokimiyat devoni tuzilgan bo'lib, unga Prezident rahbarlik qiladi. Vazirlar Maxkamasi Prezident tomonidan tuziladi va Respublika Parlamenti tomonidan tasdiqlanadi.

Jahon davlatchiligi tarixi jamiyatning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi kabi inqilobiy o'zgarishlar jarayonini ko'p ko'rgan. Ana shunday murakkab sharoitda turli davlatlar turlicha yo'l tutishgan. Biroq tajriba shuni ko'rsatadiki, tub burilish paytida kuchli ijro hokimiyatini vujudga keltirish, boshqaruv tizginini bir kishi qo'lida mahkam tutishi zarur ekan, Aniqroq qilib fan tili bilan aytganda, davlat rahbari ayni paytda ijro hokimiyatining rahbari ham bo'lmog'i lozim.

Ba'zilar kuchli ijroiya hokimiyati diktatura va zo'ravonlikni keltirib chiqaradi, tashabbuslarni bo'g'ib tashlaydi, erkin fikr va ijodiy g'ayratni sundiradi, deyishadi. I.Karimov esa kuchli ijroiya hokimiyatini jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlar, yangicha tafakkur, tashabbus va islohchilik faoliyatini o'tmish illatlaridan, boqimandalik, sustkashlik va tekinxo'rlik kasalligidan asrash, qonunning to'la quvvat bilan ishlashini ta'minlash zaruriyatini deb tushunadi.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov tasavvurida kuchli ijroya hokimiyati, eng avvalo qonunlar va boshqa aktlarning to'la ijro etilishini ta'minlash, ikkinchidan,

boshqaruv organining o‘zi ham amaldagi qonunlarga buysunib, ular doirasida faoliyat ko‘rsatishi demakdir.

Islom Karimovning Prezidentlik lavozimidagi faoliyatni sinchkovlik bilan kuzatib, “Agar ogoh sen...” kitobida taniqli jurnalist, siyosatshunos olim Narzulla Jo‘raev keltirgan xulosalar kitobxonni befarq qoldirmaydi. “Ayrim muholiflarimiz, - deb qayd qiladi, muallif asarida, - Islom Karimovni yakka hokimlikda, boshqaruv organlarining asosiy bug‘inlarini vakolatiga olganlikda ayplashadi. Darhaqiqat u Respublika Prezidenti va ayni paytda mamlakat Vazirlar Maxkamasining ham raisi. Ana shu nuqtai nazardan muholiflar mamlakatda Parlamentar-Respublika boshqaruvi joriy etilishi tarafdori bo’lishmoqda. Biroq bu bir yoqlama gap va tarixiy tajribani bilmaslik oqibati. Ularning fikricha boshqaruvning Prezidentlik-Respublika shakli totalitar tuzumiga olib kelar emish” ( Jo’rayev N. Agar ogoh sen ... Portretga chizgilar. siyosiy esse. - T.,: “ Yozuvchi”, 1998, 48 - bet )

O‘zbekiston Prezidenti saylovi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sesiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi qonun asosida o‘tkazildi. Bu saylovning muhimtomoni shuki, u birinchi marta muqobililik asosida o‘tdi, ya‘ni Oliy lavozimga ikki nomzod – O‘zbekiston XDP va O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I.A.Karimov va “Erk” Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov ( Muhammad Solih ) nomzodi qo‘yildi.

Saylovlar yakuniga ko‘ra 8 million 514 ming 136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi I.Karimov nomzodini 1 million 220 ming saylovchi ( 12,3 %) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi qonunning 35-moddasiga asoslanib Islom Abdug‘anievich Karimovni 1991 yil 29 dekabrdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. Vazifasini bajarishga kirishar ekan, I.Karimov O‘zbekiston Kengashining 1992 yil 4 yanvarda bo‘lgan navbatdan tashqari IX sessiyasida qasamyod qildi. 1995 yil 26 martda umumxalq ovozi (referendum) bilan I.Karimovning Prezidentlik

vakolati 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirildi. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tarixan qisqa vaqt ichida jamiyatda tubdan o‘zgarishlar, huquqiy demokratik davlatni vujudga keltirish, turmushda demokratik jarayonlarni chiqurlashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilganligi va ana shu keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida Birinchi Prezident I.A.Karimov vakolatini uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o‘tkazishga qaror qilgan edi. O‘tkazilgan referendum mamlakat hayotida katta siyosiy - ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

2000-yil 9-yanvarda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yana bir unitilmas tarixiy voqeа bo‘lib o‘tdi. 11-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi 2000-yil 9-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Prezidenti saylovi natijalariga bag’ishlandi.

Majlisda qayd etilgandek 2000-yil 9-yanvari mustaqil O‘zbekistonimiz tarixida asrlar tutashgan paytda sodir bo‘lgan, davlatimizning XXI asrdagi hayotiga va taraqqiyotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadigan muhim siyosiy voqeа sifatida muhrlanib qoladi. O‘zbekiston fuqarolarining aksariyati hozirgi davlat boshlig‘ining rahbarligi ostida va tashabbusiga ko‘ra amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoy-iqtisodiy o‘zgarishlar qo‘llab-quvvatlangan holda Islom Karimov nomzodi uchun ovoz berdi. Bo‘lib o‘tgan saylovnинг ahamiyati uning muqobililik va demokratik tamoyillar asosida o‘tganligidadir. Saylovchilarga tanlash imkoniyati berildi va ular xoxish-irodasiga binoan, o‘zi tanlagan nomzod uchun ovoz berdi. Shak-shubhasiz bu hol jamiyatimizda siyosiy fikrlar xilma-xilligi va qarashlarining turlicha bo‘lishi uchun katta turtki berdi, davlatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotining yanada erkinlashtirliishiiga zamin hozirladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan kelgan bayonnomalar asosida 9-yanvarda bo‘lib o‘tgan saylovda ro‘yxatga olingan 12 million 746 ming 903 saylovchidan, 12 million 123 ming 199 saylovchi ishtirok etganligini, bu esa ro‘yxatga olingan saylovchilarining umumiy miqdorining 95,1 foizini tashkil etishini ma‘lum qildi. Fidokorlar milliy demokratik

partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan I.Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,9 foizi ovoz berdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi yoki 4,17 foiz saylochi ovoz berdi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonuning 35-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to'g'risida qaror qabul qildi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritishidan ancha oldin respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlarini tayyorlash va qabul qilish ishlari boshlab yuborilgan edi. Xususan, 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach jahon xalqaro talablar va me'yorlar doirasida qiyofasini ko'rsatmog'i, buning uchun esa jahon butun imkoniyatlarini, o'ziga xos jihatlarini ifodalovchi davlat ramzlariga ega bo'lmog'i lozim edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrdagi bo'lib o'tgan VIII sessiyasi "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida" qonun qabul qildi. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrg'gi va uning ramzi bizning mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli sultanatlar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, xalqimiz milliy va madaniy sohalardagi o'zligini aks ettiradi. Mamlakatimiz Davlat bayrog'i yurtimizning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzidir.

1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma'noga ega.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashining 1992-yil 8-dekabrdagi bo'lib o'tgan XI sessiyasi tomonidan O'zbekiston birinchi Konstitutsiyasining qabul

qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqeа bo‘ldi.

Shu sessiyada “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonun ham qabul qilindi. Shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burxonov tomonidan tayyorlangan madhiya varianti tasdiqlandi.

O‘zbekiston Prezidentining 1994-yil 16-iyunidagi Farmoniga muvofiq 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘m muomalaga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari to‘g‘risida Birinchi Prezident I.Karimov: - “Milliy valyuta, bayroq, gerb, madhiya, Konstitutsiya kabi davlat va xalqning ramzi, mustaqillikning muqaddas belgisidir!” - dedi.

Har qanday mustaqil davlatlarning huquqiy asosi – bu uning asosiy Qonuni – Konstitutsiyasidir. Har qanday jamiyat kelajakni ko‘zlab yashaydi va uning poydevorini imkon qadar mustahkamroq ko‘rishga harakat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, davlatimiz, jamiyatimiz erishgan buyuk yutuq – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo‘ldi.

Konstitutsiya har qanday davlatning yuzi, obro’-e‘tibori ham hisoblanadi. Chunki Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir. Shu ma‘noda asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongini va madaniyatini aks ettiradi. Vaholanki, uning ishlab chiqilishi va muhokama etilishida butun xalq ishtirok etdi.

Asosiy Qonunimizni baholashda AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, BMT, Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik kengashi kabi nufuzli davlat va xalqaro tashkilotlarning olimlari faol qatnashdilar. Natijada O‘zbekiston Konstitutsiyasi eng taraqqiy etgan mamlakatlar – AQSh, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi g‘arb davlatlari, Misr, Turkiya, Hindiston va boshqa Sharq davlatlarining boy tajribasidan eng demokratik jihatlarini, insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etuvchi xalqaro hujjatlarning talablarini o‘zida mujassamlashtirdi.

Shu bilan birga Konstitutsiyada o‘zbek xalqining tarixiy milliy va islomiy

qadriyatlari mumkin qadar to‘laroq aks ettirishga harakat qilingan. Buyuk alloma Abu Nasr al-Forobiy davlatni boshqaruvchi kishilarning xalq o‘rtasida obro‘-e‘tiborga ega bo‘lishi, xalq tomonidan saylab qo‘yilishini talab qilgan bo‘lsa, ulug‘ bobomiz Sohibqiron Amir Temur tuzuklarida davlatni boshqarishda oliy tabaqaga oid sayyidlardan tortib, hunar ahligacha bo‘lgan jami 12 tabaqa kishilariga suyanib ish ko‘rishni davrlarida alohida ta‘kidlab o‘tganlar, “Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo‘ladi” - degan so‘zлarni zarhal harflar bilan bitirganlar.

O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish g‘oyasi 1990-yil 20-iyunida Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi munosabati bilan o‘rtaga qo‘yilgan edi. Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida Mustaqillik Deklaratsiyasining muhim tamoyillari asosida davlatning yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqilishi lozim degan xulosaga kelindi. Sessiya Birinchi Prezident I.Karimov raisligida Konstitutsiyaviy Komissiya tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Konstitutsiyaviy komissiya ma‘qullagan Konstitutsiya loyihasining birinchi varianti 1991-yil noyabrida tayyorlab bo‘lindi. Ushbu variant muqaddima, olti bo‘lim, 158 moddadan iborat edi. Konstitutsiya loyihasining ikkinchi varianti 1992-yil bahoriga kelib ishlab chiqildi. Bu variant 149 moddadan iborat edi. Puxta ishlovlardan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi 1992-yil 26-sentabrda Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e‘lon qilindi.

Un ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi 1998-yil 8-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish haqida”gi masalani ko‘rdi va shu masala yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya raisi, Prezident ma‘ruza qilgan edi va shunday degandi:

“Hur O‘zbekistonning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish-jumhuriyatimizning yangidan tug‘ilishidir, huquqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir... Konstitutsiyamiz asosiy qonunimiz sifatida davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo‘lishi muqarrardir” (I.Karimov. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. T., ”O‘zbekiston”, 1992. 44-bet)

Sessiya ishtirokchilari yakdillik bilan Konstitutsiyani qabul qildilar. Qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat.

Konstitutsiyaning eng muhim mohiyati shundan iboratki, unda “davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas‘uldirlar” deyilgan, ya‘ni fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Sobiq totalitar tuzum sharoitida bunday fikri hech kim xayoliga ham keltira olmas edi.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi asosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan buyuk voqeа bo‘ldi.

**3. Mustaqillik sharoitida O‘zbekiston parlamenti. Oliy Majlisning ko‘ppartiyaviylik asosida shakllanishi. Oliy Majlisning tuzilishi, vazifalari va faoliyati. Ikki palatali parlament tuzish to‘g‘risidagi O‘zbekiston referendumi.** 1992-yil dekabrida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat hayotida ulkan siyosiy voqeа, yangi O‘zbekistonni qaror toptirish jarayonidagi muhim qadam bo‘ldi.

Konstitutsiyaga muvofiq, davlat hokimiyati organlarining avvalgi totalitar to‘zimdan mutlaqo farq qiladigan, hokimiyatlarining, ya‘ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarning bo‘linishi printsipliga asoslangan tizimi yaratildi.

Tashkil etilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi oldingilardan tubdan farq qiladi. Ular rejalash-taqsimlash vazifalaridan holi bo‘lib, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solish rolini bajaradi. Ko‘plab vazirliklar o‘rniga bozor sharoitlariga mos bo‘lgan xo‘jalik birlashmalari, uyushmalari, konsernlar, korporatsiyalar, holding kompaniyalar tashkil etildi.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov “O‘zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo‘li” nomli kitobida “...Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarning tuzilmasini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo‘yish,adolatli va

insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish mumkin”, - deb takidlagan edi.

Ma'lumki, 1990-yilda O'zbekistonning yangi tarkibdagi Oliy Kengashi O'zbekistonning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirish yo'lidan bordi va uni qadamma-qadam shakllantirishni boshlangan edi. Xususan, Oliy Kengash mamlakatimiz tarixida birinchi bor Prezident sayladi, Mustaqillik Deklaratsiyasini, O'zbekistonning davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida konstitutsiyaviy qonunni va boshqa muhim hujjatlarni ishlab chiqdi va qabul qildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining XVIII bobi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirishga bag'ishlangan va uning 76-moddasida: “O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatini amalga oshiradi”, - deb mustahkamlab qo'yilgan. 1994-yil 25-dekabrda Oliy Majlisga saylovlar o'tkazildi va unga 250 deputat saylandi. 1995-yil fevralida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining birinchi sessiyasida I.Karimov “O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari” to'g'risida keng qamrovli ma'ruza qildi. Ma'ruzada: - “Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishining jahondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. O'zbekiston Parlamenti – Oliy Majlis ilk marta ko'ppartiyaviylik asosida saylandi”, - dedi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birinchi qo'shma majlisidayoq Birinchi yurtboshimiz I.A.Karimov “Bizning bosh maqsadimiz sifatida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish” nomli ma'ruzasida davlatning keyingi strategik yo'naliishlarini deputatlar va Senatorlar e'tiboriga taqdim etdi. Ma'ruzada qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifalari sifatida belgilandi.

Parlament so'zining lug'aviy ma'nosи fransuz tilidan olingan bo'lib, “gapirmoq” ma'nosini anglatadi..

Endilikda aksariyat mamlakatlarning parlament institutiga ega ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Hozir yer kurrasidagi 200 ga yaqin davlatning qariyb 177 tasida oliv qonun chiqaruvchi vakillik organi — parlamentlar bor.

Jamiyat manfaatlarining ifodachisi bo'lmish parlamentlar aholining turli ijtimoiy qatlamlari guruhlarining vakillaridan tashkil topadi. Ko'rinish turibdiki, dunyodagi parlamentlar rang-barang, ammo ular o'z mamlakatlarida muhim ijtimoiy vazifa – qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida aytilganidek, davlat hokimiyatining tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi. Unga ko'ra, davlat funksiyalari qonun chiqaruvchi organ – Oliy Majlis, davlat va ijroiya hokimiyati rahbari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va sud hokimiyati o'rtasida taqsimланади. O'zbekiston Oliy Majlisi esa davlatning boshqa idoralari bilan hamkorlik qilish bilan birga qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliv davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palata

- Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati besh yil.

Ikkinci chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasi (2002-yil, 12-dekabr) "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki palatali parlament shakllantirishning asosiy huquqiy asoslarini yaratish jarayoni muhim ahamiyat kasb etdi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga binoan Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov

okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat, bo'lib 135 nafari deputat ko'ppartiyaviylik asosida hududiy saylov okruglarida saylanadi. Qolgan 15 deputat esa O'zbekiston Ekologik harakatidan mazkur harakatning oliy organi konferensiyasi tomonidan saylovlar kuni saylanib kelgan bo'lsa, 2019-yil 21-dekabrda bo'lib o'tgan saylovda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 5 ta siyosiy partiyadan 150 deputat saylandi. Mazkur saylovda Ekologik partiyasidan ham nomzodlar ko'rsatildi.

2. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini shakllantirish tartibi 2003-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonun bilan tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolari (senatorlar)dan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan, alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovini o'tkazuvchi saylov okruglari O'zbekistonning butun hududida saylovchilar soniga qarab teng holda tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi depo'tati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi boiishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas, deb ko'rsatilgan.

«O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga saylov to'g'risida»gi qonunining 25-moddasida:

Sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;

- Saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan fuqarolar;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;
- Diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar, deyilgan.

**4. Sud hokimiysi islohotlari. O'zbekistonda sud hokimiysi tizimi, uning takomillashtirilishi. Sud tizimining liberallashtirilishi.** O'zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda sud hokimiyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mamlakatda mustaqillik yillarda sud islohotlarini izchillik bilan o'tkazishga alohida e'tibor berildi. Oliy Majlisning 1995-yil fevralda bo'lib o'tgan birinchi, 1995-yil dekabrda bo'lgan IV va 1996-yil avgustda bo'lgan VI sessiyalarida sud hokimiysi uchinchi, mustaqil hokimiyat tarmog'i ekanligi, odil sudlov tizimini shakllantirish va demokratiyalashtirish lozimligi ko'rsatildi. Oliy Majlisning VI sessiyasida Birinchi Prezident Islom Karimov "Sud islohotini chuqurlashtirish, hokimiyatining uchinchi, mustaqil va qaram bo'limgan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish-huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishidir... Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatdan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim", - dedi.

O'zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, shu muddatga saylanadigan viloyat sudlari, tuman, shahar xo‘jalik sudlaridan iborat.

1996-yildan boshlab sud islohotlarining ikkinchi bosqichi boshlandi. Oliy majlisning 1996-yil 26-dekabrda bo‘lgan VII sessiyasida Jinoyat kodeksi va Jinoyat-ijroiya kodekslariga jiddiy o‘zgarishlar kiritildi.

Sud hokimiyati Konstitutsiya va xalq tomonidan sudga berilgan jinoyat, fuqoralik va ma‘muriy hamda xo‘jalik ishlari bo‘yicha huquq va adolat, qonun ustivorligi tamoyiliga amal qilish, topshirilgan ish uchun javobgarlik asosida odil sudlovni amalga oshirish imkonini beruvchi vakolatlar majmuidir.

Sud hokimiyati — bu sndlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga so‘zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo‘jalik ishlarini va ma‘muriy huquqbazarlik to‘g’risidagi ishlarni ko‘rish bo‘yicha vakolatlari organdir.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida mustaqil shahobchalaridan biri bo‘lib, jamiyat hayotida odil sudlovni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Odil sudlov o‘z mohiyatiga ko‘ra, davlat faoliyati hisoblanadi, bunda vakolatli sud muassasasi huquq normalari talablarini buzish oqibatida kelib chiquvchi nizoli holatlarni muhokama etib, hal etadi.

Mamlakatimizda sud hokimiyatining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, tuzilishi va faoliyat yuritishning qonuniy asosi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g’risida»gi (yangi tahrirdagi 2000-yil 14-dekabr) qonuni bilan belgilanadi.

Konstitutsiyada ta‘kidlanishicha, O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati tizimi quyidagi sndlardan tashkil topgan:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;

- 3) O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi;
- 4) Qoraqalpog'iston Respublikasining Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari;
- 5) Harbiy sudlar;
- 6) Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlari.
- 7) O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Qonun sudlarni lashkil etisli, ularni saylash va tayinlash tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Sudlar to'g'risida»gi qonuniga muvofiq sodiqlik, mustaqillik, kollegiyallik, oshkoraliq va sudyalar huquqlarining tengligi sud tizimi faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

Sud ishlari ichida eng asosiy vazifa odil sudlovnii amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek, sud hokimiyatining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi vakolatlari ham mavjud:

1. Konstitutsiyaviy nazorat;
2. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatlari hamda ular tomonidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini tekshirish;
3. Sud hukmi va qarorlarning ijrosini ta'minlash;
4. Sudlarga tegishli ma'muriy huquqbazarlik holatlarini ko'rib, tekshirib chiqish;
5. Sud amaliyotidan kelib chiqib, amaldagi qonunchilik masalalari bo'yicha tushuntirish vakolati;
6. Sudyalar tarkibining shakllanishida ishtirok etish va lining organlariga yordam berish vakolati.

Sud hokimiyati faoliyatining Konstitutsiyaviy qoidalari O'zbekiston Respublikasining «Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida», «Sudlar to'g'risida», «Harbiy sudlarning faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom», Jinoyat kodksi, Jinoyat-

protsessual kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodeksi, Xo'jalik-protsessual, Ma'muriy javobgarlik kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat ijroiya kodeksi va boshqalarga tayanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108-109-moddalarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining huquqiy holati mustahkamlangan. Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlan Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan – Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rindbosarlari va sudyalardan, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi vakilidan iborat tarkibida saylanadi.

Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari deputat bo'la olmaydilar. Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari, siyosiy partiyalari, harakatlarning a'zosi bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'y sunadilar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 108-moddasi).

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi:

1) Qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmonlar, hukumat qarorlari, davlat hokimiysi mahalhy organlari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalar va boshqa majburiyatlarning O'zbekiston Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

3) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi esa "Sudlar to'g'risida"gi qonun asosida faoliyat olib boradi.

**Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida** bugungi kunda islohotlarimiz samarasi ko‘p jihatdan to‘rtta muhim omilga – ya’ni qonun ustuvorligini ta’minalash, korrupsiyaga qarshi qat’iy kurashish, institutsional salohiyatni yuksaltirish va kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tildi.

Ushbu omillar inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, shu jumladan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari amalga oshirilishini kafolatlash, sud hokimiyati mustaqilligini ta’minalash, odil sudlovning samaradorligini, xalqimizning sud organlariga nisbatan qat’iy ishonchi va hurmatini oshirishda yanada to‘laroq namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, ushbu Murojaatnomada sud mustaqilligini to‘liq ta’minalash eng muhim vazifalarimizdan ekanligi va sudlar mustaqilligini ta’minalash masalasi bundan buyon ham shaxsan Prezidentning qattiq nazoratida bo‘lishi alohida ta’kidlandi.

Mamlakatimizda o‘tgan uch yil mobaynida sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyatining fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirish borasida bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g’risida»gi Farmoni bilan 2017-yilning 1-apreldidan jinoyat, jinoyat-protsessual,

fuqarolik protsessual va boshqa qonun hujjatlariga odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim o‘zgartirishlar kiritildi.

Jumladan, qamoq tarzidagi jinoiy jazo turi tugatildi, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga, qamoqqa olish va uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot choralarini qo‘llashning, shuningdek jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovning eng ko‘p muddatlari 1 yildan 7 oyga qisqartirildi. Shuningdek, jinoyat ishini qo‘sishimcha tergov yuritish uchun qaytarish instituti bekor qilindi.

«Xabeas korpus» instituti qo‘llanishini yanada kengaytirish doirasida prokurorlarning pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish va eksqumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini o‘tkazishga sanksiya berish bo‘yicha vakolatlari sudlarga o‘tkazildi, shuningdek sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llash rad etilganda muqobil ehtiyot choralarini qo‘llash huquqi berildi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21- fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni bilan yagona sud amaliyotini ta’minalash maqsadida Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasida sud hokimiyatining yagona oliy organi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi.

207 ta ma’muriy sud tashkil etildi, tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilishga qaratilgan tumanlararo va tuman (shahar) miqyosida ham jami 85 ta iqtisodiy sud faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tayinlashda noqonuniy aralashuvlarning oldini olish, bu borada ochiq, oshkora va muqobil tanlov tizimini yaratish maqsadida Sudyalar oliy kengashi ta’sis etildi.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi va Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi 2018-yilning yanvar oyida tasdiqlandi va 2018-yil 1 - apreldan kuchga kirdi.

Ta’kidlash kerakki, ushbu kodekslar dunyoning taraqqiy etgan davlatlarining ilg‘or tajribasini chuqur o‘rganish, islohotlar jarayonida to‘plangan boy tajriba asosida ishlab chiqilgan.

To‘rtinchidan, 2018-yil 4-apreldagi «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Unda Jinoyat kodeksiga dalillarni, tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar kiritilgani huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari mansabdor shaxslarining mas’uliyatini yanada oshirdi.

Ushbu islohotlar natijasida turli tazyiqlar ostida olingen ko‘rsatmalardan dalil sifatida foydalanishga chek qo‘yildi. Sud ishlarini ko‘rib chiqishda faqat sud tergovi jarayonida atroflicha tekshirilgan va o‘z tasdig‘ini topgan dalillarga asoslanilmoqda.

Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-yanvardagi «Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzurida Sudyalar oliy maktabi tashkil etildi.

Sudyalar oliy maktabining asosiy maqsadi bugungi kun talablarini hisobga olgan holda malakali sudyalar va sudlar apparati xodimlarini tayyorlash hamda odil sudlovnning yuqori darajasiga erishishdir.

Oltinchidan, 2019-yil 14-yanvardagi «Jabrlanuvchilarini, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning qabul qilinishi jabrlanuvchi, guvoh va jinoyat

protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog‘lig‘i hamda mol-mulkini himoya qilishning qonuniy kafolatlarini belgilab berdi.

Qayd etish lozimki, amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasida jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlashga doir umumiy qoidalar belgilangan bo‘lsa-da, biroq qo‘llaniladigan xavfsizlik choralar turlari, ularni qo‘llashning tartibi aniq belgilanmagan edi.

Ushbu Qonunning ahamiyati shundaki, unda jabrlanuvchilarning, guvohlarning va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog‘lig‘i hamda mol-mulkiga tajovuz tahdidi mavjud bo‘lganda qo‘llaniladigan, jinoyatlarning oldini olishga yoki ularni fosh etishga ko‘maklashadigan, xavfsizlik va ijtimoiy himoya qilish choralarini o‘z ichiga oladigan chora-tadbirlar tizimi, shuningdek ularni qo‘llashning asoslari hamda tartibi aniq belgilandи.

Mazkur Qonun bilan jabrlanuvchi, guvoh va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilariga nisbatan tajovuz tahdidi mavjud bo‘lganda qo‘llaniladigan, jinoyatlarning oldini olishga yoki ularni fosh etishga ko‘maklashadigan, xavfsizlik va ijtimoiy himoya qilish choralarini o‘z ichiga oladigan chora-tadbirlar tizimi nazarda tutildi.

Sud-huquq islohotlari sohasidagi yuqorida ko‘rsatilgan tub o‘zgarishlar, eng avvalo, mamlakatimizda sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash, odil sudlov samaradorligini oshirish, shu orqali xalqimizning sudsiga bo‘lgan qat’iy ishonchini oshirish va munosabatini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lib, ularning amaliyotga joriy etilishi bugungi kunda o‘zining aniq samarasini bermoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, o‘tgan 3 yilda 1 ming 989 nafar, 2019-yilning o‘zida 859 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarildi.

Shuningdek, 2019-yilda 3 ming 81 nafar shaxs sud zalidan ozod qilingan bo‘lsa, 2 ming 623 nafar fuqaroga asossiz qo‘yilgan moddalar ayblovdan chiqarildi va o‘zgartirildi.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 7-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida sud-huquq islohotlarining navbatdagi yo‘nalishlari belgilab berildi.

Xususan, ushbu ma’ruzada 2020-yildan boshlab surishtiruv va dastlabki tergov jarayoni ustidan sud nazoratini o‘rnatish lozimligi, ya’ni prokuror qarori ustidan sudga murojaat qilish tartibi joriy etilishi haqida so‘z bordi.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksiga ko‘ra, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash, uning muddatini uzaytirish, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish va uning muddatini uzaytirish, eksgumatsiya qilish, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash, pasportning amal qilishini to‘xtatib turish kabi tergov va protsessual harakatlarni o‘tkazishga ruxsat berish sudning vakolatiga taalluqli.

Ta’kidlash lozimki, ushbu choralar surishtiruv va dastlabki tergov ustidan to‘laqonli sud nazoratini o‘rnatish imkonini bermaydi.

Jinoyat protsessida sud nazoratining eng muhim belgisi faqatgina ayrim protsessual va tergov harakatlarini o‘tkazishga ruxsat berishdan iborat bo‘libgina qolmasdan, balki fuqarolarning konstitutsion huquqlari va erkinliklari buzilishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan kelib tushgan shikoyatlarning sud tomonidan ko‘rilishi bo‘lib hisoblanadi.

Shu nuqtai nazaridan qaraganda, Prezidentimizning ushbu takliflari milliy jinoyat protsessual qonunchiligidimizni mutlaqo yangi sifat darajasiga olib chiqadi. Ya’ni, endilikda mamlakatimizda rivojlangan demokratik mamlakatlarda amal qiladigan tartib joriy qilinadi.

Ushbu tartibning joriy qilinishi natijasida jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichidan boshlab tergovda yo‘l qo‘ylgan xato va kamchiliklarni barvaqt aniqlash va ularni zudlik bilan bartaraf etish, fuqarolarni asossiz ayplash, huquq va erkinliklarini noqonuniy cheklashga yo‘l qo‘ymaslik kafolatlanadi.

Shuningdek, mamlakatimizda «xabeas korpus» institutini yanada rivojlantirish, qonuniylik va huquqiy tartibotning yanada mustahkamlanishiga erishiladi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bunday tajribani joriy etish hayotimizda adolat mezonini mustahkamlashda ulkan qadam bo‘ladi.

Murojaatnomada sudgacha bo‘lgan tergov jarayonida inson huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish maqsadida sud qarorlarini prokuratura tomonidan chaqirib olib o‘rganish amaliyotini cheklash taklifi ham ilgari surildi.

Ma’lumki, sud mustaqilligini ta’minalashga oid xalqaro hujjatlar va milliy qonunchiligidan ko‘ra, suda odil sudlovnii amalga oshirayotganda sud protsessi barcha ishtirokchilarining protsessual huquqlarini hurmat qilgan holda, har qanday bevosita yoki bilvosita tashqi ta’sirlar, niyatlar, bosim yoki aralashishlardan qat’i nazar, mustaqil harakat qilishi, faqat faktlarni baholashdan kelib chiqishi va ichki ishonchiga asoslanib, qonunga va huquqiy ongiga amal qilishi shart.

Shu maqsadda davlat organlari, boshqa institutlar va xususiy shaxslar sudyalarini majburlash yoki ularni muayyan qarorlar chiqarishga og‘dirish yo‘lida bosim ko‘rsatishdan tiyilishlari kerak.

Shu nuqtai nazardan Prezidentimizning sud qarorlarini prokuratura tomonidan chaqirib olib, o‘rganish amaliyotini cheklash, ya’ni ish yuzasidan shikoyat kelib tushgan holdagina prokuror sud qarorini olib o‘rganishi mumkinligini belgilash bo‘yicha taklifi sud mustaqilligini kuchaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan mazkur Murojaatnomada tadbirkorlik sohasida ijtimoiy xavfi katta bo‘limgan ayrim jinoyat turlarini jinoyat toifasidan chiqarish siyosatini izchil davom ettirish lozimligi, jumladan, soxta tadbirkorlik, raqobatchining obro‘sini tushirish kabi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikni bekor qilish, shuningdek bojxona qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatni birinchi marta sodir etgan, lekin to‘lovlarni to‘lagan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartibini belgilash taklifi ilgari surildi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish, boshqaruvning bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi ortiqcha byurokratik to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish uchun ushbu turdagি qonun buzilishini sodir qilgan shaxslarga nisbatan jinoiy ta’qibni emas, balki moliyaviy va fuqarolik-huquqiy choralarni qo‘llash samarali yo‘l bo‘lib hisoblanadi.

Qayd etish lozimki, ushbu takliflarning amalga oshirilishi kelgusida tadbirkorlarning asossiz jinoiy ta’qibdan himoya qilinishini ta’minlaydi, fuqarolarimizda «tadbirkorlik bilan shug‘ullanish xavfli ekan» degan tushuncha paydo bo‘lishining oldini oladi.

Zero, ushbu vazifalar sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar mamlakatimizda qonun ustuvorligini va ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta’minalashga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ezgu maqsadni ro‘yobga chiqarishda esa, sudyalar zimmasiga o‘ta muhim vazifa – odil sudlovni Konstitutsiya va qonunlardan hamda adolat tamoyilidan og‘ishmay amalga oshirish yuklatiladi.

**5. O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi.**  
**Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqaruv organlarining tashkil etilishi.** O‘zbekiston mustaqilligi yillarda hokimiyat organlari tubdan isloh qilindi. Bu tizim tarkibiga viloyat, tuman, shaharcha, shaharlar tarkibidagi tuman, shahar, qishloq, posyolka doirasidagi hokimiyat muassasalari majmui kiradi.

Milliy davlatchilik tarixi tajribasidan kelib chiqqan holda va “O‘zbekiston Respublikasi hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi Qonunga mavofiq viloyat, shahar va tumanlarda hokim lavozimi ta‘sis etildi. Viloyat, tuman,

shahar hokimi hududning oliv mansabdon shaxsi sifatida tegishli hudud ijroiyi hokimiyatini boshqaradigan bo'ldi.

O'zbekistonda o'zini-o'zi boshqarish organlarini tashkil etishga katta e'tibor berildi. O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z-o'zini boqarish organlarini to'zish tartiblari belgilab berilgan. Konstitutsiyaning 105-moddasida shaharlardagi mahallalarda hamda shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari hisoblanadi, deb belgilab qo'yilgan. Fuqarolarning yig'inlarida ikki yarim yil muddatga mahalla raisi (oqsoqli) va uning maslahatchilari saylanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi va musulmon sharqida davlat qurilishi va boshqaruva tajribasi o'zigaxos xususiyatlarga va o'ziga xos an'analarga ega. Sharqda qadimdan ijtimoiy-siyosiy xayotda mahallalarning roli salmoqli bo'lган.

Mahalla azaldan Markaziy Osiyodagi shaharlar ichidagi, hududiy birlik bo'lib, u bizga o'tmish dan meros bo'lib qolgan. Mahalla; - o'z-o'zini boshqarishning asosiyligi bo'g'ini. U aholining ijtimoiy masalalarini hal etishda muhim rol o'ynaydi. Mahallachilik uzoq an'analarga va xalqimiz tarixiga, uning boy ma'naviy-axloqiy udumlariga bog'liq bo'lган ulkan hayot maktabidir.

Mamlakatimizda mahallalarni tashkil etishga homiylik qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi 1992-yil 12-sentabrdagi hamda mamlakat "Mahalla" xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi 1992-yil 8-oktabrdagi farmonlari katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi.

### **Mavzu yuzasidan savollari:**

1. Mustaqillik uchun tashlangan eng birinchi qadam qaysi edi?
2. "Mustaqillik deklaratsiyasi" qachon qabul qilindi?
3. O'zbekistonda prezidentlik lavozimi qachon joriy qilindi va kim birinchi prezident etib tayinlandi?
4. O'zbekistonning davlat ramzlarini sanab bering.
5. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi qachon qabul qilindi?

6. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish qanday tamoyillarga asoslanadi?

7. “Demokratiya”, “demokratik davlat” deganda nimalarni tushunasiz?

8. O‘zbekistonda Konstitutsiyaga asosan davlat hokimiyati nechta qismlarga bo‘linadi?

9. O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimi qachon joriy etilgan va bu lavozimga bиринчи мarta kim saylangan?

10. Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining tub islohotlarning ikkinchi bosqichi qachon boshlangan va uning xususiyatlari nimadan iborat?

11. Mamlakatimizda demokratik jarayonlarni chuqrlashtirishning tamoyillari va ustivor yo‘nalishlari nimadan iborat ?

12. 2017-yil 7-fevralda O‘zbekiston Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonning mazmun-mohiyatini izohlang.

13. Sud tizimida qanday axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishi kutilmoqda?

14. Sud-huquq islohotlarining asosiy maqsadi nimadan iborat, deb hisoblaysiz?

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi.-T.: O‘zbekiston, 2004

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. T. 1. – T.: O‘zbekiston, 2017.

4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O‘zbekiston, 2004, Асарлар, 13 жилд.

5. Yusupov E. Istiqlol yo’lida.T.: Fan, 1996.

6. Usmonov Q. O‘zbekiston mustaqillik odimlari. T., 1994.
7. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo’lishi. T.: O‘zbekiston, 1992. 9.
8. Usmonov Q., Abdug’aniyev A. O‘zbekiston -siyosiy va huquqiy islohatlar sari. T.: O‘zbekiston, 1996.
9. O‘zbekiston tarixi. Prof. R.H. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida.- T.:
10. Q.Usmonov, M.Sodiqov,S.Burxonova. O‘zbekiston tarixi. Darslik, T.: Iqtisod-moliya, 2006. 12. Ўзбекистонинг Янги тарихи. Мустакил
11. Eshov B., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. T.: ”Yangi asr avlodii”, 2014.

**15-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI  
IJTIMOIY-IQTISODIY, MA’NAVIY-MADANIY TARAQQIYOT. 2017-  
2021-YILLARDA O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINI  
RIVOJLANTIRISHNING BESHTA USTUVOR YO’NALISHI BO’YICHA  
HARAKATLAR STRATEGIYASINING ISHLAB CHIQILISHI,  
HAYOTGA JORIY ETILISHI VA UNING AHAMIYATI**

**Reja:**

- 1.Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”. Iqtisodiy islohotlar. Bozor infratuzilmasining shakllanishi.
2. Kuchli ijtimoiy siyosat. Ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi. Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik.
- 3.“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Ilm-fanning rivojlanishi. Madaniyat va san’at.
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlanirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** Iqtisodiy taraqqiyot, bozor munosabatlari, «o‘zbek

modeli»ning ishlab chiqilishi, bozor munosabatlarining huquqiy jihatdan ta‘minlovchi qonunlar, davlat mulkini xususiy lashtirish, ko‘pukladli iqtisodiyot, mulkdorlar sinfining shakllanishi, Agrar islohotlar, dehqon - fermer xo‘jaligining vujudga kelishi, bozor infratuzilmasi, g‘alla mustaqilligi, ma‘naviy meros, madaniy taraqqiyot, buyuk allomalar, buyuk siymolarning tavalludini nishonlash, Milliy qadriyatlarning tiklanishi, Ta‘lim islohotlari, Milliy istiqlol mafkurasi, Milliy g‘oya, Ma‘naviy meros, madaniy taraqqiyot, buyuk allomalar.

**1.Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”. Iqtisodiy islohotlar. Bozor infratuzilmasining shakllanishi.** O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan keyin umumbashariy jahon sivilizatsiyasining katta yo‘liga tushib oldi. Turli mamlakatlardagi bozor iqtisodiyoti, u xox Amerika yoki Germaniyada bo‘lsin, xox Yaponiya yoki Janubiy Koreyada bo‘lsin, baribir umumiylar qonunlar bo‘yicha rivojlanib borgan holda har biri o‘ziga xos xususiyatlariga ham ega bo‘lgan. Bu xususiyatlar xo‘jalikning tuzilishi va shart-sharoitlari, tabiatni va iqlimi, milliy rasm-rusumlari, an‘analari va milliy xarakteri orqali belgilanadi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning yo‘li ishlab chiqildi. Bu yo‘lning asosiy qoidalari Birinchi Prezident I.Karimovning “O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” nomli asarida, respublika parlamentida qilgan ma‘ruza va nutqlarida, mamlakat parlamenti qabul qilgan qonunlarda bayon etib berilgan. Bu yo‘lga, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi.

Ikkinchidan, respublikaning xo‘jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, yakka hokimlik tizimidan meros bo‘lib qolgan muammolar hisobga olindi. Bizga sobiq Ittifoqdan mo’rt, zaif, bir yoqlama rivojlangan, paxta yakka hokimligi va boy mineral-xomashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan iqtisodiyot meros bo‘lib qolgan edi.

Iqtisodiy rivojlanishning xom ashyoviy yo‘nalishini, xom ashyoni oddiy-sodda qayta ishlash quvvatlarining ibridoiy darajasini ishlab chiqarishning chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskuna va butluvchi qismlarga butkul qaramligini hisobga olsak, bu og‘ir merosning noqobil jihatlari yanada yorqin namoyon bo‘ladi.

Bu og‘ir merosning yana bir xususiyati – respublikaning yoqilg‘i va g‘alla masalasida markazga qaramligida, un, shakar, go‘sht, sut mahsulotlari kabi eng muhim oziq-ovqat mollarining, boshqa xalq iste‘moli tovarlarining, tayyor mahsulotlarning chetdan olib kelishlarida yaqqol ko‘rinadi.

Mamlakatimizdan katta miqdordagi yetishtirilgan paxta hosilining aksariyat hajmi moddiy boylik suv-tekinga tashib ketilar edi. Oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega materiallar, jahon bozorida o‘ta xaridorgir bo‘lgan boshqa qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan keladigan foyda O‘zbekiston xazinasiga tushmas edi.

Bunday vaziyat respublikada o‘tkir ijtimoiy, ekologik muammolar hal etilmayotgan, nufuzi jadal sur‘atda o‘sib borayotgan, aholi turmush darajasi jihatidan sobiq SSSRda eng oxirgi o‘rinlardan birida turgan paytda ro‘y berayotgani ayniqsa, achinarli edi. Masalan, 1990-yilda Rossiya va Ukrainada 30 foiz aholining daromadi tirikchilik o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan eng quyi darajadan kam bo‘lgan bo‘lsa, O‘zbekistonda aholining 70 foizi shunday ahvolda yashardi.

Shunday ulkan salohiyatga ega bo‘lgan mamlakatni kamsitadigan og‘ir ahvolga solib qo‘yib, u qonuniy haqli ravishda o‘ziga qarashli bo‘lgan mablag‘ni markazdan dotatsiya sifatida so‘rab, aytishi mumkinki, yolvorib olishga majbur bo‘lgan edi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda ana shunday vaziyat inobatga olindi.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lini belgilashda mamlakatimizning tarixan tarkib topgan milliy qadriyatları, xususiyatlari, an‘analari va manfaatlari hisobga olindi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, davlatchiligin qo‘lga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hech qaerda yengil va osonlikcha bo‘lmagan. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat taraqqiyot yo‘lini izlaydi. Yangi jamiyat barpo etishda andozasini ishlab chiqishga intiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o‘rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan diniy e‘tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari shuni taqozo etadi. Dunyoda ijtimoiy taraqqiyot yo‘lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy

Koreya, Shvetsiya modellari va boshqalar bunga misoldir. Bir qancha musulmon mamlakatlari va yangi industrial mamlakatlarning tajribasi ham shuni ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushdan keyin Yevropa mamlakatlari va Yaponiya xalq xo'ligini qayta tiklash ham buning amaliy namunasidir.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan samarali foydalandi. Gap biron bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergen taqdirda ham ko'rko'rona ko'chirib olish to'g'risida borayotgani yo'q. Aniq-ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi.

Jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan umumiy tajribani rad etmagan holda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini tanlab olish qat'iy pozitsiyasida turdi.

Bu yo'lni Birinchi Prezident I.Karimov - 1993-yildayoq quyidagicha ta'riflagan edi: "O'zbekiston uchun o'zi tanlab olgan yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir.

Ayni mana shunday yo'l O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analari va madaniyatining qayta tiklanishi, insonni shaxs sifatida ma'naviy, axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin" (I.Karimov, O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. t.1.- T., "O'zbekiston", 1996, 290-bet).

Birinchi Prezident I.Karimov mamlakatning dastlabki yillaridagi rivojlanish jarayonlarini chuqrur tahlil qilib, O'zbekistonda milliy davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish dasturining o'zagi sifatida quyidagi beshta asosiy tamoyilni o'rtaga qo'ydi:

Birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi ham mumkin emas. Buning ma'nosи shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy

munosabatlarni mafkuradan holi qilish kerak;

Ikkinchidan, o‘tish davrida davlat bosh islohotchi bo‘lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi, o‘zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchilliik bilan o‘tkazishi shart;

Uchinchidan, qonunlarga rioya etish ustuvor bo‘lishi lozim. Buning ma‘nosi shuki, demokratik yo‘l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz, hamma hurmat qilishi va ularga og‘ishmay rioya etishi lozim;

To‘rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta‘sirchan choralar ko‘rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo‘lidagi eng dolzarb vazifa bo‘lib keldi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi;

Beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tishda ob‘ektiv iqtisodiy qonunlar talablari hisobga olingan holda, yaqin o‘tmishimizdagi “inqilobiy sakrash”larsiz ya‘ni evolyutsion yo‘l bilan puxta o‘ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Ana shu muhim qoidalar O‘zbekistonning mustaqil rivojlanishi va taraqqiyot yo‘liga asos qilib olindi, yangi jamiyatga o‘tish davrining negizini tashkil etdi, qolaversa, dunyo hamjamiyatida “O‘zbek modeli” nomini oldi.

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va demografik vaziyat aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni, tashkiliy tuzilma islohotlarini asta-sekinlik bilan o‘tkazishga asoslangan vazmin, g‘oyat puxta o‘ylangan shu besh tamoyilga asoslangan iqtisodiy siyosat yurgizishni taqozo qildi.

Shuning uchun ham, iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida, eng avvalo, bozorga xos yangilanishlarning huquqiy negizi barpo etildi. Ishlab chiqarish sur‘atining, aholi turmush darajasining keskin tushib ketishiga yo‘l qo‘yilmadi, to‘lov holati yaxshilandi, ishlab chiqarish ustuvor tarmoqlarini takomillashtirishga e‘tibor berildi.

Bu davrda mulk, korxonalar, ishbilarmonlik, tashqi iqtisodiy faoliyat, banklar

va bank faoliyati, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, xo‘jalik jamiyatlari va birlashmalari to‘g‘risida qonunlar qabul qilindi. Islohotlarning huquqiy asosini shakllantirish jarayonini ta‘minlovchi bir qancha Prezident Farmonlari va hukumat qarorlari chiqdi.

Birinchi Prezident I.Karimov ishlab chiqqan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish haqidagi tamoyillari vaqt o‘tgani sayin jahon hayotiy qiymatini, siyosiy kuchini ko‘rsatdi. Binobarin bular yetakchi tamoyillar sifatida tan olindi. Chunki ular iqtisodiy islohotlarning butun ichki mantiqini, rivojlanish yo‘lini va xarakterini belgilab berdi.

O‘zbekistonning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishi bir tomondan, avvaldan meros bo‘lib qolgan barcha ijobjiy tajribalarni chuqr o‘zlashtirish imkonini hamda ikkinchi tomondan, esa, isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq ajratib berdi. Bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishga sharoit yaratdi.

1995-yil xalq xo‘ligida ommaviy xususiy lashtirish yili bo‘ldi. Yirik korxonalar ham davlat ixtiyoridan chiqarila boshladi. Shu yili mashinasozlik kompleksiga qarashli 89 ta korxona, 81 ta yoqilg‘i energetika, 55 ta qurilish industriyasiga qarashli, 114 ta transport, 68 ta uy-joy - kommunal xo‘jaligi, 229 ta qayta ishlash korxonasi va 291 ta qurilish bilan bog‘liq ob‘yektlar xususiy lashtirildi. Iqtisodiyotning davlat sektori negizida mingdan ortiq ochiq turdagil hissadorlik jamiyatlari, 6000 xususiy va oilaviy korxonalar vujudga keldi.

1998-yil 1-aprelga kelib aksariyat korxonalar xususiy lashtirildi. Agar 1993-yilda jami korxonalarining 33,4 foizdan ortig‘i davlatga tegishli bo‘lmagan korxona bo‘lsa, 1994-yilda bu ko‘rsatgich 57,7 foizga, 1998-yilda esa 88,2 foizga yetdi.

Davlat mulkini xususiy lashtirish natijasida mamlakatimizda ko‘p ukladli iqtisodiyot va o‘rta mulkdorlar sinfi vujudga keldi. 1997-yil boshida xususiy va kichik korxonalar soni 100 mingdan oshib ketdi.

Dunyo hamjamiyati tomonidan mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti asoslariiga o‘tish borasida olib borilayotgan islohotlar o‘ziga xos “o‘zbek modeli”

nomli bilan atalmoqda. Yangi jamiyat qurishning bu modeli bugungi kunda xorijlik olimlar va siyosatchilarni qiziqtirmoqda. Bu yo‘l hamdo‘stlik davlatlari orasida rivojlangan eng maqbul, eng samarali yo‘l deb tan olindi. Bundan 5-6 yil avval, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatiga shubha bilan qaragan siyosatchilar, iqtisodchi olimlar ham bugun bizning tajribamizni o‘rganmoqdalar, ayrim jihatlarini o‘zlarida tadbiq qilmoqdalar.

O‘zbekistondagi islohotlar jarayoni bilan yaqindan tanishib chiqqan Finllyandiyalik iqtisodchi olim Yarmo Eronen shunday dedi:

“Sobiq ittifoq respublikalari ichida bizni ko‘proq O‘zbekiston tajribasi qiziqtiradi. Chunki qisqa vaqt ichida “o‘zbek modeli” o‘zini oqladi. Birinchi bo‘lib sizlarda o‘sish boshlandi. Sizlarga qo‘shti davlatlarda bo‘lganimda, ularda ayniqsa qishloq xo‘ligi ishlab chiqarishi butunlay izdan chiqqanini ko‘rdim. Ekin maydonlari 50 % ga kamayib ketibdi. Hosildorlik esa undan ham ko‘proqqa tushib ketgan. Chorvachilikda tuyaq soni keskin kamaygan. O‘zbekistonda esa umuman boshqacha manzara. Qishloq xo‘ligi o‘tish davrining eng og‘ir yillarida ham bir maromda rivojlandi. Bu esa tanlangan yo‘lning to‘g‘ri ekanligidan dalolat beradi.” (“O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi”, 1999-yil 9-son, 6-bet).

Albatta, bosib o‘tilgan yo‘lda turli muammolarga ham duch kelindi. Lekin, eng muhimi, islohotlarning umumiyy strategiyasida sobit turgan holda taktikada yo‘l-yo‘lakay tuzatishlar kiritib borilmoqda. Vaqtida qonunlarning qabul qilinishi, zarur bo‘lganda zudlik bilan kerakli tuzatishlarning kiritilishi, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarining qabul qilinishi orqali islohotlarning huquqiy asoslari takomillashtirib borilishi qo‘lga kiritilgan yutuqlarga asos bo‘lmoqda.

Rossiyaning nufuzli “Vopros ekonomiki” jurnalining ta‘kidlashicha, hamdo‘stlik davlatlarining aksariyatida sanoatdagi salbiy jarayonlarni to‘xtatishga erishilmadi, aksincha, ular yana chuqurlashib, tarmoq o‘rtasidagi nomutanosiblik oshdi. Faqat O‘zbekistonda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish eng kam miqdorda kamaygan holda, jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi e‘tirof etildi. (“Vopros ekonomiki”, 1999-yil 1-son, 116-bet).

Haqiqatdan ham sanoat tarmoqlari tarkibini statistik raqamlar orqali tahlil qilinsa, Istiqlol yillarida o‘zgarishlar qanchalik ulug’ vor ekanligi namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, uni sobiq ittifoq davridagi sanoat tuzilmasi bilan solishtirganda, qisqa vaqt ichida strukturaviy siyosatning amaliy natijalari, bunyodkorlik ishlarining salobati yorqinroq gavdalanadi.

Eski sanoat tizimida yengil sanoatning, aniqrog‘i paxta tozalash sanoatining mavqeい juda yuqori edi. Aksariyat mintaqalar sanoatida uning salmog‘i 70-80 foizni tashkil qilgan bo‘lsa-da, katta xom ashyo resurslariga ega bo‘lgan hududlarda yakuniy tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmagan edi. O‘zbekistondagi og‘ir sanoat korxonalarining hammasi sobiq markazga bo‘ysunganligi, ularning aksariyatida xom-ashyo, aholi talab va ehtiyojlariga aloqasi yo‘q, mahsulotlar chiqarishi, texnologik jihatdan mamlakatimiz hududidagi boshqa sanoat korxonalari bilan bog‘liq bo‘lman.

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tarkibida xalq iste‘mol mollarining ulushi atigi 37,1 foizni tashkil qilganligi bois o‘zimizga kerakli iste‘mol tovarlarining aksariyat qismi chetdan keltirilar edi. Bunday og‘ir vaziyatda sanoatni qaytadan tiklash bo‘yicha zarur chora tadbirlar ko‘rilmaganida, ishlab chiqarishning keskin tushub ketishi, sanoatda band aholining 300-400 ming nafari ishsiz qolishi mumkin edi.

Islohotlarning dastlabki bosqichidanoq yoqilg‘i-energetika majmuasining yuqori sur‘atlari bilan rivojlanishini ta‘minlash, neft va tabiiy gaz ishlab chiqarish hamda ularni qayta ishlash hajmlarini oshirib borish hisobiga mamlakatimizning energetika mustaqilligiga erishish vazifasi qo‘yildi.

Chunki, O‘zbekiston hududida neft sanoatiga asos solinganiga bir asrdan oshganligiga qaramasdan, biz o‘zimizning neft va neft mahsulotlariga bo‘lgan talabimizni ta‘minlay olmay kelar edik. 80-yillarda Respublikamizda har yili chetdan 6 million tonna atrofida neft mahsulotlari tashib kelingan. Mustaqillik yillarining dastlabki yillarida mamlakatimizda valyuta tushumining asosiy manbai hisoblangan paxta tolasining 600 ming tonnasi Rossiyaga yoqilg‘i mahsulotlarga

ayriboshlashga majbur bo‘lindi.

Mamlakat, xalq taqdirini O‘zbekiston o‘zi hal qilish huquqini olgandan keyingi 4-5 yillar ichida yuz yillar davomida ro‘yobga chiqmagan orzular amalga oshirildi. 1998-yilda 1991-yilga nisbatan neft qazib olish 2,7 barobar oshdi. Buxoro neftni qayta ishslash zavodi ishga tushurildi, bu nafaqat mamlakatimiz neft mastaqilligini ta‘minlab qolmasdan, balki xorijga yoqilg‘i mahsulotlarini sotish imkonini tug‘dirdi. 1998-yilda eksport qilingan mahsulotlarning 7,9 foizini elektr energiya manbalari tashkil qildi.

O‘zbekiston noyob yoqilg‘i-energetika zahirasiga ega: ya‘ni 2 trillion kubometr gaz, 160 dan ortiq neft konlari mavjud. Bu zahiralar neft gaz va gaz kondensati bo‘yicha O‘zbekiston ehtiyojini to‘la qondiribgina qolmay, shu bilan birga energiya manbalarini chet el bozoriga ham chiqarishga imkon berdi.

O‘zbekistonning neft-gaz potentsiali asosini Qashqadaryo viloyati tashkil etadi. Bugungi kunda respublika bo‘yicha qazib olinayotgan tabiiy gazning 88 foizi, neftning 92 foizi Qashqadaryo viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi. (“Xalq so‘zi”, 2000-yil 29-iyul.) Hozirgacha topilgan neft zahiralarning 70 foizi va gaz zahiralarning 70 foizi shu mintaqada joylashgan bo‘lib, bulardan eng yirik gaz va gaz kondensati zahiralari Sho‘rtandadir.

Barpo etilayotgan Sho‘rtan gaz-kimyo majmui mamlakat xalq xo‘ligida, umuman, iqtisodiy salohiyatimizning yuksalishida muhim ahamiyatga ega. “Sho‘rtan-gaz-kimyo” majmuasi qurilishi 1998-yil boshlarida boshlangan bo‘lib, 2000-yil oxirida foydalanishga topshirilgan. Kompleksning quvvati: bir yilda 4,5 mlrd kubometr xom-ashyo gazni qayta ishlab, bundan 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz, 103 ming tonna gaz kondensati va 4,5 mlrd kubometr toza (tovar) gaz ishlab chiqarishdan iboratdir. (“O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi”, 1999 yil, 1-2- soni, 3-4 betlar).

Korxona qurilishiga AQSh, Germaniya, Yaponiya, Italiya va boshqa mamlakatlarning nufuzli kompaniyalari jalg etilgan bo‘lib, 650 million AQSH dollari miqdoridagi sarmoya sarflanishi mo‘ljallangan. Bu ulkan sanoat korxonasi

to‘la quvvat bilan ishlay boshlagach, nafaqat polietilen xom-ashyosi va plenka, ayni vaqtda eksportbop va raqobotbardosh uy-ro‘zgor buyumlari, gaz va suv quvurlari, texnik uskunalar kabi xalq xo‘ligi ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlarni ham O‘zbekistonda tayyorlash imkoniyati sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston sanoatida mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog‘ining mavqeい kun sayin ortib bormoqda, ayniqsa,, uning tizimida avtomobilsozlikning tashkil topishi jiddiy tuzilmaviy o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keldi. Bu sanoatda barqaror o‘sishni taminlashning muhim omilidir.

Istiqlolgacha oddiy velosiped ishlab chiqarolmagan O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi, dunyoda 28-bo‘lib avtomobil ishlab chiqaradigan mamlakatga aylandi.

Endilikda yangi tarmoq tizimida yillik quvvati 200 ming yengil avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan “DEU avto”, avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Sam Kuchavto” qo‘shma korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi undan ortiq yangi korxonalar tashkil qilinib, samarali mehnat qilmoqda. Mamlakatdagi 40 dan ortiq korxonalar ular bilan hamkorlikda ishlar qilmoqda, avtomobilsozlik sanoatida 2000-yilga kelib 14 mingdan ortiq ishchi va xizmatchi mehnat qilmoqda.

O‘zbekiston boshqa sobiq ittifoq respublikalardan farqli o‘laroq, ichki bozorni xorijdan sotib olingan mollar bilan to‘ldirishga emas, balki o‘zimizda eksportning o‘rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish yo‘lidan bormoqda. Hamdo‘stlikdagi qator mamlakatlar valyuta zahiralari va chet el kreditlarini oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga sarflayotgan bo‘lsa, O‘zbekistonda keng iste‘mol mollari ishlab chiqaradigan zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, qo‘shma korxonalar tashkil qilish ustuvor vazifa deb belgilandi.

Iste‘mol mollarining eng zarur turlarini mamlakatda ishlab chiqarish nafaqat valyuta resurslarini tejashga, davlat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashga, balki mahsulot tannarxi tushurilishi orqali aholini ijtimoiy himoya qilish imkonini berdi. “O‘zbek modeli”ning o‘ziga xos tomoni ham aynan shunda namoyon bo‘ldi.

Struktura siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni mamlakatda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Natijada faqat oxirgi, ya‘ni 1998-1999 yillarda oziq-ovqat mahsulotlari va xalq iste‘mol mollarini import qilish 2 barobar, jumladan qandolat mahsulotlari 2 martaga, un va un mahsulotlari 5 hissa, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar 17 martaga, kiyim-kechaklar 7 barobar, poyabzal 4 martaga kamaydi.

Bu o‘zgarishlar mamlakat iqtisodiyoti uchun ustuvor hisoblangan boy tabiiy, qishloq xo‘jaligi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish hisobiga amalga oshirilmoqda. Korxonalarini, ayniqsa, kichik va o‘rta korxonalarini zamonaviy hamda ixcham texnologiya, eng yangi asbob-uskunalar bilan jihozlashga alohida e‘tibor berilyapti.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblangan qishloq xo‘jaligidagi yutuqlarda iqtisodiy islohotlar o‘tkazish, qishloq ijtimoiy infratuzilmasining rivojlantirilish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. Chunki bu tarmoqda yalpi ichki mahsulotlarning 30 foizi, mamlakat valyuta tushumlarining 55, aholi uchun kerakli oziq-ovqat mahsulotlarning 30 foizi shakllanadi. O‘tish davrida qishloq xo‘jaligining bir me‘yorda ishlash jamiyat barqarorligini muhim omil va valyuta tushumlarining ishonchli manbai bo‘ldi.

Mustamlaka yillarda qishloq xo‘jaligining sobiq markaz ehtiyojlardan kelib chiqqan noto‘g‘ri ixtisoslashuvi natijasida katta tabiiy salohiyat va imkoniyatlarga ega yurt xalqini o‘zi “boqa olmay” qoldi. Iste‘mol mollarining uchdan ikki qismi, donning 80 foizi chetdan olinib kelinardi. Hatto qishloqlarmizga ham meva – sabzavot va chorvachilik mahsulotlarining ayrim turlari chetdan keltira boshlangan edi. Shu bois ham mamlakatimiz rahbari istiqlolning dastlabki yillaridanoq qishloq xo‘jaligida tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishdan mustaqilligiga erishish vazifasini qat‘iy qilib qo‘ydi.

Bu tanlangan yo‘l qisqa vaqt ichida natijasini berdi. Qishloq xo‘jaligida oziq-ovqat tarmoqlarining ulushi ortdi. 1999-yilda 1991-yilga nisbatan bug‘doy yetishtirish 6 barobar, hosildorlik 12,5 sentnerdan 31,3 sentnerga ko‘tarildi. Ayrim

viloyat, tumanlarda bu ko‘rsatgich 60-70 sentnerni tashkil qildi. G’allachilik va dehqonchilikning boshqa sohalarida O‘zbekistonning “milliy texnologiyalari” yaratildi. Eng muhim, endilikda mamlakat o‘zini don va don mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlamoqda. Mamlakatda chetdan kartoshka va chorvachilik mahsulotlarni kelishi deyarli to‘xtatildi. Bularning hammasi iqtisodiy mustaqilligimizni mustahkamlash borasida dadil qadam tashlanganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida va ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi (2000- yil yanvar)da I.Karimov jamiyat hayotining barcha jabhalarini, shu jumladan iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish (liberallashtirish) masalasiga alohida to‘xtalib o‘tdi. Bu tasodifiy emas, albatta.

To‘g‘ri, bu borada ilgari ham katta ishlar amalga oshirilgandi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘li tanlangandan keyin mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish orqali iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoniga keng yo‘l ochilgan edi. Ammo bu masala 2000-yilga kelib yanada keskinroq qo‘yildi, uni hal etishning asosiy yo‘nalishlari aniqroq belgilandi.

Ishlab chiqarishni erkinlashtirish iqtisodiy adabiyotlarda xo‘jalik sub‘ektlariining xususiy tashabbuskorligini kafolatlaydigan iqtisodiy tartibotni rag‘batlantirishdir deb ta‘riflanadi. Birinchi Prezidentimiz bu ta‘rifni yanada oydinlashtirib, davlatning boshqaruv rolini chegaralash, iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarni kengaytirish, mulkdorlarning mavqeい va huquqlarini mustahkamlash iqtisodiyotni erkinlashtirishni anglatadi, deb ta‘kidladi.

Haqiqatdan ham, iqtisodiyotni erkinlashtirishni ta‘minlash ancha chuqr miqdor va sifat o‘zgarishlari bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo‘lib, ayrimlar o‘ylaganidek, individual bitimlar tuzish huquqini kengaytirish ishlab chiqarish vositalardan xususiy mulk sifatida foydalanishni rag‘batlantirishdangina iborat emas. Bu jarayon sanoat taraqqiyoti yo‘lini o‘tgan davlatlarning rasmiy iqtisodiy siyosatiga aylangan.

Gap shundaki, erkin raqobat va xususiy mulk xo‘jalik sub‘ektlarining erkin

harakati o‘z-o‘zidan barcha muammolarni xal eta olmaydi. Faqat davlatgina erkin raqobat doirasida shaxsiy tashabbus erkinligini kafolatlaydigan huquqiy tartibni ta‘minlay olishi mumkin. Bozor munosabatlari asosida rivojlanayotgan mamlakatlar evolyutsiyasi shuni ko‘rsatadiki, davlat faqatgina xo‘jalik sub‘ektlari o‘rtasida hakamlik bilan qanoatlanmaydi. Balki uning o‘zi ham sohibkorlik, tadbirkorlik bilan keng shug‘ullanishi mumkin.

O‘zbekistonda esa avval boshdanoq asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida iqtisodiy faoliyatni boshqarish, islohotlarni amalga oshirish kafolati davlatning zimmasiga yuklatildi. O‘tish davrida davlat iqtisodiy barqarorlik va yuksalishning bosh omiliga aylandi. Bu shuni bildiradiki, iqtisodiyotni erkinlashtirish va davlatning iqtisodiy roli bir-birini inkor etadigan tushunchalar emas. Davlat iqtisodiyotniing umumiyligi muvozanatini nazorat qilishga mas‘ul bo‘lib, uni ta‘minlashi, qonunlar chiqarishi, ularga rioya qilinishiga erishishi va xo‘jalik faoliyatining tabiatiga ko‘ra norentabel sohalarini moliyalashtirishi lozim. Demak bu yerda asosiy muammo davlat bilan xususiy tadbirkorlik o‘rtasidagi munosabatni to‘g‘ri belgilash, davlatning iqtisodiy rolini aniq chegaralash ustidadir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish uch asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: a) iqtisodiy hayotning huquqiy asosi-xususiy lashtirish; b) iqtisodiy taraqqiyot va texnologik yangilanishning yuragi-erkin sohibkorlik (tadbirkorlik); v) iqtisodiy munosabatlarni boshqarish mexanizmi sifatida erkin raqobatni rivojlantirish. Agar bu yo‘nalishlarda sezilarli o‘zgarishlar yuz bermas ekan, unda iqtisodiyotni erkinlashtirish haqida gapirish qiyin.

Qayd etilgan yo‘nalishlar bo‘yicha mamlakatimizda beqiyos ishlar amalga oshirilganligi hech kimga sir emas. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishni ta‘minlash yuzasidan qabul qilingan, hozir amal qilayotgan qonunlar, farmonlar, rasmiy qarorlar va me‘yoriy hujjatlarning aksariyat qismi xuddi ana shu yo‘nalishlarni rivojlantirishiga qaratilganligini eslab o‘tishning o‘zi kifoya. 1998-yili yalpi ichki mahsulotning 64,5 foizi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 64,1, qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 98,7, qurilish ishlarining 77,1, chakana tovar

aylanmasining 95,3 foizini, aholiga pullik xizmat ko‘rsatishning yarmidan ko‘prog‘ini nodavlat sektori berdi. Iqtisodiyotda band bo‘lganlarning to‘rtidan uch qismi davlatdan tashqari sektor hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Barcha mulk shaklidagi korxona va tashkilotlar o‘rtasida kichik va o‘rta biznes sub‘ektlarining hissasi 88 foizga yetdi. Ulardan 70 foizidan ko‘prog‘ini mikro firmalar tashkil etadi. Xususiy mulk shaklidagi korxonalar soni esa shu yilning boshida 85 mingtaga yetdi. Bu iqtisodiyotning hamma tarmoqlarini hisobga olganda, barcha mulk shakli va xo‘jalik yuritish sub‘ektlarining 45 foizidan ko‘prog‘i, demakdir. Shunday qilib, iqtisodiyotga raqobat va erkin sohibkorlik uchun zarur sharoit borgan sari kengaymoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu tabiiy holdir. Mamlakatimizda monopollashtirishdan chiqarish, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va davlat mulki ob‘ektlari xususiy lashtirish jarayoni bundan keyin ham davom etaveradi. Bu jarayonlarning huquqiy asoslari bizda allaqachon yaratib qo‘yilgan. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish monopolistik faoliyatni cheklash, tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilingan va ular amal qilmoqda.

Ko‘rinib turibdiki iqtisodiy erkinlik nisbiy tushinchcha bo‘lib, u o‘zgarib, kengayib, takomillashib boraveradi. Hatto erkin sohibkorlik asosiga qurilgan AQShdek mamlakatda ham antimonopol qonunlarga o‘zgartirishlar, qo‘srimchalar kiritilib borilishi orqali iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to‘xtovsiz rivojlanib kelmoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirishning muhim ko‘rinishlardan biri narxlarni liberallashtirishdir. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishning muhim xususiyatlaridan biri shu bo‘ldiki, narxlarni erkinlashtirish makro iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash dasturining ajralmas qismi, deb hisoblandi. Va bu tadbir qat‘iy pul-kredit siyosati orqali amalga oshirildi. Aks holda inflyatsiya surunkali va yuqori tus olishi, hatto giperinflyatsiya (pulning boshqarib bo‘lmaydigan darajadagi qadrsizlanishi)ga aylanishi mumkin edi. Tovar va xizmatlarning alohida tor doirasini va “tabiiy monopoliya”ni hisobga olmaganda, asosan narxlarning erkinlashtirishga

erishildi. “Tabiiy monopolistlar”ning mahsulotlari (elektr energiyasi, gaz, transport, kommunal xizmat va boshqalar)ga narx va tariflarni belgilash inflyatsiya sur’atlari muvofiq baholar darajasini qayta qurish, ishlab chiqarish rentabelligini cheklash yo’llari orqali boshqarildi. Hozirning o‘zida ham bir qator tovar va xizmatlar davlat tomonidan dotatsiyalashtirilmoqda.

Ishlab chiqarish monopoliyasi tarixan yuqori bo‘lib kelgan mamlakatda narxlarning birdaniga erkinlashtirilishi tovar va xizmatlarni taklif qiluvchilar tomonidan narxlarni sun‘iy oshirib yuborishi xavfini tug‘dirishi tabiiy. Monopolizm sharoitida iste‘molchida tanlash imkoniyati umuman bo‘lmaydi.

Agar monopolizm hukmron bo‘lgan joyda ishlab chiqaruvchining aytgani aytgan bo‘lsa, raqobat bor joyda iste‘molchining degani degan. Shuning uchun ham antimonopol siyosatning ishlab chiqilishi va yurgizilishi bozorga o‘tishda institutsional islohotlarning muhim bo‘lagi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bozor munosabatlarini chuqurlashtirishni rag‘batlantiribgina qolmasdan, balki umumiy iqqtisodiyotni erkinlashtirishga ham ta‘sirini o‘tkazadi.

Ko‘pgina mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish natijasida tezlashdi. Tashqi savdoni erkinlashtirish boshqa sohalardagi islohotlarni chuqurlashtirishi tufayli qator mamlakatlarni tanglikdan olib chiqib ketganini ko‘pchilik biladi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti tashqi bozorga u qadar bog‘liq bo‘lmasa-da, mamlakatimizning borgan sari jahon xo‘jalik tizimi bilan uyg‘unlashayotgani ularning milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga ta‘siri imkoniyatini oshirmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarnining jug‘rofiy yo‘nalishini tashqariga mol chiqarish va tashqaridan mol kiritish tarkibini jiddiy takomillashtirishga olib keldi. Keyingi yillarda O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarnining rivojlangan mamlakatlarga qaratilganligi tamoyili yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. SSSR qulagandan keyin O‘zbekiston tashqi savdo oborotidagi sobiq ittifoqchi mamlakatlarning hissasi qariyib 80 foizdan 28 foizgacha

qisqardi. O‘zbekiston jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar bozorida mavqeini mustahkamlamoqda. Bugun mamlakatimizning asosiy tashqi savdo hamkorlari Koreya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Germaniya, AQSh, Turkiya, Belgiya, Fransiya va Italiyalardir. O‘zbekiston tashqi savdosi xajmining 66 foizi Yevropa davlatlariga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘zbekistonning eksport salohiyatida paxta tolasi asosiy o‘rinni egallashi ma‘lum. Shu bilan birga, energiya vositalari, turli xil metallar, mashina va asbob uskunalar, xizmatlar, oziq-ovqat mollarini ham sanab o‘tish o‘rinli. Importda asosiy o‘rinni mashinalar va asbob uskunalar tashkil etmoqda-ki, bu mamlakatimiz xalq xo‘jaligidagi zamonaviylashtirish va rekonstruktsiyalash, yangi texnik va texnologik jihozlash ishlarini jadal borayotganini bildiradi. Albatta, tashqariga mol chiqarishning xom ashyo turiga tezroq barham berish, tayyor mahsulotni chiqarishni va umuman eksport nomenklaturasini, ayniqsa, uning xizmat ko‘rsatish turini kengaytirish muhim vazifalardandir.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni muhim muammolaridan yana biri mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jab etish hisoblanadi. Ma‘lumki, kuchli investitsiyasiz bozorni qayta qurish ishlarini tez va beiz o‘tkazib bo‘lmaydi. Chet el investitsiyasi iqtisodiyotda chuqur tarkibiy qayta qurishlar, ichki tovarlar raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishning pasayishini to‘xtatish, makroiqtisodiy barqarorlik va yuksalishni ta‘minlash uchun zarur.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolotlari, erkin iqtisodiy zonalar, xorijdan mablag‘ jalb qilish, chet el investitsiyalari to‘g‘risida maxsus qonunlar qabul qilingan. Bu samarasini bermoqda. 1999- yilning boshida respublikamizda ro‘yxatdan o‘tgan qo‘shma korxonalar soni 3,6 mingga yetdi. Ularning yarmidan ko‘prog‘i bugun mahsulot bermoqda. Qo‘shma korxonalarning 40 foiziga yaqinrog‘i sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ishlab chiqarishning bu turini rivojlantirish chet el investitsiyasini kiritishning muhim omillardan biridir. Hozirgi paytda chet el investitsiya va kreditlari barcha investitsiyalarning 20 foizini tashkil etmoqda. Chet

eldan keltirilayotgan sarmoyalarning yarmidan ko‘prog‘ini davlat mulkiga tegishli korxona va tashkilotlar, uchdan bir qismini esa qo‘shma korxonalar o‘zlashtirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonini bosqichma-bosqich takomillashtirib bormasdan turib, milliy iqtisodiyotning o‘sishini ta‘minlash ham, jahon xo‘jalik tizimi bilan yaqindan uyg‘unlashish ham qiyin. Bugun sivilizatsiyali iqtisodiyotga erishishning asosiy yo‘li shudir.

## **2. Kuchli ijtimoiy siyosat. Ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi.**

**Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik.** O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijalaridan biri ijtimoiy himoya siyosatining demokratik jamiyatni barpo etishdagi o‘rnini va ahamiyatining ortib borishi bilan belgilanmoqda. “Bugungi kunda ijtimoiy hayot sohasidagi salbiy holatlarni bartaraf etib, odamlar turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymasdan, aholining himoyaga muhtoj qatlam va guruhlarini ijtimoiy muhofazasini ta‘minlagan holda, O‘zbekiston ijtimoiy - siyosiy barqarorlikni va fuqarolar totuvligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldik” degan edi I.Karimov. Darhaqiqat, bozor munosabatlariga o‘tish davrida mamlakatimizda kuchli ijtimoiy himoya tizimi shakllantirilishi va hozirda uni takomillashtirish muhim masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Shu munosabat bilan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy tizimi shakllantirilmoqda.

Aholining yordamga eng muhtoj qatlami – bolalar, yolg‘iz qariyalar, nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ularni qo‘llab-quvvatlash ishlarini aniq mo‘ljalli tarzda amalga oshirish zarur. Shu bois, islohotlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashning ta’sirchan mexanizmini shakllantirish davom ettirilmoqda. Muayyan moddiy yordam aniq oilalarga etib borishi, jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlariga mo‘ljallangan tabaqlashtirilgan yordam bo‘lishi va haqiqatan ham bunday

yordamsiz kun kechirolmaydiganlarga borib tegishli lozimligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston ijtimoiy himoya tizimini amalga oshirish uchun shunchaki qulay sharoit yo‘q edi. Shunga ko‘ra, 1994-yil 24-avgustda “Kam ta’minlangan oilalarни ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to‘g‘risida” Prezident Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko‘ra, 1994-yil oktabrdan aholini ijtimoiy himoyalash tizimi takomillashtirildi.

Shunisi ham e’tiborliki, jamiyatni demokratlashtirish va ijtimoiy himoya tizimini yaratish o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida rivojlandi.

Lekin O‘zbekistonda o‘zini o‘zi himoyalash tizimi batamom yo‘lga tushib ketgan emas edi. Boqimandalik kayfiyatidan ijtimoiy himoya iste’molchilari ham qutilishlari lozim. Fuqarolar endilikda o‘zini-o‘zi ta’minlash usuliga o‘tishlari kerak. O‘zbekistonda xususiy mulkchilikning qaror topishi bu sohada qat’iy o‘zgarishlar bo‘lishiga olib kelishi zarur. Shunisi ham muhimki, ijtimoiy himoyani doimiy jarayon sifatida tushunmaslik lozim. Aks holda boqimandalik kayfiyati battar kuchayishi mumkin. Ijtimoiy himoya ayrim fuqarolar uchun imkoniyat, xolos. Har qanday sharoitda ijtimoiy yordam jamiyat a’zolari uchun imtiyozga aylanmasligi lozim. Bu o‘rinda jamiyatning o‘zini-o‘zi ijtimoiy himoyalash tizimiga o‘ta borishini ta’minlash uchun ushbu tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- nodavlat, nohukumat tashkilotlar, jamg‘armalar, uyushmalar va turli shakldagi mulk egasi bo‘lgan tashkilotlarning moddiy ahvolini yaxshilashni qo‘llab-quvvatlash:

- barcha turdagи korxonalar, muassasalar va uyushmalarni zamon talabiga javob beradigan xodimlar va ayniqsa huquqshunos, psixolog va sotsiolog mutaxassislar bilan ta’minlashga alohida e’tibor berish lozim:

- nomi zikr etilgan muassasalarning xorijiy turdosh muassasalar bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yishda ko‘maklashish. Ular o‘z yo‘nalishlarida zarur tajriba orttirishlari talab etiladi:

- ijtimoiy himoya tizimida iqtisodiy muhofazalanishni asta-sekin ijtimoiy fondlar zimmasiga o’tkaza borish zarur. Bunday holatda odamlarni ijtimoiy muhofazalashning ta’sirchan vositasi yuzaga keladi:
- ijtimoiy muhofazalashda boqimandalik, mas’uliyatsizlik, befarqlik singari illatlarga barham beruvchi ta’sirchan vosita va usullarni qidirib topishi hamda hayotga joriy eta borish talab etiladi.

O’zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatda asosiy boylik inson bo‘lib qoladi. O’tkazilayotgan islohotlarning mazmuni ham shu bilan bog‘liq. Bu haqda Birinchi Prezident I.A.Karimov shunday ta’kidlaydi: “Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo‘ldagi asosiy tayanchimiz insondir. Yuksak malakali va yuksak ma’naviyatli insondir”. Lekin shunisi ham borki, islohotlar davrida ijtimoiy guruhlarning ham o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik jamiyat qurish sharoitida o‘rtta mulkdorlar qatlami katta salmoqqa ega bo‘ladi. O‘rtta sinf demokratik jamiyatni rivojlantirishda va uning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlashda asosiy kuchga aylanadi. Zero, davlat bunday sharoitda kuchli muvofiqlashtiruvchi kuchga ega bo‘ladi, o‘rtta sinf esa jamiyat taraqqiyotini texnologik, texnik, ilmiy va ma’naviy ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, O’zbekistonda islohotlar muqarrarligining g‘oyat muhim sharti bo‘lmish aholini ijtimoiy himoya qilish uzlusiz ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Bu holat, o‘z navbatida, quyidagi omillarni belgilab beradi:

- kuchli ijtimoiy himoya siyosati istiqlol va taraqqiyot yo‘liga ishonchni mustahkamlaydi, bu ishonch esa aniq moddiy zamin asosida hosil bo‘ladi:
- kuchli ijtimoiy himoya siyosati eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratadi. XXI asr boshida taraqqiyotida munosib turmush darajasi inson omilining yetuk sharti bo‘lib qolayotganligi e’tiborga olinsa, mamlakatimizda bu masalani hal etishda ijtimoiy himoyalashdan unumli foydalanish masalasi nechog‘li ahamiyatli ekani ayon bo‘ladi:

• kuchli ijtimoiy himoya siyosati fuqarolarning islohotlarning izchil kechishidan manfaatdorligini oshib borishini ta'minlaydi va bu yangilanish jarayonining orqaga qaytishiga imkon bermaydigan ijtimoiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

O'z navbatida ijtimoiy sohaning ahvoli to‘g‘risida umumiy jahon standartlari nimadan iborat, degan savol tug‘iladi.

Mustaqillik sharofati ila O‘zbekiston ma‘naviy hayoti, madaniy taraqqiyoti uchun yangi davr boshlandi. Istiqlol tufayli xalqimiz ma‘naviyat zug‘umlaridan ozod bo‘ldi, erkin fikrga milliy, tiklanishga keng yo‘l ochildi. Ma‘naviy hayotdagi tub sifat o‘zgarishlar xalqimiz ma‘naviy salohiyatini mamlakatimizning ertangi porloq istiqboli uchun, milliy o‘zligimiz va qadriyatlarimizning tiklanishi uchun va qolaversa milliy ongi va gururi, uyg‘oq vatanparvar insonni tarbiyalash uchun qaratilgan. Birinchi Prezident I.A.Karimov ta‘kidlaganidek: “Davlatimizning qanchalik tez ulg‘ayishi, kuch-quvvat ado etishi, dunyo hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi, avvalombor, xalqimiz ma‘naviy saviyasi, g‘ururi va faxri nechog‘lik yuksak bo‘lishiga bog‘liqdir. Ana shuni inobatga olgan holda yangi jamiyat barpo etmoqchi bo‘lib, eng asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida xalqimiz tarixini, ma‘naviy qadriyatlarimizni tiklash vazifasini qo‘ydik”. Darhaqiqat, mustaqilligimizni dastlabki kunlaridanoq xalqimizning ko‘p asrlar mobaynida yaratgan g‘oyat ulkan beba ho ma‘naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa sifatida qaralib, keng ko‘lamli jiddiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi tarixiy ishlarning amalga oshirilishi yangi jamiyatimiz ma‘naviyati binosining qad rostlashiga muhim omil bo‘lmoqda. Natijada respublikamizda ma‘naviyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazi, “Ta‘lim markazi”, “O‘zbekkino”, “O‘zbeknavo”, “O‘zbekraqs”, “O‘zbekteatr”, “O‘zbekmuzey”, “Badiiy akademiya”, “O‘zbek amaliy san‘at markazi”, Milliy madaniy markazlar, O‘rta Osiyo madaniyat xodimlari assotsiatsiyasi kabi madaniy-ma‘rifiy tashkilotlar va

ko‘plab jamg‘armalarning tuzilishi respublika ma‘naviyati asosiy sohalarining tarkib topishi va rivojlanishiga zamin bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o‘rganish masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda. Sovet davridagi sinfiylik yondashuv va hukmron kommunistik mafkura tayziqi ostida taqiqlangan tarixiy mavzulardagi asarlar chop etilib, xalqimiz tarixini holislik, haqqoniylig asosida tiklash va chuqur, har tomonlama tadqiq qilishga kirishildi. Bu borada o‘zbek xalqi va o‘zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini holisona ilmiy asosda yoritish vazifalarini Birinchi Prezident I.A. Karimov bir guruh tarixchilar bilan 1998-yil iyun oyida bo‘lgan suhbat va Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida belgilanishi alohida ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq dunyo taraqqiyotiga, jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘sghan ajdodlarimiz - buyuk mutafakkirlar, davlat arboblari ma‘naviy merosini va hayotini o‘rganish avj oldi. Jumladan, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Burxonuddin Marg’inoniy kabilarning asarlari chop etilishi milliy qadriyatlarimizni tiklashda katta yutuq bo‘ldi. Vatanimiz ozodligi yo‘lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir va boshqa allomalarimizning xurmati joyiga qo‘yildi va ma‘naviy meroslari xalqimizga qaytarildi. Buyuk ajdodlarimiz tavalludlarining yirik sanalarini nishonlash ham xalqimizning ulug‘vor an‘analariga aylanmoqda. Jumladan, istiqlol yillarida Alisher Navoiy (1991), Zahiriddin Bobur (1993), Bahovuddin Naqshband (1993), Abduholiq G‘ijduvoniy (1993), Feruz (1995) kabi buyuk ajdodlarimizning tavallud kunlari, shuningdek, Mirzo Ulug‘bekning 600 yillik (1994), Najmuddin Kubroning 850 yillik (1995), Amir Temuring 660 yillik (1996), Imom Buxoriyning 1225 yillik (1998) va Ahmad Farg‘oniyning 1200 yillik (1998) yubileylariga bog‘liq tadbirlar nafaqat o‘lkamizda, balki YUNESKO orqali xalqaro doiralarda nishonlanishi vatandoshlarimizda milliy faxr tuyg‘ularini yuksaltirdi. Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy,

Fayzulla Xo‘jayev, Jaloliddin Manguberdi va boshqa arboblarning yubileylarini o‘tkazish yuzasidan ko‘rilgan chora tadbirlar ham ma‘naviy hayotdagi muhim qadamlar bo‘ldi. Yosh avlodni ma‘naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash (1999) ham hissasini qo‘shdi.

Respublika rahbariyati, eng avvalo xalqimizning ehtiyoji, orzu istaklarini hisobga olib, azaliy milliy bayramlarni tiklashga yangi istiqlol bayramlarini xalqning qadimiyligi an‘analariga monand holda shakllantirishga katta e‘tibor berdi. Masalan, Prezident farmonlari asosida “Navro‘z”, “Ramazon hayit”, “Qurbon hayit”lar qonuniy nishonlana boshlandi. Undan tashqari, istiqlol sharofati bilan “Mustaqillik kuni”, “Konstitutsiya kuni” va “Murabbiylar kuni” bayramlari joriy etildi. Davlat tili haqidagi qonun chiqqan kun - 21-Oktabr tabiiy raviishda “Til bayrami”ga aylandi. Tilimizga Davlat maqomining amalda qaytarilishi, o‘zbek tilida rasmiy idoraviy ish yuritish, boy adabiy-tarixiy merosimizni o‘qib o‘rganish, milliy qadriyatlarni tiklash va izchil davom ettirish imkoniyatini berdi. Shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining joriy etilishi mamlakatning har tomonlama kamol topishi va jahon komunikatsiyasi tizimiga kirish uchun ancha qulay shart-sharoit yaratib berdi.

Ma‘naviy-madaniy merosimizni tiklashda katta ahamiyatga molik yana bir tadbirlardan biri olamshumul tarixiy me‘morchilik inshootlarining keng ko‘lamda ta‘mirlanishi, jumladan Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz, Shahrizabz kabi shaharlarda hamda Quva, Chelak tumanlarida tarixiy me‘moriy yodgorliklarning tiklanishi, Buxoro va Xiva kabi qadimiyligi shaharlarining 2500 yilligini nishonlanish tantanalarini, “Buyuk ipak yo‘li”ni tiklash borasidagi amaliy ishlar.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq dinga munosabat tubdan o‘zgarib, davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi aloqalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston dunyoviy davlat, binobarin diniy tashkilotlar davlat va maktabdan ajratilgan. Din, shu jumladan islom dini ham xalqning dunyoqarashi va ma‘naviy olamning mazmunini tashkil etadi. “Biz, - deydi I.A. Karimov, -

millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o‘zligimizni yo‘qotamiz”. Diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski machit va madrasalarning ta‘mirlanishi yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlarning nashr etilishi, musulmonlarning Haj va Umra amallarini ado etishi uchun davlat tomonidan imkoniyatlarning yaratilishi va boshqa chora-tadbirlar respublikamizda vijdon erkinligini ta‘minlamoqda. Qur‘oni Karimning va Hadislar to‘plamining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr qilinishi ham katta voqeа bo‘ldi. Islom ta‘limoti va falsafasini keng o‘rganish, o‘zbek xalqining diniy va madaniy merosini chuqur tadqiq etish maqsadida 1995-yil Toshkentda Xalqaro islom tadqiqot markazi tashkil etilib, unga ilmiy tekshirish instituti maqomi berildi. 1999-yilda dinshunoslik asoslari, yo‘nalishlarini, ilmiy-tadqiqot tamoyillari, islom dini tarixi, falsafasi, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni bilan bog‘liq masalalarni hamda zamonaviy fanlarni o‘zlashtirgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkent islom universiteti tashkil etildi.

Umuman olganda, hozir O‘zbekistonda 16 ta diniy konfessiyalar majud bo‘lib, turli dinlarga e‘tiqod qiluvchilar o‘zaro tinch-totuv yashamoqdalar. Buning zamirida davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi tamoyillar katta ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilardan iborat: 1) dindorlarni diniy tuyg‘ularini himoya qilish; 2) diniy e‘tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish; 3) diniy qarashlarga amal qiluvchilar va qilmaydiganlarning huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta‘qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik; 4) dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bermasligini e‘tirof etish; 5) diniy davlatlar bilan hokimiyat uchun ko‘rashga siyosat, iqtisodiyot, qonunchilikka aralashishga yo‘l qo‘ymaslik; 6) ma‘naviy tiklanish, umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishda diniy uyushmalar bilan hamkorlik qilish.

Lekin shuni ham e‘tirof etishimiz kerakki, so‘nggi paytlardan dinimizdan g‘arazli maqsadlari uchun foydalanuvchilar paydo bo‘la boshladi. Ular xorijdan yurtimizga kirib kelgan turli xil buzg‘unchi oqimlar, din niqobi ostida shaxsiy

manfaatini ko‘zlovchi kimsalardir. Bizning fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz “haqiqiy” va “soxta” dindorlik nima ekanligini aniq tasavvur qilishlari lozim. O‘zlarini chin musulmon, din uchun kurashuvchi deb hisoblaydigan vahhobiylar, xizb-ut-tahrirchilar xalqimizga mudhish tasavvurlarni qabul qilishni istaydigan terrorchilarni, jangarilarni vujudga keltirishga urinadilar. Ba‘zi ekstremistik guruhlarning jinoiy harakatlarini yuqori ko‘rinishi bo‘lganligini - 1999-yil 16-fevralda Toshkentda ro‘y bergen voqealar misolida ko‘rish mumkin. Aqidaparastlarning tinch hayotimizga solishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni oldini olish uchun mafkuraviy, madaniy, ma‘rifiy tarbiyaviy ishlarni izchil ravishda olib borish zamon talabi bo‘lmoqda. Din siyosat emas, balki imon, e‘tiqod ekanligini unutmagan holda, diniy axloqiy qadriyatlardan, islom dinida mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan mustaqilligimizni mustahkamlashda oqilona ijodiy foydalanish, turli madaniyatlarnig yonma-yon tinch yashash, ekstremizm, fundamentalizm xavfini oldini olish uchun respublikamizda zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### **3.“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.**

**Ilm-fanning rivojlanishi. Madaniyat va san’at.** Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq xalq ta‘limi tizimini jadal isloh qilishga kirishildi. Bir qator o‘quv yurtlarining maqomi, dasturlari va ta‘lim uslublari butunlay o‘zgartirildi. Zamonaviy, shu paytgacha bo‘lmagan eng zarur ixtisosliklar bo‘yicha alohida universitet va institutlar, jumladan, Mudofaa vazirligi qoshidagi harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshidagi Ichki ishlar akademiyasi, Bank moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog‘-konchilik instituti kabi o‘nlab yangi o‘quv muassasalari tashkil etildi. Abiturient va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg‘or usullari joriy etildi. Ilg‘or mamlakatlarning tajribalari asosida yangi tipdag‘i litsey va gimnaziyalar ochildi. O‘zbekistonda gimnaziyadan tortib akademiyagacha bo‘lgan zamonaviy, yangi ta‘lim tizimi vujudga keltirildi.

1997-yil ta‘lim tizimida katta burilish yuz berdi. Oliy Majlisning IX sessiyasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va u asosida “Kadrlar tayyorlash dasturi”ni qabul qildi.

Bular mamlakatimiz ravnaqi va kelajagini belgilab beruvchi hujjatlar bo‘lib, milliy tiklanishning ma‘naviy asosini tashkil qiladi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga milliy g‘oyaning bir qismi deb qaraladi. Chunonchi, kadrlar tayyorlash milliy modeliga asos solindi. Shaxs davlat va jamiyat, shuningdek fan va ishlab chiqarish o‘rtasida uzviy bog‘liklik bo‘lishiga imkon tug‘ildi.

Yosh avlodni tarbiyalash masalasi ustivor yo‘nalish sifatida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, davlatimiz ichki iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda uni dastavval moddiy jihatdan qo‘llab quvvatlash maqsadida tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Ta‘lim tizimiga qilinayotgan sarf-harajatlar darajasi bo‘yicha O‘zbekiston jahonning yetuk mamlakatlariga yaqinlashib bormoqda. Davlat tomonidan 1998-yilda ta‘lim sohasiga yalpi ichki mahsulotning 7,8 foizi miqdorida mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 1999-yilda 8,1 foiz mablag‘ sarflandi. Bu esa faqatgina ikki yil mobaynida turli viloyatlarda 250 ta yangi tizimdagи akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini tashkil etishga imkon berdi. Xususan Qashqadaryoda ham 1 ta akademik litsey va 9 ta kasb-hunar kolleji barpo etildi. Yoshlar hayoti bilan bog‘liq muammolarga ham alohida e‘tibor berilmoqda. Ularning intellektual salohiyatini oshirish, ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyalar, iste‘dodli va iqtidorlilarni rag‘batlantirish maqsadida bir qancha jamg‘armalar tashkil etildi. Jumladan, “Iste‘dod”, “Ulug‘bek”, “Kamolot”, “Umid”.

1997-yilda tashkil etilgan “Umid” jamg‘armasining asosiy vazifasi iste‘dodli yoshlarni tanlash va ularni chet ellardagi nufuzli o‘quv yurtlarida ta‘lim oldirish. Xorijiy mamlakatlarga o‘qish uchun nomzodlarni tanlashda dunyodagi mashhur tashkilotlar, jumladan, Aksels, Ayreks, Britaniya Kengashi, Daad, Tasis ishtirok etadilar. 1997-1999 yillarda “Umid” jamg‘armasi orqali 700 nafardan ortiqroq talaba yoshlar xorijga o‘qishga jo‘natildi. Shu jumladan 30 nafar Qashqadaryolik yoshlar ham.

Ta‘lim sohasini malakali professor va o‘qituvchilar bilan taminlash borasida 1997-yilda tashkil etilgan “Ustoz” jamg‘armasi ham katta hissa qo‘shmoqda.

“Ustoz” jamg‘armasi faoliyatini faqatgina bir yo‘nalish, ya‘ni chet ellardagi yetakchi o‘quv yurtlarida o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha qilingan tadbirlar natijasida 1998-yilda 71 nafar o‘qituvchi xorijda malakasini oshirgan. 980 nafari Vatanimizda chet ellik mutaxassislar ishtirokida malaklarini oshirdilar. “Ustoz” grantiga sazovor bo‘lgan 185 kishi AQSh va Isroilda malaka oshirib keldilar. Shubhasiz, ta‘lim sohasidagi bugungi kunlarda qilinayotgan tadbirlar mazkur tizimning samaradorligini oshirish, keljakda mamlakatni yuksak malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So‘nggi yillarda ta‘lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta‘lim tizimidagi islohotlar va amaliy chora-tadbirlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etildi:

- 1) maktabgacha ta‘lim sohasida;
- 2) umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim;
- 3) oliy ta‘lim;
- 4) oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim;
- 5) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Demak, amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasida boshlanishi ham bugungi kunda ushbu sohaga alohida e’tibor berilayotganligidan darak bermoqda. Bugungi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta‘lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Mazkur sohaga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosi sifatida “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunni keltirishiz mumkin. Mazkur Qonunda maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy

yo‘nalishlari, maktabgacha ta’lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari va boshqa shunga o‘xhash masalalar belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, yurtimizda ilk bor Maktabgacha ta’lim vazirligining ham tashkil etilganligi ushbu sohadagi asosiy islohotlardan biri bo‘ldi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuningdek, bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog‘chalar barpo etilmoqda. Qisqa vaqt, ya’ni to‘rt yil ichida respublikamizda bog‘chalar soni 3 barobar oshib (5 ming 200 tadan 14 ming 200 taga), bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizga yetgani ham amaliy harakatlarning natijasidir.

So‘nggi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va modernizatsiya qilish bo‘yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Xususan, ta’lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, Qonunga ko‘ra, davlat oliv ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliv, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo‘ldi. Ushbu Qonun bilan 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlar o‘z kuchini yo‘qotdi.

Shunga ko‘ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta’lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo‘ldi deyishimiz mumkin.

Prezidentimiz

Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek,

“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkonи tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”.

Bundan tashqari, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma’lum qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ilm-fanning yirik o‘choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Bugungi kunda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so‘nggi 4 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta’lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o‘quv yurtlarining soni 125 taga yetdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Aholi fikrini o‘rgangan holda, sirtqi va kechki ta’lim shakllarini qayta tikladik, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qamrab olish darjasasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetgan bo‘lsa-da, biz bu ishlarni yanada kengaytirishimiz zarur.

Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta’minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018- yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta’lim muassasasi o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazildi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir.

Mustaqillik yillarda ma‘naviyat va madaniyatning yuksalishi, boyishi o‘zligimizni anglab olishga, milliy qadriyatlarimizni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlanadirishga yordam bermoqda. Boz ustiga, ma‘naviy o‘zgarishlar millatni yagona bayroq ostida birlashtirishga xizmat qilishi bilan bugun jahonda e‘tirof etilayotgan “o‘zbek modeli”ning harakatlantiruvchi kuchlardan biriga aylanmoqda. Chunki Islom Karimov asarlarida asoslangandek “o‘zbek modeli” boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati va faqat iqtisodiyot rivojlanishni emas, balki keng ma‘noda milliy tiklanishni, ijtimoiy va ma‘naviy taraqqiyotni ham ichiga oladi.

#### **4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldaggi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni xalqimiz tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi. Unda yaqin besh yillikda mamlakatimiz zabt etishi nazarda tutilgan ulkan dovonlar, xalqimiz hayot darajasini yuksaltirishning mexanizmlari aniq belgilab berilgan.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minalash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Mazkur farmonda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi belgilandi:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqr o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimi tubdan isloh qilinib, ma’muriy buyruqbozlik va rejali taqsimot tizimidan bozor munosabatlariga o‘tildi. Davlat organlarining yangi sharoitlarda samarali faoliyat yuritilishiga erishildi. Amalga oshirilgan ma’muriy islohotlar davlat boshqaruvi tizimi organlari tuzilmasini demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritishi ta’minlamoqda.

Ammo tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat xizmati faoliyatini tartibga soladigan hujjatlar bugungi kunning talab va vazifalariga javob bermayapti. Xususan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi, yagona kadrlar siyosatining yo‘qligi, davlat xizmatchilarining ijtimoiy va huquqiy himoyasi ular tomonidan bajarilayotgan vazifalarga mos emasligi davlat xizmatchilari ish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayapti.

Bundan tashqari, huquqiy asoslar ”Elektron hukumat” tizimining jadal rivojlanishidan, davlat xizmatlari va ma’muriy tartib-taomillarining taraqqiyotidan ortda qolmoqda. Amaldagi qonun hujjatlarida davlat hokimiyati organlari xodimlari maqomini belgilashda bir qator tushunchalar qo‘llaniladi, lekin ular bir-biridan farq qiladi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 3-iyuldaggi qarorida ko‘rsatilgan davlat xizmatchilari lavozimi ro‘yxatiga vazirlik va idoralar, hokimliklar hamda prokuratura organlari xodimlarining qator lavozimlar kiritilgan. Hukumatning 2016-

yil 2-martdagи "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari to‘g‘risida”gi qarorida esa davlat xizmatchisi deganda, faqatgina vazirlik idoralari va hokimliklar xodimlari tushunilishi qayd etilgan. Qonunchilikda ayni paytda ”ma‘muriy boshqaruva xodimlari” degan tushuncha ham qo‘llanilmoqda. U yuqorida qayd etilgan ro‘yxatga kiritilmagan qator tashkilotlarni ham o‘z ichiga oladi.

Qayd etilganlardan ma‘lum bo‘layaptiki, davr davlat xizmatlari sifatini oshirish, davlat xizmatchilarini faoliyatining ochiqligi va qonuniyligini ta‘minlash bo‘yicha vazifalarni hal qilishni kun taritibiga qo‘ymoqda. Bu vazifalar davlat xizmatchisi huquq va vakolatlarini aniq belgilab berishni taqozo etmoqda.

Shu sababdan ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz Konstitutsiyasining qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma‘ruzasida davlat xizmati intitutini isloh qilish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligini tubdan takomillashtirish, bu sohaga yangicha fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor kadrlarni jalb etish bo‘yicha samarali tizim yaratish zarurligini ta’kidlagan edi.

Shu sababli davlat xizmatini modernizatsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-yilning 3-yanvarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi Qonun qabul qilindi. Unda davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z xizmat majburiyatlari bajarilishining samaradorligi mezonlarini joriy etish, davlat xizmatini o‘tashda shaffoflik tartibini o‘rnatish, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo‘yicha saralash hamda xizmatda ko‘tarilish tizimini joriy etish davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyani oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilangan.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish yo‘nalishida 17 ta qonunni ishlab chiqish va qabul qilish ko‘zda tutilgan. Birgina shu yilning o‘zida O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar konsepsiysi, «Davlat boshqaruvi asoslari to‘g‘risida»gi, «Ma‘muriy tartib taomillar to‘g‘risida»gi «Davlat va xususiy

sheriklik to‘g‘risida»gi «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonunlar loyihalari ishlab chiqilishi belgilangan.

Bularning barchasi davlat xizmatchilari ish faoliyati samaradorligini oshirish, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan «Xalq davlat idoralariiga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan tamoyilni amalda qaror toptirishga xizmat qiladi.

II-ustuvor yo‘nalish: Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish. Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi tasdiqlanadi.

Davlat dasturining ikkinchi yo‘nalishida qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Xususan, sud hokimiyatining chinakam-mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiliginı takomillashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash, yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish kabi dolzarb vazifalarning amalga oshirilishi bugungi kunimiz va istiqbolimiz uchun nihoyatda zarur chora-tadbirlarini nazarda tutadi.

Harakatlar strategiyasida sudning mustaqilligi va beg‘arazligi, sud protsessi tomonlarining tortishuvi va teng huquqligi tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish, shuningdek, “Xabeas korpus” institutini qo‘llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish bo‘yicha muayyan amaliy chora-tadbirlar belgilangani juda muhim. Zero, mazkur institutning amaliyatga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta’minlashi kerak bo‘lgan Oliy sud kengashining tuzish, professional sudyalar korpusini shakllantirish,

sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejashtirilmoqda.

Ma'muriy sudsizlarni, xo'jalik sudsizlari tizimida mintaqaviy apellyatsiya sudsizlarni tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sudsizlarni kelgusida-ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Sansalarlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sudsizlarni tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudsizlarning kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiylarining vakolatlarini kengaytirish rejashtirilmoqda.

Ushbu yo'naliish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazarat organlari,-davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari-rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi murojaatlarning, xabarlarning o'z vaqtida olinishini ta'minlash nazarda tutilmoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, ushbu yo'naliish 2018-2021 yillarda protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazarat organlari xodimlarini o'qitish, tanlash va joy-joyiga qo'yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqtivaqti bilan uning natijalarini e'lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notariat tizimini va FHDYO organlarini isloq qilishni ham o'z ichiga oladi.

III-ustuvor yo'naliish: "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish".

Ushbu yo'naliishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun

milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy budgetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy - jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchilagini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal - rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek ushbu yo'naliш xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

2017 - 2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejelashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab - chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

IV - ustuvor yo'naliш: Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.

“Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to'rtinchi yo'naliш aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash

hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha qariyb 25 mingta investitsiya loyihasini ro‘yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o‘rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta’minlash dasturlarini to‘liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo‘lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o‘rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta’lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda.

Katta yoshli avlodni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini - takomillashtirish, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. Jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta’minlash rejalashtirilmoqda.

Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy-joy, 415 kilometrlik suv ta’minoti - quvurlari, 316 kilometrlik gaz ta’minoti quvurlari va 291 kilometrlik ichki yo‘llar qurish rejalashtirilgan. Aholiga transport xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida 86 ta yangi avtobus yo‘nalishini joriy etish va 537 ta zamonaviy avtobus xarid qilish nazarda tutilmoqda.

V - ustuvor yo‘nalish. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqr o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar. 5.1. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o‘z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etish;

fuqarolik, millatlar va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Qurolli

Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga zarar yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

5.2. Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘sningchilik muhitini shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jaxon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborot yetkazish;

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat chegarasini demilitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

“Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlangan beshinchi yo‘nalish doirasida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, xorijiy hamkorlar bilan siyosiy-diplomatik sohadagi

hamkorlikni rivojlantirishga doir “Yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish, O‘zbekistonning xorijiy hamkorlar bilan 2017-yilga mo‘ljallangan savdo-iqtisodiy, investisiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlantirish va kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Davlat dasturining yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlarini amalga oshirishga 37,7 trillion so‘m va 8,3 milliard AQSH dollari yo‘naltiriladi.

Kelgusi besh yilda mamlakatni rivojlantirishning strategik va ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida Farmon asosida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Milliy komissiya tuzilmoqda.

Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish Harakatlar strategiyasi beshta yo‘nalishining har biri bo‘yicha tuzilgan komissiyalar zimmasiga yuklatilgan.

Ushbu komissiyalar zimmasiga nafaqat yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish, balki 2018 - 2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihibarini tayyorlash ham yuklatilmoqda.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizasiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash yo‘lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag‘ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston xalqaro hamkorlik va hamjihatlik yo‘llarida katta yutuqlarga erishdi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko‘tarildi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili ilgari surilgan.

Xususan, agar Harakatlar strategiyasida **5 ta ustuvor yo‘nalish belgilab olingan bo‘lsa, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yettita ustuvor yo‘nalish nazarda tutilgan.**

Harakatlar strategiyasini ijro nazarda etish uchun 300 dan ortiq qonun va kodeks, Prezidentimizning 4 mingdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilingan. Shu tariqa Harakatlar strategiyasi yakuniga kelib, Yangi O‘zbekiston poydevorining huquqiy asoslari yaratildi.

Kelgusida Taraqqiyot strategiyasi doirasida bir qator konsepsiya va dasturlar, 13 ta kodeks, 12 ta qonun, ya’ni har bir ustuvor yo‘nalishda zarur qonun hujjatlari qabul qilinishi ko‘zda tutilgan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ma’no-mohiyati haqida so‘z borganda, uning quyidagi uchta darajada namoyon bo‘ladigan tarixiy ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim:

- ***birinchidan*** Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining milliy darajadagi ahamiyati. Yangi O‘zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Ya’ni “Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri - oliy qadriyat”, degan tamoyil e’tirof etilmoqda.
- ***ikkinchidan*** Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mintaqaviy darajadagi ahamiyati. Taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarda Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida yaqin qardoshlikni qadrlash, qo‘shti mamlakatlar bilan manfaatli hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga erishish bo‘yicha muhim vazifalarga alohida e’tibor qaratilgan.
- ***uchinchidan*** Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining xalqaro (global) darajadagi ahamiyati. Taraqqiyot strategiyasida BMT organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlarda faoliyatni kuchaytirish, xususan, iqlim, ekologiya, terrorizm, korrupsiya, migratsiya, kambag‘allik kabi global muammolarni hal etish borasida xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish haqida so‘z borgan.

Taraqqiyot strategiyasining ahamiyati shundaki, uning ishlab chiqilishida mavjud muammolar e'tiborga olindi, yechimini kutayotgan dolzarb vazifalar aks ettirildi. Eng muhim, hujjatning ishlab chiqilishida xalqimiz faol ishtirok etdi. Tom ma'noda, xalqimiz hammuallifligida ishlab chiqildi, deyish mumkin.

Strategiyada “Inson qadri uchun” degan tamoyilni hayotda to‘la ro‘yobga chiqarish vazifasi yaqqol aks etgan.

Shu jihatlar e’tiborga olinib, Taraqqiyot strategiyasida **7 ta ustuvor yo‘nalish** bo‘yicha “Inson qadri uchun 100 ta maqsad” belgilab olindi. Jumladan: Birinchi yo‘nalish; inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun joriy yilning o‘zida umumiyligi qiymati 55 trillion so‘m va 11,7 milliard dollarlik 398 ta chora-tadbirni amalga oshirish ko‘zda tutilmoxda.

1. Strategyaning birinchi yo‘nalishida 12 ta maqsad, 42 ta topshiriq mavjud bo‘lib, inson qadrini yuksaltirish va xalqparvar davlat barpo etish yo‘nalishidagi vazifalar, bular:

- mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish;
- xalq bilan muloqot mexanizmlarini takomillashtirish;

- “Obod qishloq”, “Obod mahalla” va boshqa hududiy dasturlarni jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqish;

- davlat organlarini “mahallabay” ishlash tizimiga o‘tkazish;

- elektron davlat xizmatlarining ulushini amaldagi 54 foizdan 90 foizga yetkazish.

- jamoatchilik fikrini muntazam va ilmiy asoslangan holda tizimli o‘rganish. “Ijtimoiy fikr” markazi takomillashtirilib, alohida Sotsiologiya instituti tashkil etiladi.

Birinchi yo‘nalishdagi birinchi maqsad mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish vazifasi. Bu borada, avvalo, mahallaning faol modeli yaratiladi.

Ikkinchi maqsad - Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo‘g‘inga aylantirish vazifasi. Olti milliondan ortiq ish o‘rinlari yaratish. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, mahalliy budgetlarni shakllantirish va nazorat qilish yuzasidan Kengashlarni asosiy bo‘g‘inga aylantirish bo‘yicha ishlar tashkil etiladi. Senat qo‘mitalari bilan mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari faoliyati muvofiqlashtiriladi.

Uchinchi maqsad - mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish ham davr talabidir. Mahalliy hokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish, hokimlar saylovining huquqiy asoslarini yaratish, hududlarda ijro organlari shtat birligi va tuzilmalarini belgilash amaliyotini kengaytirish, “vakolatlar reyestri”ni shakllantirish, axborot-texnologiyalarni keng joriy qilish, 40 dan ortiq geoportallarni ishga tushirish bilan bog‘liq muhim choratadbirlar o‘z ifodasini topgan.

To‘rtinchi maqsad - davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “fuqaroga xizmat qilish” tamoyili asosida transformatsiya qilish borasida davlat boshqaruvi tizimi

qayta ko‘rib chiqiladi, ya’ni tashkil etish va tugatish tartiblari, mezonlarini nazarda tutuvchi huquqiy mexanizmlar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, davlat boshqaruvi organlarining shtatlar birliklarini oshirishga cheklovlar o‘rnatish hamda kadrlar va moddiy resurslardan foydalanish mezonlarini belgilash nazarda tutilgan.

Beshinchi maqsad - Vazirlik va idoralarga o‘z vakolatiga kiramidan masalalarni hal qilishda ularga ko‘proq mustaqillik berish, shu bilan birga, ularning ijro intizomini kuchaytirish orqali, ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish ko‘zda tutilgan.

Oltinchi maqsad - Davlat boshqaruvi tizimida ma’muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirishni nazarda tutuvchi samarali boshqaruv tizimini shakllantirish. Ushbu maqsadga erishish borasida ayrim davlat funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazishni 3 barobarga oshirish, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish va ochiqligini ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Yettinchi maqsad – Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada oshirish. Bu borada ichki va tashqi siyosatga oid muhim vazifalarni hal etishda vakolatlarini kengaytirish, qonunlarning so‘zsiz ijro etilishida parlament nazorati institutidan foydalanishni kuchaytirish, qonun ijodkorligi va parlament nazoratida keng jamoatchilik bilan bamaslahat ish olib borish belgilangan.

Sakkizinchi maqsad Bu borada norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunlarning qat’iy ijrosini ta’minlash, deb belgilangan O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligin rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqiladi.

To‘qqizinchi maqsad doirasida “Yelektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyanı bartaraf etish maqsad doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish borasidagi ishlar yanada jadallashtiriladi,

Ikkinchi yo‘nalish; O‘zbekistonda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo‘nalishidagi eng asosiy

vazifa – mamlakatimizning dunyodagi qonun ustuvorligi indeksi yuqori darajada bo‘lgan davlatlar qatoridan joy olishga erishishdan iborat. Mulk huquqini ishonchli himoya qilish, ma’muriy sudlar vakolatlarini kengaytirish orqali fuqaro va tadbirkorlar huquq va erkinliklarini kafolatli ta’minlash bo‘yicha yangi tizim yaratish zarur.

Yo‘nalishining 15-maqсади “Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish” deb nomlanib, unda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Ma’muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tizimini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo‘llash sohasini kengaytirish.

“Xabeas korpus” institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish.

Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro‘yobga chiqarish.

Sudlar tizimida “yagona darcha” tamoyilini keng joriy etish.

Sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g‘ov va to‘siqlarni bartaraf etish.

Nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish, yarashuv institutini qo‘llash doirasini yanada kengaytirish.

Sudyalar korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, sud tizimidagi rahbarlik lavozimlariga tayinlashda saylanish va hisobdorlik kabi demokratik tamoyillarni joriy etish.

Xalqparvar davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, Qonunga hurmat va amal qilish hissini shakllantirish – bog‘cha va maktabdan tortib oliygohgacha, barcha ta’lim muassasalarining, har bir oilaning birinchi navbatdagi vazifasi bo‘lishi darkor.

3. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash yo'nalishida ham kelgusi besh yilda iqtisodiyotni rivojlantirishni nazarda tutuvchi 16 ta maqsad belgilangan.

Ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi natijasida, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratiladi.

4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishida belgilangan vazifalar - maktab ta'limi sifatini oshirish, kelgusi besh yilda maktablarda qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish hamda darsliklarni yangilash, barcha hududlarda maktabgacha ta'limning qamrov darajasini 67 foizdan 80 foizga yetkazish, kamida 10 ta oliygohning nufuzli xalqaro reytinglarga kirishini ta'minlash, xususiy sheriklik asosida 100 ming o'rini talabalar turar joylarini barpo etish, budgetdan dori vositalari va tibbiy buyumlarga ajratiladigan mablag'larni 3 baravarga oshirish, birlamchi tibbiyot xizmatlari sifatini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, raqamli tibbiyotni keng joriy qilish.

5. Strategiyaning ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yo'nalishi bo'yicha quyidagi vazifalarning ahamiyatini alohida qayd etish zarur:

- mavjud 12 mingdan ziyod kutubxona imkoniyatlaridan samarali foydalanib, kitobxonlikni ommalashtirish;
- jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 33 foizga yetkazish;
- mamlakatimizda Olimpiya va Paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “**Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir**” deb, Yangi O'zbekistonni barpo etishda ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga

asoslangan kuchli iqtisodiyot bo‘lsa, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Mazkur yo‘nalishda ma’naviyatning yangi bosqichi “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minalash ko‘nikmasini shakllantirish, “Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minalash. Jumladan, O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish, Tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish.

6. Taraqqiyot strategiyasining milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish nomli oltinchi yo‘nalishi iqlim o‘zgarishlari, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi, narkotrafik kabi umumbashariy muammolarga yechim topish yuzasidan dolzarb vazifalarni o‘z ichiga olgan. Bu yo‘nalishda 10 ta maqsad mavjud bo‘lib mehnat migratsiyasini tizimli tashkil etish, fuqarolarga chet tillari va kasbhunarlarini o‘rgatish, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni kengaytirish muhimdir.

7. Taraqqiyot strategiyasidagi O‘zbekiston xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish yo‘nalishidagi muhim vazifa – Vatanimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borishdan iborat.

Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi ijrosini tashkil etish bo‘yicha ham qator topshiriqlar belgilangan. Jumladan, Qoraqalpog‘iston va Xorazmda 1-4-sinf o‘quvchilarini bepul nonushta yoki tushlik bilan ta’minalash, respublikadagi ichki yo‘llar masalasi, irrigatsiya-melioratsiya tadbirlariga doir vazifalar ko‘rsatib o‘tildi.

Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tuzildi.

Respublika komissiyasi dasturdagi tadbirlar to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha har oyda vazirlik, idora va hudud rahbarlarining hisobotini eshitib, ularning faoliyatiga tanqidiy baho berib boradi, har chorakda amalga oshirilgan ishlar natijasi, bu borada rahbarlarning javobgarligi bo‘yicha Prezidentga axborot berib boradi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. “O‘zbek modeli” deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat mulkini “kichik xususiylashtirish” jarayonini tushuntirib bering?
3. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonning iqtisodiyotida qanday jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi?
4. O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘ligi qanday o‘rinni egallaydi?
5. Mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish deganda nimani tushunasiz?
6. Ma‘naviy qadriyatlarni tiklash yo‘lidaamalga oshirilgan tadbirlar haqida so‘zlab bering.
7. Diniy qadriyatlarimizga berilayotgan e‘tibor nimalarda ifodasini topdi?
8. Din va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qiling.
9. Milliy istiqlol mafkurasining vazifalari nima deb o‘ylaysiz?
10. Milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini tushuntiring.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni qachon qabul qilindi?
12. Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O‘zbekiston, 2004
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqимиз билан бирга курамиз. – Т.: О‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizни qat’iyat билан давом ettirib, янги босқичга ко‘тарамиз. Т. 1. – Т.: O‘zbekiston, 2017.

4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O‘zbekiston, 2004, Asarlar, 13 jild.
5. Yusupov E. Istiqlol yo’lida.T.: Fan, 1996.
6. Usmonov Q. O‘zbekiston mustaqillik odimlari. T., 1994.
7. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo’lishi. T.: O‘zbekiston, 1992.
8. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor uo’nalishi bo’yicha Harakatlar stragiysi. – T.: Ma’naviyat, 2017.
9. Usmonov Q., Abdug’aniyev A. O‘zbekiston -siyosiy va huquqiy islohatlar sari. T.: O‘zbekiston, 1996.
10. O‘zbekiston tarixi. Prof. R.H. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida.- T.:
11. Q.Usmonov, M.Sodiqov,S.Burxonova. O‘zbekiston tarixi. Darslik, T.: Iqtisod-moliya, 2006.
12. Eshov B., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. T.: ”Yangi asr avlodii”, 2014.
13. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Mualliflar jamoasi. YU.Ergashevaning umumiy tahriri ostida. Qarshi, Intellekt, 2022.

## **16-MAVZU. O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI. O‘ZBEKISTONNING TINCHLIKSEVAR TASHQI SIYOSATI VA UNING JAHON HAMJAMIYATI TOMONIDAN TAN OLISHI.**

### **Reja:**

1. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi. O‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni.
2. O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari.

O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi. O‘zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSh, Xitoy mamlakatlarining o‘rni. O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida olib borgan siyosati.

3. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasining faolligi. O‘zbekistonning ShHT bilan aloqalari. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi.

4. O‘zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi. O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida olib borgan siyosati. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

**Tayanch tushunchalar:** BMT, Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiyatsiyasi, Qochoqlar ishi bo‘yicha oliy qo‘mitasi, Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg‘armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti, Butunjahon Sog‘lijni saqlash tashkiloti (VOZ), BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YeEK), Savdo va rivojlanish bo‘yicha BMT konferensiyasi (YuNKTAD), Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (VOIS), Xalqaro Mehnat tashkiloti (MOT), Butunjahon Savdo tashkiloti (VTO), BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (YuNEP), OITS bilan kurashish bo‘yicha BMT dasturi, Parlamentlararo ittifoq.

1. Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi tufayli O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosati tarixida ham mutlaqo yangi davr boshlandi. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon jamiyatida o‘zigamunosib o‘rinni egallashga intilmoqda.

Bu jarayonni idrok qilish uchun, avvalo, XXI asr bo`sag`asida dunyoda qanday o`zgarishlar sodir bo`lganini, dunyoning qiyofasi qanday ekanligini bilish zarur.

Darhaqiqat, XXI asr bo`sag`asida jahon taraqqiyotining mazmuni tubdan o`zgardi. Ilgari mafkuraviy jihatdan bir-biriga zid, sobiq SSSR va AQSh yetakchiligidagi sotsialistik va kapitalistik tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok (ya`ni NATO va Varshava shartnomasi) mavjud bo`lib, dunyo xavfsizligi ular orasidagi o`zaro muholiflik muvozanatiga asoslangan edi. Sobiq SSSRning parchalanishi, sotsialistik tuzumning halokatga uchrashi, Varshava shartnomasining tarqalib ketishi, yangi mustaqil davlatlarni paydo bo`lishi natijasida yangi g`oyat murakkab va qaltis bir davr keldi.

Dunyoning qaltis, tahlikali ekanligini Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida tahlil qilib berilgan. Dunyoning taxlikali ekanligidan dalolat beruvchi quyidagi omillar mavjud: Birinchidan, davlatlararo munosabatlar tizimida muvozanat buzildi. Dunyoda siyosiy, iqtisodiy bo`linish ro`y berdi. Ilgari kuchlar markazi ikki joyda bo`lsa (SSSR va AQSh), endi ko`pqtibli bo`lib qoldi va nazorat qilish qiyinlashdi. Ikkinchidan, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o`rtasida ijtimoiy-iqtisodiy notekislik va ziddiyatlar o`sdi. Uchinchidan, ko`pgina davlatlarda ijtimoiy osoyishtalikka qarshi xavf-xatarlar o`sib borayapti. Mulkiy tafovut kuchaydi, ishsizlik, qashshoqlik avj olmoqda. To`rtinchidan, bir qator mintaqalarda, hatto bir mamlakat fuqarolari o`rtasida milliy-etnik va diniy nizolar kelib chiqib, mojarolarga, qonli urushlarga aylanmoqda. Jumladan, O`zbekiston xavfsizligiga ham Afg`oniston va Tojikistondagi mojarolar tahdid solmoqda. Beshinchidan, umumiyligi mintaqaviy va milliy xavfsizlikka diniy ekstremizm va fundamentalizm ham tahdid qilmoqda. Oltinchidan, ayrim davlatlardagi muayyan siyosiy kuchlar tomonidan yuritilayotgan buyuk davlatchilik shovinizmi va aggressiv millatchilik siyosati ham mavjud. Yettinchidan, yalpi yadro urushi xavfi kamaygan bo`lsa-da, ekologik tanglik, biogenetik buzilishlar xavfi saqlanib qoldi

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallashida, uning geopolitik shart-sharoitlari qanday degan savol tug'iladi.

O'zbekiston geografik-siyosiy jihatdan ancha murakkab va shu bilan birga qulay ahvolda. Bu, birinchidan, respublikamiz Markaziy Osiyo mintaqasining transport, energetika va suv tizimlari markazida joylashgan. Ikkinchidan, aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa jihatlar bo'yicha qo'shnilaridan ma'lum darajada ustunligi bor. Uchinchidan, qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy mineral xom ashyo resurslariga ega. To'rtinchidan, respublika nafaqat o'zini-o'zi ta'minlaydigan, balki chetga chiqarishga neft, gaz, rangli metall va iqtisodiyotning boshqa asosiy tarmoqlariga ega. Beshinchidan, O'zbekistonning jahonga mashhur boy ma'naviy merosi bor, shu tufayli insoniyat tsivilizatsiyasida salmoqli o'rin egallab, nafaqat mintaqada, balki dunyoning ma'naviy va siyosiy jarayonlariga ta'sir o'tkazib kelgan.

Shu bilan birga, geopolitik jihatdan O'zbekistonga qiyinchiliklarni tug'diruvchi omillar ham mavjud. Bu, birinchidan, O'zbekiston geografik-strategik jihatidan qaraganda Markaziy Osiyoda suv resurslari tanqisligi, Orol ekologiyasi ta'siri kuchayganligidir. Ikkinchidan, bu mintaqada xavfsizlik tizimi yo'lga qo'yilmagan. Uchinchidan, musulmon dunyosidagi ba'zi kuchli davlatlarning bir-biriga mos kelmaydigan mafaatlari bizning mintaqamizda ham sodir bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bizning davlatimiz mintaqada xavf-xatarning bugungi kundagi ikki uchog'i - Afg'oniston va Tojikiston bilan chegaradosh. To'rtinchidan, mintaqada kommunikatsiyalar nomaqbul ravishda shakllantirilgani, uning tarmoqlari talabga javob bermasligi. Ayniqsa, O'zbekistonni bevosita dengizga chiqa olmasligi, uning iqtisodiy aloqalarini chegaralaydi.

O'zbekistonning geopolitik imkoniyatlarini inobatga olib, davlat rahbariyati milliy manfaatlarimizga mos keladigan puxta tashqi siyosat olib bormoqda.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: 1) mafkuraviy qarashlardan qat'ynazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni

saqlashga sodiqlik; 2) davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish; 3) boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; 4) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish; 5) kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; 6) inson huquqlarini va erkinliklarini hurmatlash; 7) ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalar va normalari ustuvorligi; 8) tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik; 9) davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; 10) davlatlararo aloqalarda teng huquqlik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; 11) tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'ptomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Ushbu tamoyillar asosida olib borilayotgan tashqi siyosat natijasida O'zbekistonning xalqaro munosabatlari tobora kuchayib, uning jahon siyosati maydonidagi o'rni va mavqeい mustahkamlanib borayapti. Hozir O'zbekistonni 165 davlat tan olgan, dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rnatilgan. O'zbekistonda 88 ta chet davlat elchixonasi va vakolatxonalari ro'yxatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot va 13 ta nohukumat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning jamiyatni demokratlashtirish hamda iqtisodiyotni liberallashtirish, o'z fuqarolari uchun yuksak darajadagi turmush sharoitlarini yaratish va ularning farovonligini oshirish yo'lidagi qadamlari jahon miqyosida yuqori bahoga sazovor bo'lmoqda. Ko'pgina xalqaro institutlar hamda tadqiqot tashkilotlarining reyting ma'lumotlari ana shundan dalolat beradi. Ular e'lon qilayotgan tadqiqot natijalariga ko'ra, mamlakatimiz borgan sayin yuqori o'rnlarga ko'tarilmoqdaki, bu dillarimizda faxr va daxldorlik tuyg'ularini uyg'otmasligi mumkin emas.

1992 yil 2 martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot - Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to'la teng huquqli a'zosi bo'ldi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimovning BMT

Bosh Assambleyasining 1993 yilda bo‘lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27 sentyabrda qilgan ma’ruzasi O‘zbekistonni jahonga ko‘hna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi.

1993 yil 24 oktyabrda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi. O‘zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining sa’y-harakatlari natijasida O‘zbekiston BMTning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiyatsiyasi, Qochoqlar ishi bo‘yicha oliy qo‘mitasi, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg‘armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalarga a’zo bo‘ldi.

Bugun O‘zbekiston izchil taraqqiy topayotgan davlat va jahon hamjamiyatining xalqaro munosabatlar tizimida muhim o‘rin tutayotgan teng huquqli a’zosidir. Uning keng miqyosli demokratik hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi tajribasi izchil rivojlanishning muvaffaqiyatli modeli sifatida xalqaro jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otayotgani holda, ko‘plab mamlakatlarning ekspertlari va siyosatchilari tomonidan atroflicha tadqiq qilinmoqda.

Bunga, ko‘p jihatdan, O‘zbekistonning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi faol hamkorligi ko‘maklashayapti. Ular mamlakatimizga xalqaro miqyosdagi dolzarb muammolarning hal etilishidagi muhim hamda vaqt sinovidan o‘tgan-sherik sifatida qarashmoqda.

Shu bilan birga, nufuzli xalqaro tuzilmalar respublikamizda ro‘y berayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga, davlat hamda jamiyat hayotidagi izchil islohotlar natijasida qo‘lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta’milanishi hamda ularning farovonligi yuksalishiga katta qiziqish bildirishayotir.

So‘nggi paytlarda O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti va erishgan muvaffaqiyatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va

hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi singari ko'p tomonlama institutlar hamda boshqa tashkilotlar doirasida alohida qiziqish bilan ko'rib chiqilayotgani ham tez-tez kuzatilmogda.

Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijalari haqidagi ma'lumotlar muntazam ravishda Bosh Assambleya yig'ilishlarining rasmiy hujjati sifatida qabul qilinmoqda. Mazkur hujjatlarda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlanishi, aholi farovonligining oshishi, sud-huquq tizimi islohotlari, ta'lim va sog'lijni saqlash, ekologiya, yoshlar siyosati, oziq-ovqat xavfsizligi, fuqarolik jamiyatni hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining shakllanishi va mustahkamlanishi singari sohalarda erishilayotgan natjalarning mazmun-mohiyati o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekistonning davlat va jamiyatni modernizatsiyalash bo'yicha e'tiborga molik tajribasi BMT tizimiga kiradigan xalqaro institatlarda ham alohida qiziqish uyg'otayapti. Ular orasida Jenevadagi BMT bo'limi, Butunjahon Sog'lijni saqlash tashkiloti (VOZ), BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YeEK), Savdo va rivojlanish bo'yicha BMT konferensiyasi (YuNKTAD), Butunjahon intellektual multk tashkiloti (VOIS), Xalqaro Mehnat tashkiloti (MOT), Butunjahon Savdo tashkiloti (VTO), BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (YuNEP), OITS bilan kurashish bo'yicha BMT dasturi, Parlamentlararo ittifoq hamda boshqa tashkilotlar mavjud. 2015 yil boshidan buyon O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlarining rivojlanishi, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha mamlakatimiz tajribasi, 2014 yilda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvorliklari haqidagi axborot materiallari BMT Bosh Assambleyasining rasmiy hujjati sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo mamlakatlar o'rtasida tarqatildi. Shuningdek, mazkur axborot materiallari Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining 57 ishtirokchi mamlakati, ushbu tashkilotning 11 hamkor davlati,

YeXHT institutlari hamda dala missiyalari va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Ijroiya qo'mitasi hamda MDHga a'zo mamlakatlar o'rtaida ham tarqatildi. Yuqoridagilardan tashqari, BMTning Nyu-York va Jeneva shaharlaridagi, YeXHTning Venadagi, MDHning Minskdagagi qarorgohlarida o'tkazilayotgan turli tadbirlar - brifing, taqdimot marosimlari va uchrashuvlar chog'ida ham yurtimizda kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan xalqaro hamjamiatning e'tibori va qiziqishi tobora o'sib borayotgani namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimizda inson huquqlari hamda manfaatlarini ta'minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda liberallashtirish jarayonlari xususidagi o'zgarishlar yuzasidan nufuzli davlatlararo tuzilmalarning rahbarlari va vakillari tomonidan bildirilgan ko'pdan-ko'p fikr-mulohazalar ham bu fikrni tasdiqlaydi.

“O'zbekiston xalqaro jarayonlarga tobora faolroq kirib bormoqda, global va mintaqaviy kun tartibini shakllantirishda dadil qatnashib, o'z salohiyatidan jahon hamjamiatining ko'p tomonlama tuzilmasi doirasida maqsadli foydalanishga kirishdi. Shunday yondashuv tufayli O'zbekistonning obro'si va nufuzi ortib bormoqda”.

Ushbu iqtibos “Political Events” haftalik tahliliy jurnali bosh muharriri Muhammad Ismoil Xonga tegishli bo'lib, O'zbekiston rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi yuzasidan aytilgan va mamlakatimizning keyingi to'rt yil ichida jahon hamjamiatida egallagan mavqeini ro'yirost ko'rsatib turibdi. Hindistonlik hamkasbimizning so'zlaridan anglashiladiki, bugun turli davlatlar rahbarlari hamda ekspertlar jamiyatining diqqat-e'tibori Prezident Shavkat Mirziyoyevning puxta o'ylangan tashqi siyosati, asosli tashabbuslari va izchil islohotlari tufayli bizning mamlakatimizga qaratilgan.

**Shu davrgacha BMT bosh minbarida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning barcha chiqishlari:**

1. 1993 yilda o'tgan BMT Bosh assambleyasining 48-sessiyasi ilk bor Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1993 yil Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohda nutq so'zlagandi. Unda mamlakat Markaziy Osiyonи yadro qurolidan xoli hududga aylantirish taklifini ilgari surgan. Buning amaliy natijasi o'laroq, 2009 yil 20 martda "Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish to'g'risida"gi shartnomaga kuchga kirdi. Aynan ushbu tashabbus keyinchalik Monterey xalqaro tadqiqotlar instituti huzuridagi yadro quroli tarqalishining oldini olish masalalarini o'rghanish markazi eksperti Tijey Bouz tomonidan alohida ta'kidlanib, o'z vaqtida bildirilgan oqilonaga tashabbus, deya baholangan.

2. 1995 yilda BMT tashkil etilganiga 50 yil to'lgani munosabati bilan sessiya tashkil etilgan. 1995 yilning oktyabr oyida tashkil etilgan mazkur yirik tadbirda Islom Karimov ishtirok etgan va nutq so'zlagan. Ana shunda mamlakat sobiq rahbari qo'shni Afg'oniston muammosiga konstruktiv yondashish kerakligini ta'kidlab, o'z fikrlarini bildirgandi.

3. 2000 yilda BMT Bosh Assambleyasining "Ming yillik sammiti"da Yangi mingyillikning ilk davrida tashkil etilgan maxsus yig'ilishda Islom Karimov xalqaro terrorizm va narkobiznes bilan bog'liq muammolarni hal etish; mintaqaviy xavfsizlik, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash; jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tizimini isloh qilishga taalluqli takliflar bilan chiqdi. Ushbu nutq ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi, oradan biroz muddat o'tib, ya'ni 11 sentyabr voqealari yuz bergenidan so'ng, O'zbekiston vakilining so'zlarida achchiq haqiqat borligi ayon bo'ldi.

4. 2010 yilda BMT Bosh assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida

Davlat rahbari mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni hamda izchil taraqqiyotni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari ustuvor vazifalardan ekanini alohida ta'kidladi. BMTning mazkur anjumanidan so'ng

mamlakatimizda 2011-2015 yillarda Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar kompleksi tasdiqlandi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi.

Ularni amalga oshirish doirasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari muntazam o‘tkazilmoqda. Xususan, ikkinchi shunday uchrashuv o‘tgan yili noyabr oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi. 2018 yil mart oyida poytaxtimizda Afg‘oniston bo‘yicha yuqori darajadagi xalqaro konferensiya muvaffaqiyatli tashkil etildi, uning yakunida afg‘onlararo tinchlik muzokaralarini boshlash bo‘yicha o‘ziga xos “yo‘l xaritasi”ga aylangan deklaratsiya qabul qilingan edi.

O‘sha yilning dekabr oyida esa BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Bugungi kunda BMTning Yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiyasi loyihasini tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Ushbu konvensianing dolzarbliji joriy yil avgust oyida o‘tgan “Yoshlar 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” Samarqand forumining xalqaro ishtirokchilari tomonidan yana bir bor qayd etildi.

Ikki yil avval tashkil etilgan Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik asosidagi Trast fondi amaliy faoliyat ko‘rsatmoqda. Qayd etish joizki, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan barcha tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 23 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida Vatanimiz tarixida birinchi marta o‘zbek tilida nutq so‘zladi. Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasi sessiyasi tarixda birinchi marta butunlay yangi formatda - koronavirus pandemiyasi tufayli onlayn muloqot rejimida

bo‘lib o‘tayotganliini qayd etdi. «Bunday global falokat sayyoramizda so‘nggi yuz yilda kuzatilmagan edi. Bu ofat butun insoniyatning zaif jihatlarini yaqqol ko‘rsatdi. Hozirgi tahlikali va murakkab vaziyat yer yuzidagi barcha davlatlar va xalqlar o‘zaro bog‘liq ekanini, o‘rtamizda muntazam muloqot, ishonch va yaqin hamkorlik o‘ta muhimligini isbotladi», - dedi u.

«Shu yo‘lda barchamiz hukumatlar, parlamentlar va fuqarolik jamiyatlarining o‘zaro sa’y-harakatlarini birlashtirish, umumiy mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash, xalqaro sheriklikni muvofiq holda rivojlantirish, Juhon sog‘liqi saqlash tashkilotining maqomi va salohiyatini oshirish, vakolatlarini kengaytirish lozimligini chuqr angladik. Maqsadimiz - har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta’minlaydigan adolatli global tizimni birgalikda yaratishdir», - deya ta’kidladi Prezident.

Shavkat Mirziyoyev BMT shafeligida Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatları to‘g‘risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqishni taklif etdi. Ushbu hujjatda har bir davlatning o‘z fuqarolari va xalqaro hamkorlari oldidagi majburiyatları aks etishi lozim. Shuningdek, Prezident tashkilot Bosh kotibi Antoniu Guterrishning inqirozli vaziyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan sammitni o‘tkazish bo‘yicha taklifini ma’qullashini ta’kidladi. Ushbu sessiyada Pandemiya davrida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, Yoshlar siyosati, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik, «Afg‘oniston - Markaziy Osiyoning ajralmas qismi», Global iqlim o‘zgarishi va Orol muammozi, Jahonda qashshoqlikka qarshi kurashish kabi bir qator muhim masalalar ham Yurtboshimiz tomonidan ta’kidlangan edi.

2. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) - davlatlararo tashkilot. 1991 yil 8 dekabrda Minskda Belorussiya, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqr tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo‘q bo‘lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iktisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini

bayon etdi. 1991 yil 21 dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston ko‘sildi, ular Belorussiya, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsad va qoidalari to‘g‘risidagi Deklaratsiyaga Olmaota shahrida imzo chekdilar. 1993 yil MDHga Gruziya qo‘sildi. 1993 yil MDH Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog‘lig‘i va atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo‘riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. MDH haqiqiy a’zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a’zolar bo‘lishi mumkin. MDHning quyidagi organlari tashkil qilingan: Davlat boshliqlari kengashi, Hukumat boshliqlari kengashi, Tashki ishlar vazirlari kengashi, Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita, markazi Sankt-Peterburgda bo‘lgan Parlamentlararo assambleya va boshqa MDHning doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan Muvofiqlashtiruvchi maslahat qo‘mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi 1 yilda kamida 2 marta o‘tkaziladi. MDH organlarining faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi.

MDH sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishining oldini oldi, mamlakatlarni bosqichma-bosqich xalqaro munosabatlar tizimiga kirib, mustaqilliklari, suverenitetini mustahkamlashga ko‘mak berdi. MDH o‘z faoliyati davomida haddan tashqari ko‘p qarorlar qabul qildi-yu, lekin aksariyat hollarda ularning ko‘pi bajarilmadi. Hozir MDHga kiruvchi davlatlarning aholisi 283 mln. kishini tashkil etadi. Bu aholining 120,5 mln. iqtisodiyotda mashg‘uldir. Ularning 29,4 foizi sanoat va qurilishda, 21,5 foizi qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik sohasida ishlaydi.

O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda MDHda ishtirok etmoqda. U MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil

davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida qaraydi. MDH hududida davlatlarning teng huquqligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi.

### **MDHning barcha a’zolari (alfavit bo‘yicha)**

 Armaniston

 Belarus

 Moldova

 Ozarbayjon

 Qirg'iziston

 Qozog'iston

 Rossiya

 Tojikiston

 Turkmaniston

 O'zbekiston

 Ukraina

Bugungi kunda O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jadal taraqqiy etib borayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy olmoqda. Bunga keyingi ikki yilda mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosati yanada o‘zgacha joziba va nufuz kasb etdi. Xalqaro miqyosdagi nufuzli ommaviy axborot vositalari O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar ko‘lami va qamrovi xususida so‘z yuritib, bu buyuk istiqbol sari bosilgan odim qadam ekanligini e’tirof etishmoqda.

Respublikamizning iqtisodiy rivojlanishi xususida to‘xtalib, shuni ta’kidlash joizki, mazkur tizimning taraqqiy etishi mamlakat aholisi ijtimoiy hayotining yaxshilanishiga mustahkam poydevor bo‘lmoqda.

Statistik raqamlarga yuzlanib, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish darajasiga baho bersak. O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish darjasи va shart-sharoitlari nisbatan yaqin va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tgan sobiq ittifoq davlatlari bilan iqtisodiy ko‘rsatkichlarni solishtirish respublikamizning qay darajada dunyo hamjamiatiga integratsiyalashayotganligini ko‘rish imkonini beradi.

XXI - asr boshlanishidan keyingi davrda MDH mamlakatlarining iqtisodiy o‘sish sur’atlari barcha davlatlar bo‘yicha barqaror ko‘rinishni kasb etmagan. Nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari uglevodorod resurslariga boy mamlakatlarda kuzatildi. Neft va gaz resurslari bo‘yicha katta salohiyatga ega mamlakatlar - Ozarbayjon, Qozog‘iston va Turkmaniston davlatlarining iqtisodiy o‘sish sur’atlari ayrim yillarda juda katta miqdorlarni, misol uchun, mos ravishda 126,4 foiz (2005y.), 113,5 foiz (2001y.) va 120,4 (2001y.) foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2000 yildan keyingi davrda mustaqil davlatlar hamdo‘stligidagi ayrim mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish sur’atlari salbiy ko‘rinishni ham kasb etdi. Tahlil etilayotgan davrda Rossiya, Ukraina, Moldova va Belorus mamlakatlarining iqtisodiy o‘sish sur’atlari 0.4 - 9.8 foizgacha kamaydi. Buning asosiy sababi, Rossiya mamlakatiga AQSh va Yevropa ittifoqi davlatlari tomonidan iqtisodiy embargoning joriy etilishidir. Qayd etilgan boshqa mamlakatlar iqtisodiy o‘sishida salbiy tendensianing kuzatilishi - mazkur davlatlarning Rossiya iqtisodiyoti bilan chuqr integratsiyalashganligidir.

Yuqorida ta’kidlangan mamlakatlardan farqli o‘laroq Ozarbayjonda ham iqtisodiy o‘sish sur’atlari 2016 yilda 3.1 foizga kamaygan. Biroq bu, jahon bozorida neft xom-ashyosi narxining pasayishi va uning ishlab chiqarish sur’atlariga aks ta’siri negizidadir.

2000 yildan keyingi davrda mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari ichida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy o‘sish sur’atlari birmuncha muqim va barqaror ko‘rinish kasb etdi. 2004 yildan to 2016 yilgacha 7-9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o‘sish sur’atlari kuzatildi. Bu mamlakatimizda tadbirkorlar uchun

qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilganligi, ichki va tashqi investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etilayotganligi, sanoat ishlab chiqarishini texnik va texnologik jihatdan yangilash va qayta qurilayotganligi, boshqarishda xorijiy menejmentni joriy etilishi asosida - deb ta'kidlashimiz o'rinnidir. O'zbekiston Respublikasining 2010-2016 yillarda YaIMning fizik hajm indeksi o'zgarishi MDH mamlakatlari ichida Turkmaniston Respublikasidan (175 foiz) keyin 159 foizlik natija bilan ikkinchi o'rinni egalladi. Oxirgi yetti yillik davrda Tojikiston YaIMning fizik hajm indeksi o'zgarishi - 150 foiz, Qirg'iston - 132 foiz va Qozog'iston - 127 foizni tashkil etdi. Tahlil etilayotgan davrda Rossiya va Belarus Respublikasi YaIMning fizik hajm indeksi o'zgarishi 103 foizga teng bo'ldi. Bu MDH mamlakatlari umumiy YaIMning fizik hajm indeksi o'zgarishi (110 foiz) natijasidan 7 foiz punktiga kamdir. Aytish joizki, Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyoti MDH mamlakatlari ichida juda ulkan salmoqqa ega. 2016 yil ma'lumotlari bo'yicha mustaqil davlatlar hamdo'stligidagi barcha mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti (valyutaning xarid pariteti bo'yicha hisoblangan) hajmida Rossiya Federatsiyasining ulushi - 70.7 foizga teng.

MDH mamlakatlari ichida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining (YaIMning VXP bo'yicha hisoblangan hajmi) salmog'i (3.6 foiz) bo'yicha Qozog'iston (8.8 foiz) va Ukrainadan (6.7 foiz) keyin to'rtinchchi o'rinni egalladi. Ta'kidlab o'tish joizki, 2016 yil ma'lumotlariga asosan O'zbekiston Respublikasi valyutaning xarid pariteti bo'yicha yalpi ichki mahsuloti hajmi - Qirg'iston YaIMdan 8.9 marta, Tojikistondan 8.1, Armanistondan 7.4, Turkmanistondan 2.0, Ozarbayjon va Belarus Respublikasidan 1.1 marta ulkandir. Biroq, respublikamiz - aholi soni va mamlakat territoriyasi bo'yicha mazkur davlatlardan ancha katta hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi MDH mamlakatlari ichida aholisi bo'yicha Rossiya (146.7 mln. kishi) va Ukrainadan (42.6 mln. kishi) keyin uchinchi, territoriyasi bo'yicha esa Rossiya (17125.2 ming km<sup>2</sup>), Qozog'iston (2724.9 ming km<sup>2</sup>),

Ukraina (577.5 ming km<sup>2</sup>) va Turkmanistondan (4912 ming km<sup>2</sup>), keyin beshinchil o‘rinni egallaydi.

2016 yilda O‘zbekiston Respublikasining aholi jon boshiga YaIM va valyutaning xarid pariteti bo‘yicha YaIM mos ravishda 2115 va 5952 AQSh dollarini tashkil etdi. Aytish joizki, mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha MDH davlatlari ichida mamlakatimiz natijalaridan baralla maqtana olmaymiz. Shuning uchun, bizning nazarimizda, istiqbolda mamlakatimizning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiy ettirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilarga qaratilishi lozim:

– iqtisodiy o‘sish sur’atlarini aholi soni o‘sishi va inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda oxirgi o’n yillikning o‘rtacha darajasidan kam bo‘lmagan ko‘rsatkichga olib chiqish;

– tashqi mehnat migratsiyasidagi mamlakatimiz aholisini (mehnat resurslarini) respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etish orqali iqtisodiy samaraga erishish;

– mamlakat maydonining cheklanganligi, suv va yer resurslarining tanqisligini nazarda tutib, ulardan oqilona foydalanish;

– qo‘shni respublikalar bilan ikki tomonlama manfaat topishga asoslangan shartnomalar asosida ish yuritish orqali o‘zaro integratsiyalashish;

– yaqin kelajakda aholi jon boshiga YaIM - iqtisodiy indikatori bo‘yicha daromadi o‘rtacha ko‘rsatkichga ega rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy egallash va hokazo.

O‘zbekistonning to‘qqizta banki «RIA Reyting» agentligi e’lon qilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining 200 ta yirik banki yillik reytingiga kirdi. Reyting ochiq manbalar - oshkor moliyaviy hisob-kitoblarga asoslanadi. MDH davlatlarida mavjud 1100 ta bankdan 10 ta mamlakat:

O‘zbekiston, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya (2009 yili MDHdan chiqib ketdi), Qozog‘iston, Moldova, Rossiya, Turkmaniston va Ukrainianing 200 ta yirik banki ushbu ro‘yxatga kirdi.

O‘zbekiston banklari o‘rtasida reytingdagi birinchi o‘rinni Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki (umumiyligi reytingdagi o‘rni - 43, 1 yanvar holatiga ko‘ra aktivlari - 5,3 mlrd dollar, ya’ni mamlakat bank tizimi kapitalining 22,8 foizi), ikkinchi o‘rinni O‘zsanoatqurilishbank (61, 3,23 mlrd dollar, 13,9 foiz), uchinchi o‘rinni «Asaka» banki (86, 2,17 mlrd, 9,3 foiz) egalladi.

To‘rtinchi o‘rinni «Qishloqqurilishbank» (122-o‘rin, 1,41 mlrd, 6,1 foiz), beshinchi o‘rinni «Ipoteka-bank» (126-o‘rin, 1,35 mlrd, 5,8 foiz), oltinchi o‘rinni Xalq banki (133-o‘rin, 1,23 mlrd, 5,3 foiz), yettinchi o‘rinni «Agrobank» (136-o‘rin, 1,18 mlrd, 5,1 foiz), sakkizinchi o‘rinni «KDB bank O‘zbekiston» (162-o‘rin, 870 mln, 3,8 foiz) va to‘qqizinchi o‘rinni «Hamkorbank» (191-o‘rin, 720 mln, 3,1 foiz) band etdi.

«RIA Reyting» ekspertlari bahosiga binoan, MDHdagi 200 ta yirik bankning jami aktivlari 1 yanvar holatiga ko‘ra 1,47 trln dollar bo‘ldi va bir yil oldingi TOP-200 aktivlaridan 355 mlrd dollar yoki 19,5 foiz kamdir.

3. 1996 yilda Shanxayda, 1997 yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston davlat rahbarlarining sammitlarida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to‘g‘risida shartnomalar imzolangan edi. Shu tariqa, «Shanxay forumi» yoki «Shanxay beshligi» tashkiloti tuzilgan edi. 2001 yil 14-15 iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo‘lib o‘tdi. Uning ishida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov qatnashdi va O‘zbekistonning “Shanxay forumi”ga to‘la huquqli a’zo bo‘lishi to‘g‘risida bayonot imzolandi. O‘zbekistonning “Shanxay forumi”ga kirishi munosabati bilan uning nomi Shanxay hamkorlik tashkiloti – ShHT, deb o‘zgartirildi.

«Shanxay hamkorlik tashkiloti tashkil etilganidan buyon o‘tgan davr mobaynida haqli ravishda nufuzli xalqaro tashkilotlar qatoridan munosib joy oldi, barqaror taraqqiyot, tinchlikni mustahkamlash, zamonaviy tahdid va xatarlarga

qarshi kurashish, mintaqaviy va global darajada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning ta'sirchan omiliga aylandi».

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so'zlagan nutqidan, 2016 yil, iyun. Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlarining uchrashuvlari nafaqat mintaqa, balki umumjahon miqyosida ham borgan sari muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqeа sifatida talqin etilmoqda. Bu, shubhasiz, mazkur tuzilmaning salohiyati hamda obro'-e'tibori tobora oshib borayotganidan dalolat beradi. Tez o'zgaruvchan umumbashariy vaziyatda, yangi tahdid va xavf-xatarlar yuzaga kelayotgan bir sharoitda oliv darajadagi muntazam muloqot xavfsizlikning o'ta muhim muammolari hamda xalqaro rivojlanish bo'yicha ShHT mamlakatlarining nuqtai nazarlarini muvofiqlashtirishga ko'maklashayapti.

ShHTning 2025 yilgacha rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha 2016 - 2020 yillarga mo'ljallangan harakatlar rejasi tashkilotning siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va xavfsizlik sohalaridagi hamkorligini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga zamin hozirladi. Shanxay xalqaro tadqiqotlar akademiyasi huzuridagi Markaziy Osiyo mamlakatlarini o'rghanish markazi direktori o'rribbosari Syan Syaoyunning e'tiroficha, 2015-2016 yillarda ham O'zbekiston ShHT rivojlanishini ilgari surish maqsadida keng ko'lamli ishlarni hayotga tatbiq etdi. ShHT faoliyati unga a'zo davlatlarning birgalikda gullab-yashnashi uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda, - dedi S. Syaoyun. Darhaqiqat, tashkilotning mas'uliyat hududi resurslarga o'ta boy hamda ulkan bozorga ega bo'lgan Yevropa va Osiyo qit'asini qamrab olgan. Shu boisdan uning savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish salohiyati nihoyatda kattadir. O'zbekistonning ShHTga raisligi davridagi sa'y-harakatlari tuzilma rivojlanishiga juda katta turtki berdi. Berlindagi Kaspiy mintaqasini o'rghanish markazi katta ilmiy xodimi Matias Dornfeldning aytishicha, O'zbekistonning ShHT doirasida ko'p qirrali aloqalarni mustahkamlashga bo'lgan intilishi uning raisligidagi ustuvorliklarda hamda

mamlakat rahbariyatining tegishli tashqi siyosiy tashabbuslarida o‘z ifodasini topdi. 2018 yilning iyun oyida Xitoyning Sindao shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotining 18-sammiti bo‘lib o‘tdi. Ekspertlar uni tarixiy va qator muhim tashabbuslar qo‘llab-quvvatlangani bois, hatto tashkilotning keyingi davrini belgilab berdi, deya ta’riflamoqdalar. Ana shu sammitda ShHTga a’zo davlatlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Vladimir Norovni ShHT Bosh kotibi lavozimiga tasdiqladilar. U 2019 yil 1 yanvardan o‘z lavozimiga rasman kirishdi. O‘z navbatida, qayd etish joizki, tashkilot o‘z ishida ochiqlik va uchinchi tomonga qarshi yo‘nalmaslik tamoyillariga tayanmoqda. Ishonch, tenglik, o‘zaro manfaat va maslahatlashuvlar, madaniyatlar xilma-xilligini hurmat qilish, hamkorlikda rivojlanishga intilishga asoslangan “Shanxay ruhi”ga sodiqlik qo‘shti va uzoq mintaqalar mamlakatlari, xalqaro va hududiy tashkilotlarning ShHT bilan hamkorlik qilishga qiziqishini oshirdi. XXRning raislik qilgan davrida o‘tkazilgan 160 dan ziyod tadbirlarning ijobiy samarasi o‘laroq hamjihatlik va yakdillik poydevori yanada mustahkamlandi.

Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha 2019-2021 yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi, Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik konsepsiysi, ShHTga a’zo mamlakatlarning kelgusi besh yilga mo‘ljallangan narkotiklarga qarshi strategiyasi, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarni suiiste’mol qilishning oldini olish bo‘yicha ShHT Konsepsiysi kabilardir. ShHTga a’zo davlatlar yetakchilarining Yoshlarga qo‘shma murojaati hamda Davlat rahbarlarining savdo tartib-taomillarini soddalashtirish to‘g‘risidagi bayonoti qabul qilindi.

ShHT kengayib borayotgan bir paytda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham Markaziy Osiyoda, ham ShHT makonida yaxshi qo‘shnichilik va hamjihatlikning yangi muhitini shakllantirishga qaratilgan eng muhim vazifalarni belgilab berdi. Ekspertlarning fikricha, O‘zbekiston tashabbuslari ShHTni yanada rivojlantirish, uning iqtisodiy va siyosiy salohiyatini oshirish, xalqaro ta’sirini

kuchaytirishda katta ahamiyatga ega. Sindao deklaratsiyasida ishtirokchi davlatlar BMT Bosh -Assambleysi 72-sessiyasida O‘zbekiston ilgari surgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini qo‘llab-quvvatladilar. Shuningdek, joriy yil mart oyida bo‘lib o‘tgan “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzuidagi Afg‘oniston bo‘yicha Toshkent konferensiyasi yakunlarini ushbu mamlakatda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish jarayoniga katta hissa qo‘shgan qadam sifatida olqishladilar. Bugungi kunda yoshlarni terrorchilik, ayirmachilik va ekstremistik guruhlarga jalb qilishga urinishlarga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyatning kuchlarini birlashtirish masalasi birinchi o‘ringa chiqmoqda. ShHT mamlakatlari yoshlari o‘rtasida radikal va buzg‘unchi g‘oyalar tarqalishiga qarshi o‘zaro uyg‘un, kechiktirib bo‘lmas choralar zarurligini anglab yetmoqda. A’zo mamlakatlar birgalikda ishlash fikrida qat’iydirlar. Bu, xususan, Yoshlarga qo‘shma murojaat qoidalari ijrosi bo‘yicha Harakatlar dasturida ham aks etgan. Unda har tomonlama barkamol shaxsni, buzg‘unchi kuchlarga qarshi turish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlarni zamonaviy bilimlarni egallashga jalb qilish, millatlararo bag‘rikenglikni mustahkamlash, vatanparvarlik va hamjihatlik tuyg‘ularini uyg‘otish bo‘yicha vazifalar ko‘zda tutilgan. Dastur yoshlarni tadbirkorlik faoliyati va innovatsion loyihalarga jalb qilish, ilmiy-texnikaviy tajriba almashuvlar hamda birgalikdagi tadqiqotlarni faollashtirish, xalqaro terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi birgalikda kurashish uchun yoshlari tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan qo‘shma iqtisodiy va ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surishni nazarda tutadi.

Bunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ShHT Yoshlar kengashi mazkur dasturning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘la olishi haqidagi bayonoti amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shuni hisobga olish lozimki, XXR jamiat va davlatni raqamli tizimga o‘tkazish borasida dunyoning eng yetakchi davlatlaridan biridir. Xitoy tomonidan to‘plangan tajriba ushbu yo‘nalishni ShHTga a’zo boshqa mamlakatlarni

rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutishi mumkin. Ba’zi hisob-kitoblarga ko‘ra, XXR yalpi ichki mahsulotida axborot texnologiyalari sohasining ulushi 4,7 foizga teng. Dunyo bo‘yicha elektron savdolar tranzaksiyalari umumiy hajmining 40 foizi ushbu davlat hissasiga to‘g‘ri keladi. “The Boston Consulting Group” kompaniyasi ma’lumotlariga qaraganda, 2016 yilda xitoylik iste’molchilar internet orqali savdolarda 750 milliard dollarga yaqin pul sarflashgan. Yirik internet-kompaniyasi “Alibaba” Xitoy raqamli iqtisodiyotida shu paytgacha 31 million ish o‘rni yaratdi va 2035 yilga borib bu ko‘rsatkichni 122 millionga yetkazmoqchi. Hozir mazkur kompaniya ShHT hududida ham faol ish boshlagan: 2017 yilda ShHT mamlakatlaridan 20 million iste’molchi “AliExpress” orqali Xitoydan tovarlar sotib olgan.

“Alibaba” biznes-maktabi elektron tijorat sohasida mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha global dasturni ishga tushirdi. Undan ko‘zlangan maqsad talabalar va tadbirdorlarga raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini o‘rgatish orqali butun dunyoda elektron tijorat rivojini tezlashtirishdir. Besh yil ichida 1,2 million nafar kishini o‘qitish rejalashtirilmoqda. Hozirgi paytda ASEAN mamlakatlari talabalari ushbu dasturda qatnashmoqda. ShHT davlatlari oliy o‘quv yurtlari ham unga faol qo‘shilishlari lozim, deb o‘ylayman. Ahamiyatlisi, yoshlar uchun AKT sohasida qo‘shma loyihibar ishlab chiqish va kelishish ShHTga a’zo davlatlar rahbarlarining Yoshlarga qo‘shma murojaati qoidalari ijrosi bo‘yicha Harakatlar dasturidagi asosiy bandlar sanaladi.

Bugun xalqaro hamjamiyat, xususan, 3,2 milliard aholiga ega ShHT mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdek dolzarb masala qarshisida turibdi. BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, 1956 yilda 20 million nafar bo‘lgan Markaziy Osiyo aholisi hozirgi kunga kelib 70 million nafarga yetdi. 2050 yilga borib esa mazkur ko‘rsatkich 94 million nafarga chiqadi va bu mintaqani oziq-ovqat bilan ta’minlash muammosini, shubhasiz, yanada chuqurlashtiradi. Bu bozorni sifatli, xavf-siz va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmas choralar qabul qilishni taqozo etadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumot berishicha, 30 yildan so‘ng Yer yuzi aholisini boqish uchun hozirgidan ko‘ra 70 foiz ko‘proq oziq-ovqat kerak bo‘ladi. Bu esa innovatsion texnologiyalar joriy etish, jumladan, maxsus texnologik qishloq xo‘jaligi parklarini yaratish hisobiga agrar soha samaradorligini oshirishning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi uchun “yashil yo‘laklar” tashkil etish, ularni yetishtirish va qayta tayyorlashning klaster tizimini rivojlantirish g‘oyasi alohida e’tiborga sazovor. Bu taklif barcha tomonning manfaatlariga javob beradi, chunki qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ShHTga a’zo davlatlar bozoriga eksportini kengaytirish ularning o‘zaro faol hamkorligi uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi. Barcha uchun manfaatli bunday rejalar ShHTga a’zo davlatlar yetakchilarining “Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi hamkorligi dasturi loyihasini ishlab chiqish to‘g‘risida”gi qarorini o‘z vaqtida qabul qilingan va dolzarb, deya baholash uchun to‘la asos bor.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yilning 10 noyabr kuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining videoanjuman shaklida o‘tgan navbatdagi majlisida ishtirok etdi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin raisligida o‘tgan yig‘ilishda, shuningdek, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xon, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vaziri Sadir Japarov, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi ishtirok etdilar. Bundan tashqari, sammit ishida ShHT huzuridagi kuzatuvchi davlatlar vakillari – Afg‘oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G‘ani, Mo‘g‘uliston Prezidenti Xaltmaagiyn Battulg‘a, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Hasan Ruhoniy, Belarus Respublikasi Bosh vaziri Roman Golovchenko hamda ShHT Bosh kotibi Vladimir Norov va ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Ijroiya qo‘mitasi direktori Jumaxon G‘iyosov qatnashdilar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish sammit ishtirokchilariga videomurojaat yo'lladi. Uchrashuv kun tartibiga muvofiq yangi global xatar va tahdidlarning kuchayishi sharoitida ShHT doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Tashkilotga a’zo va kuzatuvchi maqomidagi davlatlar delegatsiyalarining rahbarlari ustuvor yo‘nalishlarda ko‘p tomonlama munosabatlarning bugungi holatini tahlil qilib, ularni rivojlantirish istiqbollarini muhokama qildilar, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutq so‘zlar ekan, Shanxay hamkorlik tashkiloti o‘z taraqqiyotining prinsipial jihatdan yangi bosqichida turganini alohida ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari yaxshi qo‘sningchilik, teng huquqlilik, o‘zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish an’analarini asrash va ko‘paytirishga chaqirdi. “Umumiy qadriyatimiz, birgalikda rivojlanishga intilishimiz, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmatimiz ifodasi bo‘lgan ko‘p tomonlama hamkorlikning noyob tajribasi - “Shanxay ruhini” mustahkamlash bugun har qachongidan muhim” ekanini ta’kidladi.

O‘zaro qo‘llab-quvvatlash, Shanxay hamkorlik tashkiloti kun tartibidagi asosiy masalalarga birgalikda murosa izlash keng Yevroosiyo makonida xavfsizlik, barqaror taraqqiyotni ta’minlashning bosh sharti sifatida qayd etildi. “Har birimiz kuchli bo‘lsakkina ShHT ham kuchli bo‘ladi”.

Shu munosabat bilan, Prezidentimiz tomonidan Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan qator dolzarb tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, pandemiya salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida ShHTning savdo-iqtisodiy hamkorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va sanoat kooperatsiyasini rag‘batlantirish bo‘yicha uzoq muddatli hujjalarni qabul qilish orqali savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni kuchaytirish taklif etildi. Davlatimiz rahbari iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda axborot texnologiyalarining roli ortib borayotganini qayd etib, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va aholini

o‘qitishga qaratilgan ShHTning raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha dasturini ishlab chiqish taklifini ilgari surdi. O‘zbekiston rahbari kambag‘allikni qisqartirish masalalarida yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning dolzarb ahamiyatini alohida qayd etdi. Tashkilot doirasida mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari yig‘ilishlari mexanizmini yaratish va tegishli dasturiy hujjat tayyorlash taklif etildi. Kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha kelishilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida mamlakatimiz xalqaro forum o‘tkazishga tayyor ekani bildirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ShHTning Epidemiya tahdidlariga qarshi kurash bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarning kompleks rejasi tasdiqlanganini ma’qullab, xavfli infektion kasalliklarning tarqalishiga qarshi hamkorlikni yanada faollashtirish, yuqumli kasalliklar bo‘yicha tibbiyot muassasalari tarmog‘ini yaratish, Telemeditsina sohasidagi hamkorlik konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif etdi.

Davlatimiz rahbari yangi shakllar kasb etayotgan terrorizm, ekstremizm va narkobiznes tahdidlariga qarshi kurash masalalari Shanxay hamkorlik tashkiloti e’tibori markazida bo‘lishi lozimligini ta’kidladi. Bunga ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasini tashkilot makonida xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha prinsipial jihatdan yangi vazifalarni hal qilishga moslashtirish hamda vakolatli idoralar orasidagi muloqotlarni yanada ko‘paytirish xizmat qiladi. O‘zbekiston Prezidenti sammit ishtirokchilarini Afg‘onistondagi tinchlik jarayonlarini va ushbu mamlakatni mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarga jalb etishni qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi. Shu munosabat bilan “ShHT-Afg‘oniston” muloqot guruhi doirasida Afg‘onistonning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga ko‘maklashish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini tez fursatda qabul qilish taklif etildi. Afg‘onistonga uning Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lab turuvchi ko‘prik sifatidagi tarixiy rolini qaytarishga xizmat qiladigan transport yo‘laklarini barpo etish tashabbuslariga alohida e’tibor qaratildi. Shu va boshqa masalalar O‘zbekiston tashabbusi bilan 2021 yilning aprel oyida

Toshkent shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Xatar va imkoniyatlar" xalqaro konferensiyasining kun tartibiga kiritilishi mumkin. Kelgusi yilda Shanxay hamkorlik tashkiloti 20 yoshga to'ladi. Prezidentimiz ushbu muhim sana arafasida "ShHTning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi roli" xalqaro forumini o'tkazishni taklif etdi. Sammit yakunida ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining Moskva deklaratsiyasi qabul qilindi hamda tashkilot doirasidagi o'zaro manfaatli ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan hujjatlar to'plami imzolandi. O'zbekiston tashabbusi bilan sammitda ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining Raqamli iqtisodiyot sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bayonoti qabul qilindi.

4. O'zbekiston Respublikasining bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda faol tashqi siyosatining yangi bosqichiga ko'ratilib bormoqda. O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borgan siyosati, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqr o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqildi. Jumladan: xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasida:

1.1. Mamlakat mudofaa va xavfsizlik tizimini yanada takomillashtirish. O'zbekiston Respublikasida xavfsizlikni ta'minlash sohasida joriy yilning birinchi yarim yilligida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Qurolli Kuchlarni 2020-2025 yillarda rivojlantirish bo'yicha Kompleks dasturni tasdiqlovchi Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi.

Qo'shinlar tayyorgarligining intensivligi va sifatini kuchaytirish, jangovar va tezkor tayyorgarlik bo'yicha turli mashqlar o'tkazish hamda boshqa tadbirlarni amalga oshirish dasturlari tasdiqlandi.

Harbiy okruglar va harbiy ma'muriy sektorlar hamkorligida ishlab chiqilgan "Yo'l xaritalari" asosida dala o'quv maydonlari ob'ektlari xalqaro talablar asosida kapital ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi. Mamlakatning kiberxavfsizligini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“O‘zbekiston Respublikasida kiberxavsizlikni ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. (Davlat dasturining 243-bandı). Shuningdek, atom energiyasidan foydalanish xavfsizligi tizimini takomillashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

1.2. Chegara o‘tkazish punktlarida chegara va bojxona nazorati sifatini yaxshilash. Mintaqa mamlakatlari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish, o‘zaro qo‘snnichilik va savdo-sotiq aloqalarini mustahkamlash hamda chegaralarda xavfsizlikni ta’minlash maqsadida chegara o‘tkazish punktlarida chegara va bojxona nazorati sifatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi qabul qilindi. (Davlat dasturining 247-bandı)

Shu maqsadda “G‘ishtko‘prik”, “Oybek”, “Jartepa”, “Toshkent xalqaro aeroporti” va “Ayritom” chegara bojxona postlariga 5 ta “bodi-skaner” qurilmalari ajratildi.

Bundan tashqari, “Yallama” chegara bojxona postiga “Avtotransport vositalari davlat raqamini aniqlash tizimi” qurilmalari, postning kirish qismiga, radiatsion portal monitorlari (avto va piyoda), 5 ta komplekt rentgen apparati, 3 ta komplekt avto tarozi, 2 ta komplekt muqim metal izlagich, avtomatik to‘sinq (elektron shlagbaum 9 ta komplekt), 10 ta kompyuter hamda video kuzatuv tizimi o‘rnatildi.

Bundan tashqari, chegara oldi hududlarda joylashgan temir yo‘l bekatlari xavfsizligini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi qabul qilindi.

1.3. Mamlakatda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash sohasida ham bir qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatda “Jaholatga qarshi ma’rifat” degan g‘oya asosida Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik maqsadlariga xizmat qilishini hamda yurtimiz allomalari hayoti, ilmiy merosini dunyo hamjamiyatiga yetkazish maqsadida 2020 yilning 3-5 mart kunlari Samarqand shahrida Imom Abu Mansur Moturidiy shaxsi va aqidaviy qarashlari, moturidiylikning mafkuraviy asosi, ushbu ta’limotning bugungi kundagi

ahamiyati muhokamasiga bag‘ishlangan “Imom Moturidiy va moturidiya ta’limoti: o‘tmish va bugun” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi.

Ushbu tadbirda 15 ta davlatdan 55 nafar taniqli ulamolar, muftiyalar, moturidiyshunos ekspertlar, 100 nafar mahalliy olim va tadqiqotchilar qatnashdi. Konferensiya yalpi majlisida 11 ta, sho‘ba yig‘ilishlarida 32 ta ma’ruza tinglandi. Shu bilan birga, Imom Buxoriyning Samarqanddagi yodgorlik majmuasini yangi loyiha asosida qayta barpo etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining farmoyishi qabul qilindi.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi muslimon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, shuningdek, O‘zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Xalqaro diniy erkinlik bo‘yicha AQSh komissiyasi (USCIRF) O‘zbekistonni “Alovida xavotirga molik davlatlar” ro‘yxatidan chiqardi. Komissiya hisobotida O‘zbekiston tomonidan so‘ngi yillarda diniy sohada amalga oshirilgan o‘zgarishlar e’tirof etilib, ayniqsa «Jasliq» qamoqxonasining yopilgani alovida qayd etildi. Mamlakatda inson huquqlarini ta’minlash sohasida esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilindi. Hujjat bilan, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”, BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari xabarnomalari va qarorlarini ko‘rib chiqish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi davlat organlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

## II. Tashqi siyosat sohasida:

2.1. Xorijiy mamlakatlар bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish. 2020 yilning birinchi yarim yilligida O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy

faoliyatida ham bir qator samarali chora-tadbirlar va sa'y-harakatlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2020 yilning 19-20 fevral kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'anning taklifiga binoan, rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Tashrif doirasida ikki davlat rahbarlari o'rtasida tor doirada muzokara bo'lib o'tdi. Unda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va savdo-investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Shuningdek, Prezidentlar raisligida Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi natijalari to'g'risida qo'shma bayonot, shuningdek, iqtisodiyot, savdo, texnologiyalar sohasiga oid hujjatlar imzolandi. Bundan tashqari, 2020 yilning 23 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Sh.Mirziyoyev Ikkinci jahon urushida erishilgan g'alabaning 75 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan g'alaba paradida ishtirok etish uchun Rossiya Federatsiyasi poytaxti Moskva shahriga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida Prezident Sh.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putin bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuv davomida siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik va madaniy sohalarda birgalikda olib borilayotgan ishlarga to'xtalinilib, ushbu sohalarda bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlar ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, Prezident V.Putin o'zbek xalqining Ikkinci jahon urushidagi g'alabaga qo'shgan ulkan hissasini alohida ta'kidlab o'tdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qo'shnichilik aloqalarini hamda barcha sohalardagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish sohasida ham samarali sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan mintaqaviy hamkorlik doirasida turizmning har xil turlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlandi.

Qolaversa, joriy yilning birinchi yarim yilligida xorijiy mehmonlarning 10 ta qabuli amalga oshirildi. Pandemiya sharoitida 20 dan ortiq oliy darajadagi onlayn-muloqot tashkillashtirildi (Markaziy Osiyo mamlakatlari, Rossiya, Xitoy, Turkiya,

Koreya Respublikasi, Afg'oniston, Abu Dabi Amirligi, Eron davlatlari rahbarlari hamda Vengriya bosh vaziri, Yevropa Kengashi Prezidenti, Belarus Prezidenti bilan muloqotlar).

O'zbekiston manfaatlarini ilgari surishga qaratilgan 80 dan ortiq yuqori darajadagi hamda idoralararo tashrif va uchrashuvlar, onlayn-muloqotlar tashkillashtirildi. Ularda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, ko'p qirrali hamkorlik, avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiya, energetika, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalar, ta'lim va boshqa ustuvor yo'naliшlardagi hamkorlik masalalari muhokama etildi.

Mamlakat tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal qilishda parlament diplomatiyasining roli hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik kuchaytirildi. Hisobot davrida parlamentlar hamda xalqaro tashkilotlar darajasidagi jami 48 ta tashrif va uchrashuvlar, onlayn-muloqotlar tashkillashtirildi. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliши bo'yicha Harakatlar strategiyasi va tegishli Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida O'zbekiston hukumati rasmiylari va tashkilotlari delegatsiyalarining 48 ta xorijiy davlatga tashrifi tashkillashtirildi. Ular doirasida hamda O'zbekiston vakolatxonalarining kundalik faoliyati mobaynida tegishli savdo-sotiq, iqtisodiy idoralar rahbarlari va vakillari bilan 252 dan ziyod uchrashuv va maxsus ahamiyatga ega bo'lган sarmoyaviy tadbirlar, biznes-forumlar, O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati taqdimotlari uyushtirildi.

Shuningdek, vazirlik darajasidagi delegatsiyalarning 15 dan ortiq xorijiy davlatning iqtisodiy va savdo vazirlik hamda mutasaddi tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlari uyushtirildi.

Xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bugunga qadar 130 dan ortiq "Yo'l xaritasi" tasdiqlanib, amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligi, sanoat, kommunal xizmatlar, qurilish, tibbiyat, farmatsevtika, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda

635 ta investitsion loyiha bo'yicha 945,4 mln. AQSh dollari miqdorida sarmoyalar o'zlashtirildi.

Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash, uning mamlakatimiz hududida keng tarqalishini oldini olish hamda uning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida 57 ta loyiha asosida O'zbekistonga Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, XXR, Singapur, Ukraina kabi mamlakatlardan asbob-uskunalar keltirildi. Keltirilgan yuklar tarkibida yuqori texnologiyali tibbiyot jihozlari, zamonaviy shpritsli nasoslar, antiseptik vositalar, avtomat mexanizmli tibbiy karavot va ko'p funksiyali ko'rpalari, IVL apparati, tibbiy niqoblar, himoya xalatlari va himoya ko'zoynagi, dori-darmonlar hamda PSR diagnostika test tizimlari mavjud.

Shu bilan birga, 9 ta mamlakatga O'zbekistonning gumanitar yuklari yetkazildi (Ozarbayjon, Belarus, RF, XXR, Eron, Vengriya, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston). O'zbekistondan boshqa mamlakatlarga yuborilgan yuklar tibbiy vositalar va oziq-ovqat mahsulotlaridan iborat bo'lib, ularning orasida mobil tibbiy konteynerlar, himoya kombinezonlari, tibbiy niqoblar, tibbiy doka, ko'zoynaklar, suyuq natriy gipoxlorid, respirator, steril tibbiy qo'lqoplar, pirometrlar, hamda un, turli xil oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa mahsulotlar mavjud.

Xalqaro nufuzli reytinglarda mamlakatning o'rnini yaxshilash, uning xalqaro maydondagi imijini yuqori darajalarga ko'tarish hamda mamlakatni xorijiy investorlar uchun jozibador sarmoyaviy makonga aylantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

2.2. Nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni jadallashtirish.

Yevropa Ittifoqi bilan aloqalarni rivojlantirish va hamkorlikni yangi bosqichga olib

chiqish maqsadida Markaziy Osiyo bo‘yicha Yevropa Ittifoqining yangilangan Strategiyasini amalga oshirishda O‘zbekistonning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik shartnomasining savdo qismini muhokama qilish bo‘yicha navbatdagi muzokaralar davrasini tashkil etish masalasini tezlashtirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

2020 yilning 11 may kuni bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Senatining to‘rtinchi yalpi majlisida O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi davlat maqomida ishtirok etish taklifi maqullandi hamda mazkur masala bo‘yicha Senatning tegishli qarori qabul qilindi. Agarda O‘zbekiston Ittifoqqa kuzatuvchi sifatida qo‘silsa unda ittifoq organlari yig‘ilishlarida ishtirok etish va qabul qilingan qarorlar bilan tanishish huquqiga ega bo‘ladi. Ta’kidlash joizki ushbu tashkilot bilan hamkorlik tashqi savdo hajmining o‘sishi, mamlakatimizda yirik investitsiya loyihamarini amalga oshirish, hududiy klasterlar, sanoat va savdo zonalarini tashkil etishda mintaqalararo aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakat o‘z tarixida birinchi marta 2020 yilda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi raisligini qabul qildi. Ko‘p tomonlama hamkorlikni izchil kengaytirish va samaradorligini oshirish raislikning asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi.

Shu munosabat bilan, 12 may kuni O‘zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan videokonferensaloqa rejimida MDH ishtirokchi davlatlari Tashqi ishlar vazirlari kengashining majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisda transport, ta’lim, turizm, jismoniy tarbiya va sport sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar ko‘rib chiqildi va ma’qullandi.

2020 yilning 3 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasining Jenevadagi BMT vakolatxonasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakolatxonalar Juhon savdo tashkiloti (JST) vakillari bilan O‘zbekistonning ushbu tashkilotga kirish

masalalarini muhokama qilish uchun videokonferensiya o'tkazdi. Videokonferensiya chog'ida JST kotibiyati bilan o'zaro hamkorlik masalalari hamda O'zbekistonning JSTga kirishi bo'yicha ishchi guruhining navbatdagi yig'ilishiga tayyorgarlik jarayoni muhokama qilindi. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 28 maydagи «Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 339-sonli qarori qabul qilindi. Qaror bilan Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha Idoralararo komissiya tuzildi.

Mazkur komissiya O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiruvchi va yo'nalishlarni belgilaydigan kollegial organ hisoblanadi. Nizom bilan Idoralararo komissiyaning vazifalari va funksiyalari, tarkibi, faoliyatini tashkil etish va ishslash tartibi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari Sanoat xavfsizligi kengashining to'laqonli a'zosiga aylandi. MDH davlatlarining sanoat xavfsizligi kengashi tarmoqlararo hamkorlik organi bo'lib, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariya hamda baxtsiz hodisalarning oldini olish harakatlarini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi. O'zbekiston Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Haaga konferensiyasi Ustavini ratifikatsiya qildi. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Haaga konferensiyasi xalqaro hukumatlararo tashkilot bo'lib, 1893 yilda tashkil etilgan. Haaga konferensiyasiga a'zolik O'zbekistonda qabul qilinayotgan qonunlarni xalqaro qonunlarga unifikatsiya qilishga yordam beradi. Shuningdek, mamlakatning xalqaro maydondagi imijini yaxshilash, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston YuNESKOning Madaniy ifodalarning turli xil shakllarini muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi konvensiyasi ishtirokchisiga aylandi. Konvensiyaning asosiy maqsadi – madaniy o'zini ifodalashning turli xil shakllarini himoya qilish va rag'batlantirish, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni

mustahkamlash yo‘li bilan turli madaniyatlarning o‘zaro erkin aloqa qilishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

2.3. Davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishida nazarda tutilgan davlat chegarasini qo‘shti davlatlar bilan hamkorlikda muvaffaqiyatli delimitatsiya va demarkatsiya qilishda ham joriy yilning birinchi yarim yilligida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2020 yilning 7 yanvar kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi Qo‘shma demarkatsiya komissiyasining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda O‘zbekiston - Tojikiston davlat chegarasini demarkatsiya qilish uchun asos bo‘ladigan normativ-huquqiy va texnik hujjatlar tasdiqlandi.

17-21 fevral kunlari esa Olmaota shahrida Qo‘shma demarkatsiya komissiyasida O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi hukumatlari delegatsiyalarining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasining Navoiy viloyati va Qozog‘iston Respublikasining Qizilo‘rda va Turkiston viloyatlari chegaralari tutashgan uchastkada davlatlararo chegarani demarkatsiya qilishning yakuniy hujjatlari loyihalari tayyorlandi.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O‘zbekiston, 2004
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. T. 1. – T.: O‘zbekiston, 2017.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O‘zbekiston, 2004, Асарлар, 13 жилд.
5. Yusupov E. Istiqlol yo’lida.T.: Fan, 1996.

6. Usmonov Q. O‘zbekiston mustaqillik odimlari. T., 1994.
7. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo’lishi. T.: O‘zbekiston, 1992.
8. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: Ma’naviyat, 2017.
9. Usmonov Q., Abdug’aniyev A. O‘zbekiston -siyosiy va huquqiy islohatlar sari. T.: O‘zbekiston, 1996.
10. O‘zbekiston tarixi. Prof. R.H. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida.- T.:
11. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova. O‘zbekiston tarixi. Darslik, T.: Iqtisod-moliya, 2006.
12. Eshov B., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. T.: Yangi asr avlodi, 2014.
13. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Mualliflar jamoasi. YU.Ergashevaning umumiy tahriri ostida. Qarshi, Intellekt, 2022.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi qachondan BMTga a’zo bo’ldi va natijada respublika hududida qanday ishlar amalga oshirildi?
2. So‘nggi paytlarda O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti va erishgan muvaffaqiyatlarini qanday ifodalaysiz?
3. O‘zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning BMTdagi nutqlaridagi ilgari surgan masalalari nimalardan iborat edi?
4. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zlaganligi qanday baholaysiz?
5. ShHTda O‘zbekiston ishtiroki qanday ta’sir ko‘rsatgan?
6. O‘zbekiston Respublikasining bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda faol tashqi siyosatining yangi bosqichiga ko‘tarilib borayotganligini tununtirib bering.
7. O‘zbekistonda mavjud diniy tashkilot va diniy konfessiyalar to‘g‘risida qisqacha ma’lumot bering.

## **„O‘ZBEKISTON TARIXI“ FANIDAN TEST SAVOLLARI**

1. Arablar Movarounnahrga qilgan dastlabki yurishlarida nima maqsadni ko‘zlagan edilar?
  - A. Harbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rish va mahalliy hukmdorlarni sinash maqsadida
  - B. Xalifalik hududini kengaytirishni
  - C. Xurosonning xavfsizligini ta’minlash va Movarounnahrning boyliklarini qo‘lga kiritishni
  - D. Buyuk ipak yo‘lining barcha tarmoqlari ustidan o‘z nazoratini o‘rnatish maqsadida
2. Qo‘qon xonlaridan qaysi biri ayrim diniy arboblarni imtihon qilib, yolg‘onchiligi fosh qilinganlarini jazolagan, kambag‘al va qalandarlarga yer va chorva mollari berib, ularni mehnatga jalb etgan?
  - A. Xudoyorxon
  - B. Madalixon
  - C. Olimxon
  - D. Umarxon
3. O‘zbekistonda davlat boshlig‘i kim?
  - A. Senat raisi
  - B. Bosh vazir
  - C. Prezident
  - D. Spiker
4. XX asrning 20-yillarida sobiq SSSRda amalga oshirilgan yalpi sanoatlashtirish davrida bozorlarda don uzelishlari yuzaga kelib, narx-navo ko‘tarilib ketadi. Sovet hukumati bunday vaziyatdan chiqish uchun qanday favqulodda chorani qo‘llashga o‘tadi?

- A. Ittifoqning boshqa hududlaridan arzon narxlarda g‘alla keltirishga
- B. Paxta ekiladigan maydonlar hisobiga g‘alla ekiladigan maydonlarni kengaytirishga
- C. O‘ziga to‘q dehqonlardan g‘allani tortib olishga
- D. G‘alla yetishtirishga nisbatan davlat soliqlarini kamaytirishga
5. O‘zbekistonda paxta yetishtirish ko‘payganligi sababli sobiq SSSRda XX asrning qaysi yillariga kelib paxta mustaqilligiga erishildi?
- A. 30-yillarning o‘rtalarida
- B. 20-yillarning oxirida
- C. 30-yillarning boshida
- D. 40-yillarning boshida
6. Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiyning qanday asarlarini bilasiz?
- A. Ziji jadidi Ko’ragoniy
- B. Kitob aljabr va - al muqobala
- C. Osmon harakatlari haqida kitob
- D. Falak jadvallari
7. Rossiya imperiyasi tomonidan Markaziy Osiyoni bosib olish to‘rt bosqichga bo‘linadi. To‘rtinchi bosqichda ruslar qayerlarni bosib olganlar?
- A. Hozirgi Turkmaniston hududini
- B. Orol va Kaspiy dengizlari oralig‘ini
- C. Qo‘qon xonligi hududlarini
- D. Hozirgi Surxondaryo va Afg‘oniston hududlarini
8. Shayboniylar tomonidan ta’lim sohasida o‘tkazilgan islohotlarga nima sabab bo‘lgan edi?
- A. Aholini ilmga bo‘lgan ehtiyojini qondirish

- B. Ilm olishning farz amal bo‘lganligidan kelib chiqib, aholi o‘rtasida ilm-ma’rifatni keng tarqatish
- C. Mamlakatda amaldorlar tayyorlashni kuchaytirish va ularni davlat tayanchiga aylantirish
- D. To‘g‘ri javob yo‘q
9. Mil. avv. IX-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda davlatchilikning yuzaga kelishidagi muhim omillar nimalardan iborat edi?
- A. Sharq va G‘arb madaniyati tajribalarining uyg‘unlashuvi
- B. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning rivojlanishi natijasida ortiqcha mahsulotlarning paydo bo‘lishi
- C. Aholining urug‘ va qabila bo‘yicha emas, balki hududiy guruhlarga ajralishi
- D. Aholi sonining ma’lum hududlarda ortib borishi
10. Arablar Buxorodan katta o‘ljalar bilan qaytayotib yo‘l-yo‘lakay qaysi shaharni ham talaydi?
- A. Romitan shahrini
- B. Poykand shahrini
- C. Termiz shahrini
- D. Qarshi shahrini
11. XIX asrning ikkinchi yarmida quyidagi qaysi davlatda 40 ta beklik bo‘lgan?
- A. Qo‘qon xonligida
- B. Xiva xonligida
- C. Buxoro amirligida
- D. To‘g‘ri javob yo‘q
12. Mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi Xo‘jand shahri mudofaasini tashkil etgan xalq qahramoni kim edi?

- A. Mahmud Torobiy  
B. Temur Malik  
C. Jaloliddin Manguberdi  
D. Alouddin Muhammad
13. Chingizxonning o‘limidan keyin Movarounnahr qaysi ulus tarkibiga kirgan edi?
- A. Xulaguy  
B. Chig‘atoy  
C. Ko‘k O‘rda  
D. Oltin O‘rda
14. To‘xtamish qo‘s Shinlari Amir Temur tomonidan qachon va qayerda tor-mor keltirilgan?
- A. 1387 yilda Kavkazda  
B. 1390 yilda Volga bo‘yida  
C. 1395 yilda Terek daryosi bo‘yida  
D. 1398 yilda Amudaryo bo‘yida
15. Amir Temur dastlab o‘zining valiahdi etib qaysi shahzodani tayinlagan edi?
- A. Xalil Sultonni  
B. Pirmuhammadni  
C. Shohruh mirzoni  
D. Abulqosim Boburni
16. Mirzo Ulug‘bek qachon va qayerda tavallud topgan?
- A. 1395-yilda Keshda  
B. 1390-yilda Samarqandda  
C. 1394-yilda Sultoniyada  
D. 1397-yilda Shemaxada

17. Alisher Navoiyning “Xamsa”si nechta dostondan iborat?

- A. 5 ta
- B. 4 ta
- C. 3 ta
- D. 6 ta

18. Shayboniylar sulolasidan qaysi hukmdor davrida Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat tashkil topdi?

- A. Abdumo‘min davrida
- B. Ubaydullaxon davrida
- C. Abdullaxon II davrida
- D. Abu Said davrida

19. Buxoroda uzoq yillar hukmronlik qilgan mang‘itlar sulolasiga asos solgan hukmdorni aniqlang?

- A. Haydarbiy
- B. Muhammad Doniyolbiy
- C. Muhammad Rahimbiy
- D. Shohmurodbiy

20. Stalin davri qatag‘oniga uchrab qamoqqa olingan va otib tashlangan o‘zbek adiblari nomlari to‘g‘ri berilgan javobni toping?

- A. U. Nosir, Uyg‘un, M.S hayxzoda
- B. K.Yashin, Z. Fatxullin, A. Qodiriy
- C. Qahhor, H. Olimjon, Usmon Nosir
- D. A. Qodiriy, A. Cho‘lpon, A.Fitrat

21. Buxoro amirligining oxirgi amiri kim bo‘lgan?

- A. Amir Nasrulloxon
- B. Amir Muzaffarxon
- C. Amir Abdulahadxon
- D. Amir Said Olimxon

22. 1989-yil 21-oktyabrda Respublika Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan hujjatni aniqlang.

- A. «O‘zbekistonning davlat tili to‘g‘risida»gi qonun
- B. Mustaqillik Deklaratsiyasi
- C. «O‘zbekistonning davlat ramzlari to‘g‘risida» qaror
- D. Umumxalq referendumini o‘tkazish to‘g‘risida Farmon

23. “Osmon harakatlari haqida kitob” va “Yulduzlar haqidagi fan majmui” risolalarining muallifi kim?

- A. Al-Farobi
- B. Al-Xorazmiy
- C. Ahmad Farg‘oniy
- D. Qozizoda Rumiy

24. Abu Rayhon Beruniy tomonidan yozilgan kitob to‘g‘ri berilgan javobni belgilang?

- A. “Hindiston”, ”Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Mineralogiya”
- B. “Mineralogiya”, “Zubdat-at-tavorix”
- C. “Hindiston”, “Fozil odamlar shahri”
- D. “Tib qonunlari”, ”Saydana”, “Qonuni ma’sudiy”

25. Xorazmning yuksalishi uchun hissa qo‘shtigan Xorazmshohlardan kimlarni bilasiz?

- A. Anushtegin

- B. Alp Arslon
- C. Otsiz va Takash
- D. Sulton Sanjar

26. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 11-moddasiga binoan davlat hokimiyati qanday tarmoqlardan tashkil topgan?

- A. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati
- B. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ommaviy axborot vositalari
- C. Ijro etuvchi, sud hokimiyati, buyruq beruvchi
- D. Sud hokimiyati, ommaviy axborot vositalari, qonun chiqaruvchi

27. «O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliv davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatini amalga oshiradi». Ushbu maqom qaysi hujjatda berilgan?

- A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida
- B. «Oliy Majlis to‘g‘risida»gi qonunda
- C. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida»gi qonunda
- D. a va b javoblar to‘g‘ri

28. Hindistonda Boburiylar sulolasi nechanchi yildan boshlanadi?

- A. 1525-yildan
- B. 1526-yildan
- C. 1528-yildan
- D. 1530-yildan

29.Qo‘qon xonligiga qachon asos solingan?

- A. 1773-yilda
- B. 1760-yilda
- C. 1709-yilda

D. 1786-yilda

30. Ruslar Turkistonni bosib olganidan keyin Toshkentda Turkiston general-gubernatorligi qachon tashkil etilgan?

A. 1867-yilda

B. 1865-yilda

C. 1866-yilda

D. 1868-yilda

31. O‘zbekistonda Arab alifbosidan qachon lotin alifbosiga o‘tildi?

A. 1927-1928-yillarda

B. 1925-1927-yillarda

C. 1929-1930-yillarda

D. 1931-1932-yillarda

32. Xorazmshohlar davlatining bosh devoniga kim boshchilik qilgan?

A. Bek

B. Amir

C. SHayxullislom

D. Vazir

33. Turkiston Muxtoriyati jami necha kun yashagan?

A. 90 kun

B. 100 kun

C. 86 kun

D 72 kun

34. Ikkinci jahon urushi yillarida O‘zbekistonga kim rahbarlik qilgan?

A. Usmon Yusupov

- B. Sharof Rashidov
- C. Amin Niyozov
- D. Nuriddin Muhitdinov

35. Ma'lumki, Amir Temur o'z vasiyatida o'zidan keyin hokimiyatni Pirmuhammadga qoldirish haqida vasiyat qoldiradi. Biroq Amir Temurning vafotidan keyin Samarqandda hokimiyatni kim egallab oladi?

- A. Sulton Ahmad
- B. Sulton Abu Said
- C. Xalil Sulton
- D. Sulton Ali Mirzo

35. Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda hukmdorlik yillarida qaysi shaharlarda madrasalar barpo ettirdi?

- A. Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda
- B. Samarqand, Shahrizabz va Kattaqo'rg'onda
- C. Buxoro, Samarqand va Qo'qonda
- D. Samarqand, Kattaqo'rg'on va G'ijduvonda

36. Ashtarkoniylar davrida 1702-1711-yillarda hokimiyatni boshqargan Ubaydul-laxon tomonidan o'tkazilgan pul islohotidan ko'zlangan maqsad nima edi?

- A. Markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun
- B. Amalda bo'lган pul birligining qadrsizlanganligi sababli
- C. Rossiya bilan savdo aloqalarini rivojlantirish uchun
- D. To'g'ri javob yo'q

37.O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga oxirgi marotaba saylovlar qachon bo'lib o'tdi?

- A. 2018-yil 11 dekabr

B. 2016-yil 21 dekabrda

C. 2016-yil 4 dekabrda

D. 2021-yil 24-oktyabr

38. O‘zbekiston hududida topilgan ibtidoiy odamning eng qadimgi manzilgohi qaysi?

A. Teshiktosh

B. Omonqo‘ton

C. Obirahmat

D. Seleng‘ur

39. 1916-yilda rus mustamlakachilariga qarshi Jizzaxda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari kimlar edi?

A. Ishchilar

B. Hunarmandlar

C. Dehqonlar

D. Javoblarning barchasi to‘g‘ri

40. Turkiston jadidlarining otasi deya e’tirof etilgan ma’rifatparvar kim edi?

A. Behbudiy

B. Avloniy

C. Munavvarqori

D. Fitrat

41. Markaziy Osiyo hududida yashagan qadimgi odamlar qachon o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tganlar?

A. So‘nggi paleolit davriga kelib

B. Ilk paleolit davriga kelib

C. Mezolit davriga kelib

D. O‘rta paleolit davriga kelib

42. Ibtidoiy odamlar tomonidan Zarautsoy qoya toshlarida naqshlangan suratlarda qanday manzara aks ettirilgan?

- A. Ov manzarasi
- B. Tabiat manzarasi
- C. Jang manzarasi
- D. Dehqonchilik bilan bog‘liq manzara

43. Zardushtiylik e‘tiqodida ezgulik tangrisi qanday nomlangan ?

- A. Mitra
- B. Axriman
- C. Anaxita
- D. Axuramazda

44. Zardushtiylik e‘tiqodida yovuzlik tangrisi qanday nomlangan ?

- A. Mitra
- B. Anaxita
- C. Axriman
- D. Axuramazda

45. O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlaridagi diplomatik va boshqa vakillarini ishga tayinlash va ozod qilish vakolati qaysi organ ixtiyorida?

- A. Prezident taqdimotiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasining
- B. Prezident taqdimotiga ko‘ra Oliy Majlisning
- C. Prezident taqdimotiga ko‘ra Senatning
- D. Tashqi ishlar vazirligining

46. Mashhur davlat arbobi Fayzulla Xujayev qanday xonadonda tarbiya topgan?

- A. Boy savdogar
  - B. Harbiy sarkarda
  - C. Kambag‘al dehqon
  - D. Hunarmand
47. O‘zbekistonda 1949-1952-yillardagi qatag‘onlik zarbasi asosan qaysi soha xodimlariga qarshi qaratilgan edi?
- A. Ijodiy ziyolilarga, madaniyat va fan arboblariga
  - B. Harbiylar, partiya va davlat arboblariga
  - C. Harbiylar va dindorlarga
  - D. Harbiylar, xo‘jalik va partiya arboblariga
48. 1951-52-yillarda «sovetylarga qarshi millatchilik faoliyati» uchun kimlar 25 yil qamoq jazosiga hukm qilingan edi?
- A. Shuhrat, Abdusalom Niyoziy, Shukrullo, Said Axmad
  - B. M. Shayxzoda, H. Sulaymonov, Shuhrat, G’ozi Yunus
  - C. M. Shayxzoda, Shukrulla, Shuhrat, Said Ahmad
  - D. G’ozi Yunus, Muhammad Xasan, Murkarim Osim, Fitrat
49. “Paxta ishi” deb nom olgan qatag‘onlikning yangi bosqichi qaysi yillarda bo‘ldi?
- A. 1982-1985-yil
  - B. 1983-1988-yil
  - C. 1982-1988-yil
  - D. 1983-1989-yil
50. O‘zbekiston SSRda o‘zbek yozuvini lotin imlosidan kirill imlosiga o‘tkazish to‘g‘risida qonun qachon qabul qilingan?
- A. 1940-yil
  - B. 1929-yil

C. 1935-yil

D. 1927-yil

51. Berilgan javoblardan Toshkentdagi mahobatli Amir Temur haykalini bunyod etgan haykaltarosh kim?

A. Ya. Shapiro

B. A. Boymatov

C. D. Ro‘ziboyev

D. I. Jabborov

52. Alpomish dostoni yaratilganligining 1000 yilligi qachon va qayerda nishonlandi?

A. 1998-yilda Xorazmda

B. 1997-yida Toshkentda

C. 1999-yilda Termizda

D. 2000-yilda Urganchda

53. Somoniylar davrida Samarqand o‘zining qanday mahsuloti bilan Sharqda mashhur bo‘lgan?

A. Shishasi bilan

B. Kulochilik buyumlari bilan

C. Qog‘ozi bilan

D. Zargarlik buyumlari bilan

54. Kishilik jamiyat tarixining qaysi bosqichida olov kashf etildi?

A. Paleolit davrida

B. O‘rta paleolit davrida

C. So‘nggi paleolit davrida

D. Mezolit davrida

55. Kishilik jamiyati tarixining qaysi davriga kelib urug‘chilik jamoasiga o‘tildi?

- A. So‘nggi paleolit davrida
- B. Neolit davrida
- C. O‘rta paleolit davrida
- D. Mezolit davrida

56. 1982-yilda respublikamizning qaysi viloyati tashkil topgan?

- A. Sirdaryo
- B. Jizzax
- C. Navoiy
- D. Xorazm

57. Qadimgi shahar qoldig‘i Yerqo‘rg‘onni ochgan arxeolog to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.

- A. To‘xtash Annayev
- B. Yahyo G‘ulomov
- C. Rustam Sulaymonov
- D. O‘ktam Islomov

58. Qarshi shahrining 2700 yilligi qachon nishonlandi?

- A. 2008-yil 18 oktabrda
- B. 2006-yil 9-aprelda
- C. 2006-yil 27-oktabrda
- D. 2007-yil 26 noyabrda

59. Navro‘z bayrami qaysi yildan boshlab yurtimizda erkin bayram qilib kelinadi?

- A. 1991-yildan
- B. 1989-yildan

C. 1990-yildan

D. 1991-yildan

60. Arablar tomonidan islomni qabul qilmaganlardan olinadigan soliq nomi to‘g‘ri berilgan javobni belgilang?

A. Zakot

B. Xiroj

C. Jiz’ya

D. Ushr

61. So‘nggi xorazmshoh Alouddin Muhammad hokimiyatni boshqargan yillar to‘g‘ri berilgan javobni belgilang.

A. 1200-1210-yillar

B. 1180-1200-yillar

C. 1200-1220-yillar

D. 1200-1218-yillar

62. 1898-1899-yillarda qaysi shaharlar orasida temir yo‘l qurilgan?

A. Toshkent va Andijon

B. Krasnovodsk va Qizilo‘rda

C. Qizilarvot va Ashxobod

D. Samarqand va Jizzax

63. Yurtimizda mezolit davriga oid qaysi manzilgohda qoyatosh rasmlari o‘rganilgan?

A. Obishir.

B. Qo‘shilish

C. Machay

D. Zarautsoy

64. Yurtimizda 1999-yil qanday yil deb nomlangan edi?

- A. Ayollar yili
- B. Mehr-muruvvat yili
- C. Sihar-salomatlik yili
- D. Homiylar va shifokorlar yili

65. G‘aznaviyalar davlatining asoschisi to‘g‘ri berilgan javobni belgilang?

- A. Sabuqtegin
- B. Mahmud G‘aznaviy
- C. Sulton Sanjar
- D. Ma’sud

66. Kishilik jamiyat tarixining qaysi davriga kelib juft oilalar paydo bo‘ldi?

- A. So‘nggi paleolit davrida
- B. Paleolit davrida
- C. O‘rta paleolit davrida
- D. Mezolit davrida

67. Kishilik jamiyat tarixining qaysi davriga kelib o‘q-yoy kashf etildi?

- A. O‘rta paleolit davrida
- B. Paleolit davrida
- C. Mezolit davrida
- D. So‘nggi paleolit davrida

68. Kishilik jamiyat tarixining qaysi davriga kelib odamlar yovvoyi hayvonlarni xonakilashtira boshladi?

- A. Mezolit davrida
- B. Paleolit davrida

- C. O‘rta paleolit davrida
- D. So‘nggi paleolit davrida

69. Kishilik jamiyati tarixining qaysi davriga kelib odamlar g‘orlardan chiqib yengil turar joylar – chayla va yarim yerto‘lalarda yashay boshladilar?

- A. Paleolit davrida
- B. So‘nggi paleolit davrida
- C. O‘rta paleolit davrida
- D. Mezolit davrida

70. «O‘zDEU avto» korxonasida qachondan boshlab «Neksiya», «Tiko», «Damas» yengil avtomashinalari chiqarila boshlandi?

- A. 1994-yil martdan
- B. 1996-yil martdan
- C. 1995-yil martdan
- D. 1998-yil martdan

71. So‘nggi Qo‘qon xoni kim?

- A. Olimxon
- B. Amir Umarxon
- C. Madalixon
- D. Xudoyorxon

72. “Ziji jadidi Ko‘ragoni” kitobi kimning qalamiga mansub?

- A. Xondamirning
- B. Mirzo Ulug‘bekning
- C. Muhammad Solihning
- D. Alisher Navoiyning

73. Kir II qaysi davlat hukmdori bo‘lgan?

- A. Misr
- B. Salavkiylar
- C. Ahamoniylar
- D. Parfiya

74. Doro I ga qarshi kurashda fidoyilik ko‘rsatgan xalq qahramonining nomi kim?

- A. Oksiert
- B. Shiroq
- C. Skunxa
- D. Spitamen

75. Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) Markaziy Osiyoga qaysi yillarda qo‘shin tortib keldi?

- A. Miloddan avvalgi 336-334-yillarda
- B. Miloddan avvalgi 329-327-yillarda
- C. Miloddan avvalgi 334-332-yillarda
- D. Miloddan avvalgi 332-330-yillarda

76. Iskandar Zulqarnayn o‘limidan keyin O‘rtta Osiyo qanday davlat tarkibiga kirdi?

- A. Ptolomeylar davlati
- B. Parfiya davlati
- C. Yunon–Baqtriya davlati
- D. Salavkiylar davlati

77. Qaysi podshoh davrida Kushon davlati o‘zining eng yuqori bosqichiga ko‘tarildi?

- A. Kadfiz I
- B. Vasudeva

C. Xivushka

D. Kanishka

78. Kushon davlati hududida qanday diniy e'tiqodlar tarqalgan edi?

A. Zardushtiylik, islom, nasroniylik

B. Nasroniylik, islom, buddaviylik

C. Moniylik, buddaviylik, nasroniylik

D. Zardushtiylik, buddaviylik, moniylik

79. Rossiya qo'shinlarining Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi qachon boshlandi va unga kim etakchilik qildi?

A. 1879-yil, Kuropatkin

B. 1873-yil, Kaufman

C. 1867-yil, Medinskiy

D. 1868 yil, Chernyayev

80. Qo'qon xonligida Po'latxon qo'zg'oloni qachon bo'lib o'tgan?

A. 1876-1880-yillarda

B. 1873-1876-yillarda

C. 1868-1870-yillarda

D. 1898-1899-yillarda

90. Rus bosqinchilari qachon Qo'qon xonligini tugatib uni Farg'ona viloyati sifatida Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shib oldi?

A. 1876-yilda

B. 1880-yilda

C. 1868-yilda

D. 1878-yilda

91. Rus mustamlakachilariga qarshi Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni qachon va qayerda bo‘lgan edi?

- A. 1898-yilda Andijonda
- B. 1873-yilda Jizzaxda
- C. 1892-yilda Toshkentda
- D. 1902-yilda Kattaqo‘rg‘onda

92. Mustaqillik Deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?

- A. 1991-yil 18-noyabrda
- B. 1990-yil 20-iyunda
- C. 1992-yil 8-dekabrda
- D. 1993-yil 1-sentyabrda

93. Markaziy Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi qachon amalga oshirildi?

- A. 1923-1924-yillarda
- B. 1917-1924-yillarda
- C. 1918-1925-yillarda
- D. 1924-1930-yillarda

94. Buxoro xonligida 1601-yildan boshlab qaysi sulola hukmronlik qilgan?

- A. Mang‘itlar
- B. Shayboniylar
- C. Ashtarxoniylar
- D. Qo‘ng‘irotlar

95. Temuriy hukmdorlardan kimning vafotidan keyin Xuroson o‘n bir qismga bo‘linib ketdi?

- A. Shohruh Mirzoning
- B. Husayn Boyqaroning

C. Abu Saidning

D. Sulton Mahmudning

96. XVI asrda Xurosonning obod bo‘lishi ko‘proq kimlarning nomi bilan bog‘liq?

- A. Abu Sayid va Husayn Boyqaroning
- B. Shohruh va Ulug‘bekning
- C. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning
- D. Abdulqosim Bobur va Abu Sayidning

97. Bobur Mirzo asos solgan Boburiylar sultanati qaysi yillarda yashadi?

- A. 1526-1848-yillard
- B. 1526-1786-yillarda
- C. a1526-1858-yillarda
- D. 1526-1882-yillarda

98. Nima sabab Amir Temur bilan Balx hokimi Amir Husayn o‘rtasida ittifoq yuzaga keladi?

- A. Amir Temur Amir Husaynning singlisi Uljoy Turkon Og‘oga uylangani
- B. ota-bobolari o‘rtasida azaliy ittifoqchilik
- C. Amir Husaynni Amir Temurga Kesh viloyatini bergenligi
- D. Mo‘g‘ullarga qarshi kurash maqsadi

99.Toshkentning markaziy maydoni qaysi yili “Mustaqillik maydoni” deb qayta nomlandi?

- A. 1991-yilda
- B. 1990-yilda
- C. 1989-yilda
- D. 1992-yilda

100. O‘zbekiston Respublikasining “Do‘stlik” ordeni qachon ta’sis etildi?

- A. 1994-yilda
- B. 1997-yilda
- C. 1998-yilda
- D. 2000-yilda

101. Qarshi shahriga asos solgan Mo‘g‘ul hukmdorini aniqlang?

- A. Tuvaxon
- B. Ma’subek
- C. Kebekxon
- D. Munqaxon

102. Mamlakatimizda 2014-yil qanday nomlandi?

- A. “Kelajak avlod yili
- B. “Barkamol avlod yili”
- C. “Sog‘lom bola yili”
- D. “Sog‘lom avlod yili”

103. Amir Temur qachon Movaraunnahr hukmdori deb e’lon qilindi?

- A. 1360-yilda
- B. 1370-yilda
- C. 1366-yilda
- D. 1372-yilda

104. Amir Temur qachon Hindistonga yurish qilgan?

- A. 1401-1402-yillarda
- B. 1380-1383-yillarda
- C. 1372-1373-yillarda
- D. 1398-1399-yillarda

105. Amir Temur turkiy qavmlarning qaysi urug‘iga mansub?

- A. Mang‘it
- B. Barlos
- C. Qo‘ng‘iroq
- D. Kenagas

106. Amir Temur qachon va qayerda vafot etgan?

- A. 1405-yil 14-fevralda Samarqand shahrida
- B. 1405-yil 16-yanvarda Iloq shahrida
- C. 1405-yil 18-fevralda O‘tror shahrida
- D. 1405-yil 18-yanvarda Balosog‘un shahrida

107. Shoh va hukmdor Mirzo Ulug‘bekning asl ismi to‘g‘ri berilgan javodni belgilang?

- A. Abu Bakr Mirzo
- B. Abdulaziz Mirzo
- C. Muhammad Tarag‘ay
- D. Abu Said Mirzo

108. Surxondaryo viloyatining ma’muriy markazi qaysi shahar?

- A. Termiz
- B. Sherobod
- C. Boysun
- D. Denov

109. O‘zbekiston hududida dastlabki davlatlar paydo bo‘lgan davr to‘g‘ri berilgan javobni belgilang?

- A. Mill. avv.VII-VI asrlar

- B. Mill. avv.IX-VIII asrlar
- C. Mill. avv.VIII-VII asrlar
- D. Mill. avv.VI-V asrlar

110. Xorazm hukmdorlaridan kim Iskandar Zulqarnaynga elchi yo'llagan?

- A. Afrig
- B. Farasman
- C. Vazamor
- D. Oksiart

112. Qarshi shahrida Islom Karimov haykalining ochilish marosimi qachon bo'lib o'tdi?

- A. 2018 yil 2-sentabr
- B. 2018 yil 30-yanvar
- C. 2018 yil 9-may
- D. 2017 yil 30-yanvar

113. Yunon-Baqtriya davlatining birinchi hukmdori...

- A. Diodot 1
- B. Antiox
- C. Evtidem
- D. Geliokl

114. O'zbekiston Respublikasining hududiy birliklaridan (viloyatlar, Toshkent shahri va QRdan) Senatga nechtadan Senat a'zosi saylanadi?

- A. 16 nafardan
- B. 8 nafardan
- C. 10 nafardan
- D. 6 nafardan

115. 2016-yil respublikamizda qanday yil deb e'lon qilindi?

- A. “Sog‘lom ona va bola” yili deb e'lon qilindi
- B. “Sog‘lom avlod yili” deb e'lon qilindi
- C. “Mahalla yili” deb e'lon qilindi
- D. Barkamol avlod yili” deb e'lon qilindi

116. 1756-yildan boshlab Buxoro amirligida qaysi sulola hukmronlik qila boshladi?

- A. Mang‘itlar
- B. Qo‘ng‘irotlar
- C. Minglar
- D. Joniyalar

117. Samarqandda Mirzo Ulug‘bek bilan astronomiya va matematika sohasida ijod qilgan olimni nomini aniqlang?

- A. Mavlono Lutfiy
- B. Ali Qushchi
- C. Abduraxmon Jomiy
- D. Al-Xorazmiy

118. “Bayt ul-hikma” (“Donishmandlar uyi”) qaysi shaharda barpo etilgan edi?

- A. Damashqda
- B. Qohirada
- C. Buxoroda
- D. Bog‘dodda

119. Quyida berilgan asarlardan qaysi biri Mahmud Qoshg‘ariy qalamiga mansub?

- A. “Buxoro tarixi”
- B. “O‘tmish avlodalardan qolgan yodgorliklar”

- C. “Mas’ud qonuni”
- D. “Devoni lug‘otit turk”

120. Quyida keltirilgan o‘rta asrlar olimlaridan qaysi biri 70 ga yaqin xorijiy tillarni bilgan?

- A. Abu Ali ibn Sino
- B. Abu Nasr al Farobiy
- C. Mahmud Qashg‘ariy
- D. Yusuf Xos Hojib

121. Somoniylar davlatining poytaxti to‘g‘ri berilgan javobni belgilang?

- A. Samarqand
- B. Buxoro
- C. Nishopur
- D. Marv

122. O‘zbek xalqi shakllanishining uchinchi bosqichi qaysi davrga to‘g‘ri keladi...

- A. IX-XII asrlarga
- B. mill. avv. I ming yillikdan – milodiy VI asrgacha
- C. XV asr oxiri – XVI asr boshlarigacha
- D. XIII asr boshi – XV asr oxirlarigacha

123. Xiva xonligida Shayboniyalar sulolasini qaysi hukmdordan boshlangan?

- A. Elbarsxon
- B. Abulg‘ozixon
- C. Anushaxon
- D. Asfandiyorxon

124. Somoniylar hukmronligidan so‘ng Markaziy Osiyoda qanday sulola hokimiyatga keladi?

- A. Qoraxoniylar
- B. Saljuqiylar
- C. Tohiriyalar
- D. Shayboniylar

125. Qaysi asrda Hadislar to‘plami jamlangan?

- A. IX asrda
- B. X asrda
- C. XI asrda
- D. XIII asrda

126. Davlatchiligimiz tarixida VI asr o‘rtalarida tashkil topgan Turk hoqonligi davlatiga kim asos solgan?

- A. Kanishka
- B. Siyovush
- C. Bumin
- D. Istami

127. Kushon davlatining asoschisi kim?

- A. Vima Kadfiz
- B. Sherri Kishvar
- C. Kanishka
- D. Kudjula Kadfiz

128. Buyuk ipak yo‘linining uzunligi qancha?

- A. 8000 km
- B. 12000 km

C. 10000 km

D. 11000 km

129. Yerqo‘rg‘on va Uzunqir arxeologik yodgorliklari Respublikamizning qaysi hududida joylashgan?

A. Qashqadaryoda

B. Buxoroda

C. Surxondaryoda

D. Farg‘onada

130. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish modelida bosh islohotchi to‘g‘ri berilgan javobni belgilang?

A. Fuqarolik jamiyat

B. Davlat

C. Prezident

D. Oliy Majlis

131. Tariximizda o‘tgan Yunon- Baqtriya sultanati necha yil hukm surgan?

A. Uch yuz yil

B. Etmish besh yil

C. Yuz ellik yil

D. Bir yuz yigirma yil

132. Qaysi yilda “Avesto”ning 2700 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi?

A. 2001-yilda

B. 2003-yilda

C. 2000- yilda

D. 2004-yilda

133. Ahamoniylarga qarshi Marg‘iyonada ko‘tarilgan qo‘zg‘olonga kim rahbarlik qilgan?

- A. Dadarnish
- B. Shiroq
- C. Frada
- D. Spitamen

134. Dunyo mamlakatlarida hozirgi bosqichda davlat qurilishining oliv shakli qanday nomlanadi?

- A. Demokratik davlat
- B. Federativ dalat
- C. Suverenitetga ega davlat
- D. Teokratik davlat

135. “Demokratiya” so‘zining ma'nosi

- A. “demos” xalq, “kratiya” yig‘ini – xalq yig‘ini
- B. “demos” fuqaro, “kratos” birlashuvi- fuqarolar birlashuvi
- C. “demos” boylar, “kratos” birlashuvi- boylar birlashuvi
- D. “demos” - xalq, “kratos” boshqaruv – xalq boshqaruvi

136. Huquqiy davlatning asosiy belgisi?

- A. Barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiyava qonunlarning ustunligini ta'minlash.
- B. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlash.
- C. Barcha millat vakillarining qonun oldida tengligiga qonunlarning ustunligi.
- D. Huquqiy madaniyatning yuksakligi, qonun oldidagi tengligi

137. “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi tashkil etilgan yilni belgilang.

- A. 2-may 1999-y.
- B. 1-noyabr 1991-y.
- C. 2-mart 1998-y.
- D. 17-fevral 1995-y.

138. MDH qachon tashkil topgan?

- A. 5-oktyabr 1994-y.
- B. 21-dekabr 1991-y.
- C. 8-dekabr 1991-y.
- D. 10 noyabr 1996 y.

139. O‘zbekistonda mavjud partiyalar soni qancha?

- A. 5 ta
- B. 3 ta
- C. 7 ta
- D. 6 ta

140. 1992 yil 10 dekabrdagi qanday voqealarda yuz berdi?

- A. Davlat gimni qabul qilindi.
- B. Davlat gerbi qabul qilindi.
- C. Davlat bayrog‘i qabul qilindi.
- D. Davlat tili haqida qonun qabul qilindi

141. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi qachon tashkil etildi?

- A. 1991-yil 3-martda tashkil etildi.
- B. 1991-yil 17-fevralda tashkil etildi.
- C. 1991-yil 1-noyabrdaga tashkil etildi.
- D. 1992-yil 2-mayda tashkil etildi.

142. 2-mart 1992-yilda O‘zbekiston qaysi xalqaro tashkilotga a’zo bo‘lib kirdi?

- A. BMT a'zosi bo'ldi.
- B. NATOning Tinchlik yo'lida hamkorlik dasturiga qo'shildi
- C. YXHTga a'zosi bo'ldi.
- D. MDHga a'zo bo'ldi

143. Toshkent shahridan Oliy Majlisning Senatiga nechta deputat sayylanadi?

- A. 10 nafar.
- B. 8 nafar.
- C. 6 nafar.
- D. 16 nafar

144. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi necha bob va necha bo‘limdan iborat?

- A. 3 bo‘lim, 26 bob, 128 modda
- B. 4 bo‘lim, 36 bob, 128 modda
- C. 3 bo‘lim, 23 bob, 128 modda
- D. 6 bo‘lim, 26 bob, 128 modda

145. O‘zbekiston "Yoshlar ittifoqi" tashkil topgan sanani aniqlang?

- A. may 1999-yil.
- B. aprel 2001-yil.
- C. iyun 2017-yil.
- D. fevral 1998-yil

146. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari soni?

- A. 150 ta
- B. 120 ta

C. 250 ta

D. 175 ta

147. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) tashkil etilgan yilni aniqlang?

- A. 15 iyun 2001 yil.
- B. 12 fevral 2000 yil.
- C. 12 iyul 2001 yil.
- D. 15 iyun 2005 yil

148. .Markaziy saylov komissiyasining vakolat muddati necha yil?

- A. 1 yil
- B. 10 yil
- C. 5 yil
- D. cheklanmagan

149. «2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»ning To‘rtinchi bo‘limi qanday nomlanadi?

- A. Davlat va jamiyat qurilishini yanada rivojlantirish
- B. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari
- C. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishari
- D. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

150. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmoni bilan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» qachon tasdiqlandi?

- A. 2017 5 fevral
- B. 2017 yil 30 yanvar
- C. 2017 yil 7 fevral

D. 2017 yil 10 fevral

151. «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» nechta bo‘limdan iborat?

- A. 5 ta
- B. 6 ta
- C. 4 ta
- D. 8 ta

152. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida qachon nutq so‘zлади?

- A. 2017 yil 17 sentyabr
- B. 2017 yil 18 sentyabr
- C. 2017 yil 19 sentyabr
- D. 2017 yil 16 sentyabr

## GLOSSARIY

**Arxeologiya** - qadimshunoslik fani

**Antropologiya** - Odam, odamning kelib chiqishini o'rganuvchi fan

**Antropogenez** - antropos-odam, genezis kelib chiqishi

**Arxeologiya** - arxeos-qadimgi, logos-fan.

**Avesto** - Apastak so'zidan olingan asos, o'zak degan ma'noni anglatadi, zardo'shiylikning muqaddas kitobi

**Anaxita** - (nohid)-er, suv, hosildorlik ilohi

**Aqinak** - hanjar turi

**Ahamoniylar** - 550-330 yillarda Eron, Kichik, O'rta Osiyoni o'z ichiga olgan davlat

**Antiox 1** - 280-260 yillarda hukmronlik qilgan Salavkiylarning hukmdori, Salavka 1ning o'g'li.

**Antik** - lotin tilida qadimgi degan ma'noda

**Ashina** -xitoycha shino - bo'ri degan ma'noda.

**Agrar siyosat-qishloq xo'jaligi**, er-suv ishlariga doir masala

**Avtonomiya yoki muxtoriyat**-Ichki qonunlar asosda o'zini-o'zi mustaqil idora etish huquqi

**Aholini ijtimoiy muxofaza qilish** - davlat tomonidan aholiga barcha hayot kechirish shart-sharoitlarini yaratish uchun maqsadli yo'naltirilgan kafolatlar tizimi.

**Aholini ijtimoiy himoyalash** - aholini bozor iqtisodiyotining salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlaridan asrash, shu oqibatlarning aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ta'sirini yumshatish.

**Aholining real daromadlari**- narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.

**Bolshevik** - inqilobiy yo'l bilan kapitalistik jamiyatni ag'darib kommunistik mamlakat qurish tarafdlari. 1903-yilda Rossiya sosial-demokratik ishchilar partiyasining II s'ezdida tashkil topgan ko'pchilikka mansub kishilar guruhi.

**Bandargoh** - yo'llar tutashgan yerlarda, gavjum qo'nib o'tiladigan joy.

**Balbal** - turkiylar tomonidan o'lgan odamlar ruhiga qo'yilgan tosh haykalchalar

**Bo'dun** - chorvador asholi, qora bo'du - qora xalq

**Bog'I** - Makedoniyalik Iskandar davrida Zarafshonning quyi oqimidagi qal'a

**Boru** - qal'a devorning o'q otadigan pana joyi

**Bargustivon** - jang va tantanalarda ot ustiga yopiladigan bezakli mato yoki sout

**Baqtriya-** Hozirgi O'zbekiston janubi, Tojikiston janubining bir qismi, shimoliy Afg'oniston

**«Bayt ul - hikma»** - Bog'dodda ochilgan ilk musulmon fanlar akademiyasi

**Bandlik** - mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

**Bank depozitlari** - jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma'lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo'yilgan bo'sh pul mablag'lari.

**Bank tizimining likvidligi** - bankning o'z majburiyatlarini vaqtida va so'zsiz bajara olish imkoniyati.

**Bankrot** - xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiatlari bo'yicha kruditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.

**Biznes** - foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi.

**Byudjet defisiti** - byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

**Vara** - Avesto devor bilan o'ralgan to'rtburchakli makon

**Varna** - zardushtiyarda g'animlar yashaydigan viloyat

**Vispati** - qishloq boshlig'i

**Vag'nze**- ibodatxona yer va mulklari

## **Vag'n- ibodatxona**

**vaqtli nizom** - doimiy bo'limgan, ma'lum bir muddatda o'tib ketadigan qonun-qoidalar, tartiblar majmui.

**Vazirlar Mahkamasi** – O'zbekiston Respublikasi hukumatining nomi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv idoralariga va o'zi tashkil qilgan qo'mitalarga rahbarlik qiladi hamda, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlarning ijrosini ta'minlaydi. Asosiy qonunimizning XX bob, 98-moddasida Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi va konstitusiyaviy vakolatlari belgilab berilgan. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyat yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1993-yil 6-mayda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida”gi qonuni asosida tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining raisi hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh Vazir, uning birinchi mouvini, movunlari va a'zolari kiradi. Davlat markaziy idoralarining boshliqlari, ya'ni vazirlar, davlat qo'mitalari raislari va boshqalar Vazirlar Mahkamasi a'zolari hisoblanadilar. Vazirlar Mahkamasi majlislari yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi.

**Vatan ( arabcha - ona yurt)** - inson yashab turgan, o'rib-o'sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit mamlakat. Vatan ostonadan boshlanadi. Vatanni keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'noda Vatan bu – inson chaqaloqligida ona allasini eshitgan beshigi. Vatan bu – insonning ota-onasi, oilasi. Vatan bu - inson tug'ilib o'sgan qadrdon mahallasi, qishlog'i va el-yurti. Keng ma'noda Vatan bu – serquyosh, jannatmakon diyorimiz O'zbekiston. Vatan inson uchun eng muqaddas makon. Chunki, yuqorida keltirilgan manzil va makonlarni inson hech qachon boshqa narsaga almashtirmaydi, pulga ayriboshlamaydi, sotib ololmaydi yoki sotmaydi! O'z yurtini, o'z Vatanini sevmagan inson, o'zga yurtni ham seva olmaydi. Bunday insonlar vatangadolikka mahkumdirlar. Zero muqaddas dinimiz taomiliga ko'ra Vatanni suymoq iymondandir!

## **Gimnastyorka - harbiy kiyim**

**GES** - gidroelektrostansiya

**Gospital** - harbiy kasalxona

**general-gubernator** - Podsho Rossiyasida bir necha viloyatlarni o'z ichiga olgan ma'muriy bo'linmaning eng oliy harbiy-ma'muriy huquqlarga ega bo'lgan hokimi.

**Govmard** - zardushtiylar falsafasiga ko'ra, dastlabki yagona odam

**Girkon** - Kaspiy dengizining qadimgi nomi

**Geneologiya**- shajara, kelib chiqish tarixini o'rganadi

**Dax** - ko'chmanchi qabila, sak-massagetlarning bir qismi

**Daxyupati** - viloyat, o'lka yo'l boshchisi

**Dodarshish** - Frada qo'zg'olonini bostirgan Baqtriya satrapi

**Diodox** - hukmdor, hokim

**Dehqon** - qishloq hokimi, yer egasi

**Davlat byudjeti** - davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasи.

**Daromad solig'i** - fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).

**Diversifikasiya** - (lotinchadan diversus - har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

**Dividend** – aksionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to'lanadigan qismi bo'lib, u aksionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.

**Demokratiya (yun. demos – xalq, kratos - hokimiyat)** – “xalq hokimiyati” ma'nosini anglatadi. Jamiyat taraqqiyotida davlatchilikning turli shakllari, binobarin, demokratiyaning ham turli tiplari yaratilgan. Insoniyat tarixida demokratiyaning boshlanish nuqtasi ham, tugash nuqtasi ham yo'q. Kishilik jamiyati paydo bo'lganidanoq, demokratiyaning kurtaklari paydo bo'lgan va hatto, eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham u o'zining so'nggi cho'qqisiga erishganicha yo'q. Demokratiyani bo'g'ish, unga rahna solish mumkin, lekin butunlay yo'q qilib

bo'lmaydi. Har qanday davrning, har qanday jamiyatning va har qanday xalqning o'ziga xos demokratiyasi bo'ladi. Demokratiyaning muhim xususiyati shundaki, unda xalq hokimiyati, ya'ni ozchilikning ko'pchilikka bo'y sunish qoidasi, rasmiy ravishda e'lon qilinadi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqliligi e'tirof. Bu shartlar asosiy qonun – Konstitusiyada aks ettiriladi.

**Jahon banki** – 1944-yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtida tuzilgan birinchi davlatlararo investisiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946-yil 25-iyundan boshlagan.

**Jahon bozori kon'yunkturney** - jahon tovar bozorlari dagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.

**Zakot** - chorvadan olinadigan soliq

**Zariasp** - Baqtra shahrining ikkinchi yunoncha nomi

**Zantupati** - tuman oqsaqoli

**Ishxit** - ilk o'rta asr knyazi, viloyat hokimi

**Imperiya** - mustamlaka va qaram mamlakatlar xalqlari ustidan o'z hukmronligini kuch bilan o'rnatgan va bu hukmronlikni qattiq zulm va ekspluatasiya tizimi yordamida ushlab turgan mustamlakachi davlat. Imperiya monarxiyaga asoslangan davlat bo'lib, uning tepasida imperator turadi.

**Islohot** - tubli ravishda o'tkazilgan o'zgartirish, isloh

**Irrigasiya** - suvsiz yerlarga suv chiqarish ishlari

**I.Stalin**- 1922-1953 yillarda Kommunistik partiya Bosh kotibi, urush yillarida Oliy Bosh qo'mondoni

**Ijtimoiy soha ob'yektlari** - aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmui. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog'liqni saqlash, ma'orif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

**Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi** - mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtirok etish, jahon bozoridagi o'z o'rni va mavqeini saqlab qolish va kengaytira olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish

layoqati bo'lib, quyidagilar orqali belgilanadi: mamlakatdagi ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari miqdori, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, mutlaq va nisbiy ustunliklarning mavjudligi.

**Iqtisodiy nochor korxonalar** - muayyan miqdorda kapital yo'qotish, ishlab chiqarish maydonlarining qisqarishi, ishsizlar sonining ortishi, raqobatbardosh bo'limgan mahsulot ishlab chiqaradigan va buning uchun katta miqdorda materiallar, xom ashyo, yonilg'i, mehnat resurslari sarflaydigan qoloq, samarasiz korxona.

**Iqtisodiy o'sish** - real yalpi ichki mahsulot umumiyligi hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o'sishi.

**Import** - mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtini tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

**Lingvistika** - tilshunoslik

**Maksimalistlar** - eng katta, haddan tashqari talablar qo'yuvchi oqim tarafdarlari

**Monarxiya** - yakka hokimiyatchilik

**Menshevik** - Rossiya sosial-demokratik ishchilar partiyasining II s'ezdida RSDRP bolsheviklar va mensheviklarga ajralishi natijasida yuzaga kelgan oqim.

**Mustabid** - istibdod qaramlik

**Meliorasiya** - yerning tabiiy sharoitlarini tubdan yaxshilab dehqonchilikka moslash va hosildorlikni oshirishga qaratilgan tadbirlar tizimi

**Muxtor respublika** - o'ziga mustaqil, avtonomiya

**Mustamlaka** - imperialistik davlat tomonidan bosib olingan davlat.

**Manjaniq** - tosh otadigan qadimgi urush quroli

**Marg'iyona** - Murg'ob vohasi

**Messopotamiya** - Yaqin Sharqdagi Dajla va Frot daryolari oralig'idagi hudud

**«Ma'mun akademiyasi»**- Xorazm shohi Ma'mun davrida ochilgan ilmiy markaz

**Madrasa** - diniy oliy o'quv yurti

**Metodologiya** – tadqiqot olib borish usuli

**Manbaashunoslik** - tarixiy yozma manbaalarni o'rganuvchi fan

**Makroiqtisodiy kurs ko'rsatkichlar** - mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarini o'lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyasiya darajasi va boshqalar.

**Mamlakat to'lov balansi** - mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt (odatda bir yil) oralig'ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar bo'yicha to'lovlar summasining nisbati bo'lib, u o'z ichiga savdo balansi, xizmatlar balansi, o'tkazmalar balansi va kapital operasiyalarini oladi.

**Meliorasiya** - yerning unumdorligini tubdan yaxshilashga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik, muhandislik va agrotexnik tadbirlar turkumi.

**Mehnat bozori** - mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lмаган qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, unga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

**Mikrokredit** - xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshlangich sarmoyani shakllantirishga beriladigan kreditlar. Mikrokreditlar: a) yuridik shaxs maqomiga ega bo'lмаган tadbirkorlik faoliyati uchun - eng kam ish haqining 50 barobarigacha; b) mikrofirma va dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 100 barobarigacha; v) fermer xo'jaligiga eng kam ish haqining 200 barobarigacha beriladi.

**Mikrofirma** - kichik biznes korxonasining bir turi. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10

kishigacha, savdo va umumiylar ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

**Modernizasiya** - ob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

**Moliya tizimi** - moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

**Numizmatika**- tangashunoslik fani

**Nous** - zardushtiyarda suyaklar solingen ostanadonlar saqlanadigan maxsus bino

**Nasionalizasiya**- Mulkni davlat hisobiga musodara qilish

**Navoiy erkin industrial - iqtisodiy zonasi** - jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investisiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investisiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 3-dekabrdagi "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida tashkil etilgan. Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining asosiy yo'nalishi - zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovasiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishdan iborat.

**Narx** - tovar kiymatining puldag'i ifodasi.

**Nodavlat va jamoat tashkilotlari** - davlatga qarashli bo'limgan, ammolum qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

**Oppozitsiya** - muholifat

**Ostadon (ossuriy)**- zardushtiyarning dafn marosimida tegishli odam

suyaklari saqlanadigan sopol tobutchasi

**Olduvoy** - Sharqiy Afrikadagi ibtidoiy odamning toshdan yasalgan eng qadimgi qurollari topilgan dara

**Ombudsman** – (shved. – kimningdir manfaatini ifodalovchi) – inson huquqlarining aml qilishini nazorat qiluvchi muassasalarning xalqaro yuridik atamashunoslikdagi nomi. Ombudsman ayrim mamlaktarda saylanadigan, ayrim mamlakatlarda tayinlanadigan shaxs bo'lib, u inson huquqlariga amal qilishni nazorat qiladi. Agar prokuratura organlari inson huquqlariga amal qilishni faqat qonun asosida nazorat qilsa, Ombudsmanlar bu masalani maqsadga muvofiqlik, vijdonlilik, adolat nuqtai nazaridan nazorat qiladi. Aksariyat mamlakatlarda Ombudsmanlarga har qanday fuqarolar bevosita murojaat qilishlari mumkin. Ular huquq va erkinliklar buzilishini aniqlasa, tegishli idoralarga huquq va erkinliklarni tiklash haqida taklif kiritadi. Ombudsmanlarning taklif va tavsiyalari tegishli organlar tomonidan bajarilmasa, rad etilsa, ular sud organlariga yoki palamentga murojaat qilishlari mumkin. Ombudsman instituti ilk bor 1809-yilda Shvetsiyada joriy qilingan bo'lib, O'zbekiston Ombudsman (Oliy Majlis huzuridagi inson huquqlari bo'yicha Vakil Instituti deb yuritiladi) 1995-yil 24-fevralda tashkil etildi. “Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili – Ombudsman to'g'risida”gi qonun esa 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan.

**Oliy Kengash** – O'zbekistonda 1990-1994 yillar mobaynida qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirgan oliy vakillik organi. Bu organ 1925-1989 yillar mobaynida “Oliy Sovet” deb yuritilgan. 1989-yil 21- oktabrda O'zbek tiligi davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan uning nomi “Oliy Kengash”ga o'zgartiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1990-1994 yillardagi besh yillik faoliyati davomida jami 16 ta sessiya o'tkazdi va unda O'zbekistonning chin ma'nodagi mustaqilligiga asos bo'lgan qator qonunlar, kodekslar va oliy qonunimiz bo'lmish Konstitutsiyamizni qabul qildi.

**Oliy Majlis** - O'zbekiston Respublikasining Oliy Qonun chiqaruvchi organi.

Oliy Majlis 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida joriy etilgan bo'lib, unga birinchi saylovlari 1994-yil 25-dekabrda o'tkazilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palata – Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat. Ularning vakolat muddati 5 yil. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 150 deputatdan iborat. Oliy Majlis Senati a'zolari 100 nafar bo'lib, ular Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlisida deputatlar orasida Qoroqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 6 kishidan saylanadi. Senatning qolgan 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida katta amaliy tajribaga ega bo'lган hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko'rsatiladi. Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining mutlaq vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVIII- bob, 76-88-moddalarida belgilab berilgan.

**Paleolit** - qadimgi tosh davri

**Petroglif** - qoyatosh bitigi yo tasviri

**Proletariat** - yo'qsil

**Proletariat** - ishchilar sinfining uyushgan qismi

**Partiya**- bir maqsadda birlashgan, birga ish olib boruvchi kishilar guruhi. Siyosiy guruh.

**Proteksionizm** - davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.

**Pul** - kredit siyosati - davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

**Pul** - hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus

tovar.

**Rekonstruksiya (qayta tiklash)** - faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqarishni mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'ginlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirish. Qayta tiklashda eski sexlar o'rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

**Rentabellik** - korxona faoliyatining foydalik darajasi. Uning uch xil ko'rsatkichi mavjud: korxona aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko'rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda ko'rsatkichini korxona aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

**So'g'diyona** - Zarafshon vohasi va Shimoliy Qashqadaryo hududi

**Skunha** - Doro 1ga qarshi chiqqan saklar yo'l boshchisi

**Smarakansa** - Samarqandning so'g'd bitiklarida uchraydigan nomi

**Strateg** - viloyat ma'muriy va harbiy hokimi (yunoncha)

**Sulh** - kelishuv

**Saldo** - muayyan vaqt davomida moliyaviy tushumlar va sarflar, eksport va import qiymati (savdo balansi saldosi), xorijiy to'lovlar va tushumlar (to'lov balansi saldosi) o'rtasidagi farq.

**Samarali iqtisodiy siyosat** - davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o'zaro uyg'unlashtirilgan chora-tadbirlari majmui.

**Servis** - jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman keng aholi qatlamiga xizmat ko'rsatish; ishlab chiqarish-texnika maqsadlarida mahsulotlarni, moddiy-maishiy, xo'jalik va boshqa sanoat mahsulotlarini sotish hamda ularni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish sohalari.

**Soliq imtiyozi** - soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida

belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

**Soliq stavkasi** - soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliq me'yori.

**Soliqlar** - belgilangan va muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

**Turo-** turkiy qonun-qoidalar majmui

**Tudun-** turk hoqonligining viloyat hokimliklaridagi vakili

**Teshiktosh-** Boysundagi 1938-y. P.Okladnikov tomonidan topilgan g'or makoni. Muste davriga oid

**TRASEKA-** Yevropa-Kavkaz-Osiyonи bog'lashi lozim bo'lgan savdo yo'lining loyihasi nomi

**Totem-** biror qabila muqaddas tutgan hayvon

**Tasavvuf-** so'fiylik ilmi

**Talab** - xaridor, iste'molchilarini bozorda muayyan tovarlarni, ne'matlarni sotib olish istagi; bozorga olib chiqilgan va pul imkoniyatlari bilan ta'minlangan ehtiyojlar.

**Tannarx** - mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq barcha xarajatlar.

**Tashqi qarz** - mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablaglarining jami hajmi.

**Telekommunikasiya** - simli, radio, optik yoki boshkd elekromagnit tizimlardan foydalanib signal, belgi, matn, tasvir va tovushlarni yoki boshqa ko'rinishdagi axborotni uzatish, qabul qilish va unga ishlov berish jarayoni. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida ma'lumotlarni masofadan uzatish jarayoni.

**Tijorat banklari** - sanoat va savdoni qisqa muddatli kreditlar bilan ta'minlash, shuningdek xususiy mijozlarga turli turdag'i bank xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan banklar.

**Urug'**- qon-qarindosh bo'lgan jamoa

**Unifikasiya** - turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo'llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni rasional jihatdan bir xillagini ta'minlash.

**Federasiya** - Alovida mustaqil davlatlarning birlashuvi asosida tuzilgan yaxlit davlat, mustaqil davlatlar birlashmasi

**FZO** - fabrika-zavodlar qoshidagi maktablar

**Fikh** - musulmon qonunshunosligi

**Falakiyot** - ilmu nujum, astronomiya

**Chinvot** - Zardushtiyarda narigi dunyodagi qil ko'prik

**Evolusion** - tadrijiy

**Etnografiya** - xalqlar maishiy turmush tarzi, urf-odat an'analarini o'rganuvchi fan

**Ellinlashtirish** - yunon va sharq madaniyatlarining uyg'unlashuvi Ershi-qadimgi Dovon (Farg'ona) davlati poytaxti

**Fermer xo'jaligi** - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

**Fond bozori** - qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldisotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.

**Xalqaro valyuta jamg'armasi** - xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944-yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamgaramasi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVJ o'z amaliy faoliyatini 1947-yil 1-martdan boshlagan.

**Xalqaro tashkilotlar** - ularning har biri xalqaro siyosatda o'zlarining faoliyat

maqsadlari yo'nalishlariga qarab, yer yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

**Xizmat ko'rsatish sohasi** - ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'limgan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalari. U o'z ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.

**Xususiy tadbirkorlik** - bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

**Shaxsiy daromad** - jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

**Eksport** - tovarlar, xizmatlar, investisiya, qimmatli qogozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

**Emissiya** - qogoz pullarning gaznaxonaga yoki boshqa davlat moliya organlari tomonidan muomalaga chiqarilishi; barcha shakldagi pul belgilarini muomalaga chiqarish.

**Erkin industrial** - iqtisodiy zona - mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.

**Yalpi ichki mahsulot** - mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard tovar va xizmatlarning bozor qiymati.

## **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /SH.M. Mirziyoyev. - Toshkent: - O'zbekiston, 2016. -56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruba, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: - O'zbekiston, 2017.-104 b.
3. Mirziyoyev Sh.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi / O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 07-12-2016.– Toshkent: - O'zbekiston, 2017. – 48 b.
4. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: - O'zbekiston, 2017.-491 b.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–Toshkent, O'zbekiston, 2009.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlolli va taraqqiyot yo'li - T.: O'zbekiston, 1992.
7. Karimov I.A. Savdo uyidan ipak yo'lini tiklash sari. Asarlar, 2-jild - T.. O'zbekiston 1996, 366-368 betlar.
8. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild T., O'zbekiston, 1996.
9. Karimov I. A. Amur Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar, 4-jild T., O'zbekiston, 1996 y.
- 10.Karimov I.A. O'zbekiston o'z yo'lidan qaytmaydi. Asarlar, 4-jild-T., O'zbekiston, 1996 y. 302-320 betlar.

- 11.Karimov I.A O‘zbekiston XXI asr bo‘sagasida: xafsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari-T., O‘zbekiston, 1997 y. 110-134 betlar.
- 12.Karimov I.A. O‘zbekiston - bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. –T., O‘zbekiston, 1993.
- 13.Karimov I.A. Istiqlol yo‘li: muammolar va rejalar. Asarlar, 1-jild, 3-36 betlar.
- 14.Karimov I.A BMT Bosh-Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma‘ruzasi. 1993 yil 28 sentabr. Asarlar, 2-jild-T., O‘zbekiston, 47-58 betlar.
- 15.Karimov I.A. Amur Temur faxrimiz, gururimiz. Asarlar, 5-jild.
- 16.Karimov I.A. o‘tmishsiz kelajak, xamkorlik taraqqiyot bo‘lmaydi. Asarlar, 4-jild –T., O‘zbekiston, 1996y, 331-339 betlar.
- 17.Karimov I.A. Amur Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruxi bizga namuna bo‘lavserin. Asarlar 4-jild-T., O‘zbekiston, 1996 y. 340-343 betlar.
18. Karimov I.A Istiqlol va ma‘naviyat. –T.. O‘zbekiston, 1994 y.
19. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. –T., O‘zbekiston, 1998 y.
20. Karimov I.A. Ozod va obod vatan erkin va farovon turmush - pirovard maqsadimiz, -T., O‘zbekiston, 2000 y.
21. Karimov I. A. Milliy mafkura-haqida T., O‘zbekiston, 2000 y.
22. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi –xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., O‘zbekiston, 2000 y.
23. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”, T., Ma’naviyat, 2008 y.
24. Karimov I. A.”Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir”, -T., O‘zbekiston, 2015 y.
25. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar tanlangan asarlar. 1-jild Fan, 1968 y.
26. Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri - T., 1993 y.
27. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi - T., Sharq, 2000 y.
28. Abul G’oziy. Shajarai turk. - T., Cho’lpon, 1992 y.

29. Axmedov B. O‘zbek usuli –T., Nur, 1992 y.
30. Axmedov B. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi (dastlabki mulohazalar) O‘zbekiston ovozi, 1994 yil, 20 yanvar.
31. Axmedov B. Amir Temurni yod etib –T., O‘zbekiston, 1996 y.
32. Axmedov B. A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. –T., 1991 y.
33. Abdunabiev A. Vklad v mirovuyu tsivlizatsiy. –T., O‘zbekiston, 1998 y.
34. Amur Temur jaxon tarixida . T., Sharq, 1996 y.
35. Avloniy A. O’son millat. –T., Sharq 1993 y.
36. Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar. –T., G’afur G’ulom, 1993 y.
37. Axmedov E., Saidaminova Z. O‘zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma‘lumotnama. –T., O‘zbekiston, 1995 y.
38. Agzamxo’jaev S. Turkiston muxtoriyati. –T., Fan, 1996 y.
39. Buyuk Siymolar, allomlar. (1-kitob). –T., Meros, 1995 y.
40. Buyuk Siymolar, allomlar. (2 kitob). –T., Meros, 1996y.
41. Bayoni M. Y. Shajarayi Xorazmshohiy. –T., 1994 y.
42. Bobobekov X. Qo’qon tarixi. –T., 1996 y.
43. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T., Sharq, 1997 y.
44. Eshov B., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. T.: ”Yangi asr avlodi”, 2014.
45. Vatan tuyg‘usi. –T., O‘zbekiston, 1996 y.
46. Vamberi X. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. –T., Fan, 1990.
47. Vosifiy Z. Badoe‘ul vaqoe. –T., G’afur G’ulom, 1979.
48. G’ulomov Y. Qadimgi madaniyatimiz izlaridan. –T., Fan, 1960.
49. G’ulomov S., Usmonov K. Mustaqillik O‘zbekistonga nima berdi. T., 2000.
50. G’ofurov Z., Toshev S. Mustaqillikning ma‘naviy zaminlari. Qarshi, 1994.
51. Jo’raev U., Saidjonov Y. Dunyoning dinlari tarixi. –T., Sharq, 1998, 65-73 betlar.
52. Ipak yo‘li afsonalari. –T., Fan, 1993.
53. Ibrat I. Farg‘ona tarixi. T., 1991.
54. Yo‘ldoshov M. Xiva xonligida yer egaligi va davlat tuzilish. –T., 1959.

55. Ibroxim Karim. Madaminbek. –T., Yozuvchi, 1993.
56. Inqilob jangchilar, T., O‘zbekiston, 1990.
57. Zaki Validi. O’zbek urug‘lari. –T., 1992.
58. Ziyo Kukalp. Turkchilik asoslari. –T., 1994.
59. Ziyoev X.Z. O‘rta Osiyo va Sibir (XV-XIX asarlar) T., 1962.
60. Ziyoev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., 1998.
60. Qosimov B. Ismoilbek Gasparali. –T., 1962.
61. Kushchanov M. Qodiriy-erksizlik qurboni. -T., Fan, 1962.
62. Qilichev T. Ko‘hna qal‘alar diyori. T.. Fan, 1993.
63. Jabborov I. O‘zbek xalqining etnografiyasi. –T., O‘zbekiston, 1994.
64. Muhsin Umarzoda. Avesto sirlari // Jahon adabiyoti. №4. –1997. 195-202 b.
65. Muminov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o‘rni va roli. T.: Fan, 1993.
66. Mirza Abdulazim Somiy. Mang‘it xukumdorlari tarixi. T., 1962.
67. Maxmudov m. Barxayot siymolar (Qatag’on qurbonlari haqidagi lavhalar). –T.: O‘zbekiston, 1991.
68. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston, 2001.
69. Mustaqillik: izoxli ilmiy-ommobop lug‘at. –T.: Sharq, 1998.
70. Muxammadjanov A. Amir Temur va temuriylar davri. T.: Fan, 1991.
71. Muxammadjonov A.R. Ne‘matov T.I. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba‘zi manbalar. T., 1957.
72. Narshaxiy M. Buxoro tarixi. Meros turkumi. T., Kamalak, 1991.
73. Nizomulmulk. Siyosatnama. –T.: Adolat, 1997.
74. Nizomiddin Jomiy. Zafarnoma. T.: O‘zbekiston, 1996.
75. Pugachenkova G.A, Rtveladze E.V. Severnaya Baktriya-Toxaristan. –T., 1990.
76. Pidaev M. Sirli Kushon sultanati. T., Fan, 1990.

77. Palvanniyazov K. Istoki rojdeniya Qarakalpakstana. –Nukus, 1994.
78. Radkevich. V.A. Velikiy shelkoviy put. –M., 1990.
79. Rtveladze E.V. O‘rta Osiyoning qadimgi tangalari. –T., 1987.
80. Rtveladze E.V. Velikiy shelkoviy put. –T., 1999.
81. Sagdulaev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. –T., 1996.
82. Sagdullaev A.S. va boshq. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat qurish taraqqiyot. T., 2000.
83. Sodiqov M., Erksevar, hurriyatparvar el vorislarimiz. –T.: Kamalak, 1992. 20-30 betlar.
84. Sodiqov K. Shamsutdinov R., Ravshanov P., Usmonov K. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitobi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000.
86. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. –T., Qomusiylar bosh taxririyati, 1996.
87. Tursunov I.Y. O‘zbekiston maorifchilarining istiqlol yo‘lidagi ishlari tarixidan. (1917-1939 yy.). –T.: 1995.
88. Tuxliev N. O‘zbekiston iqtisodiyoti (savollar va javoblar). –T.: O‘zbekiston, 1991.
89. Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun. –T.: Cho‘lpon, 1994.
90. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida. –T., Andijon: Meros, 1995.
91. Usmon Turon. Turkiy xalqlari mafkurasi. –T.: Cho‘lpon, 1995.
92. Uvatov U. Donolardan saboqlar. –T.: Abdulla Qodiriy, 1994.
93. O‘lmas obidalar. –T.: Fan, 1989.
94. O‘rta Osiyo xalqlari hurfikrliги tarixidan. –T.: Fan, 1990, 54-104 betlar.
95. O‘zbegin. Vatan seriyasi. –T., 1992, 142-180 betlar.
96. O‘zbekistonning yangi tarixi. II-jild. Sovet mustamlakachiligi davri. T., 2000 y.
97. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 1992.

98. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo‘lishi. –T., O‘zbekiston, 1992.
99. O‘zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. –T.: O‘zbekiston, 1993.
100. O‘zbekiston tarixi. –T., Universitet, A. Sagdullaev va B. Eshonov taxriri ostida. I-qism, 1999, II-nashr, T., 1999.
101. O‘zbekiston tarixi. R. Murtazaeva va boshq. T., 2000.
102. Shoniyozi K. Qang’ davlati va qang’lilar. T., Fan, 1990.
103. Shoniyozi K. O‘zbek xalqining etnogeneziga oid ba‘zi nazariy masalalar. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. -№6-1998 yil.
104. Shoniyozi K.SH. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., 2001.
105. Sulaymonova F. Sharq va G’arb. T., O‘zbekiston, 1997.
106. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab –T., Fan 1964.
107. Na Sredneaziatskix trassax velikogo shelkovogo puti. Ocherki istorii i kultur. Sbornik. –T., 1990.
108. Formirovanie i razvitiye trass Velikogo shelkovogo puti v Tsentralnoy Azii v drevnosti i srednevekove. Sbornik. –Samarqand, 1990.
109. Sharofiddin Yazdiy. Zafarnoma. –T.: Sharq, 1997.
110. Hasaniy M. Turkiston bosqini. –T.: Nur, 1992.
111. Jadidchilik: islohot, yangilanish, Mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T., Universitet, 1999.
112. Fozilbek Otabek o‘g‘li. Dukchi eshon fojiasi. –T., Cho‘lpon, 1992.
113. Xo’jaev Fayzulla. Tanlangan asarlar. T., Fan, 1976. 1-jild, 82-101 betlar.
114. Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. T., Fan, 1991.
115. Hasanov M. Fayzulla Xujaev T., O‘zbekiston, 1990.
116. Hasan Ato Abushe. Turkiy qavmlar tarixi. T., Cho‘lpon, 1994.
117. Xodjayov T.K. Xodjayova. G. O‘zbek xalqining etnik tarixidan. T., Universitet, 1995.
118. Xo’jamberdiev Yo. O‘zbeklar ishi. T., Yozuvchi, 1990.
119. Sharofiddinov O. Cho‘lpon. –T., Cho‘lpon, 1991.

120. Usmonov Q. Sodiqov M. va b. O‘zbekiston qaramlik va Mustaqillik yillarida. T., O‘qituvchi, 1996.
121. Yusupov I. Istiqlol yo‘lida. T., Fan, 1996.
122. Usmonov Q. G’aniyev D. O‘zbekiston: Mustaqillik odimlari. T., 1995.
123. Eshov B. So’g’diyona tarixidan lavhalar. T., 2002.

## MUNDARIJA:

Kirish.....	3
1- mavzu: O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.....	6
2-mavzu: Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri.....	20
3-mavzu: O‘zbek davlatchiligi, uning poydevori va taraqqiyot bosqichlari. Milliy davlatchilik qurilishi tajribasi.....	38
4-mavzu: O‘zbek xalqining etnik shakllanishi. V-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot.....	56
5-mavzu: Ilk o’rta asrlarda o‘zbek davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot .....	67
6-mavzu: IX-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot. O’rta osiyo xalqlari hayotida yuz bergen uyg’onish davri.....	103
7-mavzu: Mo‘g’ullar istilosи va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin manguberdi – vatan himoyachisi.....	145
8- mavzu: Amir temur va temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligi. Temur tuzuklari va hozirgi zamon.....	168
9-mavzu: O‘zbekiston hududlarining xonliklarga bo’linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.....	190
10-mavzu: O‘zbek xonliklarining rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik.....	205
11-mavzu. Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatalishi va unga qarshi qurolli harakat. Sovet hokimiyatining o‘zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati .....	233
12-mavzu. Ikkinci jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi.....	265

13-mavzu. O‘zbekistonda sovet davlatining amalga oshirgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy siyosati va uning oqibatlari (1946-1991 yy.).....	274
14-mavzu. O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi.....	283
15-mavzu. Mustaqillik yillarda o‘zbekistonidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy taraqqiyot. 2017-2021-yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.....	318
16-mavzu. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati. O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi.....	363
Testlar.....	397
Glossariy.....	430
Adabiyotlar ro’yxati.....	444